



Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

MUASSISLAR: Beruniy tuman hokimligi

"Tafakkur-tamaddun" OOO

"Beruniy avlodlari" jamoat fondi

HAMKORLARIMIZ:

O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Urganch davlat universiteti

TAHRIR HAY'ATI:

BOSH MUHARRIR:

Munavvara KURBANBAYEVA

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Anvar ALLAMBERGENOV

TEXNIK MUHARRIR:

Islombek ABDIKHAKIMOV

BO'LIM MUHARRIRI:

Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.

Qahramon QURONBOYEV, s.f.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)

Roman GOPAL, fil.f.f.d (PhD) (Hindiston)

Azizulloh AROL, fil.f.f.d (PhD) (AQSh)

Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)

Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)

Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)

Xəlil İsmayıl oğlu İsmayılov, t. f.d, prof. (Ozarbayjon)

Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Shoira NURULLAYEVA, t.f.n, dots

Konul Bunyadzoda, falsafa fanlari doktoru,

(AMEA) muxbir uzvu (Ozarbayjon)

Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.

Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.

Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, f.f.d., prof. (Ozarbayjon)

Azamat PRIMOV, fil.f.d., (DSc), prof.

Nasibullina Nurida Shaydullovna, fil.f.n. (Rossiya Federatsiyasi)

Sayyora SAMANDAROVA, fil. f.n, dotsent

Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n, dots (PhD)

Qabil MAMBETOV, fil.f.f.d (PhD)

Vahob RAHMONOV, f.f.n., dots

Farrux Abbas oglu Rustamov, p.f.d, prof. (Ozarbayjon)

Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d., prof.

Safo MATJONOV, p.f.d., prof.

Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)

Rana Hamid qızı Qadirova, psixol.f.d., prof. (Ozarbayjon)

Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilafuz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

BIZNI IJTIMOYIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:



JAMOATCHILIK KENGASHI:

Sirojiddin SAYYID

Muhammad ALI

Kengesboy KARIMOV

Iqbol MIRZO

Qurbon SHONIYOZOV

O'rozboy ABDURAHMONOV

Murotboy JUMANOV

Adabiy maslahatchi:

Guliston MATYOQUBOVA

Rassom:

Alibek ABDURAHMONOV

Sahifalovchi-bezovchi: G'iyosiddin O'NAROV

Manzilimiz: Qoraqalpog'iston Respublikasi,

Beruniy tumani.

Web-sayt: <https://jurnal.tamaddunnuri.uz>

e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.

Telegram kanali: <https://t.me/tamaddunnuri>

Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

Qog'oz bichimi 60x84 ¼. Nashriyot hisob tabog'i 28.

Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ

bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.

Bosishga 2025-yil 30-avgustda ruxsat etildi.

Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 28-uy. 2025-yil, 8-son (71).

Ushbu son "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining

kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №31.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri" dan olindi deb

izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning

to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan

qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga

qaytarilmaydi.



"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar

bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va

mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam

beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri"

jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola

berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a'zosi hisoblanadi va

10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy

maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.



Crossref

10.69691 DOI



ISSN-2181-8258



Impakt faktor-9.347



SLIB.UZ



Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine

Founders: Beruniy District Municipality

"Tafakkur-tamaddun" OOO

Public Foundation "Descendants of Berunius"

Our colleagues: Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Karakalpakstan division

Karakalpak State University

Urgench State University

EDITORIAL BOARD:

EDITOR-IN-CHIEF:

Munavvara KURBANBAEVA

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Anvar ALLAMBERGENOV

TECHNICAL EDITOR:

Islombek ABDIKHAKIMOV

SECTION EDITOR:

Mukaddas KURBANBAEVA

Akmal SAIDOV, y.sc.d., prof., Acad.

Qakhraman QURANBAYEV, s.sc.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)

Roman GOPAL, phil.sc.n. (PhD) (India)

Azizulloh AROL, phil.sc.n. (PhD) (USA)

Almagul BAYRIEVA, s.sc.d., (DSc)

Zuhra REYMOVA, y.sc.d., (DSc)

Karligash UMAROVA, y.sc.d., (DSc)

Xəlil İsmayıl oğlu İsmayilov, ist. sc.d, prof. (Ozarbayjon)

Anvar ABDULLAEV, ist.sc.d, dots.

Makset KARLIBAEV, t.f.d., k.i.x.

Kazimbek TUKHTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Shoira NURULLAEVA, c. of h. sciences, associate professor

Konul Bunyadzoda, Doctor of Philosophy,

(AMEA) Corresponding Member (Ozarbayjon)

Bakhtiyar KARIMOV, phil.sc.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, phil.sc.d.

Alima BERDIMURODOVA, phil.sc.d.

Zarifboy DOSIMOV, Phil.sc.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, f.sc.d., prof. (Ozarbayjon)

Azamat PRIMOV, Ph.D., (DSc), professor

Nasibullina Nurida Shaydullovna, can. of phil (Rossiya)

Sayyora SAMANDAROVA, associate professor, can.of phil.

Bekposhsha RAKHIMOVA, can. of phil.sc, dots (PhD)

Qabil MAMBETOV, phil.sc.n. (PhD)

Vahab Rakhmonov, f.sc.n., dots.

Farrux Abbas oğlu Rüstamov, p.sc.d, prof. (Ozarbayjon)

Kazakboy YOLDASHEV, p.sc.d., prof.

Safo MATJONOV, p.sc.d., prof.

Qakhraman IBADULLAEV, p.sc.d., (DSc)

Masharib ABDULLAEV, of art.sc.c., (PhD), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Odilbek RADJAPOV, phil.sc.d., (PhD)

Rana Hamid qızı Qadirova, Psychol.sc.d., prof.(Ozarbayjon)

Nargis ATABAEVA, Psychol.sc.d., (DSc)

Dilafroz QARSHIEVA, Psychol.sc.d., (DSc)

FOLLOW US ON SOCIAL MEDIA BELOW:



COMMUNITY COUNCIL:

Sirojiddin SAYID

Muhammad Ali

Kengesboy KARIMOV

Iqbal MIRZA

Kurban SHONIAZOV

Orozboy ABDURAHMANOV

Muratboy JUMANOV

Literary Advisor:

Gulistan MATYOQUBOVA

Painter:

Alibek ABDURAHMANOV

Page editor:

Ghiyaziddin O'NAROV

Our address: Republic of Karakalpakstan, Beruni district.

Website: <https://tamaddunnuri.uz>

e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.

Telegram channel: <https://t.me/tamaddunnuri>

Phone: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

The editorial board is an official member of Crossref DOI and has the prefix 10.69691 DOI. Each publication and scientific article is assigned an individual Crossref DOI number. Paper size 60x84 1/8. Publisher's scoreboard 28. The index is 960.

It was published in the printing house of "ADAD PLUS" LLC. The number is 300 pieces.

Chilonzor street, 28, Tashkent city. 2025, No.8 (71).

This issue was paged on the computer of "Tamaddun Nuri" editorial office. Order #31. When copying from the magazine, it must be noted that it was taken from "Tamaddun Nuri". The authors are responsible for the accuracy of the information in the text and advertisements. Manuscripts received by the editors will be edited, not reviewed, and not returned to the author.



"Tamaddun nuri" magazine is indexed in the Google Scholar base. This helps to increase the scientific prestige of the Journal and to promote the scientific work of the authors on a large scale.

Through Google Scholar, researchers and scientists will be able to search and link articles published in the Journal "Tamaddun nuri".



Crossref DOI-10.69691



ISSN-2181-8258



Impakt faktor-9.347






MUNDARIJA

07.00.00 - "TARIX"

Ibragimova Gulzoda Farxadovna. XIV asr 30-70-yillarida Xorazm vohasida kechgan siyosiy jarayonlar.....	9
Shomurodov Otajon Hamidovich. Xorazmshoh-Anushteginiylarning ko'chmanchilar dunyosi bilan munosabatlarida shaharlarning o'ri.....	13
Otaxonova Intizor Norimboy qizi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi islohotlar va o'zgarishlar.....	55
Ruzikulova Maftunaxon Yuldashevna. Markaziy Farg'onada irrigatsiya-melioratsiya tadbirlari (1950-1991 yillar).....	60
Turgunov Abduraxman Gulomjon o'g'li. Andijon suv ombori tarixidan.....	65
Qandov Bahodir Mirzayevich. Turkistonda boshqaruvni mahalliyashtirish va Turor Risqulovning davlatchilik islohotlari.....	104
Rajabova Zarnigor Alisher qizi, Bobojonova Feruza Xayatovna. O'zbekistonda ta'lim tarixi (Buxoro viloyati misolida).....	115
Joldasbaeva Gulnara Rashidovna. Qoraqalpoqlarda oshxona anjomlari evolyutsiyasi: an'analar va yangiliklar.....	163
Rizayev Baxtiyor Nazarboevich. O'zbekiston SSRda yangi yerlarni o'zlashtirish siyosatining ijtimoiy - iqtisodiy oqibatlari (1946–1956 yy.).....	172
Rahmatov Myrod Gайбуллаевич. Место Усмана Ходжи Полатходжаева в Бухарском джадидизме.....	184
Abuyev Husan Odilovich. O'zbekiston XX asr 80-yillari siyosiy-ijtimoiy tarixining sabab va oqibatlari.....	189
Матякубов Шоназар Собирович. Қўнғиротлар сулоласи илк хони Элтузархонга оид воқеотлар зикри (Комёбнинг "Таворих ул-ҳавонин" тарихий асари ва бошқа илмий манбалар асосида).....	211
Choriyev Jamshidjon Shokirjonovich. XX asr boshlarida O'zbekistonning janubi-sharqiy shaharlarida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va o'zgarishlar tahlili.....	216
Umarov Djamshed Sayitmuratovich. 1941-1990 – yillarda Surxondaryo viloyati maktablarida jismoniy tarbiya va sport ta'limi.....	219
Kadirova Yakitjan Buvabayevna. Mustaqillik yillarida O'zbekiston shaharlarida sog'liqni saqlash tizimi rivoji (Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari misolida).....	222
Sharifov Ehronbek Erkin o'g'li. Buxoro xonligi va amirligidagi sulolaviy krizis: sabab va oqibatlari.....	226
Xomidov Abror Xushniyozovich. XX asrning 50-80-yillarida O'zbekiston SSRda ta'limga bo'lgan munosabat.....	230
Ochilov Farxod E. Yangi O'zbekiston sharoitida Qashqadaryo viloyat tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sohasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar.....	242
Salimov Matyusuf Kodirberganovich. Muhammad Salim Oxunning Xiva xonligidagi lavozimlari.....	245



09.00.00 - "FALSAFA"

Xamdamova Sitora Safarovna. Qadimgi Ipak yo'li diplomatiyasi va uning kross-madaniyat rivojiga ta'siri.....	19
Doschanova Umida Eshchanovna. Komil Xorazmiyning tasavvufiy g'oyalari.....	23
Sobirov Xasan Abdullayevich. Globallashuv sharoitida barqaror taraqqiyot konsepsiyasining ma'naviy-axloqiy asoslari.....	32
Xamdamova Sitora Safarovna. Markaziy Osiyo xalqlari tarixiy taraqqiyotida kross-madaniyatini shakllanish va rivojlanish evolyutsiyasi.....	41
Inomov Avazbek Soyibjonovich. Ichki ishlar organlari tizimidagi islohotlarning ichki ishlar xodimlari ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni.....	47
Narziev Zubaydillo Ibodilloevich. Aziziddin Nasafiyning "Insoni komil kitobi" asarining tuzilishi va tasavvufiy-falsafiy tahlili.....	50
Muslimov Sherzod Akbarovich. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida oila haqidagi falsafiy muammolar talqini.....	78
Suvonqulov Husan Toirovich. Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy asari "Tanvir al-ahdoq" da axloqiy fikrlarning tizimli ifodalanishi.....	86
Obidov Asliddin Shavkatovich. Sa'd al-din al-Farg'oni merosida bag'rikenglikning falsafiy-germenevtik talqini.....	100
Maxmudov G'ayrat Xikmatilloevich. Virtual ekologiya – raqamli davrda tabiat va inson uyg'unligi falsafasi.....	109
Raxmatova Muxayyo Elboboyevna. Ekologik tahdidlar va ularning milliy falsafiy tafakkurdagi o'rni.....	112
Toshev Suhrob Mirzaqulovich. Yoshlarda g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitet hosil qilish.....	124
Abdulhayev Azizbek Abdurashid o'g'li. Vatanparvarlik tushunchasining tarixiy-falsafiy evolyutsiyasi va zamonaviy harbiy qadriyatlar.....	128
Jo'rayeva Nigora Avazovna. Giperreallik sivilizatsion paradigmasi doirasida bilimning simulyatsiyasi va transformatsiyasi.....	136
O'razmetov Mangubek Tursunbayevich. Sulaymon Boqirg'oni yashagan davr manzarasi: ijtimoiy-siyosiy muhit va tasavvufiy tafakkur shakllanishining metodologik asoslari.....	154
Gulova Anorgul Axtamovna. Alisher Navoiyning ijtimoiy-antropologik qarashlarida saxovat talqini.....	159
Sayfullayev Samarbek Dilshod o'g'li. G'arbiy Yevropada muhandislik to'g'risidagi qarashlarning evolyutsiyasi.....	208
Narzukulova Ferangiz Rustamjonovna. Lyudvig Vigteynshteyn falsafiy merosida axloqiy va mantiqiy tafakkur uyg'unligi.....	249
G'ulomova Ruxsora Bo'riyevna. Global ekologik muammolarning ijtimoiy-falsafiy tahlili.....	253
Pulatov Sherdor Nematjonovich. Mahatma Gandi qarashlarida kuch ishlatmaslik va insonparvarlik tamoyillari.....	311
Qurbonov Farhodjon Xabibloyevich. Meydzi falsafasida komillik va ma'naviyat: antropologik tahlili.....	314
Zoirova Sojida Umbarovna. Ijtimoiy-siyosiy g'oyalarning jamiyat ma'naviy sohasi bilan uyg'unligi.....	317
Ahmedov Husniddin Ixtiyorovich. Yangi O'zbekistonda ma'naviy tarbiyaning ijtimoiy roli.....	320
Sherboboyev Muxriddin Azimmurod o'g'li. Karl Popper dunyoqarashi shakllanishiga ta'sir qilgan omillar.....	323
Baymatov Alisher K. Buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashishda ijtimoiy ong xavfsizligi mexanizmlarining o'rni: ijtimoiy-falsafiy tahlil.....	326
Orziboyev Rustamjon. Yoshlarning g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirishda va mustahkamlashda musiqiy merosning o'rni.....	329
Hamrayev Bobomurod Shodavlatovich. Ma'rifatparvarlik an'analari va ularning zamonaviy ma'naviy-ma'rifiy islohotlardagi ahamiyati.....	332
Mahammadiyev Jamol Rustam o'g'li. Virtual tahdidlarning yoshlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashiga ta'siri.....	335
Xo'janova Tamara Jo'rayevna. Axborot urushi fan va falsafiy tahlilning obyekt sifatida.....	346

10.00.00 - "FILOLOGIYA"

Ro'zimova Guli Shuhratovna. "Oshiqnoma" turkum dostonlarida takrorlar badiiyligni ifodalovchi vosita sifatida.....	27
Atajonova Maloxat Ilxamovna. Tema va remaning og'zaki muloqotda tutgan muhim roli: G'afur G'ulomning «Shum bola» asari kontekstida fonetik va funksional-leksik tahlil.....	82
Pardayeva Nasiba Boyqobulovna. Ingliz va O'zbek tillarida neologizmlarning pragmatik xususiyatlari.....	89
Qaraqulov Azizbek Amonqulovich. Inson va tabiat munosabatlarining Mengziyo Safarov ijodiga ta'siri.....	141
Usmonova Shahodat Abdurahimovna. Feleton, ocherk, pamfletlar tarjimasining pragmatik aspekti: leksik, sintaktik va stilistik o'zgarishlar.....	144
Karshibayeva Yulduz Umar qizi. Ekvonimiya – tenglikni ifodalovchi lingvistik kategoriya sifatida.....	175
Maxammadov Bobir Isan o'g'li. Windows operatsion tizimi terminlarining lingvistik hamda madaniy moslashuv muammolari.....	179
Эшмуродов Мадамин. Abulg'oz Bahodirxon tarixiy asarlarining lingvistik tadqiqi.....	195
Norbayeva Shukurjon Xayitbayevna. Xorazm shevalari leksikasi va "Avesto".....	200
Matqurbonova Muxabbat Shokirovna. Kichik asarlarda qo'llangan sifatlashlarning funksional - uslubiy imkoniyatlari.....	234
Xudjayeva Ra'noxon M. Paronim va omonim so'zlar o'rtasidagi chalkashliklarning sabablari va ularni bartaraf etishning lingvistik asoslari.....	274
Allambergenov Anvar Erkabayevich. Beruniyning "Yodgorliklar" asarida ketirilgan she'riy parchalar xususida.....	278
Tuxtasinova MahliyoXon Shavkatjon qizi. Etimologik izlanishlar: L.Budagov lug'atidagi eski o'zbekcha hid nomlari.....	281
Mamatkulova Xurshida. Frazologik birliklar tarkibidagi leksik antonimlarning turlari.....	285

10.00.00 - "FILOLOGIYA"

Mirjonov Nosir Numonovich. O'zbek tilshunosligida stilistikaning tadqiq etilishi va uning dolzarb muammolari.....	288
Rahmonova Mahbuba Ravshanovna. O'zbek xalq marosimlari.....	291
Saparova Surayyo Baxtiyor qizi. Nutqiy akt strategiyalari.....	294
Muhammadjonov Fathiddin Muhiddin o'g'li. Hakim Termiziy sinonimiya nazariyasining arab tilshunosligidagi mavjud nazariyalardan farqi.....	297
Xudjayeva Ra'noxon Mutalibjonovna. Paronimlar va omonimlarning lingvistik farqlari: nazariy va amaliy tahlil.....	304
Karimboyeva Manzura. Antroponim va laqablarning o'rganilish tarixi.....	338
Abdusamatova Ozoda Xolmamat qizi. Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom qissasi" asarida insoniy fazilatlar talqini.....	342

12.00.00 – "YURIDIK FANLAR"

Xadjiyev Azizbek Kadambayevich. Xalqaro qonunchilikda ijtimoiy adolat tamoyilining nazariy-huquqiy ahamiyati.....	37
Расбергенова Сарбиназ Алишеровна. Система международно-правовых актов в сфере обеспечения права человека на благоприятную окружающую среду.....	120
Курбанбаева Айтгул Уралбаевна. Давлат ҳокимияти тизимида конституциявий назоратнинг модели: Қорақалпоғистон тажрибаси асосида.....	148
Dauletova Dinara Dauletovna. Viktimologik profilaktika jinoyatchilikka ta'sir ko'rsatishning yo'nalishlaridan biri sifatida.....	260

13.00.00 – "PEDAGOGIKA"

Rahmanov Uchqun. Talabalarda rasmiy matn yozish ko'nikma va malakalarini hosil qilish bosqichlari.....	41
Boymatov Baxrom Eshmatovich. Sinfdan tashqari tarbiyaviy faoliyat o'quvchilarning kreativ fikrlashni rivojlantirish mexanizmi sifatida.....	68
To'rayeva Dilnoza Ismoilovna. Axborotlashgan ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish.....	71
Anorov To'liq Norqochqorovich. STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining etnoekologik kompetentligini rivojlantirish.....	74
Xolmatova Fotima Baxtiyor qizi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida artpedagogika metodikasini qo'llash orqali nutq o'stirish faoliyatini tashkillashtirish asoslari.....	118
Kulmuradov Dilshod Istamovich. Generativ sun'iy intellekt yordamida bo'lajak muhandislarni adaptiv loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	132
Ахмадалиева Наргизахон Абдумалик кызы. Психолингвистическое исследование влияния возрастного фактора на грамматические и фонетические навыки в изучении английского языка.....	205
Xasanova Aziza Nurullayevna. Ona tili darslarida frazeologik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	238
Эшмирзаев Зиёдулла Олимжон ўғли. Амударёнинг табиий-географик таснифи.....	265
Prenov Barlikbay Barakbaevich, Matimova Xurliman Aleuatdinovna. Tarqaliwshí qatarlardí jýnawdín bazí usíllarí.....	269
Eshmirzayev Ziyodulla Olimjon o'g'li. Qarshi magistral kanalining Qashqadaryo irrigatsiya tizimini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati.....	301
Saydimova Mushtari Kurbondurdiyevna. O'quvchilarni qo'rquv va zo'rvonlikdan himoyalashda raqamli ta'limning o'rni.....	307
Xujanova Lobar R. Didaktik tushunchalar integratsiyasi va ularning sinergetik samarasi bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash misolida.....	350

19.00.00- "PSIXOLOGIYA"

Xudoyqulova Nazokat. Psixologik moslik va muvafaqqiyatli nikoh omillari: premarital psixotestlar samaradorligi.....	94
Xasanov Bobur Raximberganovich. O'smir shaxsida kasb tanlash motivatsiyasini shakllantirish psixologik muammo sifatida.....	256


Jurnal 2016-yil 28-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0843 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. O'zbekiston Respublikasi OAK tomonidan 2019-yil 30-yanvarda chop etilgan OAK rayosati qarorlari bilan tasdiqlangan ro'yxatga ko'ra 07.00.00 - "Tarix", 09.00.00 - "Falsafa", 10.00.00 - "Filologiya" ixtisosligi bo'yicha; OAK Rayosatining 2023-yil 31-oktyabrdagi 345-son qarori bilan 12.00.00 – "Yuridik fanlar", 13.00.00 – "Pedagogika", 19.00.00 – "Psixologiya" ixtisosliklari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.



TABLE OF CONTENTS

07.00.00 - "HISTORY"

Ibragimova Gulzoda Farkhadovna. Political processes in the Khorezm oasis in the 14th century 30-70s.....	9
Shomurodov Otajon Hamidovich. The role of cities in the relations of the Khorezmshah-Anushteginids with the nomadic world.....	13
Otakhonova Intizor Norimboy qizi. Reforms and changes in the higher education system of Uzbekistan.....	55
Ruzikulova Maftunakhon Yuldashevna. Irrigation and land reclamation events in central Ferghana (1950-1990).....	60
Turgunov Abdurakhman Gulomjon uglu. From the history of andizhan water reservoir.....	65
Kandov Bakhadir Mirzaevich. Localization of governance in Turkestan and state reforms of Turor Ryskulov.....	104
Rajabova Zarnigor Alisherovna, Babadzhanova Feruza Khayatovna. The history of education in Uzbekistan (a case study of Bukhara region)...	115
Joldasbaeva Gulnara Rashidovna. The evolution of kitchen utensils among the karakalpaks: traditions and innovations.....	163
Rizayev Bakhtiyor Nazarboevich. Socio-economic consequences of the virgin lands development policy in the Uzbek SSR (1946–1956).....	172
Rakhmatov Murod Gaybullayevich. The place of Usmon Khoja Polatkhojaev in the Bukhara jadidism.....	184
Abuyev Husan Odilovich. Causes and consequences of the political and social history of Uzbekistan in the 1980s.....	189
Matyakubov Shonazar Sobirovich. Reminder of events about the First Khan of the Kungirov dynasty, Eltuzar khan (based on komyob's historical work "Tavarikh ul-havonin" and other scientific sources).....	211
Choriyev Jamshidjon Shokirjonovich. Health care system in southeastern cities of Uzbekistan at the beginning of the 20th century: analysis of problems and changes.....	216
Umarov Djamshed Sayitmuratovich. Physical education and sports education in schools of Surkhandarya region in 1941-1990.....	219
Kadirova Yakitzhan Buvabayevna. Development of the health care system in cities of Uzbekistan in the years of independence (on the example of Surkhandarya and Kashkadarya regions).....	222
Sharifov Ehronbek Erkin oglu. Dynastic crisis in the Bukhara khanate and emirate: causes and consequences.....	226
Khomidov Abror Khushniyozovich. Attitude towards education in the Uzbekistan ssr in the 50s-80s of the 20th century.....	230
Ochilov Farxod Eshonovich. Measures implemented in the field of medical and social services in Kashkadarya region under the conditions of new Uzbekistan.....	242
Salimov Matyusuf Kodirberganovich. Muhammad Salim Ohun's Positions in the Khiva khanate.....	245



09.00.00 - "PHILOSOPHY"

Khamdamova Sitora Safarovna. Ancient silk road diplomacy and its impact on cross-cultural development.....	19
Doschanova Umida Eshchanovna. Suficial ideas of Kamil Khorazmi.....	23
Sobirov Khasan Abdullayevich. Spiritual and moral foundations of the concept of sustainable development in the context of globalization.....	32
Khamdamova Sitora Safarovna. Evolution of formation and development of cross-culture in the historical development of Central Asia.....	41
Inomov Avazbek Soyibjonovich. The role of reforms in the system of internal affairs bodies in improving the spirituality of internal affairs employees.....	47
Narziev Zubaydillo Ibodilloevich. Structure and sufi-philosophical analysis of Aziziddin Nasafi's work "The book of the Perfect man"	50
Muslimov Sherzod. Interpretation of philosophical problems of Family in the Works of Zahiruddin Muhammad Babur.....	78
Husan Toirovich Suvonqulov. The systematic expression of moral ideas in the works of Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy: an analysis based on the work "Tanvir al-ahdoq".....	86
Obidov Asliddin Shavkatovich. Philosophical-hermeneutical interpretation of tolerance in the legacy of Sa'd al-din al-Farghānī.....	100
Makhmudov Gayrat Khikmatilloevich. Virtual Ecology - Philosophy of Harmony between Nature and Man in the Digital Age.....	109
Rakhmatova Mukhayyo Elboboyevna. Ecological threats and their role in national philosophical thinking.....	112
Toshev Suhrob Mirzakulovich. Building immunity against ideological threats in youth.....	124
Abdulkhayev Azizbek Abdurashid ogli. Patriotism: historical-philosophical evolution and modern military values.....	128
Djurayeva Nigora Avazovna. Simulation and transformation of knowledge in the context of the civilizational paradigm of hyperreality.....	136
Urazmetov Mangubek Tursunbayevich. The period in which Sulaymon Bakirgoni lived: socio-political environment and methodological basis of the formation of sufic thought.....	154
Gulova Anorgul Akhtamovna. Interpretation of generosity in the socio anthropological views of Alisher Navoi.....	159
Sayfullayev Samarbek Dilshod ogli. Evolution of views on engineering in western Europe.....	208
Narzukulova Ferangiz. Harmony of moral and logical thinking in the philosophical heritage of Ludwig Wittgenstein.....	249
G'ulomova Ruxsora Bo'riyevna. Socio-Philosophical Analysis of global environmental problems.....	258
Pulatov Sherdor Nematjonovich. The teaching of ahimsa in the philosophical views of Mahatma Gandhi.....	311
Qurbonov Farhodjon Xabibloyevich. Perfection and spirituality in meiji philosophy: an anthropological analysis.....	314
Zoirova Sojida Umbarovna. The harmony of socio-political ideas with the spiritual sphere of society.....	317
Ahmedov Husniddin Ikhtiyorovich. The social role of spiritual education in New Uzbekistan.....	320
Sherboboyev Mukhriddin Azimmurod ogli. Factors that influenced the formation of Karl Popper's worldview.....	323
Baymatov Alisher K. The role of social consciousness security mechanisms in the fight against destructive ideas: a social-philosophical analysis.....	326
Orziboyev Rustamjon. The role of musical heritage in enhancing and strengthening the virtues of the ideal unity of youth.....	329
Hamraev Bobomurod Shodavlatovich. Enlightenment traditions and their significance in modern spiritual and educational reforms.....	332
Mahammadiyev Jamol Rustam ogli. The impact of virtual threats on the spiritual and moral worldview of youth.....	335
Khojanova Tamara Zhurayevna. Information war as an object of scientific and philosophical analysis.....	346

10.00.00 - "PHILOLOGY"

Ruzimova Guli Shuhratovna. Poetonyms as a linguistopoetical means in the "Oshiqnoma" series of epistles.....	27
Atajonova Malokhat Ilkhamovna. The important role of theme and rheme in oral communication: A Phonetic and Functional-Lexical Analysis in the Context of G'afur G'ulom's Work "Shum Bola".....	82
Pardayeva Nasiba Boykobilovna. Pragmatic features of neologisms in english and uzbek.....	89
Qaraqulov Azizbek Amonqulovich. The influence of human relationships and nature on the work of Mengyiyu Safarov.....	141
Usmonova Shahodat Abdurahimovna. Pragmatic aspect of translation of feletons, essays, and pamphlets: lexical, syntactic, and stylistic chang.....	144
Karshibayeva Yulduz Umar qizi. Eponymy as a linguistic category expressing equality.....	175
Bobir Makhhammadov Isan ogli. Linguistic and Cultural Adaptation Issues in Windows Operating System Terminology.....	179
Eshmurodov Madamin. Linguistic study of the historical works of Abulgazi Bahadur Khan.....	195
Norbayeva Shukurjon Khayitbayevna. Lexicon of Khorezm dialects and "Avesto".....	200
Matkurbonova Mukhabbat Shokirovna. Functional and stylistic potential of using epithets in short literary forms.....	234
Khudjaeva Ra'nokhon M. The causes of confusion between paronyms and homonyms and the linguistic basis for their elimination.....	274
Allambergenov Anvar Erkabayevich. On the poetic fragments cited in Beruni's "Monuments".....	278
Tukhtasinova Mahliyokhon Shavkatjon kizi. Etymological research: Old Uzbek odor names in L. Budagov's dictionary.....	281
Mamatkulova Khurshida. Types of lexical antonyms in phraseological units.....	285

10.00.00 - "PHILOLOGY"

Mirjonov Nosir Numonovich. The study of stylistics in Uzbek linguistics and its current problems.....	288
Rahmonova Mahbuba Ravshanovna. Uzbek folk rituals.....	291
Saparova Surayyo Bakhtiyor kizi. Speech Act Strategies.....	294
Muhammadjonov Fathiddin M. The Difference of Hakim Termizi's Theory of Synonyms from Existing Theories in Arabic Linguistics.....	297
Khudjayeva Ra'nokhon Mutalibjonovna. Linguistic Differences of Paronyms and Homonyms: Theoretical and Practical Analysis.....	304
Karimbayeva Manzura. History Of The Study Of Anthroponyms And Nicknames.....	338
Abdusamatova Ozoda Kholmamat kizi. The interpretation of human qualities in Togay Murod's work "The story of the evening when the horse knew".....	342

12.00.00. - "LEGAL SCIENCES"

Khadjiev Azizbek Kadambaevich. Theoretical-legal significance of the principle of social justice in international law.....	37
Rasbergenova Sarbinaz Alisherovna. System of international legal acts in the field of ensuring the human right to a healthy environment.....	120
Kurbanbaeva Aytgul Uralbaevna. Model of constitutional control in the system of state power: based on the experience of Karakalpakstan.....	148
Dauletova Dinara Dauletovna. Victimological prevention as one of the approaches to combat crime.....	260

13.00.00. - "PEDAGOGY"

Rakhmanov Uchqun. Stages of developing formal writing skills and skills in students.....	41
Boymatov Bakhrom Eshmatovich. Extracurricular educational activities as a mechanism for developing students' creative thinking.....	68
Turayeva Dilnoza Ismoilovna. Development of professional innovative competence of future primary school teachers in an information-based educational environment.....	71
Anorov Tolqin Norqochqorovich. Developing ethnoecological competence of primary school students based on the STEAM approach.....	74
Xolmatova Fotima Baxtiyor qizi. Basic fundamentals of organizing speech development activities through the application of art pedagogical methodology in preschool educational organizations.....	118
Kulmuradov Dilshod Istamovich. Pedagogical conditions for developing adaptive design competence in future engineers through generative artificial intelligence.....	132
Akhmadalievna Nargizakhon Abdumalik kizi. A psycholinguistic study of the influence of the age factor on grammatical and phonetic skills in learning English.....	205
Khasanova Aziza Nurullayevna. Pedagogical possibilities of forming phraseological competences in native language lessons.....	238
Eshmirzayev Ziyodulla Olimjon oglu. Natural-geographical classification of the amu darya.....	265
Prenov Barlikbay, Matimova Khurliman. Some methods of adding divergent series.....	269
Eshmirzayev Ziyodulla. The role and importance of the karshi main canal in the development of the irrigation system of Kashkadarya.....	301
Saydimova Mushtari Kurbondurdievna. The role of digital education in protecting students from fear and violence.....	307
Khuzhanova Lobar Raimkulovna. Integration of didactic concepts and their synergistic effect: the case of training future history teachers.....	350

19.00.00. - "PSYCHOLOGY"

Khudoyqulova Nazokat. Psychological compatibility and factors of a successful marriage: effectiveness of premarital psychotests.....	94
Xasanov Bobur Rakhimberganovich. Formation of professional choice motivation in adolescents as a psychological problem.....	256

The magazine was re-registered by the Press and Information Agency of the Republic of Uzbekistan on September 28, 2016 with the number 0843.

According to the list approved by the decisions of the Board of Education of the Republic of Uzbekistan published on January 30, 2019, 07.00.00 - "History", 09.00.00 - "Philosophy", 10.00.00 - "Philology" according to; 2023 of the HAC Board According to the decision No. 345 of October 31, 12.00.00. - "Legal Sciences", 13.00.00. - "Pedagogy", 19.00.00. "Psychology".

XIV ASR 30-70-YILLARIDA XORAZM VOHASIDA KECHGAN SIYOSIY JARAYONLAR


*Ibragimova Gulzoda Farxadovna, Urganch innovatsion universiteti tarix
fani o'qituvchisi*

POLITICAL PROCESSES IN THE KHOREZM OASIS IN THE 14TH CENTURY 30-70S

*Ibragimova Gulzoda Farkhadovna, teacher of history at Urgench
Innovation University*

ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ В ХОРЕЗМСКОМ ОАЗИСЕ В 30-70-ГОДЫ XIV ВЕКА

*Ибрагимова Гулзода Фархадовна, преподаватель истории
Ургенчского инновационного университета*



<https://orcid.org/0009-0006-3908-5381>

e-mail:

ibrahimovagulizoda@gmail.com

Annotatsiya: Xorazm vohasida XIV asr 30-70-yillarida kechgan siyosiy jarayonlar va qo'ng'iro't so'fiylari deb nom olgan sulolaning taxtga kelishi muammosi to'liq o'z yechimini topgan emas. Zero, mavjud yozma manbalar ma'lumotlari bu sulolaning Xorazmda XIV asrning 70-yillaridan Chig'atoy ulusining Amir Temur tomonidan tugatilishi voqealari ta'sirida vujudga kelganligi ta'kidlanadi. Shu jihatdan olganda, mazkur maqola ushbu mavzuga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Chig'atoy ulusi, Oltin O'rda, Qo'ng'iro't so'fiylari, Amir Temur, temuriylar, Xiva, Vazir, Tirsak, Yangishahar (Shemaxa-qal'a).

Abstract: The problem of the accession to the throne of the dynasty known as Kungirat Sufis in the Khorezm oasis has not been fully resolved. Because, according to the available written sources, this dynasty was created in Khorezm in the 70s of the 14th century under the influence of the events of the termination of the Chigatai dynasty by Amir Temur. However, even before that, the bells under the influence of the Golden Horde state were taking power in Khorezm, so it will be possible to solve this problem with the help of archaeological and numismatic sources. In this respect, this article is dedicated to this topic.

Key words: Ulus of Chigatai, Golden Horde, Kungrat Sufis, Amir Timur, Timurids, Khiva, Wazir, Tirsak, Yangishahr (Shemakha-kala), Adak (Ak-kala), Kumkend, Bagdadik.

Аннотация: Проблема восшествия на престол династии известных как Кунгиратских суфиев в Хорезмском оазисе до конца не решена. Потому что, согласно имеющимся письменным источникам, эта династия была создана в Хорезме в 70-х годах XIV века под влиянием событий прекращения династии Чигатая Амиром Темуrom. Однако еще до этого под влиянием золотоордынского государства кунгираты захватили власть в Хорезме, поэтому решить эту проблему можно будет с помощью археологических и нумизматических источников. В связи с этим данная статья посвящена этой теме.

Ключевые слова: Улус Чигатая, Золотая Орда, Кунгратские Суфи, Амир Тимур, Тимуриды, Хива, Вазир, Тирсак, Янгишехр (Шемаха-кала), Адак (Ак-кала), Кумкенд, Багдадик.

KIRISH (INTRODUCTION). Xorazmda yo'q. Ammo, manbalar tahlili, ularning Xorazmda qo'ng'iro't so'fiylari sulolasi qachon mustaqil idora boshqarishi XIV asrning boshlaridan boshlaganligi qila boshlaganligi to'g'risida aniq ma'lumotlar xususida to'xtamga keluvchi ma'lumotlar mavjud.

Jumladan, fors tarixchisi Rashididdin “Jome’ ut-tavorix” asarida Jo’ji ulusi tarkibidagi qo’ng’irot urug’iga mansub hamda ota tarafdin Chingizxonning xotini Burte Fudjen urug’idan bo’lgan Soljitoiy mulki Xorazm yaqinida bo’lgan[13;17,271]. Soljitoiy yana Oltin O’rda xoni To’xtaxonning onasi tarafidan bobosi hisoblangan. Bundan kelib chiqiladigan bo’lsa hamda Soljitoiyning Xorazm atroflarida (Shimoliy Xorazm ham kirgan bo’lsa kerak) boshqarganini hisobga olinsa, qo’ng’irot sulolasi Xorazmni deyarli XIV asrning boshlaridan boshqarib kelganlar. Bundan tashqari, rossiyalik tadqiqotchilar, D.M.Is’hoqov va I.L.Izmayilov, qozog’istonlik tadqiqotchi J.Sabitovlarning fikricha mashhur Xorazm amiri Qutlug’ Temur ham aslida qo’ng’irot urug’idan bo’lgan[14,154;19,589].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW). Keyingi o’rta asrlar mualliflarining asarlarida Xorazm (ko’proq Shimoliy Xorazm) shu davrning eng boy va iqtisodiy mavqei baland hududlardan biri sifatida tilga olinadi. Ammo, mo’g’ul istilosidan keyin to Xiva xoni Abulg’ozigacha yozilgan yozma manbalar juda kamligi va borlarida ham ushbu muammo bir taraflama yoritilganligi yaqqol ko’zga tashlanadi.

Xorazmning XIV asrning 30-70-yillari tarixi haqidagi yozma manbalarni ikki guruhga bo’lish mumkin: 1.Arab–fors tilidagi hamda eski o’zbek (chig’atoy) tilidagi manbalar. 2.Yevropa manbalari.

Bu mavzuga oid ma’lumotlar mavjud bo’lgan arab-fors tilidagi manbalar jumlasiga Rashidaddin Fazlulloh[17], Ibn Battuta[9], Ibn Arabshoh[8], Hamdulloh Mustavfiy Qazviniy[12], Shahobiddin al-Umariy[20,90-99], al-Bakuviy[2], Shayx al-Birzaliy[20,172-175], an-Nuviyriy [20,152], Ibn Xaldun [20,385-391] kabi arab-fors va temuriylar davrining Nizomiddin Shomiy [10;16], Sharofiddin Ali Yazdiy[22], Abdurazzoq Samarqandiy [1;11], Hofizi Abro’[5,74-98], Xondamir[21,159] kabi mualliflar asarlarida ham XIV-XV asrlar Xorazm vohasi siyosiy tarixi, jumladan, qo’ng’irot so’fiylari tarixi, ularning Amir Temur va Temuriylar sulolasi bilan munosabatlari

masalalari bilan bir qatorda, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar ham o’z aksini topgan.

Qo’ng’irot so’fiylarining Xorazmda taxtga kelishi muammosi masalasi bir qator tadqiqotlarda o’z aksini topgan. Ammo, bu mavzu bo’yicha yakuniy xulosalar chiqarilgan tadqiqotlar yo’q. Mazkur mavzu bo’yicha V.V.Bartold [3;4], V.G.Tizengauzen [20,90-99;152;172-175;385-391], B.I.Vaynberg [6,104-114], N.Ibrohimov[9], I.V.Zaytsev[7,238-255], D.M.Is’hoqov va I.L.Izmayilov[14], J.Sabitov[18,121-124;19,587-589], M.Sh. Qdirniyazov[15] kabi tadqiqotchilar tadqiqotlar olib borganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma’lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Xorazm vohasining XIV asrning 30-70-yillari tarixi yozma manbalarda ancha sust aks etgan hamda ancha kam o’rganilgan sahifalaridan biri hisoblanadi. Ammo, shu o’rinda alohida ta’kidlash lozimki, Oltin O’rda tarkibiga kirgan Shimoliy qism Xorazm tarixi, uning Chig’atoy ulusi tarkibiga kirgan qismiga nisbatan yozma manbalarda kengroq aks etgan.

XIV asrning 60-yillarida Xorazm yangi mustaqil davlat sifatida ajralib chiqdi. Biroq uning hukmdorlari Oltin O’rda xonlari bilan qarindoshlik iplari vositasida bog’langan edilar. Bu bevosita Xorazm voliysi, ko’zga ko’ringan amirlardan Nongadoy (musulmon manbalarida - Nanguday, Tangadoy Manguday, Namguday, Banguday, Yanguday, Venetsiya hujjatlarida – Nagadain) faoliyati bilan bog’liq. Muiniddin Natanziy va Nizomiddin Shomiy uni Xorazm hokimi deydishgan, Sharafiddin Ali Yazdiy esa, mazkur shaxsni qo’ng’irot qabilasi yetakchisi bo’lgan, deb yozadi. Demak, XIV asr 2-yarmida Xorazmda qo’ng’irotlar vakili hokimiyatni boshqargani ma’lum bo’ladi[22:72].

Qo’ng’irotlarning kelib chiqishi haqida fanda aniq ma’lumotlar yo’q. Ba’zi tadqiqotchilar ularning etnik kelib chiqishi mo’g’uliy urug’iga mansub bo’lgan deb hisoblasalar, ba’zi

tadqiqotchilar ularni turkiy urug'ga mansub deb hisoblaydilar. Ammo, yozma manbalarda qo'ng'irotlar Chingizxon mo'g'ul davlatida eng yuqori nufuzga ega qabila hisoblangan. Zero, Chingizxon va uning qarindoshlari qo'ng'irot qabilasi qizlariga uylanganlar. Xullas, qo'ng'irotlarning kelib chiqishi aniq emas, faqat ularning Xorazm vohasida mo'g'ul bosqinidan keyin kelib o'rtnashganliklari ma'lum. Chunki, mo'g'ullar davlati tashkil topganda, qo'ng'irotlar Xorazm bilan birga Jo'chi ulusi tarkibiga kirgan edilar.

Qo'ng'irotlar vakillari nafaqat Xorazmning, balki butun Oltin O'rda siyosiy-ma'muriy tizimida ma'lum mavqega egalik qilgan. Chunonchi, 13 yilda Oltin O'rda taxtini egallagan O'zbekxonning eng yaqin kishisi uning qarindoshi, qo'ng'irot Qutlug' Temur bo'lgan. Qutlug' Temurning ukasi Qrimdagi Azoq shahri hokimi edi [18, 121].

1335-yilda Qutlug' Temur vafot qilganidan so'ng amirlardan biri Nongadoy Xorazmni boshqara boshladi. Bu holat yuqoridagi fikr, ya'ni Qutlug' Temurning qo'ng'irot urug'idan bo'lganligi haqiqatga yaqinligini ko'rsatadi.

Ammo, Qutlug' Temurdan farqli ravishda Nongadoyning ham, umuman qo'ng'irot so'fiylari sulolasi vakillari ham dabdabali unvonlarga ega bo'lmaganlar (jumladan Qutlug' Temur: "Quadratli malik, arab va arab bo'lmagan hukmdorlar homiysi, dunyo va iymonning ulug'vorligi, islom va musulmonlarning buyukligi" unvoni bilan ulug'langan edi). Ibn Battutaga ko'ra, Nongadoy hatto buyuk amir unvoniga ega bo'lmasdan oddiy amir bo'lgan, xolos. Uning vorislari esa so'fiy unvoni bilan boshqargan bo'lib, tadqiqotchilar fikricha, so'fiy nisbasi bu yerda faqat urug' yetakchilari ismiga qo'shib aytilgan bo'lib, agar mazkur hukmron urug' vakili bo'lgan taqdirda ham boshqaruvchi huquqiga ega bo'lmagan bo'lsa so'fiy nisbasi qo'shilmagan [6,109-110].

Husayn So'fi Jo'chi avlodidan bo'lgan Jonibekning singlisiga uylangandi, qizi Kabak xotun xonning to'rt xotinidan ikkinchisi edi. U Oltin O'rdada kechgan siyosiy vaziyatdan foydalanib o'z mavqegini mustahkamlab oldi.

Xorazmga voliy bo'lgan Husayn so'fi, 14 - asrning 60 - yillarida Oltin O'rdadagi siyosiy paro-

kandalik chog'ida Xorazmda so'filar sulolasiga asos soldi. Ko'p o'tmay Chig'atoy ulusidagi tarqoqlikdan foydalanib, Xorazmning janubi-sharqiy qismini ham qo'shib oldi [22:72]. Undan keyingi voqealardan Xorazmning Amir Temur davlatiga kiritilgani va XV asr davomida mazkur viloyat Temuriylar davlati tarkibida bo'lganini ko'ramiz. Xorazm shu davrda Amir Temur va Temuriylar davlati tarkibidagi viloyat bo'lishiga qaramasdan, uning tarixiy chegaralaridagi yaxlitligi saqlangan va kattagina hudud siyosiy- ma'muriy jihatdan Xorazm tarkibiga kirgan. Ta'kidlab o'tilganidek, XIV asrning 60-yillarida Husayn So'fi Oltin O'rda xonligida avj olgan feodal nizolardan foydalanib, Xorazmda hokimiyatni qo'lga olgandi va o'z nomidan tanga ham zarb etdi. Temuriylar davri manbalarida u Xorazm hokimi (*voliy*) deb qayd etilgan. Agar Xorazm Jo'chi ulusi tarkibida viloyat mavqeida ekanligi hamda uni hokim boshqarganini hisobga oladigan bo'lsak, u holda bu yerda o'sha an'ananing davom etganini ko'ramiz.

Amir Temurning Xorazmga beshinchi yurishida Xorazm hukmdori Sulaymon So'fi qochib To'xtamish huzuriga borgani va Qunduzchadagi jangda uning lashkar amirlaridan bo'lgani ma'lum[22:119].

Chunonchi To'xtamishxon lashkari tarkibida Alibek qo'ng'irot va Navro'z qo'ng'irot ismli sarkardalar ham bo'lgan[22:109,130,137].

Shunday qilib, Xorazmni qisqa muddat (1361-1388 yillarda) boshqargan qo'ng'irot so'fiylari sulolasi hali bu bilan tugamadi. Bu sulola vakillari Xorazmda XVI asrning boshlarigacha yuksak mavqeni egallab kelganlar hamda XVIII asrning 80-yillariga kelib Xorazmda yana hokimiyatni egallaganlar.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS).

Yuqoridagilardan umumiy xulosa chiqaradigan bo'lsak, XIII asr 20-yillaridan to XIV asr 50-yillarigacha Xorazm vohasi mo'gullar tomonidan ikkiga bo'lib boshqarilgan: Shimoliy Xorazm Oltin O'rda davlati tarkibiga, Janubiy Xorazm Chig'atoy ulusi tarkibiga kirgan. Ammo, afsuski bu davrlar Xorazm tarixi juda sust tadqiq qilingan. Chunki yozma manbalar ma'lumotlari kamligi, mavzuni

to'laqonli ravishda ochib berish imkoniyatini bermaydi. Shu jihatdan olganda, XIII – XV asrlar Xorazm siyosiy tarixi, Xorazmda qo'ng'irotlar sulolasining hokimiyatga kelishi hamda ular davrida Xorazm siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixi masalalari kam o'rganilgan hamda kelgusida chuqur tahlil asosida o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

(REFERENCES):

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъус-садаи ва мажмаъул-бахрайи. / Масъул мухаррирлар: А.Қаюмов, Муҳаммад Али. – Т.: O'zbekiston, 2008. Ж. II, Қ.1: 1405 – 1429 йил воқеалари. – 632 б.
2. Ал-Бакувӣ, 'Абд ар-Рашид. Китāб Талхис ал-ссār ва аджāиб ал-малик ал-каххār: (сокращение [книги о] Памятниках и чудеса царя могучего) / издание текста, перевод, предисловие, примечания и приложение З.М.Буниятова. – Москва: Наука, 1971. 192 с.
3. Бартольд В.В. Дорожник от Бистами до Куня Ургенча. – Соч. Т.3. – М.: Наука, 1963. – С.260-268.
4. Бартольд В.В. Сведения об аральском море и низовьях Амударьи с древнейших времён до XVIII в. – Сочинения. Т.3. – М.: Наука, 1963. – 712 с.
5. Бартольд В.В. Хафиз-и Абру и его сочинения // Сочинения, Том VIII. Работы по источниковедению. М.:Наука.1973.С. 74-98.
6. Вайнберг Б.И. К истории Кунгратских Суфи // Полевые исследования Хорезмской экспедиции в 1957 г. М.: Наука, 1960. С. 104–114.
7. Зайцев И.В. К истории золотоордынских кунгратов в Хорезме и в Крыму: эмир Нангутай // Тюркологический сборник 2013–2014: Памяти С.Г.Кляшторного / ред. кол. Т.Д.Скрынникова (пред.), Т.И.Султанов, В.В.Трепавлов. – М. : Наука – Вост. лит., 2016. – С. 238-255.
8. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-макдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида такдир ажойиботлари). –Т., Мехнат, 1992. – 326 б.
9. Иброхимов Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга сайёҳати. –Т., Шарқ баёзи, 1993. – 104 б.
10. Извлечения из Зафар-намэ Низам-ад-дина Шами // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.І. VII-XV вв. Арабские и персидские источники (далее МИТТ) // Под ред. С.Л.Волина, А.А.Ромаскевича и А.Ю.Якубовского. – С.514-523.
11. Извлечения из Матлаъас-са'дейн Абд-ар-раззака Самарканди / МИТТ, т.І. – С.531-535.
12. Извлечения из Нузхат ул-кулуб Хамдаллаха Казвини // МИТТ, т.І. – С.506-511.
13. История Казахстана в персидских источниках. –Т.4. –Алматы: Дайк-Пресс, 2006. – 620 с.
14. Исхаков Д.М., Измайлов И.Л. Этнополитическая история татар (III - середина XVI вв.). Институт истории АН РТ. – Казань: Школа, 2007. – 356 с.
15. Кдырнязов М.-Ш. Материальная культура городов Хорезма в XIII- XIV веках. – Нукус: Каракалпакстан, 1989. – 176 с.
16. Низомиддин Шомий. Зафарнома.Форс тилидан ўгирувчи Ю.Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул мухаррир А.Ўринбоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 544 б.
17. Рашид ад-Дин Сборник Летописей. т.1 ч. 2. –Москва: Наука, 1952. –281 с.
18. Сабитов Ж.М. Кунгираты в восточном Дешти-Кипчаке в XIII–XV веках // Вестник Евразийского Национального Университета. Астана. 2012. №3(88). С. 121–124.
19. Сабитов Ж.М. Происхождение Кутлук-Тимура, эмира хана Узбека // Молодой ученый. – 2016, № 1 (105). – С. 587-589.
20. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. Том 2. Москва; Ленинград: Академия наук СССР, 1941.– С.90-99, 152,172-175, 385-391.
21. Хондемир. История монголов. От древнейших времен до Тамерлана / Пер. с перс. и авт. предисл., примеч. В.В.Григорьев. – СПб.: Типография Карла Крайя, 1834. – XII, 159 с.
22. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома // Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А.Аҳмад, Ҳ.Бобобеков.–Т.:Шарқ, 1997.– 384б.

XORAZMSHOH-ANUSHTEGINIYLARNING KO'CHMANCHILAR DUNYO SI BILAN

MUNOSABATLARIDA SHAHARLARNING O'RNI

*Shomurodov Otajon Hamidovich, Urganch innovatsiya universiteti
tarix fani o'qituvchisi*

THE ROLE OF CITIES IN THE RELATIONS OF THE KHOREZMSHAH-ANUSHTEGINIDS WITH THE NOMADIC WORLD

*Shomurodov Otajon Hamidovich, teacher of history at Urgench
Innovation University*

РОЛЬ ГОРОДОВ ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ ХОРЕЗМШАХОВ-АНУШТЕГИНИДОВ С КОЧЕВЫМ МИРОМ

*Шомуродов Отажон Хамидович, преподаватель Ургенчского
инновационного университета*

Annotatsiya: IX–XIII asrlar davomida Xorazm vohasi Buyuk

Ipak yo'lining eng asosiy chorrahasi sifatida shimolda ko'chmanchilar dunyosi, o'g'uzlar davlati va keyinchalik saljuqiylar bilan munosabatlarida benihoya katta rol o'ynaganligini yozma manbalar ma'lumotlari va arxeologik tadqiqotlar natijalari hamda numizmatik manbalar ma'lumotlari ham to'liq tasdiqlaydi. Ammo, bu o'rinda Xorazm vohasining IX–XIII asrlar davomida o'g'uzlar davlati va keyinchalik saljuqiylar bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalari masalasi kam o'rganilgan dolzarb muammolardan biri hisoblanib, yanada kengroq tarixiy tadqiqotlarni talab qiladi. **Mazkur maqola shu mavzuga bag'ishlangan.**

Kalit so'zlar: Xorazmshohlar sulolalari, o'g'uzlar, Yangikent, Jand, Ashanas, Ibn Fadlan, Istaxriy, Maqdisiy, V.V.Bartold, Y.A.Yakubovskiy, S.P.Tolstov.

Abstract: Written sources, archaeological research results, and numismatic sources fully confirm that the Khorezm oasis, as the main crossroads of the Great Silk Road, played a significant role in the relations of the nomadic world in the north, the Oghuz state, and later the Seljuks, as well as the information from numismatic sources. However, the issue of the political and economic relations of the Khorezm oasis with the Oghuz state and later the Seljuks during the IX-XIII centuries is one of the most understudied urgent problems and requires more extensive historical research. This article is devoted to this topic.

Key words: the dynasties of Khorezmshahs, Oghuz, Yangikent, Jand, Ashanas, Ibn Fadlan, Istakhri, Maqdisi, V.V. Bartold, Y.A. Yakubovsky, S.P. Tolstov.

Аннотация: Письменные источники, результаты археологических исследований, нумизматические источники полностью подтверждают, что Хорезмский оазис, как главный перекресток Великого Шелкового пути, играл значительную роль в отношениях кочевого мира на севере, государства Огузов, а позднее Сельджуков, а также сведения нумизматических источников. Однако вопрос политических и экономических связей Хорезмского оазиса с государством Огузов, а позднее Сельджуков в IX-XIII вв. является одной из самых малоизученных актуальных проблем и требует более обширного исторического исследования. Данная статья посвящена этой теме.

Ключевые слова: династии хорезмшахов, огузы, Янгикент, Джэнд, Ашанас, Ибн Фадлан, Истахри, Макдис, В.В.Бартольд, Ю.А.Якубовский, С.П.Толстов.



<https://orcid.org/0009-0004-5883-5999>

e-mail:
otojonshomuratov29@gmail.com

KIRISH (INTRODUCTION).

Xorazmning geografik joylashuv o'ri, bu vohaning juda qadimdan qo'shni ko'chmanchi qabilalar bilan aloqalarning har tomonlama va o'ziga xos jihatdan rivojlanishiga shart-sharoit yaratgan.

Xorazmning ko'chmanchilar bilan o'zaro aloqalari muammosi ilmiy tadqiqotlarda hamma vaqt katta o'rin egallab kelgan.

Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tomonidan Sirdaryo quyi oqimlarida, O'zboy bo'ylari va Kaspiy ortida olib borilgan ko'p yillik tadqiqotlar bu o'lkaga qo'shni ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalarning tarixiy jarayonning turli davrlarida Xorazm bilan uzviy madaniy va siyosiy, ayniqsa, savdo-sotiq aloqalarida bo'lib kelganliklarini tasdiqlaydi. So'nggi yillarda Ustyurtda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari ham shundan dalolat beradi

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW).

Xorazmning ko'chmanchilar dashti bilan savdo aloqalari turli tadqiqotchilar tomonidan bir necha bor ko'rib chiqilgan. Mashhur sharqshunos V.V.Bartold hali 1922-yildayoq ishonch bilan: "Xorazm o'z boyliklarini islom davrida yanada taraqqiy qilgan ko'chmanchilar bilan bo'ladigan savdo aloqalari orqaligina orttirgan; bu savdo asosan Xorazmning shimolida jamlangan edi...", - deya ta'kidlagan edi [5,14-19].

Ko'chmanchilar bilan bo'lgan savdo aloqalarini o'rganishiga katta hissa qo'shgan A.Yu.Yakubovskiy shuni ta'kidlab o'tgan edi: "O'rta Osiyo hayotida ko'chmanchilar bilan bo'ladigan savdo Sharqiy Yevropa bilan olib boradigan savdo munosabatlaridan kam rol o'ynamagan. Butun bir hududlar aynan shu mahsulot ayirboshlash ta'siri ostida rivojlanganlar. Xorazm iqtisodiy va siyosiy jihatdan faqat Sharqiy Yevropa bilan bo'lgan savdo ta'sirida emas, balki ko'chmanchi turkman va o'g'uz dashtlari bilan bo'lgan savdo orqali ham o'sgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy

ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). O'g'uz qabilalari o'zlarining asosiy mahsulotlari bo'lmish chorva mahsulotlarini eng avvalo Xorazm vohasi shaharlariga olib kelganliklari yozma manbalarda to'liq o'z aksini topgan. Har qanday holatda ham, shu davr O'rta Osiyo yirik shaharlaridan biri, Shimoliy Xorazm poytaxti – Urganch o'zining asosiy boyligini o'sha ko'rsatilgan o'g'uzlar bilan bo'lgan savdo aloqalari orqali to'plagan, ko'chmanchilar Urganch bozorlariga chorva mollari, jun va teri olib kelib, uning evaziga sholi, non, gazlamalar va metall buyumlar olib ketganlar[18,15]. Xorazmning ko'chmanchilar bilan bo'lgan savdosining ahamiyati juda katta bo'lganligini IX-X asrlar arab-fors manbalari ham bir necha bor ta'kidlaganlar. Istaxriy X asrdayoq, Xorazmda savdo aloqalarining, ayniqsa, ko'chmanchilar bilan bo'ladigan savdo aloqalarining kengayganligi to'g'risida shunday degan edi: "Ularning (xorazmliklarning) mamlakatida oltin yo'q, kumush konlari yo'q, qimmatbaho toshlar to'g'risida esa so'z ham bo'lishi mumkin emas; boylikning katta qismini turklar bilan savdodan va mol boqib ko'paytirishdan topadilar"[3,180]. Buni boshqa manbalar (Maqdisiy, Ibn Rusta, Ibn Fadlan, Gardiziy va boshqalar) ham tasdiqlaydi. V.V.Bartold va A.Yu.Yakubovskiyning ko'chmanchilar bilan savdo aloqalarining IX-XIII asr boshlarigacha bo'lgan davr Xorazm iqtisodiyotidagi muhim o'ri haqidagi, yozma manbalarga asoslanib bildirgan fikrlarini arxeologik tadqiqotlar natijalari ham to'la tasdiqlaydi.

Xullas, X asrdan boshlab Buyuk Ipak yo'li yo'lining shimoliy tarmog'ida savdo aloqalarining ahamiyati yildan yilga oshib borgan.

Qadimgi sak va massaget qabilalari yashagan hududlarda va shu qabilalarga III-VIII asrlar davomida turli xil turkiy qabilalarning kelib qo'shiluvi natijasida vujudga kelgan o'g'uz hamda pecheneg qabilalari bilan Xorazm o'rtasidagi savdo aloqalari qay tarzda bo'lganligini ularning

ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'rganish bilan ham aniqlik kiritish mumkin.

IX asr oxirida o'g'uzlarda o'ziga xos davlat vujudga kelib, uning poytaxti Yangikent bo'lgan. Bu davlat Sirdaryo havzasi hamda Orol dengizi bo'yida hukm surgan. Bu davlat Kaspiy dengizining shimoli-sharqidan to Emba daryosigacha bo'lgan yerlarda istiqomat qiluvchi bijanaklarning bir qismini (ularning ikkinchi qismi, o'g'uzlarning siquvi natijasida Rus dashtlariga ko'chib ketganlar va "pecheneg" deb nomlanganlar) va o'z qabilalarini o'z tasarrufiga olganlar. O'g'uzlarning asosiy qismi Sirdaryoning quyi va o'rta oqimi hamda sharqiy va shimoli-sharqiy Orol bo'yiga yondashgan keng yaylovlarda yashagan.

Sirdaryo bo'ylab Yangikent (Jonkent), Jand va Sig'noq kabi bir nechta boy shaharlar joylashgan. Ammo X asr arab manbalarida o'g'uzlar ko'chmanchi chorvador qabila sifatida tasvirlanib, yuqoridagi shaharlardan birortasiga ham o'g'uzlar asos solmaganliklari tasdiqlangan. 922-yilda Ustyurt shimolida bo'lgan Ibn Fadlan ham, "Hudud-al-Olam"ning noma'lum muallifi ham o'g'uzlarni shahar hayotini bilmaydigan ko'chmanchilar sifatida tasvirlaydilar. Balki, Jand, Sig'noq va Yangikent shaharlariga Xorazm, So'g'd va Shosh savdogarlari qadimdan dasht aholisi bilan olib borgan qizg'in savdo aloqalari jarayonida asos solgan bo'lishlari ham mumkin. Ammo XI-XII asr manbalari va bu hududlarda keyingi paytda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari o'g'uzlarni juda ko'p shaharlarga ega, dehqonchilik madaniyati bilan shug'ullangan qabila bo'lganligi, faqat ularning bir qismi ko'chmanchilik turmush tarzi bilan hayot kechirganligini ko'rsatadi. Masalan, al-Idrisiy va Mahmud Qoshg'ariy kabi mashhur mualliflar o'z asarlarida o'g'uzlar yerida shaharlar ko'p bo'lganligini ta'kidlaydilar.

"G'uzlarning shaharlari ko'p, ular sharq va g'arbga tomon birining ketidan ikkinchisi cho'zilib ketgan", -deb yozadi al-Irdisiy. U ko'pgina katta-kichik shaharlarni sanab o'tib, ular yaxshi mustahkamlangan va ajoyib bozorlari hamda mo'l-ko'l mahsulotlarga ega ekanligini yozadi [2,220]. Mahmud Qoshg'ariy Sirdaryodagi

bir talay o'g'uz shaharlarini sanab ko'rsatish bilan kifoyalanib qolmay, o'zining xaritasida Quyi Sirdaryo havzasini "G'o'z" shaharlari to'plangan bir muzofat tariqasida ifodalaydi [12,312].

1946-yilda va 1959-1961-yillarda Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi Sirdaryoning o'g'uzlar yashagan Janidaryo va uning irmog'i Inkardaryo, hamda Quvondaryo tarmoqlari bo'ylarida olib borgan arxeologik tadqiqotlar natijasida, bu yerda Keskanquyuqqal'a, Sarlitomqal'a, Zangarqala Ashanas va Uygarak kabi yodgorliklar ilmiy ravishda o'rganildi. Pirovardida shu narsa aniq bo'ldiki, bu yodgorliklarga o'g'uzlarning o'zlari asos solganlar. Yodgorliklarning atrofidan kanallar va dalalar qoldiqlari topilganligi bu yerda ko'p asrlar davomida dehqonchilik qilinib kelganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari bu yodgorliklardan turli xil hunarmandchilik ustaxonalari qoldiqlari, zargarlik, kulolchilik, to'qimachilik buyumlari topildi. Ko'pgina olimlar ushbu o'g'uz shaharlarining vujudga kelishida, ularning Xorazm bilan bo'lgan savdo aloqalari yotadi, degan fikrni bildirmoqdalar [14,55-102; 15,281-282; 16,259-266; 13,95-100]. Bijanak-pecheneg qabilalari to'g'risida ham shu fikrni bildirish mumkin. Ularning bir qismi o'troq aholining (xorazmliliklar, so'g'dlar, shoshliklar) kuchli ta'siri ostida bo'lib, faol savdo-sotiq aloqalari olib borganlar.

Ammo har qanday holatda ham, bizga Xorazmning o'g'uzlar va boshqa ko'chmanchi qabilalar bilan savdoning qay holatda, qanday hajmda bo'lganligini to'liq aniqlash muhimdir. Yana manbalarga va arxeologik ma'lumotlarga murojaat qiladigan bo'lsak, ko'chmanchilar bilan bo'ladigan savdoda Kat, Gurganj, Mizdahqon, Madminiya (Bug'roxon) va Git (Puljoy) kabi savdo shaharlari eng muhim markazlari bo'lib, Kat bilan Gurganj deyarli barcha manbalarda guzlar Turkistoniga kiruvchi darvoza sifatida eslatiladi [3,178; 4,216].

O'g'uz davlatidan o'troq viloyatlar va hunarmandchilik shaharlariga, ayniqsa, Amudaryoning quyi oqimida joylashgan Xorazm hududlariga qish-u yoz faqat otar-otar qo'ylar va

qoramollar haydab kelingan yoki faqat chorvachilik xom ashyosi olib kelingan, desak xato qilgan bo‘lamiz. Masalan, shu vaqtda Sig‘noq shahrida yasalgan kamonlar va uning o‘qlari butun Sharqda juda xaridorgir bo‘lganligi manbalarda eslatiladi. Arxeologik tadqiqotlar ham Uygarak, Sarlitomqal‘a va Jand shaharlaridan topilgan hunarmandchilik buyumlarining juda sifatli yasalganligini tasdiqlaydi [13,98-101; 15,281-282].

Xorazmdan ko‘chmanchilarga, asosan, qimmatbaho ip va ipak matolar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, qurol va yarog‘lar yetkazib berilgan. Xolijon degan joydan esa ko‘p miqdorda baliq ovlanib, u ham ko‘chmanchilarga olib borilgan[3,179-180]. O‘g‘uzlar hududidagi Jand shahri Kat, Gurganchdan kam bo‘lmagan darajada savdo aloqalarida katta rol o‘ynagan. Bu shahar, ayniqsa Xorazmshohlar davrida juda yirik savdo va hunarmandchilik markaziga aylangan. Jandning XI-XIII asrlar davomidagi, ya‘ni Mo‘g‘ul bosqinigacha bo‘lgan davrdagi yirik savdo shahri sifatidagi ahamiyati shu darajada yuksak bo‘lganki, hatto Orol dengizi ham, ba‘zan Jand dengizi deb nomlangan[13,122].

Umuman, Xorazmning Sirdaryoning quyi havzasi va Orol bo‘yi ko‘chmanchilari bilan bo‘ladigan savdosi, ko‘pincha uchta savdo yo‘li orqali amalga oshirilgan. Xorazm savdo shaharlaridan chiqib, Orol dengizi yoqalab, shimoli-sharq tarafga, o‘g‘uzlar poytaxti Yangikentga va Jand shaharlariga olib boruvchi savdo yo‘li, bu uchala savdo yo‘lidan eng muhimi bo‘lib, undan keyin ikkinchi o‘rinda turuvchi yo‘l, Beltov qirlaridan janubroqdan o‘tib, Janidaryo bo‘ylari orqali o‘g‘uzlarning qolgan shaharlariga – Sig‘noq, Ashanas, Sarlitomqal‘aga yetib borgan.

Uchinchi yo‘l esa Ustyurt qirlari orqali o‘tib, bijanaklar, qipchoqlar, o‘g‘uzlar yurtiga olib borgan. Bu yo‘l arab-fors manbalarida Zamjon yoki “Bob-at-turk” – “Turklar darvozasi” rabotidan boshlangan. Ko‘proq Sharqiy Yevropaga olib boruvchi yo‘l bo‘lgani uchun bu yo‘l juda serqatnov bo‘lgan. Ammo bu yo‘l haqida mavzumizning Xorazm – Sharqiy Yevropa aloqalariga bag‘ishlangan quyiroqdagi bo‘limida batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

O‘g‘uzlar davlatining X asr birinchi choragida qipchoqlar tomonidan yo‘q qilinishi oqibatida, o‘g‘uzlarning bir qismi Rus dashtlariga ketib qolgan, bir qismi esa Movarounnahrda ko‘chib o‘tib, saljuqiylar davlatiga asos solgan bo‘lsalar, yana bir qismi qipchoqlar bilan aralashib ketganlar.

Ammo bu jarayon, umuman, XI-XII asrlardagi Movarounnahr va Xorazmdagi siyosiy jarayon Xorazmning ko‘chmanchilar bilan bo‘ladigan savdosiga hech qanday ta‘sirini o‘tkaza olmadi. Avvalgi savdo yo‘llari, ilgari ko‘chmanchilar dunyosi va shaharlari o‘z faoliyatini davom qildirgan. Faqat endi o‘g‘uzlar emas, qipchoqlar boshliq turli-tuman ko‘chmanchilar bu savdoda asosiy rol o‘ynay boshlagan. Xorazmning shimoli-g‘arbida ko‘chmanchilar bilan olib borilgan qizg‘in savdo aloqalari, karvon yo‘llarining xavfsizligining ta‘minlashni talab qilganligini ta‘kidlash kerak, albatta. 1946 va 1952-yillarda S.P.Tolstov tomonidan, 1971-1975-yillarda V.N.Yagodin rahbarligidagi O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpoq filiali arxeologiya bo‘limi xodimlari tomonidan Ustyurt platosining Sharqiy qirlaridagi arxeologik yodgorliklarda olib borilgan tadqiqot ishlari ham buni to‘la tasdiqlaydi. Ustyurtning Sharqiy qirlaridagi bu arxeologik tadqiqotlar natijasida turli-tuman hajmdagi minoralar, karvonsaroylar, aholi manzilgohlari topildi va o‘rganildi. Bu yodgorliklar ichida, ayniqsa minoralar katta qiziqish uyg‘otadi. Ammo ularning yomon saqlanganligidan, ular qanday vazifalarni bajarganliklari to‘g‘risida turlicha fikrlarning yuzaga kelishiga olib keldi. Bu minoralar Sharqiy Yevropa va ko‘chmanchilar bilan bo‘ladigan savdo yo‘llarida turli xil masofada, Ustyurt qirlariga chiqish qulay bo‘lgan balandliklarda joylashgan. S.P.Tolstov bu minoralarni ko‘chmanchilar hujumidan voqif qiluvchi signal mayoqlari vazifasini bajargan degan fikrni bildirgan [15,249; 16,264]. Bu fikr 1971-1975-yillardagi arxeologik tadqiqotlargacha shu mavzuga bag‘ishlangan ko‘pchilik tadqiqotchilar (V.N.Yagodin, Ye.B.Bijanov, A.V.Gudkova, S.G.Agajanov) asarlarida ham o‘z

aksini topgan edi [1,148; 6,56; 8, 141; 9, 154; 11, 70; 17,95].

Ammo keyingi yillardagi tadqiqotlar bu fikrning noto'g'riligini ko'rsatmoqda. To'g'ri, ko'chmanchilarning o'troq aholi yashaydigan hududlarga bosqinchilar yurishlari uyushtirib turganliklarini ham rad qilib bo'lmaydi.

Lekin Istaxriy ko'rsatib o'tganidek, boyligining katta qismini ko'chmanchilar bilan bo'ladigan savdodan topuvchi xorazmliklarga qaraganda bu savdodan ko'proq ko'chmanchilar manfaatdor bo'lganliklari ma'lumdir. Buni X-XV asrlar manbalari ham to'la tasdiqlaydi.

Shuning uchun ham, bu o'rinda yuqoridagi minoralarning qanday maqsadda qurilganligi to'g'risidagi masalada, bizni o'g'uzlar, umuman ko'chmanchilar bilan bo'lgan shiddatli kurash sharoitiga olib kiruvchi fikr, haqiqatga unchalik to'g'ri kelmaydi.

Ustyurt sharqiy qirlaridagi minoralar o'z joylashuv o'rniga ko'ra ko'proq, savdo aloqalarining xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilgan. Ularning aksar qismi Amudaryo irmoqlari bo'ylab joylashganki, bu daryo irmoqlarida suzuvchi kemalarga o'z yo'nalishlarini to'g'ri belgilab olish imkonini bergan. Bu minoralarning Ustyurt qirlarining ancha qiyaroq, chiqish qulay bo'lgan balandliklarida joylashganligi esa endi karvonlarning ana shu qulay joylarni aniqlab harakatlanishiga imkon bergan.

Xullas bu minoralar, umuman karvon yo'lidagi turli-tuman karvonsaroilar, sardobalar va aholi manzilgozlari kabi yodgorliklar Xorazmning Sharqiy Yevropa, ayniqsa, ko'chmanchilar bilan bo'lgan savdoning ancha rivojlanganini ko'rsatadi. A.Yu.Yakubovskiy fikricha, bu dashtlardan (Dashti Qipchoqdan) X asr somoniylar davridagidan ham XI-XII asrlarda ko'p karvonlar o'tgan [10,283].

Buning ustiga Xorazmshohlar – anushteginlar davlatining vujudga kelishi va uning jahon imperiyasiga aylanishi natijasida ko'chmanchilar dunyosi bilan bo'ladigan savdo o'zining eng rivojlangan bosqichiga kirdi. Jand Xorazmshohlar davlatining eng muhim markazlaridan biriga aylandi, Sulton Takash faqat

Jand shahri uchun taalluqli farmon chiqargan edi. Unda bu yerda savdo-sotiq ishlariga hech qanday to'sqinlik qilmaslik, savdogarlarning mol va hayotini turli tajovuz va suiqaatlardan himoya qilishni, qanday qilib bo'lsa ham, amalga oshirish uqtirilgan edi. Bu farmonning o'zi Jand shahrining Xorazmshohlar uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini yaqqol ko'rsatadi[7,62].

Ammo mo'g'ul bosqini natijasida bu savdo-sotiqning rivojiga chek qo'yildi – savdo yo'llaridagi aloqalar keskin darajada kamayib ketdi, Sig'noq, Quyuqkeskanqal'a, Jand, Ashanas, Sarlitomqal'a, Uygarak shaharlari huvillab qoldi. Oltin O'rda va qisqa vaqt Amir Temur davrida bu savdo yo'llarida bir oz jonlanish kuzatilsa-da, baribir o'zining ilgarigi darajasiga ko'tarila olmadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS).

Yuqoridagilardan umumiy xulosa chiqaradigan bo'lsak, Xorazm vohasining IX – XIII asrlar davomida o'g'uzlar davlati va keyinchalik saljuqiylar bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalari masalasini o'rganish juda katta ahamiyatga ega bo'lib, eng avvalo, Xorazm vohasining shu asrlardagi siyosiy tarixining ham ko'pgina qirralarini ochib beradi. Shu jihatdan olganda, Xorazm vohasining IX – XIII asrlar davomida o'g'uzlar davlati va keyinchalik saljuqiylar bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalari masalasi kam o'rganilgan hamda kelgusida chuqur tahlil asosida o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

1) Xorazm vohasi shaharlarining o'g'uzlar yurti bilan savdo munosabatlarida poytaxt Gurganch shahri muhim o'rin egallagan. Ammo, bu shaharning o'g'uzlar bilan munosabatlaridagi o'rni masalasi haligacha to'liq o'rganilmagan muammolardan biri hisoblanadi. Zero, Gurganch shahri o'g'uzlar davlatining shakllanishi, taraqqiyoti hamda kelgusida saljuqiylar davlatining vujudga kelishida ham muhim siyosiy markaz bo'lgan.

2) O'g'uzlar bilan savdo munosabatlarida Gurganchdan tashqari, Git, Safardiz, Ardaxushmisan, Puljoy, Kat, Kardor, Kardoronxos kabi shaharlar ham Xorazm

vohasining savdo aloqalarida alohida mavqega ega bo'lganlar. Ammo, bu shaharlar ham na arxeologik, na manbaviy jihatdan o'rganilmagan. Bu shaharlarni tadqiq qilish orqali esa, Xorazm vohasining avvalo o'g'uzlar, qolaversa, saljuqiylar davlati bilan munosabatlari qay darajada bo'lganligini, saljuqiylar davlatining keyinchalik buyuk davlatga aylanishida, va aksincha saljuqiylar davlatining anushteginiylar davlatining shakllanishi va buyuk davlatga aylanishidagi o'z rni masalasi o'z yechimini topgan bo'lardi.

3) Umuman olganda, arxeologik manbalar Xorazmdagi sulolalarning o'g'uzlar va keyinchalik saljuqiylar bilan munosabatlari masalasini to'liq ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi hamda o'g'uzlar – xorazmshohlar va saljuqiylar – xorazmshohlar munosabatlari xususida muayyan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Агаджанов С.Г. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX-XIII вв. Ашхабад: Ёлым, 1969. – 295 с.
2. Аль-Идриси. Нўзхат ал-муштак фи-ихтирак ал-афак // Материалы по истории туркмен и Туркмении (далее МИТТ). Т.1. – М. – Л.: Наука, 1939. – С.219-221.
3. Ал-Истахри. Китаб месалик ал-мемалик // Материалы по истории туркмен и Туркмении (далее МИТТ). Т.1. – М. – Л.: Наука, 1939. – С.178-181.
4. Ал-Макдиси. Ахсан ат-такасим фи маърифат ал-акалим. // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.1. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. М.-Л.: Наука, 1939. – С.185-189, 202-203, 206.
5. Бартольд В.В. История Туркестана. – “Труды Туркестанского Государственного Университета”. Вып.2. –Т.: 1922. – С.14-19.
6. Бижанов Е.В. Юго-Восточный Устюрт. Некоторые итоги и перспективы археологического изучения. // Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР, 1970, №3. – С. 65–71.
7. Буниёдов З. Ануштагин-Хоразмшоҳлар давлати (1097-1235 й.й.) – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997. –256 б.
8. Гудкова А. В. Ток-кала. – Ташкент: Наука, 1964. – 153 с.
9. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Ташкент: Изд-во Акад. наук УзССР, 1957. – 314 с.
10. Манылов Ю.П. Некоторые вопросы исторической топографии Северо-Западного Хорезма и торговых отношений с юго и восточной Европой и кочевниками // В кн.: Древняя и средневековая культура юго-Восточного Устюрта. – Т.: Фан, 1978. – С.273-285.
11. Манылов Ю.П. Сигнальные башни Султанауиздага // Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР. 1969. № 3. – С. 65–71.
12. Махмуд Кашкарский. Диван лугат ат – Тюрк // Материалы по истории туркмен и Туркмении (далее МИТТ). Т.1. – М. – Л.: Наука, 1939. – С.310-314.
13. Очерки истории Каракалпакской АССР. С древнейших времен до 1917 г. / В 2-х томах. Т.1. [Под ред. С.П.Толстова и др.]. – Ташкент: Наука, 1964. – 429 с.
14. Толстов С.П. Города гузов (Историко-этнографические этюды) //СЭ., 1947, №3. – С.55-102.
15. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Изд-во вост.лит. – 324 с.
16. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Т.: Фан, 1964.- 440 б.
17. Ягодин В.Н. Маршрутные археологические исследования в левобережной части Приаральской дельты Аму-Дарьи. // МХЭ, вып.7. – М.: Наука, 1963. – С. 73-97.
18. Якубовский А.Ю. Феодалное общество Средней Азии и его торговля с Восточной Европой в X-XV вв. МИУТТ, ч.1. -Л.: 1932. – 65 с.

ANCIENT SILK ROAD DIPLOMACY AND ITS IMPACT ON CROSS-CULTURAL DEVELOPMENT

*Khamdamova Sitora Safarovna, Doctor of Philosophy (PhD),
Associate professor, Senior teacher, Academy of The Ministry of
Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan*

QADIMGI IPAK YO'LI DIPLOMATIYASI VA UNING KROSS-MADANIYAT RIVOJIGA TA'SIRI

*Xamdamova Sitora Safarovna, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi
katta o'qituvchisi, dotsent, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)*

ДИПЛОМАТИЯ ДРЕВНЕГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА КРОСС-КУЛЬТУРНОЕ РАЗВИТИЕ

*Хамдамова Ситора Сафаровна, старший преподаватель
Академии министерства внутренних дел Республики
Узбекистан, доцент, доктор философии по философским
наукам (PhD)*



<https://orcid.org/0000-0002-0798-938X>

e-mail:
[sitoraxamdamova92@gmail.com](mailto: ritoraxamdamova92@gmail.com)

Abstract: The article examines the Great Silk Road as a link between the culture, history and art of Central Asia and Europe. The Great Silk Road is revealed as a primary reality that determined the exchange of culture, scientific achievements and art between Central Asia and Europe.

Key words: Great silk road, spread and mixing of religions, a great civilization, Lazurite road, a vehicle of cultural creativity, deeper cooperation, long-distance overland caravan.

Annotatsiya: Maqolada Buyuk ipak yo'li Markaziy Osiyo va Yevropa madaniyati, tarixi va san'atini bog'lovchi yo'l sifatida ko'rib chiqilgan. Buyuk ipak yo'li Markaziy Osiyo va Yevropa madaniyati, ilm-fan yutuqlari, san'ati almashinuviga sabab bo'lgan birlamchi voqelik sifatida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Buyuk Ipak yo'li, dinlarning tarqalishi va qorishishi, buyuk sivilizatsiya, lojuvard yo'li, madaniy ijod vositasi, yaqin hamkorlik, uzoq masofali quruqlik karvoni.

Аннотация: В статье рассматривается Великий Шёлковый путь как связующее звено между культурой, историей и искусством Центральной Азии и Европы. Великий Шёлковый путь раскрывается как реальность, обусловившая обмен культурой, научными достижениями и искусством между Центральной Азией и Европой.

Ключевые слова: Великий шелковый путь, распространение и смешение религий, великая цивилизация, Лазуритовый путь, средство культурного творчества, более глубокое сотрудничество, дальний сухопутный караван.

INTRODUCTION. Since the concept of "Seidenstrassen" or "Silk Roads" was first invented by the German geologist and explorer Baron Ferdinand von Richthofen in 1877, the "Silk Road" has been used as a metaphor of European and Asian cultural interchange. While largely commercial, the

Silk Road provided the vehicle for all sorts of creative exchange between tremendously diverse peoples and cultures. Given the Silk Road's symbolic meaning of sharing and exchange, it is somewhat paradoxical that the desire to control its namesake commodity, silk, was so strong. The

ancient Chinese guarded the secret of silk production for centuries. The Ottoman Turks and the Persians fought a war over it. The English and French competed to restrict its markets. But despite such attempts, silk moved across the planet with remarkable ease and was a vehicle of cultural creativity wherever it went. The degree of borrowings and choosing of techniques and patterns, the invention and discovery of uses and styles is incredible. Every culture that touched silk added to its adornment of humanity[5].

MATERIALS AND METHODS. Today, in an effort to study our history and the roots of our culture, many scientists are studying the emergence of the Great silk road and its role in the region. After all, finds from sources and excavations provide valuable information about the ancient culture, art and history of the peoples of Central Asia. This helps to reveal the true essence of cultural diversity.

Most today would agree that Richthofen's original concept was too limited in that he was concerned first of all about the movement of silk overland from east to west between the "great civilizations" of Han China and Rome. The routes of exchange and products were many, and the mix changed substantially over time. The history of the Silk Roads is a narrative about movement, resettlement, and interactions across ill-defined borders but not necessarily over long distances. It is also the story of artistic exchange and the spread and mixing of religions, all set against the background of the rise and fall of polities which encompassed a wide range of cultures and peoples, about whose identities we still know too little. Many of the exchanges documented by archaeological research were surely the result of contact between various ethnic or linguistic groups over time[1].

The Great silk road was used not only for the distribution of trade goods, but also for the religions and cultures of different peoples, and it also served as a route connecting the cultures of the East and West. Evidence of trade in ancient Chinese silk has been found in archaeological excavations in Central Asian Bactria (currently the region around Balkh and Mazar-i-Sharif, Afghanistan) dating to about 500 B.C.E. Strands of silk have been found in

ancient Egypt from about 1000 B.C.E., but these may be of Indian rather than Chinese origin. Alexander the Great, who ruled much of the known world from the Mediterranean to India in the late 4th century B.C.E., wore robes of deep purple-dyed silk. The silk was probably from China, which the Greeks knew as Seres – the place where serikos or silk was made – and made optimum use of the rare and expensive purple dye that was produced by the Phoenicians of Tyre from the secretions of sea snails. Yet, in the West, knowledge of silk and its trade were relatively limited. So, too, in the Far East. Sericulture was carried to Korea by Chinese immigrants in about 200 B.C.E. Though silk was extant in Japan at the turn of the millennium, sericulture was not widely known there until about the 3rd century C.E. Conventionally, historians refer to three periods of intense Silk road trade:

1) from 206 B.C.E. to 220 C.E., between the Rome;

2) from about 618 to 907 C.E., between Tang dynasty China and Central Asia, Byzantium, the Arab Umayyad and Abbasid empires, the Sasanian Persian Empire, and India, and coinciding with the expansion of Islam, Buddhism, Assyrian Christianity, Zoroastrianism, Manichaeism, and Judaism into Central Asia;

3) during the 13th and 14th centuries, between China, Central Asia, Persia, India, and early modern Europe, made possible by Mongol control of most of the Silk Road. Some would add a modern Silk Road period, beginning in the 19th century with the "Great Game" - the competition between Russian and British colonial powers for influence over Central Asia - and extending through today[5].

Scholars have divided the Silk Road into three periods based on chronological data. The main reason for this is that each period was accompanied by new changes. Each period, being unique, also contributed to the development of dialogue, relations and communication between people in all areas. On the evidence of these explorers' reports, Britain, France, Germany, America and Russia now all launched archaeological expeditions to explore the Tarim Basin. They realized that here possibly

might lie vital evidence on how East and West had been linked by the Silk Route. The Japanese too sent explorers, who hoped to discover how Buddhism had reached their country. What the archaeologists found was to exceed their wildest expectations. Digging through the sand, they uncovered the relics and treasures from the oasis cities which had once formed the essential links along the Silk Route between north-west China and the Pamir Mountains. A Buddhist culture, which few people knew had existed, was revealed. For instance, at Dunhuang the Hungarian-British explorer Sir Aurel Stein discovered a priceless collection of Buddhist manuscripts and paintings of the Tang Dynasty which had been bricked up in a cave since 1000 CE[6]. To understand the Silk road more deeply, we have the opportunity to support our ideas with solid evidence, mainly through archaeological finds that confirm the harmony of ideas, cultures and religions.

RESULTS AND DISCUSSION. From Han China to Rome. In 198 B.C.E., the Han dynasty concluded a treaty with a Central Asian people, the Xiongnu. The emperor agreed to give his daughter to the Xiongnu ruler and pay an annual gift in gold and silk. By the 1st century C.E. silk reached Rome, initiating the first “Silk Road”. Pliny, writing about silk, thought it was made from the down of trees in Seres. It was very popular among the Romans. People wore rare strips of silk on their clothing and sought more; they spent increasing amounts of gold and silver, leading to a shortage in precious metals. Coinciding with the development of ruling elites and the beginnings of empire, silk was associated with wealth and power – Julius Caesar entered Rome in triumph under silk canopies. Over the next three centuries, silk imports increased, especially with the Pax Romana of the early emperors, which opened up trade routes in Asia Minor and the Middle East. As silk came westward, newly invented blown glass, asbestos, amber, and red coral moved eastward. Despite some warnings about the silk trade’s deleterious consequences, it became a medium of exchange and tribute, and when in 408 C.E. Alaric the Visigoth besieged Rome, he

demanded and received as ransom 5, 000 pounds of gold and 4, 000 tunics of silk[5].

The contacts that took place along the Great Silk Road were based on mutual agreements, and the strict requirements established in them applied to both sides. Movement is life, travel, globalization has always been the driving force of development. This intercontinental trade route, the largest in human history, connected Europe and Asia and in the past stretched from the ancient Roman state to Nara, the ancient capital of Japan. Of course, trade between the East and the West had been carried on since ancient times, sunk in the depths of the past, but these were isolated parts of the future Great Road. The formation of trade relations was greatly helped by the discovery and mining of semi-precious stones in the mountains of Central Asia – lapis lazuli, nephrite, agate, and turquoise, which are highly valued in the East. For example, there was a “lazarite road” that supplied lapis lazuli from Central Asia to Iran, Mesopotamia and even Egypt. At the same time, the “jade road” was formed, which connected Khotan and Yorkend districts with the regions of North China. In addition, agate stones were brought to the countries of East Asia from Sogdiana and Bactria, and turquoise was brought from Khorezm. All these directions eventually merged into the Great Silk Road. Historians believe that the real beginning of the great road, which connected the caravan routes from Central Asia to the West and South, and the roads leading from China to Eastern Turkestan, is in the middle of the second century BC[3].

It would not be wrong to say that the Great Silk Road was a historical trade route that connected the East and the West, transported goods, provided an opportunity to study the cultures of peoples, caused the migration of different nationalities from one region to another and contributed to the development of trade.

The Silk Road has historical significance as a well trodden trade route connecting Eastern Europe and Africa to Southern and Eastern Asia, encompassing the geographical region known as Central Asia or Eurasia. Traditionally, it carried silk produced in the Chinese city of Chan’an (now Xian,

capital of the Shaanxi province), apart from other trade goods, to far off European cities. It spanned a 7,000 mile long route over land and water, through towns and cities in Northern India, Central Asia and Parthian empire to the farthest extent of Roman Empire[2].

Today, a number of countries are interested in continuing the idea of the Great Silk Road, which is gaining momentum due to its historical roots and past, since economic cooperation serves to ensure close interaction between countries.

The Silk Road Economic Belt (the 'Belt') component of the Belt and Road Initiative proposed by China in 2013 is an ambitious vision that has evoked enthusiasm among many stakeholders. Among other objectives, the Belt intends to promote infrastructural development and connectivity, and stimulate economic integration across the Eurasian continent. Europe is an integral part of China's transcontinental vision, and the European Union (EU) has its own vested interests in the Belt – as the EU–China Connectivity Platform demonstrates. Beyond direct economic engagement, the Belt could also function as an entry point for deeper cooperation between the EU and China on a range of issues related to global and regional governance[4]. The development of trade and commerce led to the development of interpersonal relationships. The use of markets, religious sites, entertainment venues and hotels brought different peoples closer together and allowed them to get to know other cultures.

Absorbed by the movement of people, religions, and trade goods, we rarely pause to consider how the long-distance overland caravan trade affected the communities through which it passed. Traders must have frequented inns, religious sites, markets, and financial institutions, we suppose, but in fact we know surprisingly little about the day-to-day functioning of the oasis economies ringing the Taklamakan Desert. For those interested in understanding the Silk Road trade of the Tang dynasty, the Turfan oasis offers the best case study. The century from 640 (the Tang conquest of the independent Gaochang kingdom) to 755 (the Tang withdrawal from Central Asia

following the An Lushan rebellion) marks the apogee of the Tang dynasty's involvement in Central Asia. Nearly two thousand documents span the period before Tang rule and continue after 640, when Gaochang was renamed Xizhou[7].

CONCLUSION. In conclusion, it should be noted that the Great Silk Road contributed to the following processes:

culture developed and improved due to the high level of trade;

the existence of this trade route contributed greatly to the spread of Buddhism in other regions;

merchants from European countries, Greece and Arab countries lived for a long time along the Great Silk Road to study the culture and economy of the peoples inhabiting this region.

REFERENCES:

1. Daniel C. Waugh. The Silk Roads in History. P. 9. www.penn.museum/expedition
2. Khalid Rahman. New Silk Road Initiative and Pak-China Relations. https://www.scienceopen.com/document_file/e6436589-efbf-42c8-8a6f-909feb684037/ScienceOpen/42909301.pdf
3. M.S. Karimova. Historical developing the great silk road. International scientific and practical conference cultural echoes on the Silk Road: bridging historical legacies with modern tourism. 2024.
4. Richard Ghiasy And Jiayi Zhou. The silk road economic belt. Considering security implications and EU–China cooperation prospects. Sweden. 2017. <https://www.sipri.org/sites/default/files/The-Silk-Road-Economic-Belt.pdf>
5. Richard Kurin. The Silk Road: Connecting People and Cultures. 2002. https://folklife-media.si.edu/docs/festival/program-book-articles/FESTBK2002_07.pdf
6. The End of the Silk Route. Chapter six. The Decline of Overland Trade. <https://en.unesco.org/silkroad/sites/default/files/knowledge-bank-article/the%20end%20of%20the%20silk%20route.pdf>
7. Valerie Hansen. The Impact of the Silk Road Trade on a Local Community: The Turfan Oasis, 500-800. <https://history.yale.edu/sites/default/files/files/hansen-silk-road-trade.pdf>

KOMIL XORAZMIYNING TASAVVUFİY G'UYALARI

*Doschanova Umida Eshchanovna, Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari
nomzodi*

SUFICIAL IDEAS OF KAMIL KHORAZMI

*Doschanova Umida Eshchanovna, Associate Professor, Urgench
State University named after Abu Rayhon Beruni, Candidate of
Philosophy*

СУФИЙСКИЕ ИДЕИ КАМИЛЯ ХОРЕЗМИ

*Досчанова Умида Эшчановна, доцент Ургенчского
государственного университета имени Абу Райхона Беруни,
кандидат философских наук*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Komil Xorazmiy dunyoqarashida islom dini, tasavvuf ta'limoti, Sharq falsafasi to'g'risidagi fikrlar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: moddiy va ma'naviy boylik, islom ta'limoti, islom falsafasi, kalom falsafasi, shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat, shaxs va jamiyat munosabatlari, barkamol shaxs.

Abstract: This article reflects the views of Kamil Khorezmi on the worldview of Islam, the teachings of Sufism, and Eastern philosophy.

Keywords: material and spiritual wealth, Islamic teachings, Islamic philosophy, philosophy of the word, Sharia, tariqat, enlightenment, truth, relations between the individual and society, a perfect person.

Аннотация: В статье отражены взгляды Камиля Хорезми на мировоззрение ислама, учение суфизма и восточную философию.

Ключевые слова: материальные и духовные ценности, исламское учение, исламская философия, философия слова, шариат, тарикат, просвещение, истина, отношения личности и общества, совершенный человек.

KIRISH. Insonning mohiyati, jamiyatda tutgan o'rni, jamiyat va umuman, insoniyat olami bilan munosabati, jamiyat va Alloh oldidagi burchi, ma'naviy qiyofasi kabi masalalar Qur'onning qator oyatlarida, hadislarida, fiqh (musulmon huquqshunosligi) va shariat ahkomlarida turli jihatlardan talqin qilingan¹. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, Qur'on oyatlarida barkamol shaxs muammosiga bir necha jihatlardan yondashiladi. Chunonchi, uning jismoniy holatini nazarda tutgan holda, unga fiziologik mohiyat nuqtayi nazaridan

qarovchi oyatlar bilan birga, uning ruhiy va ma'naviy holatlarini nazarda tutuvchi ijtimoiy mohiyat sifatida talqin qiluvchi qator oyatlar mavjud. Insonni fiziologik mohiyat sifatida talqin qilingan oyatlarda inson boshqa maxluqot-u mavjudotlardan hech qanday afzalligi yo'q. Chunki, u ham boshqa maxluqotlar singari Alloh tomonidan "tuproq"dan, "loy"dan, "balchiq"dan, umuman, moddiy unsurlardan yaratilgan va yana moddiy unsurga aylanadi. "U insonni (Odamni) sopol yanglig' obdon quritilgan loydan yaratdi"².



<https://orcid.org/0000-0002-0967-8753>

e-mail:
umida19790524@gmail.com



¹ Бурхониддин Марфиний. Ҳидоя. – Тошкент: Адолат, 2002. Т.1. – 117 б.

² Куръони карим. Таржима ва тафсир муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. Масъул муҳаррир: Баҳром Абдуҳалимов. – Тошкент: Тошкент ислом

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ammo, bunday oyatlarga ayrim islom mualliflari ta'kidlaganidek, insonga nisbatan haqorat, insonni kamsitishga qaratilgan oyatlar, deb qaramaslik kerak. Eng avvalo, ushbu oyatlarning axloqiy va tarbiyaviy tomonlariga e'tibor qaratmoq zarur. Bu oyatlarning yuksak ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ahamiyati haqida tadqiqotchi M.O.Usmonov shunday yozadi: "Qur'on oyatlarida inson boshqa maxluqotlar kabi moddiy unsurdan yaratilganligi va bu jihatdan uning boshqa maxluqotlardan afzal emasligi ta'kidlanadi. Chunki, u ham boshqa maxluqotlar singari Alloh tomonidan yaratilgan ("Maxluq" degan so'z "yaratilgan" degan ma'noni anglatadi), odam ham boshqa hayvonlar kabi bir hayvondir ("hayvon" – jon egasi degan ma'noni anglatadi). Lekin, insonni mana shunday sof biologik-fiziologik mohiyat sifatida talqin qilgan Qur'on oyatlari ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ya'ni, bu oyatlarni shunday tushunmoq kerakki, inson oddiy bir moddiy unsurdan yaratilgan ekan, u hech mahal insonlarga nisbatan jabr-sitam qilmasligi, kibr-havoga berilmasligi kerak, iloji boricha xoksor, mehr-shafqatli bo'lishi kerak"³. Xuddi shu ma'noda har qanday insonning jamiyatda tutgan o'rnidan qat'iy nazar, fiziologik, jismoniy jihatdan avvalda ham, oxirda ham bir xil kelib chiqqanligi va bir xil taqdirga ega ekanligi ta'kidlanadi. Yuqorida eslatib o'tganimiz, tadqiqotchi M.Usmonovning ta'kidlashicha, shunday ekan, inson bu dunyoda boylikka, mansabga, nufuzga, baxt-saodatga erishishi ham, shu bilan birga, muhtojlikka, nochorlikka yo'liqishi ham mumkin. Ammo, bu narsa bir guruhning ikkinchi bir guruh odamlar ustidan zulm va adolatsizlikka yuz o'girishiga, uchinchi guruhning esa, tushkunlikka tushib, hayotdan chetlashishiga olib kelmasligi kerak. Bunda podsho-yu gadoning, boy-u kambag'alning, amaldor-u fuqaroning bir-biridan afzalligi yo'q, ularning intihodagi taqdirlari bir xildir.

MUHOKAMA. Endi, shaxsni ijtimoiy mohiyat sifatida talqin etuvchi Qur'oni Karim

университети, 2007. Ар-Рахмон сураси, 14 оят. – 531 б.

³Yoldoshev S., Usmonov T., Qodirov M. Ajdodlarimiz merosi – mafkuramiz gavhari. – Toshkent:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. – B.36-37.

oyatlariga kelsak, uning asosiy tamoyili "laqad karramno bani odama" ("biz odam bolalarini albatta hurmat-ehtiroimli qildik") degan oyatda o'z ifodasini topgan.

Shu nuqtayi nazardan, shaxs hamma maxluqotning eng afzali, xudoning yerdagi xalifasi hisoblanadi. Chunki, Alloh insonga buyuk ne'mat bo'lgan ongni, aqlni bergan. Inson mana shu ne'mat tufayli hayvondan farq qiladi. Shu nuqtayi nazardan, insonga boshqa maxluqotlar sajda qilmog'i kerak. Buning isboti sifatida Qur'oni Karimning bir necha oyatlarida farishtalarning ham Odam Atoga sajda qilganligi va faqat shaytongina kibr-havoga berilib, insonga sajda qilishdan bosh tortganligi va buning uchun la'natlanib, jannatdan quvilganligi haqidagi oyatlarni keltirish mumkin.

Ushbu fikrlarimizning isboti sifatida, Qur'oni Karimdan bir necha oyatlarni keltirib o'tmoqchimiz. "Darhaqiqat, biz Odam farzandlarini (aziz va) mukarram qildik va ularni... o'zimiz yaratgan ko'p jonzotlardan afzal qilib qo'ydik"⁴, "Ey, insonlar! Darhaqiqat, biz sizlarni bir erkak (Odam) va bir ayol (Havvo) dan yaratdik hamda bir-birlaringiz bilan tanishishingiz uchun sizlarni (turli-tuman) xalqlar va qabila (elat)lar qilib qo'ydik".⁵

Ushbu oyatda, islom dinining insoniyat olamiga, shaxs tarbiyasiga va jamiyat munosabatiga qarashi bayon etilgandir. Birinchidan, barcha insonlar bir ota-onaning farzandlaridir. Ikkinchidan, insonlarning turli tabaqalarga, el-urug'larga bo'linishlari bir-birlari bilan mol-dunyo talashib urush-janjal bilan umr o'tkazishlari uchun emas, balki, bir-birlari bilan tanishib, hamkorlik qilishlari va birgalikda o'zlari xalifa bo'lgan zaminni obod qilishlari uchundir. Shu munosabat bilan ushbu fikrlarimizning isboti uchun ma'lum asos bo'lib xizmat qiladigan bir ma'lumotni keltirmoqchimiz.

Misrdagi "Ayn-Shams" universitetining professorlari Sumayya Muhammad Afifiy va Salom al-Mansiylar tomonidan Qohirada nashr qilingan "Qur'oni Karimning arab va rus tillaridagi qisqacha tafsiri"da yuqoridagi oyat tarjimasini va qisqacha tafsiri ham Abdulaziz Mansurning o'zbek tilidagi

⁴ Qur'oni Karim. Tarjima va tafsir muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. Mas'ul muharrir: Bahrom Abduxalimov. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2007. Al-Isrosurasini, 70-oyat. – 289 b.

⁵ Ўша жойда. Qur'oni Karim. Хужурот сураси, 13-oyat.-517 б.

tarjimasi va unga bergan izohiga yaqindir. Fikrimizning asosli bo'lishini nazarda tutib, ushbu tafsir-tarjimaning rus tilidagi asl matnini keltirishni lozim ko'rdik: "О люди! Мы сотворили вас равными от одного мужчины и от одной женщины Адама и Хаввы и размножив вас, сделали многими народами и разными племенами, чтобы вы знали друг-друга и сотрудничали друг с другом"⁶.

Bizning fikrimizcha Qur'onda barkamol shaxs tarbiyasi masalasini, insonlarning o'zaro munosabatlari masalalarini xuddi ana shu tamoyil nuqtayi nazaridan o'rganishimiz maqsadga muvofiq. Ushbu fikrlar bugungi kunda islom falsafasida inson muammosini o'rganish muhim omil ekanligini ta'kidlash o'rinli. Demak, hozirgi kunda jamiyatimiz taraqqiyotining belgilovchi omili bo'lgan barkamol insonni tarbiyalash borasidagi niyatimiz uchun g'oyaviy meros mavjud. U ham bo'lsa, ajdodlarimizning sermazmun ma'naviy merosi, urf-odatlarimizga xos ma'rifatga, axloqiy yetuklikka erishish kabi xislatlar bo'lib, ular yillar davomida shakllangan, sayqal topgan. Bizningcha, tasavvufdagi komil inson haqidagi ta'limotning hozirgi davrimiz uchun yuksak ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati ham ana shunda⁷.

Tasavvufda shaxsning ijtimoiy-ma'naviy mohiyati, real hayotdagi faoliyati, jamiyat va insonlar bilan munosabati masalasini o'ziga xos talqin qiluvchi tamoyillardan biri – buyuk mutasavvif Bahouddin Naqshband tomonidan o'rta tashlangan "Dil ba yor-u, dast ba kor" shioridir. "Dil ba yor-u dast ba kor"da asosiy g'oya – inson qalbi muttasil Alloh yodi bilan, inson qo'li, amaliyoti esa, ijtimoiy foydali mehnat, kasb-hunar bilan band bo'lmog'i ta'kidlanadi⁸. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Naqshbandiya ta'limoti tasavvuf yo'lidagi komil insonni tarbiyalash yo'llari ichida mukammalligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham uni barcha

so'fiylik tariqatlarining xulosasi, deb tan olganlar⁹. Bu ta'limot milliy ma'naviyatimiz asoslaridan biridir¹⁰.

Xalqimizning diniy-irfoniy merosini o'rganish shuni ko'rsatadiki, "insonparvarlik, odamiylik, bag'rikenglik, mehr va muruvvat o'zbek xalqi mentalitetining tarkibiy qismi bo'lib kelgan, qadimdan odamlarimizning qon-qoniga singib ketgan.

Komil Xorazmiyning dunyo va uning tuzilishi, tabiat va hayvonot olami, insonning u borliqdagi o'rni haqidagi masnaviysi ham diqqatga sazovordir. Shoir Navoiyning «Hayrat ul-abror» dostonida mazkur masalalar yuzasidan 17-maqolotda bildirgan mulohazalarini davom ettirmoqchi bo'lib, shu sohada yangi bir falsafiy fikr bayon qilishga urinadi. Mutafakkir olamni uchta "bog'"ga bo'lib tushuntiradi. Ulardan birinchisi "bog'i hayot", ikkinchisi "bog'i nabot", uchinchisi "bog'i jamod"dir. Bu atamalarni hozirgi tilimizga o'girsak, ularni "hayot bog'i", "o'simliklar bog'i", "toshlar bog'i" deyish mumkin.

Tasavvufdagi "vahdat al-vujud" ta'limoti o'zbek mumtoz adabiyoti vakillarining ko'pchiligiga xos bo'lgan dunyoqarashdir. Komil Xorazmiy ham so'fiyona ishqni kuylagan. Uning talqiniga ko'ra, inson ham Alloh jamolining zuhuri ekan, unga bo'lgan muhabbat – Allohga bo'lgan muhabbatdir:

*Husni ko'zgusi bordur mazhari jamolilloh,
Mang'a ishqim etmanglar, ey, guruhi nodonlar.*

Boshqa bir g'azalida u mazkur qarashini yanada oydinlashtirgan:

*Ne nav sanga oshiqi zor o'lmayin, ey sho'x,
Ko'rdim yuzung oyinasida nuri Allohni (1-61).*

Bu satrlar Mansur Xalloyning "Anal haq" – "men Haqman", degan hayqirig'ini esga soladi. Mansur Xalloy "men Haqman", ya'ni "Xudoman", degan bo'lsa, Komil Xorazmiyning yuqoridagi she'rlarida "inson Haq zuhuri" yoki inson ham

⁶ Қаранг: Толкование Священного Корана на арабском и русском языках. – Каир. – 145 с.

⁷Қаранг: Абдулҳаким Шаръий Жўзжоний. Тасаввуф таълимотида комил инсон сиймоси. //Ж. Илмий – таҳлилий Ахборот. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2003. – Б.34-40. Г.Нуруллаева. Шайх Нажмиддин Кубро ва тасаввуф тариқати.//Ж. Илм сарчашмалари. УРДУ нашриёти, 2007. – №3.– Б.27-28.

⁸Исмоилов С.Т. Нақшбандий тариқатининг тасаввуф таракқиётидаги ўрни. Автореф.дис. ... фалс. фан. ном. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. – 15 б.

⁹Наврўзова Г.Н. Нақшбандий тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. Автореф.дис. ... фалс. фан. док. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2002. – 36 б.

¹⁰ Имомназаров М., Эшмухамедова М. Миллий маънавиятимиз асослари. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2001. – 432 б.

Allohdan sevilishga loyiq, degan fikr kelib chiqadi. Bu fikrni Komil Xorazmiy dunyoqarashidagi insonparvarlik g'oyalarning cho'qqisi desak bo'ladi.

O'z davrining ilg'or ziyolilaridan biri bo'lgan Komil Xorazmiy ham tasavvuf falsafasini yaxshi o'zlashtirgan. Ma'lumotlarga qaraganda, uning shaxsiy kutubxonasi Xiva xonligidagi eng boy kutubxonalardan edi. Unda o'zbek va arab, fors adabiyoti klassiklari asarlari, tarixiy kitoblar qatorida tasavvuf falsafasiga doir risolalar ham saqlangan.

Komil Xorazmiy tasavvufga aloqador ko'pchilik klassik adiblar – masalan, Jomiy va Navoiy singari zohidlik va darveshlik qiziqtirmas edi. U tasavvuf g'oyalari orqali inson zotiga bo'lgan hurmat va ehtiromni ifoda etdi. Tenglikni, inson baxt-sodatini kuyladi (2-206).¹¹ Bu haqda uning o'zi bir g'azalida so'fiy, darveshlarga munosabatini quyidagicha ifodalaydi:

*Samo 'i jazb kim-u, sen kim, o'qusang Komil,
Kifoya masjidi jome' aro saloti panj.*

Ya'ni Alloh visoliga erishaman, deb o'ziga rom qiluvchi qo'shiq aytib, raqs tushayotgan, jazvasi tutgan darveshga o'xshama, Komil. Senga ushbu masjidi jome' ichida besh vaqt namoz ham kifoya, sen avvalo, insonlik burchingni bajar.

Komil Xorazmiy kishilardagi johillik, riyokorlik, poraxo'rlik singari illatlarni qoralagan, ular jamiyatni tanazzulga olib boradi, deb hisoblagan. U she'rlarida din peshvolarining noto'g'ri yo'lga kirib ketganini, shayx va zohidlarning yolg'onchiligini, ulamolarning poraxo'rlikni fosh qilgan.

Bundan tashqari, Komil Xorazmiyning shayx va zohidlarga bo'lgan munosabatini yanada yorqinroq ifoda etuvchi, shayx va zohidlarning kirdikorlarini, xulq-atvorini fosh qiluvchi satiraga boy she'rlari ham borki, bular biz yuqorida aytgan fikrlarni to'la tasdiqlaydi.

Darveshlardek "zikr-u sam'o" tushishdan ko'ra, Komil Xorazmiy badiiy ijod va musiqa bilan shug'ullanishni afzal ko'rgan. U musiqa ilohiy ishqni ifoda etuvchi, kishini g'am-qayg'ulardan xalos qiluvchi san'at ekaniga ishongan.

*Bo'lurman g'am sahilidin sabukbar,
Ayon qilsa gar ishqil-loh tanbur (3-66).*

Komil Xorazmiy dunyoqarashida islom dini, tasavvuf ta'limoti, sharq falsafasi ta'siri yaqqol sezilib turadi. U katta olamni (makrokosm) anglash kichik olamni (mikrokosm) anglashdan boshlanadi, insonni olamning shohkori, olam yaratilishining bosh maqsadi hisobladi. Ma'naviy, axloqiy, aqliy komillikka intilish faqat insonga loyiq deb bildi. Komil Xorazmiy ijtimoiy-ma'naviy hayotda muhim o'rin tutgan islom siyosiy mafkurasiga muvofiq fikr yuritgan. Uning fikricha, insonning taqdirini Alloh belgilaydi. Hukmdor bo'lish Allohning inoyati, shu jumladan fuqarolik ham. Shoh Allohning ixtiyori bilan mamlakat va jamiyatni boshqaradi, lekin podshohga hokimiyat xalqqa jabr qilish, zulm o'tkazish, zo'ravonlik qilib, uni talash uchun berilmagan. Podshohning vazifasi raiyatga g'amxo'rlik qilib, mamlakat tinchligi, osoyishtaligini ta'minlashdan iborat. Shoh xalq o'rtasida adolat va insonparvarlik qoidalariga asoslangan munosabatlarni o'rnatishi, davlat hokimiyatini mustahkamlashi, umummanfaatlarini ko'zlab, barchaga teng munosabatda bo'lishi lozim.

XULOSA. Komil Xorazmiy dunyoqarashida insonparvarlik g'oyalari qanchalik ilohiyot bilan bog'lanmasin, u axloq insondagi eng oliy qadriyat, aqliy zukkolik esa insonning eng muhim insoniy fazilati ekanligini yakdillik bilan ma'qulladi. Uning fikricha, insondagi eng yuksak boylik yuksak axloqiy fazilatdir. Shuningdek, u haqiqat va adolatni, qonun va tartibni, ijod va erkinlikni, shafqat va muruvvatni ham yuqori baholagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Komil. Devon. (Nashrga tayyorlovchilar A.Hayitmetov, V.Mo'minova). -T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. -B.61.
2. O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar. -T.: O'zbekiston, 1995. -B.206.
3. O'sha manba.-B.66


¹¹ Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар. -Т.: Ўзбекистон, 1995. -Б.206.

“OSHIQNOMA” TURKUM DOSTONLARIDA TAKRORLAR BADIYLIKNI IFODALOVCHI VOSITA SIFATIDA

*Ro‘zimova Guli Shuhratovna, Urganch davlat universiteti
Filologiya va san‘at fakulteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasida
o‘qituvchisi*

POETONYMS AS A LINGUISTOPOETICAL MEANS IN THE “OSHIQNOMA” SERIES OF EPISTLES

*Ruzimova Guli Shuhratovna, teacher of the Department
of Uzbek Linguistics, Faculty of Philology and Arts, Urgench
State University*



<https://orcid.org/0000-0002-8139-4384>

e-mail:
grozimova7@gmail.com

ПОЭТОНИМЫ КАК ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОЕ СРЕДСТВО В ДАСТАНАХ СЕРИИ “ОШИКНОМА”

*Рузимова Гули Шухратовна, преподаватель кафедры
узбекского языкознания факультета филологии и искусств
Ургенчского государственного университета*



Annotatsiya: Ushbu maqolada “Oshiqnoma” turkumi dostonlarida qo‘llangan takror birliklarning lingvopoetik imkoniyatlari, badiiyati va ularning matn badiiy-estetik butunligini ta‘minlashdagi o‘rnini aniqlash xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: takror, lingvopoetika, ohang, alliteratsiya, assonans, simmetrik, assimetrik.

Abstract: This article discusses the linguopoetic possibilities and artistry of the repeated units used in the epics of the “Oshiqnoma” series, as well as their role in ensuring the artistic and aesthetic integrity of the text.

Keywords: repetition, linguopoetics, melody, alliteration, assonance, symmetrical, asymmetrical.

Аннотация: В статье рассматриваются лингвопоэтические возможности и художественность повторных единиц, используемых в эпосах серии “Ошикнома”, а также их роль в обеспечении художественно-эстетической целостности текста.

Ключевые слова: повтор, лингвопоэтика, мелодия, аллитерация, ассонанс, симметричный, асимметричный.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). O‘zbek xalq dostonlariga yoki mumtoz adabiyotimizning qadim an‘analariga diqqat qaratsak, tovush, so‘z va birikmalarni muntazam takrorlash orqali o‘ziga

xos ohang butunligi hosil qilishning keng tarqalganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. “Oshiqnoma” turkumi dostonlarida ham lingvopoetik imkoniyat sifatida tovush, so‘z, so‘z birikmasi va jumla takrori orqali yuzaga kelgan

ta'sirchan musiqiy ohangni kuzatishimiz mumkin. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "ohang" so'zining 5 ma'nosi izohlanadi: "Ohang (kelishuv, hamjihatlik, yoqimli tovush, kuy, hamohanglik, uyg'unlik) 1. Bir-biriga ulangan, uyg'unlashgan yoqimli tovushlar oqimi. 2. Turli tovushlarning ma'lum bir tartibda uyg'unlashib, musiqiy butunlik tashkil etgan birikmasidan iborat musiqa asari, kuy. 3. Nutqda ma'noga qarab ovozning ko'tarilishi va pasayishi, intonatsiya. 4. So'zlovchining ichki his-tuyg'ularini ifodalaydigan talaffuz uslubi. 5. Ko'chma narsalarning o'zaro qo'shilishidagi moslik, uyg'unlik"[8.:448]. Ohang adabiyotda ham she'rda, ham nasrda so'z va so'z birikmalarining, tovush va shakl jihatidan o'xshashligidan hosil bo'lgan, estetik ifodani ta'minlagan tizim sifatida idrok etiladi. Ijodkor o'z fikrini tinglovchi yoxud kitobxonga tez va ta'sirchan yetkazish uchun tildagi birliklaridan imkoniyati hamda mahoratidan kelib chiqib, keng foydalanadi. Takror deb ataluvchi uslubiy figura ana shunday imkoniyatlarning faqatgina bir ko'rinishi hisoblanadi. Takrorga "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha lug'ati"da "Badiiy nutqqa xos kompozitsion-sintaktik ifoda usullaridan biri – ayrim tovushlarni, bir yoki bir necha so'zni yoki so'z birikmalarini, ba'zan esa ma'lum satrni atayin takrorlash orqali fikr yoki his-tuyg'uni ifodalashga, uning ta'sir kuchini oshirishga va turli intonatsiyalarni bo'rttirib ko'rsatishga imkon beradigan stilistik usul" deb izoh berilgan[9.:235]. Anglashiladiki, takrorlar badiiy nutqning ohangdorligini ta'minlovchi poetik hodisa sanaladi. 2013-yilda nashr qilingan lug'atda takrorga to'liqroq va kengroq ta'rif beriladi: "Matniy, kompozitsion yoki tematik birliklarning ma'lum badiiy-estetik maqsadlarni ko'zlagan holda takrorlanishi, badiiy matn (va asar kompozitsion qurilishi)ga xos shunday usullarning umumiy nomi. Takror badiiy asarning turli sathlarida kuzatiladi. Jumladan: a) badiiy nutqda: fonetik (alliteratsiya, assonans, fonetik anafora, ishtiqoq), leksik (so'z takrori, klimaks, anafora, epifora, anadiplosis va b.), semantik (gradatsiya, ma'no takrori), sintaktik (sintaktik parallelizm,

xiazm); ritmik birliklarning o'lchov asosida tartibli takrorlanishi: turoq (rukn), misra (yoki bahr), band; v) she'r kompozitsion darajasida: misra takrori (refren, tarje'), band takrori (naqarot); g) obrazli-tematik takrorlar (tematik parallelizm, motiv)" [5.: 307].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). "Oshiqnoma" turkumi dostonlarida ham bu uslubiy figuraning fonetik, morfemik, leksik va sintaktik ko'rinishlaridan keng foydalaniladi. Dostonlar matnida takrorlar matn mazmunini tez va oson idrok etilishini hamda o'zaro qulay bog'lanishini ta'minlagan. Ammo ayrim takrorlarni farqlash uchun kitobxon jiddiy tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi lozim. Bunday takrorlarni idrok qilish uchun tilning shakl va ma'no imkoniyatlarini teran anglash zarur. Ma'lumki, tilshunoslikda ham takrorlar bilan bog'liq ko'plab tadqiqotlar yuzaga kelgan.

Soha mutaxassislarining fikricha, takror o'rinli va me'yorda foydalanilgan taqdirda asarning ta'sir kuchini qulay yo'l bilan orttirish imkoni tug'iladi. Ma'lumki, takrorning bir necha ko'rinishlari – alliteratsiya, assonans, anafora, epifora kabi turlari mavjud, ular badiiy matn shakllanishida uslubiy vazifa bajaradi. Bularning hammasi matnning kompozitsion butunligini ta'minlaydi. S.Karimov takrorning 30 turini sanaydi va "takrorning zimmasiga ham til birliklariga emotsional bo'yoq, alohida ohang, joziba berish vazifasi" yuklanishini ta'kidlaydi[4.:55-56]. M.Yo'ldoshev qayd qilishicha, "Takrorlar qo'llanish o'rniga ko'ra gorizontal va vertikal takrorlarga bo'linadi, bunday takrorlar, ayniqsa, she'riy misralarda o'ziga xos ohangdorlikni yuzaga keltiradi. Takrorlanuvchi birlikning qaysi turkumga mansubligiga ko'ra ot takrori, sifat takrori, olmosh takrori, fe'l takrori kabilarga bo'linadi. Sintaktik tabiatiga ko'ra so'z birikmasi takrori va jumla takrori ham farqlanadi. Mazkur birliklarning joylashish tartibiga ko'ra ham tasnif qilish mumkin: simmetrik takror va assimetrik takror. Shuningdek, o'rtadagi masofaga ko'ra ham

guruhlashtirish mumkin: yaqin o‘rinli takror, uzoq o‘rinli takror. Badiiy asarlarda ma‘lum bir fikrning turli shakllarda takrorlanishiga qarab, mazmuniy takror turini ham kuzatishimiz mumkin [2.: 30-31]. J.Lapasov takrorga quyidagicha izoh beradi: “Badiiy asar mualliflari tasvirlanayotgan voqea-hodisaga o‘quvchining diqqatini tortish, uni bo‘rttirib ko‘rsatish uchun badiiy asarlarda tovush va tovushlar, so‘z va so‘zlar yig‘indisini, gaplarni takror qo‘llab, urg‘uni kuchaytiradi, nutqqa keskinlik kiritadi” [6.: 48].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Doston matnida takrorlarning o‘rinlashuviga ko‘ra quyidagi turlarini uchratish mumkin:

1. Simmetrik takrorlar – bunda bir tovush, qo‘shimcha, so‘z yoki so‘z birikmasi jumla, satrning bir xil o‘rnida takrorlanadi. Asosan, satr boshida, o‘rtasida va so‘ngida kelib, ohang butunligini ta‘minlaydi:

Olti nadir, yetti nadir, besh nadir?

Qavm nadir, qardosh nadir, xesh nadir?

Ko‘zlarindin oqqan qonli yosh nadir?

Qol, maralim, Salbiniyoz, qol emdi [11.:S.H-10].

Mazkur parchada nima so‘roq olmoshi *-dir* kesimlik shaklini olib, doston matnida *nadir* shaklida qo‘llangan va misralar o‘rtasida, oxirida kelib o‘rinlashuviga ko‘ra inforik hamda epiforik takrorlarni yuzaga keltirgan. To‘rtinchi misrada qo‘llangan *qol* fe‘li satr boshida va so‘ngida kelgani uchun gorizantal takror, ya‘ni asimmetrik takrorni yuzaga keltirish orqali ohang butunligini ta‘minlashga hissa qo‘shgan.

Man sevmisham parilarning birisin,

Biri “lom”dir, biri “jim”dir, biri “sin”,

Biri ovdur, biri ovchi, biri sin,

Biri ov qonlidir, yor olmasina [11.:S.H-20].

Ushbu misralarda “biri” so‘zi o‘rniga ko‘ra simmetrik takrorlangan bo‘lib, satr boshida, o‘rtasida va so‘ngida kelgan hamda anaforik, inforik va epiforik takrorni hosil qilgan. Takrori bunday ko‘rinishda simmetrik joylashtirish, albatta, matnning intonatsion muvozanatini, butunligini, uyg‘unligini saqlaydi va ohang oqimining bir xil davom etishini ta‘minlaydi.

Shuningdek, simmetrik takror matn arxitekturasi fundamental unsurlaridan biri sanaladi. Shu bilan birga, 1- va 2- misra oxiridagi *birisin // biri “sin”* murakkab tajnisni yuzaga keltirgan (aslida ushbu satrlardagi kitobat va tajnis alohida ahamiyat kasb etgan).

2. Asimmetrik takrorlar – bunda bir tovush, qo‘shimcha, so‘z yoki so‘z birikmasi bir satrning turli o‘rinlarida takrorlanadi:

Alqissa, andin so‘ng podsho darg‘azab bo‘lib, buyurdiki, bu gisuburidani o‘tg‘a kuydiringlar. Anda tandirni qizdirib, Malikayi Diloromni qo‘l-oyog‘ini bog‘lab, tandirg‘a solib, sarpo‘shini yopib qo‘ydilar. Anda Malika tandirning ichinda bir so‘z dedi:[11.:RCh-64]

Dostondan olingan ushbu parchadagi *bo‘lib, qizdirib, solib, yopib* kabi so‘zlardagi ravishdosh shakllari asimmetrik takrori yuzaga keltirgan. Asimmetrik takrorning turli ko‘rinishlari “Oshiqnoma” turkumi dostonlari matnida yetarlicha uchraydi. Masalan, quyidagi baytda *-dir*, kesimlik shakli va *bor* fe‘lining takror qo‘llanilishini shunday takror sifatida baholash mumkin:

Shohimardon ustimizda daldadir,

Bulbulning orzusi toza guldadir.

Ko‘nglim parishondir, ko‘zim yo‘ldadir,

Bor, Hamrohim, sog‘bor, omon

kelgaysan [11.:H.H-57].

3. Aralash takrorlar – bunda simmetrik va asimmetrik takrorlar aralash holda qo‘llanadi. Shoir nazmida ichki ohangni tutib turishda tovush, so‘z, misra va jumlaning qayta qo‘llashga asoslangan aralash takrorlar ham ko‘p uchraydi. Bu uslubiy figura ham fonetik takrordan sintaktik takrorgacha bo‘lgan barcha qatlamlarda kuzatiladi:

Uzundir bo‘ylari, lablari shakkar,

Yig‘labon ko‘zlarim qonli yosh to‘kar,

Har ko‘rgan-ko‘rmagan orzuvin chekar,

Bir dilbarning savdosina tushmisham

[11.:S.H-45].

Ushbu parchada ichki qofiyani yuzaga keltirgan “*bo‘ylari*” va “*ko‘zlarim*” so‘zlaridagi – *lar* qo‘shimchasi asosida, shu misralardagi “*shakkar*” va “*to‘kar*”, “*chekar*” so‘zlarining so‘nggi uch tovushi vertikal takrori, uchinchi

misradagi *-gan* sifatdosh qo‘shimchasi gorizontall takrorini hosil qilgan hamda baytning ohang uyg‘unligini ta‘minlagan.

Demak, aralash takror ko‘proq aralash holda, nomuntazam tarzda takrorlanuvchi birliklarga nisbatan qo‘llaniladi. Turli turkumga oid so‘zlarni asos yoki qo‘shimchali holda takrorlash orqali badiiy nutqning ta‘sirchanligi ta‘minlanadi. Shu bilan birga, esda saqlab qolishni qulaylashtirgan. Dostonlar tilini o‘rganish jarayonida, takrorlar tahlilga tortilganda, ularning matn butunligi va boshqa fonetik, morfemik, leksik, sintaktik birliklar bilan qanday munosabatga kirishganligini nazardan qochirish lozim. Z.Yo‘ldosheva simmetrik va aralash takroriy birliklar lingvopoetikasini “Xoldorxon” dostoni misolida izohlashga harakat qilgan[3.:107-113].

NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Biz quyida “Oshiqnoma” turkumi dostonlarida qo‘llanilgan takrorlar va ularning ko‘rinishlari va lingvopoetik imkoniyatlarini tahlil qilganmiz. Buning uchun dastlab dostonlarda qo‘llanilgan takrorlarni yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda tasnif qilamiz:

1. Tovushlar takrori – alliteratsiya, assonans (tavzi‘), geminatsiya;
2. Qo‘shimchalar yoki analitik shakllar takrori;
3. So‘zlar takrori – takrir, mukarrar, tardi aks, tasdir, tasbe‘, anafora, hojib, izdivoj, ruju‘ kabilar;
4. She‘riy bandlarni bog‘lovchi takror.

Fonetik (tovushlar) takrori. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik ilmida undoshlar uyg‘unligi, ya‘ni takrori alliteratsiyani, unilarning takrori orqali ohangdorlikning hosil qilinishi assonansni yuzaga keltirishi qayd qilingan. “Oshiqnoma” dostonlarida ham fonetik takrorlar she‘rning shakliy o‘ziga xosligini va misralarning ohangdoshligini ta‘minlagan hamda ifodaviy ta‘sirchanlik, soddalik va ravonlikni oshirishga xizmat qilgan. Umuman, ular badiiy matnda yuksak fonopoetik ahamiyat kasb etadi. Masalan:

Bir chaman bog‘im, bahorim, bo‘stonim bormikan [11.:RCh-211],

“b” undoshining fonetik takrori alliteratsiya yuzaga keltirgan.

Qo‘shimchalar takrori. Dostondagi qo‘shimchalar yoki analitik shakllar takrori ham diqqatga sazovor.

*Mujgoning endirib, chitma qoshingni,
Kel, ey Salbim, sen kiyinma qorani.
Xumor-ola ko‘zdin to‘kma yoshingni,
Kel, ey Salbim, san kiyinma qorani*

[11.:RCh-286].

Bu she‘riy shaklda fe‘lning bo‘lishsizlik shakli va tushum kelishigi shakllari takroridan o‘ziga xos ohang yuzaga kelgan.

So‘zlar takrori. Dostonda eng ko‘p murojaat qilingan vositalardan biri sanaladi. Mumtoz adabiy asarlarda ham, zamonaviy adabiy asarlarda ham bu tasvir vositasi shoirlarimiz tomonidan juda samarali foydalanilgan. Jumladan, takrir, mukarrar, tasdir, tasbe‘, ruju, radd-ul matla‘, radif kabilar shular jumlasidandir. Quyida shularning ayrimlarini doston misralari misolida lingvopoetik aspektida tahlilga tortamiz:

*Ko‘k yuzinda mehri mohni sevarsan,
Yer yuzinda gar Hamroni sevarsan,
Qirmiz kiyin, bir Olloni sevarsan,
Kel, ey Salbim, san kiyinma qorani* [11.:E-

301],

(ushbu baytda *yuzinda, sevarsan* so‘zlarining takror holda mohirona qo‘llanishi ham yana bir ko‘rsatkichi sanaladi).

Bandlarni bog‘lovchi takrorlar. Takrorning ushbu shakli xalq dostonlarining nazmiy qismida juda faol qo‘llaniladi. Masalan:

– Hamroning Qizilolma shahriga ketishdagi so‘zi:

*Kel ko‘nglim, ketali uzoq yo‘llara,
Bir dilbarning savdosina tushmisham.
Qardosh-do‘g‘on boshimizdan na kechar,
Bir dilbarning savdosina tushmisham...*

[11.:E-209]. Bu so‘zdagi bandlarni bog‘lovchi takror: “*Bir dilbarning savdosina tushmisham*” bo‘lsa, uning izidan kelgan Salbiniyozga aytgan so‘zidagi bandlarni bog‘lovchi takror: “*Kel, ey Salbim, sen kiyinma qorani*” sanaladi. Hamroning Salbiniyozga aytgan ikkinchi gapidagi bog‘lovchi takror: “*Qol, maralim, Salbiniyoz, qol emdi*”;

keying gapidagi takror: “*Yig‘lama gul yuzli Salbim*” shaklida keltirilgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). “Oshiqnoma” dostonlarida takror eng ko‘p qo‘llanadigan uslubiy vositalardan biri bo‘lib, o‘z zimmasiga emotsional bo‘yoq, alohida ohang, joziba berish vazifasini oladi. Jumladan, fonetik takror she‘riy nutqqa intonatsion butunlik, o‘ziga xos ohangdorlik va emotsional-ekspressivlik bag‘ishlaydi, qulay va oson talaffuz qilish imkoniyatini yaratadi, lirik tasvirning qaysidir qirrasiga kitobxonning diqqatini tortish yoki biror manzarani ko‘z o‘ngimizda jonlantiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бобоев Т., Бобоева З. Бадий санъатлар. – Тошкент: ТДПУ, 2001. – Б.114.
2. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.30-31.
3. Йўлдошева З. Холдорхон достонидаги симметрик ва аралаш такрорий бирликлар лингвопоэтикаси. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2021. – №4. – Б.107-113.
4. Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1994. – Б.55-56.
5. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.307.
6. Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.48.
7. Стеблева И.В. Происхождения и развитие тюркской аллитерационной системы в связи и историческим родством тюркских и монгольских языков // Советская тюркология. – №6. – 1971. – С.83.
8. О‘zbek tilining izohli lug‘ati . 5 jildlik. 3-jild. – Toshkent, 2008. – В.448.
9. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б.235.
10. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р, Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.; Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.; Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
11. Хоразм дostonлари. Ошиқнома. 1-китоб (2006), 2-китоб (2006), 3-китоб (2008), 4-китоб // Масъул муҳаррир С.Р.Сапарбоев. – Урганч: Хоразм нашриёти, (2009).



**GLOBALLASHUV SHAROITIDA BARQAROR
TARAQQIYOT KONSEPSIYASINING MA'NAVIY-
AXLOQIY ASOSLARI**

Sobirov Xasan Abdullayevich, tadqiqotchi

**SPIRITUAL AND MORAL FOUNDATIONS OF THE
CONCEPT OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN
THE CONTEXT OF GLOBALIZATION**

Sobirov Khasan Abdullayevich, researcher

**ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫЕ ОСНОВЫ
КОНЦЕПЦИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В
УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ**

Собиров Хасан Абдуллаевич, научный исследователь



<https://orcid.org/0009-0005-7269-9994>

e-mail:
iamxassab@gmail.com



Annotatsiya: Maqolada globallashuv sharoitida barqaror taraqqiyot konsepsiyasining ma'naviy-axloqiy asoslari tadqiq etilgan. Barqaror taraqqiyot maqsadlarini amalga oshirishda ma'naviy-axloqiy omillarning ahamiyati aniqlangan. Barqaror rivojlanish qadriyatlarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati va inson ma'naviy dunyosini shakllantirishdagi roli ochib berilgan. O'zbekiston sharoitida barqaror taraqqiyot konsepsiyasini amalga oshirishning ma'naviy-axloqiy jihatlarini tahlil qilingan. Barqaror taraqqiyot qadriyatlarini jamiyat ongiga singdirish mexanizmlari va istiqbollari bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: barqaror taraqqiyot, globallashuv, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ekologik ong, ijtimoiy mas'uliyat, aksiologiya, ma'naviy ta'lim, axloqiy imperativ, madaniy transformatsiya, ekologik madaniyat.

Abstract: The article examines the spiritual and moral foundations of the concept of sustainable development in the context of globalization. The role of spiritual and moral factors in implementing sustainable development goals is determined. The socio-philosophical essence of sustainable development values and their role in shaping the spiritual world of a person are revealed. The spiritual and moral aspects of implementing the concept of sustainable development in Uzbekistan are analyzed. Scientifically based proposals on mechanisms and prospects for introducing sustainable development values into public consciousness have been developed.

Keywords: sustainable development, globalization, spiritual and moral values, ecological consciousness, social responsibility, axiology, spiritual education, moral imperative, cultural transformation, ecological culture.

Аннотация: В статье исследованы духовно-нравственные основы концепции устойчивого развития в условиях глобализации. Определена роль духовно-нравственных факторов в реализации целей устойчивого развития. Раскрыта социально-философская сущность ценностей устойчивого развития и их роль в формировании духовного мира человека. Проанализированы духовно-

нравственные аспекты реализации концепции устойчивого развития в условиях Узбекистана. Разработаны научно обоснованные предложения по механизмам и перспективам внедрения ценностей устойчивого развития в общественное сознание.

Ключевые слова: устойчивое развитие, глобализация, духовно-нравственные ценности, экологическое сознание, социальная ответственность, аксиология, духовное образование, нравственный императив, культурная трансформация, экологическая культура.

Kirish. Globallashuv sharoitida insoniyat oldida turgan ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish zarurati barqaror taraqqiyot konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish zaruratini tug'dirdi. Bu konsepsiya iqtisodiy o'sishni ekologik muvozanat va ijtimoiy adolat prinsiplari bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan. Biroq barqaror taraqqiyotga erishish nafaqat texnologik va iqtisodiy jihatlarni, balki ma'naviy-axloqiy omillarni ham inobatga olishni talab qiladi.

Barqaror taraqqiyot konsepsiyasining ma'naviy-axloqiy asoslarini tadqiq etish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishda inson omili, uning ma'naviy qadriyatlarini, dunyoqarashi, ekologik ongi va ijtimoiy mas'uliyati hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababli, barqaror taraqqiyot konsepsiyasining ma'naviy-axloqiy asoslarini tadqiq etish, uni amalga oshirishda ma'naviy-axloqiy omillarning rolini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi ham BMTning barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish yo'lida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu jarayonda barqaror taraqqiyot konsepsiyasining ma'naviy-axloqiy asoslarini o'rganish va uni milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolaning maqsadi globallashuv sharoitida barqaror taraqqiyot konsepsiyasining ma'naviy-axloqiy asoslarini tadqiq etish va O'zbekiston sharoitida barqaror taraqqiyot qadriyatlarini jamiyat ongiga singdirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Barqaror taraqqiyot konsepsiyasining ma'naviy-axloqiy asoslari ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, T.G. Krugova o'z tadqiqotlarida "Barqaror rivojlanish konsepsiyasining amalga oshirilishi jamiyatda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining ustuvorligiga bog'liq. Jamiyatning integral ma'naviy inqirozini bartaraf etish barqaror rivojlanishning eng muhim shartlaridan biridir" [5], deb ta'kidlaydi. N.N. Moiseev o'zining ilmiy ishlarida barqaror taraqqiyot konsepsiyasining axloqiy jihatlari alohida e'tibor qaratib, "Barqaror rivojlanish strategiyasining muvaffaqiyati nafaqat davlatlar darajasida, balki har bir fuqaroning ongliligi va mas'uliyatli yondashuviga bog'liq"[3], deb ta'kidlaydi. Bu fikr barqaror taraqqiyotda inson omili va uning ma'naviy dunyosi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. P.Kozlovski "Etik iqtisod tamoyillari" asarida "Barqaror rivojlanish konsepsiyasi asosida iqtisodiy o'sish, ekologik muvozanat va ijtimoiy adolat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash yotadi. Bu uyg'unlikni ta'minlash uchun esa jamiyatda etik qadriyatlarining ustuvorligini ta'minlash zarur"[6], deb yozadi. Bu fikr barqaror taraqqiyot konsepsiyasining axloqiy asoslarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. A.D. Ursulning fikricha, "Barqaror rivojlanish strategiyasi va inson huquqlari uzviy bog'liq bo'lib, bu strategiyani amalga oshirishda inson huquqlarini ta'minlash eng muhim omillardan biri hisoblanadi"[7]. Bu yondashuv barqaror taraqqiyot konsepsiyasining inson omiliga tayanishini ko'rsatib beradi. A.D. Ursul va V.A. Los tomonidan ta'kidlanishicha, "Barqaror rivojlanish strategiyasi har bir davlatning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan

holda amalga oshirilishi kerak. Bunda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ekologik omillar o'rtasida muvozanatni ta'minlash muhim ahamiyatga ega"[8]. Bu fikr barqaror taraqqiyot konsepsiyasini amalga oshirishda milliy xususiyatlarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. U.Bek o'zining "Globallashuv nima?" nomli asarida "Globallashuv sharoitida har bir davlat barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda o'z milliy manfaatlarini himoya qilish bilan birga, global manfaatlarni ham hisobga olish zarurligini" [1] ta'kidlaydi. D.M.Gvishiani qayd etganidek, "Rim klubi dunyo miqyosida barqaror rivojlanish konsepsiyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Bu konsepsiya zamonaviy sivilizatsiyaning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan yangi qarashlarni ilgari surdi"[2]. Bu fikr barqaror taraqqiyot konsepsiyasining shakllanishida xalqaro hamjamiyatning rolini ta'kidlab, uning global xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Barqaror taraqqiyot konsepsiyasining ma'naviy-axloqiy asoslari tahlili bu konsepsiyaning murakkab va ko'p qirrali xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish nafaqat iqtisodiy va texnologik omillarga, balki ma'naviy-axloqiy omillarga ham bog'liq. Barqaror taraqqiyot konsepsiyasining ma'naviy-axloqiy asoslarini tahlil qilish natijasida quyidagi xususiyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin: *Birinchidan*, barqaror taraqqiyot konsepsiyasi axloqiy imperativ sifatida maydonga chiqmoqda. Bu imperativ kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatni anglash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni saqlash kabi axloqiy prinsiplarga asoslanadi. Barqaror taraqqiyot konsepsiyasi insoniyatni yangi axloqiy tamoyillar asosida yashashga chaqiradi. *Ikkinchidan*, barqaror taraqqiyot konsepsiyasi yangi aksiologik tizimni shakllantirmoqda. Bu tizimda tabiat, inson hayoti, ijtimoiy adolat, ekologik muvozanat kabi qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Barqaror taraqqiyot qadriyatlari insoniyat taraqqiyotining

yangi bosqichini belgilab beruvchi mayoqlar sifatida xizmat qiladi. *Uchinchidan*, barqaror taraqqiyot konsepsiyasi ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirishni talab qiladi. Ekologik ong – bu insonning tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatini belgilovchi tasavvurlar, qarashlar va bilimlar tizimi. Ekologik madaniyat esa insonning tabiat bilan uyg'un munosabatlarini ta'minlovchi xulq-atvor normalari va qadriyatlar tizimi. Barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish uchun jamiyatda ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish zarur. *To'rtinchidan*, barqaror taraqqiyot konsepsiyasi ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishni talab qiladi. Ijtimoiy mas'uliyat – bu insonning o'z harakatlari natijalari uchun jamiyat, kelajak avlodlar va tabiat oldidagi mas'uliyatini anglashi. Barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish uchun har bir inson, tashkilot va davlatning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish zarur. *Beshinchidan*, barqaror taraqqiyot konsepsiyasi ma'naviy ta'limni rivojlantirishni talab qiladi. Ma'naviy ta'lim orqali barqaror taraqqiyot qadriyatlarini jamiyat ongiga singdirish, ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish mumkin. Barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish uchun ta'lim tizimini barqaror taraqqiyot qadriyatlari asosida qayta yo'naltirish zarur.

Globallashuv jarayonida barqaror taraqqiyot konsepsiyasining ma'naviy-axloqiy asoslari transformatsiyaga uchramoqda. Bu transformatsiya quyidagi yo'nalishlarda amalga oshmoqda:

1. Barqaror taraqqiyot konsepsiyasi global axloq normalari va qadriyatlar tizimini shakllantirmoqda. Bu tizim turli madaniyatlar va sivilizatsiyalar o'rtasida muloqotni ta'minlash, global muammolarni hal qilishda hamkorlikni kuchaytirish imkonini beradi.

2. Barqaror taraqqiyot konsepsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ma'naviy-axloqiy mezonlarini belgilab bermoqda. Bu mezonlar iqtisodiy o'sishni nafaqat miqdoriy, balki sifat ko'rsatkichlari asosida baholash imkonini beradi.

3. Barqaror taraqqiyot konsepsiyasi madaniy transformatsiya jarayonlarini rag'batlantirmoqda. Bu transformatsiya iste'molchilik madaniyatidan oqilona iste'mol madaniyatiga, individualizmdan ijtimoiy mas'uliyatga, tabiatni ekspluatatsiya qilishdan tabiat bilan uyg'un munosabatlarga o'tishni nazarda tutadi.

4. Barqaror taraqqiyot konsepsiyasi yangi global aksiologik paradigmani shakllantirmoqda. Bu paradigma inson, jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni qayta anglash, insoniyatning evolyutsion rivojlanish yo'llarini belgilab berish va global muammolarni hal qilishga qaratilgan.

5. Barqaror taraqqiyot konsepsiyasi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining roli va ahamiyatini qayta anglashga yordam bermoqda. Bu jarayonda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar nafaqat shaxs va jamiyat hayotining, balki iqtisodiy va ekologik tizimlarning ham muhim elementi sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston sharoitida barqaror taraqqiyot konsepsiyasining ma'naviy-axloqiy asoslarini tahlil qilish quyidagi xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi: *Birinchi*dan, O'zbekistonda barqaror taraqqiyot konsepsiyasining ma'naviy-axloqiy asoslari milliy ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashmoqda. Milliy ma'naviy qadriyatlar – bu xalqimizning ko'p asrlik tarixi davomida shakllangan axloqiy prinsiplar, urf-odatlar, an'analar va diniy qadriyatlar tizimi. O'zbekiston sharoitida barqaror taraqqiyot konsepsiyasini amalga oshirishda milliy-ma'naviy qadriyatlarga tayanish muhim ahamiyatga ega. *Ikkinchi*dan, O'zbekistonda barqaror taraqqiyot konsepsiyasining ma'naviy-axloqiy asoslari davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda. O'zbekiston Respublikasining rivojlanish strategiyalarida barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish, jamiyatda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va ekologik madaniyatni yuksaltirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. *Uchinchi*dan, O'zbekistonda barqaror taraqqiyot konsepsiyasining ma'naviy-axloqiy asoslarini rivojlantirishda ta'lim tizimining roli ortib bormoqda. Ta'lim tizimi orqali barqaror taraqqiyot qadriyatlarini jamiyat

ongiga singdirish, yoshlarda ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. *To'rtinchi*dan, O'zbekistonda barqaror taraqqiyot konsepsiyasining ma'naviy-axloqiy asoslarini rivojlantirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli ortib bormoqda. Nodavlat tashkilotlar, mahalla instituti, ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari barqaror taraqqiyot qadriyatlarini targ'ib qilish, ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishda faol ishtirok etmoqda. *Beshinchi*dan, O'zbekistonda barqaror taraqqiyot konsepsiyasining ma'naviy-axloqiy asoslarini rivojlantirishda diniy qadriyatlarining roolidan samarali foydalanilmoqda. Diniy qadriyatlar insonning tabiatga, jamiyatga va kelajak avlodlarga nisbatan mas'uliyatli munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Globallashuv sharoitida barqaror taraqqiyot konsepsiyasining ma'naviy-axloqiy asoslarini tahlil qilish quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

Birinchidan, barqaror taraqqiyot konsepsiyasi nafaqat iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy, balki ma'naviy-axloqiy jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish uchun jamiyatda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish zarur.

Ikkinchidan, barqaror taraqqiyot konsepsiyasi axloqiy imperativ sifatida maydonga chiqmoqda. Bu imperativ kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatni anglash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni saqlash kabi axloqiy prinsiplarga asoslanadi.

Uchinchidan, barqaror taraqqiyot konsepsiyasi yangi aksiologik tizimni shakllantirmoqda. Bu tizimda tabiat, inson hayoti, ijtimoiy adolat, ekologik muvozanat kabi qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, barqaror taraqqiyot konsepsiyasining amalga oshirilishi jamiyatda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining ustuvorligiga bog'liq. Jamiyatning ma'naviy inqirozini bartaraf etish barqaror taraqqiyotning muhim shartlaridan biridir.

Beshinchidan, barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish uchun ma'naviy ta'lim tizimini takomillashtirish zarur. Ma'naviy ta'lim orqali barqaror taraqqiyot qadriyatlarini jamiyat ongiga singdirish, ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati (References):

1. Бек У. Что такое глобализация? - М., 2001.
2. Гвишиани Д.М. Роль Римского клуба в разработке проблем устойчивого развития мировой цивилизации // Россия на пути к устойчивому развитию. -М.: МГИУ
3. Правительство Москвы, Издательский Дом НП, 2003.
4. Козловски П. Принципы этической экономики / Пер. с нем. М. под ред. В.С.Автономова. - СПб., 1999.
5. Кондратьев К.Я., Лосев К.С. Иллюзии и реальность стратегии устойчивого развития. // Вестник РАН, 2002. № 7.
6. Кругова Т.Г. Интегральный духовный кризис и принципы устойчивого развития // Вопросы устойчивого и бескризисного развития, 2000.№ 2/1.
7. Моисеев Н.Н. С мыслями о будущем России. М.: Фонд содействия развитию социальных и политических наук, 1997.
8. Урсул А.Д. Стратегия устойчивого развития и права человека // Вестник прав человека. - 2000. - № 1.- С.27-46.
9. Урсул А.Д., Лось В.А. Стратегия перехода России на модель устойчивого развития: проблемы и перспективы. М.: 1994.
10. Уткин А.И. Глобализация: процесс и осмысление. - М., 2001.



XALQARO QONUNCHILIKDA IJTIMOY ADOLAT TAMOYILINING NAZARIY-HUQUQIY AHAMIYATI

Xadjiev Azizbek Kadambayevich, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazining mustaqil tadqiqotchisi ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПРИНЦИПА СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ В МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ

*Xadjiev Azizbek Kadambayevich, самостоятельный исследователь
Национального центра Республики Узбекистан по правам
человека*

THEORETICAL-LEGAL SIGNIFICANCE OF THE PRINCIPLE OF SOCIAL JUSTICE IN INTERNATIONAL LAW

*Khadjiev Azizbek Kadambayevich, Independent applicant of the
National Center of the Republic of Uzbekistan for Human Rights*



e-mail:
hodjievazizbek559@
gmail.com
https://orcid.org/000
9-0002-9758-5078

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro qonunchilikda rivojlangan davlatlarning konstitutsiyaviy huquq sohasida ijtimoiy adolat tamoyilining nazariy huquqiy ahamiyati yoritilgan bo'lib, jumladan u davlatlarning qonunchiligidagi ijtimoiy adolat prinsipining afzal jihatlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham qo'llanilganligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, demokratiya, prinsip, ijtimoiy adolat, sotsializm, ijtimoiy sug'urta, preambula, federatsiya, ijtimoiy davlat, millat.

Abstract: This article highlights the theoretical legal significance of the principle of social justice in the constitutional law of developed countries in international law, including the fact that the advantages of the principle of social justice in the legislation of those countries are also applied in the legislation of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: Constitution, democracy, principle, social justice, socialism, social insurance, preamble, federation, welfare state, nation.

Аннотация: В статье рассматривается теоретико-правовое значение принципа социальной справедливости в конституционном праве развитых стран в международном праве, в том числе то, что преимущества принципа социальной справедливости в законодательстве этих стран находят применение и в законодательстве Республики Узбекистан.

Ключевые слова: Конституция, демократия, принцип, социальная справедливость, социализм, социальное страхование, преамбула, федерация, государство всеобщего благосостояния, нация.

KIRISH. Ma'lumki, ijtimoiy davlat g'oyasi XIX asr oxiri hamda XX asrda shakllana boshlagan bo'lib, o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab turli mamlakatlar konstitutsiyalariga kiritila boshlandi. Ushbu tushuncha, demokratik tuzumga ega davlatlarning ijtimoiy siyosat yuritish, jamiyatdagi resurslarni adolatli taqsimlash orqali ijtimoiy tenglikni ta'minlashga intilishini ifodalaydi.

"Ijtimoiy davlat" atamasi birinchi marta XIX asr oxirida nemis huquqshunosi Loren fon Shteyn tomonidan yozilgan "Huquqiy va ilmiy davlat – Germaniyaning bugungi holati va istiqbollari" nomli asarda ilmiy muomalaga kiritilgan. Rasmiy hujjatlarda esa bu tushuncha ilk bor 1943-yilda Buyuk Britaniya parlamentida Lord Beveridj tomonidan taqdim etilgan "Ijtimoiy sug'urta

to'g'risida"gi ma'ruzada qo'llanilgan bo'lib, unda davlatning ijtimoiy rivojlanish strategiyasi bayon etilgan[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Italiya Konstitutsiyasining 1947-yilda qabul qilingan 3-moddasida "ijtimoiy adolat" tamoyili quyidagicha ifoda etilgan: "Har bir fuqaro o'zining jinsi, irqi, tili, dini, siyosiy qarashlari yoki shaxsiy va ijtimoiy holatidan qat'i nazar, qonun oldida teng huquqlidir. Davlatning asosiy vazifalaridan biri — fuqaroning erkinligi va tengligiga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy va iqtisodiy to'siqlarni yo'qotish, shuningdek, insonning har tomonlama kamol topishini va mehnatkashlarning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlashdir"[2]. Germaniya Federativ Respublikasining 1949-yilgi Asosiy Qonunida esa bu masalaga alohida e'tibor berilgan. Xususan, 1-moddada inson sha'nini muhofaza qilish, 3-moddada esa qonun oldida tenglik huquqi kafolatlangan. 28-moddada federativ hududlar konstitutsiyalarida ijtimoiy davlat tamoyiliga amal qilinishi belgilangan. Shuningdek, 72–74-moddalarda federatsiya hamda hududiy subyektlarning ijtimoiy siyosatdagi vakolatlari ko'rsatilgan[3]. Fransiyaning 1958-yilda qabul qilingan (Beshinchi Respublika) Konstitutsiyasida "ijtimoiy adolat" iborasi aniq bir modda doirasida tilga olinmagan bo'lsa-da, ushbu prinsip konstitutsiyaning kirish qismida va unga asos bo'ladigan asosiy hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan.

1978-yilda qabul qilingan Ispaniya Konstitutsiyasida "ijtimoiy adolat" tushunchasi bevosita asosiy hujjatning 1-moddasida o'z aksini topgan. Ushbu moddaning birinchi qismida shunday deyilgan: "Ispaniya ijtimoiy va demokratik huquqiy davlat sifatida tan olinadi; u erkinlik, adolat, tenglik va siyosiy plyuralizmni o'zining asosiy qadriyatlari sifatida ilgari suradi". Bu bayonotdan ko'rinadiki, "ijtimoiy davlat" tushunchasi bilan bir qatorda, "adolat" ham konstitutsiyaviy tamoyil sifatida belgilangan bo'lib, ular orqali ijtimoiy adolatning muhimligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, ijtimoiy adolat prinsipining mazmuni Konstitutsiyaning boshqa moddalarida ham ochib berilgan. Xususan:

-9.2-modda – davlat erkinlik va tenglikni cheklovchi har qanday to'siqlarni bartaraf etishga mas'uldir;

-40-modda – hukumat barcha fuqarolarga munosib hayot darajasini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy va iqtisodiy siyosat olib borishi kerak;

- 41-modda – ijtimoiy ta'minot tizimining mavjudligi va kafolatlanishini belgilaydi;

- 50-modda – yoshi ulg'aygan fuqarolarga nisbatan davlatning ijtimoiy mas'uliyatini belgilab beradi.

Bu moddalar orqali Ispaniya Konstitutsiyasida ijtimoiy adolat g'oyasi keng qamrovli tarzda yoritilgan.

"Ijtimoiy adolat prinsipining huquqiy poydevori sifatida ushbu normalar Ispaniya Konstitutsiyasida mustahkamlangan"[4]. 1982-yilda qabul qilingan va keyinchalik bir necha bor yangilangan Turkiya Respublikasi Konstitutsiyasida ijtimoiy adolat tushunchasi to'g'ridan-to'g'ri 2-moddada o'z aksini topgan. Ushbu modda davlatning asosiy xususiyatlarini belgilab, unda Turkiya inson huquqlariga sodiq, Atatürk prinsiplari asosida qurilgan, jamiyatdagi totuvlik, milliy birlik va adolatga tayanuvchi demokratik, dunyoviy va ijtimoiy-huquqiy davlat sifatida ta'riflanadi. Ayniqsa, "ijtimoiy-huquqiy davlat" (sotsial hukuk devleti) atamasi ijtimoiy adolat prinsipi mazmunini o'zida mujassam etadi. Bu prinsip Konstitutsiyaning boshqa bir qancha moddalari orqali ham davlatning ijtimoiy siyosati va tenglikni ta'minlashdagi majburiyatlari doirasida yanada ochib beriladi. Shunday ekan, ijtimoiy adolat tamoyili huquqiy jihatdan bir necha bandlarda ifodalanganini aytish mutlaqo to'g'ri bo'ladi.

MUHOKAMA. Shu tariqa, ijtimoiy adolat konsepti xalqaro huquq doirasida, ayniqsa rivojlangan davlatlarning konstitutsiyaviy huquq tizimlarida doim muhim va dolzarb masala sifatida e'tirof etilib kelmoqda.

Ijtimoiy adolat tamoyili dastlab, ehtimol, 1949-yilda qabul qilingan Hindiston Konstitutsiyasida [5] tilga olingan bo'lib, u sotsializm va imperialistik kapitalizm o'rtasidagi "uchinchi yo'l" konsepsiyasiga tayangan. Konstitutsiyaning 38-moddasining birinchi qismida jamiyat tartibini shakllantirish maqsadi sifatida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy adolatni barcha muassasalar faoliyatining asosiy tamoyili deb belgilaydi. Shu bois, Hindiston Konstitutsiyasining Muqaddimasida ham ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy

adolatni ta'minlash Hindiston xalqi oldidagi eng muhim vazifalar sifatida ko'rsatilgan. Hind huquqshunosi Durga Das Basuning fikricha, Hindiston Asosiy Qonuni rahbar tamoyillarida davlatning asosiy maqsadi kambag'allikni kamaytirishdan iborat, biroq bu mulkni musodara qilish yo'li bilan emas, balki milliy boylik va resurslarni oshirish hamda ularni jamiyat a'zolari o'rtasida adolatli taqsimlash orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, iqtisodiy demokratiya ushbu maqsadga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi[6]. Biroq, Hindistonda ijtimoiy adolatning direktiv prinsiplari Konstitutsiyada mavjud bo'lsa-da, ular sud tomonidan ijro etilishi mumkin bo'lmagan normalar sifatida qolmoqda. Masalan, taniqli hind huquqshunosi Janhit Abhiyan ta'kidlaganidek, Oliy sud ijtimoiy kam ta'minlangan qatlam uchun belgilangan kvota masalasini ko'rib chiqishda davlat vakolatlarini cheklab, Konstitutsiyaning asosiy tuzilishiga zid kelmasligi ta'minlagan[7].

Rossiyalik davlatshunoslar T.Ya.Xabriyeva va V.Ye.Chirkin ta'kidlaganidek, ijtimoiy davlat zamon talabidir. Biroq, bu davlat har bir fuqaroning jamiyat rivojiga qo'shgan individual hissasidan qat'i nazar, ularga to'liq farovonlik kafolatini berishi shart emas. U faqat insonning eng zarur ehtiyojlarini qondirishga majburdir, ya'ni yashash uchun zarur minimal darajani ta'minlash, ta'lim, sog'liqni saqlash va aloqa kabi infratuzilmani yaratish kabi ijtimoiy sheriklik sharoitlarini shakllantirish. Shu bilan birga, har bir shaxs o'z va oila farovonligi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi kerak. Ushbu tushunchaning ayrim jihatlari yangi Konstitutsiya loyihalarida izohlar ko'rinishida keltirilgan, ammo bunday muhim tamoyil matnda alohida ta'kidlanishi lozim. Shu maqsadda, mazmunan boy va qisqa ifodalarni ishlab chiqish zarur[8].

Mashhur nemis olimi Hayns Lampert ta'rificha, ijtimoiy bozor xo'jaligi — bu iqtisodiy-siyosiy konsepsiya bo'lib, u huquqiy davlat tomonidan kafolatlangan erkinlik, iqtisodiy erkinlik (erkinlik bo'linmasligi sababli, u umumiy erkin tartibning muhim tarkibiy qismi sifatida qabul qilinadi) hamda ijtimoiy himoya va ijtimoiy adolat tamoyillarini uyg'unlashtirishga qaratilgan. Ushbu maqsadlar — erkinlik va adolat uyg'unligi — "ijtimoiy bozor xo'jaligi" tushunchasida o'z ifodasini topadi [9].

NATIJARAR. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab konstitutsion huquqning mazmuni va ahamiyati asta-sekin o'zgarib bordi. Davlat organlarining turlari, vakolatlari va kompetensiyasi haqida olib boriladigan munozaralar (bu mavzu mutaxassislar uchun muhim bo'lsa-da, keng jamoatchilik tomonidan kamroq e'tibor qaratiladi) o'rniga, konstitutsion huquqshunoslar va konstitutsiya mualliflari aholining talablarini inobatga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishga ko'proq e'tibor qaratishdi. Bu jarayonni Ikkinchi jahon urushidan keyin qabul qilingan konstitutsiyalarda, xususan Portugaliya, Nepal, Efiopiya va Braziliya kabi davlatlarda qabul qilingan konstitutsiyalarda yaqqol ko'rish mumkin. Ushbu hujjatlar 1787-yildagi AQSh, 1791-yildagi Fransiya yoki 1871-yilda imperator Vilgelm I tomonidan berilgan, Bismark tomonidan birlashtirilgan Germaniyaning dastlabki konstitutsiyalaridan sezilarli darajada farq qiladi[10]. Anglosakson huquq tizimiga mansub davlatlar — jumladan, Buyuk Britaniyaning norasmiy konstitutsiyasi, AQSh va Britaniya Hamdo'stligiga kiruvchi orol davlatlari bu jarayondan qisman chetda qolgan bo'lsa-da, ularda ham konstitutsiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy qonunlar qabul qilingan.

Turli qit'alardagi davlatlarning konstitutsiyalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, "shaxsning huquqlari, erkinlik, tinchlik, tenglik, umumiy farovonlik va demokratiya kabi an'anaviy gumanistik qadriyatlardan tashqari, yangi konstitutsiyalarda ijtimoiy-iqtisodiy normalar ham keng o'rin olgan. Masalan, Italiya konstitutsiyasida mehnatning markaziy roli, Ispaniyada ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy tamoyillari, Braziliyada iqtisodiyot va jamiyatni rivojlantirishni rejalashtirish, Germaniyada esa xususiy mulkning ijtimoiy funksiyasi ta'kidlangan. Shuningdek, Myanma, Nepal, Butan kabi davlatlarda davlatning inson oldidagi burchlari ham konstitutsiyalarda o'z ifodasini topgan"[11].

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy adolat tamoyili zamonaviy konstitutsion huquqda tobora muhim o'rin egallamoqda. U ijtimoiy davlat, tenglik va inson huquqlari kabi asosiy qadriyatlarni birlashtiruvchi prinsip sifatida namoyon bo'ladi. Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, ijtimoiy adolat prinsipi ko‘plab konstitutsiyalarda mavjud bo‘lsa-da, ko‘pincha faqat deklarativ xarakterga ega bo‘lib qolmoqda.

Ikkinchidan, ijtimoiy huquqlarning amalga oshirilishi sud tizimining mavjudligi va sud himoya mexanizmlariga bog‘liqdir (masalan, Kolumbiyada tutela instituti, Janubiy Afrikada esa cheklangan ijro mexanizmlari).

Uchinchidan, konstitutsion huquq shaxsiy erkinliklar bilan ijtimoiy qayta taqsimlash talablari o‘rtasidagi ziddiyatlarga duch keladi.

To‘rtinchidan, sud faoliyati zaif institutli davlatlarda ijtimoiy adolatni ta‘minlashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi (masalan, Pokiston va Hindiston misollarida).

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Шмарин А.Г. Конституционно-правовые основы формирования социального государства в Республике Казахстан. Автореф. дис. канд. юрид. наук: 12.00.02. - Алматы. - 2004. -С. 14-15.
2. <https://legalns.com/download/books/cons/italy.pdf>
3. <https://legalns.com/download/books/cons/germany.pdf>
4. <https://legalns.com/download/books/cons/spain.pdf>
5. <https://legalns.com/download/books/cons/india.pdf>
6. Басу Дурга Дас. Основы конституционного права Индии: пер. с англ. /Под общ. Ред. М.М.Сайфулина; Вступ. ст. М.М.Сайфулина и С.Ю.Кашкина. - М.: Прогресс, 1986. - 63 с.
7. Janhit Abhiyan. Union of India. Supreme court of India Before:-S.A. Bobde, CJI, R. Subhash Reddy and B.R. Gavai, JJ. Writ Petition (C) No.55 of 2019. D/d. 5.8.2020. <https://www.lawfinderlive.com/archivesc/>
8. Хабриева Т.Я., Чиркин В.Е. Теория современной конституции. - М.: Норма, 2005. С. 314.
9. Хайнц Ламперт. Социальная рыночная экономика. Германский путь. - М.: Дело ЛТД, 1994. - С. 6.
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsialnaya-spravedlivost-kak-faktor-ustoychivogo-razvitiya-obschestva-konstitutsionnye-voprosy>
11. <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsialnaya-spravedlivost-kak-faktor-ustoychivogo-razvitiya-obschestva-konstitutsionnye-voprosy/viewer>



**EVOLUTION OF FORMATION AND
DEVELOPMENT OF CROSS-CULTURE IN THE
HISTORICAL DEVELOPMENT OF CENTRAL ASIA**

*Khamdamova Sitora Safarovna, Doctor of Philosophy (PhD),
Associate professor, Senior teacher, Academy of The Ministry of
Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan*

**MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXIY
TARAQQIYOTIDA**

**KROSS-MADANIYATINI SHAKLLANISH VA
RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI**


*Xamdamova Sitora Safarovna, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi
katta o'qituvchisi, dotsent, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)*

**ЭВОЛЮЦИЯ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ
КРОСС-КУЛЬТУРЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ
РАЗВИТИИ НАРОДОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ**

*Хамдамова Ситора Сафаровна, старший преподаватель
Академии министерства внутренних дел Республики
Узбекистан, доцент, доктор философии по философским
наукам (PhD)*

<https://orcid.org/0000-0002-0798-938X>

e-mail:
sitoraxamdamova92@
gmailcom



Abstract: The article provides a well-founded analysis of the formation and development of cross-cultural ties in the historical development of the peoples of Central Asia. It places particular emphasis on the shaping of cross-cultural interactions. It highlights the broad scope of trade, social and cultural contacts between Eastern and Western societies, which significantly contributed to the development, enrichment and diversification of the Central Asian culture, as well as the intensification of cultural exchange.

Key words: extensive travels, dietary medicine, knowledge, textile art and technology, religious beliefs, leadership, cultural exchange, spread of ideas.

Annotatsiya: Maqolada Markaziy Osiyo xalqlari tarixiy taraqqiyotida kross-madaniy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanish evolyutsiyasi asosli dalillar bilan yoritilgan. Unda mintaqadagi tarixiy jarayonlarning kross-madaniy aloqalarga ko'rsatgan ta'siri, shuningdek, sharq va g'arb xalqlari o'rtasidagi savdo-sotiq, ijtimoiy va madaniy aloqalarning ko'lami keng bo'lib, bu jarayonlar natijasida Markaziy Osiyo madaniyatlari yanada rivojlanib, boyib, o'zaro madaniy almashinuv kuchayishiga olib kelganligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: keng ko'lamlı sayohat, parhezga asoslangan tibbiyot, bilim, to'qimachilik san'ati va texnologiyalari, diniy e'tiqodlar, rahbarlik, madaniy almashinuv, g'oyalarni tarqatish.

Аннотация: В статье представлено обоснованное объяснение становления и развития кросс-культурных связей в историческом развитии народов Центральной Азии. Особое внимание уделяется влиянию исторических процессов, происходивших в регионе, на формирование кросс-культурных взаимодействий. Подчеркивается размах торговых, социальных и культурных контактов между народами Востока и Запада, способствовавших дальнейшему развитию и обогащению культур Центральной Азии, а также интенсификации культурного обмена.

Ключевые слова: обширные путешествия, диетическая медицина, знания, текстильное искусство и технология, религиозные убеждения, лидерство, культурный обмен, распространение идей.

INTRODUCTION. The role of trade in the process of cultural exchange was invaluable, which contributed to a better understanding of peoples and the further development of the process of cultural exchange. In particular, the role of the Great Silk Road made a huge contribution to the formation of the lifestyle and cultural development of the peoples of Central Asia. While the vast majority of connections along the Silk Road were made through countless anonymous journeys, several historical travelers have become famous for the scope of their discoveries and their impact on Silk Road cultures[5].

MATERIALS AND METHODS. All discoveries and achievements that have occurred in history are the result of the development of interactions between peoples. Cities, being centers of science, provided the opportunity to easily acquire medical, cultural and economic skills.

Marco Polo's epic journal along the Silk Road opened a window to the East for Europe, shaping trade, exploration, and culture exchange for centuries. The Silk Road, a network of trade routes stretching across Asia, was a lifeline for centuries, connecting the East and West through trade, cultural exchange, and spread of ideas. Marco Polo, a Venetian merchant, embarked on a legendary journey along this ancient path in the 13th century, leaving an indelible mark on history[3]. Travel along the Silk Road opened up many opportunities for countries. For example, it improved the cultural and economic standard of living. In addition, travel along the Silk Road contributed to the further development of existing religions, such as the emergence of Buddhism in China. As China participated in Silk Road trade during the 7th century with the expansion of the Tang dynasty from its seat in Chang'an (present-day Xi'an), the journeys of one traveler helped to alter the religious beliefs of the Tang leadership. A Buddhist monk, Xuanzang left Chang'an around 629 C.E. in search of greater understanding of Buddhist religious texts that had been brought to China from Tibet and India centuries earlier. Xuanzang's quest took him to the Buddhist center of Dunhuang in western China, across the Takla Makan Desert to the great Central Asian cities of Bukhara and Samarkand, and then through present-day Pakistan to the source of Buddhism in India. In India he studied the most difficult Buddhist texts, which he translated into

Chinese and brought back to Chang'an around 645. On his return, he persuaded Chinese elites to embrace Buddhism[5].

RESULTS AND DISCUSSION. The cultural exchange based on silk led to the unification of peoples. They adopted the best aspects of the textile craftsmanship of the peoples and improved the process of silk weaving, for example, they updated the raw material itself, bringing in patterns, decorations, stones and symbols of various shapes from other countries, and harmonized the textile patterns of the peoples.

Textile patterns attract the eye, and textile textures invite the hand. Textiles can further reveal much about their makers, traders, and users. For example, a specific kind of fiber would suggest the maker's way of life. Pastoral nomads sheared wool off domesticated sheep that required large pastures. Sedentary agriculturalists reeled silk off silkworms that necessitated the planting of the mulberry for feeding the silkworms. Each type of textile construction required different kinds of tools, some portable such as a back-strap loom, others less so, such as a treadle loom. Design and ornamentation revealed the source of inspiration for textile-makers: stylized flora and fauna or imagery with figures suggest myths and narratives, perhaps seen on other objects transported by traders from faraway places. The study of cloth manufacturing leads us to understand how various peoples – nomads, traders, and agriculturalists – contributed to the development of textile art and technology[1]. Of course, it is surprising that carpets are among the historical finds found at archaeological sites. The patterns on them not only indicate the era to which the object belongs, but also reflect factors that indicate the harmony of Western and Eastern cultures in textile patterns.

Chinese silk weaving was influenced by Sogdian (Central Asian), Persian Sasanian, and Indian patterns and styles. For example, Chinese weavers adapted the Assyrian tree of life, beaded roundels, and bearded horsemen on winged horses from the Sasanians, and the use of gold-wrapped thread, the conch shell, lotus, and endless-knot designs from the Indians. Byzantines were also influenced by the Persians, weaving the Tree of Life into designs for European royalty and adopting the Assyrian two-headed eagle as their symbol. The Egyptian draw loom, adapted for silk weaving, was

brought to Syria, then to Iran and beyond. Japanese weavers in Nara developed tie-dye and resist processes for kimonos. In some cases, weavers were uprooted from one city and settled in another; for example, after the Battle of Talas in 751, Chinese weavers were taken as prisoners of war to Iran and Mesopotamia. During the Tang dynasty, cultural exchange based upon silk reached its apex. Discoveries of the silk stowed in the Buddhist caves of Dunhuang in about 1015 C.E. reveal the tremendous richness of silk work of the time, as well as an archaeology of shared styles of silk weaving and motifs[5]. Over time, the popularity and development of the Silk Road contributed to the spread of various services and ideas through it. For example, astronomical and medical knowledge emerged, and artists continued to develop their knowledge through the Silk Road. It is clear that knowledge, ideas, religions, and cultures spread rapidly, and the number of travels by representatives of these fields to expand their knowledge increased.

The growth of silk as a trade item both stimulated and characterized other types of exchanges during the era. Curative herbs, ideas of astronomy, and even religion also moved along the Silk Road network. Arabs traveled to India and China, Chinese to Central Asia, India, and Iran. Buddhism itself was carried along these roads from India through Central Asia to Tibet, China, and Japan. Islam was carried by Sufi teachers, and by armies, moving across the continent from Western Asia into Iran, Central Asia, and into China and India. Martial arts, sacred arts like calligraphy, tile making, and painting also traversed these roads. The Tang capital city of Chang'an, present-day Xi'an, became a cosmopolitan city- the largest on earth at the time, peopled with traders from all along the Silk Road, as well as monks, missionaries, and emissaries from across the continent[5]. It is known that along with trade, religions also spread along the Silk Road. For example, monks played an important role in the spread of Buddhism. They went to India to receive religious education and knowledge in order to develop this religion in their countries, and spread it along this route. The Silk Road was a pivotal conduit in the transmission of the Buddhist concept of kingship. There were many educated monks with the ambition of spreading the Buddhist

faith. They endeavoured in China to exert their influence by assisting the emperor in constructing his ideology. Narendrayaśas (490–589) is a prominent example. He was of Indian origin and had a royal background. In his youth, Narendrayaśas joined a monastery and embarked on extensive travels as part of his spiritual journey to various countries. Unable to return home westward amidst the turmoil of the Turkic upheaval, he continued eastward to China[2].

CONCLUSION. Various types of goods, including medicines and medicinal herbs, were transported along the Great Silk Road, which determined the important role of this route in medicine as well. Food was one part of the cultural exchanges of the Mongol era, moving primarily along with Silk Road, but also, to a more limited degree, by sea. Likewise extremely important was the associated exchange of medical ideas and systems, associated because much of the medicine of the time was based in dietary medicine[4].

REFERENCES:

1. Angela Sheng. Textiles from the Silk Road Intercultural Exchanges among Nomads, Traders, and Agriculturalists. Xinjiang Uyghur autonomous region museum collection, volume 52, number 3 expedition. www.penn.museum/expedition <https://www.penn.museum/documents/publications/expedition/52-3/sheng.pdf>
2. Junqing Wu. Buddhist missionaries at medieval Chinese courts State ideologists and soul savers. UK, 2024. https://livrepository.liverpool.ac.uk/3190692/1/Buddhist%20missionaries%20at%20medieval%20Chinese%20courts_25_03_06_11_21_34.pdf
3. Marco Polo and Silk Road: A Journey through time and trade. <https://conference.uninp.edu.rs/uploaded-files/wp4ABE/4411272/Marco%20Polo%20And%20The%20Silk%20Road.pdf>
4. Paul D. Buell. Food, Medicine and the Silk Road: The Mongolera Exchanges. Washington, US. 2007. <https://edspace.american.edu/silkroadjournal/wp-content/uploads/sites/984/2017/09/Food-Medicine-and-the-Silk-Road.pdf>
5. Richard Kurin. The Silk Road: Connecting People and Cultures. 2002. https://folklife-media.si.edu/docs/festival/program-book-articles/FESTBK2002_07.pdf

TALABALARDA RASMIY MATN YOZISH KO'NIKMA VA MALAKALARINI HOSIL QILISH BOSQICHLARI

*Raxmanov Uchqun, Toshkent amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchisi*

STAGES OF DEVELOPING FORMAL WRITING SKILLS AND SKILLS IN STUDENTS

*Raxmanov Uchqun, Tashkent Applied Sciences University
researcher*

ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ И КОМПЕТЕНЦИЙ НАПИСАНИЯ ФОРМАЛЬНЫХ ТЕКСТОВ У СТУДЕНТОВ

*Рахманов Учқун, научный исследователь Ташкентского
университета прикладных наук*



<https://orcid.org/0009-0006-3840-5347>

e-mail:

rajabova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda rasmiy uslubdagi matn yozish ko'nikma va malakalarini shakllantirish bosqichlari yoritilgan. Rasmiy yozish malakalarini rivojlantirishda bosqichma-bosqich yondashuv, amaliy mashqlar va tahlil asosidagi metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada o'quvchilarda til me'yorlariga asoslangan rasmiy matnlar tuzish bo'yicha pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: rasmiy uslub, matn yozish, ko'nikma, bosqich, talaba, til madaniyati, yozma nutq.

Annotation: this article covers the stages of the formation of skills and competencies in writing text in a formal style in students. Step-by-step approach, practical exercises and analysis-based methods are important in the development of formal writing skills. The article analyzes pedagogical approaches to drawing up formal texts based on language norms in students.

Keywords: formal style, text writing, skills, stage, student, language culture, written speech.

Аннотация: В данной статье освещаются этапы формирования у учащихся навыков и умений писать текст в формальном стиле. Поэтапный подход, практические упражнения и методы, основанные на анализе, становятся все более важными в развитии навыков формального письма. В статье проанализированы педагогические подходы к составлению официальных текстов на основе языковых норм у учащихся.

Ключевые слова: формальный стиль, текст, навыки, этап, студент, языковая культура, письменная речь.

KIRISH. Zamonaviy axborot makonida aniq, lo'nda va rasmiy ifodalay oluvchi yozma nutq egallash – har qanday soha vakili uchun zarur ko'nikmadir. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun rasmiy uslubdagi matnlar – ariza, bayonnoma, tushuntirish xati, ish reja va xizmat xatlarini to'g'ri tuza olish malakasi professional tayyorgarlikning muhim jihataridan biri hisoblanadi. Bunday matnlarni to'g'ri tuzish

uchun talabalar tegishli bosqichlarda til, uslub va tarkibiy qurilish bo'yicha tizimli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. T.Saydaliyev "O'zbek tilida ish yuritish bo'yicha mashqlar to'plami"ni ishlab chiqqani bu borada amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish imkonini beradi¹.

ASOSIY QISM. 20-topshiriq. *Lug'atdan ajratib yoziladigan so'zlarga 10 ta misol toping va ularning 4 tasi ishtirokida gaplar tuzing. 18-mashq.*

¹ Saydaliyev T. O'zbek tilida ish yuritish bo'yicha mashqlar to'plami. O'quv qo'llanma. –Toshkent. 2010. 40 b.

Matnni o'qing. Ajratib yoziladigan so'zlarni aniqlabl tuzilishini izohlang. — ... Maqsadlari juda ochiq! Bittasi mingboshi bolmoqchi, ikkinchisi Normuhammadning o'rniga minmoqchi, uchinchisi yana bir shaharni o'ziga qaram qilmoqchi. Xon ersa Musulmongulga bo'lgan adovatini qipchoqni qirib alamdan chiqmoqchi! Menga qolsa o'rtada shundan boshqa hech gap yo'q, o'g'lim! Men ko'p umrimni shu yurtning tinchligi va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilib, o'zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qilolmadim. Ittifoqning nima ekanini bilmagan, yolg'iz o'z manfaati, shaxsiyati yo'lida bir-birini yeb-ichgan mansabparast, dunyoparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi... Biz shu holda ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv quyadigan bo'lsak, yaqindirki, chor istibdodi Turkistonimizni egallar va biz bo'lsak o'z qo'limiz bilan kelgusimizni o'ris qo'liga qoldirgan bo'lurmiz. O'z naslini kofir qo'liga tutqin qilib topshiruvchi — biz ko'r va aqlsiz otalarga xudoning la'nati albatta tushar, o'g'lim! Bobolarning muqaddas gavdasi madfun Turkistonimizni kofirxona qilishga hozirlangan biz itlar, yaratuvchining qahriga albatta yo'liqarmiz! Temir Ko'ragon kabi dohiylarning, Mirza Bobur kabi fotihlarning, Forobiy, Ulug'bek va Abu Ali ibn Sino kabi olimlarning o'sib-ungan va nash'u namo qilganlari bir o'lkani halokat chuquriga qarab sudraguvchi, albatta, Tangrining qahriga sazovordir, o'g'lim! Gunohsiz bechoralarni bo'g'izlab, bolalarini yetim, xonalarini vayron qiluvchi zolimlar — qurtlar² vii qushlar, yerdan o'sib chiqqan giyohlar qarg'ishiga nishonadir, o'g'lim!.. (A.Qodiriy, "O'tkan kunlar").

1. Rasmiy matn yozish ko'nikmasining mazmuni va ahamiyati. Rasmiy uslubdagi matnlar – huquqiy, ma'muriy yoki tashkiliy maqsadlarda yoziladigan hujjatlarning asosiy shaklidir. Bunday matnlar quyidagicha belgilanadi:

- Obyektivlik va xolislik;
- Qonuniy termin va atamalardan foydalanish;
- Muayyan andazaga rioya qilish;
- Qisqa, tushunarli va aniq bo'lish.

Talaba bu uslubda matn yozishni o'rganishi orqali ish joyida samarali hujjatlar tuza oladi, xizmat

yo'zishmalarini yurita oladi va rasmiy nutq madaniyatiga amal qiladi.

2. Rasmiy matn yozish ko'nikmalarini hosil qilish bosqichlari. Talabalarda rasmiy matn yozish ko'nikmasini shakllantirish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

2.1. Nazariy tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichda talabalar rasmiy uslub xususiyatlari, matn turlari va yozilish me'yorlari bilan tanishtiriladi. Mashg'ulotlar quyidagilarga qaratiladi:

- Rasmiy uslubdagi matnlarning turlari (ariza, dalolatnoma, xizmat xati va b);
- Uslubiy birliklar va til vositalarini o'rganish;
- Termin va rasmiy ifodalarni tanlash me'yorlari.

2.2. Model matnlar asosida tahlil bosqichi. Talabalar turli rasmiy matn namunalari ustida ishlaydi. Ularning tarkibi, tuzilishi, uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Savol-javob, muhokama va sinfiy tahlil asosida o'rganish chuqurlashtiriladi.

2.3. Reproduktiv bosqich (ko'chirma asosida yozish). Talabalarga andoza yoki namunaviy matnlar asosida o'xshash hujjatlar yozdiriladi. Bu bosqichda quyidagi usullar qo'llaniladi:

- Gap tuzilmasini to'ldirish;
- Yozma topshiriqlarni qayta ishlab chiqish;
- Matnni to'ldirish, qisqartirish yoki kengaytirish.

2.4. Mustaqil yozish bosqichi. Talabalar o'z mustaqil fikri asosida vaziyatga mos rasmiy matn tuzishni o'rganadi. Ular real shart-sharoitlarga asoslangan topshiriqlarni bajaradi, masalan:

- Institut rahbariyatiga yoziladigan ariza;
- Seminar rejasini tuzish;
- Amaliyot hisobotining kirish qismini yozish.

2.5. Tahrir va tahlil bosqichi. Yozilgan matnlar grammatik, uslubiy va mantiqiy jihatdan tahrir qilinadi. Talabalarga matndagi kamchiliklarni topish, uni takomillashtirish bo'yicha fikr bildirish topshiriqlari beriladi. Bu bosqichda tanqidiy fikrlash va o'z-o'zini baholash ko'nikmalari shakllanadi.

3. Amaliy tavsiyalar

- a) O'quv jarayonida rasmiy uslubga oid audio va video namunalar bilan ishlash;

² Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. Darslik. Uchinchi nashri. Jizzax DPI. Cho'lpon

nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. –Toshkent, 2008. 509 b

b) Rasmiy hujjatlar tuzish bo'yicha interaktiv mashg'ulotlar tashkil etish;

c) Matn yozish jarayonini bosqichma-bosqich elektron platformalarda amalga oshirish (Google Docs, Moodle va h.k.);

d) O'quvchilarning yozgan matnlariga individual fikr bildirish va tahrir asosida fikr almashish.

Hujjat tilining aniqligi, tushunarligi maqsadning tezroq amalga oshishiga xizmat qiladi. Ariza, asosan, qo'lda yoziladi va mazmuni erkin bayon qilinadi. Mazmuni va uslubiga ko'ra arizalar bir xil emas: u bir necha so'zdan iborat bo'lishi, masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan xat tarzida bo'lishi ham mumkin. Shu nuqtayi nazardan arizalar sodda va murakkab turlarga ajratiladi. Murakkab ariza matni katta bo'lishi bilan birga, unga ilovalar qilinishi mumkin. Aksar hollarda arizalar shaxsiy xususiyatga egadir. Shuningdek, xizmat arizalari ham bo'ladi. Xizmat arizasi – fuqarolar yoki tashkilotlarning o'z huquqlarini amalga oshirish yoki manfaatlarini himoya qilish yuzasidan yozma axborotlaridir.

Misol uchun:

1-mashq. *Gaplarni diqqat bilan o'qing. Noto'g'ri qo'llangan so'zlarni aniqlab, ma'nosiga ko'ra mos so'z bilan almashtirib, gaplarni ko'chiring.*

1. So'zlovchining o'z fikrini qisqa va batafsil ifodalab, tinglovchiga yetkazishi ham o'ziga xos san'atdir. 2. So'zga benazir kishi mayda bir maqsadni uzoq so'zlab bayon qiladi. 3. Nojo'ya so'z yurak ko'zgusini parchalashi, tag'in insonni vayron qilishi mumkin ekanligini yodda tuting. 4. Nutqi asal kishining mehribon odamizoti ham ko'p bo'ladi. 5. Shirin so'z, go'zal til inson dilini qanchalik xushnud etsa, aksincha, achchiq so'z, beso'naqay gap inson dilini shunchalik noxush qiladi, dil piyolasini parchalaydi. 6. Mashq sababli so'zlash qobiliyatini, nutq madaniyatini, notiqlik san'atchiligini odamlar olqishlaydigan saviyada egallash mumkin. 7. Tilda uni nomlovchi suxan bo'lmasa, bunday so'zni hamsoya tildan olish mumkin. Ammo tilda turgan so'zlar o'rnida boshqa suxanni qo'llash falokatdir.

Davlat tilida ish yuritish bo'yicha yaratilgan qo'llanma va darsliklarning aksariyatida nazariy

ma'lumotlar ustunlik qiladi. Quyidagi darslikda esa, talabaga matn tuzish ko'nikmalarini hosil qiluvchi o'quv topshiriqlari berilgan:

2-topshiriq. *O'zingiz tanlagan fan yo'nalishidagi darslikdan biror matn parchasini o'qing, so'ng undagi ixtisoslik atamalarini boshqa ma'nodoshlari bilan almashtirib, mustaqil ravishda matn yarating. Asl va ijodiy matn o'rtasidagi farqni izohlang. Esda tuting ixtisoslikka oid matn tuzishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim: 30 30 - matnning qaysi nutq uslubida yozilishi kerakligini oldindan bilish; - ixtisoslikka oid so'z va shartli belgilarni to'g'ri tanlay olish va o'rinli joylashtirish; - so'z va atamalarini imlo me'yorlariga rioya qilgan holda yozish; - kasbdoshlarga unchalik tanish bo'lmagan yoki faol qo'llanmaydigan atama, shartli belgi yoki qisqartmalarga qavs ichida izoh berish; - ixtisoslikka oid atamalarini boshqa tillardan o'zlashtirish, so'z yasashda milliy tilning tabiatini nazarda tutish; - kasb-hunar so'zlari va atamalarini o'rinsiz takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik, ularning ta'sirchanligini oshirish maqsadida leksik, morfologik va sintaktik sinonimiya imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish va boshqalar³.*

Zamonaviy mantiq atamasi XIX asrning oxiri — XX asrning boshlarida mantiq ilmi rivojining hozirgi bosqichini ifodalash uchun qo'llaniladi. Bu bosqich yana matematik mantiq va simvolik mantiq terminlari bilan ham ataladi.

XULOSA. Rasmiy matn yozish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish orqali talabalar amaliy til ko'nikmalarini mustahkamlab boradi. Bu jarayon o'z navbatida ularning kasbiy faoliyatiga tayyorlanishida muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Nazariy bilimlar bilan birga amaliy topshiriqlarni uyg'unlashtirish, tanqidiy tahlil va tahrir asosida ishlash – muvaffaqiyatli natijaga erishishda muhim omillardir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N.Mahmudov, A.Rafiyev, I.Yo'ldoshev. Davlat tilida ish yuritish. Darslik. Toshkent – 2002. 69.
2. Saydaliyev T. O'zbek tilida ish yuritish bo'yicha mashqlar to'plami. O'quv qo'llanma. –Toshkent. 2010. 40 b.
3. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. Darslik. Uchinchi nashri. Jizzax DPI. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. –Toshkent, 2008. 509 b.

³ N.Mahmudov, A.Rafiyev, I.Yo'ldoshev. Davlat tilida ish yuritish. Darslik. Toshkent – 2002. 69

ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING ICHKI ISHLAR XODIMLARI MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI O'RNI

*Inomov Avazbek Soyibjonovich,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi*

THE ROLE OF REFORMS IN THE SYSTEM OF INTERNAL AFFAIRS BODIES IN IMPROVING THE SPIRITUALITY OF INTERNAL AFFAIRS EMPLOYEES

*Inomov Avazbek Soyibjonovich,
Researcher at Bukhara State University*

РОЛЬ РЕФОРМ В СИСТЕМЕ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ В ПОВЫШЕНИИ ДУХОВНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

*Иномов Авазбек Сойибжонович,
Научный сотрудник Бухарского государственного
университета*



*inomovavazbek03@
gmail.com*



Annotatsiya: Mazkur maqolada so'nggi yillarda Ichki ishlar sohasida tizimli islohotlar olib borilayotganligi ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirishga xizmat qilayotganligi hamda mazkur islohotlarning Ichki ishlar xodimlari ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyati o'rganilib, falsafiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yangi uyg'onish davri, mas'uliyat, jamoat tartibi, fuqarolar huquqlari, erkinlik, ishonchli himoya, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, xodimlarni uzluksiz tayyorlash, qayta tayyorlash, malaka oshirish, qonun, ichki ishlar sohasi.

Annotation: This article studies and philosophically analyzes the fact that in recent years, systematic reforms have been carried out in the field of Internal Affairs, which serve to radically increase the efficiency of the activities of internal affairs bodies, and the role and significance of these reforms in improving the spirituality of internal affairs employees.

Keywords: new era of revival, responsibility, public order, citizens' rights, freedom, reliable protection, spiritual and educational work, continuous training, retraining, advanced training of employees, law, internal affairs.

Аннотация: В статье исследуется и философски анализируется тот факт, что в последние годы в сфере внутренних дел проводятся системные реформы, способствующие кардинальному повышению эффективности деятельности органов внутренних дел, а также роль и значение этих реформ в повышении духовности сотрудников органов внутренних дел.

Ключевые слова: новая эпоха возрождения, ответственность, общественный порядок, права граждан, свобода, надежная защита, духовно-просветительская работа, непрерывное обучение, переподготовка, повышение квалификации сотрудников, право, органы внутренних дел.

Kirish (Introduction). Ichki ishlar tizimini isloh qilish faqat institutsional samaradorlik yoki huquqiy modernizatsiya masalasi emas, bu tizim ichida xizmat qilayotganlarning axloqiy o'zgarishida ham chuqur ildiz otgan. O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar nafaqat tarkibiy takomillashtirishga, balki ichki ishlar organlari xodimlarining ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ham katta e'tibor qaratmoqda. Ichki ishlar tizimidagi islohotlar, jumladan, Prezidentning Farmonlari huquqni muhofaza qilish organlarining samaradorligi ko'p jihatdan xodimlarning shaxsiy daxlsizligi, ma'naviy mustahkamligi va kasbiy axloqiga bog'liqligini tan oldi. Bunday sa'y-

harakatlar ijtimoiy tizimlar har bir shaxsning qadr-qimmatini asosida qurilishi kerakligini ta'kidlaydigan falsafiy gumanizmga mos keladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ichki ishlar organlari tizimidagi islohotlarning ichki ishlar xodimlari ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rniga oid masalalarini falsafiy tahlil qilishda ilmiy bilishning analiz va sintez, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik usul, sinergetik usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions). O'zbek madaniy-falsafiy kontekstida ma'naviyat deganda insonning ichki dunyosi, axloqiy pozitsiyasi, ma'naviy salomatligi, fuqarolik mas'uliyati tushuniladi. Islohotlar ichki ishlar tizimining barcha bo'g'inlarida ma'naviy yetakchilikni tarbiyalash orqali ushbu ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu konsepsiya fazilat etikasi bilan rezonanslashadi, bu yerda rahbarning xarakteri institutning natijasini shakllantiradi. Huquqiy tizimlar nafaqat qoidalarni, balki axloqiy ijrochilarni ham talab qiladi. Islohotlar ofitserlarni nafaqat kodeks va me'yorlar, balki vijdon, adolat va ma'naviy-axloqiy mulohazalar asosida faoliyat yuritishga undaydi. Shu ma'noda, ichki ishlar tizimidagi islohotlar qonuniylik va ma'naviyat o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish, adolatning ham qonuniy, ham axloqiy bo'lishini ta'minlashga qaratilgan.

“O'zbekistonning yangi uyg'onish davrini yaratishga kirishgan ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma'naviyat shu'lasini porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashga da'vat etib turishi zarur” [1]. “Ma'naviyat nuri” ichki uyg'onishni - har bir insonning qalbi va ongini yoritishi kerak bo'lgan ong nurini anglatadi. Bu shaxsning fazilat manbai sifatida ko'rilgan klassik falsafiy an'analardan kelib chiqadi. Masalan, Aflotun tafakkurida ruhning ma'rifati adolatli jamiyatga olib boradi. Chuqur mas'uliyat hissi bilan yashash g'oyasi individual axloqiy rivojlanish kollektiv taraqqiyotdan ajralmas degan axloqiy tamoyilga taalluqlidir. Tarixiy jihatdan uyg'onish jamiyat o'zining asosiy qadriyatlarini qaytadan uyg'otib, kelajagini qaytadan tasavvur qilganda yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan, har bir fuqaro shaxsiy mukammallik va jamoat farovonligi o'zaro bog'liq bo'lgan Yevropa Uyg'onish davri g'oyalari o'xshash fuqarolik fazilatini mujassam

etishga chaqiradi. O'zbek tafakkurida ma'naviyat shaxsiy taqvodan ham ko'proq bu jamiyatni bir-biriga bog'laydigan madaniy va axloqiy kuchdir. Bu konsepsiya Sharq falsafasidagi jamoa etikasi g'oyasiga mos keladi, bunda jamiyat farovonligi uning a'zolarining ma'naviy salomatligi bilan bog'liq. Shu ma'noda, xalqning ma'naviy-axloqiy tiklanishi nafaqat madaniy intilish, balki O'zbekistonda “yangi uyg'onish”ning haqiqiy ro'yobga chiqishi uchun falsafiy zaruratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qabul qilingan PF-5005-sonli farmoni ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishning doktrinal va konseptual asosi bo'lib xizmat qildi. Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan mazkur farmon ichki ishlar organlari tizimida tub islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu esa, ichki ishlar organlarini aholiga o'z vaqtida yordam ko'rsatadigan, uning har bir xodimi “Xalq manfaatlariga xizmat qilish”ni o'zining muqaddas xizmat burchi [2] deb biladigan ijtimoiy yo'naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishga zamin yaratdi. O'z mohiyatiga ko'ra, farmon an'anaviy boshqaruvdan mas'uliyat va jamoatchilikka xizmat ko'rsatish orqali ma'naviy qonuniylikka intiladigan modelga o'tishni aks ettiradi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu davlat hokimiyatining qonuniyligi uning fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish qobiliyatidan kelib chiqadi. Farmonda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratilayotgani huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida adolatga yo'naltirilgan yondashuvga intilayotganini ko'rsatadi. Bu adolatni boshqaruvdagi eng oliy fazilat va siyosiy barqarorlik va axloqiy davlat xizmatining asosi deb hisoblagan Aristotelning klassik falsafiy tushunchalari bilan bog'liq. Ichki ishlar organlarini katta mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga chaqirish axloqiy institutsionalizmga falsafiy siljishni nazarda tutadi. Farmon huquq va erkinliklarni ishonchli himoya qilishga ustuvor ahamiyat qaratib, insonning o'ziga xos qadr-

qimmatini – insonparvarlik va islom axloqiy an'analarining markaziy mavzuini so'zsis tasdiqlaydi. Bu nuqtai nazardan, davlatning roli hukmronlik emas, balki inson kamoloti va qadr-qimmatiga xizmat qilishdir. Ushbu farmonni "doktrinal va kontseptual asos" deb atash paradigma o'zgarishini - ichki ishlarni boshqaradigan asosiy qadriyatlarni qayta baholashni ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son Farmoni [3] ga 1-ilova "Ichki ishlar organlari tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ning II yo'nalishida "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar, xodimlarni uzluksiz tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarador mexanizmini joriy etish" 9-bandi – "quyidagilarni o'z ichiga oluvchi Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash belgilangan edi. Axloqiy va tarbiyaviy ishlarga alohida e'tibor qaratilishi, shaxsning ichki o'zgarishi tarkibiy islohotlardan oldin bo'lishi haqidagi g'oyani ta'kidlaydi. Bu shaxsiyatning falsafiy tamoyillari va inson kapitali nazariyasiga mos keladi, bunda shaxsning rivojlanishi - intellektual, axloqiy va ma'naviy jihatdan - jamiyat taraqqiyotining poydevori sifatida qaraladi. An'anaga ko'ra, ichki ishlar organlari kabi muassasalar ijro va nazoratga e'tibor qaratadi. Biroq, bu ko'rsatma axloqiy ong institutsional infratuzilmaning bir qismiga aylangan qiymatga asoslangan boshqaruvga paradigmaning o'zgarishini anglatadi. Bu Konfutsiy kabi mutafakkirlarning tafakkurini aks ettiradi, u boshqaruvda majburlashdan ko'ra fazilat va axloqiy namunani ta'kidlagan. O'zbekiston ichki ishlar organlariga ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni tizimli ravishda integratsiya qilish majburiyatini olgan holda nafaqat kuchli, balki ma'naviy-axloqiy mas'uliyatli davlat apparatini barpo etishga intilishidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 oktyabrda Ichki ishlar xodimlarini kasb bayrami munosabati bilan so'zlagan nutqida: "Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo'lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim bu – ichki ishlar sohasi, desak, ayni haqiqat bo'ladi" [4], - deya ta'kidlagani ayni haqiqatdir. Qonun ustuvorligi davlatchilikning markaziy o'rni bo'lib, uning amalda tatbiq etilishi institutlarga - eng bevosita, ichki ishlar organlariga,

masalan, politsiya, tergov bo'limlari va boshqa huquqni muhofaza qilish organlariga tayanadi. Huquqsiz davlat shunchaki kuch mexanizmi, lekin huquqiy davlat oliy axloqiy tartibni aks ettiradi. Prezident Mirziyoyev qonunning o'zi amalda gavdalanmasa mavhum ekanligini ta'kidlaydi. Bu qonuniy realizmga asoslanadi - falsafiy yondashuv, qonunlar faqat ularni talqin qilish va amalga oshirish orqali ma'noga ega bo'ladi. Bu borada ichki ishlar organlari qonunning jonli kuchi hisoblanadi. Ichki ishlar qonunni amalda ifodalashini ta'kidlab, bu organlarga ma'naviy mas'uliyat ham yuklaydi. Unda huquqni muhofaza qilish organlari nafaqat intizom va nazorat, balki adolatni ta'minlash, huquqlarni himoya qilish va fuqarolarning qadr-qimmatini himoya qilishdan iborat ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion, recommendations). Muxtasar qilib aytganda, O'zbekiston ichki ishlar tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ichki ishlar organlari xodimlarining ma'naviy-axloqiy kamolotini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat kasbiy mahorat bilan bir qatorda ma'naviyatga ham urg'u berib, nafaqat ichki ishlar organlarini mustahkamlamoqda, balki butun davlat xizmatining ma'naviy yangilanishiga ham hissa qo'shmoqda. Bu adolat, qadr-qimmat va insonga qaratilgan boshqaruvga falsafiy sodiqlikni aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: 2021. – 464 б.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-son farmoni. <https://lex.uz/ru/>.
3. Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Res-si Prezidentining Farmoni, 26.03.2021.PF-6196-son. <https://lex.uz/docs/5344118>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-oktyabr kuni ichki ishlar xodimlarini kasb bayrami munosabati bilan bayram tabrigi (2020-yil 25-oktyabr). Ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylariga. Yangi O'zbekiston gazetasi. № 218 (740), 2022-yil 25-oktyabr.

AZIZIDDIN NASAFIYNING “INSONI KOMIL KITABI” ASARINING TUZILISHI VA TASAVVUFYI-FALSAFIY TAHLILI

*Narziev Zubaydillo Ibodilloevich,
Buxoro davlat pedagogika instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti,
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)*

STRUCTURE AND SUFI-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF AZIZIDDIN NASAFI'S WORK “THE BOOK OF THE PERFECT MAN”

*Narziev Zubaydillo Ibodilloevich,
Associate Professor of the Department of “Social Sciences” of
the Bukhara State Pedagogical Institute,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences*

СТРУКТУРА И СУФИЙСКО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АЗИЗИДДИНА НАСАФИ “КНИГА СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА”

*Нарзиев Зубайдилло Ибодиллоевич,
Доцент кафедры «Общественные науки» Бухарского
государственного педагогического института,
Доктор философии (PhD) по специальности «Философские
науки»*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'rta asr tasavvuf ta'limoti va falsafasining yirik namoyandasi, ulug' ajdodlarimizdan biri bo'lgan Aziziddin Nasafiyning “Komil inson kitobi” asari, uning tuzilishi, mazmuni va tasavvufiy-falsafiy tahlili haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, mazkur asarning o'rganilishi, jahonning turli tillariga qilingan tarjimalariga oid fikrlarga ham o'rin berilgan.

Kalit so'zlar: Aziziddin Nasafiy, “Komil inson kitobi”, tasavvuf falsafasi, komil inson, Haqiqati Muhammadiya, jabarut olami, malakut olami, mulk olami, olami kabir, olami sag'iy, vahdat ul vujud.

Аннотация: В данной статье представлена информация о труде “Книга совершенного человека” Азизиддина Насафи, выдающегося представителя средневекового суфийского учения и философии, одного из наших великих предков. Рассматриваются структура, содержание и суфийско-философский анализ этого произведения. Также приводятся сведения об изучении данного труда и его переводах на различные языки мира.

Ключевые слова: Азизиддин Насафи, “Книга совершенного человека”, философия суфизма, совершенный человек, Хакикат Мухаммадия, мир джабарут, мир малакут, мир мулк, алам кабир, алам сагир, вахдат аль-вуджуд

Abstract: This article provides information on the work “The Book of the Perfect Man” by Aziziddin Nasafi, a prominent representative of medieval Sufi teachings and philosophy and one of our great



<https://orcid.org/0000-0003-0401-2992>

zubaydillonarziyev@gmail.com



ancestors. It discusses the work's structure, content, and offers a Sufi-philosophical analysis. Additionally, the article presents views on the study of this work and its translations into various languages of the world.

Keywords: Aziziddin Nasafi, "The Book of the Perfect Man", Sufi philosophy, the Perfect Man, The Muhammadan Reality, the world of divine power (jabarut), the world of angels (malakut), the physical world (mulk), the macrocosm, the microcosm, unity of existence (wahdat al-wujud).

KIRISH (INTRODUCTION). Komil inson masalasini o'rganish va tahlil qilish juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Tarixiy jarayon shundan dalolat beradiki, insoniyat doimo komil inson kim, qanday sifat va xususiyatlarga ega bo'lishi kerak, uning mohiyati nimadan iborat degan savollarga javob izlash bilan birga, komil insonni izlagan. Bu izlanishlar tufayli ba'zan tabiatdan tashqari mavjudotlar va turlarning tarbiyachilari (alallar), ba'zan afsonaviy qahramonlar, ba'zan esa tarixning muhim shaxslari komil inson unvoni bilan e'tirof etilgan. Mazhab, din, falsafa va fikriy maktablar hamda madaniyatlarning har birida komil insonning izlari uchraydi. Buddha, Konfutsiy, Zardusht, Iso (a.s.), Muhammad (s.a.v.), Aflotun, Arastu, mutasavviflar, oriflar va shuningdek, zamonaviy psixologlar komil inson yoki ideal inson masalasini (erkin inson, faylasuf, ulug' inson, shayx, buyuk inson, Allohning xalifasi, kamolotga erishgan inson... kabi turli nomlar bilan) tilga olishgan. Komil insonga intilishning ildizi insonning ichki kamolotga va shuningdek, nuqson, zaiflik va ezilishdan uzoqlashishga bo'lgan moyilligidir. Adlarning ta'biri bilan aytganda, bolalarga xos tuyg'ulardan uzoqlashish insonning asosiy ehtiyojlaridan biridir. Adler boshqa bir joyda shunday deydi: "Buning manbai ham falsafada, ham diniy tafakkurda mavjud bo'lgan g'oyadir (Insonning xudoga o'xshashi)." ¹ Doktor Mas'ud Ozarbayjoniy "Komil inson" mavzusining keng o'rganilishi fanlararo (hech bo'lmaganda falsafa, psixologiya va axloq fanlari o'rtasida umumiy) mavzu bo'lsa-da, turli mutafakkirlarning mavzu haqidagi fikrlarini o'rganish kerak²-deb ta'kidlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW). Yigirma ikki risolaning mashhur nomi Insoni Komildir.

¹ Mesud Azerbaycani. Islam ve Modern Psikolojiye Göre insanı Kamil. Sonbahar 2016, Yıl: 5, Sayı:12. -S.183-204

² Mesud Azerbaycani. Islam ve Modern Psikolojiye Göre insanı Kamil. Sonbahar 2016, Yıl: 5, Sayı:12. -S.183-204

"Inson-i Komil" deyilganda asosan ikki asar ko'z oldimizga keladi. Ulardan birinchisi Abdulkarim Jiliyning (vafot etgan yili 832/1428) "al-Inson al-komil fi'l-avoil va'l-avohir" ³ asari bo'lsa, ikkinchisi Aziziddin Nasafiyning "Inson-i Komil" asaridir. Hozirgi kunga qadar bu ikkala asarning bir necha tillardagi tarjimalari mavjud. "Inson-i Komil" Aziziddin Nasafiyning tasavvuf, vahdat ul vujud va falsafaga oid risolalaridan iborat bo'lgan forscha tasavvuf manbasi hisoblanadi. Nasafiy asarning muqaddimasida darveshlar guruhi uning oldiga kelib, soliklar bilishi lozim bo'lgan ilmlar haqida bir risola jam etishni so'rganlarini va o'zi ham Haq Taolodan yordam tilaganidan so'ng soliklarning bu iltimoslariga javob berib, ushbu risolalarni yozganini bayon etadi⁴. Mutasavvifning yaratgan asarlari orasida birinchi bo'lib xotirimizga keladigan va ular ichida eng mashhuri ham "Inson-i Komil"dir. Asar muqaddimasining ikkinchi fasli inson kamoloti yoki komil inson masalasiga bag'ishlangan. Bizning fikrimizga ko'ra, tadqiq va tahlil etilgan mavzular ichida birinchi o'ringa chiqqani, salmoqli o'rin egallaganligi va tasavvufiy tushunchalar istilohlari ichida eng e'tiborlisi insoni komil bo'lgani sababli ham mazkur asarga shu nom berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYA SI. (RESEARCH METHODOLOGY).

Tadqiqotda analiz, sintez, tarixiylik, sinergetika va germenevtika, vorisiylik, qiyosiy tahlil, usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR. (ANALYSIS AND RESULTS). Komil inson martabasi tasavvuf ta'limoti va falsafasida inson erishish uchun maqsad sanalgan eng oliy martabadir. Olam-

³ Abdülkerim Cîlî'. El' İnsanü'l-Kâmil fi Ma'rifeti'l 'Evahir-i ve'l-Evâil. Mütercim Abdülaziz Mecdi Tolun. Istanbul.: "Iz yayıncılık", 2002. -493 s.

⁴ Азизиддин Насафий. Комил инсон китоби. Нажмиддин Комилов, Олимжон Давлатов таржимаси. Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, Тошкент: 2021. -Б. 5.

i sifliya mavjud bo'lgan odam o'zini sifliyligidan xalos etib, ulviylikka erishib, komil ma'noda mukammal inson bo'lish uchun harakat qiladi. Tasavvuf falsafasining eng muhim masalalaridan bo'lgan insonni kamolot sari yetaklash, uni komil anglash, borliq va bilish muammolari bilan bog'liqligi bilan bir qatorda diniy va axloqiy o'lchovlari mavjud bo'lgan chuqur fikriy sa'y-harakat va ruhiy tajriba mahsuli sifatida yuzaga kelgan. Falsafa tarixida ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladigan "kichik olam" va "katta olam" g'oyasi bilan bog'liq holda qadimgi madaniyatlarda ham inson bilan olam o'rtasida bir munosabat ko'rilgan, ya'ni birida mavjud bo'lgan xususiyatlarning hech bo'lmaganda bir qismi boshqasida ham mavjud deb hisoblangan. Komil inson masalasi Ibn al-Arabi tomonidan asoslangan borliq martabalarini nuqtai nazaridan tahlil etilganda yanada yorqinroq ko'rinadi. Ibn al-Arabiya ko'ra, mutlaq vujud birinchi martabadagi (taayyun-i avval) ahadiyatini vohidiyatga aylantirish orqali taayyunotga kirishgan. Asl yaratish amali Ibn al-Arabi "Haqiqati Muhammadiya" deb nomlagan martabadan keyin sodir bo'ladi, butun mavjudot undan yaratiladi. Taayyun (ahadiyat) "Haqiqati Muhammadiya"ning botini bo'lib, u ham la taayunning zohiridir. Bu martabaga berilgan nomlardan biri ham komil insondir. Alloh taolo komil insonni yaratganida unga aql-i avval martabasini bergan va unga bilmagan narsalarni o'rgatgan. Uning martabasini farishtalarga ta'riflab, ularga insonning olamda o'zining xalifasi ekanini bildirgan, koinot va yerdagi barcha mavjudotni uning amriga bo'ysundirgan, shu tariqa Allohning olamdagi hukmi komil inson bilan zohir bo'lgan. Ibn al-Arabiya ko'ra, olam mavjudligining sababi va himoyachisi bu komil insondir. Allohni faqat komil inson bila oladi. Chunki u Alloh ismining mazharidir. Ikkinchi tomondan, mavjudot darajalarining eng so'nggisi ham komil inson martabasidir. Bu martaba la taayyundan boshqa barcha martabalarining haqiqatlarini qamrab oladi.

"Insoni komil" asarining besh fasldan iborat bo'lib, shariat, tariqat va haqiqatning nima ekanligi, komil insonning kim ekanligi, uning xususiyatlari nimalardan iboratligi, qanday ustun quvvatlarga egaligi, ozod komil inson nima ekanligi, uning xususiyatlari va komil insondan farqli jihatlari, suhbatning mohiyati nima ekanligi va sulukning

qanday ma'noga ega ekanligi tahlil qilingan. Asarning birinchi risolasida inson xilqatining surati, insonning qanday yaratilgani, nutfa tarbiyasi va uning rivojlanishining boshqa yo'llari, qay tariqa rivojlanib inson holatini olgani, o'simlik va hayvon ruhining mohiyati nima ekani, besh ichki va besh tashqi hisning nima ekanligi, harakatlanish quvvatining nima ekani, hind sulukining qanday ekani, ruhning mohiyati va mazmuni, xususiyatlari, insoniy ruhning taraqqiyoti qanday bo'lishi, insonning nechta ruhi borligi haqidagi shariat va hikmat ahlining qarashlari nimalardan iborat ekanligi, jismlar, ruhlar va mizojning qanday paydo bo'lgani haqida so'z yuritilgan. Ikkinchi risolada esa vojbul-vujudning qanday ma'no anglatishi, taqlid ahli, istidlol ahli va kashf ahlining Alloh taoloning mavjudligi va vahdoniyati haqidagi qarashlari hamda ular o'rtasidagi farq nimada ekani ko'rib chiqilgan.

Uchinchi risolada insonning ruhlar va jismlarning qanday yaratilganligi, insonning ruh va jismdan iboratligi, ruh va ruhlar olami hamda ruhlarning darajalari nima ekanligi, jism, jismlar olami va jismlarning darajalari nima ekanligi, ruhlardan har birining qaysi darajalarda joylashganligi, maqomi ma'lum nima ekanligi, ilohiy taqdir qanday ma'noga ega ekanligi va uni qanday tushunish kerakligi, sirot va sirotidan o'tish uchun nimalar zarurligi, dunyo va oxiratdagi barcha narsalar insonda mavjudligi haqida so'z yuritilgan. To'rtinchi risolada ma'odning nima ekanligi, sifliy va ulviy olamning aqlari va nafslari, ma'odi nima ekanligi, jasadni tark etgan ruhlarning keyingi holati qanday bo'lishi kabi masalalar bayon etilgan. Beshinchi risolada Nasafiy tomonidan sulukning nima ekanligi, sulukda bo'lgan solikning niyati qanchalik muhimligi, solikning ilm va ma'rifati qanday hosil bo'lishi, odamlarning qanday toifalardan iborat ekanligi, maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan yo'lning qanday ekanligi, avom kishilar darajasi, shuningdek, farzandlar tarbiyasi qanday bo'lishi, suluk qilish shartlari va sayri sulukning ruknlari nimadan iborat ekanligi, solik sayri suluk qilayotganda duch keladigan hijob va maqomlar nima ekanligi va suluk paytida solikdan talab qilinadigan shartlar ko'rib chiqilgan.

Asarning oltinchi risolasi "Xilvat odobi" deb nomlanib, unda toat va ma'siyatning bayoni, chilla

o'tirish shartlari, zikr tushish odobi, tasavvuf ahlining uruj (ko'tarilish)i nima ekanligi haqida so'z borgan.

Asarning yettinchi risolasi esa mayl, irodat, muhabbat va ishq, majoziy ishqning darajalari nima ekanligi haqida tasavvufiy qarashlarni o'z ichiga olgan.

Aziziddin Nasafiy "Insoni komil" asarining sakkizinchi risolasida tasavvuf ahlining odobi, jumladan, safarning foydalari, xonaqoh odobi, samo' qilish, riyozat va mujohadalar bayoni hamda sayru sulukda e'tibor qaratishi lozim bo'lgan umumiy axloqiy masalalar haqida o'zining qarashlarini bayon etgan.

To'qqizinchi risola esa balog'at va hurriyat, insonning balog'ati va hurriyati nima ekanligi kabi masalalarga bag'ishlangan.

O'ninchi risolaga esa "Kichik olam katta olamning nusxasi va ko'rinishi ekanligi bayonida" bu yerda olami kabir(olam) va olami sag'iyr(inson)ning nima ekanligi, Alloh taoloning fe'l(amal)lari va Alloh taoloning xalifa(inson)sidan murod nima ekanligi, olami sag'iyrning farishtalari nima ekanligi, Odam va Havvo haqida zarur bo'lgan ma'lumotlar, jannat va do'zaxning ko'rinishlari, alomati nima ekanligi tahlil nuqtasiga aylantirilgan.

Asarning o'n birinchi risolasida olamning nima ekanligi, kengroq tushuntirish bilan birga mulk, malakut va jabarut olamlari batafsil bayoni, ularning qanday ma'nolarga egaligi, urujning nima ekanligi va qanday sodir bo'lishi haqida so'z yuritilgan.

O'n ikkinchi risola o'n birinchi risolaning mantiqiy davomi sifatida, unda jabarut olami, uning mohiyati va sifatleri, borliq, yo'qlik va ishqning mohiyati nima ekanligi muhokama qilingan.

O'n uchinchi risolada vahdat nima ekanligi, Qadr kechasi va qiyomat kuni nima ekanligi haqida batafsil so'z yuritilgan.

O'n to'rtinchi risolada davotning nima ekanligi, olami kabirning qalami va lavhi nima ekanligi, komil insonning kim ekanligi va uning xususiyatlari nimalardan iborat ekanligi,

shuningdek, olami sag'iyrning davoti, qalami va lavhi nima ekanligi yoritilgan.

O'n beshinchi risolada Lavhi mahfuzning bayoni, uning nima ekanligi, falaklar va yulduzlar haqidagi bayonlar, falaklar(aflok) va yulduzlar(anjum)ning harakatlari, hukm, qazo va qadar nima ekanligi haqidagi mavzularning tahlil bayon etilgan.

O'n oltinchi risolada esa insonning ijtimoiy holatiga aloqador, ayrim narsalarda majbur ekanligi, to'rt zamonning bayoni, insonning o'z amallarida ixtiyori o'zida ekanligi, iste'dod va sa'y-harakat insonning azaliy taqdiriga ta'siri haqida so'z yuritiladi. O'n yettinchi risolaning mohiyatidan aql va uning qalami nima ekanligi, aql Allohning sifatleri va fe'llarining mazhari ekanligi, aqli avvalning turli ismlari, farishta va shaytonning mohiyatlari o'rin olgan.

"Vahiy, ilhom va tush ko'rmoq bayonida" deya nomlangan o'n sakkizinchi risolada Aziziddin Nasafiy insoniy ruh, osmon farishtalari, ularning mohiyati nimalardan iborat ekanligi, bu borada shariat ahlining, hikmat ahlining qarashlari qanday ekanligi, komil insonning qalbi, g'aybni bilishning mohiyati qanday ekanligi, uyqu, bedorlik va tush ko'rmoqning mohiyati kabi masalalarga e'tibor qaratgan.

O'n to'qqizinchi risolada esa vujudning zohir va botini, borliq falsafasiga oid, ya'ni borliqning yaratilishidagi zot va vajhning martabalari nima ekanligi, sifatlerining mazhari nima ekanligi, tanosub nima ekanligi tahlil maydoniga tortilgan.

Yigirmanchi risolada aql va ilm inson uchun ixtisoslashgani, mizoj va tasviyaning mazmuni hamda mohiyati, vujud haqida so'z boradi.

Yigirma birinchi risolada zot, vajh va nafsning nima ekanligi, ism va sifat, bosit vujudning nima ekanligi, mishkotning mohiyati nima ekanligi ko'rib chiqilgan.

Yigirma ikkinchi risolada jannat, do'zax, Odam va Havvo mavzusi, jannat va do'zaxning eshiklari va martabalari, jannatdagi daraxtning mohiyati, ba'zi olimlar ifodalagan noma'lum to'qqizinchi jannat nima ekanligi tadqiq etilgan.

O'zbekistonda Aziziddin Nasafiyning hayoti va uning ilmiy merosi haqida yetarli darajada tadqiqotlar olib borilmagan. Mutasavvifning ayrim asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingani istisno etilsa⁵, uning ilmiy merosi atroflicha o'rganilmagan. Jumladan, yurtimizda Aziziddin Nasafiy asarlariga bo'lgan qiziqish mustaqillik yillariga to'g'ri kelgan. Filologiya fanlari doktori, professor Najmiddin Komilov Nasafiyning "Zubdat ul haqoyiq" asarini o'zbek tiliga tarjima qilib, keng kitobxonlar ommasiga taqdim etgan. Nasafiyning asarlarining bu kabi noma'lumligi uning adabiy va irfoniy merosini yanada to'liq o'rganish va tadqiq etish zarurligini keltirib chiqaradi.

"Komil inson kitobi"ning boshqa tillarga qilingan tarjimalari o'rganilganda, uning turkchadan boshqa tillarga tarjimasi yo'q degan xulosaga kelingan. Turk tadqiqotchisi Mehmet Kanar Nasafiyning "Insoni Komil" (Majmuatur-rasail) asarini turk tiliga tarjima qilgan. Kanar o'z tarjimasida Merijan Molening 1962 yilgi Tehron nashrini asos qilib olgan. Molening ushbu nashrida 22 ta asl va 11 ta qo'shimcha risola o'rin olgan. Mehmet Kanar ham shu tartibda avval 22 ta asl risolani tarjima qilgan va "Manozilus-sairin nuxsalarida mavjud bo'lgan qo'shimcha risolalar" sarlavhasi ostida 9 ta risolani tarjima qilgan. So'ngra "Nurusmoniya kutubxonasidagi 4899-raqamli nusxaning ilk muqaddimasi" va "Manozilus-sairin kitobining xotimasi" nomli 2 ta risolani ham tarjima qilgan. Risolalar jami 33 tani tashkil etadi. Tarjimaning boshida qisqacha mundarija, kitobning oxirida esa fasllarni ko'rsatadigan keng mundarija bo'limi mavjud. Kanarning tarjimasi tili juda sodda va ravon. Ushbu tarjimada tasavvufiy istilohlar, ma'lum va xayolga birinchi kelishi mumkin bo'lgan muqobillari bilan qo'llangan⁶.

XULOSA. Tasavvuf falsafasida "komil inson" sifatida ideallashtirilgan insonga yuksak

baho berilgan. Mutasavviflar nazdida komil inson, mukammallik va to'liqlikning so'nggi chegarasidagi insoniy nafsdir. Bir tomondan inson, boshqa tomondan olamning ilk namunasidir. Alloh ismining bir tajalliysi va zuhurining o'rni, yaratilishning maqsadi va Allohning yer yuzidagi xalifasidir. Olamning mohiyati va ko'zguvidir. Ham Allohning, ham olamning, ham rububiyatning, ham ubudiyatning xususiyatlarini o'zida mujassam etgani uchun Alloh bilan olam o'rtasidagi bir barzaxdir. Shu holatdan kelib chiqib, o'rta asrning qator mutasavviflari komil haqidagi g'oyalar, qarashlarni ilgari surishgan. Ayni shu haqiqatni anglab yetgan Aziziddin Nasafiy ham komil inson haqida bir asar yozishni maqsad qilgan bo'lsa ajabmas. Asar haqida keltirilgan yuqorida keltirilgan argumentlarga asoslanib aytish mumkinki, "Komil inson kitobi" islom falsafasi, teologiya (ilohiyot), tasavvuf, falsafa, etika, nafosatshunoslik, psixologiya, sotsiologiyaga oid qator ilmlarni o'zida jamlagan tasavvuf falsafasining klassik asaridir. Mazkur asarni ilmiy jihatdan tadqiq etish falsafa va tasavvuf tarixidagi dolzarb mavzularni yangicha yo'nalishda tushunish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Азизиддин Насафий. Комил инсон китоби. Нажмиддин Комилов, Олимжон Давлатов таржимаси. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, Тошкент: 2021. -232 б.
2. Abdülkerîm Cîlî'. El' İnsanü'l-Kâmil fi Ma'rifeti'l 'Evahir-i ve'l-Evâil. Mütercim Abdülaziz Mecdi Tolun. İstanbul.: "Iz yayinçilik", 2002. -493 s.
3. Kanar Mehmet. İnsan-ı Kamil, Tasavvufta İnsan Meselesi, (tre. Mehmet Kanar), Dergah Yayınları, İstanbul, 1990.
4. Mesud Azerbaycani. İslam ve Modern Psikolojiye Göre insanı Kamil. Sonbahar 2016, Yıl: 5, Sayı:12. -S.183-204.

⁵ Komil inson haqida tўrt risola. Fors-tojik tili-dan Najmiddin Komilov tarjimasi. Toshkent.: "Ma'naviyat", 1997; Aziziddin Nasafiy. Komil inson kitobi. Najmiddin Komilov, Olimjon Davlatov tarjimasi. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, Тошкент: 2021. -232 б

⁶ Kanar Mehmet. İnsan-ı Kamil, Tasavvufta İnsan Meselesi, (tre. Mehmet Kanar), Dergah Yayınları, İstanbul, 1990.

O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA O‘ZGARISHLAR


*Otaxonova Intizor Norimboy qizi,
Urganch davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

REFORMS AND CHANGES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN

*Otaxonova Intizor Norimboy qizi, PhD student at the Urgench State
Pedagogical Institute*

РЕФОРМЫ И ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

*Otaxonova Intizor Norimboy kızı, aspirant Urgenchskogo
gosudarstvennogo pedagogicheskogo instituta*



e-mail:
intizornorimboyevna@
gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining 1991–2025-yillar davridagi oliy ta’lim tizimiga oid davlat siyosati va qonun hujjatlari tahlil qilingan. Mustaqillik yillarida qabul qilingan asosiy hujjatlar — “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlar, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va 2030-yilgacha mo‘ljallangan rivojlanish konsepsiyasi asosida amalga oshirilgan islohotlar ketma-ketlikda yoritilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining avtonomiyasi, kredit-modul tizimining joriy etilishi, xalqaro hamkorlik va sifat nazorati mexanizmlarining rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, davlat siyosati, qonun hujjatlari, kadrlar tayyorlash, kredit-modul tizimi, ta’lim islohotlari, sifat nazorati.

Аннотация: В данной статье рассмотрена государственная политика и нормативно-правовая база в сфере высшего образования Республики Узбекистан в период 1991–2025 годов. Проведен поэтапный анализ реформ, реализованных на основе основных документов — Законов «Об образовании», Национальной программы подготовки кадров, указов Президента, постановлений Кабинета Министров и Концепции развития системы высшего образования до 2030 года. Особое внимание уделено академической автономии вузов, внедрению кредитно-модульной системы, развитию международного сотрудничества и механизмам обеспечения качества образования.

Ключевые слова: высшее образование, государственная политика, нормативные акты, подготовка кадров, кредитно-модульная система, образовательные реформы, обеспечение качества.

Abstract: This article analyzes the state policy and legal framework of higher education in the Republic of Uzbekistan during the period from 1991 to 2025. It provides a chronological review of reforms implemented based on key documents such as the Laws "On Education," the National Program for Personnel Training, Presidential decrees, Cabinet of Ministers resolutions, and the Higher Education Development Concept up to 2030. Special attention is given to university autonomy, the introduction of the credit-modular system, the development of international cooperation, and quality assurance mechanisms in higher education.

Keywords: higher education, state policy, legal documents, personnel training, credit-modular system, educational reforms, quality assurance.

Kirish. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimi tubdan qayta ko‘rib chiqildi va keng ko‘lamli islohotlarga duch keldi. Iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi o‘zgarishlar milliy oliy ta‘limning vazifalarini yangilashni taqozo qildi. Mustaqillikka erishganidan so‘ng, respublikada ta‘lim tizimini liberallashtirish, erkin bozor tamoyillariga moslashtirish, xalqaro standartlarga muvofiq kadrlar tayyorlash dolzarb maqsadga aylandi. Shu boisdan 1992-yilda birinchi “**Ta‘lim to‘g‘risida**”gi Qonun qabul qilinib, ta‘lim sohasidagi asosiy prinsiplar, turlari va vazifalari belgilab qo‘yildi[1][2]. Lekin dastlabki qonun ta‘lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiya, davomiylik masalalarini to‘liq hal eta olmadi. Shuning uchun 1997-yilga kelib yangi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun va **Kadrlar tayyorlash milliy dasturi** ishlab chiqildi[3][1]. Milliy dastur mamlakatga zamonaviy, keng qamrovli ta‘lim modelini joriy etishni, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishni maqsad qilgan edi[4]. Ushbu dastur birinchi navbatda bozor iqtisodiyoti talablariga mos, oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun sharoit yaratish, ta‘lim muassasalarini attestatsiya va akkreditatsiyadan o‘tkazish, o‘quv reja va dasturlarni yangilashni ko‘zda tutdi[1][4].

Uslubiyat. Mazkur maqolada O‘zbekiston oliy ta‘limiga oid asosiy davlat hujjatlari, qonun va farmonlarning mazmuni hamda ularning oliy ta‘lim tizimiga ta‘siri o‘rganildi. Ta‘lim sohasidagi qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va konsepsiyalar tahlil qilindi. Shu bilan birga sohaga oid yangiliklar va ekspert maqolalari hamda hukumat axborotlari tahlil yo‘li bilan ko‘rib chiqildi. Masalan, so‘nggi yillardagi faoliyatni yorituvchi press-reliz va intervyu materiallari hamda rasmiy saytlardagi yangiliklar orqali amaliyot tahlil qilindi (masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta‘lim bo‘yicha qarorlari, hukumat portali hamda mustaqil ommaviy axborot vositalari). Ushbu hujjatlarni umumlashtirish orqali oliy ta‘limdagi reformalar bosqichma-bosqich aniqlangan va tahlil qilingan.

Natijalar. 1991–2000-yillarda O‘zbekiston oliy ta‘limining dastlabki tashkil

etilishi va islohotlari amalga oshirildi. Mustaqillikka erishilgan zahoti 1992-yil 2-iyuldagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, ta‘limni davlat ustuvor sohasi deb belgilandi [2]. Biroq bu qonunda oliy ta‘limning mustaqil-fondli moliyalashtirilishi yoki xalqaro standartlar joriy etilishi yetarli ko‘zda tutilmagan edi. Shuning uchun, 1997-yilda yangilangan qonun qabul qilindi va shu yilda **Kadrlar tayyorlash milliy dasturi** tasdiqlandi. Kadrlar dasturi ta‘lim sohasidagi jahon tajribasi, innovatsion yondashuvlar asosida oliy ta‘limni modernizatsiya qilishni ko‘zda tutgan va kadrlar tayyorlashning ilmiy modeli, rivojlanish yo‘nalishlari, islohot bosqichlari kabi bo‘limlarni qamragan edi [4]. Mazkur hujjat bilan amaliyotga zamonaviy uzluksiz ta‘lim tizimi joriy etildi, ta‘limda sifat va samaradorlik prinsiplari mustahkamlandi.

Keyingi bosqichda (2000–2010-yillar) oliy ta‘lim tizimini yaxshilashga doir bir qator hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2007-yilda “Ta‘lim sifatini ta‘minlash davlat agentligi” tashkil etildi, 2010-yillarda oliy ta‘limni boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha farmonlar chiqarildi. Uzoq muddatli davlat dasturlari doirasida yangi universitet va ilmiy markazlar tashkil etildi, o‘quv rejaları moslashtirildi. Misol uchun, 2014-yilda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi qayta tashkil etilib, oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va maktabgacha hamda maktab ta‘limi vazirligi alohida bo‘limlar tarkibiga kiritilganini ko‘rish mumkin (2024-yilgi farmon bilan yana birlashtirildi)[5][6].

2017-yildan keyingi davr oliy ta‘limni modernizatsiya qilishning yangi bosqichi bo‘ldi. 2019-yil 8-oktabrda Prezident farmoni bilan tasdiqlangan **Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi** oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi[7][8]. Ushbu Konsepsiyada oliy ta‘limda davlat-xususiy sherikligi rivojlantirish, mamlakat bo‘ylab oliy ta‘lim muassasalarini birlashtirib, qamrovni 50%ga oshirish, ta‘limda sog‘lom raqobat yaratish kabi chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan[8]. Shuningdek, jahon reytinglariga kiritiladigan birinchi 1000 ta universitet ro‘yxatiga 10 dan ortiq O‘zbekiston

oliy ta'lim muassasasini kiritish vazifasi qo'yildi [9]. Konsepsiyada oliy ta'lim jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish, hamda amaliy ko'nikmalarga asoslangan ta'lim standartlarini joriy etish belgilangan [10].

Hukumat qarorlari orqali ham oliy ta'limdagi islohotlar davom ettirildi. Masalan, 2020-yil 31-dekabrda qaror bilan oliy ta'lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimini joriy etish tartibi tasdiqlandi [11]. Shu hujjatga muvofiq, oliy ta'lim muassasalari 2021-yil 1-yanvardan kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich o'tishi belgilandi [11]. Yana shu qarorda oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini kengaytirish masalasi ko'tarildi: 2021-yildan boshlab professor-o'qituvchilar haftalik o'quv kunlarini o'zlari belgilash, final attestatsiyasi komissiyasini rektor farmoni bilan tashkil etish kabi huquqlar berildi [12]. Bu universitetlar ustidan bo'lgan davlat nazorati kamaytirilib, ularning iqtisodiy va pedagogik erkinligini oshirishga qaratilgan edi. Natijada 2018–2020-yillarda kamida 10 nafar oliy ta'lim muassasasi o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi [13], ya'ni universitetlar budjetdan mustaqil byudjet daromadini shakllantirishga yo'naltirildi.

Xorijiy hamkorlik va xalqaro standartlar. Oxirgi yillarda oliy ta'limni xalqaro miqyosda tanitish va mustahkamlash bo'yicha ham ko'plab tashabbuslar amalga oshirildi. Prezident farmonlariga muvofiq, dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan samarali hamkorlikka kirishildi. Masalan, Toshkent shahrida Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Amerika Texnologiya Universiteti (American University of Uzbekistan) yangi filiali tashkil etilmoqda, bu yerdagi muhandislik va iqtisodiyot yo'nalishlari bo'yicha bitiruvchilarga AQSHning taniqli universitetlari diplomlari berilishi rejalashtirilgan [14]. Shuningdek, *Business and Entrepreneurship Institute* tamomida 2020/2021-o'quv yilidan boshlab xorijiy hamkorlikda qo'shma "ikki diplom" (double degree) dasturi joriy etildi [15]. Mazkur islohot bilan magistraturaga kirishda xorijiy hamkasblar bilan hamkorlikda mutaxassisliklar ochildi.

Ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali respublikada 47 ta yangi oliy ta'lim muassasasi ishga tushdi, ulardan ayrimlari

xorijiy universitetlarning filiallari hisoblanadi [16]. Oliy ta'limda davlat-xususiy sheriklik konsepsiyasi asosida nodavlat universitet va kollejlarning faoliyati kengaydi, sirtqi va kechki ta'lim turlari tiklandi, oliy ta'lim qamrovi 2016-yildagi 9 foizdan 2020-yilda 25 foizga yetdi [17]. Ushbu jarayon davomida respublika oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida o'qish, xalqaro akkreditatsiya va tahsilga buyurtma asosida qabul mexanizmlari paydo bo'ldi.

Sifat nazorati mexanizmlari.

Mustaqillik davrida ta'lim sifatini ta'minlash tizimini mustahkamlashga katta e'tibor qaratildi. 2025-yilda Prezident qarori bilan Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tashkil etilishi, ta'lim muassasalarini kompleks (5 yilda bir marta) va maxsus (dastur ochilishidan oldin) akkreditatsiya qilish tizimi joriy etilishi e'lon qilindi [18][19]. Bu yangilik oliy ta'limning sifatli ishlashini monitoring qilish va baholashni mustaqil agentlikka topshirish bilan bog'liq. Agentlik ta'lim tashkilotlarini risk-tahliliga asoslangan navbatdan tashqari tekshiradi, akkreditatsiya talablari buzilgan taqdirda litsenziyani olib qo'yishi ham mumkin [19]. Shu bilan birga, ta'lim muassasalarini reytinglash va bitiruvchi talabalar bilimini baholash kabi xalqaro tajribalardan kelib chiqib ta'lim sifatini oshirish choralari ko'rilmogda [19].

Oldingi yillarda tashkil etilgan Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyati yuqori ta'lim sifatini baholashga mas'ul bo'lardi; endi esa sifatni ta'minlovchi yagona agentlikka birlashtirildi [5][18]. 2024-yilgi qonunchilik yangilanishi bilan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga ta'lim tashkilotlarini tashqi baholash tizimini takomillashtirish va nodavlat ta'lim litsenziyalashda yangi vakolatlarni belgilash kiritildi [5].

Tahlil. O'zbekiston oliy ta'limiga oid siyosat hujjatlarini tahlil qilar ekanmiz, ta'lim sohasida davlat ishtirokining kuchayishi bilan birga muassasalar mustaqilligi va bozorlarga moslashuvchanlikka urg'u berilganini ko'ramiz. 1990-yillar to'g'risidagi hujjatlar («Ta'lim to'g'risida»gi qonunlar, kadrlar dasturi) oliy ta'limni davlat nazoratida ushlab qolgan bo'lsa, so'nggi yillarda qabul qilingan farmon va qarorlar universitetlarga o'zini-o'zi moliyalashtirish, o'quv jarayoniga mustaqil qaror

qabul qilish kabi avtonomiya berishga qaratilgan. Masalan, 2020-yilgi qaror professor-o'qituvchilarning chet el tajribasi uchun rag'batlar, ta'lim haftasini mustaqil belgilash imkoniyati, attestatsiya komissiyasi boshlig'ini rektor buyruqli qilish kabi jihatlarni kafolatlagan[12].

Bundan tashqari, respublika yuqori ta'lim muassasalari faoliyatini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish maqsadida kredit-modul tizimini joriy etdi[11][10]. Bu o'quv yuklamasini ECTS asosida hisoblash, universitetlararo kredit tan olishni ta'minlash imkonini yaratdi (masalan, Moskvada bir semestr o'qigan talabaga O'zbekistonda kredit ko'chirilishi)[20][21]. Yevropa tizimi joriy etilishi orqali talabalarimizga xalqaro me'yorlarga mos diplom berilishiga yo'l ochildi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish manbalarini kengaytirish choralari ko'rildi. Hujjatlarda davlat byudjeti, to'lov-shartnoma mablag'lari, innovatsiya va startap faoliyati natijasidagi daromadlar va hatto homiylik xayriyalari kabi bir qator manbalar ko'rsatildi[22][23]. Bu esa universitetlarni davlatga bog'liq bo'lmagan yangi daromad yig'ish usullarini izlashga undadi. Qo'shimcha ravishda, oliy ta'limga ajratilayotgan davlat grantlari soni ham 2010-yildan beri ko'paytirilib, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalardan chiqqan talabalarga kamida 2 barobar ko'proq grant berila boshlandi[13][24].

Yuqorida qayd etilgan hujjatlarda oliy ta'lim tizimining rivojlanish strategiyasi belgilangan bo'lsa-da, ishlanmalar va ularning ijrosi o'rtasida ba'zi farqlar kuzatiladi. Masalan, 2019-yilgi konsepsiyada e'lon qilingan reytingli universitetlar ro'yxatiga kiritish maqsadi hali to'liq amalga oshgani yo'q, ammo oliy ta'lim tizimida yuksalishga intilish yaqqol namoyon bo'lmoqda[9]. Xorijiy hamkorlikda o'qitish va xalqaro diplomlar masalalari bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yilgan (AQSH texnologiya universiteti, ikki diplom dasturi), biroq hamkorlikni kuchaytirish uchun doimiy monitoring va yangi strategiyalar zarur.

Xulosa. Umuman olganda, 1991–2025-yillarda O'zbekiston oliy ta'lim siyosati markazida sohaga strategik yondashuv va huquqiy islohotlar turibdi. Mustaqillikdan keyingi dastlabki yillarda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar va

milliy kadrlar dasturi oliy ta'limning yangi loyihalashtirishiga asos soldi. Keyingi bosqichda oliy ta'limda universitetlar avtonomiyasi, kredit-modul tizimi va xalqaro standartlarga moslashuv bo'yicha qator qonun va qarorlar qabul qilindi (masalan, 2020-yilgi 824-son qaror va unga ilova 1 "Kredit-modul nizomi"[11][10]). So'nggi yillarda 2019-yildan boshlab oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi[7][8], 2024-yilgi Ta'lim qonuni o'zgartirishlari[5] va 2025-yilgi sifat agentligi kabi strategik hujjatlar qabul qilindi. Bular orqali oliy ta'limda sifat nazorati, xalqaro hamkorlik va kadrlar tayyorlash sifati keskin ko'tarilishi ko'zda tutilgan.

Tahlilga ko'ra, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida avtonomiya va sifatni birgalikda rivojlantirishga qaratilgan siyosat olib borilmoqda. Hujjatlarda belgilangan vazifalar – oliy ta'limni keng qamrovli qilish, milliy va xalqaro maydondagi raqobatbardoshlikni oshirish, intellektual salohiyatni modernizatsiya qilish – kursi konsepsiyalar va qonunlarda aniq ifodalangan. Maqola tahlili ko'rsatdiki, respublikamiz oliy ta'limidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari hujjatlar bilan belgilab qo'yilgan va amaliyotda asta-sekin joriy etilmoqda. Kelgusida ham oliy ta'lim muassasalarining talablariga javob beradigan yangi qonunchilik choralari va dasturlar ishlab chiqilishi kutilmoqda.

Manba va adabiyotlar ro'yxati:

[1] 463-I-coH 29.08.1997. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi

<https://lex.uz/docs/-48401>

[2] 636-XII-coH 02.07.1992. Ta'lim to'g'risida <https://lex.uz/docs/-56418>

[3] [4] uniwork.buxdu.uz

https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13535_1_A4CA5850777E26A6AFC1D3E38049A4A902703F17.pdf

[5] O'RQ-957-coH 07.09.2024. Ma'muriy islohotlar doirasida ta'lim sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida <https://lex.uz/uz/docs/-7093724>

[6] O'RQ-637-coH 23.09.2020. Ta'lim to'g'risida

<https://lex.uz/ru/docs/-5013007?ONDATE=21.09.2024%2000>
[7] [13] [16] [17] [24] [25] [27] Ta'lim tizimi va yangicha yondashuvlar
<https://yuz.uz/uz/news/talim-tizimi-va-yangicha-yondashuvlar>
[8] [9] [10] [28] PF-5847-сон 08.10.2019. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida
<https://lex.uz/docs/-4545884>
[11] [12] [20] [21] 824-сон 31.12.2020. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

<https://lex.uz/ru/docs/-5193564>
[14] [26] Oliy ta'lim sifatini oshirish masalalari ko'rib chiqildi
<https://president.uz/oz/lists/view/7403>
[15] [22] [23] 460-сон 30.07.2020. Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida
<https://lex.uz/ru/docs/-4923372?ONDATE=29.11.2022>
[18] [19] O'zbekistonda Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tashkil etiladi — O'zbekistonda yangiliklar — Vzglyad.uz
<https://vzglyad.uz/uz/2025/05/07/ozbekistonda-talim-sifatini-taminlash-milliy-agentligi-tashkil-etiladi/>



MARKAZIY FARG‘ONADA IRRIGATSIYA- MELIORATSIYA TADBIRLARI (1950-1991 yillar)

Ruzikulova Maftunaxon Yuldashevna,

Farg‘ona davlat universiteti doktoranti, tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

IRRIGATION AND LAND RECLAMATION EVENTS IN CENTRAL FERGHANA (1950-1990)

Ruzikulova Maftunaxon Yuldashevna,

Doctoral student at Ferghana State University, doctor of philosophy in
history (PhD)

МЕРОПРИЯТИЯ ПО ИРРИГАЦИЮ И МЕЛИОРАЦИЮ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ ФЕРГАНЕ (1950-1990 гг.)

Рузикулова Мафтунахон Юлдашевна,

докторант Ферганского государственного университета,
доктор философии по истории (PhD)



e.mail:
maftuna_ruzikulova@
rambler.ru

<https://orcid.org/0009-0004-6266-247X>

Annotatsiya: Maqolada Markaziy Farg‘ona qo‘riq, bo‘z yerlarining o‘zlashtirilishi, sug‘orilishi jarayonlari, shuningdek, sovet hokimiyatining paxta yakkahokimligi siyosati ta‘sirida bu yerda paxta-chilikka ixtisoslashgan rayon va sovxozlarning tashkil qilinishi hamda markazga paxta yetishtirib berishning ortib borishi va uning salbiy oqibatlarini birlamchi manbalar yordamida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Markaziy Farg‘ona, qo‘riq erlar, sug‘orish, sovxoz, sovet hukumati, paxta yakkahokimligi, qishloq xo‘jaligi, kanal, melioratsiya, “Ferganavodstroy”.

Аннотация: В статье описывается с помощью первичных источников процессы освоения и орошения целинных земель в Центральной Фергане, также на данных землях образование районов и совхозов на основе политики хлопковой монополии советского правительства, увеличения доставки хлопка в Центр и их отрицательные последствия.

Ключевые слова: Центральная Фергана, целинные земли, ирригация, совхоз, советское правительство, монокультура хлопка, сельское хозяйство, канал, мелiorация, «Ферганаводстрой».

Abstract: The article describes, using primary sources, the processes of development and irrigation of virgin lands in Central Ferghana, as well as the formation of districts and state farms on these lands based on the policy of the cotton monopoly of the Soviet government, increasing the delivery of cotton to the Center and their negative consequences.

Key words: Central Ferghana, virgin lands, irrigation, state farm, Soviet government, cotton monoculture, agriculture, canal.

Kirish. Milliy istiqloлга erishgan O‘zbekistonda irrigatsiya-melioratsiya ishlari tarixini xolisona va ilmiy tarzda tadqiq etish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida eng muhim sohalar qatorida suv xo‘jaligini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish, qishloq xo‘jaligiga tejamkor sug‘orish texnologiyalarini keng joriy etish, suv resurslarini nazorat qilish va uning hisobini yuritish tizimini Avtomat-

lashtirish kabi qator dolzarb vazifalar belgilab berildi. Mazkur Murojaatnomada quyidagilar bayon qilindi: “2020-yilda 44 ming gektar yerda yoki o‘tgan yilga nisbatan qariyb 4 barobar ko‘p maydonda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etamiz. Buning uchun davlat byudjetidan 300 milliard so‘m subsidiya ajratiladi. Shuningdek, suv xo‘jaligi obyektlarini boshqarish jarayonlarini, suvni nazorat qilish va uning hisobini yuritish tizimini avtomatlashtirish zarur. Ushbu masalalar Suv xo‘jaligini rivojlantirish konsepsiyasida o‘z aksini topishi

kerak...” [21.B.34] kabi muhim vazifalar belgilangan. Shu boisdan ham sug‘orish va o‘zlashtirish tarixini tadqiq etish barcha davrlarda ham muhim hisoblangan.

Asosiy qism. Ma’lumki, sovet hukumati respublikada paxta yetishtirishni yanada taraqqiy ettirish va ko‘paytirish maqsadlarida sug‘orma dehqonchilik uchun qulay hudud hisoblangan Farg‘ona vodiysiga muhim e’tibor qarata boshladi. O‘zlashtirish ishlari “Cho‘l o‘zlashtirish - mardlar ishi” nomli shiorlar ostida boshlandi. Ana shu jihatlardan kelib chiqqan holda beshinchi besh yillik (1951-1955-yillar) rejasida hamda 1952-yilda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston KP (b) ning IX syezdi rezolyusiyalarida paxtachilikni yanada yuksaltirish, shuningdek, Farg‘ona vodiysidagi sug‘oriladigan yerlar hajmini kengaytirish va qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish asosiy masalalar sifatida ta’kidlab o‘tildi. Yuqoridagi belgilangan vazifalarni va SSSR Ministrlar Sovetining qarorlarini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston KP Markaziy Qo‘mitasi hamda respublika hukumati tomonidan 1952-yil 16-sentabrda kengaytirilgan qaror qabul qilingan va unda Markaziy Farg‘ona yerlarining birinchi va ikkinchi navbatini o‘zlashtirish maqsadida hamda sug‘orish bo‘yicha amaliy vazifalar belgilab berilgan edi [27. B.126]. Ushbu qarorlarda shu bilan birga Markaziy Farg‘onadagi cho‘l yerlarining 1953-yildan 1958-yilga qadar 36 000 *ga* hajmida o‘zlashtirilishi qayd etildi.

Sovet hukumati tomonidan respublikadagi yangi yerlarni o‘zlashtirish chora-tadbirlari hamda sug‘orish tizimini yanada rivojlantirishga doir ko‘plab qarorlar qabul qilindi. 1952-yil 16-noyabrdagi O‘zbekiston KP MQ va O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining qaroriga asosan Markaziy Farg‘onaning 65 000 *ga* yangi va qo‘riq yerlarni sug‘orish ishlari ko‘rib chiqildi [1.V.31]. Shu jumladan, Yozyovon va Qizil Tigin cho‘llari - 30000 *ga*; Ulug‘nor kanali tizimi bo‘yicha - 6 000 *ga*; Oxunboboyev nomli kanal tizimi bo‘yicha - 14 000 *ga*; Farg‘ona, Andijon va Namangan oblastlaridagi 15000 *ga* maydonni egallagan qo‘riq va qarovsiz yotgan yerlar. Beshinchi besh yillik (1951-1955 yy.) davridan boshlab Markaziy Farg‘onaning qo‘riq yerlarini o‘zlashtirish boshlandi [7.V.3]. Bu tadbirni amalga oshirishda respublika yoshlarini jalb etish borasida murojaatnoma qabul qilindi. Chunki faqat 1954 – 1958-yillarda O‘zbekiston Respublikasi hududida

600 ming *ga* yer o‘zlashtirilishi kerak edi. Murojaatnomaga javoban 1954-yilda Markaziy Farg‘ona qo‘riq yerlarini o‘zlashtirish uchun 1700 ta yoshlar keldilar[8. B.35].

SSSR Ministrlar Soveti va KPSS MQning “O‘zbekiston SSRda 1954-1958- yillarda paxtachilikni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”[3]gi 1954-yil 9-fevralidagi qarorida Farg‘ona vodiysida 142 ming *ga* maydonni, shu jumladan 116 ming *ga* maydonni Markaziy Farg‘onada o‘zlashtirish va sug‘orish ko‘zda tutildi. Xususan, Bo‘z rayoni bo‘yicha 1950-yildan 1954-yilgacha 2803 *ga* yer o‘zlashtirilgan bo‘lsa, 1953-1958-yillar ichida 2960 *ga* yangi yer o‘zlashtirildi [22]. Markaziy Farg‘onaning yalpi maydoni 532,4 ming *ga*, shu jumladan netto (sof) holidayi maydon 363,7 ming *ga* ekanligi, shundan 1953-yilning 1-yanvariga qadar 190,5 ming *ga* o‘zlashtirilgan yer mavjudligi ko‘rsatib berilgan edi [26.B.28]. Kolxozlararo Sovet tomonidan 1953-yildan 1956-yilga qadar “Ferganavodstroy” tresti Markaziy Farg‘onadagi qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish bo‘yicha sezilarli darajadagi ishlarni amalga oshirganligi e’tirof etildi [7.V.5].

O‘zbekiston KP MQ va O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1953-yil 20-oktabrdagi “O‘zbekiston SSRda sug‘oriladigan yerlarni kengaytirish va suv xo‘jaligining bundan keyingi rivojlanishi chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, Namangan oblastidagi sug‘oriladigan maydonlarning 1958-yildagi o‘shishi 38,0 ming *ga* ni tashkil etganligining 1952-yilga nisbati solishtirildi va ko‘rib chiqildi. Bu maydonlarning Markaziy Farg‘ona yerlari bo‘yicha o‘shishi 28,0 ming gektarni tashkil qilib, mazkur davrda 1953-1955-yillarda ekish uchun 25,0 ming *ga* tayyor bo‘lishi kerak edi. Markaziy Farg‘onada 1953-yil 1-yanvaridan o‘zlashtirishga ega qo‘riq va bo‘z yerlarning umumiy maydoni 173.2 ming *ga* tashkil qilib, jumladan Farg‘ona oblasti bo‘yicha - 89.6 ming *ga*, Andijon oblasti bo‘yicha - 83,6 *ga* [13]. 1953-1955-yillar davomida Gulbog‘ sovxozidagi qo‘riq yerlar 1,6 ming *ga*, yangi yerlar 6,3 ming *ga*, Damko‘l yangi sug‘orish massivida esa yangi yerlar 3,5 ming *ga* tashkil qilgan. O‘zlashtirilgan yerlarda tashkil qilingan kolxozlarning bir gektar yeridan 8-10 s.gacha paxta hosili olindi [14].

1955-yildagi reja bo‘yicha qurilish tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishi oldindan ko‘zda tutilgan ishlarning natijalariga ko‘ra, biror

bir obyekt tugallanmagan va ekspluatatsiya uchun berilmagan. Yangi yerlarni irrigatsion-meliorativ jihatidan tayyorlash 50669 *ga* maydonda o'tkazildi, jumladan, Farg'ona oblasti bo'yicha – 21092 *ga*, Andijon oblasti bo'yicha – 13862 *ga*, Namangan oblasti – 15672 *ga* ni tashkil qildi. Irrigatsion-meliorativ jihatdan 27332 *ga* yer tayyor hisoblandi, undan 17592 *ga* qo'riq yerlardir [1.V.2].

Markaziy Farg'ona yerlarini sug'orish va o'zlashtirishga o'n yil davomida, ya'ni 1953-1963-yillar uchun rejaga ko'ra 50753,3 ming rubl ajratildi, amalda 40425,8 ming rubl mablag' sarflandi. Shundan kolxozlarning bo'linmas jamg'armasidan rejada 35309,9 ming, amalda 20170,9 ming; davlat byudjetidan rejada 15444,4 ming, amalda esa 20254,9 ming rubl xarajatlandi. 1953-1960- yillarda Andijon oblasti kolxozlarining reja bo'yicha to'lov (vznos) mablag'lari 38,8 mln. rubl bo'lib, Markaziy Farg'ona yerlarini sug'orish va o'zlashtirishga amalda 26,8 mln. rubl kiritildi yoki u 69,2 %ni tashkil qildi. 1961-yilda reja bo'yicha to'lovlar 4346 ming rubl bo'lib, shu yilning 11-noyabriga kolxozlar 1825 ming rubl kiritdi yoki u 42 % ni tashkil etdi [25]. 1953-1973-yillarda Farg'ona vodiysida yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orishga sarflangan kapital mablag'lar evaziga paxta ekin maydoni 9,2 %ga o'sgan holda, bu ko'rsatkich hosildorlikda 24,9 %, yalpi hosilda 42,8 %ni tashkil etdi [15.V.36]. Aytish mumkinki, yuqoridagi barcha tadbirlar va sa'y-harakatlar respublikada aynan paxtachilikni rivojlantirish maqsadida amalga oshirildi.

O'zbekiston KP MQ va O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1957-yil 26-fevraldagi qaroriga muvofiq mazkur yilning 18-martida O'z SSR Qishloq xo'jaligi ministrligi "Markaziy Farg'ona yerlarini sug'orish va o'zlashtirish ishlarini kuchaytirish to'g'risida"gi buyruq chiqardi [2]. Unga asosan Markaziy Farg'ona yerlarini sug'orish va xo'jalik jihatidan o'zlashtirish rejasi 1956-1961-yillar davrida - 80,0 ming gektar qo'riq va bo'z yerlarni tashkil qilib, jumladan, u Farg'ona oblastida - 32,0 ming *ga*, Andijon oblastida - 28,0 ming *ga*, Namangan oblastida - 20,0 ming *ga* dan iborat bo'ldi. 1957-yilning 17-avgustida Andijon oblast ijroiya qo'mitasi raisi huzurida Markaziy Farg'onadagi yangi yerlarni xo'jalik o'zlashtirish va sug'orishning kompleks sxemasi texnik kengash majlisida ko'rib chiqildi. Majlisda yangi yerlarni sug'orish va o'zlashtirish sxemasi 173.2 ming *ga*,

undan Andijon oblasti bo'yicha - 36.4 ming *ga*, Namangan oblasti bo'yicha - 49.7 ming *ga*, Farg'ona oblasti bo'yicha esa - 87.1 ming *ga* miqdorni egallaganligi ta'kidlandi [10].

1958-yilning 18-martida O'zSSR Ministrlar Soveti "1958-yilning hosili uchun yangi va qo'riq (partov) yerlarni o'zlashtirish to'g'risida"gi qarorni qabul qildi. 1958-yil hosili uchun yangi va qo'riq yerlarni o'zlashtirishga tayyorlash O'zSSR Ministrlar Soveti va O'zbekiston KP MQning 1957-yil 23-sentabrdagi belgilangan qaroriga asosan 36,2 ming *ga* hajmdagi yerlar respublika oblastlari va Qoraqalpog'iston ASSRda qoniqarsiz tarzda bajarilayotganligi O'zSSR Ministrlar Soveti tomonidan qayd etildi. 1958-yil 10-martidagi holatga ko'ra faqat 25 ming *ga* irrigatsion-meliorativ tayyorlandi, reja bo'yicha 29 ming *ga* maydondan 17,2 ming *ga* maydonni planini tuzish o'tkazildi [8]. 1958-yil 21-aprelda O'zbekiston KP MQ va O'zSSR Ministrlar Soveti "Markaziy Farg'onadagi yangi va qo'riq yerlarni sug'orish va o'zlashtirish bo'yicha ishlarni kuchaytirish to'g'risida"gi qarorni qabul qildi [15.V.95]. 1959-yilning 1-yanvari holatiga ko'ra, butun Markaziy Farg'ona obyektlari ekspluatatsiyasi bo'yicha 377826,00 ming rubl kapital mablag' tayyorlandi, undan faqat 172644,64 ming rubli ekspluatatsiya uchun ajratildi [4]. Shu yil 23-yanvarda O'zbekiston KP MQ va O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining "1959-yilda Markaziy Farg'ona yerlarini sug'orish va o'zlashtirish bo'yicha qurilish ishi dasturini tasdiqlash haqida"gi qarorni qabul qildi. Ushbu o'rnatilgan rejaga muvofiq Markaziy Farg'ona massivdagi sug'oriladigan yerlarning o'sishi miqdori 13000 *ga*, amalda esa 10230 *ga* rejalashtirildi, shu jumladan, 1959-yildagi ekish uchun 7228 *ga* [24.V.232]. 1959-yil 3-avgustda O'zbekiston KP Markaziy Qo'mitasi va O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti "1959-1965-yillarda Markaziy Farg'onada qo'riq va bo'z yerlarni sug'orish va o'zlashtirish to'g'risida"gi qarorni qabul qildi [9.V.48]. Ushbu qaror asosida Markaziy Farg'ona hududlarini suv bilan ta'minlashni yanada ko'paytirish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash borasida katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi. "Qishloq xo'jaligi oborotiga 36 ming gektardan ortiqroq bo'z va qarovsiz yotgan tashlandiq yerlar kiritildi, 250 km dan ortiqroq avtomobil yo'llari qurildi, 22 ta kolxoz posyolkalari barpo qilindi"[16].

Shu yilning 9-noyabrida yuqoridagi qarorga muvofiq Andijon oblast qishloq xo'jaligi boshqarmasi "1959-1965-yillarda Markaziy Farg'onada qo'riq va bo'z yerlarni sug'orish va o'zlashtirish to'g'risida"gi buyruq e'lon qilib[5], Markaziy Farg'onada 1959-1965-yillar mobaynida yangi o'zlashtiriladigan 24,8 *ga* miqdoridagi yerlarni tayyorlash yuzasidan bajariladigan topshiriq rayonlar bo'yicha tasdiqlandi [17]. O'zSSR Qishloq va suv xo'jaliklari ministrliklari zimmasiga 1959-yil davomida Markaziy Farg'ona yerlarini sug'orish va o'zlashtirishning bosh sxemasini va uning alohida massivlar bo'yicha proektlarini ko'rib chiqish, loyihaviy xo'jaliklar maydonini 2,0 - 2,5 ming *ga* hajmida kengaytirish yuklatildi [9.V.52].

1960-yil 18-martda O'zSSR Suv xo'jaligi ministrligi "1960-yilda Markaziy Farg'ona yerlarini sug'orish va o'zlashtirish bo'yicha qurilish ishi dasturi to'g'risida"gi buyruq e'lon qildi [19.V.31]. Ushbu buyruqda O'zSSR Suv xo'jaligi ministrligining Markaziy Farg'ona obyektlarini kapital mablag' bilan ta'minlash rejasi o'rnatildi va "Ferganavodstroy" trestini 1960-yilda 111.151 ming rubl miqdorida mablag' bilan ta'minlash tasdiqlandi. 1960-yilning 21-martida O'z SSR Qishloq xo'jalik ministrligi "1960-yilda Markaziy Farg'ona yerlarini sug'orish va o'zlashtirish bo'yicha qurilish ishlari dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyruq e'lon qildi [21]. Ushbu buyruqda O'zbekiston KP MQ va O'z SSR Ministrlar Sovetining 1960-yil 9-martdagi qaroriga asosan quyidagilar tasdiqlandi, jumladan, Markaziy Farg'ona yerlarini sug'orish va o'zlashtirish bo'yicha qurilish ishlari dasturiga 1960-yilda 187.156 ming rubl miqdoridagi mablag' ajratildi. 1960-yil 14-iyuldagi O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining "Yangi yerlarni sug'orish va o'zlashtirish bo'yicha qurilish ishlariga kolxozlarning bo'linmas fondi mablag'lari to'lovi rejasining bajarilishi to'g'risida"gi qarorida kolxozlararo sovet tomonidan qurilish ishlariga 43210 ming rubl sarflanishi kerak edi, amalda esa faqat 17874 ming rubl hajmidagi mablag' ishlatildi. "Ferganavodstroy" tresti tomonidan suv xo'jaligi qurilishiga 22400 ming rubl mablag'dan 10629 ming rubl kiritildi [15.V.28]. 1961-yil 12-mayda O'zbekiston KP MQ va O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining "Markaziy Farg'onada qo'riq yerlarni o'zlashtirishning borishi to'g'risida"gi qarorni

qabul qildi [23]. Ushbu qarorda O'zSSR Suv va qishloq xo'jalik ministrliklari, Andijon oblast partiya komiteti va oblast ijroiya komiteti tomonidan Markaziy Farg'ona yerlaridagi sug'orish bo'yicha barcha ishlarni 1965-yilda tugatish taklifi ma'qullandi. 1953-yildan 1961-yilga qadar 60,6 ming *ga* yerning irrigatsiya- melioratsiya jihatdan tayyorlandi, undan 1960-yilda 41, 0 ming *ga* kolxozlar va sovxozlarda ekin bilan band qilindi [6].

1961-1965-yillarda Markaziy Farg'ona yerlarining 122,2 ming *ga* maydonidagi qolgan barcha qo'riq yerlarni sug'orish undan Farg'ona oblasti bo'yicha - 67,8 ming *ga* va Andijon oblasti bo'yicha - 54,4 ming *ga* [24.V.237] yerlaridagi umumiy ishlarni yakunlash to'g'risidagi qarorga asosan Markaziy Qishloq xo'jalik o'zlashtirish ishlari 1961-1965-yillarda jami 101 ming *ga* tashkil etib, undan 60,2 ming *ga* kolxozlarga, shuningdek, 40,8 *ga* xo'jalik jihatdan o'zlashtirilgan sovxozlarga to'g'ri keldi [12].

Qisqa muddat ichida Markaziy Farg'onadagi qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish hamda Farg'ona vodiysidagi kolxozlarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda 1961-1966-yillarda oblast tashkilotlarining quyidagi takliflari qabul qilindi. Unga ko'ra, Farg'ona oblastida mavjud 20,3 ming *ga* qo'riq yerlaridagi paxtachilik sovxozlari va yana 17,3 ming *ga* ikkita sovxoz tashkil qilinadi, Andijon oblasti bo'yicha 8,6 ming *ga* mavjud sovxozlar va 20,6 ming *ga* sovxozlar tashkil qilinadi [18].

1961-yilning 1-iyuliga qadar Markaziy Farg'ona yerlarini sug'orish va o'zlashtirish bo'yicha Kolxozlararo Sovet Farg'ona hamda Andijon oblastlarida ish olib bordi. 1960-yilda Kolxozlararo Sovet 7710 *ga* yerlarning irrigatsiya-melioratsiya tayyorgarligi masalasi muhokama qilindi. Undan 2240 *ga* Andijon oblastiga, 5470 *ga* Farg'ona oblastiga to'g'ri keldi. 1961-yildagi hisobotda faqat Farg'ona oblasti bo'yicha 6333 *ga* yerlar irrigatsion-meliorativ jihatdan tayyorlanganligi ko'rsatilgan [19.V.21]. Undan 5030 *ga* qo'riq yerlarni dastlabki tayyorlash uchun, 1303 *ga* esa ilgari tayyorlangan yerlardagi takroriy ishlar uchun ajratildi. SSSR Ministrlar Sovetining 1962-yil 2-sentabrdagi qarorida O'zSSRning Farg'ona va Andijon oblastlaridagi ya'ni aynan Markaziy Farg'ona yerlaridagi olib borilayotgan o'zlashtirish va sug'orish ishlari ko'zda tutildi [20].

1964-yilgacha Markaziy Farg'onaning yangi sug'oriladigan massivlarida 2000 km dan uzunroq

turli kanallar, 2000 km dan ortiqroq yer osti kanal-quvur va kollektorlar, 7000 tadan ko'p gidrotexnik inshootlar qurildi [11. B.48]. O'zbekiston KP MQning 1964-yil 21-sentabrda "1965-yilda yangi va bo'z yerlarni ekishga tayyorlash to'g'risida"gi qaroriga asosan Farg'ona oblast qishloq ijroiya qo'mitasi tomonidan 1965-yilda oblastdagi yangi yerlarni ekish davridagi o'sib borishi - 6093 ga, undan 984 ga 1964-yilda qishloq xo'jaligi oborotidagi mablag'lardan tushgan, 3958 ga Markaziy Farg'onada ekishga qadar tayyorlangan va yangi tayyorlash ishlari - 1151 ga hajmida bajarildi [24.V.67].

Sobiq SSSR Ministrlar Sovetining 1963-yil 15-martdagi qaroriga asosan Andijon suv ombori barpo etildi. U sobiq Ittifoqning markaziy davlat byudjeti hisobidan amalga oshirildi. 1969-yilda (o'sha yil narxida) mazkur inshootning umumiy narxi 332,5 mln. rublni tashkil qilib, amalda 297,0 mln. rubl miqdoridagi mablag' o'zlashtirildi [26]. Farg'ona viloyatida 15 yil (1966-1980-yillar) mobaynida ko'plab sug'orish ishlari uddalandi. Jumladan, "Markaziy Farg'onaning 42,2 ming ga dan ziyod yeri o'zlashtirildi. Ekin maydonlari qariyb 300 ming ga ga yetdi. Shu davr ichida Karkidon, Qo'rg'ontepa suv omborlari qurildi"[27].

Xulosa. Xullas, 1950-1991-yillarda Markaziy Farg'ona yerlarida ham irrigatsiya-melioratsiya ishlarining yuqori darajada taraqqiy ettirilishi, shuningdek, qishloq xo'jaligi, xususan, paxtachilik sohasini rivojlantirilishi ijobiy tomonlari bilan birga ayrim salbiy oqibatlarini ham keltirib chiqardi. Bu yerdagi o'zlashtirish va sug'orish ishlari katta hajmda amalga oshirildi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Andijon viloyat davlat arxivi (AVDA), 608-fond, 1-ro'yxat, 932- yig'majild.
2. AVDA, 619- fond, 1-ro'yxat, 113- yig'majild, 107-varaq.
3. AVDA, 608- fond, 1-ro'yxat, 955- yig'majild, 12-varaq.
4. AVDA, 608- fond, 1-ro'yxat, 1177- yig'majild, 43-varaq.
5. AVDA, 619- fond, 1-ro'yxat, 140- yig'majild, 203-varaq.
6. AVDA, 608- fond, 1-ro'yxat, 1451- yig'majild, 16-varaq.

7. Namangan viloyat davlat arxivi (NVDA), 275-fond, 1-ro'yxat, 1341- yig'majild.
8. NVDA, 317-fond, 1-ro'yxat, 1330-yig'majild, 9-varaq.
9. NVDA, 317-fond, 1-ro'yxat, 1421-yig'majild, 48-varaq.
10. Насритдинов К.М. Ўзбекистонда ирригация-мелиорация курилишининг ривожланиши ва унинг ижтимоий-иқтисодий оқибатлари (1981-1990 йиллар): Тарих фан.номз. ... дис.- Андижон, 1994.-147 б.
11. Очиллов Н. Ўзбекистонда ирригация-мелиорация ишлари (1946-1964).-Тошкент: Фан, 1991. -104 б.
12. Farg'ona viloyat davlat arxivi (FVDA), 1151-fond, 1-ro'yxat, 14- yig'majild, 1-varaq.
13. FVDA, 1151- fond, 1-ro'yxat, 80-yig'majild, 6-varaq.
14. FVDA, 1151- fond, 1-ro'yxat, 87- yig'majild, 57-varaq
15. FVDA, 1151- fond, 1-ro'yxat, 13- yig'majild.
16. FVDA, 1151- fond, 1-ro'yxat, 59- yig'majild.
17. FVDA, 1151- fond, 1-ro'yxat, 47- yig'majild, 3-varaq.
18. FVDA, 1151- fond, 1-ro'yxat, 91- yig'majild.
19. FVDA, 1151- fond, 1-ro'yxat, 98- yig'majild, 15-varaq.
20. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь. www.prezident.uz.
21. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi Andijon viloyat bo'limi (O'zR PAA AVB), 155- fond, 1-ro'yxat, 201-yig'majild, 5-varaq.
22. O'zbekiston Milliy arxivi, R.2483- fond, 1-ro'yxat, 1382-yig'majild, 285-varaq.
23. O'zbekiston Milliy arxivi, 2483- fond, 1-ro'yxat, 1595-yig'majild.
24. O'zbekiston Milliy arxivi, R.90- fond, 10-ro'yxat, 303-yig'majild, 124-varaq.
25. O'zR PAA AVB, 155- fond, 2-ro'yxat, 190-yig'majild, 3-varaq.
26. O'zR PAA AVB, 155- fond, 2-ro'yxat, 183-yig'majild, 88-varaq.
27. Гофуров А. Ирригация ва мелиорацияни ривожлантиришнинг иқтисодий проблемалари. - Тошкент: Ўзбекистон, 1974.-126 б.

ANDIJON SUV OMBORI TARIXIDAN
Turgunov Abduraxman Gulomjon o'g'li,
Andijon davlat universiteti
“Jahon tarixi” kafedrasida katta o'qituvchisi
FROM THE HISTORY OF ANDIZHAN WATER
RESERVOIR

Turgunov Abdurakhman Gulomjon ugli,
Senior lecturer at the Department of “World History” of
Andizhan State University

ИЗ ИСТОРИИ АНДИЖАНСКОГО
ВОДОХРАНИЛИЩА

Тургунов Абдурахман Гуломджон оглы,
старший преподаватель кафедры “Всемирной истории”
Андижанского государственного университета



e-mail:
abdurahman@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada suv omborlarning paydo bo'lishi tarixidan, uning muhim iqtisodiy inshootlardan biri ekanligi to'g'risida yoritilgan. Xususan suv omborlarning xususiyatlari, turlari haqida bayon etilgan. Hozirda O'zbekistonda 55 ta suv omborlaridan bittasi Andijon suv omborining qurilishi, bir qancha statistik va tahliliy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: suv omborlari, suv obyekti, suv resurslari, to'g'on, Andijon suv ombori, gidrouzel, GES, Kampirravot.

Abstract: This article covers the history of reservoirs' emergence and their role as important economic objects. In particular, the features and types of reservoirs are described. Statistical and analytical data are presented, including information on the construction of the Andijan Reservoir - one of the 55 reservoirs currently operating in Uzbekistan.

Key words: reservoirs, water body, water resources, dam, Andizhan reservoir, hydroelectric power station, hydroelectric power station, Kampirravot.

Аннотация: В данной статье освещается история возникновения водохранилищ и их роль как важных экономических объектов. В частности, описаны особенности и типы водохранилищ. Приводятся статистические и аналитические данные, в том числе информация о строительстве Андижанского водохранилища - одного из 55 водохранилищ, существующих в настоящее время в Узбекистане

Ключевые слова: водохранилища, водный объект, водные ресурсы, плотина, Андижанское водохранилище, гидроузел, ГЭС, Кампирравот.

KIRISH. Suv omborlari davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim infratuzilma elementlaridan biri hisoblanadi, chunki bu inshootlar suv resurslarini saqlash, taqsimlash va boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Suv ombori to'g'on orqasidagi kengaygan ko'l bo'lib, odatda toza suvni saqlash uchun qurilgan bo'lib, ko'pincha gidroenergetika ishlab chiqarish uchun foydalaniladi.

Birinchi suv omborlari Qadimgi Misrda Nil daryosi vodiysidagi yerlarni o'zlashtirish maqsadida miloddan avvalgi 3000 yil barpo etilgan. Bundan tashqari eng qadimiy suv omborlari qatoriga Qadimgi Misrdagi Koshish, Saad-yel-Kafara va Meris suv omborlari, Yaqin Sharqdagi Nimrod, Xitoydagi qator suv omborlarini misol qilish mumkin [1. – B.5].

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab suv omborlari rejimining atrof-muhitga ta'siri global masshtabni egallaganligi sababli, ularning gidrologik rejimini ratsionallashtirish yeng dolzarb masalalardan biriga aylandi. XX asrda suvdan foydalanish ko'lami olti baravar oshishi. Yer yuzida so'nggi 70-80 yil ichida suv omborlarini qurish jarayoni juda tezlashdi, ularning umumiy hajmi 10 barobarga oshdi. Jumladan, Lotin Amerikasida bu ko'rsatkich 35 barobarga, Afrikada – 60 barobarga, Osiyo qit'asida esa 90 barobarga ko'paydi.

Hozirda yer yuzida suv omborlarining soni 60 mingdan ortiq bo'lib, umumiyhajmi – 6600 km³, foydali hajmi – 3500 km³ dan ortadi. Bu degani – yer yuzidagi barcha daryolarning 10% yillik oqim hajmiga to'g'ri keladi. Suv yuzasi maydoni yesa 600 – 620 ming km² (Yer shari yuzasining 0,2 %) ni tashkil qiladi. Yiliga 300 dan 500 tagacha turli hajmdagi suv omborlari ishga tushirilmogda. Volga, Angara, Missuri, Kolorado, Parana, Tennesi kabiyirik daryolar suv omborlari kaskadiga aylangan. Prognozlarga qaraganda – yana 30 – 50 yil ichida Yer yuzidagi daryolar havzalarining 2/3 qismi suv omborlari orqali boshqariladi [2. – B.4].

Suv omborlari daryolarning suvlari hisobiga ma'lum vaqt davomida to'ldirilib, xalq xo'jaligi tarmoqlarini kerakli vaqtda zarur miqdorda suv bilan ta'minlashga mo'ljallangan gidrotexnik inshootlar majmuasidir. Suv omborlari – asosan ikki turiga bo'linadi:

1. O'zan suv omborlari – bu daryo o'zanida suv oqimi yo'lini to'sib suv omborini hosil qilishdan iborat. O'zan suv omborlarida oqimdagi barcha loyqaliklarning katta qismi cho'kib qoladi. Buning natijasida loyqa to'lishi tezroq kechadi.

2. Quyilma suv omborlari daryo o'zanidan tashqarida, qulay relyef chuqurligi hosil bo'lgan hududlarda quriladi, va bunda suv omboriga suvni maxsus kanallar orqali yetkazib beriladi. Suv omborlariga suv nasoslar yordamida keltirilishi ham mumkin. Ularning loyqa bosishi davri juda uzoq, ammo bu suv omborlarini loyqa bosganda ularni tozalashni imkoni umuman yo'q. Shuning oldini olish maqsadida olinayotgan suvning katta ahamiyat beriladi [2. – B.7].

Suv ombori – sun'iy barpo qilingan suv obyekti bo'lib, daryo vodiysida suvning yo'lini to'g'on yordamida to'sib suvni akumuliyatsiya

qilish, saqlab turish va zarur vaqtda foydalanish uchun ishlatiladi. Suv omborini barpo qilishdan asosiy maqsad daryo oqimi suv hajmini ichimlik suvi ta'minoti, irrigatsiya, gidroenergetika, sanoat, ekologiya, suv toshqini xavfi va boshqa talablarni ko'zda tutgan holda boshqarishdir. Suv omborlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Boshqarish turlariga binoan suv omborlar: ko'p yillik, bir yillik, mavsumiy, haftalik, sutkalik kabi turlarga bo'linadi. Suv omborlari to'g'onlari qurilish materiallariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: grunt to'g'onlar, beton, toshli, temir-beton, gabionli to'g'onlar.

Hozirda O'zbekiston Respublikasida 55 dan ortiq suv omborlari mavjud bo'lib, Andijon suv omboridan boshqa barchasi grunt to'g'onlarni tashkil etadi. U Andijon viloyatidagi Qoradaryo daryosida joylashgan gidrotexnika inshootidir. Ushbu suv ombori ko'p yillik rejimda daryo suvini tartibga solish vazifasini bajaradi va irrigatsiya hamda energetika maqsadlariga xizmat qiladi. Qurilish ishlari 1969-yilda boshlangan bo'lib, 1982-yilda tugallangan.

Uning balandligi 121 m, uzunligi 1040 m bo'lgan betonli katta kontrforeli to'g'on qurib hosil qilingan. Suv sig'imi 1,9 mlrd. m³. Gidrouzel tarkibiga to'g'on, suv o'tkazuvchi inshootlar va GES kiradi. Suv o'tkazuvchi inshootlar favqulodda toshqinda 1700 m³/s gacha suv o'tkazishga va umumiy suv sarfi 230 m³/s bo'lgan irrigatsiya kanallariga oqizishga mo'ljallangan. GES kanallarga tushayotgan suv hisobiga ishlaydi, 192 m³/s suv sarfiga mo'ljallangan, quvvati 140 MVt. Andijon suv omborining suvi Farg'ona vodiysida 273 ming ga yaqin maydonning suv ta'minotini yaxshilaydi, qo'shimcha 35 ming ga yerni sug'orish imkoniyatini beradi [3. – B.505].

Ushbu suv omborining loyihasini 1969-yilda ishlab chiqilgan. Andijon viloyatining yerlari asosan Qoradaryo suvi bilan, qisman Oqbura va Aravonsoy yordamida to'ldiriladi. Suv ombori Qoradaryo o'zaniga qurilgan, to'liq hajmi 1,60 milliard m³. Balandligi 105 metrli betondan massiv-kontrfors to'g'on qurilgan. Uzunligi 1050 m. Suv ombori o'rni Kampirrovot torligi bo'lib, bu yerda tog'li daraning kengligi 400-800 m ga teng, bu yerda Qoradaryo tog' oldi qismdan tekislikka chiqadi. To'g'on o'rni oldindan bor bo'lgan Kampirrovot gidrouzelidan 300 m yuqorida joylashgan. Suv ombori qurilishi natijasida 394

ming gektar sug'oriladigan yerlarning ta'minoti yaxshilanadi, shundan 139 ming gektari Qirg'izistonda, 257 ming gektari O'zbekistonda. Qo'shimcha 44 ming gektar yer o'zlashtirildi [4. – B.33].

Suv ombori tarkibida quyidagi inshootlar bor: beton to'g'on, suvchiqazish inshooti, gidroelektrostansiya. O'zining ahamiyati va miqyosi jihatidan bu majmua boshqa inshootlardan tubdan farq qiladi. Majmua loyihasini hozirgi O'zdameliosuvloyiha institutida tayyorlangan. Injenerlar L.S.Litvak, G.N.Kuleshov, me'morlar V.Melnikov, G.I.Kuznesov texnik loyiha va me'moriy yechimlariga alohida ahamiyat berganlar. Uchta variantda me'moriy-badiiy yechim loyihasi tayyorlangan. Uchchala variantda shunday yirik va murakkab obyektning me'moriy yechimi talabga to'liq javob bermagan.

Keyinchalik me'moriy yechimlarga L.Boychenko va A.Semenovlar qo'shilgan. Ular yaratgan loyiha oldingilaridan tubdan farq qilgan. Bunda me'morlar inshootlarning bir butunligi, ko'rkam-nafisligi va ifodalanishini saqlashga intilganlar. Bosh rejaga ko'ra Andijon suv ombori majmuasi qurilishida mavjud Kampirrovot to'g'oni muzey eksponati sifatida saqlab qolingan. Qoradaryoning eski o'zani inshoot yaqinida kengaytirilib, katta suv havzasiga aylantirilgan, uning qirg'og'ida O'zbekistonda gidrotexnika inshootlari qurilishi tarixi muzeyi, sayyoh va mehmonlar uchun choyxona-kafe qurilgan.

Me'moriy yechimlar to'g'on konstruksiyasiga qaratilgan. To'g'on tanasiga tirilib turgan qudratli kontrforslar to'g'on uzunligi bo'ylab bir tekisda joylashgan (balandligi 90 m atrofida), inshootning me'moriy kompozitsiyasida ma'lum uyg'unlikni hosil qilgan. Plandagi kichik egrilik unga turg'unlik va ustivorlik baxsh etgan.

To'g'onning yuqori qismi butun uzunligi bo'ylab nafis kamar yirikrasimli panjara bilan o'ralgan. U faqat to'g'onning o'rta qismida – suv tashlash inshooti joylashgan joyda uzilgan. Panjara ortida yoritish qurilmalari o'rnatilgan. Bu nafis kamarning umumiy balandligi 10 m. To'g'onning markaziy qismida peshayvon ajralib turibdi. Uning tayanchi halokatli suv tashlash inshooti devorining qirrasini hisoblanadi. Peshayvon devor-kamarni 100 m uzunlikda kesadi va yirik rasmi rangli plitkalar bilan qoplangan. Xizmat

ko'rsatuvchi binolar to'g'onning pastki b'efida to'g'onning yuqori belgisida joylashgan. To'g'on ustida sayyohlar uchun mo'ljallangan atrofni tomosha qiladigan maydon va maxsus bino – xoll qurilgan.

To'g'onning old ko'rinishi o'ng qirg'oqdagi pasika b'efga qaratilgan temir-beton plastina bilan tugaydi. Uning balandligi to'g'on ustidan 12-15 m. Unga V.I.Leninning baralefitekis yuzaga bo'rttirib tasvirlangan rasmi ishlangan edi. Hozirgi vaqtda bu O'zbekiston bayrog'i bilan almashtirilgan [5.].

Me'moriy yechimda gidroelektrostansiya binosi ko'rib chiqilgan. U quyi b'efda joylashgan. Devorining tekis qismida rangli plitalardan o'lchami 50x8 m li panno-qalin suripga tushirilgan katta surat unda "O'zbekistonda irrigatsiyaning rivojlanishi" keltirilgan. Ekspertlarning xulosalari asosida bu variantga avvalgi variantdagi asosiy me'moriy yechimlarni saqlab qolgan holda, uning shaklini ratsional ko'rsatish maqsadida ayrim o'zgartirishlar kiritilgan. To'g'onning ustki qismi transport qatnovini hisobga olib 6 m ga kengaytirildi [6. – B.317]. Alohida turgan GES binosini to'g'on bilan birlashtirilgan. GES binosi to'g'on umumiy tekisligidagi uchta kontrfors o'rniga joylashtirilgan. Bunda GES ning bosh fasadi – old ko'rinishi to'g'onning umumiy ko'rinishidagi mayda vertikal qismlari o'rniga to'g'ri keladi. Bu me'moriy yechim suv ombori qurilishi masshtabini yanada yaqqol namoyon qilgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Gapparov F.A., Mansurov S.R. Suv omborlaridan foydalanish. Darslik. – Toshkent: Voris-nashriyot, 2024.
2. Ikramova M.R. Suv omborlari gidrologiyasi: o'quv qo'llanma / M.R. Ikramova. – Toshkent: Baktriya Press, 2019.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1 jild. – Toshkent: O'zME, 2000.
4. Bakiev M.R., Qodirov O., Murodov R.A. Me'morchilik. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2008.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Andijon_suv_ombori
6. Shamsutdinov R., Mo'minov H. O'zbekiston tarixi: o'quv qo'llanma.-Toshkent: Fan, 2020.

SINFDAN TASHQARI TARBIYAVIY FAOLIYAT
O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASHNI
RIVOJLANTIRISH MEKANIZMI SIFATIDA

Boymatov Baxrom Eshmamatovich,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

EXTRACURRICULAR EDUCATIONAL ACTIVITIES AS
A MECHANISM FOR DEVELOPING STUDENTS'
CREATIVE THINKING

Boymatov Bakhrom Eshmamatovich,

Independent researcher at Chirchik State Pedagogical University

ВНЕУРОЧНАЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КАК МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ
ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ

Бойматов Бахром Эшмаматович,

научный исследователь Чирчикского государственного
педагогического университета



e-mail:

boymatov.baxrom

@gmail.com

[https://orcid.org/0](https://orcid.org/0009-0002-5010-0838)

009-0002-5010-
0838

Annotatsiya: Ushbu maqolada sinfdan tashqari ta'limning o'quvchilarda kognitiv faollik va kreativ fikrni shakllantirishdagi o'rni chuqur tahlil qilinadi. Maqolada ushbu faoliyatda kreativ fikrlashni rag'batlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlar – emotsional rag'bat, tanlov imkoni, fikrlash sherikligi, xatoga ijobiy munosabat va ijtimoiy tan olish kabi usullar atroflicha yoritilgan. Shuningdek, kognitiv nazariya nuqtai nazaridan sinfdan tashqari ta'lim orqali o'quvchilarda ijodiy izlanish, fanlararo qarashlar va shaxsiy xulosalar shakllanishiga yetarlicha sharoit yaratilishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: sinfdan tashqari ta'lim, kreativ fikrlash, to'garak faoliyati, mexanizm, tanlov imkoni, ijodiy muhit, kognitiv faollik, fanlararo aloqa, tashabbus.

Annotation: This article provides an in-depth analysis of the role of extracurricular education in the formation of cognitive activity and creative thinking in students. The article provides a detailed description of pedagogical mechanisms that serve to stimulate creative thinking in this activity – methods such as emotional stimulation, the possibility of choice, thinking partnership, a positive attitude to mistakes and social recognition. It is also emphasized that, from the point of view of cognitive theory, extracurricular education creates sufficient conditions for the formation of creative research, interdisciplinary views and personal conclusions in students.

Keywords: extracurricular education, creative thinking, club activities, mechanism, choice opportunities, creative environment, cognitive activity, interdisciplinary communication, initiative.

Аннотация: В статье представлен глубокий анализ роли внеклассной деятельности в формировании познавательной активности и креативного мышления студентов. В статье подробно описаны педагогические механизмы, стимулирующие творческое мышление в этой деятельности, – такие методы, как эмоциональное стимулирование, возможность выбора, мыслительное партнерство, позитивное отношение к ошибкам и социальное признание. Также подчеркивается, что с точки зрения когнитивной теории внеклассная деятельность создает достаточные условия для формирования у студентов творческого исследовательского мышления, междисциплинарных взглядов и личностных выводов.

Ключевые слова: внешкольное образование, творческое мышление, клубная деятельность, механизм, возможности выбора, творческая среда, познавательная активность, межпредметные связи, инициативность.

KIRISH. Sinf dan tashqari ta'lim bu o'quv jarayonining rasmiy darslardan tashqarida tashkil etiluvchi, ixtiyoriylik, qiziqish va ijodiy izlanishga asoslangan muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarning shaxsiy salohiyatini rivojlantirishda keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu ta'lim shakli faqat akademik bilimni chuqurlashtirish bilan cheklanmasdan, balki ijodiy fikrlash, mustaqil izlanish, jamoada ishlash va shaxsiy tashabbuslarni ro'yobga chiqarish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Sinf dan tashqari ta'lim o'quvchi shaxsiyatiga nisbatan erkin, ilhomlantiruvchi, yangilikka ochiq muhitni ta'minlagani sababli kreativ fikrlashni tarbiyalashda alohida o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

L.I.Novikovaning e'tiroficha, kreativ harakatning tasavvur, orzu qilish qobiliyati va assotsiativ fikrlash kabi tarkibiy qismlari o'zaro bog'langan tizimni tashkil etuvchi komponentlar sifatida o'ziga xos g'oyalarni yaratishga va ularni o'ziga xos ijodiy natijalarga aylantirishga yordam beradi [1; 46–bet].

M.A.Tilakovaning fikriga ko'ra, sinf dan tashqari ishlarning asosiy maqsadi o'quvchilarni har tomonlama barkamol rivojlantirishdan iborat bo'lib, fan bo'yicha olgan bilimlarini chuqurlashtirish, ularda bilishni faollashtirishdan iborat. Shuningdek, sinf dan tashqari ishlar maktabda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning davomi hisoblanib, o'quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishiga yordam beradi [2; 69–bet].

L.Salkovaning fikricha, sinf dan tashqari mashg'ulotlar va mustaqil idrok qilish jarayonida o'quvchilarning intellektual – ijodiy mahsulot ustida ishlashi amalga oshirilib, o'qituvchi o'quv jarayonini boshqarar va nazorat qilar ekan, ayni vaqtda o'z o'quvchilarida kreativlikni, jumladan, kreativ – intellektual – ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi [3; 72–bet].

MUHOKAMA. Sinf dan tashqari ta'lim o'quvchilarning fanga, san'atga, texnologiyaga, ijtimoiy hayotga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga, shaxsiy salohiyatini ochishga va ijodiy faolligini tarbiyalashga yo'naltirilgan ta'limiy–tarbiyaviy jarayon bo'lib, u maktabning asosiy o'quv dasturidan tashqarida tashkil etiladi. Bu ta'lim turining mazmuni o'quvchilarning yosh, individual xususiyatlari va qiziqishlariga mos ravishda shakllantiriladi va umumiy rivojlanish,

bilishga intilish, ijtimoiylashuv, estetik ta'lim hamda fuqarolik ongini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sinf dan tashqari ta'lim shakllari bu individual yoki guruhli to'garaklar, ijodiy ustaxonalar, fan klublari, texnoparklar, loyihaviy guruhlar, interaktiv kvestlar, tematik kechalar, intellektual o'yinlar, ijtimoiy aksiyalar va boshqa faoliyat formatlaridir[4].

Sinf dan tashqari ta'lim nafaqat dars jarayonini boyitish, balki ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ham muhim o'rin tutadi. Uning ta'limiy ta'siri, avvalo, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, bilimlarni mustaqil izlanish va amaliy faoliyat orqali chuqurlashtirish, ta'lim mazmunini hayot bilan bog'lash orqali idrokni faollashtirishda namoyon bo'ladi. To'garaklar, ijodiy loyihalar, fan klublari va interaktiv tadbirlar orqali o'quvchilar mustaqil fikr yuritish, tahlil qilish, turli yechimlar taklif etish, ya'ni kreativ fikrlash asosida harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tarbiyaviy jihatdan esa sinf dan tashqari ta'lim o'quvchida jamoa bilan ishlash madaniyatini, shaxsiy javobgarlikni, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikni to'g'ri qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi[5]. Shuningdek, turli fan va yo'nalishlar kesishmasida amalga oshiriladigan kreativ mashg'ulotlar orqali o'quvchida fanlararo aloqalarni anglash, universal va multidissiplinar qarashlar shakllanadi.

Kognitiv nazariyaga ko'ra, ta'lim jarayoni bu ma'lumotni shunchaki yodlash emas, balki o'quvchining mavjud bilimlar tizimiga yangi axborotni muvofiqlashtirish, qayta qurish, umumlashtirish va ijodiy qayta ishlash jarayonidir[6]. Sinf dan tashqari faoliyatda bunday yondashuv o'quvchilarga yangi bilimlarni o'zlari izlab topish, muammolarni tahlil qilish, alternativ yechimlarni taqqoslash va shaxsiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Bu esa ularning kreativ fikrlash qobiliyatini faollashtiradi.

NATIJARLAR. Sinf dan tashqari ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantirish jarayonida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan muhim jihatlardan biri bu **o'quvchining tashabbusini ilhomga aylantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlardir.** Zero, har bir o'quvchida tabiiy ravishda paydo bo'ladigan qiziqish, g'oya, savol yoki ilk tashabbus vaqt o'tib so'nmasligi, aksincha,

rivojlanib ilhomga aylanishi uchun maqsadli pedagogik muhit va ta'sir kerak. Bu jarayonda pedagog o'quvchining ichki harakatga kelish jarayonini qo'llab-quvvatlaydigan, uni yaratishga ilhomlantiradigan mexanizmlarni faol qo'llashi zarur. Quyida shunday mexanizmlardan ayrimlarini ko'rib o'tamiz:

Emotsional rag'bat va "intellektual ehtiyojni tan olish" mexanizmi. Pedagog o'quvchining har qanday kichkina tashabbusini – savol berishi, fikr bildirishi, yangicha yechim taklif etishini – ijobiy qabul qilishi va rag'bat bilan kutib olishi kerak. Iqtidorni tan olish orqali o'quvchida "mening fikrim muhim", "men qila olaman" degan ichki ishonch paydo bo'ladi. Bu ishonch ilhomning birinchi qadamidir.

"Tanlov imkoni va ixtiyoriy ishtirok" mexanizmi. O'quvchiga faoliyat turini, rolini, loyihasi mavzusini erkin tanlash imkonini berish – tashabbusni ilhomga aylantirishda muhim mexanizm hisoblanadi. Bunda o'quvchi o'z tanlovi uchun javobgarlik his qiladi va uni oxirigacha yetkazishga intiladi. Shu tariqa, tashabbus uzoq muddatli ijodiy harakatga aylanadi.

"Birgalikda yaratish" va "fikrlash sherikligi" mexanizmi. Pedagog o'zini o'quvchidan yuqorida emas, balki tengdosh sherik sifatida tutishi, birgalikda ijod qilish jarayoniga qo'shilishi orqali o'quvchida ishonch va ilhom paydo bo'ladi. Bunday munosabat "ustoz–shogird" emas, balki "ijodkor–ijodkor" munosabatini shakllantiradi, bu esa tashabbusning doimiy motivatsiyaga aylanishiga xizmat qiladi.

"Maqsadli sinov" va "to'g'ri xato qilish muhiti" mexanizmi. Kreativ tashabbuslar doimo muvaffaqiyat bilan tugamasligi mumkin. Lekin pedagog agar har bir harakatni sinov sifatida qabul qilsa, xatoni ta'na emas, tajriba deb baholasa – o'quvchida "ilhom so'nishi" emas, aksincha "yana harakat qilish" istagi shakllanadi.

"Jamoaviy taqdimot va ijtimoiy tan olish" mexanizmi. O'quvchi o'z tashabbusi va g'oyasini boshqalarga taqdim eta olsa, va bu jarayon samarali tashkil etilsa, uning tashabbusi shaxsiy ilhomga aylanib, yanada rivojlanadi. Loyiha himoyalari, ijodiy forumlar, ko'rgazmalar va jamoaviy muhokamalar orqali o'quvchi ijodiy jarayonda o'zining o'rnini, ahamiyatini his etadi.

Umuman, o'quvchidagi tasodifiy yoki intuitiv tashabbusni izchil va ilmiy asoslangan ilhomga aylantirish uchun pedagog maqsadli ravishda qo'llashi lozim bo'lgan mexanizmlar mavjud. Bu mexanizmlar o'quvchining ichki ehtiyojlari, hissiy holati va ijodiy kurashuvchanligini hisobga olgan holda qo'llanilsa, tashabbus ko'p hollarda ilhomga, ilhom esa ijodiy natijaga aylanadi.

XULOSA. Sinfdan tashqari ta'lim o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirishda erkinlik, izlanish va shaxsiy ma'no yaratish imkoniyatini yaratib beradigan samarali pedagogik muhitdir. Bu jarayonda kreativlikni rag'batlantiruvchi metod va shakllar, fanlararo integratsiya, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, motivatsiya tizimi, pedagog - ota-ona hamkorligi va ijtimoiy muhit bilan uyg'unlik kreativ salohiyatni yuzaga chiqarish uchun zaruriy shartlar sifatida namoyon bo'ladi. Kognitiv, konstruktivistik, neyropedagogik va gumanistik metodologik yondashuvlarga tayangan holda tashkil etilgan sinfdan tashqari faoliyat o'quvchining mustaqil, faol va ijodkor shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Новикова Л.И. Школа и среда. Сб. науч. трудов. М.: 2015. 80 с.
2. Tilakova M.A. VIII–IX sinf o'quvchilarida sinfdan tashqari mashg'ulotlarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik shart–sharoitlari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: –2019. –72 b.
3. Салькова Л.Ю. Развитие творческих и интеллектуальных способностей обучающихся на уроках и внеклассных занятиях, занятиях внеурочной деятельности: научно–практическое пособия/ Л.Ю.Салькова. – Самара; Саратов: Амирит, 2023. – 112 с.
4. Болтаева Ш. Бошланғич таълимда тўғарак фаолияти орқали ўқувчиларнинг салоҳиятини ривожлантириш. – Т.: 2022. – Б. 92.
5. Bisson J. Interdisciplinary Learning: Creative Connections Across the Curriculum. – London: Routledge, 2010. – P. 63.
6. Гусев А.В. Индивидуализация и креативность в образовательной среде. – М.: Педагогика, 2015. – С. 64.

**AXBOROTLASHGAN TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK
BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING
KASBIY INNOVATSION KOMPETENSIYASINI
RIVOJLANTIRISH**

To'rayeva Dilnoza Ismoilovna,

Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi

**DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL INNOVATIVE
COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL
TEACHERS IN AN INFORMATION-BASED
EDUCATIONAL ENVIRONMENT**

Turayeva Dilnoza Ismoilovna,

Senior teacher of the Surkhandarya regional pedagogical skills center

**РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В
ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ**

Тураева Дилноза Исмоиловна,

старший преподаватель Сурхандарьинского областного центра педагогического мастерства



<https://orcid.org/0009-0003-9995-1390>

9-0003-9995-1390

e-mail:

[turayeva_dilnoz85@](mailto:turayeva_dilnoz85@mail.ru)

[mail.ru](mailto:turayeva_dilnoz85@mail.ru)

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak boshlang'ich maktab o'qituvchilarining kasbiy innovatsion kompetentsiyasini axborot-ta'lim muhiti kontekstida rivojlantirish muammosi ko'rib chiqiladi. Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion salohiyatini rivojlantirish omili sifatida axborot-ta'lim muhitining o'rni asoslab berilgan. O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashga yordam beradigan metodik yondashuvlar va faol o'qitish usullariga (loyihaviy ta'lim, keys usuli, dizayn fikrlash, o'yinlashtirish) alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'z va iboralar: innovatsion kompetentsiya, talaba, axborot va ta'lim muhiti, loyihaviy ta'lim, loyihaviy fikrlash, raqamli savodxonlik, STEAM ta'limi.

Annotation: The article considers the problem of developing professional innovative competence of future primary school teachers in the context of the information and educational environment. The role of the information and educational environment as a factor in developing the innovative potential of future teachers is substantiated. Particular attention is paid to methodological approaches and active teaching methods (project-based learning, case method, design thinking, gamification) that help prepare teachers for innovative activities.

Keywords and phrases: innovative competence, student, information and learning environment, project-based learning, project thinking, digital literacy, STEAM education.

Аннотация: В статье рассматривается проблема формирования профессиональной инновационной компетентности будущих учителей начальных классов в условиях информационно-образовательной среды. Обоснована роль информационно-образовательной среды как фактора развития инновационного потенциала будущих учителей. Особое внимание уделено методическим подходам и активным методам обучения (проектное обучение, кейс-метод, дизайн-мышление, геймификация), способствующим подготовке учителей к инновационной деятельности.

Ключевые слова и фразы: инновационная компетентность, студент, информационно-образовательная среда, проектное обучение, проектное мышление, цифровая грамотность, STEAM-образование.

KIRISH. Global raqamlashtirish sharoitida ta'limning zamonaviy rivojlanishi boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun nafaqat akademik bilimlarni, balki kognitiv faoliyat asoslarini, ijodiy fikrlashni va atrofdagi dunyoga innovatsion munosabatni shakllantiradigan bolaning ta'lim maydoniga birinchi yo'l-yo'riqchisiga aylanadi. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy innovatsion kompetentsiyani shakllantirish nafaqat eng yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishga tayyorlikni, balki o'quv jarayoniga innovatsion yondashuvlarni mustaqil ravishda ishlab chiqish, moslashtirish va joriy etish qobiliyatini ham nazarda tutadi. Bu borada eng muhim omil axborot-ta'lim muhiti, jumladan, raqamli platformalar, elektron resurslar, interaktiv texnologiyalar va aloqaning tarmoq shakllari individual va tabaqalashtirilgan ta'lim uchun sharoit yaratishga imkon beradi, turli xil pedagogik amaliyotlardan foydalanishni ta'minlaydi va barqaror kasbiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR

SHARHI. A.V.Xutorskoy[1], I.A.Zimnyaya[2] va boshqalar innovatsion kompetentsiya o'qituvchining yangi ta'lim amaliyotini loyihalash va amalga oshirish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan kasbiy kompetentsiyasining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. R.Ishmuhamedov va boshqa hammualiflar bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentsiyasi raqamli savodxonlik, pedagogik refleksiya va madaniy qadriyatlarining uyg'unligiga asoslanishi zarurligi ta'kidlashadi[3, 62–bet].

N.A.Muslimov va boshqalar innovatsion kompetentsiyani "ijodiy o'qitish" tushunchasi bilan bog'lab, bo'lajak o'qituvchilarda lohiya tafakkurini rivojlantirish zarurligini, fanlararo o'zaro ta'sir o'tkazish qobiliyatini va maktabda STEM/STEAM yondashuvlarini joriy etishga tayyorligini ta'kidlaydilar [4, 23–bet].

TAHLIL VA NATIJALAR. Zamonaviy ma'noda axborot-ta'lim muhiti - bu shaxsni samarali tayyorlash, ta'lim olish va malakasini oshirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydigan raqamli va tashkiliy-pedagogik resurslar majmuidir[4]. Uning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardir:

texnik infratuzilma (kompyuterlar, interfaol doskalar, planshetlar);

dasturiy mahsulotlar va platformalar (Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams, Zoom va boshqalar);

elektron ta'lim resurslari (onlayn kurslar, virtual kutubxonalar);

aloqa vositalari (vebinarlar, messenjerlar, ijtimoiy tarmoqlar, professional onlayn hamjamiyatlar)[4, 87–bet].

Ushbu elementlarning uyg'unligi tufayli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion faoliyat bilan bog'liq barqaror kompetensiyalarni shakllantirish uchun sharoitlar yaratiladi.

Oliy ta'lim muassalarda ta'limni raqamlashtirish sharoitida quyidagi innovatsion pedagogik texnologiyalarning tizimli foydalanishi nafaqat bilimlarni uzatish vositasi, balki talabalarda moslashuvchanlik, ijodkorlik va raqamli madaniyatga asoslangan innovatsion kasbiy kompetentsiyani shakllantirishning strategik omili sifatida ishlaydi:

bo'lajak o'qituvchilarning ijodkorligi va tashabbuskorligini rivojlantirishni ta'minlaydigan loyihaga asoslangan ta'lim;

pedagogik masalalarning nostandart yechimlarini topish imkonini beruvchi dizayn fikrlash;

motivatsiya va eksperimental faoliyatni rag'batlantiradigan o'yin va o'quv simulyatorlari;

virtual va kengaytirilgan voqeiylik (VR/AR), ta'lim vaziyatlarini simulyatsiya qilish imkoniyatlarini yaratish;

professional muloqot ufqlarini kengaytiruvchi onlayn hamkorlik va xalqaro ta'lim loyihalari[2, 87–bet].

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy innovatsion kompetentsiyasini shakllantirish faqat ijodiy faoliyatni faollashtirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar:

kompetensiyaga asoslangan yondashuv, bunda asosiy e'tibor nafaqat bilimga, balki uni yangi sharoitlarda qo'llash, nostandart qarorlar qabul qilish, o'z loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ham qaratiladi;

faoliyatga asoslangan yondashuv, pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarini ilmiy tadqiqot va loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beruvchi amaliyotga yo'naltirilgan turli faoliyat turlariga jalb etishni ta'minlash;

innovatsion faoliyatga qadriyat munosabatini shakllantirish va uning ijtimoiy

ahamiyatini anglashni nazarda tutuvchi aksiologik yondashuv;

an'anaviy pedagogik texnologiyalarni raqamli vositalar va fanlararo amaliyotlar bilan uyg'unligini o'z ichiga oluvchi integral yondashuv.

Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash maqsadiga erishish uchun faol o'qitish usullari muhim rol o'ynaydi:

loyihaga asoslangan ta'lim - ta'lim innovatsiyalarini rejalashtirish, tahlil qilish va amalga oshirish qobiliyatini rivojlantiradi;

keys metodi - pedagogik vaziyatlarni modellashtirish va ularni hal etishning ijodiy usullarini izlashga imkon beradi;

dizayn fikrlash - vazifalarga ijodiy yondashish qobiliyatini rivojlantiradi;

gamifikatsiya - talabalarning motivatsiyasini faollashtiradi va yangi raqamli vositalarni ishlab chiqishga yordam beradi;

onlayn hamkorlik - virtual jamoalarda o'zaro hamkorlikni ta'minlaydi.

Ilmiy manba[2; 4]lar va o'quv amaliyotini tahlil qilish asosida biz bo'lajak o'qituvchining innovatsion kompetensiyasini rivojlantirishning bir necha bosqichlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

motivatsion-qiymatli bosqich - innovatsion faoliyatga ijobiy munosabatni shakllantirish, uning kasbiy o'sish uchun ahamiyatini anglash;

kognitiv bosqich - zamonaviy ta'lim texnologiyalari, loyihalash usullari va raqamli resurslar haqida bilimlarni egallash;

amaliy va faollik bosqichi - talabalarning loyihalarda ishtirok etishi, pedagogik tajribalar, raqamli platformalar va simulyatorlardan foydalanish;

reflektiv va baholash bosqichi - o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, uning innovatsion salohiyatini aniqlash va kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish traektoriyasini qurish qobiliyatini rivojlantirish.

Binobarin, innovatsion kompetensiyani shakllantirishning uslubiy asosi kompetensiyaga asoslangan, faoliyatga asoslangan va innovatsiyaga yo'naltirilgan yondashuvlarni integratsiyalashuvi, shuningdek, axborot va ta'lim muhiti haqiqatiga mos keladigan faol o'qitish usullaridan foydalanishdir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot-ta'lim muhitida

innovatsion faoliyatga amaliy tayyorgarligi kompleks yondashuvni taqozo etadi. Pedagogika oliy o'quv yurtlarining o'quv rejaları quyidagilarga yo'naltirilgan fanlarni o'z ichiga olishi kerak:

raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini o'zlashtirish;

talabalarning loyiha madaniyatini rivojlantirish;

elektron ta'lim resurslari va multimedia vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

faol usullarni (keys usuli, loyiha asosida o'rganish, dizayn fikrlash) qo'llash.

Shunday qilib, axborot-ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion kompetensiyasini shakllantirish yangi avlod o'qituvchilarini tayyorlashning eng muhim sharti sifatida maktabning raqamli jamiyatga integratsiyalashuvini va global axborot madaniyati sharoitida hayotga tayyor shaxsni tarbiyalashni ta'minlaydi.

XULOSA. Innovatsion kompetensiyani shakllantirishning uslubiy asosi kompetensiya, faollik va integral yondashuvlar, shuningdek, faol o'qitish usullari (loyiha asosidagi ta'lim, keys metodi, dizayn fikrlash, o'yinlashtirish)ga asoslanadi. Bu yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish pedagogika oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish, o'quv amaliyotiga raqamli texnologiyalarni joriy etish va talabalarning akademik harakatchanligini rivojlantirishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хуторской, А. Личностная ориентация образования как педагогическая инновация / А.Хуторской // Школьные технологии. 2016. - №1.-С. 312.
2. Зимняя И. А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентного подхода в образовании / И.А.Зимняя // Ректор вуза. 2015. - № 6. - С. 13-29.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A.. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008.
4. *Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B.* – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 81-b.

STEAM YONDASHUVI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING ETNOEKOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH


*Anorov To'lqin Norqochqorovich, Surxondaryo viloyati
pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi*

DEVELOPING ETHNOECOLOGICAL COMPETENCE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON THE STEAM APPROACH

*Anorov Tolqin Norqochqorovich,
Senior teacher of the Surkhandarya regional pedagogical skills
center*

РАЗВИТИЕ ЭТНОЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА ОСНОВЕ STEAM- ПОДХОДА

*Аноров Тулкин Норкучкарович, старший преподаватель
Сурхандарьинского областного центра педагогического мастерства*



<https://orcid.org/0009-0009-9496-7733>

e-mail:

anorov_to'lqin70@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada integrativ STEAM yondashuvidan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida etnoekologik kompetensiyani rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslari ko'rib chiqiladi. Unda pedagogik shart-sharoitlar, jumladan, fanlararo integratsiya, loyiha va tadqiqot faoliyati, raqamli va multimedia resurslaridan foydalanish, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan etnik-madaniy loyihalarga o'quvchilarni jalb qilish tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: etnoekologik kompetensiya, boshlang'ich maktab, STEAM yondashuvi, fanlararo integratsiya, ekologik ta'lim, etnik-madaniy qadriyatlar, loyiha faoliyati, barqaror rivojlanish.

Abstract: The article considers the theoretical and methodological foundations of developing ethnoecological competence in primary school students using the integrative STEAM approach. It analyzes pedagogical conditions, including interdisciplinary integration, project and research activities, the use of digital and multimedia resources, as well as involving students in ethnocultural projects aimed at protecting the environment.

Keywords: ethnoecological competence, primary school, STEAM approach, interdisciplinary integration, environmental education, ethnocultural values, project activities, sustainable development.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретико-методические основы развития этноэкологической компетентности учащихся начальной школы с использованием интегративного STEAM-подхода. Анализируются педагогические условия, включающие межпредметную интеграцию, проектную и исследовательскую деятельность, использование цифровых и мультимедийных ресурсов, а также вовлечение учащихся в этнокультурные проекты, направленные на охрану окружающей среды.

Ключевые слова: этноэкологическая компетентность, начальная школа, STEAM-подход, межпредметная интеграция, экологическое образование, этнокультурные ценности, проектная деятельность, устойчивое развитие.

KIRISH. Globallashuvning zamonaviy sharoitlari va ortib borayotgan ekologik muammolar ta'lim tizimidan yosh avlodga ekologik mas'uliyatli xulq-atvorni shakllantirishga yangi konseptual yondashuvlarni izlashni talab qiladi. Bu boradagi istiqbolli yo'nalishlardan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarida madaniy an'analar va milliy qadriyatlarini hisobga olgan holda atrof-muhit haqidagi bilimlarni birlashtirishni nazarda tutuvchi etnoekologik kompetensiyani rivojlantirish hisoblanadi. Etnoekologiya fanlararo soha sifatida ekologik, etnografik va madaniy bilimlarni birlashtiradi, bu esa uni global ekologik muammolarni hal qilishda milliy o'ziga xoslikni saqlash kontekstida ayniqsa muhim qiladi [1, 42-bet].

STEAM yondashuvi ilmiy va ijodiy komponentlarning murakkab uyg'unligi tufayli boshlang'ich sinf o'quvchilarida nafaqat fan bilimlarini, balki tabiat, madaniyat va inson faoliyati o'rtasidagi munosabatlarni tushunish uchun juda muhim bo'lgan tadqiqotchilik ko'nikmalarini, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

V.A.Suxomlinskiy atrof-muhit dunyoni idrok etish asoslarining bir qismi sifatida o'quvchilarning axloqiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi, deb hisoblagan. U ko'pincha tabiat tarbiyaviy ishlarni amalga oshirmaydi, lekin ayni paytda u bilan o'zaro munosabatlarga bevosita ta'sir qiladi[1], deb ta'kidlaydi.

V.I.Kozlov etnik ekologiyani "etnografiya va inson ekologiyasi sohalaridagi bilimlarning uyg'unligi asosida shakllanadigan ilmiy fan"[2], deb ataydi. Uning ta'rifiga ko'ra, "etnik ekologiya etnografiya va inson ekologiyasi chorrahasida joylashgan ilmiy fandır"[2, 92- bet].

I.I.Krupnikning fikricha, etnik ekologiya - "etnik jamoalar va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarning shakllarini o'rganadigan, ushbu muhit - moddiy va ma'naviy - va uning resurslaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan maxsus yo'nalishi"[3, 92-bet].

A.Yu.Kuchkinovning fikricha, "etnoekologiya etnik guruhlarning an'analari yoki an'anaviy tabiatdan foydalanishga asoslangan tabiatdan foydalanish sohalaridan biri sifatida qaraladi"[4, 92-bet].

MUHOKAMA. O'rta umumta'lim maktablarining zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning etnoekolog madaniyatini shakllantirish tabiatdan oqilona foydalanishning xalq an'analari orqali amalga oshiriladi.

Pedagogikada "etnoekologik kompetensiya" tushunchasi tabiiy muhit bilan mas'uliyatli, madaniy shartli o'zaro munosabatni ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va qadriyat munosabatlari yig'indisi sifatida qaraladi[5, 22-bet].

"Etnoekologik kompetensiya - bu shaxsning murakkab sifati bo'lib, uni faqat faktik bilimlarni uzatish yoki individual ta'lim faoliyati orqali shakllantirish mumkin emas. Uning rivojlanishi bir-birini to'ldiradigan uchta sohani - ilmiy, madaniy va amaliy sohani birlashtirishni talab qiladi, ularning har biri o'ziga xos, ammo o'zaro bog'liq vazifani bajaradi" [6, 72-bet].

Bizning tushunchamizda "etnoekologik kompetensiya" etnoekologik bilimlar tizimiga ega bo'lgan, tabiiy va etnik-madaniy muhit qadriyatlaridan xabardor bo'lgan va xalq ekologik an'analarini hisobga olgan holda tabiatga bo'lgan munosabatini ekologik jihatdan barkamol va ijodiy xulq-atvorda amalga oshiradigan shaxsning integral sifati - madaniyat subyekti sifatida belgilanadi.

Etnomadaniy muhit "xalq badiiy madaniyati materiallariga asoslangan va shaxsni shakllantirishni rivojlantirishga qaratilgan uyushgan makon"[5, 36-bet].

O'quvchilarni ekologik yo'nalishdagi etnik-madaniy meros bilan tanishtirish, oilaviy tarbiyaning milliy an'analari bilan yaqindan bog'lash, tatar yozuvchilari va rassomlarining o'z ona yurtining tabiati haqidagi ijodiy merosini o'rganish, ma'lum bir sana bilan bog'liq ekologik bayramlarni o'tkazish, o'quvchilarning etnoekologik madaniyatini shakllantirish uchun qulay zamin yaratadi.

Etnoekologik kompetensiya fan, madaniyat va amaliy faoliyat chorrahasida shakllanadi. Etnoekologik kompetensiyaning ilmiy asoslari ekologiya, biologiya, geografiya, etnografiya sohasidagi fundamental bilimlarni, shuningdek, ekologik tadqiqot usullarini o'z ichiga oladi. Ushbu komponent quyidagilarni ta'minlaydi:

atrof-muhitning qonuniyatlari va sabab-oqibat munosabatlarini tushunish;

faktlarni tahlil qilish va ma'lumotlarni ilmiy obyektivlik nuqtai nazaridan izohlash qobiliyati;

fanlararo usullardan foydalanish (atrof-muhit monitoringi, muhandislik modellashtirish, matematik tahlil).

STEAM yondashuvi doirasida maktab o'quvchilari mustaqil ravishda muammoni shakllantirish, gipoteza qo'yish, kuzatishlar o'tkazish va natijalarni tahlil qilishda loyiha-tadqiqot usullarini qo'llash orqali ilmiy komponent kuchaytiriladi.

Pedagogika sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar shuni ta'kidlaydiki, etnoekologik kompetensiyani rivojlantirish faqat ta'lim, tarbiya va maktabdan tashqari faoliyatni maqsadli integratsiyalashuvini nazarda tutuvchi tizimli yondashuv bilan mumkin. Ushbu ish STEAM yondashuvi nafaqat metodologiya, balki ta'lim jarayonining strategiyasiga aylanadigan integral ta'lim kontsepsiyasiga asoslanadi. STEAM metodologiyasi muammoga yo'naltirilgan topshiriqlar, loyihalar va tajribalar bilan ishlashni o'z ichiga oladi, bunda o'quvchilar tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika bo'yicha yangi bilimlarga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, etnoekologik komponent mintaqaning madaniy va tabiiy voqeliklariga asoslangan kontekstni keltirib chiqaradi, bu esa o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi.

Etnoekologik elementlarni STEAM ta'limiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun quyidagi pedagogik tamoyillarni hisobga olish kerak:

fanlararolik tamoyili - atrof-muhit va madaniy hodisalarni har tomonlama tushunish maqsadida turli sohalardagi bilimlarni birlashtirish;

madaniy muvofiqlik tamoyili - tabiatdan foydalanish bilan bog'liq milliy an'analar va urf-odatlarini hisobga olish;

faoliyatga asoslangan ta'lim tamoyili - bilimlarni reproduktiv assimilyatsiya qilishdan amaliy va tadqiqot usullarining ustuvorligi;

o'zgaruvchanlik tamoyili - vazifalar va loyihalarni muayyan mintaq va etnik muhit xususiyatlariga moslash qobiliyati;

raqamli integratsiya tamoyili - etnoekologik merosni saqlash, vizuallashtirish va tahlil qilish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish[5].

Ushbu tamoyillarni qo'llash nafaqat bilimlarni shakllantirishga, balki maktab o'quvchilarida madaniy qadriyatlar va ilmiy ma'lumotlarga asoslanib, atrof-muhit bilan o'zaro

ta'sir qilish sohasida ongli qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi.

NATIJARLAR. STEAM yondashuvidan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida etnoekologik kompetensiyasi uchta komponentning integratsiyasi asosida shakllanadi:

kognitiv - tabiatdan oqilona foydalanishning ekologik qonuniyatlari va madaniy an'analarini bilish;

qadriyat-semantik - tabiatning milliy madaniyat va dunyoqarashdagi ahamiyatini anglash;

faoliyat - bilimlarni haqiqiy amaliy va loyiha faoliyatida qo'llash [8].

Zamonaviy pedagogik amaliyotda STEAM yondashuvi etnoekologik bilimlarni boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'limiga integratsiyalashning samarali modeli sifatida qaraladi. U quyidagi uslubiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

loyiha-tadqiqot faoliyati - zamonaviy muhandislik yechimlaridan foydalangan holda an'anaviy ekologik tuzilmalar (masalan, ariqlarni sug'orish tizimlari) modellarini yaratish;

ijodiy vazifalar - ekologik plakatlar, maketlar va raqamli taqdimotlar yaratishda milliy badiiy motivlarni birlashtirish;

eksperimental ish - raqamli mikroskop texnologiyalaridan foydalangan holda tabiiy obyektlarni kuzatish, ma'lumotlarni tahlil qilish;

madaniy va tabiiy ekskursiyalar - mahalliy tabiat yodgorliklari va madaniy meros obyektlarini o'rganish, keyinchalik natijalarni STEAM orqali qayta ishlash (3D modellar, multimedia taqdimotlari).

A.Yu.Kuchkinovning tadqiqotlariga ta'kidlaganidek, etnomadaniy materialga asoslangan loyiha asosidagi metodikadan foydalanish o'quvchilarning ekologik bilim darajasi nazorat guruhiga nisbatan 23% ga oshishiga olib keldi[4, 122-bet].

STEAM yondashuvidan foydalangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida etnoekologik kompetensiyani rivojlantirishda loyiha faoliyati pedagogik shart-sharoitlar, jumladan, fanlararo integratsiya, loyiha va tadqiqot faoliyati, raqamli va multimedia resurslaridan foydalanish, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan etnik-madaniy loyihalarga o'quvchilarni jalb qilish tahlil qilinadi. Masalan, "An'analarimiz – bizning

boyligimiz” loyihasida quyidagilar bo’lishi mumkin:

kundalik hayotda suvni saqlashning xalq usullarini o’rganish;

zamonaviy materiallardan foydalangan holda ushbu usullar asosida muhandislik modelini yaratish;

natijalarni 3D model va video ko’rinishida taqdim etish.

Bolalar mahalliy o’simlik va hayvonot dunyosini kuzatishi, olingan ma’lumotlarni xalq maqollari, afsonalari va marosimlarida qayd etilgan bilimlar bilan taqqoslashlari mumkin.

XULOSA. Boshlang’ich maktabda STEAM yondashuviga asoslangan etnoekologik kompetentsiyani rivojlantirish shunchaki yangilik emas, balki global ekologik muammolar va madaniy merosni asrab-avaylash vazifasi tufayli yuzaga kelgan zaruratdir. Ilmiy bilimlar, muhandislik ko’nikmalari, badiiy ijod va etnomadaniy qadriyatlarining uyg’unligi bolalarda milliy an’analar va zamonaviy texnologiyalar asosida

barqaror ekologik dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Дерябо С.Д, Ясвин В.А. Экологическая педагогика и психология. - Ростов-на-Дону, 2010.- 480с.

2. Козлов В.И. Основные проблемы этнической экологии // Этногенез и биосфера Земли. 2013. № 1. С. 8.

3. Крупник И.И. Арктическая этноэкология//Этнография. М., 2019. С. 14.

4. Кўчкинов А.Ю. Бошланғич синф ўқувчиларини экологик тарбиялаш технологиялари: дисс. педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) -Т., 2021. -147 б.;

5. Мингалеева М.Т. Формирование этноэкологической культуры подростков в современной общеобразовательной школе. Диссертация и автореферата по ВАК РФ 13.00.01, кандидат наук, Москва 2015.



Qabul qilindi: 01.07.2025

Chop etildi: 30.08.2025

UDK:101.9

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR ASARLARIDA OILA HAQIDAGI FALSAFIY MUAMMOLAR TALQINI

Muslimov Sherzod Akbarovich, mustaqil tadqiqotchi

Samaqand davlat chet tillar instituti

INTERPRETATION OF PHILOSOPHICAL PROBLEMS OF FAMILY IN THE WORKS OF ZAHIRUDDIN MUHAMMAD BABUR

Muslimov Sherzod, Independent researcher

Samakand State Institute of Foreign Languages

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФИЛОСОФСКИХ ПРОБЛЕМ СЕМЬИ В ТРУДАХ ЗАХИРУДИНА МУХАММАДА БАБУРА

Муслимов Шерзод Акбарович, независимый исследователь

Самакандский государственный

институт иностранных языков



<https://orcid.org/0009-0004-2345-5478>

muslimov.sherzod@gmail.com



Annotatsiya: *Ushbu maqola Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida oila institutining falsafiy talqinini tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda buyuk shoir, davlat arbobi va mutafakkirning oila haqidagi qarashlari, ularning ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy jihatlari ilmiy asosda o'rganiladi. Tadqiqotda "Boburnoma" va boshqa asarlarida oila masalalariga oid bayonlar tarixiy-falsafiy hamda madaniy kontekstda sharhlab beriladi. Bobur ijodida oila — shaxs va jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida ko'riladi, unda ma'naviyat, axloqiy qadriyatlar, avlodlararo meros va tarbiya jarayoni uyg'unligi alohida ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, oila falsafasi, axloqiy qadriyatlar, tarbiya, sharq falsafasi, madaniy meros.*

Аннотация: *Статья посвящена анализу философской интерпретации института семьи в творчестве Захириддина Мухаммада Бабура. В ней на научной основе исследуются взгляды великого поэта, государственного деятеля и мыслителя на семью, её социальные, духовные и нравственные аспекты. В исследовании интерпретируются высказывания по семейным вопросам в «Бабур-наме» и других произведениях в историко-философском и культурном контексте. В творчестве Бабура семья рассматривается как важный фактор развития личности и общества, в котором подчёркивается гармония духовности, нравственных ценностей, межпоколенного наследования и процесса воспитания.*

Ключевые слова: *Захириддин Мухаммад Бабура, Бабур-наме, семейная философия, моральные ценности, воспитание, восточная философия, культурное наследие.*

Abstract: *The article is devoted to the analysis of the philosophical interpretation of the institution of family in the works of Zakhiriddin Muhammad Babur. It scientifically examines the views of the great poet, statesman and thinker on the family, its social, spiritual and moral aspects. The study interprets statements on family issues in "Baburnama" and other works in the historical, philosophical and cultural context. In Babur's work, the family is considered an important factor in the development of the individual and society, which emphasizes the harmony of spirituality, moral values, intergenerational inheritance and the process of education.*

Keywords: *Zakhiriddin Muhammad Babur, Baburnama, family philosophy, moral values, education, eastern philosophy, cultural heritage.*

Kirish. Sharqning buyuk mutafakkiri, shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) nafaqat o‘z davrining yirik siyosiy yetakchisi, balki chuqur falsafiy tafakkur sohibi sifatida ham tarix sahifalaridan munosib o‘rin egallagan. Uning ijodiy merosi, xususan, “Boburnoma” asari o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma’naviy hayotini keng qamrab olishi bilan birga, inson hayotining eng muhim ijtimoiy instituti bo‘lgan oila masalalariga ham alohida e’tibor qaratadi. Bobur o‘z asarlarida oilani faqatgina turmush qurish yoki avlod qoldirish vositasi sifatida emas, balki jamiyatning ma’naviy, axloqiy va madaniy poydevorini mustahkamlovchi asosiy omil sifatida talqin etadi.

Oila — insoniyat tarixida doimiy va o‘zgarmas qadriyat sifatida qaralib kelgan. Falsafiy jihatdan, u nafaqat shaxsiy ehtiyojlar qondiriladigan, balki ijtimoiy tajriba, axloqiy me’yorlar va milliy urf-odatlar uzluksiz tarzda avloddan-avlodga o‘tadigan makon sifatida qaraladi. Zahiriddin Muhammad Bobur bu masalani o‘z asarlarida chuqur tahlil qilib, oilaning jamiyatdagi tutgan o‘rni, undagi tarbiya jarayoni va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi rolini yuksak darajada baholagan. U oilani inson kamolotining boshlang‘ich bosqichi sifatida tasvirlab, undagi munosabatlar va vazifalarni o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy voqealari bilan bog‘liq holda yoritadi.

“Boburnoma”da Bobur tomonidan keltirilgan oila haqidagi fikrlar shaxsning ma’naviy-axloqiy shakllanishida mehr-oqibat, sadoqat, mas’uliyat, o‘zaro hurmat kabi qadriyatlarning ahamiyatini ochib beradi. U oilaviy birlikning jamiyatdagi barqarorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi. Shu nuqtai nazardan, Bobur ijodida oilaga oid falsafiy qarashlar zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar uchun ham dolzarb bo‘lib, ularning zamonlararo ahamiyati yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ushbu maqola Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida oilaga oid falsafiy qarashlarni tahlil qilish, ularning ijtimoiy, ma’naviy va tarbiyaviy mazmunini yoritish hamda bu qarashlarning bugungi davr uchun ahamiyatini belgilashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida tarixiy-falsafiy tahlil, qiyosiy yondashuv va manbashunoslik uslublari qo‘llanib, Bobur

merosidagi oila falsafasining chuqur qatlamlari ochib beriladi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Zahiriddin Muhammad Bobur merosi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar, asosan, uning siyosiy faoliyati, adabiy uslubi va tarixiy merosini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, oilaga oid falsafiy qarashlari alohida mustaqil tadqiqot mavzusi sifatida nisbatan kam yoritilgan. “Boburnoma”ning turli nashrlari va tarjimalari (A. Semyonov, 1958; M. Salohiddinova, 2002) ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lsa-da, bu asardagi oila va jamiyat munosabatlariga oid falsafiy tahlillar hali to‘liq ochib berilmagan[1].

Sharq falsafasi va axloqiy qadriyatlar tizimida oila konsepsiyasini o‘rganishda Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar asarlari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Forobiy “Fozil shahar ahlining nazariyalari” asarida oilani jamiyatning eng kichik ijtimoiy birligi sifatida talqin qilgan bo‘lsa, Beruniy o‘zining tarixiy-falsafiy izlanishlarida oilaning ilm-ma’rifatni uzatishdagi rolini yuksak baholagan. Bobur ham bu ilmiy an’analardan ilhomlanib, oilani axloqiy kamolot va ijtimoiy uyg‘unlikning tayanchi sifatida tasvirlagan.

O‘zbekistonlik zamonaviy olimlar — H. Boltaboev (2010), M. Qodirova (2015), Sh. Mamatqulov (2018) kabi tadqiqotchilar Boburning madaniy-ma’naviy qarashlarini tahlil qilgan, ammo ularning ishlari ko‘proq tarixiy-biografik aspektlarga qaratilgan bo‘lib, oilaviy munosabatlarning falsafiy mohiyatini alohida konseptual tahlil qilishga yetarlicha e’tibor qaratilmagan[2]. Shu sababli, mazkur maqola Boburning oila haqidagi qarashlarini falsafiy-metodologik asosda tadqiq etishga qaratilganligi bilan mavjud adabiyotlar fonida yangilik kiritadi.

Tadqiqotda tarixiy-falsafiy tahlil, qiyosiy metod, manbashunoslik yondashuvi va hermenevtik tahlil asosiy metodlar sifatida qo‘llanildi.

Tarixiy-falsafiy tahlil orqali Bobur yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy sharoitlari, madaniy muhit va Sharq falsafasining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanib, oilaviy qadriyatlarga bo‘lgan qarashlar mazmuni ochib berildi.

Qiyosiy metod yordamida Bobur asarlaridagi oila haqidagi fikrlar Sharq va G‘arb mutafakkirlarining qarashlari bilan solishtirildi.

Manbahunoslik yondashuvi orqali “Boburnoma”ning turli nashrlari, tarixiy hujjatlar, zamondoshlarning xotiralari va Bobur ijodiga oid ilmiy izohlar o‘rganildi[3].

Hermenevtik tahlil yordamida Bobur asarlaridagi metaforalar, obrazlar va tushunchalar falsafiy mazmunda sharhlab chiqildi.

Metodologik yondashuvlar uyg‘unligi tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta‘minladi, Bobur merosidagi oilaga oid falsafiy qarashlarni zamonaviy ijtimoiy-falsafiy diskursda qayta talqin qilish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Zahiriddin Muhammad Bobur — nafaqat buyuk davlat arbobi va sarkarda, balki nozik didli shoir, tarixchi va falsafiy tafakkur sohibi sifatida ham jahon madaniyati xazinasida o‘chmas iz qoldirgan siymodir. Uning ijodida oila masalasi o‘ziga xos falsafiy mazmunda talqin qilinadi. Bobur asarlarida oilaning mohiyati, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va inson kamolotiga ta‘siri ko‘p jihatdan Sharq falsafasi an‘analari, islomiy qadriyatlar va o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy voqeligi bilan chambarchas bog‘liq.

Bobur uchun oila, avvalo, insonning ma‘naviy poydevori bo‘lib, unda tarbiya, axloq, muhabbat, sadoqat kabi fazilatlar shakllanadi. “Boburnoma” sahifalarida shoirning ota-ona, farzandlar, aka-uka va qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlarni bevosita voqeiy tafsilotlar bilan ifodalashi, ularning badiiy obrazini yaratishi, oilaning shaxs hayotidagi ahamiyatini teran anglaganidan dalolat beradi. Bobur oilaviy munosabatlarni faqat hissiy-emotsional jihatdan emas, balki jamiyatning ma‘naviy mustahkamligi va barqarorligining asosi sifatida talqin qiladi[4].

Islom falsafasidagi “oila jamiyatning birinchi bo‘g‘ini” tamoyili Bobur qarashlarida ham aks etadi. U oilani tarbiya maktabi, ma‘naviy qadriyatlar manbai va avlodlararo axloqiy merosni uzluksiz yetkazib beruvchi institut sifatida ko‘radi.

Bobur yashagan XV–XVI asrlar Markaziy Osiyoda oila nafaqat shaxsiy hayot sohasi, balki siyosiy-madaniy hayotning ham muhim elementi edi. Hukmdorlar oilaviy ittifoqlar orqali siyosiy barqarorlikni ta‘minlashga intilar, shu bilan birga, oilaviy tarbiya orqali vorislik masalasiga katta e‘tibor qaratilardi. Boburning o‘z hayoti ham bu jarayonlarning yorqin namunasi bo‘lib, u oilaviy bog‘lanishlar va qarindoshlik munosabatlarini davlat boshqaruvida muhim omil sifatida ko‘rgan[4].

“Boburnoma”da u o‘z yaqinlari — onasi Qutlug‘ Nigorxonim, amakilari, xotinlari va farzandlari haqida iliqlik, ammo realistik tasvirlar beradi. Bu tasvirlarda nafaqat shaxsiy tuyg‘ular, balki davrning ijtimoiy-madaniy qoidalari, ayolning oiladagi o‘rni, farzand tarbiyasi kabi masalalar ham o‘z ifodasini topadi.

Bobur nazarida, oila insonning shaxs sifatida shakllanishida eng birlamchi va muhim omildir. Ota-onaning namunasi, axloqiy qadriyatlar tizimi va tarbiya uslubi shaxsning butun hayot yo‘lini belgilab beradi. U o‘z asarlarida farzandning ota-onaga hurmatini, ota-onaning esa farzand oldidagi mas‘uliyatini doimo ta‘kidlaydi.

Bobur qarashlarini Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy va Sa‘diy Sheroziy asarlaridagi oila haqidagi mulohazalar bilan qiyoslaganda, o‘xshashliklar va farqlar yaqqol ko‘zga tashlanadi[5]. Masalan, Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida oilaviy munosabatlarda sadoqat va muhabbat birinchi o‘rinda bo‘lsa, Bobur asarlarida ularga qo‘shimcha ravishda siyosiy-madaniy barqarorlik omili ham yoritiladi. Jomiy va Sa‘diy asarlaridagi nasihatlar esa Bobur ijodida voqelik asosida, real tarixiy shaxslar hayoti misolida talqin etiladi.

Bobur asarlarida oila haqidagi falsafiy qarashlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Globalizatsiya, migratsiya va modernizatsiya jarayonlarida oila institutining mustahkamligi, tarbiya va axloqiy qadriyatlarni saqlash masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bobur qarashlari zamonaviy oilaviy siyosat, pedagogika va madaniyatshunoslikda amaliy qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan konseptual asosni taqdim etadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati va ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar boy va rang-barang bo‘lib, ularning aksariyati tarixshunoslik, adabiyotshunoslik, falsafa va madaniyatshunoslik yo‘nalishlarida olib borilgan[6]. Xususan, Bobur hayoti va merosini tahlil qilgan ilk tadqiqotlar XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida vujudga kelib, asosan tarixiy-biografik uslubda yozilgan. Keyinchalik, mustaqillik davrida Bobur ijodiga yangicha yondashuv paydo bo‘lib, uning asarlarida ifodalangan ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar, xususan oila masalalari, ma‘naviy qadriyatlar va axloqiy tarbiya masalalari alohida ilmiy izlanishlar markaziga aylandi[10].

“Boburnoma” asari turkiy adabiyot tarixida nafaqat tarixiy xotira, balki chuqur falsafiy mushohada namunasi sifatida baholanadi. Ilmiy manbalar tahlilidan ko‘rinadiki, Bobur o‘z asarlarida oilani nafaqat shaxsiy hayot doirasi, balki jamiyatning ma’naviy mustahkamligi, madaniy merosi va axloqiy mezonlarini shakllantiruvchi asosiy institut sifatida tasvirlaydi. Adabiyotlarda ko‘tarilgan asosiy ilmiy muammolardan biri — Bobur qarashlarida Sharq falsafiy an‘analari va o‘z davri ijtimoiy realligining uyg‘unlashuvidir[7].

Tadqiqotda shuningdek, kontent-analiz metodidan foydalanilib, “Boburnoma” matnida oila, tarbiya, axloqiy qadriyatlar va avlodlararo munosabatlarga oid terminlar, iboralar va badiiy tasvir vositalari tizimli ravishda o‘rganildi[8]. Bu esa Bobur qarashlarining semantik qatlamlarini ochib berish va ularni falsafiy kategoriyalar darajasida talqin etish imkonini berdi.

Mazkur metodologik yondashuvlar uyg‘unligi tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va natijalarining dolzarbligini ta’minlaydi. Natijada, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida oilaning falsafiy talqini nafaqat tarixiy meros, balki bugungi jamiyat uchun ham ma’naviy va axloqiy ahamiyatga ega ekani ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Xulosa: Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida oila masalasi nafaqat shaxsiy hayot tajribasi, balki keng ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan yoritilgan. Bobur asarlarida oila — insonning ma’naviy kamoloti, axloqiy pokligi va madaniy merosini avloddan avlodga yetkazuvchi eng muhim ijtimoiy institut sifatida talqin etiladi. U oilani jamiyatning mustahkamligi, davlatning barqarorligi va xalqning axloqiy birligi uchun tayanch omil deb biladi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydi-ki, Bobur qarashlarida Sharq falsafasining oila haqidagi an’anaviy yondashuvlari chuqur aks etgan. U oilaviy munosabatlarda o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, mas’uliyat va tarbiya tamoyillarini asosiy mezon sifatida ko‘rsatadi. Shu bilan birga, “Boburnoma”dagi real hayotiy voqealar, tarixiy shaxslar o‘rtasidagi oilaviy munosabatlar, tarbiyaviy jarayonlar falsafiy umumlashmalarga boy bo‘lib, bugungi davr oilaviy munosabatlarini rivojlantirishda ham metodologik asos bo‘la oladi.

Mazkur tadqiqot Bobur asarlaridagi oila haqidagi g‘oyalar bugungi globallashuv davrida

ham o‘z dolzarbligini saqlab qolayotganini ko‘rsatadi. Chunki oila institutining mustahkamligi, undagi axloqiy-me’yoriy qadriyatlar va tarbiya tizimi jamiyat taraqqiyotining poydevoridir. Bobur merosidagi bunday yondashuvlar zamonaviy oilaviy siyosat, pedagogik jarayon va ma’naviy-ma’rifiy ishlar uchun boy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shu bois, Bobur ijodidagi oila falsafasini chuqur o‘rganish, uni keng jamoatchilikka yetkazish va amaliy hayotga tatbiq etish nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham egadir. Bu esa Sharq mutafakkirlarining boy ma’naviy merosini asrab-avaylash va yosh avlod tarbiyasiga tatbiq etishning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur, Z. M. Boburnoma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2019. – 512 b.
2. Karimov, I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
3. Xolbekov, A. Oila va jamiyat falsafasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2017. – 284 b.
4. Saidov, A. X. Sharq mutafakkirlarining oila va tarbiya haqidagi qarashlari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2015. – 198 b.
5. To‘xtasinov, B. Oila instituti va ijtimoiy qadriyatlar: falsafiy tahlil. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 240 b.
6. Alimov, Sh. Zahiriddin Muhammad Bobur: hayoti va ijodida ijtimoiy-falsafiy qarashlar. – Andijon: AndMI nashriyoti, 2021. – 176 b.
7. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – T. 2. – №. 11. – C. 17-20.
8. Abdizoitovich G. Educational Problems In The Information Society //Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). – 2025. – T. 6. – №. 4. – C. 5-5.
9. Rizaev I. I. Evolutionary mechanisms of self-organization of the social system //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 9. – C. 81-86.
10. Usmonov F. N. The Role of Scientific Ethics and Bioethics in Modern Society //Design Engineering. – 2021. – C. 8373-8379.

TEMA VA REMANING OG‘ZAKI MULOQOTDA
TUTGAN MUHIM ROLI: G‘AFUR G‘ULOMNING
«SHUM BOLA» ASARI KONTEKSTIDA FONETIK VA
FUNKSIONAL-LEKSIK TAHLIL

Atajonova Maloxat Ilxamovna,
“Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrası,
katta o‘qituvchi, Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch davlat universiteti

THE IMPORTANT ROLE OF THEME AND RHEME IN
ORAL COMMUNICATION: A PHONETIC AND
FUNCTIONAL-LEXICAL ANALYSIS IN THE CONTEXT
OF G‘AFUR G‘ULOM’S WORK “SHUM BOLA”

Atajonova Malokhat Ilkhamovna,
senior teacher Urgench State university named after Abu Rayhan Beruni

ВАЖНАЯ РОЛЬ ТЕМЫ И РЕМЫ В УСТНОМ
ОБЩЕНИИ: ФОНЕТИЧЕСКИЙ И
ФУНКЦИОНАЛЬНО-ЛЕКСИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НА
ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ГАФУРА ГУЛЯМА
“ШУМ БОЛА”

Atajonova Maloxat Ilxamovna,
Старшая преподавательница, Ургенчский Государственный
университет имени Абу Райхана Беруни



malohatatajonova
@gmail.com



Annotatsiya: Maqolada G‘afur G‘ulomning «Shum bola» asari misolida Tema va Rema og‘zaki muloqotda fonetik va funksional-leksik tahlil asosida o‘rganiladi. Tema ma‘lum ma‘lumotni, Rema esa yangi ma‘lumotni taqdim qilarkan, nutqning aniqligi va uzviyligini oshiradi. Tadqiqotda tovush xususiyatlari va tematik tuzilmaning o‘zaro ta‘siri alohida o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Tema, rema, og‘zaki muloqot, fonetik tahlil, funksional-leksik tahlil, G‘afur G‘ulom, «Shum bola», tematik tuzilma, nutq uzviyligi.

Abstract: This study examines the role of Theme and Rheme in oral communication through phonetic and functional-lexical analysis of G‘afur G‘ulom’s “Shum bola.” Theme organizes known information, while Rheme introduces new information, which together improve clarity and cohesion in spoken discourse. The research highlights the interaction between sound patterns and thematic structure, revealing their importance in effective communication.

Keywords: Theme, rheme, oral communication, phonetic analysis, functional-lexical analysis, G‘afur G‘ulom, “Shum bola”, thematic structure, discourse cohesion.

Аннотация: В статье рассматривается роль Темы и Ремы в устном общении на примере произведения Гафура Гулома “Шум бола”. Тема представляет известную информацию, Рема — новую, что способствует ясности и связности речи. Особое внимание уделяется взаимодействию фонетических особенностей и тематической структуры для повышения эффективности коммуникации.

Ключевые слова: Тема, Рема, разговорная речь, фонетический анализ, функционально-лексический анализ, Гафур Гулям, “Шум бола”, тематическая структура, связность высказывания.

Kirish (Introduction)

Ogʻzaki muloqot inson hayotining ajralmas qismidir va bu jarayonda tilning asosiy elementlari sifatida tema va rema tushunchalari alohida oʻrin tutadi. Tema — gapning maʼlum yoki kutilgan qismi boʻlib, u orqali mavzu aniqlanadi; rema esa yangi axborot, yaʼni gapning asosiy mazmuniy qismini ifodalaydi.¹ Ushbu ikki tamoyil birgalikda muloqotning tizimli va samarali boʻlishini taʼminlab, nutqning strukturaviy va semantik qatlamlarini shakllantiradi. Ogʻzaki nutqda tema va remaning oʻzaro aloqasi muloqot jarayonida maʼlumotning oqimi va tinglovchining nutq mazmunini toʻgʻri tushinishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Gʻafur Gʻulomning “Shum bola” asari ogʻzaki muloqotdagi tema va remaning fonetik hamda funksional-leksik jihatlarini oʻrganishga boy maydon yaratadi. Asarda til vositalarining boyligi, badiiy qahramonlarning nutq uslubi va ularning muloqotdagi oʻziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Ushbu asar misolida tema va remaning ogʻzaki nutqdagi taʼsiri, ularning yaqindan bogʻliqligi, shuningdek, gapning ohang, urgʻu va talaffuz orqali maʼlumotni qanchalik aniqlik bilan yetkazishi tahlil qilinadi. Asar doirasida koʻrsatilgan dialoglar va nutqiy vaziyatlar muloqotning semantik, pragmatik va stilistik tomonlari haqida chuqur fikr yuritishga imkon beradi.

Maqolaning maqsadi — tema va remaning «Shum bola» asaridagi fonetik va funksional-leksik xususiyatlarini tahlil etish va ularning ogʻzaki muloqot jarayonida tutgan oʻrni hamda ahamiyatini yoritishdir. Bu nafaqat tilshunoslik nazariyasi uchun, balki muloqotni chuqur anglash va til oʻrganishda yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishda ham muhimdir. Shu tariqa, mazkur tadqiqot Gʻafur Gʻulomning badiiy merosiga asoslanib, ogʻzaki muloqotning nazariy va amaliy jihatlarini birlashtira oladigan markaziy vositalar — tema va remaning rivojlanishi va qoʻllanilishiga yangi yondashuvlar taqdim etadi. Bu, ayniqsa, tilning semantikani boyitish va muloqot jarayonida axborot almashinuvining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, ogʻzaki muloqotda tema va remaning tutgan roli nafaqat gapning tarkibiy jihatlarini belgilashda, balki nutqning ifodaviyligi va funksional samaradorligini oshirishda ham muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, «Shum bola» asari misolida ushbu masalaning fonetik va funksional-leksik tahlili tilshunoslikning hozirgi zamon talablariga javob beruvchi chuqur ilmiy tadqiqotlarini davom ettirishga imkon yaratadi.

Metodologiya (Methodology)

Mazkur tadqiqotda “Shum bola” asaridagi ogʻzaki muloqotdagi tema va remaning fonetik hamda funksional-leksik xususiyatlarini aniqlash uchun sifatli tahlil usullari qoʻllanildi. Tadqiqotning asosiy maʼlumotlari sifatida asar matni va undagi dialoglar tanlandi, ulardan muloqotning turli holatlari va nutq uslublari oʻrganildi.

Fonetik tahlil bosqichida nutq ohangi, urgʻu, temperamenti va intonatsiya xususiyatlari oʻrganilib, ular tema va remaning taʼriflanishida qanday rol oʻynashi aniqlanadi. Ushbu fonetik parametrlar nutqning ifodaviyligi va semantik mazmunini boyitishda muhim vosita sifatida qaraldi.

Funksional-leksik tadqiqotda esa asardagi soʻzlashuv uslubi, gap tuzilishi hamda maʼno birliklari tahlili amalga oshirildi. Bu orqali tema va remaning leksik jihatdan qanday tashkil topishi, yangi axborot berish yoki avvalgi maʼlumotni takrorlashdagi oʻrni koʻrib chiqildi.

Tahlil jarayonida lingvistik nazariyalar, xususan, ogʻzaki muloqot nazariyasi va pragmatika konseptlari asos qilib olindi. Shuningdek, muloqotning kontekstual va stilistik jihatlarini ham hisobga olindi. Tadqiqotda analitik usul yordamida asardagi nutq segmentlari batafsil oʻrganilib, ularning tema-remaning shakllanishidagi oʻziga xosligi va funksiyalari aniqlangan.

Natijada, ushbu metodologiya yordamida ogʻzaki muloqotning yuqori samaradorligi, shuningdek, til vositalari orqali maʼlumot almashish jarayonining murakkabligi chuqur anglandi. Bu esa tema va remaning lingvistik va kommunikativ ahamiyatini yanada ravshanlashtirishga imkon berdi.

¹ Davydova, A.R. (2009). *Tema-rematicheskaya organizatsiya teksta gazetnykh soobshchenii: na materiale angliyskogo yazyka* [Dissertatsiya]. Volgograd.

Natijalar (Results)

Tema va Rema ogʻzaki muloqotda matnning maʼnosini tashkil etish va uni tinglovchi uchun tushunarli qilishda muhim rol oʻynaydi. Tema maʼlum axborotni ifodalaydi, Rema esa yangi maʼlumotni taqdim etadi, bu esa muloqotning uzviyligiga xizmat qiladi.² Muloqotda fonetik va leksik vositalar tematik tuzilmaning yanada aniq va ravon shakllanishini taʼminlaydi. Bundan tashqari, oʻzaro bogʻlanish va mantiqiy tashkil etish nutqning umumiy yagonaligini yaratadi. Shu tarzda, strukturaviy va fonetik omillar uygʻunligi ogʻzaki nutqning ravonligini va tushunarligini oshiradi.

Bu natijalar lingvistik nazariyalarga, xususan, funksional grammatika va muloqot nazariyasiga muvofiq keladi va Gʻafur Gʻulomning «Shum bola» asaridagi tematik va rematik elementlarning muloqot samaradorligidagi oʻrni haqida nazariy asoslarni mustahkamlaydi.

Tahlil natijasida quyidagi xulosalar olindi:

1. **Misol 1:** *Patlarining rang-barangligi Oysha chevarning ish qutisidagi ipaklarday tovlanar edi.* (G.Gʻulom, 4-b)³

Tema: *Patlarining rang-barangligi* — maʼlumot oldindan maʼlum yoki kontekstga mos keluvchi.

Rema: *Oysha chevarning ish qutisidagi ipaklarday tovlanar edi* — gapning yangi, asosiy qismi.

Intonatsiyada urgʻu aynan remaning «ipaklarday tovlanar edi» qismida joylashib, estetik bahoni taʼkidlaydi, ovoz tembri nozik va ohanglili bilan maʼnoga rang bagʻishlaydi.

2. **Misol 2:** *Oyim qoʻlidagi xamir yoyib oʻtirgan oʻqlov bilan boshimga astagina urdi.* (Gʻ.Gʻulom, 11-b)⁴

Tema sifatida *Oyim qoʻlidagi xamir yoyib oʻtirgan oʻqlov* ishlatilgan, yangi axborot esa *boshimga astagina urdi* frazasidir.

Tovush intensivligi va pauza yordamida gapning remasi ajratilgan, shuningdek, intonatsion urgʻular nutqning emotsional rangini oshiradi.

3. **“Onam oshxonada yertandirga oʻt qalab, qovoq somsa yopish taraddudida edi.”** (Gʻ.Gʻulom: *Shum bola*, 10-b)⁵

Tema: “Onam oshxonada” — gapning boshlanish qismi boʻlib, tinglovchi yoki oʻquvchiga allaqachon maʼlum yoki kutilgan holatni koʻrsatadi.

Rema: “Yertandirga oʻt qalab, qovoq somsa yopish” — bu qismda gapning yangi, asosiy axboroti berilgan, yaʼni, yangi tafsilotlar keltirilgan.

Intonatsiya: Intonatsion ohang va urgʻu harakat jarayonini jonli va ifodali qiladi.⁶

Shunday qilib, ushbu misollarda tema (mavzu) tinglovchi uchun oldindan maʼlum yoki kontekstga mos qismlarni belgilasa, rema (yangi axborot) esa gapning markaziy, diqqatga sazovor qismidir. Intonatsiya, urgʻu va pauzalar tema va remaning chegaralarini aniq ajratishda va nutqning ifodaviylik darajasini oshirishda muhim vosita boʻlib xizmat qiladi.

Munozara (Discussion)

Mazkur tadqiqot natijalari ogʻzaki muloqotda tema va remaning oʻzaro bogʻliqligi hamda ularning lingvistik jihatdan tabiiy nutq shakllanishidagi markaziy oʻrni haqida muhim tasavvur bermoqda. Gʻafur Gʻulomning “Shum bola” asaridagi materiallar fonetik va funksional-leksik parametrlarga asoslanib tahlil qilinishi, tema va remaning til maydonidagi murakkab vazifalarini aniqroq anglashga yordam berdi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, tema muloqotda boshlangʻich maʼlumotni, yaʼni tinglovchi uchun tanish yoki maʼlum boʻlgan qismni belgilab, muloqotning turgʻun asosini yaratadi, rema esa yangi va qiziqarli xabar, maʼlumot sifatida tinglovchining diqqatini jalb etadi va nutqning rivojlanishini taʼminlaydi.⁷ Bu tafovutning fonetik jihatlari, masalan, intonatsiya va urgʻu orqali yanada yaqqol ifodalangani ogʻzaki muloqot samaradorligini oshiradi.⁸

Fonetik tahlilda aniqlangan ohang va urgʻuning mavzu va yangi axborot oʻrtasidagi

²Saipova, N. (2023). Remaning sintaktik-kompozitsion talqini. *Journal of Education, Ethics and Value*, 2(3)

³Gʻafur Gʻulom. (2018). *Shum bola* [Qissa]. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. ISBN 978-9943-5316-3-5

⁴Gʻafur Gʻulom. (2018). *Shum bola* [Qissa]. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. ISBN 978-9943-5316-3-5

⁵Gʻafur Gʻulom. (2018). *Shum bola* [Qissa]. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. ISBN 978-9943-5316-3-5

⁶Crystal, D. (1976). *Prosodic systems and intonation in English*. Cambridge University Press.

⁷Saipova, N. (2023). Remaning sintaktik-kompozitsion talqini. *Journal of Education, Ethics and Value*, 2(3)

⁸Crystal, D. (1976). *Prosodic systems and intonation in English*. Cambridge University Press.

chegara vazifasini bajarishi, gapning sintez qiluvchi vositasi sifatida imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa nutq jarayonida tinglovchiga ma'lumot oqimini bilish va tushinishda katta yordam beradi. Shu bilan birga, funksional-leksik tahlil, ya'ni gap tarkibiy qismidagi so'zlashuv uslubi va leksik xususiyatlarning tema-rema munosabatiga ta'siri, bu ikki tushunchaning faqat sintaktik bosqichda emas, balki ma'noni tashkil etish va uni ifodalashda ham birgalikda faol ishtirok etishini ko'rsatadi.

Maqolada ta'kidlanganidek, "Shum bola" asaridagi dialoglar muloqot qonuniyatlarini yaqqol namoyon qilib, til vositalarining pragmatik qirrasini, ya'ni nutqni samarali tashkillashtirish va tinglovchi bilan o'zaro aloqa o'rnatishda fonetik va leksik imkoniyatlarning uyg'unligini ko'rsatadi. Shu jihatdan, tema va remaning fonetik va funksional-leksik tavsiflari, ayniqsa, muloqotda axborotni to'g'ri taqsimlash va tinglovchining xabarga bog'liqligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa (Conclusion)

Mazkur tadqiqotda G'afur G'ulomning "Shum bola" asaridan olingan misollar asosida tema va remaning og'zaki muloqotdagi fonetik va funksional-leksik roli ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, intonatsiya, urg'u, pauza, nutq intensivligi va ovoz tembri kabi prosodik vositalar yordamida tema va rema aniq ajratilib, nutq mazmunining samarali yetkazilishiga xizmat qiladi. Bu vositalar nafaqat gap mazmunini, balki uning emotsional rangini ham boyitadi va shu orqali tinglovchining tushunishini osonlashtiradi. Fonetik komponentlarning o'zaro bog'liqligi va ierarxiyasi nutqdagi ma'no qatlamlarini yanada chuqurroq ifodalashga imkon yaratadi. Intonatsiyaning nafaqat melodik, balki intensivlik, tembr va pauzalar orqali tavsiflanadigan dinamik jihatlari ham nutqning kommunikativ funksiyalarida muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, tema va rema faqat lingvistik tushunchalar emas, balki ularning fonetik ifodalanishi nutqdagi yangi axborot va oldindan berilgan ma'lumotni aniq ajratishda hamda kommunikatsiyaning samaradorligini ta'minlashda ajralmas vosita hisoblanadi.

Umuman olganda, tadqiqot prosodik va fonetik tahlil asosida og'zaki muloqotning mazmun

va emotsional qatlamlarini yanada to'liqroq tushunish imkoniyatini yaratdi va tema hamda remaning kommunikativ tahlildagi ahamiyatini yanada ravshanlashtirdi. Bu sohada olib boriladigan tekshiruvlar nutq samaradorligini oshirish, tilshunoslik nazariyasini yanada rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. G'afur G'ulom. (2018). *Shum bola* [Qissa]. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. ISBN 978-9943-5316-3-5. <https://library-tsul.uz/shum-bola-g-afur-g-ulom-2018/>
2. G'afur G'ulom. (2016). *Shum bola: qissalar va hikoyalar*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. ISBN 978-9943-03-672. https://ipkmvd.uz/media/pdf/kitoblar/Shum_bola_Gafur_Gulom.pdf
3. Nurmonov, A. (1988). Tilni sistemali o'rganish va sintaksisning ayrim munozarali masalalari. *OTA*, (6), 22–26.
4. Saydaliyeva, M., & Mamadaliyeva, T. (2022). Theme and rheme in academic texts: (In examples of formal magazine articles). *Journal of Positive School Psychology*, 6(11), 3090–3094.
5. Crystal, D. (1976). *Prosodic systems and intonation in English*. Cambridge University Press.
6. Bozorov, O. (2004). *O'zbek tilida gapning kommunikativ (aktual) tuzilishi* [Filologiya fan. nomz. diss.]. Farg'ona.
7. Saipova, N. (2023). Remaning sintaktik-kompozitsion talqini. *Journal of Education, Ethics and Value*, 2(3). <file:///C:/Users/acer/Downloads/5-8+Remaning+Sintaktik-Kompozision+Talqini.pdf>
8. Давыдова, А.Р. (2009). Тема-рематическая организация текста газетных сообщений: на материале английского языка [Диссертация]. Волгоград. <https://www.dissercat.com/content/tema-rematicheskaya-organizatsiya-teksta-gazetnykh-soobshchenii>

**ABDURAHMON SAYYOH TOSHKANDIY ASARI
“TANVIR AL-AHDOQ” DA AXLOQIY FIKRLARNING
TIZIMLI IFODALANISHI**

*Suvonqulov Husan Toirovich, Guliston davlat universiteti v.b
dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**THE SYSTEMATIC EXPRESSION OF MORAL IDEAS
IN THE WORKS OF ABDURAHMON SAYYOH
TOSHKANDIY: AN ANALYSIS BASED ON THE WORK
“TANVIR AL-AHDOQ”**

*Husan Toirovich Suvonqulov, Acting Associate Professor at Gulistan
State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences*

**СИСТЕМОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ПРАВСТВЕННЫХ
ИДЕЙ В ТВОРЧЕСТВЕ АБДУРАХМОНА САЙЁХА
ТАШКЕНТСКОГО: АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ
ПРОИЗВЕДЕНИЯ “ТАНВИР АЛЬ-АХДОК”**

*Сувонкулов Хусан Тоирович, исполняющий обязанности доцента
Гулистанского государственного университета, кандидат
философских наук по педагогике (PhD)*



<https://orcid.org/0009-0007-0613-1705>

xusansuvankulov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning “Tanvir al-ahdoq fi makorim al-axloq” asari tahlili asosida unda bayon etilgan axloqiy g‘oyalar, fazilatlar va inson kamolotini shakllantiruvchi qadriyatlar o‘rganiladi. Asardagi axloqiy fikrlar islomiy ma‘rifat va tasavvuf an‘analari doirasida tasnif qilinib, muallifning axloq nazariyasiga qo‘shgan hissasi yoritiladi. Tadqiqot davomida asarning zamonaviy axloqiy ta‘limotlar bilan uyg‘unligi hamda uning tarbiyaviy va ma‘naviy ahamiyati ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Tanvir ul-ahdoq fi makorim ul-axloq, Odob-axloq, Axloqiy tarbiya, Islomiy qadriyatlar, Ruh va nafs tushunchasi, Quvvati fikriyya, quvvati g‘azabiyya, quvvati shahvoniyya, Fazilatlar: hikmat, shijoat, iffat, adolat, Mahalliy madaniy meros.

Abstract: This article analyzes the work of Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy “Tanvir al-ahdoq fi makorim al-axloq”, in which the moral ideas, virtues, and values contributing to the formation of human perfection are explored. The moral views in the work are classified within the context of Islamic philosophy and Sufi traditions, and the author’s contribution to the development of moral theory is revealed. The study will demonstrate the correspondence of the work with modern moral teachings, as well as its educational and spiritual significance.

Keywords: Tanvir ul-Ahdaq fi Makarim ul-Akhlaq, Etiquette and Morality, Moral Education, Islamic Values, Concepts of Spirit and Soul, Intellectual Power (quvvati fikriyya), Power of Anger (quvvati g‘azabiyya), Power of Desire (quvvati shahvoniyya), Virtues: Wisdom, Courage, Chastity, Justice, Local Cultural Heritage.

Аннотация: В данной статье проводится анализ произведения Абдурахмона Сайёха Тошканди “Танвир ал-аҳдоқ фи макорим ал-ахло”, в котором исследуются изложенные в нем нравственные идеи, добродетели и ценности, способствующие формированию человеческого совершенства. Нравственные взгляды в произведении классифицируются в контексте исламской философии и суфийских традиций, а также раскрывается вклад автора в развитие нравственной теории. В ходе исследования будет показано соответствие произведения современным нравственным учениям, а также его воспитательное и духовное значение.

Ключевые слова: *Tanvir ul-ahdoq fi makorim ul-axloq, Этикет и нравственность, Нравственное воспитание, Исламские ценности, Понятия духа и души, Сила разума, Сила гнева, Сила страсти, Добродетели: мудрость, отвага, целомудрие, справедливость, Местное культурное наследие.*

KIRISH. XXI asrni birinchi choragida yashayotgan bo'lsak, qanchalik tahlikali hech qanday tinchlik kafolatlanmagan, dunyo ko'p qutbliga bo'lingan, shiddat bilan o'zgarayotgan ilmfan va texnika inqilobini boshidan kechirayotgan davrda ko'rishimiz mumkin. Yangi bilimlar va ko'nikmalarga ehtiyoj ortib, ta'lim tizimi innovatsion texnologiyalar, onlayn kurslar va dunyo miqyosidagi hamkorlik orqali barqaror rivojlanmoqda. Shu bilan birga, kasbiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar va manbalar paydo bo'lmoqda, amaliyot va nazariyot o'rtasidagi cheklovlar kamaygan. Bunga masalan, raqamli va sun'iy intellekt asosidagi kasblar ham kirishi mumkin. Shu o'rinda Yurtimizda keng islohotlar avj olgan, imkoniyatlar kengaygan davrni ko'rib har bir insonni albatta shu jarayonlardan unumli foydalanishi hech bir inson inkor etmasa kerak. Boshqacha qilib aytganda **“Uchinchi Renessans” poydevori qurayotgan** suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatda istiqomat qilmoqdamiz. Hozirgi vaqtda dunyoni xohlagan burchagida nimalar sodir bo'layotgani kuzatish, o'ziga tegishli ma'lumotlarni o'qish tarqatish shunchalik soddalashib ketdi. Lekin bu qulayliklardan foydalanish juda ham ozni tashkil qiladi. Shu ijtimoiy tarmoqlarga o'tgan asrda yashab ijod etgan ko'plab ma'rifatparvarlar haqida ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin, lekin deyarli o'rganilmagan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashagan o'zbek ma'rifatparvari, sayyoh, noshir va yozuvchi **Abdurrahmon Muhammad Sodiq Sayyohni Tanvir ul-ahdoq fi makorim ul-axloq asarini misol keltirishimiz mumkin.**

ASOSIY QISM. XX asr boshlari matbuotida “Sayyoh” taxallusi bilan tanilgan Abdurahmon Muhammad Sodiq o'g'li Toshkandiy ma'rifatparvar ziyolilardan biri bo'lib, u XIX asr oxiri XX asr boshlarida noshirlik qilish bilan birga odob axloq, diniy va ma'rifiy sohalariga oid qator kitoblar yozgan. Jumladan, birgina **“Tanvir ul-ahdoq fi makorim ul-axloq”** asarini nomini keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari u siyosat, islom, tarix, ma'naviyat sohalarida chop etilgan ko'plab kitoblarga noshirlik qilgan. Shuningdek, uning o'zi ham necha kitoblar yozgani ma'lum. Abdurahmon

Sayyohning o'lka aholisi kitob savodxonligini oshirish, mahalliy va dunyoviy yangiliklardan, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlardan xabardor qilishga qaratilgan faoliyati uning bosh muharrirligida 1915-1917-yillarda Toshkentda nashr qilingan “al-Isloh” jurnali faoliyatida ham ko'rish mumkin. Mazkur jurnal nafaqat Turkiston o'lkasida balki, qo'shni musulmon mamlakatlarida ham mashhur bo'lgan. Jurnalda islom, shariat va fiqhiy masalalar, odob-axloq muammolari, mashhur diniy asarlardan tarjimalar, o'lka hayotiga oid bahsmunozalarlar berib borilgan[2]. Abdurahmon Sayyoh qalamiga mansub asari “Tanvir ul-ahdoq fi-t makorim ul-axloq” asarlari o'rta asrlarda yashab o'tgan islom olamining yirik allomalari ilgari surgan g'oyalar asosida yozilgan bo'lib, odobaxloqqa oiddir. Mazkur asarlarda muallif axloqning mohiyati xususida fikr yuritar ekan avvalo Qur'oni karim, hadisi sharif ishora qiladi.

Umuman olganda, “Tanvir ul-ahdoq fi-makorim ul-axloq” asari nashrida Turkiston o'lkasidagi ta'lim muassasalarida musulmon bolalar ta'lim-tarbiyasida odob-axloq mavzusini sodda va tushunarli qilib yoritish maqsad qilib olinganligini ko'rish mumkin. Zero, o'sha davr nuqtai nazaridan mahalliy hamda keng yo'l ochilgan rus-tuzem maktablarida o'rta asrlarda yaratilgan odob-axloq haqidagi an'anaviy kitoblar o'quv dasturlaridan chetga chiqarilgan bir paytda, ularda ilgari surilgan g'oyalar hamda islomiy an'analar doirasida, mahalliy ma'rifatparvarlar tomonidan davr talablaridan kelib chiqqan holda qayta ishlangan odob-axloq darsliklariga ehtiyoj katta edi.[2] Abdurahmon Sayyohning “Tanvir ul-ahdoq fi-t makorim ul-axloq” asaridagi fikrlar ahamiyati hali hamon qadrlidir. E'tibor qaratsak

Nafsnl anglash (Marifat un-nafs) haqida:

Inson ikki asosdan tashkil topgan: jism va ruh. Jism ko'z bilan ko'rilar, qo'l bilan sezilar, ruh esa tashqi sezgilar bilan idrok etilmaydi. Ruhni faqat aql va qalb ko'zi orqali anglash mumkin. Insonning fe'l-atvori, amallari va odatlari ruhga bog'liq. Ularning barchasi inson ichki dunyosining oynasidir. Qachonki insonning barcha a'zolari uyg'un va tartibli bo'lmasa, uning tashqi qiyofasi yetuk bo'lmaydi. Xuddi shuningdek, insonning xatti-harakatlari va odatlari uyg'un va barqaror bo'lmasa,

qalbining ham go'zalligi va mukammalligi haqida so'z yuritib bo'lmaydi [1]. Ruh tufayli inson mavjudotlar ichida ulug' maqomga ega. G'arb faylasuflari bu ruhni "nafs" deb atagan bo'lsalar, Islomda uni "ruh" deb ataydilar. Ruh ikki qismga bo'linadi:

Notiqa ruh – abadiy bo'lib, jism halok bo'lsa ham yo'qolmaydi. Inson "men" deb o'zini ifodalashi ham shu ruhi notiqaaning dalilidir.

Hayvoniy ruh – ovqatdan hosil bo'lib, faqat jism tirik bo'lguncha mavjud bo'ladi. U jism o'lganda barham topadi. Bu holat chiroq va yog' munosabatiga o'xshaydi.

Hayvoniy ruhga hayvonlar va insonlar sherik. Ammo notiqa ruh faqat insonga xosdir va Allohga ibodat qilish uchun yaratilgandir. Shu sabab ham inson bu ruh orqali gunoh va harom amallar uchun jazolanishi mumkin.

Nafsaning salohiyati salohiyati haqida:

Alloh taolo inson nafsiga uchta asosiy kuch ato qilgan:

Fikr kuchi (quvvati fikriyya),

G'azab kuchi (quvvati g'azabiyya),

Shahvat kuchi (quvvati shahvoniyya).

Fikr kuchi – inson bu kuch orqali yaxshilikni yomonlikdan, haqiqatni botildan ajratadi. Bu kuch "nafsi mutmainna" va "nafsi malakiy" deb ham nomlanadi. Uning qarorgohi – miya.

G'azab kuchi – bu kuch insonni jasurlik va nomusini himoya qilishga undaydi. "Nafsi lavvoma" va "nafsi sab'iy" deb ham ataladi. Uning markazi – qalb.

Shahvat kuchi – bu kuch ichish, ovqatlanish, kiyinish, uxlab dam olish va hayotiy ehtiyojlarni qondirish istagini yuzaga keltiradi.

Har bir kuchda uch holat mavjud:

Iste'lo (haddan oshish), E'tidol (mo'tadillik),

Nuqson (zaiflik).

Misollar:

Fikr kuchi ortiqcha bo'lsa – bemulohazalik, mo'tadil bo'lsa – hikmat, nuqsonli bo'lsa – nodonlik.

G'azab kuchi haddan oshsa – beo'ylik, mo'tadil bo'lsa – shijoat, nuqson bo'lsa – qo'rqqoqlik.

Shahvat kuchi ortiqcha bo'lsa – fojirlik, mo'tadil bo'lsa – iffat, nuqsonli bo'lsa – dangasalik.

Istelo va nuqson – tanqid qilingan holatlar; e'tidol esa maqtalغان. Chunki kuchlarning haddan oshishi nafsni yomonlikka, zaifligi esa insonni sustlikka olib keladi. Alloh esa hech narsani behuda yaratmagan. Shuning uchun quvvatlar mo'tadillikda bo'lishi shart. Rasululloh (s.a.v.) ham: "Ishlarning eng

yaxshisi – o'rtachasi", deganlar. Quvvatlarning mo'tadilligi insonni hikmat, shijoat va iffat egasi qiladi. Bu fazilatlarining jamlanishi esa adolat deb ataladi.

Hikmat – mavjudotlarning haqiqatini bilish,

Shijoat – qo'rquvsiz harakat qilish,

Iffat – nafsni yomon xohishlardan tiyish,

Adolat – barcha ishlarda aql va shariat mezoniga amal qilish.

Tamaddun (Madaniy hayot). Tamaddun – hunarmandlarning bir joyda jam bo'lishi va shaharning tartib va intizomga kelishidir. "Al-insanu madaniyyun bit-tab'" – inson tabiatan jamiyatda yashashga moyildir.

Insonlar bir joyda jam bo'lib:

Bir-birlariga yordam beradi,

Maqsad va ehtiyojlarini osonlik bilan qondiradi.

Shuning uchun qishloq va shaharlar barpo etildi.

Lekin odamlar tabiat va mazhabda farqli bo'lgani uchun Alloh taolo adolatni ta'minlash uchun payg'ambarlar yubordi va shariat hukmlarini belgiladi. Alloh taolo Qur'onda shunday amr qiladi:

"Ey mo'minlar! Allohga, Payg'ambariga va o'zlaringizdan bo'lgan rahbarlarga itoat qiling."

(Niso surasi, 59-oyat), Rahbarlarga itoat – din hukmiga xilof bo'lmagan holatda bo'lishi kerak.

XULOSA. Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning "Tanvir al-ahdoq fi makorim al-axloq" asari bu axloqiy g'oyalarning yangicha tushunilishini taklif etgan va inson kamolotini ta'minlovchi fazilatlarining konseptual tasnifini bergan muhim manba hisoblanadi. Muallif, o'z asarini yaratganida, nafaqat axloqiy fazilatlarining nazariy asoslarini, balki ularning amaliy hayotdagi tatbiqini ham ko'rsatgan. Asar, Islomdagi axloqiy qadriyatlarining zamonaviy yondoshuvlar bilan hamohangligini va uning tarbiyaviy, ma'naviy ahamiyatini yanada yoritib beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurahmon Muhammad Sodiq o'g'li Toshkandiy. Tanvir al-ahdoq fi-makorim al-axloq. – Toshkent: G'ulom Hasan Orifjonov matbaasi, 1913. 76 b. (Abdurakhmon Muhammad Sodiq Tashkandi. "Tanvir al-akhdok fi-makorim al-akhlok". - Tashkent: Gulom Hasan Arifjonov's Publisher, 1913. 76 p.)

2. Asatulloev, A. (2020). In the twentieth century, turkestan national media outreach ideas published by abdurakhmon sayyoh tashkenty, entitled "rule of law". International journal of advanced science and technology, 29(5), 1781-1784.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA NEOLOGIZMLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

*Pardayeva Nasiba Boyqobulovna, O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti mustaqil izlanuvchisi*

PRAGMATIC FEATURES OF NEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK

*Pardayeva Nasiba Boykobulovna, Uzbek State University of world
languages, independent researcher*

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ НЕОЛОГИЗМОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

*Пардаева Насиба Бойкобуловна, Узбекский государственный
университет мировых языков, независимый исследователь*



*nasibapardayev
a44b@gmail.co
m*



Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida neologizmlarning pragmatik xususiyatlari, ularning kommunikatsiyadagi o'rni, madaniy aks sadosi hamda til taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot, shuningdek, ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar neologizmlarning tarqalishiga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilib, ikki til orasidagi umumiylik va farqlarni ochib beradi. Qo'shimcha ravishda, pandemiya davridagi so'z yangiliklari ham misol tariqasida ko'rib chiqilib, ularning ijtimoiy jarayondagi roli yoritiladi. Shu bilan birga, neologizmlarning rasmiy nutq, kundalik muloqot va yoshlar tilidagi o'ziga xosliklari tahlil qilinib, ularning ijtimoiy guruhlararo muloqotga ta'siri ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: neologizm, ingliz tili, o'zbek tili, pragmatik xususiyatlar, so'z yasash, o'zlashma so'zlar, kommunikativ funktsiya, madaniy moslashuv.

Annotation: This article analyzes the pragmatic features of neologisms in the English and Uzbek languages, focusing on their role in communication, cultural reflection, and the significance in language development. The study also examines the impact of mass media, the internet, and social networks on the spread of neologisms, revealing similarities and differences between the two languages. Additionally, pandemic-era neologisms are considered as examples, highlighting their role in social processes. Furthermore, the specific features of neologisms in official speech, everyday communication, and youth language are analyzed, along with their influence on intergroup communication.

Keywords: neologism, English language, Uzbek language, pragmatic features, word formation, borrowed words, communicative function, cultural adaptation.

Аннотация: В данной статье анализируются прагматические особенности неологизмов в английском и узбекском языках, их роль в коммуникации, культурный резонанс и значение в развитии языков. В исследовании также анализируется влияние СМИ, Интернета и социальных сетей на распространение неологизмов, выявляя общие черты и различия между двумя языками. Кроме того, в качестве примера рассматриваются словесные инновации во время пандемии и освещается их роль в социальных процессах. Анализируется специфика неологизмов в официальной речи, повседневном общении и молодежном языке, а также их влияние на межсоциальную коммуникацию.

Ключевые слова: неологизм, английский, узбекский язык, прагматические особенности, словообразование, заимствованные слова, коммуникативная функция, культурная адаптация.

XXI asr boshlarida globallashuv, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy kommunikatsiya vositalarining tez sur'atlarda rivojlanishi natijasida tillarda yangi leksik birliklar — neologizmlarning yuzaga kelish jarayoni sezilarli darajada faollashdi. (Crystal, D. 2012).¹ Neologizmlar til tizimining dinamikligini, zamon talablariga moslashuvchanligini aks ettirib, jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarning bevosita mahsuli hisoblanadi. Ular nafaqat yangi tushunchalarni nomlash vositasi, balki kommunikativ jarayonda ma'lum maqsad va niyatlarni ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Shu jihatdan, neologizmlarni pragmatik nuqtai nazardan tadqiq etish tilshunoslikdagi dolzarb masalalardan biridir. (Yule, G. 1996)²

Pragmatika tilshunoslikning nutq ishtirokchilari, ularning muloqot maqsadi, shuningdek, kontekst o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganuvchi sohasi sifatida neologizmlarning qo'llanish xususiyatlarini chuqurroq tushuntirish imkonini beradi. Masalan, ingliz tilidagi greenwashing so'zi dastlab ekologiya sohasida firibgarlik amaliyotini bildiruvchi termin sifatida yaratilgan bo'lsa, bugungi kunda u siyosiy nutqda tanqidiy va istehzo ma'nolarini ifodalovchi kuchli pragmatik birlik sifatida ishlatilmoqda. (Allan, K. 2006)³ Xuddi shunday, o'zbek tilida so'nggi yillarda faol qo'llanayotgan raqamlashtirish, mobil ilova, startap kabi neologizmlar nafaqat texnologik yangiliklarni nomlaydi, balki mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning ramziy ifodalaridan biriga aylangan.

Ingliz va o'zbek tillarida neologizmlar shakllanish jarayoni bir-biridan sezilarli farqlarga ega. Ingliz tilida bu jarayon ichki til resurslari — affiksatsiya, kompozitsiya, blending, back-formation kabi so'z yasash usullari orqali juda faol kichadi (Bauer, L. 2003)⁴. O'zbek tilida esa neologizmlar ko'pincha boshqa tillardan, ayniqsa ingliz tilidan o'zlashadi, ba'zan to'g'ridan-to'g'ri, ba'zan esa tarjima yo'li bilan. Shu bilan birga,

o'zbek tilidagi o'zlashmalar fonetik, morfologik va semantik jihatdan milliy til me'yorlariga moslashtiriladi, bu esa ularning kommunikativ samaradorligini oshiradi (Jo'rayev, M. 2020)⁵.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi global axborot makonida neologizmlar ikki tilda ham tez va keng tarqalmoqda. Ayrim inglizcha neologizmlar qisqa vaqt ichida xalqaro miqyosda ommalashib, o'zbek tiliga ham kirib keladi. Masalan, *hashtag*, *fake news*, *podcast* kabi so'zlar internet diskursi orqali keng qo'llanila boshladi va qisqa muddat ichida o'zbek tilida ham kommunikativ vosita sifatida o'rnashdi. Bu jarayon tillararo ta'sirning kuchayishi, madaniyatlararo muloqotning intensivligi va zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalarining roli bilan izohlanadi (Plag, I. 2003)⁶.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — ingliz va o'zbek tillaridagi neologizmlarning pragmatik xususiyatlarini aniqlash, ularning kommunikativ vazifalarini tahlil qilish hamda qo'llanish strategiyalarini o'rganishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Ingliz va o'zbek tillarida neologizmlarning shakllanish manbalari va usullarini aniqlash;
2. Neologizmlarning pragmatik funksiyalarini turkumlash;
3. Ijtimoiy-madaniy kontekstda neologizmlarning qabul qilinishi va adaptatsiya jarayonini o'rganish;
4. Har ikki til misolida auditoriya reaksiyasi va muloqot strategiyalarini tahlil qilish.

Tadqiqot obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillarida so'nggi o'n yillikda yuzaga kelgan neologizmlar tanlandi. Predmet esa ushbu birliklarning pragmatik xususiyatlari va kommunikativ jarayondagi funksiyalaridir. Ishning metodologik asosini zamonaviy lingvistik pragmatika nazariyalari (Leech, Levinson, Yule), kognitiv tilshunoslik yondashuvlari (Lakoff, Fauconnier) hamda sotsiolingvistika konsepsiyalari (Labov) tashkil etadi. Tahlilda qiyosiy-lisoniy tahlil, kontekstual tahlil, diskursiv yondashuv va

¹ Crystal, D. *English as a Global Language*. Cambridge University Press, 2012.

² Yule, G. *Pragmatics*. Oxford University Press, 1996.

³ Allan, K., Burrage, K. *Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language*. Cambridge University Press, 2006.

⁴ Bauer, L. *Introducing Linguistic Morphology*. Edinburgh University Press, 2003.

⁵ Jo'rayev, M. "O'zbek tilida zamonaviy neologizmlar va ularning qo'llanish xususiyatlari." *O'zbek tili va adabiyoti*, №5, 2020.

⁶ Plag, I. *Word-Formation in English*. Cambridge University Press, 2003.

semantik-pragmatik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Shunday qilib, ingliz va o‘zbek tillarida neologizmlarning pragmatik xususiyatlarini o‘rganish tilshunoslikdagi nazariy va amaliy jihatdan muhim yo‘nalishlardan biridir. Bu nafaqat leksikologiya va pragmatika sohalari, balki tarjima nazariyasi, sotsiolingvistika va madaniyatlararo kommunikatsiya tadqiqotlari uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi neologizmlar bir-biriga ta’sir ko‘rsatish va o‘zaro so‘z almashish (borrowings) jarayonini namoyish etadi. Bu hodisa pandemiyaning global miqyosini hamda zamonaviy aloqa vositalarining uzviy bog‘liqligini ifodalaydi. Har ikki tilda yangi so‘zlar va ularni ishlatuvchilar hissiy holati o‘rtasida bevosita aloqadorlik

kuzatiladi, bu esa til tizimida jamiyatdagi xavotir, tajriba va kayfiyatlarning qanday aks etayotganini ochib beradi. Ommaviy axborot vositalari neologizmlarning keng tarqalishida muhim omil bo‘lib, zamonaviy kommunikatsiya platformalari yangi leksik birliklarning shakllanishi va ommalashuviga katta ta’sir ko‘rsatadi. COVID-19 pandemiyasi jarayonida ingliz va o‘zbek tillarida paydo bo‘lgan neologizmlar ularning pragmatik jihatlarini — vaziyatga mosligi, madaniy ma’nodagi aks-sadosi va hissiy ta’sirini — yorqin tarzda namoyon etdi. Kelgusida ham neologizmlar rivojlanishini kuzatish ularni pandemiadan keyingi davrda tilshunoslik va madaniy hujjatlashtirishning dolzarb tadqiqot obyekti sifatida saqlab qoladi.

<u>Ingliz tilidagi neologizmlarning pragmatik xususiyatlari</u>	<u>O‘zbek tilidagi neologizmlarning pragmatik xususiyatlari</u>
<p>“Social distancing” (ijtimoiy masofa), “quarantine” (karantin), “contact tracing” (aloqalarni aniqlash), “flatten the curve” (tarqalishni yengillashtirish) kabi yangi atamalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri pandemiyaga bog‘liq bo‘lib, sog‘liqni saqlash choralarga oid ijtimoiy kontekstni aks ettirib, jamoatchilik nutqining muhim qismiga aylandi.</p>	<p>Ba’zi o‘zbekcha neologizmlar ingliz tilidagi atamalarning so‘zma-so‘z tarjimasi orqali yuzaga kelgan. Masalan, “social masofalashuv” (social distancing). Bunday holatlar ingliz tilining o‘zbek lug‘atiga ta’siri va global tendensiyalarni aks ettiradi.</p>
<p>Yangi atamalar ko‘pincha mavjud so‘zlarning aralashtirilishi yoki qo‘shilishi orqali yuzaga keladi. Masalan, “infodemic” (information + epidemic — axborot + epidemiyaning birikmasi) — virus haqidagi haddan tashqari ko‘p va chalkash ma’lumotlarni anglatadi.</p>	<p>O‘zbekcha neologizmlar ko‘pincha sog‘liq va jamoatchilik haqidagi mahalliy madaniy tushunchalarni o‘zida mujassam etadi. Masalan, karantin atamasi o‘zbek jamiyatidagi xavfsizlik, oila va jamoaviy yordam an‘analariga mos ma’no olgan bo‘lishi mumkin.</p>
<p>“Pandemic fatigue” (pandemiya charchog‘i) yoki “COVID anxiety” (COVID xavotiri) kabi so‘zlar pandemiyaga bog‘liq qo‘rquv va ruhiy bosimlarni ifodalaydi. Bu atamalar inqirozning psixologik ta’sirini ko‘rsatadi.</p>	<p>Ba’zi neologizmlar o‘zbek tilining turli hududlardagi shevalari yoki so‘zlashuv tili elementlarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, ularning ma’lum guruhlar orasida ko‘proq aks sado berishiga olib keladi.</p>
<p>Ommaviy axborot vositalari kompaniyalari, hukumat e’lonlari yoki ijtimoiy tarmoqlardagi trendlar orqali ommalashgan yangi so‘zlar tezda ommaviy lug‘atga kirib bordi. Masalan, “Zoom fatigue” (Zoom platformasidan charchash) kabi atamalar virusdek tarqaldi va tez tanildi.</p>	<p>Ingliz tilidagi kabi, ba’zi o‘zbekcha neologizmlar siyosiy ma’no kasb etishi yoki pandemiyaga nisbatan jamiyat munosabatini ifodalashi mumkin. Ular hukumat qarorlari yoki sog‘liqni saqlash siyosatiga nisbatan xalq fikrini ifoda etadi.</p>
<p>Oldindan mavjud bo‘lgan so‘zlar yangi kontekstga moslashtirildi. Masalan, “mask” (niqob) so‘zi pandemiyadan oldin faqat tibbiy vosita sifatida tushunilgan bo‘lsa, endilikda xavfsizlik timsoli yoki siyosiy bayonot sifatida ham ishlatilmoqda.</p>	<p>Pandemiya davrida raqamli kommunikatsiyaning kuchayishi natijasida onlayn platformalar va virtual muloqot bilan bog‘liq yangi atamalar yuzaga keldi. Bu ingliz tilidagi tendensiyalarning o‘zbek tiliga ta’sirini ham aks ettiradi.</p>

COVID-19 pandemiyasi davrida yuzaga kelgan neologizmlar tilshunoslik nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonni to'laqonli anglash uchun turli ilmiy metodlarning birgalikda qo'llanishi zarur bo'lib, bunday yondashuv yangi leksik birliklarning nafaqat lingvistik tuzilishini, balki ularning kommunikatsiya jarayonlarida tutgan o'rni, ijtimoiy munosabatlarga ta'siri hamda madaniy idrokda ahamiyatini keng qamrovli tahlil qilish imkonini beradi. Shunday ko'p qirrali tahlil tilning ilgari kuzatilmagan miqyosdagi global inqirozlarga qanday moslashishini va ularga javob berish mexanizmlarini chuqur tushunishga xizmat qiladi (Avlaeva Saida Bozorovna, Pragmatic Feature of Neologisms in Uzbek and English Languages).¹

Neologizmlar pandemiya sharoitida faqatgina yangi tushunchalarni ifodalash vositasi bo'lib qolmadi, balki ular odamlarning hissiy holati, ijtimoiy kayfiyati va madaniy tajribalarini aks ettiruvchi semantik marker sifatida ham namoyon bo'ldi. Xususan, ingliz va o'zbek tillarida pandemiya davrida yuzaga kelgan ko'plab yangi so'zlar odamlar kundalik muloqotida faol qo'llanila boshladi va ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar hamda internet platformalari orqali keng tarqaldi. Bu jarayonda neologizmlarning kommunikativ funksiyalari yanada yaqqol ko'rinib, ularning kontekstga moslashuvchanligi va madaniy aks-sadosi til rivojining muhim ko'rsatkichiga aylandi. Internet muloqoti neologizmlarning shakllanishi va tarqalishida yetakchi omillardan biri bo'lib, axborot almashishning yangi usullarini yuzaga keltirdi. Raqamli kommunikatsiya tezligi, global qamrovi va interaktiv xususiyatlari tufayli yangi so'zlar bir vaqtning o'zida turli mintaqa va madaniy muhitlarda qabul qilinmoqda. Shu bilan birga, internet muloqoti barcha tillarda lug'at tarkibi va tuzilmasida o'zgarishlarga olib kelmoqda, yangi leksik birliklar esa ko'pincha virtual makonda yaratilgan bo'lib, keyinchalik kundalik hayotga singib ketmoqda.

To'laqonli va samarali internet muloqoti foydalanuvchilarning til vositalaridan foydalanish me'yorlari va kommunikatsiya qoidalarini bilishini

talab etadi. Shu sababli tilshunoslar va lingvomadaniyatshunoslar oxirgi yillarda tarmoq diskursini chuqur o'rganishga alohida e'tibor qaratmoqda. Internet madaniyatlararo muloqot maydoni sifatida inson-kompyuter o'zaro munosabatlaridagi lingvistik, pragmatik va sotsiokulturni jihatlarni tahlil qilish uchun noyob laboratoriya vazifasini o'taydi (Arnold I.V 2017).²

Internet diskursining o'ziga xos belgilari qatoriga quyidagilar kiradi:

Virtuallik — foydalanuvchilar ko'pincha bir-birini shaxsan tanimagan holda muloqot qiladi;

Global xarakter — geografik cheklolrsiz aloqaga kirishish imkoniyati;

Gipertekstlilik — matn tarkibida multimedia elementlaridan (rasm, video, havola va boshqalar) foydalanish;

Kompyuter diskursi muloqotning bir turi sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

Masofa va vaqt bo'yicha ajralish — muloqot ishtirokchilari bir joyda bo'lmaydi;

Vositachilik — texnik vositalar orqali muloqot olib borish;

Yuqori o'tkazuvchanlik — axborotning tez va keng tarqalishi;

Kreollashgan matn — so'zlar, emodzilar, piktogrammalar va boshqa vizual belgilar aralashmasidan iborat bo'lishi;

Maqom tengligi — onlayn muloqotda ijtimoiy yoki lavozimiy farqlar ko'pincha yo'qoladi;

Emotsional ifodaning texnik vositalar bilan uzatilishi — emodzilar va grafik belgilar yordamida hissiyot yetkazish;

Ko'p shaklli diskurs — yozma, og'zaki va vizual unsurlarning bir vaqtda qo'llanishi;

Kompyuter etikasi — raqamli makonda muloqotning axloqiy me'yorlari.

Kompyuter diskursidagi matnlar ko'pincha jurnalistika, ommaviy axborot vositalari, ilmiy muhokamalar va norasmiy yozishmalarga xos elementlarni birlashtiradi. Ingliz tilidagi kompyuter diskursi ingliz tilidagi muloqot me'yorlariga mos keladi, biroq virtual makon ta'siri ostida an'anaviy shakllardan sezilarli farq qiladi. Natijada, onlayn muloqot insoniy muloqotning barcha asosiy

¹ Avlaeva Saida Bozorovna, Pragmatic Feature of Neologisms in Uzbek and English Languages, 176-179. <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/download/7424/7220/13103>

² Arnold I.V. Stylistics of modern English (stylistics of decoding) / Study Guide. " Foreign. yaz. ". 3rd ed. M.: Education, 2017.

<https://7universum.com/ru/philology/archive/item/14718>

turlarini oʻzida mujassam etadi: u ommaviy, guruhiy, shaxsiy yoki ichki nutq shaklida boʻlishi mumkin; hajmi qisqa yoki katta boʻlishi mumkin; shuningdek, ogʻzaki yoki yozma tarzda amalga oshirilishi mumkin. Bunday murakkab va koʻp qatlamli jarayonlarni oʻrganish neologizmlarning pandemiya sharoitida va undan keyingi davrda til rivoji, madaniy moslashuv va ijtimoiy kommunikatsiyadagi rolini chuqur tahlil qilishga imkon beradi (Akhrenova N.A. 2019)³.

COVID-19 pandemiyasi davrida ingliz va oʻzbek tillarida yuzaga kelgan neologizmlar til, jamiyat va madaniyat oʻzaro taʼsirining murakkab jarayonlarini ochib berdi. Ushbu davr nafaqat yangi leksik birliklarning paydo boʻlishi, balki ularning tez surʼatlarda ommalashuvi va kundalik muloqotga kirib kelishi bilan ham ajralib turadi. Yangi soʻzlar pandemiyaning global xarakterini, axborot almashishning zamonaviy shakllarini hamda odamlarning hissiy va ijtimoiy holatini ifodalovchi kuchli kommunikativ vosita sifatida namoyon boʻldi.

Tadqiqot shuni koʻrsatdiki, neologizmlar internet diskursida ayniqsa faol qoʻllaniladi. Raqamli kommunikatsiya vositalari va ijtimoiy tarmoqlar yangi soʻzlarning shakllanishi, tarqalishi va madaniy aks-sadosida yetakchi rol oʻynaydi. Virtual makonning oʻziga xos xususiyatlari - virtuellik, global xarakter, gipertekstlilik, multimedia elementlari bilan boyitish, emodjilar orqali hissiy ifoda — neologizmlarning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi va ularni tez moslashuvchan til unsurlariga aylantiradi. Kompyuter diskursi oʻzining koʻp qatlamli tabiati bilan ajralib turadi: unda jurnalistik, ilmiy, ommaviy va shaxsiy muloqot unsurlari birlashadi, maqom tengligi kuchayadi, vaqt va makon cheklovlari bartaraf etiladi. Shu bois, internet muloqoti nafaqat lingvistik jarayonlarni, balki madaniy va ijtimoiy munosabatlar dinamikasini

ham tubdan oʻzgartirmoqda. Umuman olganda, neologizmlarning pandemiya davridagi rivojlanishi va ularning internet muloqotidagi faol ishlatilishi global kommunikatsiya jarayonida tilning moslashuvchanligini, madaniy integratsiya mexanizmlarini va jamiyatning yangi ijtimoiy tajribalarga munosabatini aks ettiradi. Bu jarayonlarni tizimli oʻrganish tilshunoslik, sotsiolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik uchun kelgusida ham dolzarb boʻlib qoladi.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Allan, K., Burridge, K. *Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language*. Cambridge University Press, 2006.
2. Arnold I.V. Stylistics of modern English (stylistics of decoding) / Study Guide. " Foreign. yaz. ". 3rd ed. M.: Education, 2017. <https://7universum.com/ru/philology/archive/item/14718>
3. Akhrenova N.A. Internet discourse as a global intercultural phenomenon and its linguistic design: M., 2019. - <https://cyberleninka.ru/article/n/linguistic-features-of-neologisms-in-the-internet-discourse>
4. Avlaeva Saida Bozorovna, Pragmatic Feature of Neologisms in Uzbek and English Languages, 176-179. <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/download/7424/7220/13103>
5. Bauer, L. *Introducing Linguistic Morphology*. Edinburgh University Press, 2003.
6. Crystal, D. *English as a Global Language*. Cambridge University Press, 2012.
7. Joʻrayev, M. "Oʻzbek tilida zamonaviy neologizmlar va ularning qoʻllanish xususiyatlari." *Oʻzbek tili va adabiyoti*, №5, 2020.
8. Plag, I. *Word-Formation in English*. Cambridge University Press, 2003.
9. Yule, G. *Pragmatics*. Oxford University Press, 1996.

³ Akhrenova N.A. Internet discourse as a global intercultural phenomenon and its linguistic design: M., 2019. -

<https://cyberleninka.ru/article/n/linguistic-features-of-neologisms-in-the-internet-discourse>

PSIXOLOGIK MOSLIK VA MUVAFAQQIYATLI NIKOH OMILLARI; PREMARITAL PSIXOTESTLAR SAMARADORLIGI

*Xudoyqulova Nazokat, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari
agentligi huzuridagi yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli
kadrlarni tayyorlash instituti*

PSYCHOLOGICAL COMPATIBILITY AND FACTORS OF A SUCCESSFUL MARRIAGE: EFFECTIVENESS OF PREMARITAL PSYCHOTESTS

*Khudoyqulova Nazokat, Institute for the Study of Youth Problems
and Training of Promising Personnel under the Agency for Youth
Affairs of the Republic of Uzbekistan*

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СОВМЕСТИМОСТЬ И ФАКТОРЫ УСПЕШНОГО БРАКА: ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДОБРАЧНЫХ ПСИХОТЕСТОВ

*Xudoykulova Nazokat, Институт изучения проблем молодежи
и подготовки перспективных кадров при Агентстве по делам
молодежи Республики Узбекистан*



*xudoyqulovashabnam9
65@gmail.com*



Annotatsiya: Maqolada muvaffaqiyatli nikohda psixologik moslikning o'rni tahlil qilinib, uning nikoh barqarorligi, emotsional farovonlik va ijtimoiy uyg'unlik uchun muhimligi asoslangan. Xarakter, temperament va qadriyatlar uyg'unligi asosiy omil sifatida ko'riladi. J.Gottman, D.Myers, L.Obuxova va Abu Nasr Forobiyning qarashlari zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirilgan. MBTI va "Big Five" kabi premarital psixotestlarning samaradorligi ko'rsatilgan bo'lib, ular o'zaro tushunishni mustahkamlash va oilaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: psixologik moslik, temperament, qadriyatlar, muvaffaqiyatli nikoh, premarital psixotestlar.

Abstract: The article examines the role of psychological compatibility in successful marriage, stressing its importance for marital stability, emotional well-being, and social harmony. Harmony of character, temperament, and values is seen as a decisive factor. Theories of J. Gottman, D. Myers, L. Obukhova, and Abu Nasr al-Farabi are combined with modern approaches. The effectiveness of premarital psychotests such as MBTI and the Big Five is emphasized, showing their role in strengthening mutual understanding and family stability.

Keywords: psychological compatibility, temperament, values, successful marriage, premarital psychotests.

Аннотация: В статье анализируется роль психологической совместимости в успешном браке, её значение для стабильности семьи, эмоционального благополучия и социальной гармонии. Согласованность характера, темперамента и ценностей рассматривается как решающий фактор. Теории Дж. Готтмана, Д. Майерса, Л. Обуховой и Абу Насра аль-Фараби сочетаются с современными подходами. Подчеркивается эффективность добрачных психотестов (MBTI, «Большая пятёрка»), способствующих взаимопониманию и укреплению семейной стабильности.

Ключевые слова: психологическая совместимость, темперамент, ценности, успешный брак, добрачные психотесты.

KIRISH. Oilaviy hayot inson hayotining ajralmas va fundamental qismidir. Har qanday jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, ma'naviy pokligi va madaniy merosining uzviy davomiyligi ko'p jihatdan oilaning sog'lom va mustahkamligiga bog'liq. Shuning uchun, zamonaviy psixologiya fanida barqaror va totuv oila shakllantirishda psixologik moslik eng muhim omil sifatida qaraladi. Psixologik moslik ikki shaxsning shaxsiy xususiyatlari, temperamenti, qadriyat tizimi, hayotga qarashi, hissiy ehtiyojlari, muomala uslubi va konfliktlarni hal etish strategiyalarining uyg'unligidir. Bunday moslik yo'qligi ajrimlar, oilaviy zo'ravonlik va ruhiy tushkunlik holatlarining ortishiga sabab bo'lishi mumkin. Prezident Shavkat Mirziyoyev bu masalani davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirgan: "Yoshlarni oila hayotiga tayyorlash, oilaviy munosabatlarda o'zaro hurmat va mas'uliyat hissini shakllantirish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biridir."

Psixologik moslik bu er-xotinlarning shaxsiy jihatlari bir-biriga qanchalik mos kelishi va bir-birini to'ldira olishini ifodalovchi tushuncha bo'lib, u oilaviy baxt va barqarorlikning asoslaridan biridir. Psixologlar fikriga ko'ra, baxtli nikoh siri ko'p jihatdan er-xotinning bir-biriga mos yoki nomuvofiq psixologik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Amerikalik psixolog va oilaviy terapevt J.Gottman o'zining 30 yillik empirik tadqiqotlari asosida shuni aniqlaydiki, uzoq davom etuvchi va barqaror nikohlar odatda juftliklar o'rtasidagi emotsional barqarorlik, o'zaro hurmat va ijobiy aloqaning ustunligi bilan ajralib turadi. U turmushdagi psixologik moslikni "muhabbat arxitekturasi" (architecture of love) deb ataydi. Bu tushuncha ishonch va ochiq muloqot asosida qurilishini ifodalaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nikoh mustahkamligi nafaqat tashqi sharoitlarga, balki juftliklarning o'zaro muloqot sifati, muammolarga munosabati va hissiy ehtiyojlarini anglash darajasiga ham bog'liqdir. Aynan mana shu psixologik omillar nikohni mustahkamlovchi muhim ichki mexanizm sifatida ko'rilmogda.[1]

Nikoh faqat huquqiy yoki diniy bitim emas, balki doimiy psixologik va ijtimoiy hamkorlik jarayonidir. Muvaffaqiyatli nikoh - bu ikki shaxsning o'zaro ishonch, mehr berishi orqali

ijtimoiy va psixologik muvozanatda yashashga asoslangan tizim bo'lib, uni shakllantiruvchi omillar son-sanoqsizdir. Psixologik moslik, o'zaro hurmat va qo'llab quvvatlash, oilaviy nizolarni birgalikda hal qilish, umumiy qadriyatlar va hayotiy maqsadlar muvaffaqiyatli nikohning asosiy omillaridan hisoblanadi.

ASOSIY QISM. Shaxsiy dunyoqarash (xarakter), temperament, qadriyatlar va hayotiy maqsadlar mosligi, nizolarni boshqarish qobiliyati psixologik moslikning asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi. Turmush o'rtoqlarning fe'l-atvori va shaxsiy sifatleri o'xshash yoki bir-birini to'ldiruvchi bo'lsa, ular o'zaro tushunishni osonroq topadilar. Masalan, tadqiqotlarda baxtli oilalarda er-xotinlar odatda emotsional barqaror, ochiqko'ngil, samimiy va ishonuvchan bo'lishi aniqlangan; baxtsiz nikohlarda esa aksincha, juftliklar tez jahllanish, tanqidchanlik, hukmronlikka intilish kabi xususiyatlar bilan ajralib turgan.

Sharq Uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy asarlarida insonni o'rganishda axloqiy-psixologik sifatlar muhimligini ta'kidlab, "fazilatli shaxs" tushunchasini ilgari surgan. Unga ko'ra, shaxsning tafakkur kuchi, g'azab kuchi, shahvat kuchi uyg'un bo'lishi kerak. Bunday uyg'unlik ruhiy salomatlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi [2]. Xarakterlarning uyg'unligi oila ichidagi tinchlik, hurmat va barqarorlikni ta'minlansa, ularning keskin farqlari ziddiyatlar, ajrimlar va emotsional uzoqlikni keltirib chiqaradi.

Juftliklar o'rtasida xarakterlarning mutanosibliigi, xususan, dunyoqarashdagi umumiyliklar psixologik moslik darajasini oshiradi. AQShlik olim D.Myers ta'kidlaganidek, "psixologik moslik nafaqat o'xshash temperamentlar, balki o'xshash qadriyatlar va hayot falsafasida namoyon bo'ladi" [3]. Shaxsiy dunyoqarash - bu nafaqat ichki psixologik barqarorlikni, balki oila ichidagi rollar, qarorlar, muomala madaniyatining uyg'unligini ham belgilovchi omildir. Turmush o'rtog'i bilan umumiy hayot falsafasiga ega bo'lgan juftliklar o'zaro ishonchni kuchaytiradi, nizolarning ildizini anglay oladi va murosaga erishishda samaraliroq bo'ladi.

Psixolog Lyudmila Obuxova fikriga ko'ra, "Shaxslararo munosabatlarda barqarorlik, har ikki tomonning ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlari bir-birini to'ldirsa, mustahkam bo'ladi"[4]. Bu fikrdan anglash mumkinki, faqatgina tashqi muhitga moslashuv emas, balki ichki psixologik uyg'unlik - ya'ni taraflarning hayotiy qadriyatlari, mehnatga munosabati, oilaviy rollar haqidagi tasavvurlari uyg'un bo'lishi ham muhim o'rin tutadi. Juftliklarning har qanday ustuvor qarorlarida - moliyaviy mustaqillikdan tortib, farzandlar tarbiyasiga doir tanlovlargacha - ularning psixologik mosligi va dunyoqarashdagi uyg'unligi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bu esa faqat hissiyotlar emas, balki ongli qadriyatlar birligi asosida mustahkamlanadi.

Turmush o'rtoqlarning psixologik mosligi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ulardan biri sifatida temperamentlar uyg'unligi muhim o'rin tutadi. Temperament - bu shaxsning tug'ma biologik asoslarga ega psixik faoliyatining dinamik xususiyatidir. U insonning tashqi muhitga bo'lgan dastlabki javob choralarini, emotsional barqarorligini, hayotdagi faollik darajasini belgilaydi va kundalik oilaviy hayotda qanday moslashuv yuz berishini aniqlovchi asosiy komponent hisoblanadi. Masalan, birining fe'l-atvori juda jo'shqin, ikkinchisniki vazmin bo'lsa, ular turli vaziyatlarda turlicha reaksiyalar ko'rsatadi. Biroq psixologik moslik uchun temperament keskin qarama-qarshi bo'lishi emas, balki bir-birini muvozanatlashtirishi muhim.

Psixologiya fanida temperament to'rt asosiy tipga - sangvinik, xolerik, flegmatik va melanxolik turlarga ajratiladi. Har bir tip o'ziga xos emotsional reaksiyalar, tezlik, barqarorlik va sezgirlik darajasiga ega bo'lib, turmushdagi muayyan rollarni bajarishda farq qiladi. Masalan, xolerik turmush o'rtoqlar ko'pincha tezkor, tashabbuskor va faol bo'lishi mumkin, biroq ayni paytda qizishuvchanlik tufayli ziddiyatga moyil bo'ladi. Aksincha, flegmatik yoki sokin tabiatga ega bo'lgan insonlar salmoqli va barqaror qarorlar qabul qilishi bilan ajralib turadi.

Mashhur rus psixologi B.M.Teplovning ta'rificha, temperament "nerv tizimining kuchi, harakatchanligi va muvozanatiga asoslangan psixik faoliyatning individual uslubidir"[5]. Unga ko'ra, har bir temperament tipi o'ziga xos nevrofiziolitik mexanizmlarga ega bo'lib, bu esa

insonning hissiyotga beriluvchanligi va o'zini tutish uslubini belgilaydi. G'arb psixologi H. Eysenk esa temperamentni nevrobiologik omillarga bog'lab, introvert va ekstravert mezonlari asosida shaxsning kundalik hayotdagi reaksiyalarini baholaydi [6]. Bu yondashuv turmush o'rtoqlarning bir-birini qanchalik to'ldirishi yoki to'qnashishi mumkinligini ilmiy asosda tushuntirishga xizmat qiladi.

Sharq psixologiyasiga to'xtalsak, temperamentlar qadimdan "mizoj" tushunchasi bilan ifodalangan. Ibn Sino "Tib qonunlari" asarida aytadiki, "insonlar o'zlarining issiqlik, sovuqlik, quruqlik va namlikdagi tabiati bilan uyg'un yashasa, tan ham, ruh ham osoyishta bo'ladi". Bu fikr psixologik muvozanatni, ya'ni temperamentdagi uyg'unlikni qadimdan tan olingan omil sifatida ko'rsatadi.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar oilaviy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida temperamentlar uyg'unligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv faqat hissiyotlar darajasidagi o'zaro moslikni emas, balki juftliklarning ijtimoiy rollarni bajarish uslubi, qaror qabul qilish strategiyasi va psixologik moslashuvchanlik darajasini ham o'z ichiga oladi. Aynan shu kontekstda o'zbek psixologi Dilorom Tadjibayeva quyidagicha fikr bildiradi: "Oilaviy hayotda temperamentlar uyg'unligi - bu faqat hissiyotlarning mosligi emas, balki ijtimoiy rollarni qanday bajarish va qarorlarni qanday qabul qilishga oid refleksiv yondashuvlar muvofiqligidir"[7].

Ushbu yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, har bir insonning temperament tipi - xolerik, sangvinik, flegmatik yoki melanxolik - juftlikdagi kommunikatsiya uslublari va konfliktlarni boshqarishdagi yondashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, xolerik shaxslar tezkor qarorlar qabul qilishga moyil bo'lsa, melanxolik turmush o'rtog'i masalalarni chuqur tahlil qilishga intiladi. Bu tafovutlar to'g'ri boshqarilmaganda kelishmovchilikka olib kelishi mumkin, ammo har ikki tomon bir-birining temperament xususiyatlarini anglay olsa va ijobiy tarzda qabul qilsa, aksincha, bu farqlar o'zaro to'ldiruvchanlik manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ko'plab empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli temperamentga ega bo'lgan juftliklar orasida muvozanatli, uzviy aloqalarni

shakllantirish uchun hissiy intellekt, empatiya va refleksiv fikrlash malakalari muhim o'rin tutadi. Bu esa shaxsning nafaqat o'z tuyg'ularini, balki turmush o'rtog'ining ichki holatini ham anglash qobiliyatiga asoslanadi. Juftliklar orasidagi temperament tafovutlari to'siq emas, balki to'g'ri yondashuv bo'lsa - o'zaro psixologik muvofiqlikni ta'minlovchi kuchli asosga aylanishi mumkin. Buning uchun har ikki tomon o'zini anglash, o'zaro farqni qadrlash va refleksiv moslashuvchanlikni rivojlantirish orqali barqaror oila tamal toshini qo'yishi lozim.

Oilaviy barqarorlik va psixologik moslikni ta'minlovchi eng muhim omillardan biri bu - turmush o'rtoqlarning hayotiy qadriyatlar va maqsadlaridagi uyg'unlikdir. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, er-xotinning hayotga qarashlari, muhim deb bilgan g'oyalari, ustuvorliklari va kelajakka doir tasavvurlari bir-biriga yaqin bo'lsa, ular o'rtasida kelishmovchiliklar miqdori sezilarli darajada kamayadi, qaror qabul qilishda esa bir-birini to'ldiruvchi yondashuvlar shakllanadi. Psixologik ilm-fanda qadriyatlar shaxsning hayotdagi ustuvor yo'nalishlarini, ma'naviy qarashlarini belgilovchi nisbatan barqaror tizim sifatida qaraladi. Mashhur amerikalik olim Milton Rokeach ta'rificha, qadriyatlar bu - shaxs uchun maqbul deb topilgan xatti-harakatlar yoki mavjudlik holatlari bo'lib, ular insonning harakatiga yo'nalish beradi [8].

Juftliklar orasidagi qadriyatlar mosligi deganda, nafaqat umumiy maqsadlar (masalan, oila qurish, farzandli bo'lish, moddiy farovonlikka erishish) balki bu maqsadlarga erishish yo'llari, mezonlari, vaqtinchalik qurbonliklarga tayyorlik darajalari bir-biriga mos kelishi nazarda tutiladi. Bunday moslik er-xotin orasida chuqur ishonch va o'zaro anglashuvni shakllantiradi. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar ham ushbu nuqtai nazarni tasdiqlaydi. Jumladan, amerikalik olim Linda Vaite o'z tadqiqotlarida shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli va barqaror nikohlarning asosi - bu qadriyatlar va hayotiy maqsadlardagi uyg'unlikdir. U er-xotin o'rtasida "qadriyatlar ittifoqi" bo'lsa, muammolarni birgalikda hal qilish, iqtisodiy va ijtimoiy bosimlarga bardosh berish darajasi yuqoriligini qayd etadi.[9]

Boshqa bir muhim jihat shundaki, juftliklarning qadriyatlar mos bo'lsa, ular hayot sinovlariga turli darajada bardosh bera oladi.

Masalan, bir juftlik hayotda bolalarni ustuvor qadriyat deb bilsa, ikkinchisi esa shaxsiy erkinlikni - bu o'rtadagi kelishmovchilikni yuzaga keltiradi. Shunday holatda qadriyatlar muvofiqligi darajasi past bo'lsa, nizolar tez-tez yuz beradi, emotsional masofa kengayadi. Turmush o'rtoqlarning qadriyatlar va hayotiy maqsadlar borasidagi muvofiqligi - bu nafaqat psixologik moslik mezon, balki barqaror, ishonchli, uzoq muddatli oila asosini tashkil etuvchi tayanch unsurlardan biridir. Shu sababli, qadriyatlar uyg'unligi oilaviy totuvlik, murosaga tayyorlik va birgalikdagi yutuqlar uchun zamin yaratadi.

Oilaviy hayot - bu ikki shaxsning nafaqat hissiy, balki ijtimoiy va kommunikativ hamkorlikka asoslangan doimiy muloqot maydonidir. Shunday bo'lsa-da, hatto eng uyg'un ko'ringan juftliklar hayotida ham kelishmovchiliklar, ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar ro'y berishi tabiiy jarayondir. Muhimi - ushbu nizolarni qanday boshqarish, ularni konstruktiv hal etish qobiliyatidir.

Nizolarni boshqarish bu - shaxslararo ziddiyat yuzaga kelgan vaziyatda hissiyotlarni nazorat qilish, ijobiy muloqot yuritish, murosaga erishish va yechim taklif etish jarayonidir. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muammolarni konstruktiv yo'l bilan hal eta oladigan juftliklarda nikohdan qoniqish darajasi ancha yuqori bo'ladi, oilaviy barqarorlik esa mustahkam bo'ladi. xususan, Harri Markmen va Skott Stenli tomonidan ishlab chiqilgan PREP modelida (*Prevention and Relationship Enhancement Program*) oilaviy mojarolarning oldini olish uchun "harakatdan oldingi fikr yuritish", "tuyg'ularni boshqarish", "masalaning tub ildizini aniqlash" va "men-uslubida gapirish" kabi usullar taklif etiladi.[10] Natijada bu model muammolarni kengaytirib yubormaslik, balki ulardan yechim izlab chiqish imkonini beradi. Aksincha, muammolarni ochiq muhokama qila olmaydigan, emotsiyalarini bostiradigan yoki agressiv tarzda bildirishga moyil bo'lgan juftliklar orasida ziddiyatlar tez-tez janjal, sukut saqlash (psixologiyada "emotsional izolyatsiya" deb ataladi) yoki bir-biridan uzoqlashish kabi salbiy natijalar bilan yakunlanadi. Bunday hollarda muammo hal etilmaydi, balki chuqurlashadi va munosabatga zarar yetkazadi. Shunday qilib, oilaviy ziddiyatlarning mavjudligi salbiy hodisa

emas, balki ularni qanday hal etish madaniyati mavjudligi - nikohning barqarorligi va psixologik sogʻlomligi uchun hal qiluvchi omildir. Oʻzaro tinglash, hurmat, konstruktiv yondashuv va emotsional yetuklik - sogʻlom oilaning psixologik poydevorini tashkil etadi. Yuqoridagi barcha omillar birgalikda juftlikning psixologik mosligini belgilaydi. Psixologik mos juftliklar koʻproq bir-biridan rozi boʻlib, oʻzaro hissiy qoʻllab-quvvatlash yuqori boʻladi. Natijada bunday oilalarda nizolar kamayib, nikohdan qoniqish va baxtlik hissi ortadi. Aksincha, psixologik xarakterlarning bir-biriga toʻgʻri kelmasligi, hayotga qarashlar qarama-qarshiligi - uzoq muddatda turmush oʻrtogʻini tushunmaslik, hissiy uzoqlashuv va nizolar keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois, hozirgi kunda boʻlajak er va xotinning psixologik mosligini baholashga jiddiy qarash zarurati tugʻilmoqda.

Psixologik nuqtayi nazardan qaraganda, muvaffaqiyatli nikoh - bu ikki inson oʻrtasidagi sogʻlom emotsional, ruhiy va shaxsiy bogʻliqlikni ifodalaydi. Bunday munosabat psixologik ehtiyojlarning qondirilishi, shaxslararo chegaralarning sogʻlom saqlanishi va har ikki tomonning oʻsishi uchun imkon yaratishi bilan ajralib turadi. Psixologik moslik, muloqot madaniyati, iqtisodiy barqarorlik, ishonch va qadriyatlar uygʻunligi bu yoʻldagi asosiy omillardir. Muvaffaqiyatli nikoh har doim insoniyat taraqqiyoti bilan hamnafas boʻlgan murakkab, ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanadi. Oʻzaro tushunish, emotsional barqarorlik va ishonchga asoslangan turmush nafaqat shaxsiy baxt, balki sogʻlom jamiyat poydevorini taʼminlaydi. Soʻnggi yillarda psixologiya fanida turmushdagi muammolarni empirik kuzatish, shaxslararo muloqot uslublari, va ruhiy ehtiyojlarning qondirilishi mavzulari alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunga kelib, nikohdan avval juftlikning shaxsiyati va munosabatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradigan bir qator psixologik test va soʻrovnomalar mavjud. Ulardan biri - Myers-Briggs tipologik testi. Bu test insonni 16 xil shaxsiyat turiga ajratib, uning dunyoni anglash va qaror qabul qilishdagi afzalliklarini aniqlaydi. Masalan, test natijasida biri rejalilik (J - *Judging*), ikkinchisi esa spontanlik (P -

Perceiving) tomonida ekani ayon boʻlsa, kundalik turmushda biri ishlarni reja asosida bajarishni, ikkinchisi kayfiyatga qarab ish tutishni afzal koʻrishi mumkin. MBTI shunday farqlarni “neytral til”da muhokama qilishga zamin yaratib, juftlikni bir-birini tushunishga undaydi. Tadqiqotlar koʻrsatishicha, MBTI asosida oʻz tiplarini bilgan juftliklar nikoh hayotida kelishmovchiliklarni yengish va birgalikda qaror qabul qilish borasida yaxshiroq natijalarga erishadi.[11] Shu bois koʻplab gʻarb psixologlari nikohdan oldin MBTI sinovidan oʻtishni maslahat beradilar.

Big Five (Katta Beshlik) - shaxsiyatning besh omilli modeli. Bu model xotirjamlik, ruhiy barqarorlik, ochiqlik, kelishuvchanlik va vijdonlilik kabi beshta asosiy oʻlcham boʻyicha shaxs xususiyatlarini oʻlchaydi. Big Five testi orqali juftliklar bir-birlarining oʻzgaruvchan yoki barqaror temperamentga egaligi, qanchalik ochiq fikrligi yoki masʼuliyatligi haqida maʼlumot oladi. Tadqiqotlar ushbu shaxsiyat omillari turmushdan qoniqishga sezilarli taʼsir qilishini aniqlagan. Masalan, bir tadqiqot natijasiga koʻra, ochiqlik va kelishuvchanlik kabi fazilatlar juftlikning nikohga tayyorligi va oilaviy farovonligining ijobiy belgisi boʻlgan.[12] Bunday psixologik testlar juftlikka oʻzlarining oʻxshash va farqli tomonlarini muhokama qilish, mustahkam nikoh uchun qaysi sohalarida ishlash zarurligini anglash imkonini beradi. Premarital psixologik testlar va treninglar foydasi nafaqat nazariy jihatdan, balki empirik tadqiqotlarda ham tasdiq topmoqda. Oxirgi yillarda Oʻzbekiston va jahon miqyosida oʻtkazilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, nikohdan oldin psixologik tayyorgarlikdan oʻtgan juftliklar oilaviy hayotda baʼzi afzalliklarga ega boʻladi. Ilmiy tahlillar premarital psixotestlar va treninglar oilaning uzoq muddatli barqarorligiga ijobiy taʼsir koʻrsatishini koʻrsatmoqda. Albatta, har bir oila oʻziga xos va inson omili hamisha muhim - testlar barcha muammoni yechib bermasligi aniq. Bugungi kunga kelib, nikohdan oldingi psixologik tayyorgarlik juftliklarga muammolarni oldindan koʻra bilish, tushunish va ularga hozirlik koʻrish imkonini berishi, shu orqali stress va ziddiyatlarni kamaytirishi isbotlanmoqda.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, nikoh ikki shaxs o'rtasidagi nafaqat huquqiy yoki diniy munosabat, balki doimiy psixologik hamkorlik va ijtimoiy barqarorlik negizidir. Mazkur maqolada ko'rib chiqilganidek, nikoh mustahkamligi ko'plab tashqi omillardan ko'ra, psixologik moslik - xarakterlar, temperamentlar, qadriyatlar, hayotiy maqsadlar va hissiy ehtiyojlar uyg'unligiga bevosita bog'liqdir. Oilaviy hayotda barqarorlikni ta'minlovchi bu ichki mexanizmlar jamiyatning ijtimoiy sog'lomligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, psixologik moslik darajasi yuqori bo'lgan juftliklar orasida o'zaro tushunish, hamkorlik va konfliktlarni konstruktiv boshqarish qobiliyati yuqori bo'ladi. Temperament turlarining bir-birini to'ldirishi, umumiy qadriyatlar asosida shakllangan "psixologik ittifoqlar" oilaning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek, premarital psixotestlar juftliklarning shaxsiy xususiyatlarini aniqlash va ularning o'zaro muvofiqligini baholashda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Hozirgi davrda oilaning mustahkamligi faqat an'anaviy ijtimoiy me'yorlar emas, balki zamonaviy psixologik yondashuvlar, shaxslararo moslik tahlili va muloqot madaniyatiga ham bog'liq bo'lib qolmoqda. Shuning uchun, oilaviy hayotga tayyorlanayotgan yoshlar uchun psixologik tayyorgarlikni tizimli yo'lga qo'yish, premarital baholov dasturlarini rivojlantirish zarurati dolzarb masalaga aylangan. Ushbu maqolada ilgari surilgan tahlillar va ilmiy dalillar asosida xulosa qilish mumkinki, psixologik moslik nafaqat juftliklar baxti, balki sog'lom va barqaror jamiyat poydevorini yaratishda hal qiluvchi omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Gottman, J. M. (1999). *The Seven Principles for Making Marriage Work*. New York: Crown Publishers.
- Abu Nasr Farobiy Fozil odamlar shahri. T.:Yangi asr avlodi. 2016. b-122
- Myers, Psychology, 2010, p. 428].
- Обухова Л.Ф. *Возрастная психология*. — М.: Владос, 2004.
- Теплов Б.М. *Психология темперамента*. — М.: Педагогика, 1941.
- Eysenck, H.J. *The Biological Basis of Personality*. — Springfield, IL: Charles C. Thomas, 1967.
- Tadjibayeva D. *Oila psixologiyasi va psixogigienasi*. — Toshkent: Ijtimoiy fikr, 2021.
- Rokeach M. *The Nature of Human Values*. — New York: Free Press, 1973.
- Waite, L.J., Gallagher, M. *The Case for Marriage: Why Married People are Happier, Healthier, and Better Off Financially*. — Broadway Books, 2000.
- Markman H., Stanley S., Blumberg S. *Fighting for Your Marriage: Positive Steps for Preventing Divorce and Preserving a Lasting Love*. Jossey-Bass, 2001. https://www.researchgate.net/publication/247452165_Fighting_For_Your_Marriage_Positive_Steps_for_Preventing_Divorce_and_Preserving_a_Lasting_Love
- Personality Type and Relationships. <https://www.myersbriggs.org/type-in-my-life/personality-type-and-relationships/#:~:text=Understanding%20and%20applying%20type%20theory,a%20better%20understanding%20of%20conflict>
- The Predictive Role of Big 5 Personality Traits and Psychosocial Health in Marital Readiness. <https://spphllc.com/jimsa/article/view/116#:~:text=and%20psychosocial%20health%20in%20marital,mental%20health%2C%20and%20marital%20readiness>

SA'D AL-DĪN AL-FARG'ONIY MEROSIDA BAG'RIKENGLIKNING FALSAFIY- GERMENEVTIK TALQINI

Obidov Asliddin Shavkatovich, Alfraganus universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida dotsenti, v.b., falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PHILOSOPHICAL-HERMENEUTICAL INTERPRETATION OF TOLERANCE IN THE LEGACY OF SA'D AL-DĪN AL-FARGHĀNĪ


Obidov Asliddin Shavkatovich, Acting Associate Professor of the Department "Social Sciences" of the Alfraganus University, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

ФИЛОСОФСКО-ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТОЛЕРАНТНОСТИ В НАСЛЕДИИ СА'Д АД-ДИНА АЛЬ-ФАРГАНИ

Обидов Аслиддин Шавкатович, и.о. доцента кафедры «Социальные науки» университета Альфраганус, доктор философии по философским наукам (PhD)



<https://orcid.org/0000-0002-9848-2364>
aslidin.obidov@gmail.com



Annotatsiya: Maqola Saididdin al-Farg'oni merosida bag'rikenglikning falsafiy-germenevtik talqinini yoritadi. Asosiy manba – Mashāriq al-darārī asari tahlil qilinib, unda tolerantlik vahdat al-vujud asosida insoniyat xilma-xilligini ilohiy birlikda uyg'unlashtirish jarayoni sifatida talqin etilgani ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: Sa'd ad-Dīn al-Farg'oni, vahdat al-vujud, sufi germenevtikasi, islom falsafasida bag'rikenglik, dinlararo muloqot, qiyosiy falsafa, ma'naviy plyuralizm, islom tasavvufi, qurilish paradigmalar.

Abstract: The article explores the philosophical-hermeneutical interpretation of tolerance in the legacy of Sa'd al-Dīn al-Farg'oni. Based on his Mashāriq al-darārī, tolerance is viewed as a process of harmonizing human diversity within divine unity through the concept of wahdat al-wujūd.

Keywords: Sa'd al-Dīn al-Farghānī, wahdat al-wujūd, Sufi hermeneutics, tolerance in Islamic philosophy, interfaith dialogue, comparative philosophy, spiritual pluralism, Islamic mysticism, paradigms of construction.

Аннотация: В статье рассматривается философско-герменевтическое толкование толерантности в наследии Саидиддина аль-Фаргани. На основе его труда Mashāriq al-darārī показано, что толерантность осмысляется как процесс гармонизации человеческого многообразия в божественном единстве через концепцию вахдат аль-вуджуд.

Ключевые слова: Са'д ад-Дин аль-Фаргани, вахдат ал-вуджуд, суфийская герменевтика, толерантность в исламской философии, межрелигиозный диалог, сравнительная философия, духовный плюрализм, исламский мистицизм, парадигмы построения.

Kirish. XXI asr globallashuvi sharoitida diniy bag'rikenglik va madaniyatlararo muloqot masalalari insoniyatning barqaror taraqqiyoti,

xavfsizligi va tinchlikni ta'minlash strategiyasining markazida turibdi.

XIII–XIV asrning yirik mutafakkiri Saididdin al-Farg'oni (Sa'īd al-Dīn Muḥammad al-

Farghānī¹) – Ibn al-‘Arabī falsafiy maktabining yetuk vakili – o‘zining “Mashāriq al-darārī” asarida vahdat al-vujud konsepsiyasini nafaqat metafizik birlik nazariyasi sifatida, balki diniy va madaniy xilma-xillikni birlashtiruvchi ontologik model darajasida talqin qiladi. Uning ta’limotida xilma-xillik ziddiyat manbai emas, balki ilohiy hikmatning tajallisi sifatida talqin qilinib, bag‘rikenglik faol ma’naviy yuksalish jarayoni sifatida tushuntiriladi.

Shunga qaramay, Islomshunoslikda olib borilgan ko‘plab tadqiqotlarda al-Farg‘oniy asosan Sufi metafizik tafakkur asosida o‘rganilgan bo‘lib, uning tolerantlik konsepsiyasi, dinlararo muloqot nazariyalaridagi o‘rni hamda madaniyatlararo dialog paradigmalarini bilan bevosita integratsiyasi yetarlicha yoritilmagan. Ushbu ilmiy bo‘shliq (“research gap”) mazkur maqolaning nazariy va amaliy asosini tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili faqat mavjud ishlanmalarni tavsiflash bilan cheklanmasdan, ularning metodologik yondashuvlarini tanqidiy baholash, ilmiy bo‘shliqlarni aniq ko‘rsatish va tadqiqot mavzusi bilan bevosita bog‘lashni talab etadi. Shu sababli, ushbu bo‘lim Saididdin al-Farg‘oniy merosida bag‘rikenglikning falsafiy-germenevtik talqiniga oid mavjud ilmiy manbalarni sharqshunoslik va islomshunoslik yo‘nalishlarida qamrab oladi.

Sharqshunoslikdagi tadqiqotlar – L. Lewisohn² al-Farg‘oniy va uning ustozini Ibn al-‘Arabī maktabining metafizik asoslarini, xususan, vahdat al-wujud konsepsiyasini Sufi tafakkurining markaziy elementi sifatida tahlil qilgan. U tolerantlik masalasiga bevosita to‘xtalmagan bo‘lsa-da, birlik va xilma-xillik o‘rtasidagi falsafiy uyg‘unlikni tasvirlab, bag‘rikenglikning ontologik asoslarini tushunishga imkon beradi. W.C. Chittick³ esa Ibn al-‘Arabī falsafasini chuqur sharhlab, al-Farg‘oniy izohlarining gnoseologik va kosmologik

qirralarini ochib beradi, lekin bu qarashlarning madaniyatlararo muloqot paradigmalarini bilan bog‘lanishini tizimli ravishda ishlab chiqmaydi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot Saididdin al-Farg‘oniy merosida bag‘rikenglik konsepsiyasining falsafiy-germenevtik talqinini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, metodologik asos sifatida Sadridin Qunaviy (al-Farg‘oniyning zamondoshi va Ibn al-‘Arabī maktabining yetuk vakili) tomonidan ishlab chiqilgan germenevtik yondashuvdan foydalanildi. Qunaviy modeliga ko‘ra, matnning haqiqiy ma‘nosini anglash uchun uni faqatgina tashqi shaklda emas, balki uning metafizik qatlamlari va tarixiy-madaniy asosi bilan uyg‘un holda tahlil qilish lozim⁴. Shu bois tadqiqotda al-Farg‘oniy asarlarining mazmuni tarixiy, ijtimoiy va diniy sharoitlar bilan chambarchas bog‘liq holda ko‘rib chiqildi.

Falsafiy germenevtika (Qunaviy modeli) – Matn talqini jarayonida “ma‘no qavatlari” konsepsiyasi qo‘llanildi: ya‘ni, birlamchi matn (zahiri ma‘no), metafizik asos (botiniy ma‘no) va zamonaviy talqin (amaliy kontekst) o‘rtasidagi o‘zaro muloqot ochib berildi. Bu yondashuv al-Farg‘oniy tolerantlikni faqat nazariy konsepsiya sifatida emas, balki zamonaviy interfaith paradigmalarda tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan amaliy-aksiologik mexanizm sifatida ko‘rib chiqishga imkon berdi⁵.

Qiyosiy tahlil – Tadqiqotda al-Farg‘oniy tolerantlik konsepsiyasi Ibn al-‘Arabī⁶ va Aziziddin Nasafiy⁷ ning birlik va bag‘rikenglik haqidagi qarashlari bilan qiyoslandi. Shu bilan birga, uning konsepsiyalari G‘arb mutafakkirlari – Hans Kungning Global Etika modeli⁸ hamda Charles Tayloring multiculturalism nazariyasi⁹ bilan qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu qiyoslash orqali Sharq va G‘arb falsafiy merosining umumiy tamoyillari hamda farqli qirralari aniqlandi.

¹ Chittick, W.C. "Sa‘īd al-Dīn Muḥammad b. Aḥmad Farghānī." Encyclopaedia of Islam, Second Edition. Edited by: P. Bearman, Th. Bianquis, C.E. Bosworth, E. van Donzel, W.P. Heinrichs. Brill Online, 2014. Reference. University of Toronto. 19 June 2014 <http://referenceworks.brillonline.com.myaccess.library.utoronto.ca/entries-SIM_6491>

² Lewisohn, L. (1992). The Legacy of Mediaeval Persian Sufism. London: Khaniqahi Nimatullahi Publications.

³ Chittick, W.C. (1989). The Sufi Path of Knowledge: Ibn al-‘Arabī’s Metaphysics of Imagination. Albany: SUNY Press.

⁴ Qūnawī, Ṣadr al-Dīn. (2008). Al-Nafahāt al-Ilāhiyya. Tehran: Institute of Islamic Studies.

⁵ Aminrazavi, M. (2013). Sufism and the Concept of Peace. International Journal of Islamic Thought, 4(1), 1–12.

⁶ Chittick, W.C. (1989). The Sufi Path of Knowledge: Ibn al-‘Arabī’s Metaphysics of Imagination. Albany: SUNY Press.

⁷ Nasafī, ‘Azīz al-Dīn. (1999). The Perfect Man (Insān Kāmil). Trans. by D.L. Pendlebury. London: Octagon Press.

⁸ Kung, H. (1993). Global Responsibility: In Search of a New World Ethic. New York: Crossroad.

⁹ Taylor, C. (1994). Multiculturalism: Examining the Politics of Recognition. Princeton: Princeton University Press.

Analitik mezonlar sifatida uchta asosiy indikator belgilandi:

-Ontologik mezon – bag‘rikenglikning vahdat al-vujud konsepsiyasi asosida talqini;

-Aksiologik mezon – tolerantlikning axloqiy-ruhiy tarbiya va rahm-shafqat tamoyillari bilan bog‘lanishi;

-Epistemologik mezon – ilm va ma‘rifat orqali madaniyatlararo muloqotning rivojlanishi.

Shunday qilib, metodologik asoslarning integratsiyalashgan qo‘llanishi al-Farg‘oniy tolerantlik konsepsiyasini nafaqat tarixiy-falsafiy, balki zamonaviy global etik va interfaith peace-building kontekstida ham tahlil qilish imkonini berdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Saididdin al-Farg‘oniyning tolerantlik konsepsiyasi nafaqat tasavvuf metafizikasining ichki mantig‘iga, balki zamonaviy interfaith paradigmalarining nazariy va amaliy asoslariga ham uyg‘un keladi. Natijalar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda umumlashtirildi:

1. Ontologik birlik va xilma-xillik uyg‘unligi

Al-Farg‘oniy tolerantlikni vahdat al-vujud konsepsiyasi asosida talqin qilib, mavjudotdagi xilma-xillikni ilohiy birlikning zaruriy tajallisi sifatida ko‘rsatadi. Bu qarashga ko‘ra, insoniyatdagi dinlar, madaniyatlar va ijtimoiy an‘analarning farqlari – “ilohiy haqiqat”ning turfa ko‘rinishlari bo‘lib, ular bir-birini inkor qilmaydi, balki o‘zaro to‘ldiradi¹⁰. Ushbu yondashuv diniy pluralizmni metafizik asos bilan ta‘minlaydi va global etikada “inklyuziv tolerantlik” modeliga yaqinlashadi.

2. Tolerantlikning uch bosqichli amaliy modeli

Tadqiqotda al-Farg‘oniy tolerantlik konsepsiyasi zamonaviy interfaith peace-building strategiyalariga uch jihatdan hissa qo‘shishi aniqlangan: Metafizik birlik darajasi: Vahdat al-vujud asosida diniy va falsafiy tafovutlarni inkor etmasdan, ularni ilohiy birlikning turli ko‘rinishlari sifatida qabul qilish diniy nizolarni yumshatishning samarali yo‘li sifatida ilgari suriladi. Bu yondashuv

Hans Kungning Global Etika modelida “minimum consensus” tamoyiliga mos keladi¹¹. Epistemologik-ma‘rifiy daraja: Al-Farg‘oniy ta‘limotida ilm (ma‘rifa) madaniyatlararo muloqotning asosiy omili sifatida talqin qilinadi. Bu jihat zamonaviy intercultural education va dialogical pedagogy konsepsiyalariga uyg‘un holda, dinlararo bag‘rikenglikni rivojlantirishda bilimning markaziy rolini ta‘kidlaydi¹².

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, al-Farg‘oniy tolerantlik konsepsiyasi diniy pluralizm, interfaith muloqot va global etika nazariyalariga falsafiy-ontologik asos beradi.

Muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Saididdin al-Farg‘oniyning tolerantlik konsepsiyasi zamonaviy falsafiy va ijtimoiy paradigmalariga chuqur integratsiya imkonini beradi.

1. Hans Kung va Global Etika bilan uyg‘unlik

Hans Kungning “Global Etika” konsepsiyasi barcha dinlar uchun umumiy axloqiy negiz mavjudligini ta‘kidlaydi¹³. Al-Farg‘oniy tolerantlikni ruhiy-ontologik birlikdan kelib chiqib asoslagani bois, uning qarashlari “minimal universal konsensus” tamoyiliga mos keladi.

2. Charles Taylor va multiculturalism nazariyasi

Charles Taylarning multiculturalism yondashuvi madaniy identitetni tan olish va uni ijtimoiy barqarorlik uchun zarur shart sifatida ko‘radi¹⁴. Al-Farg‘oniyning qarashlari ham insoniyatdagi xilma-xillikni inkor etmay, balki uni ilohiy birlikning turfa shakllari sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan, Farg‘oniy tolerantligi “madaniy xilma-xillikni tan olish” modeliga nazariy asos qo‘shadi va zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy ko‘pqatlamlilikni legitimlashtiruvchi konseptual manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot Saididdin al-Farg‘oniyning tolerantlik haqidagi falsafiy qarashlarini nafaqat tasavvufiy-metafizik merosning bir qismi sifatida, balki zamonaviy global interfaith paradigmalariga integratsiya

¹⁰ Chittick, W.C. (1989). *The Sufi Path of Knowledge: Ibn al-‘Arabi’s Metaphysics of Imagination*. SUNY Press.

¹¹ Kung, H. (1993). *Global Responsibility: In Search of a New World Ethic*. Crossroad.

¹² Armstrong, K. (2010). *Twelve Steps to a Compassionate Life*. Knopf.

¹³ Kung, H. (1993). *Global Responsibility: In Search of a New World Ethic*. Crossroad.

¹⁴ Taylor, C. (1994). *Multiculturalism: Examining the Politics of Recognition*. Princeton University Press.

qilinadigan konseptual model sifatida yoritib berdi. Fargʻoniyning vahdat al-vujud talqini insoniyatdagi xilma-xillikni ilohiy birlikning koʻrinishlari sifatida tushuntirishi bilan universal bagʻrikenglik etikasi uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, al-Fargʻoniy tolerantlik konsepsiyasi tasavvufiy merosni oʻrganishda, balki zamonaviy dunyodagi muloqot va tinchlikparvarlik strategiyalarida ham metodologik manba sifatida qoʻllash imkonini ochadi.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Lewisohn, L. (1992). *The Legacy of Mediaeval Persian Sufism*. London: Khaniqahi Nimatullahi Publications.

2. Chittick, W.C. (1989). *The Sufi Path of Knowledge: Ibn al-ʻArabi's Metaphysics of Imagination*. Albany: SUNY Press.

3. Qūnawī, Ṣadr al-Dīn. (2008). *Al-Nafahāt al-Ilāhiyya*. Tehran: Institute of Islamic Studies.

4. Aminrazavi, M. (2013). Sufism and the Concept of Peace. *International Journal of Islamic Thought*, 4(1)

5. Nasafī, ʻAzīz al-Dīn. (1999). *The Perfect Man (Insān Kāmil)*. Trans. by D.L. Pendlebury. London: Octagon Press.

6. Kūng, H. (1993). *Global Responsibility: In Search of a New World Ethic*. New York: Crossroad.

7. Taylor, C. (1994). *Multiculturalism: Examining the Politics of Recognition*. Princeton: Princeton University Press.



TURKISTONDA BOSHQARUVNI MAHALLIYLASHTIRISH VA TUROR RISQULOVNING DAVLATCHILIK ISLOHOTLARI

Qandov Bahodir Mirzayevich, Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasida dotsenti

LOCALIZATION OF GOVERNANCE IN TURKESTAN AND STATE REFORMS OF TUROR RYSKULOV

Kandov Bakhadir Mirzaevich, Chirchik State Pedagogical University Associate Professor of the Department of "National Idea, Fundamentals of Spirituality and Legal Education"

ЛОКАЛИЗАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ В ТУРКЕСТАНЕ И ГОСУДАРСТВЕННЫЕ РЕФОРМЫ ТУРОРА РЫСКУЛОВА

Кандов Бахадир Мирзаевич, доцент кафедры «Национальная идея, основы духовности и правового воспитания» Чирчикский государственный педагогический университет



<https://orcid.org/0009-0002-1923-2138>

e-mail:
kandov1976@mail.ru



Annotatsiya: Ushbu maqolada T.Risqulovning Turkiston ASSRdagi siyosiy va tashkilotchilik faoliyatini, xususan Turkistonda boshqaruv tizimidagi qayta tashkil etish ishlarini arxiv hujjatlari va manbalar asosida yoritilgan. Maqolada Turkistondagi boshqaruv organlarida mahalliy xalq vakillarining ishtirok darajasi, davlat apparatini qisqartirish va uni mahalliy hayotga yaqinlashtirish, kadrlar masalasi va markazlashtirish muammolari tahlil qilingan. Turkiston tarixida boshqaruvni mahalliyashtirishning ilk modellaridan biri sifatida Risqulovning islohotlarini tahlil qilish orqali nafaqat o'sha davr voqeligini ochib berish, balki bugungi davlat boshqaruvi tizimi uchun ham muhim xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: Turor Riskulov, Turkiston, "milliy ziyolilar", "milliy kommunistlar", xalq xo'jaligi, mahalliyashuv, boshqaruv organlari, mahalliy xalq vakillari.

Abstract: The article examines the political and organizational activities of T. Ryskulov in the Turkestan ASSR, in particular, the reorganization of the administrative system of Turkestan based on archival documents and sources. The level of participation of the local population in the work of the governing bodies of Turkestan, the reduction of the state apparatus and its approximation to local life, personnel issues and centralization problems are analyzed. The analysis of Ryskulov's reforms, which are one of the first models of local government in the history of Turkestan, allows not only to reveal the realities of that period, but also to draw important conclusions for the modern system of public administration.

Keywords: Turor Riskulov, Turkestan, "national intelligentsia", "national communists", national economy, localization, authorities, representatives of the local population.

Аннотация: В статье рассматривается политическая и организаторская деятельность Т.Рыскулова в Туркестанской АССР, в частности, реорганизация административной системы Туркестана на основе архивных документов и источников. Анализируются уровень участия местного населения в работе органов управления Туркестана, сокращение государственного аппарата и его приближение к местной жизни, кадровые вопросы и проблемы централизации. Анализ реформ Рыскулова, являющихся одной из первых моделей местного управления в истории

Turkistana, позволяет не только раскрыть реалии того периода, но и сделать важные выводы для современной системы государственного управления.

Ключевые слова: *Турор Рискулов, Туркестан, «национальная интеллигенция», «национал-коммунисты», народное хозяйство, локализация, органы власти, представители местного населения.*

KIRISH. XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlar, mustamlakachilik tizimining murakkab oqibatlar va milliy ozodlik harakatlarining kuchayishi mahalliy siyosiy elita, jumladan, Turor Risqulov kabi yirik davlat arboblarning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Turor Risqulov faoliyati aynan shunday tarixiy murakkab sharoitda boshlanib, u nafaqat Turkistonning siyosiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, balki boshqaruv tizimidagi islohotlar orqali xalqning siyosiy ongi va mustaqillik g'oyalarning shakllanishiga katta hissa qo'shdi.

Turkistonda bolsheviklar tomonidan o'rnatilgan sovet rejimi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatidan oshib tushdi [1, 164-171]. Mustamlakachilik davrida Turkiston o'lkasining boshqaruv tizimida mahalliy xalq manfaatlarini e'tibordan chetda qolgan, boshqaruv markazdan kelgan kadrlar tomonidan amalga oshirilgan va bu holat xalq bilan davlat o'rtasida uzoqlikka sabab bo'lgan. Turor Risqulov aynan shu muammoni yechish, mahalliy xalqni davlat boshqaruviga faol jalb qilish, idoralarning xalq ehtiyojlariga yaqinlashtirilishi uchun izchil harakat qilgan.

Ushbu kichik tadqiqot orqali Turor Risqulovning davlatchilik faoliyati yanada chuqurroq o'rganiladi, uning ilmiy-amaliy faoliyati tarixiy voqelik bilan uyg'unlashgan holda tadqiq qilinadi va bu orqali uning merosi bugungi kun uchun ham dolzarb ekani yana bir bor isbotlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Turkiston milliy kommunistlar faoliyati mavzusi o'rganuvchi tarixiy adabiyotlar sirasiga sovet hokimiyati yillarida yaratilgan tadqiqotlar, chop etilgan maqola, risola va monografiyalar kiradi. Bularga: G. Safarov, N. Borisov, T. Risqulov, F. Xo'jayev, P. Alekseyenkov, S. Xo'janov, N. To'raqulov, R. Inog'omov, P. Galuzo singari davlat va siyosat arboblarning turli kitoblarida hamda sovet hokimiyatining keyingi o'n yilliklarida chop etilgan tadqiqotlarda mazkur muammoning ba'zi jihatlari yoritilgan.

Mustaqillik yillarida yaratilgan R. Rajapova, R. Murtazayeva, R. Abdullayev, S. A'zamxo'jayev, D. Bobojonova, Q. Rajabov, A. Golovanov, R. Shamsutdinov, D. Ziyayeva, B. Hasanov, M. Haydarov, X. Yunusova va boshqa tarixchilarning tadqiqotlari kiradi. Shuningdek, O'zbekistondagi yirik tarixchi olimlar tomonidan tayyorlangan turli kollektiv monografiyalar [2] va fundamental tadqiqotlarda hamda turli darsliklar va ma'lumotnomalarda Turkistonda milliy kommunistlar faoliyatining ba'zi jihatlari ko'rsatilgan.

MUHOKAMA. T. Risqulov Turkiston Xalq Komissarlari Soveti raisligiga saylanganidan keyin boshqa yirik tadbirlar qatorida davlat boshqaruv apparatini qisqartirish, uning uyg'un ishlashini ta'minlash masalasiga ham e'tibor qaratdi. 1922-yil kuzida respublikaning turli darajadagi boshqaruv apparatida 110 ming kishi xizmat qildi. 1922-yil dekabrda respublika tashkilotlari va komissarliklarining shtatlari qayta tasdiqlandi. T. Risqulov boshchiligida Turkiston shtabi komissiyasi 1923-yil 1-yanvardan boshlab respublika boshqaruv apparatida xodimlar sonini 11170 kishi etib belgiladi [3].

Davlat apparatini qisqartirish bilan bir qatorda uning malakasini oshirish va mahalliy lashtirish dolzarb masalaga aylandi. Davlat apparatini Turkistonning o'ziga xosligi va aholisining turmush sharoitiga moslashtirish zarur edi. Aparat tarkibiga mahalliy xalqlarning tilini, urf-odatlarini, iqtisodiy sharoitlarini yaxshi biladigan va shu xususiyatlarni hisobga olgan holda boshqaruvni amalga oshira oladigan xodimlar kiritilishi kerak edi. Kadrlarning milliy tarkibi ham alohida rol o'ynadi. Turkiston ASSR Markaziy ijroya qo'mitasi (Turkkomitet)ning 1923 yildagi ma'lumotlariga ko'ra, Turkistonda jami 7200 ming kishilik 20 dan ortiq millat vakillari yashagan. Ulardan: o'zbeklar – 3.384 ming (47%), qozoqlar va qirg'izlar – 2.232 ming (31%), ruslar – 720 ming (10%), turkmanlar – 360 ming (5%) va boshqalar – 504 ming (7%) [4]. Turkistonda milliy masalaning asosiy masalalaridan biri turli millat vakillarining davlat boshqaruviga qay darajada

kiritilganligi edi. 1923-yilda respublika miqyosida partiya xodimlarining soni 252 kishini, viloyat miqyosida 518 nafarni, okrug miqyosida 486 nafarni, umumiy soni esa 1256 kishini tashkil etdi [5, 77]. Ularning millatiga ko'ra aniqlanganda quyidagi xulosalar chiqarildi: ruslar – 745, yahudiylar – 79, boshqa yevropaliklar – 88, o'zbeklar – 141, qozoqlar va qirg'izlar – 70, turkmanlar – 21, tojiklar – 16, tatarlar – 64, boshqalar – 23 kishi. O'sha paytda viloyat aholisining 10 foizini tashkil qilgan yevropaliklar respublika partiya xodimlarining 60 foizga yaqinini tashkil qilgan. Partiya xodimlarining umumiy sonining 76,2 foizi yevropaliklar, 27,4 foizi esa mahalliy yoki butunlay mahalliy aholi edi. Mahalliy aholi orasida: o'zbeklar 41%, qozoqlar va qirg'izlar 20%, tatarlar 18%, tojiklar 8% edi. Respublika markaziy partiya organlari va muassasalarida 85,7% yevropalik ishchilar, 14,3% esa mahalliy yoki butunlay mahalliy aholi edi [5, 78].

Bu ma'lumotlar respublika partiya tashkilotlari boshqaruv organlarida mahalliy aholi vakillarining yetarli darajada emasligini ko'rsatadi; respublika kengashlari va iqtisodiyot tarmoqlari boshqaruv organlarida ham shunday holat kuzatildi. Shuning uchun boshqaruv organlarini mahalliy lashtirish katta ahamiyatga ega edi.

NATIJALAR. Davlat boshqaruvi apparatini qisqartirish, safarbar qilish va mahalliy lashtirish maqsadida T.Risqulov Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Sovetining 1923-yil 17-yanvardagi 14-sonli "Sovet muassasalarini safarbar etish to'g'risida"gi qarorini kiritdi [6]. Qarorga ko'ra, respublika xalq komissarliklari va tashkilotlari, agar imkon bo'lsa, ikki hafta ichida ularning sonini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ldilar. Shunday qilib, Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Soveti faoliyati ko'lami kundan-kunga kengayib bordi, bu esa T.Risqulovni o'z faoliyatini qayta tashkil etishga undadi. 1923-yil 20-fevralda T.Risqulov imzolagan "Xalq Komissarlari Soveti qoshida Kichik Kengash tuzish to'g'risida"gi 40-sonli qaror e'lon qilindi. Qarorga ko'ra, Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Soveti qoshida Katta va Kichik Kengashlar tuzildi. Kichik Kengashning vazifalari quyidagilardan iborat edi: a) Katta Kengash muhokamasiga kiritilgan barcha masalalarni ishlab chiqish va ularga dastlabki huquqiy izoh berish, masala yakuniy qabul qilingandan keyin esa – uning bajarilishini nazorat qilish; b) barcha xalq

komissarliklari va tashkilotlari Markaziy Qo'mitasiga yuborilgan hisobot va hujjatlarni qabul qilish va ularni dastlabki muhokamadan keyin Katta Kengashga taqdim etish; v) muddatidan oldin tayyorlangan hujjatlar va hisobotlarni qaytarish va boshqa masalalarni hal qilish.

Kichik Kengashning tarkibi Katta Kengash tomonidan tasdiqlanadi. Katta Kengash yakuniy muhokamadan keyin Kichik Kengash tomonidan tayyorlangan barcha rezolyusiya va qarorlarni tasdiqlaydi [7].

1923-yil 21-fevralda T.Risqulov Turkiston ASSR Markaziy ijroya qo'mitasi raisligidagi Kichik majlisida Xalq Komissarlari Soveti Kichik Sovetini tuzish masalasi haqida ma'ruza qildi. Nodirboy Aytakov (rais), a'zolari – Azarx, M.Biserov, B.Aralboyev va A.S. Kisevlardan iborat Xalq Komissarlari Sovetining Kichik Soveti tuzildi. Yig'ilishda T.Risqulov Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi Moliya qo'mitasini tashkil etish va Ichki savdo xalq komissarligini tuzish masalalari to'g'risida ma'ruza qildi. Moliya qo'mitasini Xalq Komissarlari Soveti raisi T.Risqulov, o'rinbosari – N.Paskuskiy, a'zolari – N.Aytakov, Ivelov, Hamitxonovlar tasdiqladilar. Yangi tayinlangan ichki savdo xalq komissari lavozimiga N.Paskuskiy, muovini - Rozental, a'zosi – Hamitxonov tasdiqlandi [8]. T.Risqulov boshchiligida Xalq Komissarlari Sovetida amalga oshirilgan bu qayta tashkil etish chora-tadbirlari boshqaruv apparati faoliyatini yanada muvofiqlashtirishga sezilarli yordam berdi.

T.Risqulov Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Soveti faoliyatini takomillashtirish uchun uning markaziy boshqaruv apparati tarkibida turli komissiya va qo'mitalar tashkil etib, ularga rahbarlik qilish uchun malakali mutaxassislarni tayinladi. Masalan, 1923-yilda Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Soveti tarkibida quyidagi komissiya va qo'mitalar faoliyat ko'rsatgan: Turkiston Xo'jalik Sovetining Hakamlik komissiyasi; Uy-joy masalasi bo'yicha komissiya; Qozoq va qirg'iz qochqinlarini Xitoyga qaytarish komissiyasi (1923-yil 23-aprelda tuzilgan). Rais – S.Asfandiyorov); Davlat apparati ishini nazorat qilish komissiyasi; Respublikani rayonlashtirish komissiyasi (1923-yil 27-noyabrda tuzilgan. Raisi T.Risqulov); Moliya qo'mitasi (1923-yil 21-fevralda tuzilgan. Raisi – T.Risqulov); Ittifoq va respublika qonunlari, kodekslari, qarorlari va

farmoyishlarini mahalliy tillarga tarjima qilish, tuzish va nashr etish komissiyasi (tarkibida H.Do'smuhamedov); Olimlar hayotini yaxshilash komissiyasi; Rasmiy hujjatlarni mahalliy tillarga tarjima qilish komissiyasi (1923-yil 15-avgustda tuzilgan. Raisi - V.Kusherbayev). Bularndan tashqari hukumat tarkibida 30 ga yaqin turli komissiya va qo'mitalar ishlagan[9].

T.Risqulovning tashkilotchilik iste'dodi tufayli Turkiston Xalq Komissarlari Soveti ancha ixcham, muvofiqlashtirilgan va malakali ish apparatiga aylandi. Xalq Komissarlari Soveti respublika xalq xo'jaligini tiklash va rivojlantirishni boshqarish qobiliyatiga ega bo'ldi.

Toshkentda 1923-yil 11-16-mart kunlari bo'lib o'tgan Turkiston kommunistik partiyasi (TKP)ning VII syezdida T.Risqulov partiyasiz yoshlar o'rtasidagi ishlar to'g'risida ma'ruza qildi[10, 1-17]. 1923-yil 16-martda Turkiston kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining Plenumi Ijroiya byurosining yangi tarkibini tasdiqladi. Unga: Y.Aliyev, O.Jandosov, SH.Islomov, D.Manjara, T.Risqulov, V.Solovyev va M.S.Epshteyn, S.Asfandiyorov, Aleksandr Moiseyevich Rozenblyum va Aron Abramovich Sexer nomzodlar etib saylandi. M. Epshteyn Turkiston kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti kotibi etib tasdiqlandi[11, 316].

T.Risqulov 1923-yil 17-25-sentabrda Moskvada bo'lib o'tgan RK(b)P 12-s'ezdi ishida qatnashdi va I.V.Stalinning milliy masala bo'yicha ma'ruzasi muhokamasida ma'ruza qildi. Bu davrda yangi iqtisodiy siyosat kuchayib borardi. Erkin savdning o'rnatilishi munosabati bilan tovar-pul munosabatlari jadal rivojlandi. Bu esa iqtisodning tiklanishiga to'siqlar tug'dirdi, hali milliy ishchilar sinfi shakllanmagan, aholisi asosan dehqonlardan iborat bo'lgan respublikalarda mustamlakachi unsurlarning tiklanishi uchun sharoit yaratildi. Binobarin, T.Risqulov milliy masalani hal etishda iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish lozimligini, "milliy masala... kundalik xo'jalik va sovet qurilishida, xo'jalikda, xo'jalik masalalarini hal etishda yotadi"[12, 551], deb ta'kidladi.

T.Risqulov iqtisodiy siyosatga alohida e'tibor beradi. "Alohida jihat, - deydi u, - ishlab chiqarishni xomashyo manbalariga yaqin joyda joylashtirish... Bunday sharoitda ishlab chiqarishni mahalliy hududlarga o'tkazish iqtisodiy rayonlashtirish tamoyiliga to'g'ri keladi". T.Risqulov ma'ruzasida

quyidagi beshta taklif bor: *birinchidan*, ittifoq va respublikalar o'rtasidagi munosabatlarni ularga alohida huquqlar berish orqali qonuniylashtirish; *ikkinchidan*, millatlararo munosabatlarni huquqiy tartibga solish bo'yicha maxsus vakolatlariga ega "millatlar palatasi"ni tashkil etish; *uchinchidan*, milliy masalaning yechimini iqtisodiy mexanizmga asoslash; *to'rtinchidan*, rejalashtirishda tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarini xom ashyo manbalariga yaqinroq joylashtirish, chunki bu chora, bir tomondan, mahalliy milliy ishchilar sinfini shakllantirsa, ikkinchi tomondan, mahsulot tannarxini pasaytirib, iqtisodiy jihatdan samarali foyda olishni ta'minlaydi; beshinchidan, iqtisodiy rayon (respublika)ning yagona iqtisodiy tizimi shakllantiriladi va bu shahar va qishloq, ishchilar sinfi va dehqonlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlagan uchun ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ko'rsatkichdir.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Turor Risqulovning Turkiston Xalq Komissarlari Soveti raisi sifatida olib borgan faoliyati, xususan davlat boshqaruvini mahalliyalashtirish va tub aholini siyosiy jarayonlarga jalb etishga qaratilgan say-harakatlari mukammal tahlil qilish hozirgi vaqtda ham dolzarbdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Risqulov rahbarligidagi islohotlar o'z vaqtidagi eng ilg'or boshqaruvchilik konsepsiyalaridan biri bo'lgan va mahalliy siyosiy elitaning shakllanishida katta o'rin tutgan.

Turor Risqulovning davlatchilik islohotlari, xalqni boshqaruvga jalb etish borasidagi siyosiy faoliyati va boshqaruvda mahalliylik tamoyilini ilgari surishi nafaqat o'sha davr, balki bugungi kunda ham dolzarb va o'rganilishi zarur bo'lgan masalalar qatoridadir. Uning ilmiy va amaliy tajribasi, milliy siyosiy merosi mamlakatimizda boshqaruvni takomillashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish va demokratik institutlarni mustahkamlash yo'lida muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rajabov Q. O'zbekiston 1917-1924 yillarda: mustabid sovet tuzumining qaror topishi // O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Tom 12. – Toshkent: O'zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 164-171.
2. Qandov Bahodir Mirzayevich. Turkistonda kadrlarni mahalliyalashtirish siyosatida Turor

- Risqulovning roli (XX asrning 20-30-yillari). // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti jurnali. № 12. – Buxoro: 2024. – 60-65 betlar.
3. Туркестанская правда. – Ташкент, 27 марта 1923. № 64 (355). – С.2-6.
 4. Известия (Москва). 3 ноября 1923. № 251.
 5. Отчет СК КПТ с VI съезда по VIII-ой съезд КПТ. – Т., 1923. – С.77.
 6. O‘zbekiston Milliy arxivi, R-25-fond, 1-ro‘yxat, 1145-ish, 11-varaq.
 7. O‘zbekiston Milliy arxivi, R-25-fond, 1-ro‘yxat, 1152-ish, 63-varaq.
 8. O‘zbekiston Milliy arxivi, R-17-fond, 1-ro‘yxat, 323-ish, 64-varaq.
 9. O‘zbekiston Milliy arxivi, R-25-fond, 1-ro‘yxat, 1171-ish, 108-varaq orqa beti.
 10. Бюллетень ВИИ краевого съезда КПТ. № 8. – Т., 1923. – С.1-11, 15-17.
 11. Образование и деятельность КПТ (Летопис события). – Т., 1968. – С.316.
 12. Двенадцатый съезд РКП (б). 17-25 апреля 1923 г. Стен, отчет. – М., 1968. – С.511.
 13. Qandov Bahodir Mirzayevich. Atoqli davlat va jamoat arbobi Turor Risqulovning turkiston iqtisodiyotining integratsiyalashuvi sohasidagi tashabbuslari. TAMADDUN NURI JURNALI. 10, 61 (Okt.2024),103–106.
DOI:<https://doi.org/10.69691/q8me2070>



VIRTUAL EKOLOGIYA – RAQAMLI DAVRDA TABIAT VA INSON UYG‘UNLIGI FALSAFASI

*Maxmudov G‘ayrat Xikmatilloevich, Shahrizabz davlat
pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida o‘qituvchisi*

VIRTUAL ECOLOGY - PHILOSOPHY OF HARMONY BETWEEN NATURE AND MAN IN THE DIGITAL AGE

*Makhmudov Gayrat Khikmatilloevich, Shakhrisabz State
Pedagogical Institute Teacher, Department of Social Sciences*

ВИРТУАЛЬНАЯ ЭКОЛОГИЯ – ФИЛОСОФИЯ ГАРМОНИИ ПРИРОДЫ И ЧЕЛОВЕКА В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ

*Махмудов Гайрат Хикматиллоевич, Шахрисабзский
государственный педагогический институт
Преподаватель кафедры общественных наук*



<https://orcid.org/0009-0007-7190-6319>

e-mail:
gayratxikmatillayevich@gmail.com

Annotatsiya: Virtual ekologiya — zamonaviy raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalangan holda ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan falsafiy tahlil yo‘nalishidir. Ushbu yondashuv inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni virtual muhitda modellashtirish, ekologik xavflarni oldindan bashorat qilish hamda barqaror rivojlanish tamoyillarini hayotga tatbiq etishga yordam beradi. Maqolada virtual ekologiyaning nazariy asoslari, amaliy qo‘llanilishi va ekologik ongning shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: virtual ekologiya, raqamli texnologiyalar, falsafiy tahlil.

Abstract: Virtual ecology is a branch of philosophical analysis aimed at addressing environmental problems through the use of modern digital technologies. This approach enables the modeling of human–nature interactions in virtual environments, forecasting environmental risks, and applying sustainable development principles in practice. The article examines the theoretical foundations of virtual ecology, its practical applications, and its role in shaping ecological awareness.

Keywords: virtual ecology, digital technologies, philosophical analysis.

Аннотация: Виртуальная экология — это направление философского анализа, ориентированное на решение экологических проблем с использованием современных цифровых технологий. Такой подход позволяет моделировать взаимодействие человека и природы в виртуальной среде, прогнозировать экологические риски и внедрять принципы устойчивого развития в практику. В статье рассматриваются теоретические основы виртуальной экологии, её практическое применение и роль в формировании экологического сознания.

Ключевые слова: виртуальная экология, цифровые технологии, философский анализ.

Kirish. XXI asr insoniyat taraqqiyotining eng keskin burilish davrlaridan biri bo‘lib, unda raqamli texnologiyalar hayotning barcha jabhalariga kirib keldi. Globalizatsiya, raqamli transformatsiya, sun‘iy intellektning keng joriy etilishi va axborot oqimining keskin tezlashuvi nafaqat iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarni, balki ekologik muammolarni anglash va ularni hal etish usullarini

ham tubdan o‘zgartirmoqda. Shu bilan birga, iqlim o‘zgarishi, cho‘llanish, suv resurslari tanqisligi, atmosfera va okeanlarning ifloslanishi kabi global ekologik muammolar butun insoniyat kelajagini xavf ostiga qo‘ymoqda [4, 56].

Bunday sharoitda ekologik ongning shakllantirish va tabiatni asrash masalasi faqat an‘anaviy ekologiya fani doirasida emas, balki

yangi, integrativ yondashuv — virtual ekologiya konsepsiyasi doirasida ham ko‘rib chiqilmoqda. Virtual ekologiya tushunchasi raqamli texnologiyalar vositasida ekologik bilimlarni yetkazish, ekologik vaziyatni monitoring qilish, barqaror rivojlanishga oid axloqiy qadriyatlarni keng jamoatchilik orasida targ‘ib etish, shuningdek, inson-tabiati munosabatlarini falsafiy va amaliy jihatdan qayta talqin qilish jarayonini anglatadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning ta’kidlashicha, “ekologiya — bu kelajak avlodlar oldidagi eng muqaddas burchimiz” [1, 41]. Bu fikr zamonaviy virtual ekologiya yondashuvining maqsadi bilan uyg‘un bo‘lib, raqamli davrda tabiatga mas’uliyatli munosabatni shakllantirishning dolzarbligini ko‘rsatadi. Virtual ekologiya orqali ekologik ma’lumotlarni tezkor, aniq va vizual tarzda yetkazish, masalalarni keng muhokama maydoniga olib chiqish, ekologik loyihalarga ko‘proq insonlarni jalb qilish imkoniyati mavjud. Virtual ekologiya — bu raqamli texnologiyalar vositasida ekologik jarayonlarni o‘rganish, tahlil qilish va ularni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan yangi ilmiy-amaliy yo‘nalishdir. U nafaqat ekologik monitoring va virtual ta’limni, balki inson va tabiat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni raqamli maydon orqali falsafiy asoslarda qayta talqin qilishni ham o‘z ichiga oladi [4, 59].

Falsafiy nuqtai nazardan virtual ekologiya uch asosiy tamoyilga tayanadi:

1. Antropotsentrizm va biotsentrizm uyg‘unligi – an’anaviy antroposentrik qarashlarda tabiat inson ehtiyojlariga xizmat qiluvchi resurs sifatida ko‘rilgan. Virtual ekologiya esa biotsentrik yondashuvni ham o‘z ichiga olib, tabiatning mustaqil qadriyat sifatidagi o‘rnini tan oladi [6, 91].

2. Ekologik axloq va ma’naviyat – ekologik qarorlar texnik va iqtisodiy manfaatlar bilan bir qatorda axloqiy-me’yoriy mezonlar asosida qabul qilinishi zarur. O‘zbek ma’naviy merosida, xususan, tasavvuf ta’limotida tabiat Yaratganning go‘zalligi va hikmatining in’ikosi sifatida talqin qilinadi [8, 85].

3. Texnologiya va barqaror rivojlanish integratsiyasi – virtual ekologiya sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), “aqlli” sensorlar va geoinformatsion tizimlar yordamida ekologik jarayonlarni kuzatish va tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi [7, 44]. Bu esa ekologik siyosatni ilmiy

asoslash va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Prezident Sh. Mirziyoyevning ta’kidlashicha, zamonaviy texnologiyalar “yashil” iqtisodiyot va ekologik xavfsizlikni ta’minlashda hal qiluvchi vosita bo‘lishi kerak [1, 215]. Virtual ekologiya konsepsiyasi aynan ana shu strategik yondashuvning falsafiy talqinidir. Raqamli texnologiyalar zamonaviy ekologik jarayonlarni tushunish va boshqarishda beqiyos imkoniyatlar yaratmoqda. Ular yordamida ekologik ma’lumotlar tezkor ravishda yig‘iladi, qayta ishlanadi va tahlil qilinadi, bu esa muammolarni erta aniqlash va ularni hal etish bo‘yicha aniq strategiyalar ishlab chiqishga zamin yaratadi [5, 102]. Shu sababli, raqamli texnologiyalar ekologik ongni shakllantirish va mustahkamlash jarayonida strategik vosita sifatida qaralmoqda. Sun’iy intellekt (AI), katta ma’lumotlar (Big Data) va Internet of Things (IoT) kabi texnologiyalar havoning ifloslanish darajasi, suv resurslarining holati, o‘rmonlarning maydoni yoki dengiz ekotizimlari haqida aniq va muntazam ma’lumot beradi. Masalan, “aqlli” sensorlar yordamida havodagi zararli moddalarning darajasi aniqlanib, real vaqt rejimida ogohlantirishlar yuboriladi [7,44]. Bunday tizimlar ekologik inqirozlar boshlanishidan oldin ularni bashoratlash imkonini ham beradi. Onlayn ta’lim platformalari va mobil ilovalar ekologik bilimlarni keng jamoatchilikka yetkazishda muhim vositaga aylandi. Masalan, raqamli ekotrenajyorlar (VR simulyatorlar) insonni iqlim o‘zgarishi oqibatlarini virtual muhitda “his qilish” imkoniyatiga ega qiladi. Bu tajriba oddiy ma’lumotdan ko‘ra kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi, chunki u odamni muammoga shaxsiy jihatdan daxldor his qilishga undaydi [4, 121]. Gamifikatsiya usullari orqali ekologik xatti-harakatlarni rag‘batlantirish tobora ommalashmoqda. Masalan, ayrim shaharlar aholisiga chiqindilarni saralash yoki energiyani tejash orqali “virtual ball” berib, ularni real mukofotlar bilan rag‘batlantiradi. Bu yondashuv ekologik ongni amaliy faoliyat bilan bog‘lashga yordam beradi [6, 135]. Facebook, Instagram, Telegram kabi platformalar ekologik muammolarni ommalashtirish va ekologik aksiyalarni uyushtirishda katta rol o‘ynamoqda. Bu tarmoqlar ekologik ongni global miqyosda shakllantirish va odamlarni birlashishga undash imkonini beradi. Masalan, #ZeroWaste yoki #FridaysForFuture kabi xalqaro ekologik harakatlar asosan raqamli

platformalarda kuchayib, millionlab odamlarni qamrab oldi [7, 158].

5. Milliy strategiya va texnologik integratsiya

Prezident Sh. Mirziyoyev O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot" strategiyasida zamonaviy texnologiyalarni ekologik sohalarga keng joriy etish zarurligini ta'kidlab, "Ekologik xavfsizlikni ta'minlash — bu davlat va jamiyat oldidagi eng ustuvor vazifalardan biridir" deya qayd etgan [1, 215]. Bu yondashuv virtual ekologiya konsepsiyasining davlat siyosatiga singib borayotganidan dalolat beradi.

Raqamli texnologiyalar ekologik ongni shakllantirishda uch asosiy vazifani bajaradi: tezkor axborot yetkazish, ta'lim va tarbiya berish, hamda ijtimoiy faollikni kuchaytirish. Bu uch yo'nalish birgalikda nafaqat ekologik muammolarni yengillashtirish, balki barqaror rivojlanish uchun mustahkam axloqiy va ilmiy poydevor yaratishga xizmat qiladi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev ham bu borada: "Ekologik xavfsizlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish — kelajak avlod oldidagi muqaddas burchimizdir. Atrof-muhitni asrash madaniyati har bir fuqaroning ichki ehtiyojiga aylanishi kerak" deya ta'kidlaydi [1, 215]. Ushbu fikr zamirida tasavvufiy g'oyalarga xos bo'lgan mas'uliyat va mehr-shafqat tamoyillari yotadi.

Xulosa. Zamonaviy davrda esa ushbu an'ana "virtual ekologiya" konsepsiyasiga uyg'un ravishda yangi mazmun kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar insoniyatga tabiatni kuzatish, muhofaza qilish va targ'ib qilish imkoniyatlarini kengaytirib bermoqda. Shu bilan birga, tasavvufda ilgari surilgan axloqiy mezonlar — halollik, ehtiyotkorlik, isrofdan tiyilish va barcha mavjudotga rahm-shafqat bilan qarash — raqamli davrda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Demak, tasavvuf va milliy falsafada shakllangan tabiat–inson uyg'unligi g'oyasi nafaqat tarixiy meros, balki bugungi ekologik muammolarni hal etishda ham muhim ma'naviy asos bo'lib xizmat qilmoqda [8, 92].

Shu tariqa, u ekologik xulq-atvorni shakllantirish, tabiatga nisbatan mas'uliyat hissini kuchaytirish va barqaror rivojlanish tamoyillarini keng yoyishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Virtual ekologiya texnologiya va ekologiyani

uyg'unlashtirgan holda kelajak avlodlar uchun yanada qulay, xavfsiz va barqaror hayot sharoitlarini yaratishda strategik ahamiyat kasb etadi. U nafaqat ekologik muammolarni bartaraf etishda, balki inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni mustahkamlashda ham muhim falsafiy-axloqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi [1, 42].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021. — 464 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. — Toshkent: O'zbekiston, 2017. — 488 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008. — 176 b.
4. Xoliqov A. Ekologik falsafa. — Toshkent: Fan, 2015. — 224 b.
5. Ahmedov N. Raqamli texnologiyalar va barqaror rivojlanish. — Toshkent: Innovatsiya, 2020. — 190 b.
6. Bekmurodov M. Falsafa asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. — 312 b.
7. Alimov S. Tasavvuf va ekologik ong. — Samarqand: Registon, 2019. — 156 b.
8. Эркаев А. Ўзбек тасаввуф фалсафаси: тарих ва замонавий талқинлар. — Тошкент: Фан, 2019. — 256 б.
9. Куръони Карим. — Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёти, 2018. — 604 б.
10. Ҳожи Ҳ. Тасаввуф ва экологик маданият. — Тошкент: Маънавият, 2020. — 184 б.
11. Ислom таълимотида табиат ва инсон муносабатлари // Ислomшунослик журнали. — 2022. — №2. — Б. 89–98.
12. Ҳамидов А. Миллий меросда экологик кадриятлар. — Самарқанд: Зарафшон, 2018. — 200 б.
13. Куръон ва ҳадисда табиатни муҳофаза қилиш тамойиллари // Фалсафа ва ҳаёт. — 2021. — №4. — Б. 90–97.
14. Норматов У. Тасаввуф таълимотида инсон ва табиат муносабатлари. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. — 312 б.

EKOLOGIK TAHDIDLAR VA ULARNING MILLIY FALSAFIY TAFAKKURDAGI O'RNI

*Raxmatova Muxayyo Elboboyevna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi*

ECOLOGICAL THREATS AND THEIR ROLE IN NATIONAL PHILOSOPHICAL THINKING

*Rakhmatova Mukhayyo Elboboyevna,
Shakhrisabz State Pedagogical Institute
Teacher, Department of Social Sciences*

ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ УГРОЗЫ И ИХ РОЛЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ФИЛОСОФСКОЙ МЫСЛИ

*Рахматова Мухайё Элбобоевна,
Шахрисабзский государственный педагогический
институт, преподаватель кафедры общественных наук*



<https://orcid.org/0009-0000-5308-7777>

e-mail:
muxayyo.raxmatova@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy ekologik tahdidlarning turlari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga va milliy falsafiy tafakkurga ta'siri tahlil qilinadi. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabi omillar milliy falsafada qanday talqin etilishi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ekologik tahdidlar, milliy falsafa, ekologik ong.

Abstract: the article examines modern environmental threats and their impact on socio-economic processes and national philosophical thought. Special attention is paid to climate change, depletion of natural resources, and loss of biodiversity.

Keywords: environmental threats, national philosophy, environmental awareness.

Аннотация: В статье анализируются виды современных экологических угроз и их влияние на социально-экономические процессы и национальное философское мышление. Особое внимание уделено проблемам изменения климата, сокращения природных ресурсов и утраты биологического разнообразия.

Ключевые слова: экологические угрозы, национальная философия, экологическое сознание.

Kirish. Zamonaviy davrda barqaror rivojlanishni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni mustahkamlash masalalari davlat siyosati darajasida nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Prezident Sh. Mirziyoyev o'z asarlarida "Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi masalalari milliy taraqqiyotimizning ajralmas qismi bo'lishi kerak" deya alohida ta'kidlaydi [1, 56]. Davlat rahbarining bu fikri ekologik siyosatni faqatgina texnik va huquqiy choralar majmui sifatida emas, balki milliy qadriyatlar, tarixiy meros va ma'naviy madaniyat bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida talqin etish zarurligini ko'rsatadi [2, 14].

So'nggi o'n yilliklarda iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, suv resurslarining ifloslanishi, tuproq degradatsiyasi va cho'llanish kabi ekologik muammolar global darajada keskinlashib bormoqda [3, 45]. Jahon meteorologiya tashkiloti, BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP), Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN) va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar hisobotlarida ushbu tahdidlarning inson salomatligi, iqtisodiyot va madaniyatga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri alohida qayd etilmoqda. Masalan, 2023-yilgi Global iqlim hisobotida ta'kidlanishicha, haroratning 1,5 °C dan yuqori ko'tarilishi butun sayyora ekotizimlariga qaytarib bo'lmaydigan zarar yetkazishi mumkin. Mazkur jarayonlar nafaqat

tabiiy muhitga, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga, aholining turmush darajasi va milliy madaniyatning barqarorligiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda [4, 33]. Ekologik tahdidlar — bu tabiiy muhitning degradatsiyasi yoki tabiiy resurslarning kamayishi oqibatida yuzaga keladigan, jamiyat hayoti, iqtisodiy barqarorlik va inson salomatligiga xavf tug'diruvchi omillardir [5, 21]. Bu jarayonlar ko'pincha ikki asosiy manbadan kelib chiqadi. Birinchisi — inson faoliyati natijasida yuzaga keladigan antropogen omillar: sanoat korxonalarining chiqindilari, urbanizatsiya jarayonining tezlashuvi, o'rmonlarning kesilishi, qishloq xo'jaligida pestitsid va mineral o'g'itlardan ortiqcha foydalanish, chiqindi poligonlarining to'planishi. Ikkinchisi esa — tabiiy jarayonlar: qurg'oqchilik, zilzila, vulqon otilishi, kuchli bo'ron va toshqinlar, dengiz sathining ko'tarilishi kabi tabiiy ofatlar [6, 88].

Hozirgi davrda eng jiddiy ekologik tahdidlar qatoriga global isish, cho'llanish, yer va suv resurslarining tanqisligi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, chiqindilarni qayta ishlash muammosi, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligining pasayishi kiradi [7, 42]. Masalan, BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) hisobotiga ko'ra, so'nggi 50 yil ichida inson faoliyati natijasida sutemizuvchilar, qushlar va baliqlarning umumiy populyatsiyasi o'rtacha 60 foizga qisqargan [8,12]. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ekologik tahdidlarni kamaytirish uchun turli davlatlar milliy strategiyalar va konseptual dasturlar ishlab chiqmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqida “Yashil kelishuv” (Green Deal) dasturi qabul qilinib, unda karbonat chiqindilarini 2050-yilgacha nol darajaga tushirish maqsadi belgilangan [9,101]. Xitoyda “Ekologik sivilizatsiya” konsepsiyasi asosida iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirish siyosati yuritilmoqda. Yaponiyada esa “3R” tamoyili (Reduce — kamaytirish, Reuse — qayta ishlatish, Recycle — qayta ishlash) asosida chiqindilarni boshqarish keng qo'llanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. “Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonun, “Ekologik nazorat to'g'risida”gi Qonun, “Yashil makon” umummilliy loyihasi va “Ekologik ta'lim va tarbiya konsepsiyasi” ana shunday hujjatlar jumlasidandir [10, 144]. Prezident Sh. Mirziyoyev o'z nutqlarida

ekologik tahdidlarni kamaytirishda aholining ekologik madaniyatini oshirish, ekologik ta'lim tizimini mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish zarurligini alohida ta'kidlab kelmoqda [1, 28]. Falsafiy nuqtayi nazardan, ekologik tahdidlar inson va tabiat o'rtasidagi tarixiy uyg'unlikning buzilishi, tabiatning inson faoliyati ustidan “javobi” sifatida talqin qilinadi [4, 63]. Bu qarash o'zbek xalqining dunyoqarashida ham chuqur ildiz otgan bo'lib, tabiat “ona”, yer esa “muqaddas” tushunchalari orqali ifodalanadi [9, 102]. Shu bois ekologik xavfsizlik masalasi faqat texnologik yoki huquqiy yechimlar bilan cheklanmay, ma'naviy, axloqiy va madaniy yondashuvlarni ham o'z ichiga olishi zarur. O'zbek xalqining falsafiy tafakkurida tabiat va inson munosabatlari qadimdan muvozanat va uyg'unlik tamoyiliga asoslangan. Bu qarashlar xalq og'zaki ijodi, marosim va urf-odatlarida, shuningdek, yozma manbalar va diniy-falsafiy asarlarda o'z ifodasini topgan. Masalan, xalq maqollarida “Suv — hayot manbai”, “Yerni e'zozlagan el bo'lar” kabi iboralar ekologik mas'uliyatning qadimiy ildizlarini ko'rsatadi [5, 24]. Navro'z bayrami kabi an'analarda daraxt ekish, yerga ishlov berish va obodonlashtirish ishlari tabiat bilan uyg'un yashash falsafasining amaliy ko'rinishidir. Shu tariqa, milliy qadriyatlar ekologik tahdidlarni bartaraf etishda nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ahamiyat kasb etmoqda. Islom ta'limotida tabiatga mehr va uni asrash masalasi nafaqat axloqiy, balki aqidaviy ahamiyatga ega bo'lgan burch sifatida talqin etiladi. Qur'oni karimda yerning va undagi ne'matlarning isrof qilinmasligi, ularni adolat va me'yor bilan ishlatish lozimligi qayta-qayta ta'kidlanadi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning hadislarida ham suvni tejash, daraxt ekish, hayvonlarga shafqat qilish kabi amallar yuqori savobli ishlardan sanaladi. Tasavvuf falsafasida esa tabiat — Xudoning yaratuvchilik go'zalligi va hikmatining in'ikosi bo'lib, inson undan foydalanishda nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy mas'uliyatni ham zimmasiga olishi lozimligi qayd etiladi [6, 92]. Milliy tarixda ekologik qadriyatlar o'zining amaliy ifodasini ham topgan. Qadimiy sug'orish tizimlari — ariq, koriz, hovuz va kanal tarmoqlarining yaratilishi, bog'rog'lar barpo etish, cho'llarni o'zlashtirish kabi amaliyotlar tabiatni “boshqarish” emas, balki u bilan uyg'un yashash tamoyiliga asoslangan [4, 37]. Buning yorqin misollarini

Amudaryo va Sirdaryo havzalarida qadimdan shakllangan suv taqsimoti an'analarida, Mirzo Ulug'bek davrida olib borilgan bog' barpo etish ishlarida, shuningdek, Xiva va Buxoro atrofidagi sug'orish inshootlarida ko'rish mumkin. Bu amaliyotlar tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning barqaror tizimini yaratgan. Zamonaviy davrda ushbu qadriyatlar davlat siyosatida ham o'z aksini topmoqda. Prezident Sh. Mirziyoyev asarlarida ekologik madaniyatni oshirish, "Yashil makon" loyihasini kengaytirish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, cho'llanishga qarshi kurash va tabiiy hududlarni muhofaza qilish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan [1, 28]. Bu yondashuv milliy falsafaning tarixiy ildizlari bilan uyg'unlashib, ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda [2, 96]. Shu jarayonda nafaqat davlat, balki fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat tashkilotlar va jamoatchilik ham faol ishtirok etishi ko'zda tutilgan.

Milliy marosimlarda ham ekologik qadriyatlar ko'rinish topadi. Ayniqsa, Navro'z bayrami doirasida daraxt ekish, ko'chat o'tqazish va obodonlashtirish ishlari o'tkazilishi tabiatga ehtirom ramzi sifatida qaraladi [9, 118]. Bundan tashqari, qishloq joylarda "Hashar" an'anasi orqali jamoaviy ravishda suv yo'llarini tozalash, bog'larni parvarish qilish, ariq va kanal tizimlarini ta'mirlash ishlari ham amalga oshirib kelingan. Bu kabi an'analar ekologik tahdidlarga qarshi kurashda nafaqat moddiy, balki ma'naviy poydevor bo'lib xizmat qiladi, chunki ular ijtimoiy birdamlik va mas'uliyat hissini mustahkamlaydi. Ekologik tahdidlar zamonaviy davrda nafaqat tabiatning muhofazasi bilan bog'liq masala, balki jamiyatning ma'naviy, axloqiy va madaniy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Iqlim o'zgarishi, suv va yer resurslarining tanqisligi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabi jarayonlar milliy taraqqiyot strategiyasida barqaror rivojlanish masalalarini birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishini talab etadi [3, 45]. O'zbek xalqining tarixiy merosi va milliy falsafiy tafakkurida tabiat bilan uyg'un yashash, resurslarni oqilona ishlatish, yer va suvga ehtirom ko'rsatish tamoyillari chuqur ildiz otgan. Bu qadriyatlar nafaqat urf-odatlar va

madaniyatda, balki diniy-falsafiy qarashlarda ham o'z ifodasini topgan [5, 24; 6, 92]. Zamonaviy davrda ushbu qadriyatlar davlat siyosatida, jumladan Prezident Sh. Mirziyoyev ilgari surgan strategik dastur va tashabbuslarda, ekologik madaniyatni oshirishga qaratilgan loyihalarda o'z aksini topmoqda [1, 28]. Milliy falsafaning ekologik tahdidlarga yondashuvi ikki asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: birinchidan, ekologiyani asrashni ma'naviy va axloqiy burch sifatida talqin etish; ikkinchidan, ekologik xavfsizlikni barqaror rivojlanish konsepsiyasining ajralmas qismi sifatida ko'rish [2, 96].

Shunday qilib, ekologik tahdidlar bilan kurashda milliy falsafiy tafakkur nafaqat nazariy asos, balki keng ko'lamlı amaliy yo'nalishlarni ham ta'minlaydi. Natijada, bunday yondashuv O'zbekistonning ekologik xavfsizligini mustahkamlash, tabiiy boyliklarni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish, ekologik infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro ekologik hamkorlikni kengaytirish imkonini beradi. Bu esa kelajak avlodlar uchun sog'lom, xavfsiz va yashashga qulay muhit yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 384 b.
2. Nazarov M. Milliy falsafa va ekologiya. – Samarqand: Zarafshon, 2019. – 180 b.
3. Axmedov B. Ekologik xavfsizlik falsafasi. – Toshkent: Fan, 2020. – 210 b.
4. Qodirov A. O'zbek xalqining ekologik an'analari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. – 140 b.
5. Alimova G. Ekologik ong va qadriyatlar. – Toshkent: Universitet, 2018. – 156 b.
6. G'afurova N. Ekologik etika asoslari. – Toshkent: Universitet, 2020. – 176 b.
7. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 350 b.
8. Hakimov A. Iqlim o'zgarishi va ekologik xavfsizlik. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 192 b.
- Saidov U. Global ekologik muammolar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 220 b

O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TARIXI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)

¹Rajabova Zarnigor Alisher qizi
Buxoro davlat universiteti magistri

²Bobojonova Feruza Xayatovna, Buxoro davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

THE HISTORY OF EDUCATION IN UZBEKISTAN (A CASE STUDY OF BUKHARA REGION)

¹Zarnigor Alisherovna Rajabova, Master’s Student, Bukhara State University

²Feruza Khayatovna Babadzhanova, Associate Professor, Candidate of Historical Sciences, Bukhara State University

ИСТОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (НА ПРИМЕРЕ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ)

¹Ражабова Зарнигор Алишеровна, магистрант Бухарского государственного университета

²Бабаджанова Феруза Хаятовна, доцент Бухарского государственного университета, кандидат исторических наук

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda oliy ta’lim rivojining tarixiy bosqichlari yechim va muammolari Buxoro viloyati misolida ma’lumotlar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: oliy o‘quv yurti, institut, universitet, Buxoro, mustaqillik.

Abstract: This article explores the historical stages, challenges, and solutions in the development of higher education in Uzbekistan, based on data from the Bukhara region.

Keywords: higher educational institution, institute, university, Bukhara, independence.


Аннотация: В данной статье на основе фактических данных рассматриваются этапы развития высшего образования в Узбекистане, его проблемы и пути их решения на примере Бухарской области.

Ключевые слова: высшее учебное заведение, институт, университет, Бухара, независимость.

Kirish. Ma’lumki ta’lim mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, g‘oyaviy-madaniy hayotining muhim tarmog‘idir. Oliy o‘quv yurtlari mamlakat ta’lim tizimida yetakchi bo‘g‘indir. Chunki oliy ta’lim maktabi O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlovchi milliy boylikning o‘shiga imkon yaratuvchi, kuchli, qat’iyatli mutaxassislar shu bo‘yinda tayyorlanadi. Oliy ta’lim

universitetlarda, institutlarda va boshqa ta’limga daxldor muassasalarda amalga oshiriladi. [9; 414]

Natijalar va muhokama. Oliy o‘quv yurtlari-xalq xo‘jaligi, fan va madaniyatning turli tarmoqlari uchun malakali mutaxassislar, ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlab berishga yo‘naltirilgan o‘quv muassasalari. Ularda bo‘lajak mutaxassislariga oliy ta’lim berishdan tashqari, nazariy va amaliy yo‘nalishdagi ilmiy ishlar ham



1

<https://orcid.org/0009-0002-6924-9181>

Zahina0207@gamil.com



2

<https://orcid.org/0000-0002-3255-2286>

bobojonova.feruza.71@mail.ru

olib boriladi, oliy va oʻrta maxsus maktablarning professor-oʻqituvchilari, tegishli yoʻnalishdagi ishlab chiqarish va madaniyat sohalarining mutaxassislari malaka oshiradilar. Oliy oʻquv yurtlariga universitetlar, tarmoq (texnika, tibbiyot, madaniyat, iqtisod va b.) institutlari, oliy harbiy yoki texnika oʻquv yurtlari, oʻquv akademiyalari, oliy maktablar kiradi.

Oliy taʼlim-jamiyat taraqqiyoti va davlatning intellektual salohiyatini belgilaydigan muhim tarbiya va taʼlim bosqichidir. U insonga kasbiy bilim, ilmiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish imkonini beradi. Jahon tajribasida oliy taʼlim jamiyatni modernizatsiya qilish, raqobatbardosh iqtisodiyot barpo etish va innovasion taraqqiyotni taʼminlashning asosiy omili hisoblanadi. [7;117]

Oliy taʼlimning mazmunini izohlaydigan boʻlsak, Oliy taʼlim umumiy oʻrta yoki oʻrta maxsus maʼlumot asosida maʼlum ixtisoslik boʻyicha kadrlar tayyorlashga qaratilgan taʼlim bosqichidir. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash — fan, texnika, iqtisodiyot, tibbiyot, huquq, taʼlim va boshqa sohalar uchun.

- Ilmiy salohiyatni oshirish-tadqiqotlar, innovatsiya va texnologik yangiliklar orqali fan rivojiga hissa qoʻshish.

- Maʼlumotli, faol fuqarolarni shakllantirish-milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, jamiyatda oʻz oʻrniga ega shaxslarni yetishtirish.

- Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga koʻmaklashish-innovatsiya, tadbirkorlik va kasbiy rivoj orqali. [4; 7]

Buxoro shahrida oliy taʼlimning rivojlanish tarixi boy va chuqur ildizlarga ega.

1. Madrasalardan boshlangan oliy taʼlim anʼanasi

Buxoro uzoq asrlardan buyon ilm-fan markazi sifatida qaralgan. Masjidi Jome, Forjaq, Gʻarbiy, Ulugʻbek, Mir Arab, Nodir Devonbegi, Koʻkaldosh kabi koʻplab madrasalar mavjud boʻlgan. 1920-yilgacha bu shaharda 127 ta madrasalar faoliyat yuritgan. Ushbu madrasalarda Ismoil al-Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Abu Bakr Norshahi, Bahouddin Naqshband, Abduholiq Gʻijduvoni, A.Donish, S.Ayniy, A.Fitrat shahar ilm eʼtirof etilgan olimlar tahsil olgan. Tarixiy manbalarda koʻplab sayyohlar va olimlar

Buxoroni ilm-fan manbai sifatida taʼriflab kelgan [1; 59].

2. Yangi zamonaviy oliy oʻquv muassasalari paydo boʻlishi.

1922-yilda Buxoro Xalq Jumhuriyati tomonidan “Xalq maorifi instituti” ochildi — bu zamonaviy oliy taʼlim yoʻlida ilk qadam edi. F.Xoʻjayev va A.Fitrat bu institut asosida Dorilfunun ochish gʻoyasini ilgari surishgan, ammo institut tugatilgach amalga oshmadi.

1930-yilda Buxoro pedagogika instituti tashkil etildi. Dastlabki yillarda kimyo-biologiya va tarix-sosiologiya yoʻnalishlari boʻyicha atigi 45 nafar talaba tahsil olgan. Ikkinchi jahon urushi davrida oʻqituvchilar va 47 nafar talaba frontga joʻnatilgan boʻlsa, murakkab davrda Qarshi, Gʻijduvon va Shofirkon filiallari ochilgan [8;778].

Sovet davrining markaziy rejali tizimidan boshlab, bugungi kunda zamonaviy, xalqaro talablar asosida shakllangan taʼlim modeli sari yoʻnalish izlamaqdadir.

1. Sovet davri ildizi: 1988–1991-yillarni oʻz ichiga oladi. 1988–1989-yillarda Oʻzbekistonda 43 ta oliy taʼlim muassasasi (40 ta ixtisoslashgan institut va 3 ta universitet) mavjud edi; oʻqiyotgan talabalarning taxminan yarmi kunduzgi emas, kechki yoki masofaviy formatda edi. Aholining faqatgina 15 % qadri oliy taʼlim bilan qamrab olingan, bu Sovet Ittifoqi doirasida eng past koʻrsatkichlardan biri edi. Oliy oʻquv yurtlariga qabul Oʻzbekiston oliy va oʻrta maxsus oʻquv yurtlari vazirligi tomonidan tasdiqlangan qoidalarga muvofiq pedagogika oliy oʻquv yurtlariga qabul esa Oʻzbekiston xalq taʼlimi vazirligi tomonidan tasdiqlangan qoida boʻyicha amalga oshirilgan. 1993-yildan respublikaning barcha oliy oʻquv yurtlariga test sinovlari orqali abiturentlari qabul etilgan [3; 126]. 1997-yilda qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” oliy taʼlimni isloh qilishda burilish nuqtasi boʻldi. Bu dasturning maqsadi — jamiyat va bozor iqtisodiyoti talablariga mos, mustaqil fikrlovchi, yuksak bilimli mutaxassislarni tayyorlash edi. [1; 53]

Buxoro davlat universitetining rivoji toʻgʻrisida fikr yuritadigan boʻlsak, 1992-yil 28-fevral — Prezidentning PF-356 farmoni va Oliy Majlis qarori (1992-yil 11-mart) asosida pedagogika instituti universitet maqomiga ega boʻldi. [2;] Bu qaror bilan universitet funksional imkoniyatlari kengaydi: 8 fakultet, 43 ta kafedra, sirtqi taʼlim

bo'limi, malaka oshirish markazi tashkil qilindi; bakalavriat bo'yicha 36 yo'nalish, magistratura — 22, aspirantura — 23, doktorantura — 4 yo'nalish mavjud bo'ldi. [5; 419]

BuxDU bugungi kunda 91 ta bakalavriat va 34 ta magistrlik yo'nalishi bilan faoliyat yuritmoqda, talaba soni 19 903 nafar bakalavr va 799 nafar magistrni tashkil etadi. 2011-yil Prezident qarori asosida (No. 1533) universitetning moddiy-texnik bazasi mustahkamlash bo'yicha jiddiy investitsiyalar yo'naltirildi. [10; 7]

2013–2015 yillarda umumiy qiymati 45,55 mlrd so'm bo'lgan modernizatsiya dasturi amalga oshirildi. Natijada: Zamonaviy kompyuter, video proyektor, elektron taxta bilan jihozlangan sinfonalar yaratildi. Internet va mahalliy tarmoq ulanishlari ta'minlandi. Laboratoriya jihozlari va sport infrastrukturasi katta yangilanishlar bo'ldi. Infratuzilmani mustahkamlash dasturi (2011-yildagi Prezident qarori asosida) doirasida 2013–2015-yillarda 45,55 mlrd so'mlik modernizatsiya amalga oshirilgan, jumladan zamonaviy texnika, kompyuter asboblari, laborator jihozlari ta'minlangan. Universitetda "ilm-ta'lim-ishlab chiqarish" modeli keng tatbiq etilib, biotexnologiya, quyosh energetikasi, ekologiya, barqaror qishloq xo'jaligi kabi istiqbolli sohalarda ilmiy markazlar (masalan, Biotexnologiya, Quyosh energiyasi, Cho'l ekotizimlari markazlari) tashkil etilgan. Buxoro muhandislik-texnologiya instituti - Abu Rayhon Beruniy nomli Toshkent politexnika institutining Buxoro filiali bazasida 1977-yilda Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti tashkil etildi [5; 420].

Ushbu institut-injener texnologlar tayyorlaydigan oliy o'quv yurti. Institut tarkibida 6 kunduzgi va sirtqi faoliyat yuritadi, 31 kafedra, mintaqaviy biznes maktabi, ixtisoslashgan lisey internat faoliyat ko'rsatadi. Institut tashkil topganidan beri 12 mingdan ortiq mutaxassis tayyorladi. 2000-yil ma'lumotiga ko'ra 15 ixtisoslik bo'yicha 477 mutaxassis institutni tamomladi. 2001-yil ma'lumotiga ko'ra Institutda 282 professor o'qituvchi, jumladan 20 fan doktori, professor, 178 fan nomzodi, dotsentlar ishlagan [8;774].

Buxoro tibbiyot instituti - Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro tibbiyot instituti — Buxoro shahridagi oliy malakali mutaxassis vrachlar tayyorlaydigan oliy o'quv yurti. [5;419] Ushbu institut 1990-yilda tashkil etilgan. Davolash,

stomatologiya va oliy ma'lumotli hamshiralar tayyorlash fakultetlari bor, 39 kafedra, litsey, aspirantura, doktorantura, klinik ordinatura, institut muzeyi va 2 o'quv muzeyi, test markazi, kutubxona (65 mingdan ortiq asarga ega), o'quv zal mavjud. 2001-yil ma'lumotiga ko'ra, institutda 196 o'qituvchi (jumladan 18 fan doktori va professor, 80 fan nomzodi va dotsent) xizmat qiladi; 1500 talaba ta'lim oladi. [8;777]

Xulosa qilib aytganda, 1992–2015-yillarda Buxoroda oliy ta'lim tizimi sezilarli darajada taraqqiy etdi. Universitet imkoniyatlari kengaydi, ilmiy salohiyat yoshardi, infratuzilma modernizatsiyasi amalga oshirildi va xalqaro darajada hamkorlik kengaytirildi. Shu bilan birga, mintaqqa, resurs va sifat masalalari hamon e'tiborni talab qiladi. Oliy ta'lim tizimi keskin transformatsiyadan o'tmoqda- institutsional kengayish, sifat nazorati, xalqaro integratsiya, va ta'lim infratuzilmasi jahon standartlariga yaqinlashmoqda. Ammo muammolar-sifat va bozor ehtiyojlari bilan moslik, xususi sektorning balansli rivojlanishi, mintaqalarda teng imkoniyatlarni ta'minlash-hali ham dolzarbdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдусаттор Жуманазар. Бухоро таълим тизими тарихи. Тошкент. Akademiashr, 2017. 59 б.
2. buxdu.uz – Бухоро давлат университети расмий сайти.
3. Жўра Йўлдошев. Таълимимиз истиқлоли йўлида. Тошкент. Шарқ. 1996. 126-б.
4. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. (1997). <https://lex.uz/docs/48401/>
5. Ражабов Қ. Иноятов С. Бухоро тарихи. – Тошкент: Тафаккур, 2016. 419-б.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-4947-сонли фармони. (2017). <https://lex.uz/docs/3107036>
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси.- Тошкент: Ўз МЭ Давлат илмий нашриёти, 2003. "О".17-жилд –117-б
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси.- Тошкент: Ўз МЭ Давлат илмий нашриёти, 2003. "Б".17-жилд – Б. 117, 774, 777
9. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Тошкент. Шарқ. 2000.414-б.
10. <https://lex.uz/mact/-3171590>.

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИДА
ARTPEDAGOGIKA METODIKASINI QO'LLASH ORQALI
NUTQ O'STIRISH FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH
ASOSLARI


Xolmatova Fotima Baxtiyor qizi, Qarshi davlat universiteti “Maktabgacha ta'lim” kafedrasida tayanch doktoranti

ОСНОВНЫЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО РАЗВИТИЮ РЕЧИ С
ПРИМЕНЕНИЕМ АРТ-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕТОДИК В
ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Холматова Фотима Бахтиёр кызы, докторант кафедры “Дошкольное образование” Каршинского государственного университета

BASIC FUNDAMENTALS OF ORGANIZING SPEECH
DEVELOPMENT ACTIVITIES THROUGH THE
APPLICATION OF ART PEDAGOGICAL METHODOLOGY IN PRESCHOOL
EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Xolmatova Fotima Baxtiyor qizi, Doctoral student of the Department of “Preschool Education” at Karshi State University



<https://orcid.org/0009-0008-3047-7826>
Xolmatovafoti
ma386@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutq o'stirish faoliyatini samarali tashkil etish masalalari yoritilgan. Nutq bolalarning tafakkuri, hissiyoti va ijtimoiy faolligini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Maqolada nutq o'stirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlar, mashg'ulot turlari, o'yin va artpedagogika elementlari orqali bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, pedagoglarning bu boradagi roli va zamonaviy yondashuvlardan foydalanishning afzalliklari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, metodika, usul, uslub, pedagogik yondashuv, kompetensiya, nutqiy kompetensiya, bola shaxsi, tafakkur, yangilik, innovatsiya.

Abstract: This article explores the effective organization of speech development activities in preschool educational institutions. Speech plays a crucial role in shaping children's thinking, emotions, and social activity. The paper discusses methodological approaches to speech development, types of sessions, and the use of games and art-pedagogical elements to foster children's oral communication skills. It also highlights the role of educators and the benefits of using modern approaches in this field.

Key words: preschool education, methodology, method, methodology, pedagogical approach, competence, speech competence, child's personality, thinking, novelty, innovation.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы эффективной организации речевой деятельности в дошкольных образовательных учреждениях. Речь играет ключевую роль в формировании мышления, эмоций и социальной активности детей. В статье представлены методические подходы к развитию речи, типы занятий, а также использование игровых и арт-педагогических элементов для развития устной речи у детей. Отдельное внимание уделяется роли педагогов и преимуществам применения современных технологий и методов.

Ключевые слова: дошкольное образование, методика, метод, методика, педагогический подход, компетентность, речевая компетентность, личность ребенка, мышление, новизна, новаторство.

Kirish. Zamonaviy ta'lim taraqqiyotida amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etib, pedagogika, psixologiya, falsafa, sotsiologiya va boshqa “artpedagogika” atamasi hamda bu muammoni

shu kabi fanlar tadqiqot obyekti sifatida qaralmoqda. Jumladan, artpedagogika metodikasi tadqiqotining falsafiy sharti – inson ongiga yetkaziladigan bilimni san’atning turfa xil usullari yordamida berib borish zarurati hisoblanadi. Ilm-fan va san’atning o‘zaro uyg‘un ekanligi, bir-birini boyitib borishi insonlarga bilm ulashish sifatini oshiradi, bu fan san’atning ajralmas ekanligini ko‘rsatadi.

Pedagogika va psixologiya tarixida artpedagogik yondashuv muammolari yuzasidan ko‘plab olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, Avstraliyalik pedagog olim Viktor Lovenfeld san’at – bolaning ijodiy rivojlanishida muhim ekanligini ta’kidlagan. U o‘zining “Ijodiy va aqliy o‘zish” asarida bolalarning san’at orqali rivojlanish bosqichlarini tasvirlab bergan. Mazkur tadqiqot nazariyasiga ko‘ra “Hech qanday badiiy ifodani o‘z-o‘zini ifoda etuvchi tajriba va uni ifoda etuvchi vosita bilan identifikatsiya qilmasdan amalga oshirish mumkin emas. Bu ijodiy ifodaning o‘ziga xos omillaridan biridir. Agar biz o‘zimizni bu kuchlar bilan tanishtirmasak, badiiy ifoda o‘z tabiatining mohiyatini - ijodkorligini yo‘qotadi. Bugungi kunda san’at ta’limining turli yo‘nalishlari butunlay o‘qituvchilar tomonidan ijodiy jarayonlarni belgilovchi turli kuchlar bilan o‘zini tanitadigan turli xil e’tiborga bog‘liq” [4;23].

Shunday qilib, artpedagogik usullar majmuasi ilmiy tahlil maqsadlari uchun san’at orqali ta’lim berish hamda bolalar bilm darajasini sintez qilish usullari ham teng kuchli ekanligini tan oladi.

San’atni ta’lim berish yo‘nalishlaridan biri sifatida qaragan holda V.Lovenfeld bugungi kunda fundamental g‘oyalar va tushunchalar asosini yaratishga imkon beradigan artpedagogik tamoyillarni topish tobora sezilarli bo‘lib borayotganligini ta’kidlaydi. Olim fikriga ko‘ra, artpedagogika tushunchasi tarbiya bilan o‘zaro bog‘liqdir, bu esa albatta tartibga ega bo‘lishni, ilm hamda san’atning qat’iy munosabatini nazarda tutadi.

Artpedagogika tushunchasi – keng qamrovli tushunchalardan biridir. Kelib chiqishiga ko‘ra ushbu atama qadimgi falsafaga borib taqaladi.

Stanford universiteti professori bo‘lgan Elliot Eisner san’atni o‘quv dasturlariga integratsiyalashda chuqur fikr yuritgan. U artpedagogikaning ijodiy, tanqidiy hamda tarixiy jihatlarining muhim ekanligini ta’kidlagan.

XIX asrga qadar ilm-fan rivojlanishi jarayonida tabaqalashtirish dominant maqomlardan biri hisoblangan. XIX asrning ohiri XX asrning boshlariga kelib, inson psixologiyasi, estetik tarbiya hamda ijodiy ta’lim bilan bog‘liq bo‘lgan g‘oyalar keng ravishda ommalasha boshladi. Bolalarni shaxs sifatida rivojlantirishda san’atdan foydalanish g‘oyasi, ayniqsa bolalar psixologiyasi hamda didaktika fanlarida chuqur tahlil qilindi.

Shunday qilib, pedagogikada “artpedagogika” atamasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu yondashuv ta’lim-tarbiyada san’at vositalari yordamida shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Bu metodik usul faqatgina ta’lim mazmunini rivojlantiribgina qolmay, balki, bolalarning his-tuyg‘ularini estetik didini, ijodiy fikrlanishini ham o‘z ichiga oladi.

Amerikalik pedagog John Dewey o‘zining “Tajriba va tarbiya” hamda “San’at va tajriba” asarlarida san’atni ta’limdagi muhim omil ekanligini ta’kidlagan. U “San’at va tajriba” kitobida shunday degan: “San’at hayotning o‘zida shakllangan. Qush o‘z uyasini, qunduz esa to‘g‘onni ichki organik bosim tashqi materiallar bilan hamkorlik qilganda quradi, shunda shakl bajariladi va ikkinchisi qoniqarli ko‘rinishga aylanadi. Biz "san'at" so‘zini qo‘llashda ikkilanishimiz mumkin, chunki direktiv niyat mavjudligiga shubha qilamiz. Ammo har qanday fikrlash, har qanday ongli niyat, tabiiy energiyalarning o‘zaro ta’siri orqali organik ravishda amalga oshiriladigan narsalardan kelib chiqadi.” [1;29]

Umumiy holda, artpedagogika (lotinchada art – san’at) – bu san’at va pedagogika sohalarining uyg‘unlashishidan kelib chiqqan. Bu tarkibiy qismlarning muntazamliligi, izchilligi, ular o‘rtasidagi aloqalar va faoliyatning barqarorligi bilan ajralib turadigan psixologik yondashuvdir.

Psixologik tadqiqot ishlarida umumiy tushunchalar shakllantirilishi fanlararo assotsatsiyalar orqali amalga oshirilishi o‘z isbotini topgan. Barkamol inson tomonidan tushunchalarning yetuk darajada o‘zlashtirilishi uning mazmun-mohiyatini tushunish hamda amalda undan foydalana bilish bilan belgilanadi.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi: maktabgacha yoshdagi bolalar mazkur darajada tushunchalarni egallay oladilarmi? Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy tushunchalarni egallashi davomida fanlararo assotsatsiyaga tayanish mumkinmi?

Ingliz psixologi M.Menzerning fikriga ko'ra bolalarning yetuk darajada rivojlanishida pedagog o'qituvchilardan katta mas'uliyat talab etiladi: "Har bir bola tug'ilishda ijodiy qobiliyat bilan tug'iladi. Erta ta'lim dasturlarida va keyingi maktab yillarida bu ijodkorlikni rivojlantirish va topqirlarni qo'llab-quvvatlash muammolarni hal qilish, tasavvurga asoslangan fikrlash va yangi tajribalar uchun ko'nikmalar va bilimlarni egallashiga ko'maklashish – bu bizning ishimiz. O'qituvchilar o'z faoliyatida san'atdan foydalanishi bolalarning nutq faoliyati rivojlanishida, savodxonlik, matematika, tabiiy fanlar hamda ijtimoiy hissiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi." [2;4]

Demak, maktabgacha ta'limda artpedagogik usullar yordamida mazmunli faoliyatlar olib borish maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlaridan qobiliyat va shijoat talab qiladi. Qachonki, tarbiyachi bolalarning yosh hamda shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda san'atning bir qancha yo'nalishlaridan foydalanib faoliyatlarni qiziqarli tarzda olib bora olsa, bunday faoliyatlar bolalar uchun manfaatli bo'la oladi.

Xususan, syujetli-rolli o'yinlar orqali bolalarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Bunday o'yinlarni tashkillashtirish esa, albatta tarbiyachidan katta mahorat va e'tibor talab qiladi. O'yinlarni tashkillashtirishda tarbiyachi oldiga qo'yiladigan vazifalar xususida O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ilk qadam Davlat o'quv dasturida ham keltirilgan: "Bolalarni o'yinda kuza-tish pedagogga bolaning boshqa bolalar bilan qanday o'ynashini, bola o'yinda qanday ko'nikma va malakalarni namoyon etishini, o'yin orqali qanday ko'nikmalarni rivojlantirish kerakligini anglashga yordam beradi. Pedagog o'yinga qo'shilib, bolaning ta'lim olishini, uning tasvirlash, tushuntirish, asoslashi, tegishli tilni qo'llash qobiliyatini, shuningdek, ijobiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadi" [8;23].

Shuningdek, bolalarga rasm chizdirish orqali ham ularning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish mumkin. Negaki, maktabgacha yoshda bo'lgan bolalar tasviriy san'at orqali o'z his-tuyg'ularini bayon qilishni o'rganishadi. Shuningdek rasm chizish vaqtida o'rtoqlari bilan o'z ishlari haqida muhokama qilishadi. Nimani tasvirlagani, qanaqa ranglardan foydalanganligi haqida

tengdoshlari bilan o'rtoqlashadi. Bu esa ularning nutq faolligini rivojlanishida muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, artpedagogikaning ertak, hikoya usullaridan foydalanish bolalar nutqida sezilarli darajada rivojlanish bo'lishida muhim o'rin egallaydi.

Demak, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog nutq o'stirish faoliyatini olib borish davomida mashg'ulot samarali bo'lishi uchun artpedagogikaning bir qancha usullaridan foydalanishi mumkin ekan. Bunday usullar yordamida tashkillashtirilgan faoliyatlar maktabgacha ta'lim yopshidagi bolalarda nutqiy kompetensiya shakllarini rivojlantirishda, ularning savodxonlik darajasini oshirishda keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

Faoliyatlar yakunida tarbiyalanuvchilardan har birining mamshg'ulotdagi ishtiroki tahlil qilinishi, uning yutuqlari e'tirof etilishi, kamchiliklarining ham o'ziga xos natija ekanligi ta'kidlanishi bolalarning o'z faoliyat va harakatlari uchun javobgarlik hissini oshirishda ham, shuningdek, uning irodaviy xislatlarini mustahkamlashda ham asqotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. John Dewey. Art as experience. New York. 1980. 445p.
2. Melissa Menzer. The arts in the early childhood: Social and emotional benefits of arts participation. Washington – 2015. 24p.
3. Ушакова О.С., Струнина Е. М. Методика развития речи детей дошкольного возраста. – М.: Владос, 2004 – 196 с.
4. Viktor Lowenfeld. Creative and mental growth. The Macmillon Company – New York – 1957. 547p.
5. Цейтлин С.Н. Язык и ребёнок. Лингвистика детской речи. – М., 2000. 240 с.
6. Xo'jamberdiyeva.Sh.K, Abdusamatova.N.J, Isabayeva.A.Y Bolalar nutqini o'stirish. Darslik. Toshkent – Fan ziyosi. -2023. -238b.
7. Зеленцова.Н.В. – Пешкова. Элементы песочной терапии в развитии детей раннего возраста. Санкт-Петербург. Детство-пресс-2015 – С 17.
8. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi /Takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent – 2022. 100b.
9. G'oziyev.E. Psixologiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Ikkinchi nashri. – Toshkent: O'qituvchi Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. –352 b.

СИСТЕМА МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫХ АКТОВ В СФЕРЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВА ЧЕЛОВЕКА НА Благоприятную окружающую среду


*Rasbergenova Sarbinaz Alisherovna, преподаватель кафедры
международного права и прав человека, Ташкентского
государственного юридического университета*

SYSTEM OF INTERNATIONAL LEGAL ACTS IN THE FIELD OF ENSURING THE HUMAN RIGHT TO A HEALTHY ENVIRONMENT

*Rasbergenova Sarbinaz Alisherovna,
Lecturer of the Department of International Law and Human
Rights of the Tashkent State University of Law*

INSONNING QULAY ATROF-MUHITGA EGA BO'LIH HUQUQINI TA'MINLASH SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY AKTLAR TIZIMI

*Rasbergenova Sarbinaz Alisherovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasi o'qituvchisi*



<https://orcid.org/0009>

-0004-9744-2602

e-mail:

[s.rasbergenova@tsul.](mailto:s.rasbergenova@tsul.uz)

uz

Аннотация: Статья посвящена анализу универсальных международно-правовых актов, обеспечивающих право человека на благоприятную окружающую среду через экологическую интерпретацию классических прав человека и специализированные природоохранные конвенции.

Ключевые слова: права человека, экология, международные конвенции, климат.

Abstract: The article is devoted to the analysis of universal international legal instruments that safeguard the human right to a favorable environment through the ecological interpretation of classical human rights and specialized environmental conventions.

Keywords: human rights, ecology, international conventions, climate

Annotatsiya: Maqola insonning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlovchi universal xalqaro-huquqiy hujjatlarning tahliliga bag'ishlangan bo'lib, bunda inson huquqlarining klassik qoidalariga ekologik talqin berilishi hamda maxsus tabiatni muhofaza qilish konvensiyalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, ekologiya, xalqaro konvensiyalar, iqlim.

Международные и региональные договоры по правам человека включают ряд прав, которые склонны к прямому вмешательству по экологическим факторам. Органы власти, применяющие и осуществляющие эти договоры, признали, что некоторые из этих прав связаны с окружающей средой, и подтвердили, что при определенных обстоятельствах разрушение окружающей среды может привести к нарушению этих пра [1]. Виранмантри, который был вице-президентом Международного суда в 1997-2000

годах, в своем особом мнении по делу "Габчиково-Надьмарош" (Gabcikovo-Nagymaros) сказал: "Охрана окружающей среды... является важной частью современной доктрины прав человека, поскольку она является необходимым условием для многих прав человека, таких как право на здоровье и право на жизнь. Нет необходимости останавливаться на этом, поскольку ущерб, причиненный окружающей среде, может нанести ущерб и нарушить все права человека, упомянутые во

Всеобщей декларации прав человека и других документах по правам человека" [2].

Основополагающие документы ООН по правам человека и их экологическое измерение. Хотя Всеобщая декларация прав человека 1948 года не содержит прямого упоминания экологических прав, ее положения получили экологическую интерпретацию. Комитет по правам человека в деле *Portillo Cáceres v. Paraguay* установил, что "деградация окружающей среды может негативно влиять на эффективное осуществление права на жизнь" [3].

Международный пакт о гражданских и политических правах (МПГПП) 1966 года также не содержит специальных экологических положений, но его нормы активно используются для защиты экологических прав. Л. Хорн отмечает, что "практика Комитета по правам человека демонстрирует эволюционное толкование МПГПП в свете современных экологических вызовов" [4].

Международный пакт об экономических, социальных и культурных правах (МПЭСКП) 1966 года более явно связан с экологическими вопросами. Статья 12, закрепляющая право на здоровье, включает обязательство государств по "улучшению всех аспектов гигиены внешней среды". Комитет по экономическим, социальным и культурным правам в Замечании общего порядка № 14 разъяснил, что это право включает доступ к безопасной питьевой воде и адекватным санитарным условиям [5].

Специализированные универсальные экологические конвенции. Рамочная конвенция ООН об изменении климата (РКИК) 1992 года является ключевым инструментом в борьбе с изменением климата. Хотя конвенция не содержит прямых ссылок на права человека, ее реализация тесно связана с обеспечением экологических прав. Ш.Х. Файзиев подчеркивает, что "климатические изменения представляют собой одну из главных угроз реализации права на благоприятную окружающую среду в XXI веке" [6].

Парижское соглашение 2015 года развивает режим РКИК и впервые на универсальном уровне в климатическом договоре признает в преамбуле, что при осуществлении действий в области изменения климата государства должны "уважать, поощрять и учитывать свои

соответствующие обязательства в области прав человека". Д. Бойд отмечает, что "включение ссылки на права человека в Парижское соглашение открывает новые возможности для интеграции правозащитного подхода в климатическую политику" [7].

Конвенция о биологическом разнообразии 1992 года устанавливает комплексный режим сохранения биоразнообразия. Статья 8(j) признает важность традиционных знаний коренных народов, что связано с их правами на традиционный образ жизни и окружающую среду. М. Андерсон подчеркивает, что "сохранение биоразнообразия неразрывно связано с правами коренных народов и местных сообществ" [8].

Конвенция о водно-болотных угодьях, имеющих международное значение (Рамсарская конвенция) 1971 года была одной из первых глобальных природоохранных конвенций.

Монреальский протокол обязывает государства-участников контролировать рассчитанные уровни производства и потребления отдельных веществ, влияющих на состояние озонового слоя (статья 2). При этом в протоколе используются очень точные категории, в частности, указаны контролируемые вещества, обладающие озоноразрушающими свойствами, которые должны периодически пересматриваться [9]. В 1991 году в Эспо (Финляндия) была подписана Конвенция об оценке воздействия на окружающую среду в трансграничном контексте, согласно которой сторона, планирующая осуществление деятельности, требующей разрешения компетентного органа, обязана оценить воздействие такой деятельности на окружающую среду под юрисдикцией той или иной стороны, "включая воздействие на здоровье и безопасность человека, флору, фауну, почву, воздух, воду, климат, ландшафт, исторические памятники и другие материальные объекты или взаимосвязь между этими факторами; она также включает воздействие на культурное наследие или социально-экономические условия, которое является результатом изменений этих факторов" (статья 1). Парижское соглашение также было заключено с целью усиления реализации Конвенции. Данное Соглашение устанавливает обязательство государств контролировать уровень выбросов парниковых газов и не

способствовать повышению глобальной средней температуры более чем на 1,5°C (статья 2 и пункт 17 статьи 4). Как и Киотский протокол, Парижское соглашение подчеркивает большую ответственность развитых стран в достижении общей цели, но в отличие от Киотского протокола, оно оставляет на усмотрение стран установление выбросов парниковых газов, не устанавливая конкретных показателей, которых должны достичь страны.

Конвенции о трансграничном воздействии и опасных веществах. Базельская конвенция о контроле за трансграничной перевозкой опасных отходов и их удалением 1989 года направлена на защиту здоровья человека и окружающей среды от негативного воздействия опасных отходов. З.М. Исламов отмечает, что "неправильное обращение с опасными отходами представляет прямую угрозу праву на здоровье и благоприятную окружающую среду". Минаматская конвенция о ртути 2013 года стала ответом на глобальную угрозу, которую представляет ртуть для здоровья человека и окружающей среды. А.А. Рустамбаев подчеркивает важность этой конвенции: "Минаматская конвенция демонстрирует эволюцию международного экологического права в направлении превентивного подхода к защите здоровья человека" [10]. Эффективность универсальных международно-правовых актов во многом зависит от их скоординированного применения. А.Бойл подчеркивает необходимость "системного подхода к толкованию и применению различных международных инструментов для обеспечения целостной защиты экологических прав человека" [11].

Подытоживая, отметим, что несмотря на отсутствие единого универсального договора, прямо закрепляющего право на благоприятную окружающую среду, существует разветвленная система международных соглашений, косвенно обеспечивающих это право. К ним относятся конвенции по изменению климата, биоразнообразию, опустыниванию и другие. Особо подчеркнем, что несмотря на отсутствие единого универсального договора о праве на благоприятную окружающую среду, сформировалась разветвленная система косвенной защиты через экологическую интерпретацию

классических прав человека в МПГПП и МПЭСКП. Комитеты ООН активно развивают эту практику, признавая неразрывную связь между деградацией окружающей среды и нарушением права на жизнь, здоровье и достаточный жизненный уровень.

Специализированные экологические конвенции эволюционируют в направлении интеграции правозащитного подхода. Парижское соглашение 2015 года стало первым климатическим договором, прямо признавшим необходимость учета прав человека при осуществлении климатических действий, что открывает новые возможности для защиты экологических прав через климатические механизмы.

Список литературы:

1. Robin Cherrill' "Jekologicheskie prava v sushhestvujushhij dogovorah po pravam cheloveka" v Alan Bojl i Majkl Anderson (red.), "Podhody k ohrane okruzhajushhej sredy s točki zrenija prav cheloveka" (Clarendon, 1996) 89, 106.
2. Proekt Gabchikovo-Nad'marosh (Vengrija protiv Slovakii), 1997, ICJ Rep 7, 91-92 (Viceprezident Veramantri).
3. Portillo Cáceres v. Paraguay, Human Rights Committee, CCPR/C/126/D/2751/2016, 2019.
4. Horn L. Evolutionary Interpretation of Human Rights Treaties in Environmental Context // Human Rights Law Review. 2023. Vol. 23. P. 89.
5. CESCR General Comment No. 14: The Right to the Highest Attainable Standard of Health, 2000.
6. Фажзиев Ш.Х. Изменение климата как угроза правам человека // Климат и право. 2022. № 1. С. 23.
7. Boyd D. Human Rights and the Paris Agreement // Climate Law. 2019. Vol. 9. P. 234.
8. Anderson M. Biodiversity Conservation and Indigenous Rights // Environmental Policy and Law. 2021. Vol. 51. P. 145.
9. Islamov Z.M. Opasnye othody i prava cheloveka // Jekologicheskaja bezopasnost'. 2022. № 3. S. 56.
10. Rustambaev A.A. Minamatskaja konvencija: preventivnyj podhod k zashhite zdorov'ja // Mezhdunarodnoe jekologicheskoe pravo. 2021. № 2. S. 78.
11. Boyle A. A Systems Approach to Environmental Human Rights // European Journal of International Law. 2023. Vol. 34. P. 123.

YOSHLARDA G‘OYAVIY-MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI IMMUNITET HOSIL QILISH

*Toshev Suhrob Mirzaqulovich,
Toshkent kimyo-texnologiyalari instituti tayanch doktoranti*

BUILDING IMMUNITY AGAINST IDEOLOGICAL THREATS IN YOUTH

*Toshev Suhrob Mirzakulovich
Basic doctoral student of the Tashkent Institute of Chemical
Technologies*

ФОРМИРОВАНИЕ ИММУНИТЕТА ПРОТИВ ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ УГРОЗ У МОЛОДЕЖИ

*Тошев Сухроб Мирзакулович
базовый докторант Ташкентского химико-
технологического института*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda jamiyatimizga xavf solayotgan g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi yoshlarda immunitet hosil qilish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: o‘zlikni anglash, mafkura, qadriyatlar, milliy g‘oya, immunitet, g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlar, ma‘naviy-axloqiy ta‘lim-tarbiya, insonparvarlik, ona vatan, millatlararo totuvlik, ma‘naviy xavfsizlik.

Annotation: This article discusses the creation of immunity among young people against the ideological threats that threaten our society today.

Keywords: identity, ideology, values, national idea, immunity, ideological threats, spiritual and moral education, humanity, homeland, interethnic harmony, spiritual security.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос формирования у молодежи иммунитета к идеологическим угрозам, угрожающим сегодня нашему обществу.

Ключевые слова: идентичность, идеология, ценности, национальная идея, иммунитет, идеологические угрозы, духовно-нравственное воспитание, гуманность, Родина, межнациональное согласие, духовная безопасность.

KIRISH. Xalqimizning ertasi qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta‘lim va tarbiya olayotganiga bog‘liqdir. Farzandlarimizni mustaqil va teran fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli ravishda yashaydigan komil insonlar qilib voyaga yetkazish ta‘lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi bo‘lishi

kerak. Bu esa, ta‘lim va tarbiya ishini uyg‘un holatda olib borishni birinchi o‘ringa qo‘yishi talab etadi. Sharq jamiyatlarida odatda ta‘limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta‘limdan, ajratib bo‘lmaydi. Bu xususida Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”[1]



<https://orcid.org/0000-0002-0708-189X>

e-mail:

suhrobtoshev98@gmail.com



degan ibratli soʻzlarni eslashimiz lozim. Mahmudxoʻja Behbudiy: “Maktab – dunyo imoratlarining eng muqaddasi va qadrlisidir. Maktabning chin va haqiqiy maʼnosini bilgan millatlar jonlari, mollari ila himmat va gʻayratlarini sarf etib, millatning taraqqiyotiga, rivojiga ijtihod qilurlar”, deb taʼkidlagan. Choʻlpon esa “Kecha va kunduz” romanida farzandini rus maktabiga berishga qaror qilgan Miryoqubga javoban: “Bu fikringiz xato, ibtidoiy tarbiyani rus maktablarida berish. Ilgari milliy hissini oʻstirib, oʻz millatini tanitgandan soʻng rus maktabiga berish kerak-ki, hunarga, ixtisosga tegishli ilmlarni oʻqisin. Undan keyin Germaniya, Fransiya, Angliya mamlakatlariga hatto dunyoning narigi chegarasidagi Amirqoga yuborib oʻqitish kerak”[2]. Bu fikrlar bugungi oʻzbek oilalari uchun ham nihoyatda muhim va oʻrinli soʻzlar ekanini hayotni oʻzi isbotlab turibdi. Axborot maydoni jahon boʻylab tobora kengayib borayotgan bir davrda farzandlarimizning ongini faqat oʻrab-chirmab, uni koʻrma, buni koʻrma deb bir tomonlama tarbiyalash, atrofni oʻrab olishga harakat qilish zamonning talabiga ham, bizning orzu maqsadlarimizga ham toʻgʻri kelmaydi. Biz mamlakatimizda erkin demokratik jamiyat qurishni oldimizga maqsad qilib qoʻyganmiz, qolaversa, yoshlarda taʼqiqlangan narsaga qiziqish oshib boradi. Uning oʻrniga uning zararlari va oqibatlarini haqida imkon qadar tushuntirishimiz lozim. Buning uchun avvalo ota-onaning oʻzi oʻrnak bolishi, bolaga qadriyatlar ruhi singdirilgan ertak va hikoyalardan oʻqib berishi, hamda nima toʻgʻri-yu nima xato ekanligini, yaʼni “oq va qora”ni tushuntirish lozim. Zero, har bir oilaning, vatanning kelajagi shu yoshlar qoʻlida ekanligini anglab yetgan holda ularga koʻproq vaqt ajratishimiz lozim. Hozirda yoshlarga salbiy taʼsir koʻrsatayotgan “ommaviy madaniyat” koʻrinishidagi tazyiqlarning oldini olish va qarshi kurashda doim ogoh boʻlishimiz kerak. Bu tahdidlarga qarshi kurashda har tomonlama chuqur oʻylangan va puxta tashkil etilgan, muntazam ravishda olib boriladigan maʼnaviy-axloqiy taʼlim-tarbiya bilan qurollanishimiz lozim. Taʼlim-tarbiya sohasiga berilayotgan eʼtibor, yurtimizda yoshlarimizning aql-salohiyati, iqtidori va qobiliyatini roʻyobga chiqarish va tom maʼnoda barkamol insonlar boʻlib voyaga yetishi, farzandlarimizning talab va ehtiyojlari hamda

manfaatlarini qondirishga qaratilganidan dalolat beradi. Ona vatanga sadoqat, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho maʼnaviy merosga, qadriyatlarga yuksak hurmat tuygʻularini rivojlantirish, mamlakatimiz mustaqilligini yanada mustahkamlashda har bir yosh bor kuch va salohiyatini safarbar qilishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Avvalo, maʼnaviy-ahloqiy taʼlim-tarbiya tizimida oʻqitishning yangi, oʻziga xos, milliy, izchil va samarali uslublari joriy etilishi lozim. Maktab, litsey yoki kollej uchun yangi binolar qurish va ularni zamonaviy asbob-anjomlar bilan jihozlash mumkin, ammo oʻqitishda sifat yuksalishlariga erishmasdan, kasbini sevadigan, malakali, fidoyi oʻqituvchilarni tayyorlamasdan, koʻzlangan maqsadlarga erishib boʻlmaydi. Pedagog kadrlar tayyorlash tizimining zamonaviy talablar asosida rivojlantirish aynan shu maqsadga yoʻnaltirilishi lozim. Farzandlar taʼlim-tarbiyasi borasida faqat oʻquv dargohlarigina emas, ota-ona, mahalla va keng jamoatchilik masʼuliyatini ham oshirish kerak. Baʼzi yoshlarimizning aqidaparastlar taʼsiriga tushayotgani, giyohvandlik va jinoyatchilik yoʻliga kirib qolayotgani, taʼlim-tarbiya jarayonida jiddiy nuqsonlar mavjud ekanligi, oʻquv yurti, ota-ona, jamoatchilik, siyosiy partiyalar, yoshlar tarbiyasi uchun masʼul boʻlgan barcha tashkilotlar faoliyati oʻrtasida izchil va samarali hamkorlik yaxshi yoʻlga qoʻyilmaganligidan darak beradi. “Biz barpo etayotgan Yangi Oʻzbekiston” mafkurasi, avvalo, insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik mafkurasi boʻladi. Oʻzbekiston taraqqiyotining bugungi jarayonlari milliy gʻoya va maʼnaviy yangilanish yoʻnalishida ham jamiyat va davlatimiz rivojining yangi bosqichi boshlanishidan dalolat beradi”[3].

Taʼlim tizimining barcha bosqichlarida “Milliy gʻoya” sohasiga daxldor fanlarni oʻqitish, milliy gʻoya tamoyillarining yoshlar ongiga imkoniyatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich singdirib borishni tashkil etish va natijada oʻquvchi yoshlarda yurt ravnaqi, vatanparvarlik, hamda uning taqdiriga daxldorlik xususiyatlarini milliy-axloqiy ruhda tarbiyalash lozim. Axborot asri, gʻoyaviy-mafkuraviy toʻqnashuvlar kuchaygan, yurtboshimiz soʻzi bilan aytganda, “maʼlum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlarigagina xizmat qiladigan, olis-yaqin

manbalardan tarqaladigan, turli ma'no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning ta'siri doimiy ravishda sezilib turgan davrda yashayotgan ekanmiz, avvalo, yoshlar ongida mafkuraviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun ularni tashqi g'oyaviy ta'sir va xurujlardan himoya qiladigan mustahkam immunitet shakllantirilishi lozim"[4].

MUHOKAMA. Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalarini keng joriy qilish orqali ta'lim-tarbiyani amalga oshiruvchi mutaxassis va xodimlarimiz uchun yoshlarimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usullarni ishlab chiqish hamda kerakli tavsiya va qo'llanmalarni tayyorlash zarur. Qolaversa, mafkuraviy tahdidlar kuchaygan bugungi kunda yoshlar qalbida ona Vatanimizga, milliy qadriyatlarimizga, boy tariximizga, millatimizning o'lmas ruhi bo'lgan ona tilimizga, ota-bobolarimizdan me'ros qadriyatlar, muqaddas dinimizga sog'lom munosabatimizni mustahkamlashimiz, hamda ular asosida mafkuraviy immunitetni shakllantirish va mafkuraviy xavfsizligimizni ta'minlashimiz mumkin. Yoshlarimiz ongi va qalbida zararli g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantira olsak turli xil tahdidlarga aldanmaydigan, o'z yurti, Vatani va millati uchun foydali insonlarni tarbiyalaymiz. Mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashda hamma ham birdek mas'uldir. "O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga qadam qo'ymoqda. Biz milliy tiklanishdan – milliy yuksalishga erishishni o'z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo'ydik. Bu ulug' maqsadga esa jahon ahli bilan hamjihat va hamkor bo'lib yashash, ochiq demokratik jamiyat qurish, hayotimizda milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini yanada keng qaror toptirish orqaligina erishish mumkinligini biz yaxshi angalaymiz"[5]. Yoshlarda g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi turishda immunitet hosil qilish uchun:

1.Ustozlar, oila va mahallada tarixiy xotira, komil inson tarbiyasi, milliy g'urur bilan bog'liq tuyg'u va tushunchalarni yoshlar ongiga ta'sirchan usullar orqali singdirish.

2.O'zbek xalqining tafakkurida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhiga mos g'oyalarni shakllantirish.

3.Mamlakatimiz yoshlarini muqaddas islom dini, aziz avliyolarimizning ibratli hayoti, qutlug' qadamjolariga nisbatan hurmat-ehtirom hamda bag'rikenglik ruhida tarbiyalash.

4.Yoshlar orasida vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy urf-odat, qadriyat va an'analarning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini tushuntirish.

5.Yuksak iste'dod va tafakkur egalarining aqliy va ijodiy imkoniyatini Vatan istiqboli yo'lida yo'naltirish.

6.Millatlararo totuvlik va hamjihatlik, mamlakatimizda barqarorlik hamda davlatlararo tinchlik, mintaq xalqlarining mushtarak ma'naviy – ma'rifiy, madaniy ildizlarini yoshlarga tushuntirish.

"Ma'naviy xavfsizlik muammosini hal qilish jamiyatimiz mustaqil demokratik taraqqiyotning asosiy shartlaridan biriga aylandi. Shu bois ham mamlakatimizga nisbatan bo'layotgan ma'naviy xurujlar mohiyatini va strukturasi anglash unga qarshi kurashishning samarali yo'llari ustida tinimsiz ravishda izlanishlar olib borish eng muhim vazifalardan biridir"[6].

NATIJALAR. Avvalo, jamiyatimiz a'zolarining milliy ongi va qadriyatlariga ta'sir etishga qaratilgan xurujlar xalqimizning davrlar davomida shakllanib kelgan qadriyatlari, milliy ongi va dunyoqarashiga hamda xulq-atvorida ota-onaga, katta yoshlilarga hurmat bilan qarash, muayyan voqealarga mulohaza va andisha bilan munosabatda bo'lish, jamoaning fikriga ehtirom ko'rsatish kabi xislatlar ustuvorlik qiladi va mana shu qadriyatlar jamiyatimiz ma'naviyatini tamal toshlarini tashkil qiladi. Qolaversa, o'zbek xalqining milliy madaniyati, o'zining tarixining boyligi bilan alohida ajralib turadi. Ma'naviy tahdid uyushtirayotgan kuchlar jamiyatimiz a'zolarini milliy madaniy boylıklaridan va imkoniyatlaridan begonalashtirishga harakat qilmoqdalar. Bugungi murakkab vaziyatda g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlarning bosimga bardosh bera oladigan jamiyatni shakllantirish uchun quyidagilar hayotimizning zaruriy talablariga aylanmoqda:

-turli ma'naviy buzg'unchilik va vayronkorlik harakatlari va xurujlarining oldini olish aholi, ayniqsa, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizda ularga nisbatan ma'naviy immunitetni shakllantirish, ezgu g'oyalarni targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratish;

- bu borada ta'lim bosqichlari, ma'naviyat va ma'rifat tizimi uchun zarur o'quv va amaliy dasturlar tuzish va ularni joriy etish;

-aholining ma'naviy-ma'rifiy savodxonligini yangi bosqichga ko'tarish, ushbu yo'nalishdagi ta'lim-tarbiya ishlarining aniqlash, bu boradagi samarali faoliyat mexanizmini yaratish"[3; 273-274].

XULOSA. Tahdidbardosh immunitetni hosil qilishda yoshlarning milliy intellektual salohiyatni oshirish, ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiyani rivojlantirish, milliy o'zlikni anglash, qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish lozim. Mamlakatimizda ananaviy va zamonaviy, ma'naviyatni yuksatirishga xizmat qiladigan, axloqiy me'yorlarni o'zida mujassam etgan, yoshlarni tanqidiy fikrlashga undaydigan ta'lim-tarbiyaga ehtiyoj bor va shunday tizim yoshlarimizni g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlardan himoyalashda asosiy immunitet vazifasini bajaradi. Zamonaviy kasblar, ijtimoiy fanlar, axborot-media savodxonlik kabi yo'nalishlarga

e'tibor berish lozim. Ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va boshqa shu kabi manbalardan kelayotgan ma'lumotlarni avval filtdan o'tkazmasdan "iste'mol qilish" g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlardan ta'siriga tushib qolishni muqarrarlashtiradi. Bunday katta sig'imdagi va soniyasiga minglab ortib borayotgan axborotlarni filtrlash uchun insonning tafakkurida tahdidlarga qarshi immunitetni hosil qilish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. –T.: O'qituvchi, 1992, 14-bet.
2. Cho'lpon. Asarlar. 2-jild. –T.: G'afur G'ulom, 1994, 178-b.
3. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.: O'zbekiston, 2021, 339-b.
4. I. Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. –T.: Tafakkur, 1998. 2-son, 4-bet.
5. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. –T.: O'zbekiston, 2019, 339-bet.
6. Paxrutdinov Sh.I., Jo'raev T.A. va boshqalar. Milliy manfaatlar va boshqaruv mas'uliyati. Ogohlik va hushyorlik tamoyillari. –T.: G'afur G'ulom, 2008, 229-bet.



VATANPARVARLIK TUSHUNCHASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY HARBIY QADRIYATLAR

Abdulkhayev Azizbek Abdurashid o'g'li,

Namangan davlat universiteti mustaqil tatqiqotchisi

PATRIOTISM: HISTORICAL-PHILOSOPHICAL EVOLUTION AND MODERN MILITARY VALUES


Abdulkhayev Azizbek Abdurashid ogli,

Independent Researcher, Namangan State University

ПАТРИОТИЗМ: ИСТОРИКО-ФИЛОСОФСКАЯ ЭВОЛЮЦИЯ И СОВРЕМЕННЫЕ ВОЕННЫЕ ЦЕННОСТИ

Абдулхаев Азизбек Абдурашид оглы,

*независимый исследователь Наманганского государственного
университета*



e-mail:

aabdulkhayev12@gmail.

com



Annotatsiya: Maqolada vatanparvarlik tushunchasining tarixiy-falsafiy ildizlari, ularning antik davrlardan to zamonaviy jamiyatgacha bo'lgan shakllanish bosqichlari va taraqqiyoti tahlil qilinadi. Xususan, harbiy qadriyatlar tizimida vatanparvarlikning g'oyaviy-ma'naviy o'rni, uning milliy ong va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi omil sifatidagi ahamiyati falsafiy yondashuv asosida o'rganiladi. Maqolada, shuningdek, zamonaviy xavfsizlik konsepsiyalari va global geosiyosiy muhitda vatanparvarlikning qayta talqin etilishi, harbiy xizmatchilar ongida vatan himoyasi ruhini shakllantirishdagi dolzarb metodik va axloqiy yondashuvlar yoritilgan. O'zbekistonning yangi davr harbiy-ma'naviy siyosatida vatanparvarlik tamoyillarining uyg'unligi, yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan strategik yondashuvlar ijtimoiy-falsafiy tahlil asosida asoslab berilgan. Maqola yakunida vatanparvarlik tushunchasini zamonaviy harbiy qadriyatlar tizimi bilan integratsiyalashuvining nazariy va amaliy ahamiyati yuzasidan xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, tarixiy-falsafiy evolyutsiya, harbiy qadriyatlar, milliy ong, g'oyaviy tarbiya, zamonaviy xavfsizlik, harbiy-ma'naviy tarbiya, yoshlar, fuqarolik pozitsiyasi, ma'naviy qadriyatlar.

Abstract: This article analyzes the historical and philosophical foundations of the concept of patriotism, tracing its formation and development from antiquity to contemporary society. Particular attention is given to the moral and ideological significance of patriotism within the system of military values and its role as a factor in strengthening national identity and social cohesion, approached through a philosophical lens. The article also explores modern security concepts and the redefinition of patriotism within the global geopolitical environment, as well as current methodological and ethical approaches to instilling a spirit of homeland defense in the consciousness of military personnel. Special focus is placed on harmonizing patriotic principles within Uzbekistan's new military-ethical policy and strategic approaches to educating youth in the spirit of military patriotism, justified through socio-philosophical analysis. In conclusion, the article presents findings on the theoretical and practical importance of integrating the concept of patriotism into the system of modern military values.

Keywords: patriotism, historical-philosophical evolution, military values, national consciousness, ideological education, contemporary security, military-ethical upbringing, youth, civic stance, spiritual values.

Аннотация: В статье анализируются историко-философские корни понятия патриотизма, этапы его формирования и развития от античных времён до современного общества. В частности, рассматривается идейно-нравственное значение патриотизма в системе военных ценностей, его роль как фактора, укрепляющего национальное сознание и общественную сплочённость, с опорой на философский подход. Также в статье освещаются современные концепции безопасности и переосмысление патриотизма в глобальной геополитической среде, а также актуальные методические и этические подходы к формированию духа защиты Родины в сознании военнослужащих. Особое внимание уделяется гармонии патриотических принципов в новой военно-нравственной политике Узбекистана, стратегическим подходам к воспитанию молодёжи в духе военного патриотизма, обоснованным с позиций социально-философского анализа. В заключении статьи представлены выводы о теоретической и практической значимости интеграции понятия патриотизма в систему современных военных ценностей.

Ключевые слова: патриотизм, историко-философская эволюция, военные ценности, национальное сознание, идеологическое воспитание, современная безопасность, военно-нравственное воспитание, молодёжь, гражданская позиция, духовные ценности.

Kirish. Insoniyat tarixida vatanparvarlik konsepsiyasi har doim milliy o'zlik, g'oyaviy mustaqillik va ma'naviy barqarorlikni ifodalovchi ijtimoiy-falsafiy hodisa bo'lib kelgan. XX va XXI asrlar global geosiyosiy ziddiyatlar, axborot tahdidlari, ideologik bosimlar va gibrid urushlar keskinlashgan bir sharoitda esa vatanparvarlik, ayniqsa, harbiy qadriyatlar tizimi, milliy va madaniy strukturani mustahkamlovchi ijtimoiy resurs sifatida dolzarb ma'no kasb etmoqda. Shu munosabat bilan, vatanparvarlik tushunchasining tarixiy ildizlari, falsafiy o'zlagi va zamonaviy harbiy qadriyatlar bilan integratsiyalanishini nazariy-ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish muhim ilmiy-ma'naviy vazifa bo'lib qolmoqda. Tarixan qaralganda, vatanparvarlik antik davrlardan boshlab, antik yunon-rim davrining shaharlik fuqarolarining o'zlikni himoya qilish instinktlaridan tortib, o'rta asrlar feodal tizimi va milliy monarxiyalar davrida markazlashgan davlat tuzilmalarining ramzi sifatida shakllandi [1]. Bu davrda vatanparvarlik solihlik, jasorat va vatan obro'sini saqlash etikasi bilan bog'liq falsafiy kategoriyalar orqali shakllanib borgan. Aynan bu bosqichlarda harbiy xizmat fuqarolik burchi bilan sintez hosil qilib, vatanparvarlik g'oyalari fuqarolik pozitsiyasi va shaxsiy axloqiy tanlov bilan uzviy bog'landi. Shu tarixiy fon individning vatanparvarlik mohiyatini milliy ong va axloqiy majburiyatlar dunyosi orqali anglashiga zamin yaratdi. Keyingi bosqichda yevropalik hunarmandlar respublikalari, milliy davlatlar va 19-asr millatchilik harakatlari fonida vatanparvarlik

konsepsiyasi kollektiv identitet, milliy birdamlik va vakolat xizmatiga bag'ishlangan g'oyaviy platformaga aylandi. Ilmiy falsafa sohasida Hegel, Herder, Renan kabi mutafakkirlar vatanparvarlikning milliy ong va fuqarolik mas'uliyatiga qanday ta'sir etishini falsafiy nazariyalar asosida tahlil etdilar. Ularning nuqtayi nazari shuni ko'rsatadiki, vatanparvarlik yagona emas, balki milliy-madaniy kontekst, fuqarolik reciprociteti va axloqiy dialoglar orqali shakllanadi. Tarixiy-falsafiy evolyutsiya jarayoni vatanparvarlik tushunchasini faqat sifatli-g'oyaviy holat sifatida emas, balki ma'naviy strukturali fenomen sifatida ochib beradi [2]. Zamonaviy davrda vatanparvarlikning psixologik va ijtimoiy normativ komponentlari kuchli o'rin tutadi. Global miqyosdagi liberal-demokratik qadriyatlar va inson huquqlarining targ'ib qilinishi fonida vatanparvarlik tushunchasi tolerantlik, fuqarolik huquqi, demokratik ishtirok va madaniy pluralizmni hisobga oluvchi yondashuvni talab qiladi. Shu bilan birga, xavfsizlik konsepsiyalari va harbiy xavf-xatarlar, jumladan, terrorizm, harbiy urushlar, kiberhujumlar vatanparvarlikni mudofaa tayyorgarligi, fuqarolik axloqi va militaristik intizom bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Bu esa qiyosh nurlaridan himoyalaniş kabi emas, balki ma'naviy immunitet, ideologik mustahkamlik va fuqarolik identitetining dinamik balansini ta'minlaydigan — demokratik-deklarativ bo'lmagan, balki amaliy axloqiy kontekstda shakllanadigan hodisa sifatida infaktsiyalanadi.

Milliy o'zlik va vatanparvarlik tushunchalarini tarixiy-falsafiy jihatdan chuqur o'rganishda eng ko'p sharafiga loyiq olimlardan biri — chex-britaniyalik falsafa va sotsiologiya mutaxassisi **Ernest Gellner** bo'lib, uning millatchilik haqidagi nazariyasi vatanparvarlik konsepsiyasini ijtimoiy konstrukt sifatida tahlil qilish imkoniyatini beradi. Gellner millatchilikni modernizatsiya jarayoni kontekstida milliy identitetni shakllantiruvchi kuch sifatida ko'rib chiqadi, bu yondashuv antik va o'rta asr falsafiy g'oyalari bilan uzviy bog'liq holda zamonaviy harbiy qadriyatlarni tushunishga zamin yaratadi[5]. Uning nazariyasi asosida vatanparvarlik nafaqat fuqarolik tuyg'usi, balki ijtimoiy institutlar va milliy tarbiya orqali shakllanadigan strukturaviy model sifatida talqin etiladi. Boshqa tomondan, amerikalik siyosiy olim **Walker F. Connor** esa millatchilik va vatanparvarlik oraliq'idagi farqni chuqur falsafiy-psixologik asosda tahlil qiladi. Connor millatchilikni “etnik millatchilik” (ethnonationalism) deb atab, bu dastlabki his-tuyg'uga asoslangan fenomen ekanligini ta'kidlaydi; u vatanparvarlik va millatchilikni bir-biridan farqlantirish zaruratini ko'rsatadi[6]. Connorning fikricha, vatanparvarlik — bu shaxsning ongiga singdirilgan, tarixiy — sentiymental tajriba va fuqarolik mas'uliyati orqali ijtimoiy birligini mustahkamlovchi axloqiy tuyg'udir. Bu ikki olimning konseptual yondashuvlari o'zaro sintez qilinib, maqolaning mavzusiga uzviy tarzda integratsiyalangan: Gellnerning sotsiologik-strukturaviy nuqtai nazari milliy tarbiya va harbiy qadriyatlarining institutlar orqali qanday shakllanishini ko'rsatadi; Connor esa bu jarayonning psixologik va ma'naviy fundamentini — shaxsdagi vatanparvarlik tuyg'usining etnik-axloqiy ildizlarini ochadi[7]. Shu tavsiflar asosida, adabiyotlar tahlili bo'limida Gellner va Connor bilimlaridan foydalangan holda vatanparvarlik tushunchasining tarixiy-falsafiy evolyutsiyasi hamda bu evolyutsiyaning zamonaviy harbiy qadriyatlar kontekstida qanday yangicha talqin etilayotganiga oid zamonaviy ilmiy paradigmani kuzatib borish muhimligi yoritiladi.

Ushbu maqolada “Vatanparvarlik tushunchasining tarixiy-falsafiy evolyutsiyasi va zamonaviy harbiy qadriyatlar”ni tadqiq etishda tarixiy-komparativ, aksiologik, sotsiokultural, kontent-tahlil va sistemali yondashuv metodlaridan

kompleks tarzda foydalanildi; xususan, tarixiy-komparativ metod orqali vatanparvarlik fenomenining turli davrlardagi shakllanish xususiyatlari o'rganildi, aksiologik tahlil yordamida bu tushunchaning ma'naviy-axloqiy va mafkuraviy mohiyati aniqlab berildi, sotsiokultural yondashuv zamirida vatanparvarlik qadriyatlarining ijtimoiy institutlar bilan o'zaro aloqasi va ularning yoshlar ongiga ta'siri chuqur tahlil qilindi, kontent-tahlil metodi asosida zamonaviy harbiy diskurslarda ishlatilayotgan ideologik matnlar tahlil etildi, shuningdek, sistemali yondashuv orqali vatanparvarlik tushunchasining ijtimoiy-falsafiy, madaniy, siyosiy va harbiy jihatlari o'zaro bog'liqlikda yoritilib, tadqiqot predmeti integral ko'rinishda ochib berildi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, vatanparvarlik tushunchasining tarixiy-falsafiy evolyutsiyasi zamonlar kesimida o'zgarib borgan bo'lib, u turli davrlarda ijtimoiy ongda shakllangan g'oyaviy-ma'naviy qadriyatlar, harbiy-mafkuraviy yo'nalishlar va milliy identitetni mustahkamlovchi omillar bilan uzviy uyg'unlashgan holda, ayniqsa zamonaviy davrda harbiy xizmatchilar ongida faollashgan ma'naviy psixologik barqarorlik, milliy g'urur, fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy birdamlik va milliy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan strategik qadriyat sifatida namoyon bo'lmoqda hamda bu qadriyatning zamonaviy talqinlari vatan himoyasini nafaqat fizika darajasida, balki ruhiy-ma'naviy yuksalish mezonini sifatida ham baholash imkonini bermoqda.

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, zamonaviy Maugli sindromi — bu shunchaki internet qaramligining natijasi emas, balki axborot jamiyatidagi nomutanosib ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar bilan bevosita bog'liq murakkab psixologik holatdir. Mazkur sindromning oldini olish va mavjud klinik belgilarni bartaraf etishda psixoterapevtik yondashuvlar, xususan, kognitiv xulqiy terapiya, geshtalt terapiya, hamda sotsiopsixologik integratsiyalashgan rehabilitatsiya modellarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur. Shu bilan birga, o'smirlar va yoshlarda raqamli gigiyena, mediamadaniyat va ijtimoiy emotsional kompetensiyalarni shakllantirish orqali zamonaviy Maugli sindromi profilaktikasi bo'yicha ta'limiy dasturlar ishlab chiqish ham dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu tadqiqot internet qaramligi va psixologik izolyatsiya fonida yuzaga kelgan yangi

ijtimoiy-psixologik sindromlarni aniqlash, ularni ilmiy tasniflash va kompleks yondashuv asosida hal etishning ilmiy-nazariy asoslarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirov. B. S. Harbiy vatanparvarlik fazilatining axloqiy mezonlari //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2024. – T. 3. – №. 34. – C. 528-531.
2. Atxamjonovna B. D., Shohbozbek E. Respublikamizda maktabgacha ta'limda yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 221-228.
3. Xoliqov I. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda harbiy an'analarning o'рни //Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
4. Abdusattarovna O. X., Shohbozbek Ergashbayev. Ijtimoiy falsafada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirish //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 175-182.
5. Ikramshikovna R. I. Bo'Lajak ofitserlarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning pedagogik jihatlari //Tadqiqotlar. – 2025. – T. 59. – №. 4. – C. 36-43.
6. Mamadaliyeva Diloram, Ergashbayev Shohbozbek. O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy dunyo qarashini rivojlantirishning pedagogik asoslari //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 207-215.



GENERATIV SUN'YIY INTELLEKT YORDAMIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNI ADAPTIV LOYIHALASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

*Kulmuradov Dilshod Istamovich, Jizzax politexnika instituti dotsenti,
(PhD)*

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING ADAPTIVE DESIGN COMPETENCE IN FUTURE ENGINEERS THROUGH GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE


*Kulmuradov Dilshod Istamovich, Associate Professor, Jizzakh
Polytechnic Institute, (PhD)*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ АДАПТИВНОГО ПРОЕКТИРОВАНИЯ У БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ С ПОМОЩЬЮ ГЕНЕРАТИВНОГО ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

*Кулмурадов Дилшод Истамович, доцент Джиззакского
политехнического института, (PhD)*



<https://orcid.org/0000-0002-0938-2434>



Annotatsiya: Ushbu maqolada yaratuvchi sun'iy aql texnologiyalari yordamida bo'lajak muhandislarni moslashuvchan loyihalash qobiliyatini rivojlantirishning ta'limiy shart-sharoitlari o'rganilgan. Tadqiqotda zamonaviy muhandislik ta'limida raqamli transformatsiya jarayonlari, yaratuvchi sun'iy aqlning ta'limiy imkoniyatlari va ularning amaliy qo'llanilishi tahlil qilingan. Maqolada moslashuvchan loyihalash qobiliyatining tarkibiy qismlari, ta'limiy shart-sharoitlarning metodologik, texnologik va tashkiliy jihatlarini ta'minlash yo'llari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida yaratuvchi sun'iy aql vositalarini ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish uchun kompleks yondashuv taklif etilgan.

Kalit so'zlar: yaratuvchi sun'iy aql, moslashuvchan loyihalash qobiliyati, muhandislik ta'limi, ta'limiy shart-sharoitlar, raqamli transformatsiya, innovatsion ta'lim texnologiyalari, loyiha asosidagi ta'lim

Annotation: This article examines the pedagogical conditions for developing adaptive design competence in future engineers using generative artificial intelligence technologies. The study analyzes digital transformation processes in modern engineering education, the pedagogical potential of generative AI, and their practical applications. The article discusses the components of adaptive design competence and ways to ensure methodological, technological, and organizational aspects of educational conditions. As a result of the research, a comprehensive approach is proposed for the effective integration of generative AI tools into the educational process.

Keywords: generative artificial intelligence, adaptive design competence, engineering education, pedagogical conditions, digital transformation, innovative educational technologies, project-based learning.

Аннотация: В данной статье исследуются педагогические условия развития адаптивной проектной компетенции будущих инженеров с использованием технологий генеративного

искусственного интеллекта. В исследовании анализируются процессы цифровой трансформации в современном инженерном образовании, педагогический потенциал генеративного ИИ и их практическое применение. В статье рассматриваются компоненты адаптивной проектной компетенции, способы обеспечения методологических, технологических и организационных аспектов образовательных условий. В результате исследования предложен комплексный подход для эффективной интеграции инструментов генеративного ИИ в образовательный процесс.

Ключевые слова: генеративный искусственный интеллект, адаптивная проектная компетенция, инженерное образование, педагогические условия, цифровая трансформация, инновационные образовательные технологии, проектное обучение.

Kirish. Hozirgi raqamli texnologiyalar asrida muhandislik ta'limida tubdan o'zgarishlar ro'y bermoqda va yaratuvchi sun'iy aql texnologiyalari ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. XXI asrda texnologik inqilobning tezlashuvi, To'rtinchi sanoat inqilobi tushunchasining keng tarqalishi va raqamli o'zgarishlar jarayonlari muhandislik sohasida yangi talablar va imkoniyatlarni keltirib chiqarmoqda. Bo'lajak muhandislarni tayyorlashda moslashuvchan loyihalash qobiliyatini rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki zamonaviy muhandislik amaliyoti doimiy ravishda o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashishni, yangi texnologiyalarni o'zlashtirishni va yangilikchilik yechimlarini yaratishni talab qiladi.

Yaratuvchi sun'iy aql vositalari muhandislik loyihalashda yangi imkoniyatlar yaratib, an'anaviy yondashuvlarni to'ldiradi va boyitadi. Chat GPT, Claude, Midjourney, AutoCAD AI, SolidWorks AI kabi platformalar muhandislik loyihalash jarayonini tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu texnologiyalar nafaqat dizayn jarayonini tezlashtiradi, balki yangi ijodiy imkoniyatlar ham ochadi. Biroq, ushbu texnologiyalarning ta'lim jarayoniga samarali birlashtirilishi alohida ta'limiy yondashuvni talab etadi. Yaratuvchi sun'iy aql texnologiyalarining ta'limiy afzalliklari juda keng. Aqlli o'qituvchi tizimlari orqali talabalar kun-tun yordam olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Moslashuvchan ta'lim platformalari har bir talabning o'rganish tezligi va uslubiga moslashadi. Virtual laboratoriyalar xavfli yoki qimmat tajribalarni xavfsiz muhitda o'tkazish imkonini beradi. Parametrlar dizayn vositalari orqali talabalar ko'plab dizayn variantlarini tezda yaratib, eng yaxshi yechimni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, yaratuvchi sun'iy aql vositalari ta'limda o'yin elementlarini qo'shish

imkonini beradi. O'zaro ta'sirli taqlid dasturlari, virtual haqiqat muhitlari va qo'shimcha haqiqat texnologiyalari ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Mashinani o'rgatish algoritmlari orqali talabalarning xatolarini tahlil qilib, shaxsiy maslahatlar berish mumkin. Tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari yordamida talabalar muhandislik hujjatlarini o'z-o'zidan tahlil qilish va yaxshilash takliflarini olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bo'lajak muhandislarni moslashuvchan loyihalash qobiliyatini rivojlantirishning samarali ta'limiy shart-sharoitlari bir nechta asosiy qismlarni o'z ichiga oladi. Uslubiy jihatdan, ta'lim jarayoni amaliyotga yo'naltirilgan bo'lishi, haqiqiy muhandislik vazifalarini o'z ichiga olishi va yaratuvchi sun'iy aql vositalarini tabiiy ravishda birlashtirilishi zarur. Texnologik jihatdan, zamonaviy dasturiy ta'minot va apparatlar bilan ta'minlash, tezkor internet aloqasi va bulutli hisoblash resurslariga kirish imkoniyati muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muhitini tashkil etishda aralash yondashuv qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'lib, an'anaviy auditoriya mashg'ulotlari bilan raqamli platformalardagi faoliyat birlashtiriladi. Ta'limiy kadrlarning tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratish zarur, chunki o'qituvchilar o'zlari yaratuvchi sun'iy aql texnologiyalaridan mahorat bilan foydalanishni bilishlari va talabalarni yo'naltira olishlari kerak. Tashkiliy-uslubiy shart-sharoitlar qatoriga quyidagilar kiradi: loyiha asosidagi ta'lim uslubini qo'llash, fanlararo yondashuvni ta'minlash, haqiqiy sanoat hamkorligi o'rnatish, doimiy kasbiy rivojlanish dasturlarini tashkil etish. Qurilish talablari esa zamonaviy kompyuter sinflari, yuqori unumdorlikdagi grafik stansiyalar, uch o'lchovli bosib chiqaruvchi qurilmalar, robotika laboratoriyalari va yaratuvchi sun'iy aql platformalariga litsenziyali kirish imkoniyatini o'z ichiga oladi.

Loyiha asosidagi ta'lim uslubi ushbu jarayonda markaziy o'rin tutadi. Talabalar jamoaviy loyihalarda ishlab, turli fanlar bo'yicha bilimlarni birlashtiradi va yaratuvchi sun'iy aql vositalaridan murakkab foydalanishni o'rganadilar. Muntazam o'z ustida fikrlash va tahlil uchrashuvlari orqali o'quv jarayonining sifati nazorat qilinadi va zarur tuzatishlar kiritiladi. Amaliy qo'llanishdagi asosiy usullar quyidagilarni o'z ichiga oladi: "Qilib o'rganish" uslubini qo'llash, haqiqiy sanoat muammolariga yo'naltirilgan loyihalar ishlab chiqish, ustozshogird dasturlarini tashkil etish, dasturlash marafoni va dizayn marafoni kabi musobaqalar o'tkazish. Dizayn fikrlash uslubiyotini yaratuvchi sun'iy aql vositalari bilan birlashtirish orqali talabalar yangilikchilik yechimlarini yaratishni o'rganadilar. Raqamli tahlil vositalari orqali talabalarning yaratuvchi sun'iy aql platformalarida faoliyat ko'rsatkichlari o'z-o'zidan to'planadi va tahlil qilinadi. O'rganish tahlili yordamida shaxsiy o'rganish yo'llari aniqlanadi va zarur to'g'irlash choralari belgilanadi. Bashorat qilish modeli orqali talabalarning kelgusidagi yutuqlari oldindan aytiladi va faol yordamlar ko'rsatiladi.

Qobiliyat asosidagi baholash tizimida quyidagi ko'rsatkichlar hisobga olinadi: texnik bilimlarning chuqurligi, yaratuvchi sun'iy aql vositalaridan foydalanish mahorati, ijodiy muammoli fikrlash qobiliyati, hamkorlikda ishlash ko'nikmalari, muloqot qobiliyati, yetakchilik qobiliyatlari va kasbiy axloq normalarini bilish. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha muntazam kuzatuv o'tkaziladi va natijalar asosida ta'lim jarayoni yaxshilanadi. Yaratuvchi sun'iy aql texnologiyalarini muhandislik ta'limiga joriy etishda bir qator qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Texnologik qiyinchiliklar qatoriga internet tarmog'ining sekinligi, dasturiy ta'minotning qimmatligi, texnik xodimlarning yetishmasligi kiradi. Ta'limiy qiyinchiliklar o'qituvchilarning yangi texnologiyalarga qarshiligi, an'anaviy ta'lim usullarini afzal ko'rishi, o'quvchilarning raqamli savodxonlik darajasining pastligi bilan bog'liq. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun murakkab yondashuv zarur. Texnologik jihatdan, bosqichma-bosqich yangilanish dasturini amalga oshirish, xalqaro grantlar va loyihalardan foydalanish, texnologik kompaniyalar bilan strategik hamkorlik o'rnatish

tavsiya etiladi. Ta'limiy jihatdan, o'qituvchilar uchun intensiv mashg'ulotlar tashkil etish, o'zgarishlarni boshqarish usullarini qo'llash, rag'batlantirish tizimini yaratish muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy cheklovlarni bartaraf etish uchun davlat-xususiy sektor hamkorligi modellarini qo'llash, xalqaro donorlar va jamg'armalardan moliyaviy yordam olish, bitiruvchilar tarmog'i orqali resurslarni safarbar qilish kabi usullardan foydalanish mumkin. Shuningdek, ochiq kodli yaratuvchi sun'iy aql vositalaridan foydalanish orqali xarajatlarni kamaytirish mumkin. Yaratuvchi sun'iy aql texnologiyalarining rivojlanishi bilan muhandislik ta'limida yangi imkoniyatlar paydo bo'lib bormoqda. Kvant hisoblash, neyromorf muhandislik, biologik ilhomli dizayn kabi yangi yo'nalishlar yaratuvchi sun'iy aql bilan birlashganda inqilobiy o'zgarishlar yuzaga kelishi mumkin. Virtual va qo'shimcha haqiqat texnologiyalarining rivojlanishi chuqur ta'lim muhitlarini yaratishga imkon beradi.

Xulosa. Yaratuvchi sun'iy aql yordamida bo'lajak muhandislarni moslashuvchan loyihalash qobiliyatini rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, yaratuvchi sun'iy aql texnologiyalarining ta'lim jarayoniga samarali birlashtirilishi nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va moslashuvchan yondashuvlarni ham rivojlantiradi. Muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun uslubiy, texnologik, kadrlar tayyorlash va tashkiliy jihatlarni hisobga olgan holda murakkab yondashuv qo'llash zarur. Ta'limiy shartsharoitlarning to'g'ri ta'minlanishi orqali kelajakda raqamli texnologiyalardan samarali foydalana oladigan, moslashuvchan fikrlaydigan va yangilikchi yechimlar yarata oladigan muhandislar tayyorlash mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдуллаев Ш.М. Инновационные технологии в инженерном образовании: проблемы и перспективы // Вестник Ташкентского государственного технического университета. – 2023. – №3. – С. 45-52.
2. Вахидова Н.П., Турапова Д.А. Адаптивное проектирование в подготовке

будущих инженеров: педагогический аспект / Н.Р. Вахидова, Д.А. Турапова // Современные проблемы науки и образования. – 2024. – №1. – URL: <https://science-education.ru/article/view?id=34567> (дата обращения: 15.08.2025).

3. Ибрагимов А.К. Цифровая трансформация инженерного образования в Узбекистане: монография / А.К. Ибрагимов. – Ташкент: Изд-во ТГТУ, 2023. – 168 с.

4. Каримова Л.Н. Применение генеративного искусственного интеллекта в образовательном процессе технических вузов // Педагогическая информатика. – 2024. – №2. – С. 78-89.

5. Мирзаев О.А., Усманов Р.Х. Формирование проектных компетенций студентов инженерных специальностей средствами ИИ-технологий / О.А. Мирзаев, Р.Х. Усманов // Высшее образование в России. – 2023. – №12. – С. 134-142.

6. Рахимов К.Ш. Интеграция искусственного интеллекта в процесс подготовки инженерных кадров: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08 / К.Ш. Рахимов. – Ташкент, 2024. – 157 с.

7. Юсупова М.А. Педагогические условия развития адаптивных компетенций будущих инженеров в цифровой образовательной среде // Инновации в образовании. – 2024. – №4. – С. 23-31.



SIMULATION AND TRANSFORMATION OF KNOWLEDGE IN THE CONTEXT OF THE CIVILIZATIONAL PARADIGM OF HYPERREALITY

Djurayeva Nigora Avazovna,

Senior Lecturer, PhD of the department of "Philosophy" of

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

СИМУЛЯЦИЯ И ТРАНСФОРМАЦИЯ ЗНАНИЯ В КОНТЕКСТЕ ЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ПАРАДИГМЫ ГИПЕРРЕАЛЬНОСТИ

Джуряева Нигора Авазовна,

старший преподаватель, доктор философии кафедры

"Философия" Национального университета Узбекистана имени

Мирзо Улугбека

GIPERREALLIK SIVILIZATSION PARADIGMASI DOIRASIDA BILIMNING SIMULYATSIYASI VA TRANSFORMATSIYASI

Djurayeva Nigora Avazovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti "Falsafa"

kafedrasida katta o'qituvchisi, (PhD)



e-mail:
nigoradjurayeva@
mail.ru



Abstract: This article is devoted to the analysis of simulation as a key mechanism for transforming cognitive processes within the framework of the modern civilizational paradigm determined by the phenomenon of hyperreality. The author examines the epistemological consequences of the transition from reality to simulacrum, in which stable reference points of truth disappear, and knowledge itself becomes a function of digital representations and the media environment. Based on the concepts of J. Baudrillard, M. Foucault and P. Virilio, the article identifies key characteristics of a civilizational shift in contemporary Central Asia, in which hyperreality begins not only to distort reality, but also to replace it.

Key words: simulation, simulacrum, hyperreality, truth, knowledge, transformation, civilization paradigm, Central Asia.

Аннотация: Статья посвящена анализу симуляции как ключевого механизма трансформации когнитивных процессов в рамках современной цивилизационной парадигмы, детерминируемой феноменом гиперреальности. Автор рассматривает эпистемологические последствия перехода от реальности к симулякру, в котором исчезают устойчивые ориентиры истины, а само знание становится функцией цифровых репрезентаций и медиасреды. Опираясь на концепции Ж. Бодрийяра, М. Фуко и П. Вирильо, в статье выявляются ключевые характеристики цивилизационного сдвига в современной Центральной Азии, при котором гиперреальность начинает не только искажать реальность, но и подменять её.

Ключевые слова: симуляция, симулякр, гиперреальность, истина, знание, трансформация, цивилизационная парадигма, Центральная Азия.

Annotatsiya: Maqola zamonaviy sivilizatsion paradigma doirasida kognitiv jarayonlarning transformatsiyasida simulyatsiyaning asosiy mexanizm sifatida tahliliga bag'ishlangan bo'lib, bu jarayon giperreallik fenomeni bilan belgilanadi. Muallif reallikdan simulyakrga o'tishning epistemologik oqibatlarini ko'rib chiqadi, bu jarayonda haqiqatning barqaror mezonlari yo'qoladi va bilimning o'zi raqamli reprezentatsiyalar va media muhit funksiyasiga aylanadi. J.Bodriyyar, M.Fuko va P.Virilo

konsepsiyalariga tayangan holda, maqolada zamonaviy Markaziy Osiyodagi sivilizatsion o'zgarishning asosiy xususiyatlari aniqlanadi — bunda giperreallik nafaqat reallikni buzadi, balki uning o'rnini egallay boshlaydi.

Kalit so'zlar: *simulyatsiya, simulyakr, giperreallik, haqiqat, bilim, transformatsiya, sivilizatsiya paradigmasi, Markaziy Osiyo.*

Introduction. Modern society is experiencing a radical civilizational shift, which is based not only on technological development, but also on a fundamental transformation of the ways of knowing, interpreting and perceiving reality. In the context of rapid digitalization, widespread mediatization and the expansion of virtual environments, the phenomenon of hyperreality arises - a state in which simulacra begin to function as more «real» than reality itself: «A relativistic fusion/mixing of the factual (or, if you like, operational) and the virtual has taken place, the «reality effect» has prevailed over the principle of reality» [1, 108-109]. This situation leads to the substitution of representation for self-reproducing sign constructions, which has a profound impact on the foundations of human thinking and knowledge. The relevance of this issue is due to the need to rethink the nature of cognition in the context of a new civilizational paradigm, where clear boundaries between the true and the false, the authentic and the constructed, the real and the simulated disappear. Cognition can no longer be considered a neutral reflection of the external world, but becomes included in the processes of generation, processing and transmission of signs in post-media culture, which requires a transition from classical and even modernist epistemological models to the analysis of cognition as a dynamic and simulative process built into the logic of hyperreality.

Literature review and methodology. The problem of simulation and transformation of knowledge in the context of hyperreality was widely reflected in the philosophy of the late 20th - early 21st centuries. The founder of the theoretical understanding of the phenomenon of hyperreality is considered to be J.Baudrillard, whose works «Simulacra and Simulation», «The System of Things» and others laid the foundation for understanding simulation as a special type of symbolic processes that determine modern culture and consciousness[2]. Following Baudrillard, research in this area was carried out by M.Foucault[3], J.Deleuze[4], P.Virilio[1] focused on the relationship between technology, power and

knowledge, as well as on the transformations of the subject and episteme. In line with the civilizational paradigm, the problem of hyperreality and simulation is being explored by philosophers and cultural scientists who analyze shifts in the structure of modern society associated with digitalization, globalization and information technology [6, 7, 8, 9]. In particular, attention is paid to changes in cognitive models and mechanisms of knowledge construction in the context of postmodernism and post-truth. The methodological basis of this article is based on an interdisciplinary approach that combines system analysis, cultural interpretation and epistemological reflection. The main method is critical-theoretical, which allowed us to identify hidden structures and mechanisms of simulative cognition. Conceptual analysis of the key categories of «simulation», «hyperreality», «knowledge», «subject» and a comparison of classical epistemological models with new epistemological paradigms are used.

The transition from industrial to information and further to post-media civilization paradigm has radically changed not only economic, socio-political structures, but also the cognitive mechanisms through which individuals and societies perceive, comprehend and shape reality. Hyperreality as a key symptom of these transformations is not just an «excess» of signs and images, but a fundamental substitution of the real at the level of perception and consciousness. As J.Baudrillard points out, in the conditions of late capitalism and digital culture, we are not dealing with the representation of reality, but with the production of signs that have no real referent: «It has no relation to any reality at all, being its own simulacrum in its pure form»[2, 12]. A simulacrum is not a copy of the real, but an independent entity that functions in an autonomous, self-reproducing sign order. Thus, knowledge ceases to be a reflection or explanation of the world, but becomes a construction dependent on the media environment, algorithms and network structures. The civilizational shift is expressed in the loss of stable reference points of truth, identity and authoritative

knowledge. It should be noted that simulation in modern conditions does not act as a secondary process in relation to reality, but as a primary mechanism of cognition, representation and interpretation. In post-media culture, knowledge is formed not through direct experience of the world, but through interaction with images, interfaces and algorithmic structures. In this sense, simulation becomes a model that integrates the subject into the process of continuous processing of signs. Cognition as simulation, in our opinion, is not just manipulation of images, but a transition from representative logic to generative: the truth is not revealed, but constructed in the context of a certain media environment and cultural code. An example is the widespread use of AI, virtual reality, when knowledge and experience are obtained not from contact with the world, but from its digital models. Simulation radically transforms the structure of cognitive subjectivity: instead of the autonomous, rational subject of modernism, the distributed user comes to the fore, included in networks of digital interactions and dependent on algorithmically generated scenarios of perception. Sources of knowledge also undergo changes. They shift from empirical reality and direct experience to mediatized structures, where information is constructed and transmitted through digital channels and visual interfaces. In turn, the form of truth loses its universal character and acquires a relativistic nature, becoming dependent on the context, cultural codes and logic of the platforms in which it arises and functions.

In the philosophy of J.Baudrillard, a special place is occupied by the concept of «catastrophe of meaning»[2, 115], which arises at the intersection of criticism of the information society and the concept of simulation. The category of «catastrophe of meaning» appears as a result of the conflict between the stable mental structures of the subject and new types of media or social reality, in which the usual cognitive mechanisms lose their effectiveness. First, there is a cognitive frame of meaning and communication. The modern subject functions within the framework of a stable cognitive attitude - the idealism of meaning and communication, which Baudrillard describes as «mad idealism»[2, 115]. This attitude consists in the a priori expectation that all information coming from the outside should be meaningful, and communication should be aimed at

exchanging meaningful contents. Secondly, the catastrophe of meaning acts as a cognitive conflict. When what is happening violates the cognitive expectations of the subject, for example, turns out to be semantically vague or excessively simulated, mental models lose the ability to synthesize meaning, which determines the emergence of a feeling of frustration and anxiety, which are interpreted as a «catastrophe». However, from the point of view of J.Baudrillard, such a «catastrophe» is not an objective collapse, but a consequence of the subject's commitment to a linear model of understanding and interpretation. It should also be noted that the concept of «catastrophe» in itself can also be considered as a cognitive scenario - a structure built into narrative thinking. The perception of the end of meaning as a catastrophe is based on the frame of the final crisis produced by the cultural and cognitive system itself.

Baudrillard argues that a catastrophe ceases to be a catastrophe if the subject is able to go beyond the «ultimatum of meaning» i.e. change the cognitive frame — to abandon the obligatory search for meaning in favor of accepting multiplicity, uncertainty, and even simulativity as the new norm. This approach resonates with contemporary theories of cognitive flexibility and metacognition[10], according to which the ability to adaptively change interpretative schemes becomes critically important in conditions of information overload and instability.

Of particular importance is the analysis of the transformation of knowledge within the Central Asian context, where the processes of digitalization, globalization and mediatization occur against the backdrop of historical, ethnocultural layers. Regional societies are at the intersection of several civilizational matrices - Islamic, post-Soviet, globalist, which directly increases the fragmentation and instability of epistemological foundations. Digital platforms, social networks and mass media in Central Asia act not only as communication channels, but also as the main producers of symbolic reality, in which collective ideas about the past, present and future are formed. For example, visual narratives distributed on TikTok and Instagram create new forms of historical memory and national identity, often simulating «authenticity» with the help of templates and trends. For example, short videos in TikTok are becoming popular among

Kazakhstani users. They feature young bloggers dressed in stylized national costumes, dancing to ethnic music or a modern remix with dombra, filmed against the backdrop of yurts, steppes or traditional life. Such videos collect millions of views. These visual narratives are often presented as an «authentic» expression of Kazakh identity and pride in the nomadic past, but in reality they represent a symbolic reconstruction, often stylized and idealized. The historical complexity and diversity of traditional culture gives way to visual clichés that are convenient to perceive in the format of a fifteen-second video. That is how social networks act not just as broadcast channels, but as mediators of a new form of memory, where tradition becomes content, and national identity is part of digital branding. In recent years, videos have also been actively distributed in the Uzbek segment of Instagram, in which young people are presented in national clothing - atlas, adras, khan-atlas style jewelry, against the backdrop of architectural monuments of Samarkand, Bukhara, Khiva. Their videos are accompanied by oriental, folk music, including remixes of traditional melodies with a modern sound. Such visual narratives create a romanticized image of «oriental beauty», «the legacy of the great Timurid civilization» and «national pride». This visual representation actively simulates «authenticity», but in fact is a stylized cultural brand adapted to the tastes of the digital audience. As in Kazakhstan, digital platforms in Uzbekistan play a key role in the formation of a new model of collective memory, within which historical and cultural heritage is represented through visually attractive, but reduced and standardized media content. Such representation is not a direct reconstruction of historical realities, but a form of popular cultural interpretation of the past, conditioned by the logic of digital algorithms and the needs of the online audience. Thus, Central Asia is a rhizomatic space in which various forms of simulative knowledge intersect and conflict. It is here that the civilizational dynamics of the transition from traditional to post-media thinking is especially clearly manifested.

The education system is also undergoing a significant transformation, during which the emphasis is shifting from the development of critical thinking and autonomous judgment to the formation of skills to effectively navigate

information flows, comply with given formats and demonstrate competence, which in many cases is only superficial or imitative. This process is implemented through the integration of digital technologies and platforms that structure educational practices in the format of standardized tests, online courses and modular programs focused on the rapid assimilation of large volumes of data and adaptation to algorithmic requirements. As a result, the educational process is increasingly reduced to mastering the skills of formatted presentation of knowledge and completing assignments optimized for automated assessment systems, which reduces the importance of deep analytical work and independent critical understanding of the material. In addition, social networks and digital communications are forming new models for representing educational achievements. For example, through visual reports, short videos or certificates confirming completion of courses. Such forms of representation can create the illusion of competence that does not always correspond to the actual level of knowledge and skills, which gives rise to the phenomenon of «imaginary competence» in the educational environment of the digital age. There is a simplification and formalization of knowledge, in which educational platforms, rating systems and standardized tests contribute not to a deep understanding of the material, but to a superficial reproduction of formal competencies. Also, symbolic capital in the form of diplomas, certificates and digital badges increasingly acts as signs of possession of knowledge, without guaranteeing, at the same time, the presence of deep substantive understanding. This situation is particularly acute in the educational systems of countries in the transitional stage between the industrial and post-industrial stages of development, in particular in Central Asia. Here, the processes of digitalization of education often outpace the creation of conditions for the development of a critical educational environment. The introduction of technologies is carried out primarily as a symbol of modernization, and not as a conscious strategy for the formation of subjects of knowledge capable of critical understanding and creative use of knowledge.

One of the fundamental consequences of the simulation process is the loss of the real status as the

main criterion of truth. The discursive and ontological boundaries between the authentic and the artificial, between the reliable and the constructed, become blurred and indistinguishable. As a result, the epistemological paradigm is transformed from the task of revealing being to the practice of managing sign systems and creating effects of presence, focusing on the manipulation of representations instead of the search for objective knowledge. In this paradigm, the subject of knowledge itself is transformed. It ceases to be an autonomous cognitive subject in the Kantian or phenomenological sense and becomes a function of the simulation process - a consumer, an interpreter, but not a source or bearer of truth.

In the context of institutional weakness of the structures responsible for maintaining the reliability of information, such as independent media, academic communities and expert platforms, the media space in the region is transformed into a field of symbolic competition, where various actors - state, religious, etc., produce not verifiable truth statements, but competitive simulacra of truth, which are cognitively and semiotically designed constructions intended, first of all, to mobilize affective reactions and manage attention, rather than for critical reflection or the search for objectivity. Social conflicts and crises, instead of becoming the object of rational analysis, are immediately included in media-semiotic processing, as a result of which the significance of an event is determined not by its actual nature, but by the image circulating in the infosphere. Thus, public perception is formed primarily through the recognition of stable signs - political metaphors, symbolic labels and discursive templates that activate cognitive heuristics and replace the analytical processing of empirical data.

As J. Baudrillard emphasizes, the so-called «catastrophe of meaning» is not the end, but only a turn within the civilizational cycle, a sign of the transition to a new epistemological configuration, where knowledge and cognition coexist with uncertainty, simulation and a plurality of perspectives. Such a paradigm requires not the denial of reality, but a redefinition of the attitude towards it - not in terms of truth and representation, but in terms of navigation, flexibility and cross-contextual connectivity. In the context of Central Asia, where historical memory, sacred symbols and collective narratives still retain high symbolic

significance, the invasion of global hyperreality takes on a special character, simulation not only blurs the boundaries between the real and the media, but enters into an intense dialogue with traditional structures of knowledge - oral culture, mythopoetic thinking, Islamic and post-Soviet heritage. This creates a unique space of a hybrid knowledge system, in which global patterns of sign circulation are superimposed on local forms of meaning, and cognitive adaptation requires simultaneously maintaining cultural specificity and mastering the nonlinear logic of hyperreality. The Central Asian subject today turns out to be not just an object of global simulation, but also a potential architect of new forms of cognitive stability - forms capable of connecting the ritual and the digital, the sacred and the simulative, the local and the planetary.

References:

1. Вирильо П. Машина зрения. -СПб.: Наука, 2004. -139с.
2. Бодрийяр Ж. Симулякры и симуляция. - М.:Издательский дом«ПОСТУМ»,2015. — 240с.
3. Бодрийяр Ж. Система вещей. -М.: Рудомино, 2001.
4. Фуко М. Археология знания. -СПб.: ИЦ «Гуманитарная Академия»; Университетская книга, 2004. -416с.
5. Делез Ж., Гваттари П.-Ф. Тысяча плато: Капитализм и шизофрения. -М.: Астрель, 2010. - 895с.
6. Луман Н. Реальность массмедиа. -М.: Праксис, 2005. -256с.
7. Жижек С. Добро пожаловать в пустыню Реального. -М.: Фонд «Прагматика культуры», 2002. -160с.
8. Postman N. Amusing ourselves to death. - N.Y.: Andrew Postman, 2005. -184pp.
9. Stiegler B. Etats de choc: Bêtise et savoir au XXe siècle. -Paris: Fayard, 2012. -360p.
10. Spiro R.J., Feltovich P.J., Jacobson M.J., Coulson R.L. Cognitive Flexibility, Constructivism, and Hypertext: Random Access Instruction for Advanced Knowledge Acquisition III-Structured Domains. -Электронный ресурс: https://www.researchgate.net/publication/200772846_Cognitive_Flexibility_Constructivism_and_Hypertext_Random_Access_Instruction_for_Advanced_Knowledge_Acquisition_in_III-Structured_Domains. -Дата обращения: 12.08.2025.

INSON VA TABIAT MUNOSABATLARINING MENGZIYO SAFAROV IJODIGA TA'SIRI

Qaraqulov Azizbek Amonqulovich,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

THE INFLUENCE OF HUMAN RELATIONSHIPS AND NATURE ON THE WORK OF MENGZIYO SAFAROV

Qaraqulov Azizbek Amonqulovich,

Teacher of Termez University of Economics and Service

ВЛИЯНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ И ПРИРОДЫ НА ТВОРЧЕСТВО МЕНГЗИЁ

САФАРОВА

Каракулов Азизбек Амонкулович,

преподаватель Термезского университета экономики и сервиса



e-mail:

qoraqulovazizbek4@gmail.com

<https://orcid.org/>

0009-0003-1095-

6110

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining 20-asr

ikkinchi yarmi va undan keyingi davrida faol ijod qilgan yozuvchilardan biri Mengziyo Safarov ijodining asosiy g'oyaviy yo'nalishlaridan bo'lgan inson va tabiat munosabatlari masalasi tahlil qilinadi. Muallif Safarov hayoti, kasbi va ijodiy olamidagi asosiy omillar, ayniqsa, Surxondaryo vohasi tabiati, tarixiy qadriyatlar va madaniy merosining yozuvchiga qanday ruhiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: Mengziyo Safarov, inson va tabiat, Surxondaryo, arxeolog, adabiyot, Shukur Xolmirzaev, tarixiy meros, o'zbek nasri, ijodiy hamkorlik, tabiiy uyg'unlik.

Abstract: This article analyzes the issue of the relationship between man and nature, which is one of the main ideological directions of the work of Mengziyo Safarov one of the writers who actively worked in Uzbek literature in the second half of the 20th century and beyond. The author shows how the main factors in Safarov's life, profession, creative world, especially the nature, historical values and cultural heritage of the Surkhandarya region, had a spiritual impact on the writer.

Keywords: Mengziyo Safarov, man and nature, Surkhandarya, archaeologist, literature, Shukur Kholmiraev, historical heritage, Uzbek prose, creative collaboration, natural harmony.

Аннотация: В данной статье анализируется вопрос человеческих отношений и природы, который является одним из основных идейных направлений творчества Менгзиё Сафарова, одного из писателей, активно создававших узбекскую литературу во второй половине XX века и далее. Автор показывает, как основные факторы в жизни, профессии и творческом мире Сафарова, особенно природа, исторические ценности и культурное наследие Сурхандарьинского оазиса, оказали духовное влияние на писателя.

Ключевые слова: Менгзиё Сафаров, человек и природа, Сурхандарья, археолог, литература, Шукур Холмирзаев, историческое наследие, узбекская проза, творческое сотрудничество, природная гармония.

KIRISH. Shukur Xolmirzayev bilan zamondosh, bir davrda oliy ta'limda tahsil olgan, mutaxassisligi bo'yicha arxeolog bo'lsa ham bolalikdan adabi-yotga, yozuvchilikka mehr qo'ygan yana bir o'ziga xos adib Mengziyo Safarov bo'lib, u qoldirgan badiiy meros inson va tabiat munosabatlari taran-num etilgan betakror asarlar ekanligi bilan xarak-terli. Bundan tashqari M.Safarov nasrida insonlar va jonzotlar mavzusi

ham alohida iste'dod bilan tasvirlangan. Yozuvchi ijodida shu mavzu uchun alohida o'rin ajratgan jahon adiblari J.London, E.S.Tompson, H.Hesse, Ch.Aytmatov singari inson va tabiat mushtarakligi, inson va hayvonot olami o'rtasidagi azaliy bog'liqliklarni tasvirlashga tug'ma moyildir. Ta'kidlash joizki, Mengziyo Safarov bu mavzuda chuqur hayotiy bilim va tajribalarga ega, inson va tabiat mushtarakligi tarixining mohir bilimdoni

sifatida kam sonli o'zbek nosirlari orasida ajralib turadigan, nomi alohida hurmat bilan tilga olinadigan yozuvchi.

ASOSIY QISM. Mengziyo Safarov 1938-yilda Surxondaryo viloyatining Denov tumanida joylashgan Xayrobod qishlog'ida tug'ilgan. Toshkent davlat universite-tining tarix fakultetida tahsil olgan. Uning ijodi 1965-yildan boshlangan. "Ona yer qo'shig'i" (1969), "Turnalar uchadi" (1972), "Olis qirlar ortida" (1977), "Povest va hikoyalar" (1978), "Ona tuproq qo'shig'i" (1989) "Tabiat ehromi; Umr chorrahalarida" (1985, hammualliflikda), "Ayri-shox" (2008) kabi nasriy asarlari chop etilgan. Umrining oxirgi yillarida "Amudaryo" deb nomlangan nasriy asar yozishga kirishgan, ammo mazkur asar yakuniga yetmay qolgan. Yozuvchi M.Safarov 1994-yilda Denov tumanida vafot etgan.

Xuddi Shukur Xolmirzaevda sodir bo'lgani singari Mengziyo Safarovning bolalik yillari ham Hisor tog' tizmalari og'ushida qir-u dashtlarda, ona tabiatning so'lim go'shasi Denovda kechgan. U bolaligidanoq tabiatga va uning cheksiz sirsinoatlariga o'zgacha bir sarxushlikda mehr qo'ygan. Uning vatan va millat tarixi, qadimiy Turon aholisining turli asrlarda evrilishlarga yuz tutgan tarixiy, madaniy, ijtimoiy va siyosiy turmush tarzi, o'lka tabiatining hali o'rganilmagan, "ochilmagan qo'riqlari", bu muqaddas zamin qariga "berkingan" sir va jumboqlar, ko'hna osor-atiqalarni "tilga kiritish" orqali tarixning o'chib ketgan, o'zi yashab turgan zamonlarga mavhum sahifalarini tiklashdek xayrli ishlar ko'proq qiziqtirgan. M.Safarov talabalik yillarida Toshkentning qizg'in adabiy muhiti, shoir-yozuvchi ustozlar va tengqur do'stlar ta'sirida qalbu shuurida muqarrar bo'lgan iste'dod jilvalarini kashf etadi. Shuning asnosida yozuvchi o'z hasratlarini badiiy ifodalash usullari va yo'sinlarini amaliyotda tatbiq eta boshlaydi. Aytish kerakki, Mengziyo Safarovning nasrdagi dastlabki ijod namunalari mavzusini birodarlariga taqlidan emas, balki o'z hayotiy bilim, ko'nikma va tajribalariga asoslanib tanlaydi. Albatta, yozuvchining bunday adabiy tutumlar va to'xtamlarga kelishida yon-atrofida katta yozuvchi sifatida quloch yozayotgan, olis va davomli parvozlarga

shaylanayotgan, ilk asarlari ortidan Abdulla Qahhorday so'z zargarining nazariga tushib, e'tirofini qozongan umidli yozuvchi – Shukur Xolmirzayevning nimani yozish va qanday yozish haqidagi fikr-mulohazalari ta'sir etmay qolmagan, albatta. Bu ikki do'st o'zlari anglab yetib, sinovdan o'tkazgan bilim va tajribalarini bir-biridan ayamagan. Aksincha, ular bir-birini to'ldirib, ruhlantirib, har tomonlama qo'llab-quvvatlab, dalda berib borgan. Mengziyo Safarov o'tgan asrning 60-yillari avvalida yozuvchi do'sti Shukur Xolmirzayevga yo'llagan quyidagi maktubdan olingan parcha fikrlarimizni dastaklaydi:

"Xo'sh, Shukurjon, endi anchagina murakkab bir masala-muammo haqida so'z yuritmoqchiman. Hoziroq qo'rqib ketyapman – Sizga tushuntira olarmikinman?

Bu... ijodga tegishli masala, azizim. Sezgandirsiz, kamina ham yozishni mashq qilib turaman-yuraman.

Balki Sizga meni yaqinlatgan unsurlardan biri ham shu – ijod, Adabiyotga mehrdir.

Bilasiz, bunday mehr – intim bo'ladi: bu – qalb ishi...

Shuning uchun bu haqda shivirlab so'zlamog' lozim, deb o'ylayman. Abdulla Qahhor aytganlar-ku: "Adabiyot dargohiga kiradigan kishi pokiza bo'lib, oyoq kiyimni yechib kirishi kerak", deb... Ah, qariya-ya! Shukur, shu alloma bilan tanishganingizda zo'r bo'lardi-da...

Alqissa, bitta hayotiy qissaning guvohi bo'layotibmanki, uni sira o'zgartirmay yozganimda ham bir nima chiqadiganga o'xshaydi... Ana shu haqda so'zlasam endi.

Shukurjon, bu qissa haqida o'ylay boshlaganimning pinhona sabablaridan biri – ishoning, qadrdon, mana shu zamonga... yaqinlashishdir"¹.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, maktubda M.Safarov "mana shu zamonga... yaqinlashish" deganda olis o'tmish bilan bog'liq kechinmalarni, u qoldirgan osori atiqalar dunyosini poetik ifodalashni nazarda tutmoqda. Maktubdan olingan ushbu kichik parcha ikki adib o'rtasidagi kuchli do'stona munosabatni, ularning hammaslak sifatidagi qarashlarini namoyon qiladi.

¹ Холмирзаева Сайёра. Шукур Холмирзаев замондошлари хотирасида. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. – Б. 316. 356 б.

Ta'kidlash zarurki, o'z navbatida Shukur Xolmirzayev arxeologiyaga oid savollarini muntazam ravishda do'sti M.Safarovga berib borgan va undan qimmatli javoblar, fikrlar olgan.

Shu o'rinda taniqli adabiyotshunos Olim Toshboyevning Shukur Xolmirzayev hayoti va ijodi haqida fundamental ilmiy tadqiqotlari aks etgan "Abadiy zamondosh" kitobida berilgan quyidagi fikrlar ham fikrimizni isbotlaydi:

"Shukur aka talabaligidayoq qiyomatli do'sti, arxeolog va yozuvchi Mengziyo Safarov ta'sirida qadimshunoslik "kasali"ga duchor bo'ladi. Va bu "dard" adibning ajralmas hamrohi bo'lib qoladi. Tarixga oshuftalik yozuvchini ruhan yuksaltiradi desak, to'g'ri bo'ladi"².

Mengziyo Safarov singari iste'dodli, o'z kasbini sevadigan sohaning rivojiga hissa qo'shadigan va ustoz-shigirdlik an'alarini davom ettirishga layoqatli mutaxassislarga har qanday zamonda va tuzumda ehtiyoj sezilgan. M.Safarovga o'qishni tamomlagandan so'ng poytaxtning nufuzli tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalaridan ishga qolib, faoliyatini respublika markazida davom qilish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan. Ammo M.Safarov ularni keskin rad etib, o'z taqdirini o'lkaning olis viloyati – Surxondaryo va uning yer ostida berkinib yotgan "tilsiz" olamini arxeologik tadqiq etishda ko'radi.

Shukur Xolmirzayev atoqli munaqqid, "O'zbek Belinskiysi" deya e'tirof topgan adabiyotshunos olim Matyoqub Qo'shjonov haqidagi "Bu kishim – ustoz, men shogird" nomli o'tgan asrning 60-yillaridagi adabiy shart-sharoitlar, ustozlar va o'sib kelayotgan yosh avlodning tetapoya bo'lgan davrini qamrab olgan muhtasham essesda (Muallif bu badiiy asarni "esse-qissa" deb ham sifatlaydi) M.Safarovning fe'l-atvori, qat'iyati va intilishlarini ham ba'zi o'rinlarda tasvirlab o'tadi. Quyidagi parcha e'tiborimizni tortdi:

– Men? – chimirilib, unga (javobni keltirib chiqargan savol bergan Mengturdi ismli do'sti nazarda tutilmoqda – A.Q.) hujum qilgudek bo'ldi Mengziyo. – Shaharga moslashaman? Be-ye, buning gapini qarang, Shukurjon... Biz – tog'liklarmiz, birinchidan. Ikkinchidan, shaxsan mening hayotim endi – kelajakda Surxon

tuprog'idagi qadim sivilizatsiyalardan qolgan vayronalar orasida kechadi. Men o'sha yerdan baxtimni ham, huzur-halovatimni ham topaman. Ul tuproqqa o'zimni baxshida etib qo'yganimga allaqachonlar edi... Bu yerda shunchaki umrguzaronlik qilib yuribman-da, qadrdo! Meni tuproq tortayotir u yoqqa! Diydorlar tortayotir... O'liklarning ham, tirik yurganlarning ham diydorlari..."³.

Mana shunday qat'iyat, kasbga sadoqat va ulug' maqsadlar sari jasorat bilan intilish hissi yozuvchi Mengziyo Safarovning ham hayotiy, ham adabiy prinsiplarining asosi hisoblanadi. Uning ona tabiatga, vatan tuprog'i va unda mujassam tilsimlarning haqiqatlarini anglashga bo'lgan mehr-muhabbat hissi M.Safarov nasriy asarlarida ham yaqqol sezilib turadi.

Yozuvchining "Ayrishox", "Olis qirlar ortida", "Qishloq maktabida", "So'qmoqdagi odamlar", "Ota huzurida", "Turnalar uchadi", qissalarida; shuningdek, "Ota yurt", "Ona kaklik", "Tog'larda gulxan yonadi", "Lahza", "O'tayotgan kunlar", "Armon", "Bedanalar", "Qum qo'rg'onlar", "Dolg'ali daryo", "Sevgi qo'shiqlari" kabi hikoyalarida; qolaversa, "Payg'ambar oroli", "Sarbasta Surxon" kabi esselarida ayni mehr-muhabbat tuyg'usi bilan yozilgan.

XULOSA. Biz, tadqiqotimizning ushbu faslida doirasida inson va tabiat mavzusi tanlangan obyekt yozuvchilar ijodining asosi ekanligini oydinlashtiruvchi misollar va ularning tahlillariga to'xtalishdan avval shuni ta'kidlamoqchimizki, Sh.Xolmirzayev ham, M.Safarov ham adabiyotga yangi adabiy qiyofalarni olib kirdi. O'zbekning oddiy odamlari tilidan ularning qalbida, ong-u shuurida sodir bo'lgan kechin-malarni yuksak badiiy mahorat bilan ifodalashga erishdi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Холмирзаева Сайёра. Шукур Холмирзаев замондошлари хотирасида. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. – Б. 316
- 2.Тoшбoев O. Абaдий зaмoндoш. – Toшкeнт: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б. 359
- 3.Холмирзаев Ш. Сайланма: 4-жилд. – Тошкент: Шарк, 2007. – Б. 388

² Тошбоев О. Абadiй замондош. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б. 359. 480 б.

³ Холмирзаев Ш. Сайланма: 4-жилд. – Тошкент: Шарк, 2007. – Б. 388. 528.

**FELETON, OCHERK, PAMFLETLAR
TARJIMASINING PRAGMATIK ASPEKTI; LEKSIK,
SINTAKTIK VA STILISTIK O'ZGARISHLAR**

*Usmonova Shahodat Abdurahimovna, O'zbekiston Davlat
jahon tillar universiteti, dotsenti, (PhD)*

**PRAGMATIC ASPECT OF TRANSLATION OF
FELETONS, ESSAYS, AND PAMPHLETS: LEXICAL,
SYNTACTIC, AND STYLISTIC CHANGES**


*Usmonova Shahodat Abdurahimovna, Uzbekistan State World
Language University, (PhD), Associate professor*

**ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ПЕРЕВОДА
ФЕЛЬЕТОНОВ, ЭССЕ И ПАМФЛЕТОВ:
ЛЕКСИЧЕСКИЕ, СИНТАКСИЧЕСКИЕ И
СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ**

*Усмонова Шаходат Абдурахимовна, доцент
Узбекского государственного университета мировых
языков, доктор философии по филологическим наукам(PhD)*



<https://orcid.org/0009-0002-7154-5492>
sh.usmonova@uzswlu.uz



Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek tiliga satirik janrlarni — feleton, ocherk va pamfletni tarjima qilishda duch kelingan pragmatik qiyinchiliklarni o'rganib, kommunikativ maqsad va madaniy nuanslarni saqlashga e'tibor qaratish muhimligiga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: pragmatik tarjima, feleton, ocherk, pamflet, leksik o'zgarishlar, sintaktik moslashuv, stilistik o'zgarishlar, o'zbek lingvistikasi.

Annotation: This article examines the pragmatic challenges encountered in translating satirical genres—feuilleton, essay, and pamphlet—into Uzbek, emphasizing the importance of preserving communicative intent and cultural nuances.

Keywords: pragmatic translation, feuilleton, essay, pamphlet, lexical transformations, syntactic adaptation, stylistic changes, Uzbek linguistics.

Аннотация: Данная статья исследует прагматические трудности, возникающие при переводе сатирических жанров — фельетона, эссе и памфлета — на узбекский язык, подчеркивая важность сохранения коммуникативной цели и культурных нюансов.

Ключевые слова: прагматический перевод, фельетон, эссе, памфлет, лексические трансформации, синтаксическая адаптация, стилистические изменения, узбекская лингвистика.

KIRISH. Publitsistik adabiyot janrlari, xususan, *feleton* (dolzarb mavzuda yozilgan tanqidiy ruhdagi, ko'pincha hajviy-satirik yo'nalishdagi asar), *ocherk* (tahliliy va tasviriy esse) va *pamflet* (polemik risola), jamiyatdagi dolzarb muammolarni keskin va ta'sirli shaklda aks ettiradi. Feleton ko'pincha ijtimoiy nuqsonlarni kinoya va istehzo orqali tanqid qiladi, ocherk esa shaxsiy kuzatishlar va tahlillar asosida chuqur fikrlarni ifodalaydi, pamflet bo'lsa, siyosiy

yoki ijtimoiy bahslarni keskin tarzda yoritadi. Ushbu janrlarning tarjima qilinishi oddiy lingvistik jarayon emas, balki murakkab pragmatik vazifadir, chunki tarjima nafaqat matn mazmunini, balki uning kommunikativ maqsadini, emotsional ta'sirini va madaniy kontekstini saqlab qolishi lozim. Pragmatika nazariyasi, xususan, J.L.Ostinning nutq aktlari va H.P.Graysning kooperatsiya tamoyillari asosida, tarjima jarayonida yuzaga keladigan leksik, sintaktik va

stilistik o'zgarishlarni tushunishga yordam beradi [15].

Zamonaviy globalizatsiya sharoitida, publitsistik matnlarning tarjima qilinishi madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, o'zbek tiliga tarjima qilinayotgan xorijiy feletonlar va pamfletlar orqali mahalliy o'quvchilar xalqaro siyosiy va ijtimoiy muammolardan xabardor bo'lishadi, ammo bu jarayonda madaniy farqlar sababli ta'sir yo'qolishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI. Tarjima pragmatikasi sohasi ko'plab nazariy va amaliy tadqiqotlarga boy. J. Haus tarjima jarayonini "rekontekstualizatsiya" deb ta'riflaydi, ya'ni asl matnning madaniy va ijtimoiy muhitini maqsadli tilga moslashtirishni nazarda tutadi[5]. Pragmatika va adabiy tarjima o'rtasidagi bog'lanishni S.Chepman va B.Klark o'rganib, relevans nazariyasini adabiy matnlarda qo'llashni taklif etganlar [9]. M. Hatim va I.Mason ishlarida publitsistik matnlar tarjimasida pragmatik filtrlarning roli ta'kidlangan, chunki ular madaniy farqlarni hisobga olib, matn ta'sirchanligini ushlab turadi.

Feleton, ocherk va pamflet kabi janrlar bo'yicha maxsus tadqiqotlar ham mavjud. Masalan, L.Venuti tarjima strategiyalarini "domestikatsiya" (maqsadli madaniyatga moslashtirish) va "xorijlashtirish" (asl madaniyatni saqlash) deb ajratib, satirik matnlarda stilistik o'zgarishlarni tahlil qilgan[19]. O'zbek filologiyasida bunday mavzular O'zbekiston Milliy Universiteti va Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti tadqiqotlarida qisman ko'rilgan, ammo pragmatik aspekt kamroq e'tibor qaratilgan. Yangi ishlar, masalan, M. A. Locher va boshqalar tomonidan tahrirlangan "Pragmatics and Translation" kitobida, adabiy janrlar tarjimasida pragmatik yondashuvlar batafsil muhokama qilingan[12]. Bundan tashqari, polemik matnlar tarjimasida stilistik moslashuvlarni o'rganuvchi ishlar, masalan, Vilbur Smitning romanlaridagi satirik ifodalar tarjimasida, leksik va sintaktik o'zgarishlarni ko'rsatadi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot qiyosiy tahlilga asoslangan bo'lib, pragmatik nazariya (Grays kooperatsiyasi va Levinson pragmatik tamoyillari) asosida amalga oshirilgan. Tanlangan matnlar: Mark Tvenning

feletonlari (masalan, "The Celebrated Jumping Frog"), George Orvelning ocherklari ("Shooting an Elephant"), Tomas Peynning pamfletlari ("Common Sense"), shuningdek, Jonatan Sviftning "A Modest Proposal" pamfleti. Ushbu matnlarning ingliz tilidagi asl variantlari o'zbek tiliga tarjima qilingan nusxalari bilan solishtirilgan. O'zgarishlar leksik (so'z yuklamasi), sintaktik (jumla dinamikasi) va stilistik (ironiya, metafora) darajalarda kategoriyalashtirilgan. Tahlil uchun korpus lingvistikasi usullari va stilistik modellar qo'llanilgan, masalan, Hausning pragmatik baholash modeli.

TAHLIL VA NATIJALAR. *Leksik transformatsiyalar* tarjima pragmatikasining markaziy elementi bo'lib, so'zlarning madaniy va emotsional yuklamasini hisobga olishni talab etadi. Feletonda satirik leksika, masalan, Sviftning "A Modest Proposal" da "cannibalism" metaforasi, o'zbek tilida "odamxo'rlik" deb tarjima qilinadi, ammo pragmatik jihatdan, o'zbek o'quvchisiga ta'sirni kuchaytirish uchun "vahshiylik" yoki "zulm" kabi so'zlar qo'shilishi mumkin. Bu moslashuv matnning polemik maqsadini saqlaydi.

Orvelning "Shooting an Elephant" nomli ocherkida "imperialism" termini o'zbek tilida "imperializm" sifatida transliteratsiya qilinadi, lekin madaniy kontekstda "mustamlakachilik" yoki "bosqinchilik" ishlatilishi maqsadga muvofiq, chunki bu so'zlar o'zbek tarixiy tajribasiga yaqinroq va emotsional yuklama beradi. Peynning "Common Sense" pamfletida "tyranny" so'zi "zolimlik" deb tarjima qilinadi, ammo zamonaviy o'zbek diskursida "diktatura" yoki "despotizm" qo'shilishi mumkin, bu siyosiy relevansni oshiradi. Yangi misol sifatida, Saltikov Shchedrinning feletonidagi "bureaucracy" so'zi o'zbek tilida "byurokratiya" o'rniga "mansabparastlik" deb moslashtirilishi, satirik ta'sirni kuchaytiradi. Nakhli leksik o'zgarishlarni " tillar har xil ekspressiv potentsiallarga ega. Ular o'zlarining leksik resurslari va grammatik kategoriyalarining xilma-xilligi, shuningdek, har bir madaniyatda ushbu elementlarga berilgan qiymat jihatidan farqlanadi",-deb izohlaydi [15].

Sintaktik transformatsiyalar jumla tuzilishini pragmatik talablarga moslashtirishni o'z ichiga oladi. Feletonda qisqa va keskin jumlar ta'sirni kuchaytiradi; masalan, Orvel

ocherkida uzun tasviriy jumlar o'zbek tilida bo'linishi mumkin, chunki o'zbek sintaksisi qisqaroq jumalarni afzal ko'radi, bu o'quvchi uchun tushunarlikni oshiradi.

Pamfletda ritorik savollar va takrorlar ko'p bo'ladi; Svift pamfletida "Why not?" savoli o'zbek tilida "Nega yo'q?" deb tarjima qilinadi, ammo sintaktik parallelizm (jumla tuzilishini takrorlash) saqlash uchun guruhlash kerak. Bu o'zgarishlar matnning polemik kuchini saqlab, madaniy farqlarni hisobga oladi. Naxhli sintaktik moslashuvlarni huquqiy hujjatlardagi nutq aktlari misollarida ko'rsatib, "Arab tilidagi perfekt shakldan hozirgi oddiy zamonga o'tish pragmatik nuqtayi nazardan asosli hisoblanadi"[15] deb ta'kidlaydi.

Janr	Manba matni (ST)	Maqsad matni (TT)	Pragmatik o'zgarish	Tahlil
Feleton	"cannibalism" (Svift)	"odamxo'rlik" / "vahshiylik"	Leksik qo'shimcha	Satirani kuchaytirish uchun madaniy og'irlik qo'shiladi
Ocherk	"imperialism" (Orvel)	"mustamlakachilik"	Leksik almashtirish	O'zbek tarixiy kontekstiga moslashadi
Pamflet	"tyranny" (Peyn)	"zolimlik" / "diktatura"	Leksik kengaytirish	Siyosiy dolzarblikni oshiradi
Pamflet	"Why not?" (Svift)	"Nega yo'q?" (guruhlangan)	Sintaktik parallelizm	Retorik kuchni saqlaydi
Feleton	"fine" (Tven, ironik)	"kinoyali ajoyib"	Stilistik o'zgartirish	O'zbek o'quvchilari uchun ironiyani mustahkamlaydi

XULOSA. Feleton, ocherk va pamflet kabi publitsistik janrlarni tarjima qilish jarayonida pragmatik jihatlar markaziy o'rin egallaydi, chunki ular leksik, sintaktik va stilistik o'zgarishlarni talab etadi. Bu o'zgarishlar matnning asl kommunikativ va emotsional maqsadini saqlab qolishga xizmat qiladi, aks holda tarjima maqsadli auditoriya uchun samarasiz bo'lib qolishi mumkin. Tarjimon madaniy filtrdan foydalanib, maqsadli madaniyat va til xususiyatlariga moslashishi zarur, chunki pragmatik elementlar – masalan, nutq aktlari, ironiya va madaniy yuklamalar – til chegaralarida osonlikcha o'zgarimasdan qolmaydi. Ushbu jarayon nafaqat lingvistik ekvivalentlikni, balki matnning ijtimoiy va emotsional ta'sirini ham hisobga olishni talab etadi, bu esa tarjimonning madaniy va pragmatik kompetensiyasini sinovdan o'tkazadi. satirik va polemik matnlar pragmatik qiyinchiliklarga boy bo'lib, tarjimonning strategik

Stilistik transformatsiyalar uslubiy vositalarni (ironiya, giperbola, alliteratsiya) moslashtirishni talab etadi. Feletonda ironiya pragmatik jihatdan muhim: Tven feletonidagi "fine" so'zi ironik ma'noda o'zbek tilida "ajoyib" deb tarjima qilinadi, ammo kontekstda "kinoyali ajoyib" qo'shimchasi kerak bo'lishi mumkin. Ocherkda stilistik neytrallik saqlanadi, lekin madaniy filtr orqali moslashadi; pamfletda giperbola o'zbek tilida yumshatilishi mumkin, chunki o'zbek madaniyatida keskinlik kamroq qabul qilinadi. "South Park" animatsiyasidagi satirik stil o'zbek subtitrlarda leksik va stilistik adaptatsiya orqali moslashtiriladi, bu pragmatik ta'sirni saqlaydi.

yondashuvi muvaffaqiyat kalitidir. Umuman olganda, pragmatik tarjima nafaqat tilni, balki madaniy ko'priklarni qurish vositasi sifatida rivojlanishi kerak, bu esa global muloqotda yangi imkoniyatlar ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdel Hady, A. S. (2022). Assessing translation quality of polemical texts. *AUS Repository*. American University of Sharjah. <https://repository.aus.edu/bitstreams/1942f667-6da5-4988-8527-42f940138dd6/download>
2. Al-Safi, A. B. M., & Al-Titinch, A. A. (2021). Procedures of translating lexical and syntactical stylistic devices in political discourse. *Academia.edu*. https://www.academia.edu/65241400/Procedures_of_Translating_Lexical_and_Syntactical_Stylistic_Devices_in_Political

3. Chapman, S., & Clark, B. (2019). *Pragmatics and literature*. John Benjamins Publishing Company.
4. Demina, O. V. (2021). Linguistic and stylistic means of satire construction in the animated series. *RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics*, 12(4), 1057-1074. <https://journals.rudn.ru/semiotics-semantics/article/view/29883>
5. Fauzetdinova, A. (2017). Translation as cultural contraband: Translating and writing Russian literature in Argentina. *OpenBU*. Boston University. https://open.bu.edu/bitstream/handle/2144/27068/Fauzetdinova_bu_0017E_12608.pdf
6. Harahap, A. I., & Armis, M. K. (2023). Satirical expression translation in the novel "War Cry" by Wilbur Smith. *OJS FKIP UMMY*. Universitas Mahaputra Muhammad Yamin. <https://ojs.fkipummy.ac.id/index.php/elp/article/view/1071>
7. Hassan, B. A. (2011). *Literary translation: Aspects of pragmatic meaning*. Cambridge Scholars Publishing.
8. Hassan, B. A. (2020). Stylistic aspect of translation. *Scribd*. <https://www.scribd.com/document/466536877/Literary-Trans-pdf>
9. Horne, M. (2013). The pragmatics of filled pauses: Data from Swedish. *Lund University Publications*. Lund University. <https://lup.lub.lu.se/search/files/5417333/4253857.pdf>
10. Huang, X. (2011). Stylistic approaches to literary translation: With particular reference to English-Chinese and Chinese-English translation. *Etheses Birmingham*. University of Birmingham. https://etheses.bham.ac.uk/2949/1/Huang_X_11_PhD.pdf
11. Locher, M. A. (2021). The pragmatics of translation. In *Cambridge handbook of sociopragmatics* (pp. 485-506). Cambridge University Press.
12. Locher, M. A., Dayter, D., & Messerli, T. C. (Eds.). (2023). *Pragmatics and translation*. John Benjamins Publishing Company.
13. McRae, J. (1982). Literary stylistics and translation. *ERA Edinburgh*. University of Edinburgh. <https://era.ed.ac.uk/bitstream/handle/1842/7361/379342.pdf>
14. Murodov, D. (2023). Linguistic and stylistic features of the translation of texts in a journalistic style. *Academia.edu*. https://www.academia.edu/114424663/LINGUISTIC_AND_STYLISTIC_FEATURES_OF_THE_TRANSLATION_OF_TEXTS_IN_A_JOURNALISTIC_STYLE
15. Nakhli, H. (2023). Pragmatic aspects of translation. *Journal of Pragmatics and Discourse Analysis*, 1(1), 30-35. ResearchGate. https://www.researchgate.net/publication/366956511_Pragmatic_Aspects_of_Translation
16. Pusnei, I. (2023). Role of literary pragmatics in translation: A personal case study. *Scientific Research Publishing*. <https://www.scirp.org/journal/paperinformation?paperid=125680>
17. Pusnei, I. S. (2016). Equivalence in humour superiority and incongruity translation: A case of Three Men in a Boat and Three Men on the Bummel. *Horizon Research Publishing*. https://www.hrpub.org/journals/article_info.php?aid=3741
18. Skibina, O. (2023). Pragmatic deviations in translation of lexical blends within socio-political discourse. *Alfred Nobel University Journal of Philology*, 2(26), 98-106. https://phil.duan.edu.ua/images/PDF/2023/2_2/10.pdf
19. Venuti, L. (Ed.). (2000). *The translation studies reader*. Translation Journal. Routledge. https://translationjournal.net/images/e-Books/PDF_Files/The%20Translation%20Studies%20Reader.pdf
20. Verma, G., & Srinivasan, B. V. (2020). A lexical, syntactic, and semantic perspective for understanding style in text. *GitHub*. <https://gaurav22verma.github.io/assets/UnderstandingStyle.pdf>

Qabul qilindi: 01.07.2025

Chop etildi: 30.08.2025

UDK: 343.2:351.74(575.1)

ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ ТИЗИМИДА
 КОНСТИТУЦИЯВИЙ НАЗОРАТНИНГ МОДЕЛИ:
 ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ТАЖРИБАСИ АСОСИДА

Курбанбаева Айтгул Уралбаевна,

Қорақалпоқ давлат университети таянч докторанти

MODEL OF CONSTITUTIONAL CONTROL IN
 THE SYSTEM OF STATE POWER: BASED ON
 THE EXPERIENCE OF KARAKALPAKSTAN

Kurbanbaeva Aytgul Uralbaevna,

basic doctoral student of Karakalpak State University


МОДЕЛЬ КОНСТИТУЦИОННОГО КОНТРОЛЯ
 В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ:
 НА ОСНОВЕ ОПЫТА КАРАКАЛПАКСТАНА

Курбанбаева Айтгул Уралбаевна,

докторант Каракалпакского государственного
 университета



kurbanbaeva_a@karsu.uz



Аннотация: Мазкур мақолада Қорақалпоғистон Республикаси давлат ҳокимияти тизимидаги конституциявий назоратнинг ўрни ва роли таҳлил қилинади. Қорақалпоғистон Республикаси мустақил демократик тузум асосида фаолият юритувчи, Ўзбекистон Республикаси таркибидаги суверен ҳудуд бўлиб, унда инсон қадри, эркинлиги ва ҳуқуқлари олий қадрият сифатида тан олинган. Ушбу қадриятларни ҳаётга татбиқ этиши жараёнида барча давлат ва нодавлат ташкилотлари, шу жумладан фуқаролар ўз фаолиятини конституциявий нормалар асосида олиб бориши лозим. Мақолада конституциявий назоратнинг ҳуқуқий моҳияти, институционал мақоми, халқаро тажрибадаги ўрни, назарий ёндашувлар ва Қорақалпоғистондаги амалий ҳолати кенг таҳлил этилган. Айниқса, Қорақалпоғистон Республикаси Конституциявий назорат қўмитасининг функционал хусусиятлари ва у бошқа ҳокимият тармоқларидан мустақил фаолият юритиши лозимлиги ҳақида илмий асосланган хулосалар берилган. Муаллиф томонидан илгари сурилган илмий қарашлар конституциявий назоратнинг давлат ҳокимияти тизимидаги муҳим ўрнини аниқлаштириши ва унинг институционал мустаҳкамлигини таъминлашига хизмат қилади.

Калит сөзлар: Конституциявий назорат, давлат ҳокимияти тизими, институтлараро мувозанат, ҳуқуқий мақом, давлат бошқаруви, конституциявий ҳуқуқ, суд тизими. **Abstract.** This article analyzes the place and role of constitutional control in the system of state power of the Republic of Karakalpakstan. The Republic of Karakalpakstan is a sovereign territory within the Republic of Uzbekistan, operating on the basis of an independent democratic system, where human dignity, freedom, and rights are recognized as the highest value. In the process of implementing these values, all state and non-state organizations, including citizens, must carry out their activities on the basis of constitutional norms. The article extensively analyzes the legal essence of constitutional control, its institutional status, place in international practice, theoretical approaches, and practical situation in Karakalpakstan. In particular, scientifically based conclusions are given on the functional features of the Committee for Constitutional Control of the Republic of Karakalpakstan and the need for its independent functioning from other branches of government. The scientific views put forward by the author serve to clarify the important role of constitutional control in the system of state power and ensure its institutional strength.

Keywords: *Constitutional control, system of state power, inter-institutional balance, legal status, public administration, constitutional law, judicial system*

Аннотация: *В данной статье анализируется место и роль конституционного контроля в системе государственной власти Республики Каракалпакстан. Республика Каракалпакстан является суверенной территорией в составе Республики Узбекистан, действующей на основе независимого демократического строя, где человеческое достоинство, свобода и права признаются высшей ценностью. В процессе реализации этих ценностей все государственные и негосударственные организации, включая граждан, должны осуществлять свою деятельность на основе конституционных норм. В статье подробно анализируется правовая сущность конституционного контроля, его институциональный статус, роль в международном опыте, теоретические подходы и практическое состояние в Каракалпакстане. В частности, даны научно обоснованные выводы о функциональных особенностях Комитета конституционного надзора Республики Каракалпакстан и необходимости осуществления им деятельности независимо от других ветвей власти. Научные взгляды, выдвинутые автором, служат для определения важной роли конституционного контроля в системе государственной власти и обеспечения его институциональной устойчивости.*

Ключевые слова: *Конституционный надзор, система государственной власти, межведомственный баланс, правовой статус, государственное управление, конституционное право, судебная система.*

Кириш

Демократик жамият курилиши ва ҳуқуқий давлат барпо этилиши йўлида конституциявий назорат институти алоҳида аҳамият касб этади. Айниқса, давлат ҳокимиятининг конституцион мезонларга мувофиқлигини таъминлаш, инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини реал ҳимоя қилишнинг кафолатланган механизмини яратиш масаласи бугунги кунда долзарб илмий ва амалий муаммолардан биридир. Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистон Республикаси таркибидаги суверен ҳудудий бирлик бўлган Қорақалпоғистон Республикасининг давлат бошқаруви тизимидаги конституциявий назорат институтининг ўрни ва роли устувор тадқиқот йўналишларидан бирига айланмоқда.

Қорақалпоғистон Республикасида инсон, унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни ва қадр-қиммати олий қадрият сифатида эътироф этилган. Бу принцип барча давлат ва нодавлат институтларининг фаолияти учун асосий ғоя бўлиб хизмат қилади. Мавжуд конституциявий тамойилларни амалиётга тадбиқ этиш эса, ўз навбатида, қабул қилинаётган ҳуқуқий ҳужжатлар ва уларнинг ижроси Конституцияга мувофиқ бўлишини тақозо этади. Айнан мана шу жиҳат конституциявий назорат институтининг давлат ҳокимиятининг барча тармоқлари фаолиятини назорат қилишнинг

ҳуқуқий воситаси сифатида шакллантиради. Илмий манбаларда конституциявий назоратнинг назарий асослари турлича талқин қилинади. Айрим тадқиқотчилар бу институтни мустақил давлат ҳокимияти тармоғи сифатида кўрсатса, бошқалар уни суд ҳокимиятининг алоҳида бўғини, баъзилар эса назорат институти деб таърифлайди. Масалан, О.В.Брежнев конституциявий судни алоҳида ҳокимият сифатида кўрган бўлса, Н.В.Витрук уни суд ҳокимиятининг ажралмас қисми сифатида баҳолайди. Ушбу турлича ёндашувлар конституциявий назоратнинг турли давлатларда қандай шаклланганлигини ва унга қандай ҳуқуқий мақом берилганлигини кўрсатади. Шу билан бирга, бу ёндашувлар Қорақалпоғистон Республикаси тажрибасини халқаро контекстдаги ўрни ва ўзига хослигини аниқлаш имконини беради. Айни пайтда Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан илгари сурилган конституциявий ислохотлар контекстида ҳам конституциявий назоратнинг такомиллашуви долзарб вазифалардан биридир. Давлат раҳбари таъкидлаганидек, инсон манфаатларини таъминлаш бўйича бошланган ислохотлар янги конституциявий маконда янада чуқурлашмоқда ва мазкур жараёнларда конституциявий назорат механизмларининг самарали ишлаши муҳим аҳамиятга эга.

Мазкур тадқиқотда Қорақалпоғистон Республикасида конституциявий назорат институтининг ташкил топиши, унинг ҳуқуқий мақоми, ҳокимият тармоқларига нисбатан мустақиллиги, шунингдек, халқаро ҳуқуқий тажрибалар билан солиштириш орқали баҳолаш асосий вазифалар қилиб белгиланди. Бунинг учун конституциявий назоратнинг халқаро моделлари, хусусан, Европа ва Америка тизимлари таҳлил қилиниб, Қорақалпоғистон тажрибаси билан қиёсий ёндашувда таҳлил қилинади.

Шу тариқа, тадқиқотнинг долзарблиги – конституциявий назорат институтининг давлат ҳокимияти тизимидаги ўрнини тизимли равишда аниқлаш, унинг ҳуқуқий асосларини таҳлил қилиш керак.

Методология

Мазкур тадқиқотда Қорақалпоғистон Республикасида конституциявий назоратнинг давлат ҳокимияти тизимидаги ўрнини ўрганиш учун сифатли тадқиқот (qualitative research) услубига асосланган ёндашув қўлланилди. Тадқиқотнинг методологик асосини қиёсий-ҳуқуқий, структуравий-функционал, тарихий ва мазмуний (контент) таҳлил усуллари ташкил этади. Ушбу методлар конституциявий назорат институтининг ҳуқуқий мақомини, тизимдаги функционал вазифасини, бошқа ҳокимият тармоқлари билан ўзаро алоқаларини ва хорижий тажриба билан солиштиришни чуқур ўрганишга хизмат қилади.

Қиёсий-ҳуқуқий ёндашув орқали Қорақалпоғистон Республикасидаги конституциявий назорат модели АҚШ, Германия, Озарбайжон каби давлатлар тажрибаси билан солиштирилди. Бу эса турли давлатларда конституциявий назорат институтлари қандай шаклланганини ва улар қандай ҳуқуқий механизмларга эга эканини аниқлашга имкон берди. Структуравий-функционал таҳлил эса конституциявий назоратнинг давлат ҳокимияти тизимидаги ўрнини, хусусан, қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимияти билан ўзаро муносабатини таҳлил қилишда қўлланилди. Тарихий ёндашув орқали эса конституциявий назоратнинг шаклланиши, ривожланиши

босқичлари ва ўзбек ҳуқуқий маконидаги трансформацияси кўриб чиқилди.

Тадқиқот манба базаси сифатида Ўзбекистон Республикаси Конституцияси [1], Қорақалпоғистон Республикаси Конституцияси, конституциявий назоратни тартибга солувчи қонунлар, тегишли норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, шунингдек, Ўзбекистон ва хорижий мамлакатлар олимларининг илмий ишлари (хусусан, А.В. Злобин, Н.В. Витрук, З.Қурманов ва бошқалар) таҳлил қилинди. Контент таҳлил орқали мазкур ҳужжатларнинг асосий ғоялари, ҳуқуқий нормаларининг моҳияти, уларнинг татбиқ этилиш амалиёти баҳоланди.

Ушбу методологик ёндашув конституциявий назорат институтининг давлат ҳокимиятидаги ўрнини ҳар томонлама ва тизимли равишда ёритиш имконини берди ҳамда мақолада келтирилган хулосаларнинг ишончлилигини таъминлади.

Натижалар ва муҳокамалар

Қорақалпоғистон Республикасида конституциявий назоратнинг давлат ҳокимияти тизимидаги ўрни ва роли юзасидан олиб борилган таҳлиллар натижасида бир қатор муҳим хулосаларга келинди. Биринчидан, конституциявий назорат инсон ҳуқуқлари, эркинликлари ва қадр-қимматини таъминлашнинг асосий ҳуқуқий механизмларидан бири сифатида намоён бўлади. У давлат органлари томонидан қабул қилинаётган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг Конституцияга мувофиқлигини назорат қилиш орқали фуқаролар манфаатларини ҳимоя қилишга хизмат қилади. Иккинчидан, Қорақалпоғистон Республикаси Конституциясининг 11 ва 15-моддаларида ҳокимият тармоқлари ўртасидаги ваколатлар тақсимоти ва Конституция устуворлиги ҳуқуқий асос сифатида белгилаб қўйилган бўлиб, бу назорат органининг фаолият йўналишларини белгилашда муҳим аҳамият касб этади. Учинчидан, илмий манбалар таҳлилидан маълум бўлишича, конституциявий назоратнинг давлат ҳокимияти тизимидаги ўрни юзасидан турлича ёндашувлар мавжуд: айрим олимлар уни суд ҳокимиятининг таркибий қисми сифатида кўради, бошқалар эса тўртинчи мустақил

ҳокимият сифатида ёки назоратчи тармок сифатида баҳолайди. Тўртинчидан, Қорақалпоғистонда конституциявий назорат Конституциявий суд эмас, балки Конституциявий назорат қўмитаси орқали амалга оширилади. Бу орган ижро ҳокимиятига хос белгилари билан ажралиб туради ва унинг асосий вазифаси — норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг Конституцияга мослигини назорат қилишдан иборат. Бешинчидан, ушбу қўмита институционал ва функционал жиҳатдан давлат ҳокимиятининг анъанавий тармоқларидан мустақил бўлиб, унинг ҳуқуқий мақоми уни алоҳида тоифадаги махсус орган сифатида шакллантиради. Шу тариқа, Қорақалпоғистон Республикасида конституциявий назоратнинг ўзига хос институционал модели мавжуд бўлиб, у давлат органлари фаолияти устидан ҳуқуқий назоратни амалга оширишда муҳим рол ўйнайди.

Муҳокамалар. Ҳозирги даврда олимлар томонидан бу борада кўпроқ қўлланиладиган ёндашув шаклланган бўлиб, унга кўра конституциявий назоратни амалга оширувчи органлар ҳокимият тармоғининг суд органларига тааллуқли деб эътироф этилмоқда.

Бундан фарқли ўларок, ҳозирги даврда энг кам маъқул деб топилаётган ва тарқалган қарашлар сифатида конституциявий назорат органини тўртинчи ҳокимият сифатида эътироф этилаётганлигини қайд этиш мумкин. Бу каби қарашларни Ю.Л.Шульженко[2], С.С.Витвицкий[3], В.В.Тароева[4], М.М.Тхаркахо[5] ва бошқалар илгари суришмоқда.

Яна бир гуруҳ олимлар конституциявий суд назоратини одил судловнинг қисми сифатида эътироф этади. Жумладан, О.В.Опря одил судловни кенг маънода тушунадиган ва унга шу ўринда махсус конституциявий суд назоратини киритадиган тарафдорлар қарашларини асослантирилган деб ҳисобламоқда[6].

Бундай ёндашувни Н.В.Витрук қуйидагича аргументация қилмоқда: “Конституциявий суд одил судловни амалга оширади, суд ҳокимиятининг органи ҳисобланади ва давлатнинг суд тизимида алоҳида ўринни эгаллайди, бунда унинг давлат

ҳокимияти тизимидаги тутган ўрни даражасига кўра унга бошқа барча суд турларининг бўйсунушининг инкор қилиниши билан эмас, балки қонун ижодкорлиги ва ҳуқуқни қўллаш амалиётига сезиларли таъсир кўрсатувчи ўз ваколати ва фаолиятининг хослиги билан ифодаланади”[7].

К.А.Половченко конституциявий назорат органларини суд ҳокимияти тармоғига мансуб эканлигини ижобий омил деб билмоқда ва бу “уларни ўз ихтиёрийлигини ва мустақиллигини тайминлайди ва бир вақтда бевосита конституциявий суднинг ўзини ҳам диалектик мустақиллигини кафолатлайди” деб ҳисобламоқда[8].

Хорижий мамлакатларнинг тажрибасини умумлаштириш натижасидаги Т.А.Николаева ҳулосасига кўра, марказлаштирилган конституциявий назорат органи қуйидаги ҳолларда суд тизимининг қисмини ташкил этмоқда: 1) мамлакатнинг конституцияси мазкур махсус функцияни умумий судлар тизимидаги олий судга юклаганида (масалан, АҚШда – Олий Судга); 2) конституция мазкур органни суд тизими таркибига кирувчи суд органлари қаторида белгилаб ўтганлиги (масалан, Грузия, Словакия, Озарбайжон, Чехия, Белоруссия, Польша, ГФР)[9].

Ундан ташқари, конституциявий назорати соҳасига мансуб бўлган айрим мутахассислар тегишли органларни иккиламчи табиатга эга деб фикр юрғизиб, уларни ҳокимиятнинг суд тармоғига тааллуқлилигини фақатгина қисман тан олиш мумкин деб эътироф этмоқда. Масалан, В.В.Дмитриев қуйидагича таъкидламоқда: “Конституциявий судни давлат ҳокимияти органлари тизимидаги тутган ўрнига таъриф беришда унинг иккиламчи юридик табиатидан келиб чиқиш керак: бир томондан, мазкур орган давлат ҳокимияти органлари тизимида алоҳида ўринга эга бўлиб уни ҳокимиятни бўлиниш принципининг анъанавий тушунчаси билан қамраб бўлмайди; икинчи томондан, унинг фаолияти учун суд фаолияти устувор деб ҳисобланади”[10].

Хусусан, Озарбайжон мисолида Д.Я.Гараджаев: “Айнан мана шу ёндашувни кўчириб олиш мақбул деб кўринмоқда ва уни

Озарбайжон Республикаси Конституциявий судини янада ислох қилишда қўллаш мақсадга мувофиқ” деб эътироф этмоқда [11]. Шу фикрдан келиб чиқиб у Озарбайжон Республикаси Конституциявий судини суд ҳокимияти тармоғидан чиқариб ташлашни таклиф этмоқда. Ўзининг бу таклифини асослашда у қуйидаги омилларни келтириб ўтмоқда:

биринчидан, Озарбайжон Республикасининг Конституциявий суди Озарбайжон Республикасининг Президенти, Миллий Мажлиси, Вазирлар Маҳкамаси, Олий суди, Прокуратураси муружаатларига кўра қонунчилик, ижро этувчи ва суд ҳокимиятлари ўртасидаги ваколатларини тақсимлаш билан боғлиқ баҳсларни ҳал этишга оид масалаларни кўриб чиқади деб қайд этмоқда[12]. Шунга асосан у конституциявий назорат органларининг бу каби ваколатлари уларни “ҳокимиятдан устун судлар” деб таърифлашга асос беради деб эътироф этмоқда[13];

иккинчидан, буни асослаш учун хорижий тажриба келтирилмоқда. Хусусан, А.А.Клишас таъкидлашча, конституциявий назоратнинг “Европа” моделидаги давлатларда конституциявий суд жараёни анъанавий учта ҳокимият тармоқларининг доирасидан чиқариб ташланган[14]. Шунингдек бир қатор давлатларнинг конституцияларида конституциявий назорат органларининг ҳуқуқий ҳолати суд ҳокимиятига бағишланган бўлимида эмас, балки конституциявий қафолатларда (масалан, Италияда) ёки алоҳида махсус бўлимларда (Францияда, Польшада, Болгарияда) белгиланган[15].

Ўз навбатида, агарда Ўзбекистонда конституциявий назорат фаолияти Конституциявий суд томонидан амалга оширилса, унда Қорақалпоғистонда бу фаолият Конституциявий назорат қўмитаси томонидан амалга оширилиб борилади.

Шу тариха, мазкур ваколатли орган сифатида Қорақалпоғистон Конституциясининг 113-моддасининг 1-бандига кўра Жоқорғи Кенес тан олинади ва Конституциявий назорат қўмитаси унинг топшириғини бажарувчиси сифатида ўз фаолиятини олиб боради. Бу дегани, Конституциявий назорат қўмитаси

ҳокимиятни ижро тармоғининг ташқарисида эмас, балки шу тармоқнинг ўзига мансуб бўлган ҳолда ва унинг таркибий қисми сифатида ўзининг институционал ва функционал хослиги билан ажралиб туради.

Хулоса

Юқорида олиб борилган илмий таҳлиллар Қорақалпоғистон Республикаси давлат ҳокимияти тизимида конституциявий назоратнинг алоҳида институционал ва функционал ўрнига эга эканлигини яққол кўрсатди. Мазкур назорат механизми инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар устидан конституциявий жиҳатдан ҳуқуқий назорат ўрнатиш, шунингдек давлат ҳокимияти органларининг фаолиятида Конституция талабларига амал қилинишини қафолатлашда муҳим аҳамият касб этади.

Конституциявий назорат қўмитаси Қорақалпоғистон Республикасида суд органи эмас, балки давлат бошқарувининг марказий органи сифатида шаклланган бўлиб, унинг вазибалари ҳуқуқий ҳужжатларнинг Конституция ва қонунларга мослигини таҳлил қилиш ва аниқлаш, шунингдек давлат органларига хулосалар тақдим этишдан иборат. Бу эса уни ижро ҳокимияти билан боғлиқ орган сифатида тавсифлаш имконини беради. Шунга қарамасдан, мазкур қўмита қонун чиқарувчи ва ижро этувчи ҳокимиятдан мустақил фаолият юритиши ва барча давлат органларига нисбатан ҳуқуқий назоратни амалга ошириш ҳуқуқига эга экани билан ажралиб туради.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, Қорақалпоғистон Республикасидаги Конституциявий назорат институти ўзига хослиги ва мустақиллиги билан давлат ҳокимиятининг барқарорлигини таъминлашга хизмат қилувчи муҳим конституциявий қафолат ҳисобланади. Ушбу институтнинг ҳуқуқий мақоми, ваколатлари ва амалиётдаги роли юзасидан янада чуқур илмий тадқиқотлар олиб бориш, унинг самарадорлигини ошириш ва халқаро стандартлар билан уйғунлаштириш борасида тегишли таклифлар ишлаб чиқиш долзарб ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. (1992). *Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси (2023-йилги ўзгартиришлар билан)*. Тошкент: Адолат нашриёти.
2. Шульженко Ю. Л. Конституционный контроль в России // РАН. Ин-т государства и права. - М., 1995. - 175 с.
3. Витвицкий С.С. Эффективность государственного контроля и условия ее повышения // Вестник Казаньского юридического института МВД России. – Казань., 2014. – С.95-98.
- 4.Тароева В.В. Контрольная власть в системе разделения властей // Одесская юридическая академия. – Одесса, 2013. - С. 127-129.
- 5.Тхаркахо М.М. Основные закономерности трансформации полномочий органов конституционного контроля в зарубежных странах // Вестник Адыгейского государственного университета, 2008. – С. 21-24.
- 6.Опря О.В. Конституционные суды в постсоциалистических государствах Восточной Европы: на примере Конституционного суда Республики Болгарии: Дисс. канд. юрид. наук по спец.: 12.00.02 / О. В. Опря. — М., 2002. — 192 с.
7. Витрук Н. В. Конституционное правосудие. Судебно-конституционное право и процесс: учеб. пособие / Н. В. Витрук. – М.: Норма: ИНФРА-М, 2012. — 592 с.
8. Половченко К. А. Конституционная юстиция в России и Украине (сравнительно-правовой анализ): Дисс. канд. юрид. наук по спец.: 12.00.02 / К. А. Половченко. – М., 2003. – 232 с.
9. Николаева Т. А.Обращения граждан в органы КЮ РФ и Зарубежных стран: сравнительно-правовой анализ: Дисс. канд. юрид. наук по спец.: 12.00.02 / Т. А. Николаева. – М., 2008. – 196 с.
10. Дмитриев В. В. Конституционная юстиция в субъектах РФ: автореф. дисс. на соискание уч. степени канд. юрид. наук по спец.: 12.00.02 «конституционное право; муниципальное право» / В. В. Дмитриев. – М., 2004. – 34 с.
11. Гараджаев Д.Я. Место конституционного суда в системе органов государственной власти Азербайджанской Республики. - Украина, Юридичний науковий електронний журнал. № 6/2016. - С. 42-45.
12. Конституция Азербайджанской Республики: Закон Азербайджанской Республики от 12 ноября 1995 года [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://files.preslib.az/projects/remz/pdf_ru/atr_kon_s.pdf.
13. Бондарь Н. С. Судебный конституционализм в России в свете конституционного правосудия / Н. С. Бондарь. – М.: Норма; ИНФРА-М, 2011. — 544 с.
- 14.Клишас А. А. Конституционный контроль и конституционное правосудие в Зарубежных странах: Дисс. д-ра. юрид. наук по спец.: 12.00.02 / А. А. Клишас. – М., 2007. – 571 с.
15. Конституционное (государственное) право Зарубежных стран: учебник для бакалавров / отв. ред. Б. А.Страшун. –М.: Проспект, 2014. — 296 с.



SULAYMON BOQIRG‘ONiy YASHAGAN DAVR MANZARASI: IJTIMOiy-SIYOSIY MUHIT VA TASAVVUFiy TAFAKKUR SHAKLLANISHINING METODOLOGIK ASOSLARI

*O‘razmetov Mangubek Tursunbayevich, Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar
fakulteti “Falsafa” kafedrası dotsenti v.b.*




<https://orcid.org/0009-0008-8304-3087>
e-mail:
mangubekoficial@
mail.com

THE PERIOD IN WHICH SULAYMON BAKIRGONI LIVED: SOCIO-POLITICAL ENVIRONMENT AND METHODOLOGICAL BASIS OF THE FORMATION OF SUFIC THOUGHT

*Urazmetov Mangubek Tursunbayevich, Associate Professor of the
Department of Philosophy, Faculty of Social and Economic Sciences,
Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni*

ПЕРИОД ЖИЗНИ СУЛАЙМОНА БАКИРГОНИ: СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ СРЕДА И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СУФИЙСКОЙ МЫСЛИ

*Уразметов Мангубек Турсунбаевич, и.о.доцента кафедры
“Философия” факультета социально-экономических наук
Ургенчского государственного университета имени Абу
Райхона Беруни*



Annotatsiya: IX–XII asrlar Movarounnahr xalqlari hayotida yuz bergan ijtimoiy-madaniy va ma’naviy yuksalish jarayonlari falsafiy tahlil etiladi. Ayniqsa, bu davrda shakllangan tasavvuf ta’limoti va uning g‘oyalari jamiyatning ruhiy-ma’rifiy taraqqiyotiga chuqur ta’sir ko‘rsatgani alohida e’tiborga olinadi. Buyuk allomalar tomonidan yaratilgan ma’naviy yodgorliklar nafaqat o‘z zamonasi uchun, balki butun insoniyat tamadduni uchun bebaho manba bo‘lib xizmat qilgan.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, Hakim ota, Movarounnahr, Turkiston, Volgabo‘yi, Itil atrofi, Yusuf Hamadoni ta’limoti, XII asrda Xorazm, Ahmad Yassaviy ta’limoti.

Abstract: The processes of socio-cultural and spiritual uplift that took place in the life of the peoples of Transoxiana in the 9th–12th centuries are philosophically analyzed. In particular, special attention is paid to the fact that the teachings of Sufism and its ideas formed during this period had a profound impact on the spiritual and educational development of society. The spiritual monuments created by the great scholars served as an invaluable source not only for their time, but also for the entire human civilization.

Keywords: Sufism, Hakim Ota, Transoxiana, Turkestan, Volga region, Itil region, Yusuf Hamadani’s teachings, Khorezm in the 12th century, Ahmad Yassawi’s teachings.

Аннотация: Философски анализируются процессы социокультурного и духовного подъёма, происходившие в жизни народов Мавераннахра в IX–XII веках. В частности, особое внимание уделяется тому, что учение суфизма и его идеи, сформировавшиеся в этот период, оказали глубокое влияние на духовное и образовательное развитие общества. Духовные памятники,

созданные великими учёными, служили бесценным источником не только для своего времени, но и для всей человеческой цивилизации.

Ключевые слова: Суфизм, Хаким Ота, Мавераннахр, Туркестан, Поволжье, учение Юсуфа Хамадани, Хорезм в XII веке, учение Ахмада Яссави.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Tasavvuf - insonni o'z asl mohiyatiga qaytishga, axloqan poklanishga, ma'naviy yuksalishga da'vat etuvchi ta'limot bo'lib, u insonni nafs, adolatsizlik, g'urur, manmanlik kabi illatlardan voz kechishga chorlaydi. Shuning uchun tasavvufning tarixiy ildizlari, taraqqiyot bosqichlari, nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish, ayniqsa, bu yo'lda xizmat qilgan mutasavviflarning faoliyatini chuqur tahlil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. XII asrda yashab ijod qilgan mashhur tasavvuf vakili, turkiy xalqlar qalbida chuqur iz qoldirgan, tasavvuf g'oyalarini xalq tili – turkiy til orqali keng ommaga yetkazgan Sulaymon Boqirg'oniy hayoti va ijodi atroflicha tahlil etiladi. U Movarounnahr, Turkiston, Volgabo'yi, Itil atrofidagi hududlarda "Hakim ota" nomi bilan shuhrat qozongan. Sulaymon Boqirg'oniy o'z davrining muhim ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy muhitida yashab, Yassaviylik tariqatining munosib davomchisi bo'lgan. Uning tasavvufiy-falsafiy qarashlari, ma'naviy merosi va dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir etgan omillar bob doirasida ilmiy asosda yoritiladi. Sulaymon Boqirg'oniyning "Boqirg'oniy kitobi" asari ham o'rganilib, unda ilgari surilgan estetik, axloqiy, poklik va qalb uyg'unligi g'oyalari tahlil qilinadi. Uning qarashlariga ko'ra, abadiy go'zallik Allohning zohiridir. Alloh – sof, mutlaq mavjudot sifatida tasvirlanadi. U dunyoni to'rt unsur – olov, suv, yer va havo orqali yaratgan. Boqirg'oniy fikricha, oddiy inson bilan Alloh o'rtasida ko'rinmas "pardalar" mavjud. Bu pardani olib tashlab, Allohni chinakam anglash va unga hayrat bilan boqmoqchi bo'lgan kishi, avvalo, so'fiylik yo'liga kirishi, ya'ni shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlaridan o'tishi zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND

METHODS). Ma'lum ma'noda turkiy tilli xalqlar haqidagi qomusiy asar Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'at at-turk" asaridir, A.Mo'minov tahliliga ko'ra, bu davrda qoraxoniylar davlati qaror topishi bilan bog'liq manba "Movarounnahrning Xuroson bilan aloqalari", Shveysariyalik professor Adam Mes "Musulmon Renessansi", rus sharqshunosi, akademik Nikolay Konradning "Sharq Uyg'onishi" kabi bir qancha manbalar tadqiq qilindi.

МУНОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). XI asrlardan boshlab Markaziy Osiyo mintaqasida tasavvuf ta'limoti va falsafasi keng tarqala boshladi. Buyuk mutasavvif targ'ib etishga kirishdi. Ayni shu davrda birinchilardan bo'lib uning qo'lida Xoja Ahmad Yassaviy (vafoti 1166-yil) ta'lim olib, tasavvuf sirlarini o'rgandi va Turkistonga borib, u yerda tasavvufni targ'ib qildi. Uning ta'limoti va tariqati Yassaviylik nomini oldi.

Shuningdek, Yusuf Hamadoniy ta'limoti ostida Abduxoliq G'ijduvoni tomonidan asos solingan "Xojagon" tariqati vujudga keladi. So'ng shu tariqat Bahovuddin Naqshband davrida keng yoyilib, naqshbandiya yo'nalishini tashkil etadi. XII asrda Xorazmda ham tasavvuf ilmi keng yoyila borib, Najmiddin Kubro (1146-1221) boshchiligida tasavvufning kubroviya oqimi shakllanib, Markaziy Osiyo va boshqa Sharq mamlakatlarida keng yoyildi. Tasavvuf ta'limotlari boshqa musulmon mamlakatlarida bo'lganidek, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va ma'naviyatining so'nggi rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi¹.

Bundan tashqari XI asrda Qoraxoniylar davrida ham ko'plab iste'dod egalari yetishib chiqishdi. Shulardan nomlari tarixda o'chmas iz qoldirgan Yusuf Xos Hojib va Mahmud Qoshg'ariy ham yashab ijod qilishdi. Chuqur bilim va tafakkur egasi Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" ("Saodatnoma") asari bilan mashhurdir.

¹ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/markaziy-osiyoda-ix-xx-asr-boshida-madaniyat-rivoji-tarixidan/>

Zero, bu asarda davlatni boshqarish usuli, qonun-qoidalari, siyosati, mafkurasi, ijtimoiy guruhlararo munosabatlar, odob-axloq masalalariga oid o'z davri uchun zarur va foydali, tarixan o'z ahamiyatini yo'qotmovchi fikrlar ilgari surilgan. Chunonchi, u jamiyatning to'rt ustunini quyidagicha belgilab bergan: adolat, davlat, aql-u zakovat, qanoat. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, mana shu to'rt ustun asosidagi jamiyat baxt-saodatini ta'minlashda ilm birinchi o'ringa qo'yiladi: "O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lar, Bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lar". Yo bo'lmasa, asarda keltirilgan davlat-idora kishilari haqidagi fikrlarni olaylik. Vazirlar oqil, dovyurak, imonli, nomusli bo'lishlari kerak. Beklar, ya'ni hokimlar esa bilimli, yetuk, ko'zi, ko'ngli to'q bo'lmog'i darkor. Agar ular buzuq fe'l bo'lsalar, zamona o'qidan qochib qutulolmaydilar, ulardan odamlar ham yuz o'giradi, g'amga giriftor bo'ladilar. Yusuf Xos Hojib lashkarboshilar xususida shunday deydi: "Olisdagi yovning vahimasidan qo'rqma, aksincha, undan yaqindan voqif bo'lib tur, shunda uning bor imkonidan xabar topasan. Dushman dag'dag'a qilib do'q qilsa, bardoshli bo'l, chekinma (chunki u bu bilan seni sinamog'i mumkin)". "Qutadg'u bilig"da olimlar, shoirlar, dehqonlar, chorvadorlar, savdogarlar haqida, oila, farzand tarbiyasiga oid hikmatli fikrlar ham bir talay.

Mahmud Qoshg'ariy ham o'zidan ajoyib va bebaho meros qoldirgan. Bu uning turkiy tillar va ma'lum ma'noda turkiy tilli xalqlar haqidagi qomusiy asari "Devonu lug'at at-turk"dir. Asar Turkiston xalqlarining tillari tarixini o'rganishda, chunonchi, o'sha davr tili morfologiyasi, fonetikasi, leksikasi, etimologiyasini o'rganishda benazir manba hisoblanadi. Bundan tashqari, unda mintaqa xalqlarining etnik tarixiga oid g'oyatda qimmatli ma'lumotlar jamlangan. Ma'lumki, turkiy tilli xalqlar ham son jihatdan ko'p, ham serqavm bo'lib kelganlar. Ular o'rtasidagi munosabatlar tarixini yoritishda "Devonu lug'at at-turk"ning ahamiyati katta. Bundan tashqari asarda davlatchilik, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar, hunarmandchilik, rasm-rusumlar, madaniy hayotga tegishli ma'lumotlar ham ko'p uchraydi. Mahmud Qoshg'ariy asarining qimmatli

tomonlaridan yana biri unda muallif chizgan dunyo xaritasining mavjudligidir. Xarita doira shaklida va uning har tarafdan suv bilan o'ralganidan dalolat beruvchi belgilar mavjud. Xaritada markazda Yettisuv, Sharqiy Turkiston hududi joylashtirilib, uning to'rt atrof-yo'nalishida turli shaharlar, mamlakatlar, dengizlar, ko'llar, daryolar, tog'lar joylashuvi berilgan. Umuman olganda, bu asar bashariyat madaniy ravnaqi yo'lini o'rganishda nodir manba hisoblanadi².

Ma'lumki, XII asrda **Markaziy Osiyo**, jumladan, **Movarounnahr**da fiqh ilmining rivoji va takomili uchun ta'sirchan omillar yuzaga kela boshladi. Ushbu omillardan biri, A.Mo'minov tahliliga ko'ra, bu davrda qoraxoniylar davlati qaror topishi natijasida "Movarounnahrning Xuroson bilan aloqalari zaiflashib, oyoqqa turgan mahalliy maktablarning mustaqil rivojlanishiga asos yaratildi. Markaziy shaharlarda avtonom boshqaruvning kuchayishi ulamo guruhlari ta'sir doirasining kengayishiga olib keldi. Bu bilan fiqh normalarini hayotga tatbiq etishga real sharoit yaratildi. Buxoro va Samarqandni haqiqiy ilm markazlariga aylantirdilar. Bu shaharlarda, **Nasaf, Marv, Farg'ona** faqihlari ham faoliyat ko'rsatdilar"³.

Mahmud Qoshg'ariy Markaziy Osiyoda ilk O'rta asr madaniyatining buyuk arboblardan bo'lib, tilshunoslik sohasida, xususan, turkiy tillarni o'rganish sohasida mashhur bo'ldi va tarixda o'chmas iz qoldirdi.

Mahmudning otasining ismi Husayn, bobosi Muhammad bo'lib, kelib chiqish va tiliga ko'ra Qoshg'ariy nisbatini olgan. U XI asrda tug'ilib, yashab ijod etdi. Bu davrda Movarounnahrda Somoniylar o'rnini Qoraxoniylar sulolasi egallagan, turkiy adabiy til mintaqada keng urf bo'la boshlagan edi. Hatto Abbosiylar xalifaligi markazlarida, azaldan arab va boshqa somoniy xalqlar yashab kelgan o'lkalarda turkiy xalqar namoyandalari ko'payib, turkiy tilga e'tibor oshgan edi. Mahmud Qoshg'ariy ham o'zining uzoq yillar davomida bunyod etgan "Devoni lug'atit turk" kitobini hijriy 469 (1074/75)-yilda tugallab, abbosiy xalifalar avlodidan bo'lgan baland mavqeli Abulqosim Abdulloh binni Muhammad al-Muqtadoga

² <https://e-tarix.uz/vatan-tarixi/uzbek-davlati/365-qoraxoniylar.html>

³ <https://moturidiy.uz/uz/news/1396>

bag'ishlagan. Asarning asosiy matni o'sha davrda keng mintaqa musulmon Sharqida, butun Yaqin va O'rta Sharqda din, fan tiliga aylangan arab tilida yozilgan bo'lib, turkiy tilning boyligini, mazmundor va rang-barangligini tushuntirish uchun yozilgan, deb taxmin qilish mumkin.

Mahmud Balasog'unda tug'ilib, shu yerda yigitlik chog'larini kechirgan bo'lsa ham, uzoq yillar "Yuqori Chindan boshlab butun Movarounnahr, Xorazm, Farg'ona, Buxoro, hozirgi Shimoliy Afg'onistonga qadar cho'zilgan" turkiy o'lkalarni, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini kezib chiqdi, turli sheva va lahja xususiyatlarini o'rgandi, ularni adabiy til bilan chog'ishtirdi, o'z ishi uchun nihoyatda boy material to'pladi⁴.

Kishilik tamadduni tarixini tahlillar asosida tizimli o'rgangan ilm kishilarining ta'kidlashicha, ilk Renessans – uyg'onish davri G'arbiy Yevropadan ilgari Markaziy Osiyo, to'g'rirog'i, qutlug' diyorumiz Movarounnahr hududlarida vujudga kelgan.

Yurtimizda kechgan birinchi uyg'onish – ilk Renessans davri IX-XII yuz yilliklarni o'z ichiga olgan. Bu davrni shveysariyalik professor Adam Mes "Musulmon Renessansi", rus sharqshunosi, akademik Nikolay Konrad esa "Sharq Uyg'onishi" istilohlari bilan atashgan. IX-XII asrlarda jamiyatning barcha sohalarida katta ko'tarilish yuz berdi. Ta'lim, iqtisodiyot, madaniyat, ma'rifat, tibbiyot, harbiy va ma'naviy sohalar yuksaldi. Markaziy Osiyoda o'sha paytlari hukmronlik qilgan somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar va xorazmshohlar ilm-u fan va madaniyat taraqqiyoti uchun e'tiborga molik ishlarni amalga oshirdi. Ularning qo'llab-quvvatlashi, tashabbusi bilan Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Termiz singari kentlarda ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilib, yangi madrasalar, masjidlar, maqbaralar, xonaqohlar, karvonsaroylar, akademiyalar, qal'a-yu saroylar qurildi. Bu ilmiy markazlar va madrasalarda jahon tanigan ulug' allomalar Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Imom al-Buxoriy, Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Bakr al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud az-Zamaxshariy, Burhoniddin

al-Marg'inoniy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy singari yuzlab mutafakkirlar faoliyat yuritgan.

Bu qutlug' maskanlarda yaqin va uzoq o'lkalardan kelgan minglab ilmiy taliblar ta'lim va tarbiya olib, yetuk mutaxassislar bo'lgan. Birgina Xorazm Ma'mun akademiyasida o'nlab olimlar samarali ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan, ular tomonidan ilm-fanning turli jabhalarida yuzlab asarlar, kitoblar yozilgan. Hozirda ham mazkur boy ilmiy va ma'naviy meros o'z qadrini yo'qotgan emas, dunyoning nodir kutubxonalarida saqlanib kelinadi.

Islom faqat dingina emas, u yaxlit sivilizatsiya va madaniyat, davlat va huquq, o'zining betakrorligi bilan ajralib turuvchi tarix, falsafa, ma'naviyat va san'at hamdir. Islom to'g'risidagi izchil ilmiy-falsafiy qarashlarning yuzaga kelishida Sharq mutafakkirlari, jumladan, Markaziy Osiyolik qomusiy bilim egalari: Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Zayd Dabusiyy, Burhoniddin Marg'inoniy, Umar Xayyom, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy singari allomalar o'z asarlari bilan yuksak darajaga ko'targanlar.

Movarounnahr jahon tamadduniga, jumladan, ilm-fan va ma'naviyat, falsafa, din, san'atning rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan buyuk siymolar, mutafakkirlar, mutasavviflar, allomalarni yetishtirib bergan madaniy makon bo'lib hisoblanadi. Qadim Movarounnahr diyori o'zining buyuk siymolari, mutafakkir-u mutasavviflari bilan jahon xalqlari ma'naviy hayotida o'ziga xos o'rin egallagan. Din, fan, falsafa rivoj topgan diyorga aylangani ilmiy haqiqatdir. Bu zamindan yetishib chiqqan allomalar dunyo ilm-faniga beqiyos hissa qo'shishgan. Shunday allomalardan biri haqiqiy ismi Sulaymon bo'lib, o'z davrida o'zining benazir xislatlari bilan Hakim unvoniga sazovor bo'lgan ulug' mutasavvif Sulaymon Boqirg'oniydir. Sulaymon Boqirg'oniy Xorazmda tug'ilib (hijriy 582) 1186-yilda Boqirg'onda vafot etgan. Boqirg'oniyni yashagan joyi Boqirg'on qasabasi bo'lgani uchun mutasavvif Boqirg'oniy

⁴ <http://ferlibrary.uz/mamud-koshariy>

nomi bilan tanilgan. Sulaymon Boqirg‘oniy she‘rlari, hikmatlarida Sulaymon, Qul Sulaymon, Hakim, Hakim xo‘ja, Hakim Sulaymon, Hakim Xoja Sulaymon, Hakim ota, Miskin, Sulaymon kabi taxalluslardan foydalangan⁵. U Xoja Ahmad Yassaviyning muridlaridan biri bo‘lib, o‘z o‘rnida uning turkiy qavmlar orasidagi eng mashhur murshidi hisoblangan. Sulaymon Boqirg‘oniyning hayoti va ijodi haqida ma‘lumot beruvchi manbalar juda kam va sanoqli manobalar, manbalarda mutasavvifning hayoti haqida qisqa ma‘lumotlar berilgan. Muallifi noma‘lum bo‘lgan “Hakim ota” kitobi, Faxriddin Ali Safiyning “Rashahot ul-aynul hayot”, Haziniyning “Javohir ul-abror min amvoj il-bihor”, Mavlono G‘ulom Lohuriyning “Xazinat ul-asfiya”, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-mahabbat min shamoyil ul-futuvvat”, Mulla Sharif Buxoriyning “Hujjat uz-zokirin”, Shayboniyning “Risolai ma‘arifi Shayboniy”, Said Ahmad Nosiruddin Marjoniyning “Tarixi mashoyixi turk”, Xoja Hasanning “Muzakkiri ahhob” kabi asarlarda Boqirg‘oniy haqida qisqa ma‘lumotlar berilgan.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Sulaymon Boqirg‘oniyning hayoti va ijodi haqidagi tarixiy ma‘lumotlar turli rivoyatlar bilan aralashib ketganligi bois uni asl ilmiy-tarixiy dalillar asosida o‘rganish tadqiqotchilar uchun ancha murakkablik tug‘diradi. Turk mifologiyasida va xalq orasida “Hakim ota” nomi bilan ham mashhur bo‘lgan valiy inson Sulaymon Boqirg‘oniy o‘z iqtidori va she‘riy iste‘dodi bilan Xoja Ahmad Yassaviyning e‘tiborini qozongan. “1911-yilda yozilgan Jo‘yborzoda qalamiga mansub “Manoqib”da aytilishicha, Hakim ota (Hazrat Sulaymon) Qur‘oni karimga o‘zgacha hurmat ko‘rsatib, darsga borayotib Mus‘hafni

boshi uzra ko‘tarib olar ekan. Buni ko‘rgan Ahmad Yassaviy hazratlari uni shogirdlikka taklif etadi. Hakim ota u zotning qo‘lida ta‘lim olib, o‘n besh yoshida muridlikni qabul qiladi”⁶.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Ushbu tadqiqotda XII asrda yashab ijod qilgan mashhur tasavvuf vakili, turkiy xalqlar qalbida chuqur iz qoldirgan, tasavvuf g‘oyalarini xalq tili – turkiy til orqali keng ommaga yetkazgan Sulaymon Boqirg‘oniy hayoti va ijodi atroflicha tahlil etiladi. U Movarounnahr, Turkiston, Volgabo‘yi, Itil atrofidagi hududlarda Hakim ota nomi bilan shuhrat qozongan. Sulaymon Boqirg‘oniy o‘z davrining muhim ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘naviy muhitida yashab, Yassaviylik tariqatining munosib davomchisi bo‘lgan. Uning tasavvufiy-falsafiy qarashlari, ma‘naviy merosi va dunyoqarashining shakllanishiga ta‘sir etgan omillar bob doirasida ilmiy asosda yoritiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/markaziy-osiyoda-IX-XX-asr-boshida-madaniyat-rivoji-tarixidan/>
2. <https://e-tarix.uz/vatan-tarixi/uzbek-davlati/365-qoraxoniylar.html>
3. <https://moturidiy.uz/uz/news/1396>
4. <http://ferlibrary.uz/mamud-koshariy>
5. Mustafa Sever. Bakirgan Kitabı. Hakim Suleyman Ata. - Hikmetler ve Kıssalar, Ahmet Yesevi Universitesi Yayinlari., Ankara. -2018, -S.352.
6. *Хидоят* журналининг 2019 йил, 11-сонидан (<https://hidoyat.uz/23902>).



⁵ Mustafa Sever. Bakirgan Kitabı. Hakim Suleyman Ata-Hikmetler ve Kıssalar, Ahmet Yesevi Universitesi Yayinlari., Ankara. -2018, -S.352.

⁶ “Хидоят” журналининг 2019 йил, 11-сонидан. (<https://hidoyat.uz/23902>).

ALISHER NAVOIYNING IJTIMOY- ANTROPOLOGIK QARASHLARIDA SAXOVAT TALQINI

Gulova Anorgul Axtamovna, Andijon davlat universiteti doktoranti

INTERPRETATION OF GENEROSITY IN THE SOCIO ANTHROPOLOGICAL VIEWS OF ALISHER NAVOI

*Gulova Anorgul Akhtamovna, Doctoral student of Andijan State
University*

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЩЕДРОСТИ В СОЦИАЛЬНО- АНТРОПОЛОГИЧЕСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ АЛИШЕРА НАВОИ

*Гулова Аноргул Ахтамовна, докторант Андижанского
государственного университета*



<https://orcid.org/0000-0001-5308-6061>

e-mail:
gulovaanorgul2@gmail.com



Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ijtimoiy-antropologik qarashlarida saxovat talqini tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: saxovat, adolat, maʼnaviyat, maʼrifat, tafakkur, jamiyat, taʼlim, eʼtiqod.

Annotation: This article analyzes the issue of gratitude in the socio-anthropological views of Alisher Navoi.

Key words: generosity, justice, spirituality, enlightenment, thought, society, education, faith.

Аннотация: В статье анализируется трактовка щедрости в социально-антропологических воззрениях Алишера Навои.

Ключевые слова: щедрость, справедливость, духовность, просвещение, мысль, общество, образование, вера.

KIRISH. Alisher Navoiyning naqshbandiya taʼlimotining asosini Olloh, olam va odamga boʻlgan muhabbat tashkil etadi. U nasriy va nazmiy merosida shayx-u darveshlar, pir-u murshidlar, orif-u nabiyarga xos xislat va fazilatlar toʻgʻrisida soʻzlaganda cheksiz hurmat hamda mehr-muhabbat bilan yondashadi. Mutafakkirning naqshbandiya taʼlimoti ufurib turgan gʻoyalari xulq-atvor goʻzalligi, koʻngil tasfiyasi va ruhiyat kuch-qudratiga tayanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Alloma dunyoqarashida shariat, tariqat hamda haqiqatga yetishish yoʻllari, diniy-maʼrifiy gʻoyalar, ilohiyotga daxldor

masalalar bilan birgalikda dunyoviylikka eʼtibor yuqori boʻlgan. U Uygʻonish davrining ulugʻ namoyandasi sifatida insonparvarlik, adolat, vatanparvarlik, millatlararo totuvlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, nafsni tiyish, aqliy bilish, ilm-fan va kasb-hunarni egallash, tinchliksevarlik, yaxshilik va ezgulik, baxt –saodat va unga erishish yoʻllari, vijdonli va oʻz burchiga sodiq boʻlish, taʼlim-tarbiya, shirinsuxanlilik, xalq gʻami va tashvishida yashash, sofdillik, muhtojlarga yordam berish, xokisorlik singari gumanistik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga alohida eʼtibor qaratgan. Allomaning butun boshli badiiy-ilmiiy merosida, xususan “Xamsa” va “Mahbub ul-

qulub” asarlarida falsafiy g’oyalar targ’ibotini ko’rish mumkin.

MUHOKAMA. Insonlarni ma’naviy yetuklikka chorlovchi g’oyalar majmuasi sanalgan “Hayrat ul-abror” dostonida bebaho qadriyat hisoblanuvchi saxiylik hamda odob fazilatlariga atroflicha to’xtalib o’tiladi. Mazkur asarning beshinchi maqolati bir yuz sakkiz baytdan iborat bo’lib, unda karam madh etiladi. Maqolatda ehson, himmat, saxovat, marhamat, olijanoblik, javonmardlik, yaxshilik, ochiq qo’llik kabi qadriyatlarni o’zida birlashtirgan karam har bir kishi, jumladan, yetuk shaxs uchun, uning kundalik hayoti, kelajagi uchun beqiyos o’rin egallagan insoniy fazilatlardan biri ekanligi chuqur tahlil qilingan. Alloma maqolatning ilk misralaridanoq saxiylikda tengsiz shaxs qiyofasini chizadi. Insonga xos barcha ijobiy xislatlari bilan maqolat markazida qad rostlagan qahramon ustiga saxiylik libosini kiygan, qo’lida esa diram. Ijodkor “qo’lida diramning qiymati qolmagan” degan jumla orqali saxovat ahli zeb-u zarni qo’lida saqlamaydi, mabodo qo’lida shu kabi narsa mavjud bo’lsa, uni hech qanaqa qiymatga ega bilmay, unga muhtoj bo’lgan kishilarga hech ikkilanishsiz hadya eta oladi, deb fikr bildirmoqda. Maqolatdagi keyingi baytlarda mulohazalarini davom ettirib, karam sohibining barmoqlarini oftobga qiyoslaydi. Sababi, u panjalaridan barchaga birdek ziyo sochib, borliqni charog’on qiladi. Karam sohibi ham quyosh singari G’arb-u Sharqda barmoqlari orasidan zar sochishi bilan nom chiqargan.

*Siyam ila ilgingga adovat bo’lub,
Anda fano, munda saxovat bo’lub.*

*Chun kafing oltun sochib, andoqki barq,
Barq hayodin bo’lubon terga g’arq[1].*

Navoiy saxovatpeshalik xislati juda ham qiyinligi bois bu kabi fazilatlar kishiga Tangri irodasi orqali berilishini bayon qiladi:

Eyki sanga tengri nasib etti joh,

Berdi karam qilmoq uchun dastgoh[1].

Mutafakkir ta’kidicha, xayr-ehson tamadan yiroq bo’lmog’i darkor. Go’yoki oftob hammaga birdek beminnat ziyo taratgan singari saxiylik qiluvchi qo’l uchun oluvchi qo’l olgan narsasini qaytib beradimi yoki aksinchami, ahamiyatsiz bo’lmog’i lozim.

*Tarki tama’ qilki saxo ul emish,
Bazlda sarf etki ato ul emish.*

Bergali olmoq ishidin bo’l yiroq,

Bermak uchun olmog’aning yaxshiroq[1].

Musulmonlarning muqaddas kitoblari sanalgan Qur’oni Karim hamda Hadisi Sharifda ehson, saxiylik masalalariga qanday munosabat bildirilganligiga e’tibor qaratishni lozim deb bildik. Muqaddas manba Qur’oni Karimda ta’kidlanishicha, odam shunday buyuk maxluqotki, unga Shaytondan o’zga hamma jonzotlar bo’ysunadi: “Barcha farishtalar jam bo’lib, unga (Odamga) sajda qildilar. Faqat Iblis sajda qiluvchilar bilan birga bo’lishdan bosh tortdi. (Shunda Alloh) dedi: “Ey, Iblis, senga ne bo’ldiki, sajda qiluvchilar bilan birga bo’lmading?” (U) aytdi: “Men qora balchiqdan olib, (odam surati berilgach) quritilgan loydan Sen yaratgan basharga sajda qiluvchi emasman”[2]. Musulmonlarning muqaddas manbasi ma’lumotlariga ko’ra, inson borliqning sardori, eng mukammal ne’mati bo’lib, yer-u ko’kdagi barcha narsalar – quruqlikdagi ot-ulovlar, suvdagi kemalar unga bo’ysunadi va olamda mavjud hamma narsalar Bani bashar uchun, uning ravnaqi, rohat-farog’ati uchun vujudga kelgan. Insonning vazifasi esa bu cheksiz-chegarasiz ne’matlarga nisbatan Yaratganga shukronalik keltirib, doimo o’zligini anglashga intilishi hamda o’zidan yaxshi nom qoldirishga harakat qilib yashashidir. Bu to’g’rida Qur’onning eng uzun surasi bo’lmish “Baqara” surasida quyidagi fikr bayon qilinadi: “(Biz) osmonda burjlar yaratdik va kuzatuvchilar uchun uni (yulduzlar bilan) bezab qo’ydik. Yana uni (osmonni) barcha quvg’in etilgan shaytonlardan muhofaza qildik. Illo (u jinlardan) birortasi (maloikalarning so’zini) yashirincha eshitib olsa, bas, uni ochiq (uchar) yulduz quvib yetar (halok etar). Yerni esa, uni yoydik va unga tog’larni o’rnatdik hamda unda (har yerning o’ziga) mos turli narsalarni (o’simlik va mevalarni) undirdik. Yana unda (yerda) sizlar uchun ham, sizlar rizqlantiruvchisi sanalmaydiganlar uchun ham tirikchilik (rizq-u nasibalar)ni yaratib qo’ydik”[2]! Shu sababli inson Alloh taolo belgilab bergan tartib-qoidalarga qat’iy amal qilmog’i, boshqalarga nafi tegadigan xayrli ishlarni amalga oshirmog’i, yetim-yesir, yordamga muhtoj kishilarga mehribon, saxovatli bo’lmog’i lozim.

Shuningdek, mazkur suraning 261-oyatida quyidagi jumalarni o’qiyimiz: Alloh yo’lida

mollarini ehson qiluvchilar (savobining) misoli go‘yo bir donga o‘xshaydiki, u har bir boshog‘ida yuztadan doni bo‘lgan yettita boshog‘ni undirib chiqaradi. Alloh xohlagan kishilarga yanada ko‘paytirib (savob) beradi. Alloh (karami) keng va bilimdonidir[2]. 270-272-oyatlarda ham xayrsaxovat haqida so‘z boradi: “270. Ehson qilgan har bir nafaqangiz (sadaqangiz) yoki atagan nazringizni, albatta, Alloh biladi. (Xayr-ehson qilmay o‘ziga) zulm qiluvchilarga esa, yordam beruvchilar yo‘qdir. 271.Sadaqalaringizni agar oshkora bersangiz, juda yaxshi. Bordi-yu kambag‘allarga pinhona bersangiz – o‘zingiz uchun yanada yaxshiroqdir va (U) gunohlaringizdan o‘tar. Alloh qilayotgan (barcha) ishlaringizdan xabardordir. 272.Ularning hidoyati Sizning zimmangizda emas (ey, Muhammad), balki Alloh xohlagan kishilarni hidoyat etur. Neki qilgan xayr-ehsonlaringiz bo‘lsa, u o‘zlaringiz uchundir. Faqat Allohning “yuzi” uchungina ehson qilgaysiz. Qilgan har bir xayr-ehsoningiz (savobi) sizlarga adolatsizlik qilinmagan holda mukammal qaytarilur” [2].

Islom dinining muqaddas manbalarida insonning bu yorug‘ olamda amalga oshiradigan ishlari, insoniyligi, axloq me‘yorlariga ko‘ra harakat qilishi, Yaratgan roziligiga sabab bo‘luvchi savob ishlari haqida ko‘p mulohaza yuritiladi. Qur‘oni Karimda yaxshi ishlar va solih amallar o‘ttiz bir, ezgu ishlar o‘n ikki, xayr-ehson, sadaqa, mehr-shafqat jumlasiga qirq, hidoyat yo‘li tushunchasi esa besh marotaba tilga olinishidan ham buni anglashimiz mumkin.

Hadisi Sharifda olijanoblik, o‘zgalarga yordam qo‘lini cho‘zish to‘g‘risida ibratli fikrlar mavjud. Hadislarda yaxshilik va yomonlikka quyidagicha ta‘rif beriladi: “Abu Hurayra raziyallohu anhunging rivoyat qilishlaricha, Hazrat Rasululloh sallallohu alayhi va sallam bunday degan erkanlar: “Olloh taolo qaysi bandasiga yaxshilikni ravo ko‘rsa, o‘shanga biror musibatni yuborgaydir”[3]. Quyidagi hadisda esa insonlarga ezgulik ulashish zolimlikka zid qo‘yiladi. “Jobir ibn Abdulloh raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: “Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: “Har bir ezgu amal sadaqadir!” — dedilar”. Sa‘id ibn Abu Burda o‘z ota-bobolaridan naql qiladilar: “Nabiy sallallohu alayhi va sallam: “Har bir musulmon sadaqa bermog‘i lozimdir”,— deb aytdilar. Shunda odamlar: “Agar sadaqa qilgulik narsa

topolmasa-chi?” — deb so‘rashdi. Janob Rasululloh: “Qo‘llari birlan mehnat qilib, o‘zi ham manfaatlansin, sadaqa ham bersin!” — dedilar. Odamlar: “Agar ishlashga qurbi kelmasa yokim ishlamasa ne qilg‘ay?” — deyishdi. Janob Rasululloh: “Nochor va hojatmand kishilarga madad bersin!” — dedilar. Odamlar: “Bunga ham qodir bo‘lmasa-chi?” — deyishdi. Janob Rasululloh: “Boshqalarni yaxshilikka chorlasin!”—dedi lar. Odamlar: “Bunga ham qodir bo‘lmasa-chi?” — deyishdi. Janob Rasululloh: “Yomonlikdan o‘zini tiysin, o‘sha uning uchun sadaqadir!”— deb javob qildilar[3]”.

NATIJALAR. Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinib turganidek, yaxshilik hadislarda chuqur mazmunga ega bo‘lgan tushuncha sifatida ta‘riflanadi. Mazkur tushuncha insonning halolliqi, oqko‘ngillik, nafsni jilovlash, xayrli hamda savobli ishlar, saxovat, tavoze va boshqa xislatlar hamda axloqiy yo‘l-yo‘riqlarning majmuidir. Shu bois ularda ijobiy xislatli inson har taraflama ulug‘lanadi, unga xos fazilatlar, ezgu ishlar, xatti-harakatlar navbatma-navbat sanab o‘tiladi. Yoqimsiz xatti-harakatlarni amalga oshiruvchi kishi, uning qabih ishlari, yomon amallari keskin qoralanadi.

Shariat qoidalariga binoan saxovat kishining eng latif xislatlaridandir. Kimda bunday fazilat mavjud bo‘lsa, u kishi ikki dunyoda ham qadrlanadi, u Allohga ham, bandalariga ham yaqin bo‘ladi.

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida shunday yozadi: “Adab kichik yoshlig‘larni ulug‘lar duosig‘a sazovor etar va ul duo barokati bila umridin barxurdor. Kichiklar mehrin ulug‘lar ko‘nglig‘a solur va ul muhabbat ko‘ngulda muabbad qolur. Ushog‘larni ko‘zg‘a ulug‘ qilur, atvoridin xalq ulug‘liq bilur”[4]. Alloma ta‘kidicha, odob yosh bolalarni yoshi kattalar duosiga sazovor etadi. Ular bu duoning barakasidan bir umr bahramand bo‘ladilar. Adab – ulug‘lar qalbida kichiklarga nisbatan mehr uyg‘otadi hamda odobli, tarbiyali o‘smirga bo‘lgan muhabbat qallda umrbod muhrlanadi. Odob – kichik yoshlilarni nazarga ulug‘ qilib namoyon qiladigan fe‘l-atvordir. El-ulus adab sohiblarining xatti-harakatida ulug‘vorlik ko‘radi.

XULOSA. Bulardan shunday xulosaga kelish mumkinki, Alisher Navoiyning fikricha,

odob yaxshi xulq-atvorning o'zagi, hamma ezgu xislatlarning asosiy bo'g'inidir. Ushbu fazilatlar har bittasi faqatgina namunali xulq-atvor sohiblari siymosidagina jilvalanishini bayon qiladi. Mutafakkir adab, qanoat, karam-saxovat, rostlik, vafo, muhabbat kabi fazilatlar inson uchun juda muhim deb bilib, ular to'g'risida mushohada qiladi. Xislatlarga qarama-qarshi bo'lgan xudbinlik illati esa kishilarni jarlikka boshlaydi. "Xudbinlik sharqona jo'mardlik axloqiy tamoyili va insofililik me'yoring aksiy[5]: agar jo'mardlik, biror shaxs, jamoa yoki jamiyat baxti, farovonligi yo'lida kishining hatto o'ziga eng zarur bo'lgan narsalaridan ham voz kechishiga tayyor turishini anglasa, xudbinlik o'z manfaatlari yo'lida hech kimni, hech bir jamoani, hech qanday jamiyatni tan olmaydigan salbiy me'yor egasining yaqqol ko'zga tashlanadigan xususiyati"[6]. Hozirgi paytda ham bu singari tanazzulga sabab bo'luvchi illatdan jamiyatni muhofaza qilish o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 20 жилдлик, Ж. 7. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 150.
2. А.Мансур. (тарж. ва изоҳ муаллифи). Куръони Карим. Ҳижр сураси 30-33-оят. – Б.163. www.ziyouz.com.
3. Имом Ал-Бухорий. Ҳадис. 4-жилд. "Ал-жомий ас-саҳиҳ"(Ишончли тўплам). Қомуслар бош таҳририяти, Тошкент: 1997. – Б.3 .
4. Алишер Навоий. МАТ. 10 жилдлик. 9-жилд. Маҳбуб ул-қулуб. Тошкент. Гофур Гулом номидаги НМИУ. 2011. 491 бет.
5. Абдухолик Ташанов. Вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафкуралар. Тошкент. Турон замин зиё. 2015. 344-бет.
6. Очилова М. Алишер Навоий маънавий-ахлоқий қарашларининг ижтимоий-фалсафий таҳлили: Фалс. фанлари номз...дисс.–Бухоро, 2024. – Б.47.



QORAQALPOQLARDA OSHXONA ANJOMLARI EVOLYUTSIYASI: AN'ANALAR VA YANGILIKLAR

Joldasbaeva Gulnara Rashidovna,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi
Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti stajor tadqiqotchisi

THE EVOLUTION OF KITCHEN UTENSILS AMONG THE KARAKALPAKS: TRADITIONS AND INNOVATIONS

Joldasbaeva Gulnara Rashidovna,

Research Fellow of the Karakalpak Research Institute of Humanities of
the Karakalpak Branch of the Academy of Sciences of the Republic of
Uzbekistan

ЭВОЛЮЦИЯ КУХОННОЙ УТВАРИ У КАРАКАЛПАКОВ: ТРАДИЦИИ И НОВАЦИИ

Жолдасбаева Гулнара Рашидовна,

стажёр-исследователь Каракалпакского научно-
исследовательского института гуманитарных наук
Каракалпакского отделения Академии наук Республики
Узбекистан



<https://orcid.org/0009-0006-6886-2389>

e-mail:

joldasbaevagulnara
93@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada qoraqalpoqlarning an'anaviy uy-ro'zg'or buyumlari, uning zamonaviy shakllari haqida so'z yuritiladi. Tadqiqot To'rtko'l, Ellikkal'a va Qonliqo'l tumanlarida 2025-yilda olib borilgan dala yozuvlari asosida tahlil qilingan. Ma'lum bo'lishicha, an'anaviy uy-ro'zg'or buyumlari shahar joylariga qaraganda ko'proq hozirgi kunda qishloq joylarida saqlangan. U buyumlar hozirda muzeylarda saqlanadi va milliy bayramlarda ko'rgazma sifatida namoyish etiladi. Texnologiyaning rivojlanishi qoraqalpoqlarning uy-ro'zg'or buyumlarining o'zgarishga uchrab zamonaviylashishiga olib keldi.

Kalit so'zlar: tandir, qazan, sabayaq, yog'och idishlar, sopol idishlar, digirman, dasturxon, suv qabaq, zamonaviy idishlar, ekologik toza mahsulotlar.

Abstract: The article discusses traditional Karakalpak household items and their modern forms. The study was analyzed based on field recordings conducted in 2025 in the Turtkul, Ellikkala, and Kanlykul districts. It turned out that traditional household items are now more preserved in rural areas than in urban areas. These items are currently kept in museums and are exhibited as exhibits during national holidays. The development of technology has led to the modernization of Karakalpak household items.

Keywords: tandir, qazan, sabayaq, wooden dishes, ceramic dishes, digirman, dasturxon, suv qabaq, modern dishes, environmentally friendly products.

Аннотация: В статье рассказывается о традиционных предметах домашнего обихода каракалпакцев, их современных формах. Исследование было проанализировано на основе полевых записей, проведенных в 2025 году в Турткульском, Элликкалинском и Канлыккульском районах. Оказалось, что традиционные предметы домашнего обихода в настоящее время больше сохранились в сельской местности, чем в городской. Эти предметы в настоящее время хранятся в музеях и выставляются на национальных праздниках. Развитие технологий привело к изменению и модернизации предметов быта каракалпакцев.

Ключевые слова: тандыр, казан, сабаяк, деревянная посуда, керамическая посуда, дигирман, дэстурхан, суу кабак, современная посуда, экологически чистые продукты.

KIRISH. Qoraqalpoq xalqining madaniyati uzoq davrlarda shakllangan bo‘lib, boy an’analariga ega. Bu an’analar turmush tarzi, oziq-ovqat, uy-ro‘zg‘or buyumlarini tartibga solish kabi kundalik xo‘jalik yuritish amaliyotida o‘z aksini topgan. Shularning ichida ular ovqatlanish odobiga oid uy-ro‘zg‘or buyumlarini azaldan o‘z turmush tarziga mos tabiiy materiallardan va qo‘lda yasalgan buyumlardan kundalik turmushda foydalanib kelgan. Ular foydalangan uy-ro‘zg‘or buyumlari asosan, chidamli, tejamkor bo‘lib, xo‘jalik yuritishda qulay edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. O‘rta Osiyo xalqlari uy-ro‘zg‘or buyumlarining o‘rganilish tarixi juda muhim. Masalan, G.P.Vasileva turkmanlarning uy-ro‘zg‘or buyumlari haqida, I.V.Zaxarova qozoqlarning oshxona buyumlari haqida, K.Sh.Shaniyazov, X.I.Ismailov va G.Sh.Zununovalar ilmiy ishlarida esa o‘zbek xalqining uy-ro‘zg‘or buyumlari haqida keng ma‘lumot berib o‘tadilar.

Shu xalqlar qatori qoraqalpoq xalqining ovqatlanish odobi va uy-ro‘zg‘or buyumlari haqidagi eng dastlabki ma‘lumotlar O‘rta Osiyoga kelgan Yevropalik va rus sayyohlari tomonidan yozib qoldirilgan kitoblar va kundaliklarda qimmatli ma‘lumotlar keltiriladi. Ayniqsa, qoraqalpoqlarning uy-ro‘zg‘or buyumlaridan tegirmon haqida Rossiya imperiyasi davlat arbobi M.N.Galkin keltirsa, Rossiya imperiyasining davlat arbobi, geograf A.V.Kaulbars esa cho‘yan qozonlar haqida ma‘lumotlar bergan. XX asr davomida qoraqalpoqlarning an’anaviy uy-ro‘zg‘or buyumlari haqida tadqiqotchilar A.S.Morozova, U.X.Shalekenov, A.V.Bekmuratova va R.Qosbergenovlar asarlarida keltirilgan. Keyingi davr tadqiqotchilaridan A.Utemisovning tadqiqotlarida qoraqalpoqlarning oshxona buyumlarining ishlash texnikasi, materiallari va shakli, dizayni haqida keng tushuncha beradi. Tadqiqotchilardan Z.I.Kurbanova, G.U.Seydametova va G.A.Akimniyazovalarning tadqiqotlarida qoraqalpoqlarning an’anaviy oshxona buyumlari va ularning transformatsiyasi tahlil qilingan.

MUHOKAMA. Qoraqalpoq xalqining an’anaviy oshxona buyumlari nafaqat amaliy jihatdan, balki estetik jihatdan ham xalqning san‘at namunalari hisoblanadi. Qoraqalpoq xalqining

ovqatlanish amaliyotiga oid uy-ro‘zg‘or buyumlarini uch guruhga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin: qoraqalpoqlarning an’anaviy ovqatlanish amaliyotiga oid uy-ro‘zg‘or buyumlari, sovet davrida kirib kelgan idish-tovoqlar va zamonaviylashtirilgan an’anaviy uy-ro‘zg‘or buyumlari.

Qoraqalpoq xalqining an’anaviy ovqatlanish amaliyotiga oid buyumlari oshxonada saqlanadigan bo‘lgan. O‘rta Osiyo xalqlari shu asosda qoraqalpoqlar ham qadimdan qora uylarda yashagan.

Qora uyning kiraverishdagi o‘ng tomoni – uyning “*shep ja‘gi*” deb atalib, u uydagi ayol-qizlarning bo‘limi hisoblangan. Bu asosan oshxona vazifasini bajarib, shunga bog‘liq narsaning hammasi uyning shu “*shep*” tomonida turgan... Uyning “*shebinde*” loydan yasalgan “*oshaq*” turib, unda ovqat pishgan[1,36]. Barcha ovqatlarni, shu jumladan non pishirishni ham uy bekalari g‘ishtdan yasalgan va loy bilan suvalgan *oshaq*da yoki uch oyoqqa mahkamlangan cho‘yan doira ustiga yondirilgan olov ustiga o‘rnatilgan cho‘yan “*qazan*”da tayyorlashar edi[2,205]. Rossiya imperiyasining davlat arbobi A.V.Kaulbars oiladagi odamlarning soni va boyligiga qarab cho‘yan qozonlar katta yoki kichik o‘lchamlarda bo‘lgan, deb ma‘lumot beradi [3,631c]. XIX asrda va XX asr boshlarida qoraqalpoqlarning orasida cho‘yan quyish temirchilikka qaraganda nisbatan past darajada rivojlangan[4,24-25]. Shunga qaramasdan cho‘yanchilar mahalliy xalq uchun qozon yasagan. Mahalliy qozonlar va rus savdogarlari orqali Rossiyadan yoki boshqa xonliklardan olib kelingan, qozon 6 va 12 qarich bo‘lib oilaning katta-kichikligiga qarab ishlatilgan. Qozonning ustiga yog‘ochdan qopqoq bostirilgan [1,36]. XX asrda Mo‘ynoq tumanida katta xonadonlar palov tayyorlashda 160-170 sm diametri 12 qarich bo‘lgan qozondan foydalangan[5,36]. Ovqat va choy uchun idishlar va ayrim oziq-ovqat mahsulotlari kichkina shkaflarda saqlangan... Oziq-ovqat va idish-tovoq shkaflari ikki xil bo‘lgan: ikki tomonga ochiladigan ikki qavatli eshikchalar (“*sabayaq*” yoki “*shoq-shoq*”) va oldinga ochiladigan qavatlar (“*agash-sandiq*”). Eng ko‘p tarqalgani ikkinchi turi edi[2,210]. *Sabayaq* yog‘ochdan yasalgan yarim metrcha balandlikdagi stolga o‘xshash narsa bo‘lib, unga

barcha qozon tovoq idishlari qo'yilgan. *Sabayaqning* usti betida keregening boshiga osilgan "*kerigi*" turgan. *Kerigi* jundan naqshlanib to'qilgan. Uning ichida barcha qoshiq-tovog' turgan. Hamma xo'jalik ham qoshiq-tovog'ini kergiga sola bermagan, ayrim hollarda kergi uying bezagi sifatida turgan[1,36].

Qoraqalpoq xalqining an'anaviy uy-ro'zg'or buyumlaridan biri *tandir* bo'lib, qoraqalpoqlar ham boshqa O'rta Osiyo xalqlari kabi nonni tandirda pishiradi. "*Tandir*" – gumbazli loydan yasalgan pech, uning pastki diametri taxminan 1 metr, yuqorisi 35-40 sm, devor qalinligi 4-5 sm. Yuqori qismida o'tin solish uchun teshik bor va yon tomonlarida o'tin yonishi vaqtida havoning kirib borishi uchun xizmat qiladigan to'rt teshik – yumaloq teshik bo'ladi[6,269-372]. Qoraqalpoq tandiri Janubiy Xorazm tandiridan, o'zbek tandiridan farq qiladi. U o'zbeklarnikidek qiyshaytirib emas, balki to'g'ri, og'zi yuqoriga qaratib yasaladi. Qo'ldan tandirni odatda ikki ayol yasaydi. Buning uchun bug'doy somon aralashtirib yasalgan loyni tekis yerda yumaloqlaydi. Yumaloqlangan loyni diametri 1-1,20 santimetr qilib bir aylantirib chiqadi, uning ustiga bir aylantirib eski devorning kesagini qo'yib chiqadi, shunday davom etadi. Tandirning shakli gumbazsimon bo'ladi. Bundan keyin to'ponli loy bilan yupqa qilib suvaladi. Bunday tandirlar dehqonchilik tumanlarida, dengiz va Qizilqum tumanlarida keng tarqaldi. Bundan tashqari kulol tandir bo'ldi. Uni kulol yasagan. Buning uchun alohida uch qavat loy tayyorlanadi. Shu loy bilan o'stirib boraveradi, ularning chetlari bir-biriga qayirib yopishtiriladi. Usta yog'och to'qmoq yordamida egib boradi. Dumaloq, tosh to'qmoq ham qo'llaniladi. Tandir shunday o'rib bo'lingach, to'pon suvoq bilan yupqa qilib suvaladi va 2-3 kun davomida quritiladi. Bundan keyin borib ular tayyor bo'ladi[4,98]. Dala yozuvi ma'lumotlariga ko'ra: "Bir elatda (30-40 uy) 1 tandir bo'lar edi. Hamma o'zining tandirda yoqadigan o'tinini olib kelib o'sha tandirda non yopib olardi. Hozirgi kunda har uyda 1 tandirdan bor"[7]. Yana bir turkman millatidan bo'lgan informator quyidagicha ma'lumot berdi: "Qoraqalpoqlarning tandiriga o'xshagan tandirdan foydalanamiz, uni bizlar "*turkmen tandir*" deb ataymiz"[8]. U tandir qoraqalpoqlarning tandiri bilan deyarli bir xil

bo'lib, umuman tashqaridan qaraganda farqi yo'q. Umumlashtirib aytganda, tandir nafaqat qoraqalpoqlarning turmushida, balki barcha O'rta Osiyo xalqlari turmushida hozirgi kunda ham katta ahamiyatga ega.

Tandirda non yopadigan bo'lsa, yuzini bezash uchun dumaloq yog'ochga qoqilgan 10-15 ta mayda temirning uchi bilan nonni sanchishadi. U temirni "*tikesh*" deb ataydi. Nonni tandirga yopishda qo'l kuymasligi uchun qo'lga maxsus yasalgan xalta kiyiladi, uni "*rápiyda*" deb ataydi. *Rápiydaning* qo'lning ichiga qaragan tomoni nonga o'xshab, yumaloq qattiq bo'ladi, undan tandirning issiqligi qo'lga o'tmaydi [1,40]. Pishgan nonni tandirdan olish uchun alohida matodan o'rtacha qalinlikda qo'lqop tikib qo'yiladi va non shu bilan tandirdan olinadi.

Qoraqalpoqlar kundalik hayotida ko'pincha xamirdan tayyorlangan taomlar pishirgan. Ovqat pishiradigan vaqtda un avval samarda qoriladi. So'ngra kesib 4 burchakli taxta ustiga qo'yiladi. U taxtani "*astaqta*" deb ataydi. *Astaqtaning* ustidagi xamirni yoyadigan 1 metr atrofidagi dumaloq yog'ochni "*oqlaw*" deb ataydi[1,39]. Uyda *astaqta* bo'lmaganda, uning o'rniga "*qapqaq*" degan qozonning ag'darilgan yog'och qopqog'i qo'yilgan [2,205]. Un yerga to'kilmasligi uchun, *astaqtaning* ostiga, iylangan teri qo'yiladi, uni "*sipira*" deb ataydi [1,39-40]. *Sipira* qo'y yoki echki terisidan tikilgan, o'lchami 1-1,5 kvadrat metr bo'lgan. Unni oddiy tukli elak – "*elgezer*", "*elewish*" orqali solinadi[2,205-212]. O'rta Osiyo xalqlari bo'lgan qozoq, o'zbek va turkmanlar ham *astaqta*, *oqlaw*, *sipira* va *elewishdan* kundalik turmushda hanuzgacha foydalanib kelmoqda.

Qoraqalpoqlarning ovqatlanish amaliyotiga bog'liq uy-ro'zg'or buyumlari xilma-xilligi bilan xarakterlanadi. Xususan, ovqat pishirish bilan bog'liq idishlar "*tabaq*" deb atalgan yog'och kosalar, pichoqlar hamda turli o'lcham va shakldagi qoshiq va aralashtirgichlardan iborat edi. Taomning har qanday turi mahalliy ustalar tomonidan yasalgan yog'och tovoqlar orqali taqdim etilgan. Yog'och tovoqning katta 10-15 kishi to'yadigan turini "*samar*" (*kersen*) deb atashgan. Undan kichigini, 3-5 odam bo'lib o'rta oladigan turini "*tabaq*" deb atagan. Undan kichik, bolalarga ovqat beradigan turini "*zeren*", "*qirma*", "*tostaqan*" deb atagan. *Tostaqan* atamasi

qozoqlar bilan qoraqalpoqlar aralash o'tirgan qishloqlarda ko'proq uchraydi[1,38]. Qoshiq-tovoq oddiy qurollar: *qirgi*, *qashaw*, pichoqning yordami bilan yasaladi. Qoshiq-tovoqni yasash uchun usta oq tol ni doira shaklida kerakli uzunlikda kesib oladi. Yoshlay quritmay tayyorlaydi [4,54]. Shu qatorda "*kepkir*" – kichkina temirdan ishlangan bo'lib, mahalliy ustalar tomonidan yasalgan. U palov pishirishda, *bawirsaq* pishirishda qo'llanilgan[1,37]. Informatorning ma'lumot berishicha: "Yog'och qoshiq qulay bo'ladi. Bugungi kunda yog'och qoshiqdan sumalak pishirganda foydalanaman. Sababi, yog'och qoshiqdan foydalansak sumalak qozonning ostiga yopishib qolmaydi. Yana tariqni qovurganda va suzma tayorlaganda yog'och qoshiq bilan tinmay aralash tiramiz. Chunki, temir qoshiq suzmaning buzilib ketishiga olib keladi. Shuning uchun yog'och qoshiq ishlatiladi"[9]. Qo'shni o'zbeklar ham yog'ochdan yasalgan tovoq, kosa va qoshiqlardan kundalik turmushda foydalangan[10,121-123]. Ular choy ichish uchun "*piyola*", suyuq ovqatlar uchun "*kosa*" va katta tovoq "*lagan*" deb atalgan idishlardan foydalanganlar[11,238]. Turkmanlarda suyuq ovqatlarni yog'och yoki emaldan tayyorlangan tovoqlarda yog'och qoshiqlar bilan yegan[12,33-102]. Qozoqlar ham yog'ochdan go'sht uchun idish "*astaw*", ovqat uchun "*tabaq*" va suyuq ichimliklar uchun kosa "*ayaq*" kabi idishlar yasagan[13,400-429]. Xulosa qilganda, qoraqalpoqlar, qozoqlar, o'zbeklar va turkmanlarda idishlarni tayyorlashda ko'proq yog'ochdan foydalanishgan.

Qoraqalpoq xalqi kundalik turmushda ovqat pishirishda o'choqdan foydalangan. O'choqda olovni yoqqanda surib o'tirish uchun alohida, ma'lum kichikroq bir yog'och qo'yilgan, uni xalqda "*kosew*" deb ataydi. *Kosew*ning temirdan yasalgan turi bo'lib, uni "*atoshkur*" deb ataydi. *Atoshkur* bir temir bo'lmaydi, u-bu chalani qisib olib tashlashga moslashgan ikki temirdan iborat bo'ladi [1,40]. Informatorning ma'lumot berishicha: "1975-yildan beri temirdan yasalgan *atoshkur*dan foydalanib kelmoqdamiz. Bu o'choqqa o'tin yoqqanda uni qo'zg'atish uchun va ostidagi kulini olish uchun kerak"[14]. Qoraqalpog'iston hududidagi qishloq joylarida gaz bo'lishiga qaramasdan hamon o'choqdan foydalanadigan xonadonlar ko'p. Odamlar

"o'choqda pishgan ovqat o'zgacha mazali bo'ladi", - deyishadi. Shuning uchun ham qishloq aholisi o'choq, *kosew* va *atoshkur*dan hanuzgacha foydalanib kelmoqda.

Qoraqalpoqlar kulollar tomonidan yasalgan oshxona buyumlaridan ham kundalik turmushda foydalangan. Barcha sopol idishlar juda oddiy va deyarli bezatilmagan edi. Ular ichida "*badiya*" juda o'ziga xos shaklga ega. Bu palov, go'sht va qo'lda yeyiladigan har xil quyuq taomlarni solish uchun ishlatilgan. *Badiya* – aylanasi vertikal va stend ko'rinishidagi baland tovoq, dumaloq idish. Xuddi shu nomdagi bunday idish-tovoqlar faqat Amudaryo havzasida emas, balki ruslar va qozoqlar orasida, Kavkazda ozarbayjonlar, Gruziyada ham qo'llanilgan[2,208]. Dala yozuvi ma'lumotlariga ko'ra: "1969-yili kelin bo'lib tushdim. Kelin bo'lib tushganimga 40 dona *badiya* bor edi. Hozir shundan 15 tasi qoldi. *Badiyaga* palov solib yeydigan edik"[14]. Hozirgi kunda ham ko'plab oilalarda *badiya* kundalik turmushda foydalanib kelinmoqda.

Sut mahsulotlarini tayyorlash uchun turli idishlar qo'llanilgan: "*shelek*" sigir sog'ish uchun tor, yog'och baland chelak. Ayrim chelaklar o'rniga sigirlarni "*qabaq*", "*awiz-qabaq*" yoki "*guze*" sopol idishlarda sog'ishgan. Yog'och yoki sopolidan yasalgan moyjuvoz "*gubi*" deb atalgan. Urish uchun moslashgan idishlar ikki turda qo'llanilgan: yog'ochdan yasalgan *gubi* – "*gubiniñ piskegi*" va yog'ni uzil-kesil maydalash uchun "*atlaw*" [2,213]. Avvallari *gubi*, chelak, *atlaw* va *piskek* asosan qatiqdan yog' olish uchun foydalanilgan. Yog'och ustalar oq toldan va qora toldan *gubi* bilan *piskek* ishlardi [4,52]. *Gubi* ma'lum yo'g'on yog'ochning tubidan ishlangan. Ichi qirib olinib qo'yilgan, quritilgan, ikki tomoni teshilgan 1½ metrcha uzunlikdagi dumaloq yog'och bo'lgan. Bir tomonini yog'och bilan qoplagan. U gubining "*tubi*" deb atalgan [1,38]. Gubining ikki turi bo'ldi. "*Oyma gubi*" va "*qurama gubi*" deb ataldi. *Oyma gubi* keng tarqaldi, ammo *qurama gubi* kam tarqaldi. Ikkovining ham bo'yi 0,8-1 metr, aylanasi esa 70-80 santimetr bo'lgan. *Oyma gubini* dumaloq yog'ochdan yo'nib temir halqa bilan birlashtiriladi. Ikkala gubining ham tagini ustalar alohida-alohida yasashgan. *Gubining* yog'ochdan yasalgan *piskegi* bo'lgan. U *gubidan* 25-30 sm

uzun bo'ladi [4,52]. *Piskek*ning kuchi bilan qatiqning yog' qatlami ajralib chiqqan. U qozonga quyilib, yog'i qalqib olinib, ikkinchi idishga quyilgan. Uni "shelek" deb atashadi. Chelakning ham qurilish tizimi xuddi *gubidek* bo'lib, faqat past, kichikligi bilan ajralib turadi. Qatiqning yog' qatlami shu chelakda "atlaw" bilan olinadi. *Atlaw* ham xuddi *piskekdek* bo'ladi, lekin u yog'ochining boshiga *piskek*dagidek xoch qo'yilmaydi, balki uzunroq, o'rtasi teshik doira yog'och qo'yiladi. Olingan yog', kuydirib olinadi yoki kuydirilmay tuzlanib, molning qornidan yasalgan idishga solinadi. Uni o'z nomi bilan "may qarın" deb ataydi. Bunday qorinlar mol so'yishdan alohida olinib, alohida ishlovdan o'tadi [1,38-39]. Shuningdek, *gubi* kulollar tomonidan ham yasalgan. Masalan, katta xumlar va *may gubi* quyidagicha yasaladi. Avval pastki va yuqori taraflarini alohida ajratib ishlaydi, keyin birlashtiradi. Buning uchun dastgohga avval pastki qismini, keyin yuqorisini qo'yadi. Bundan keyin ichki va tashqi tomonidan loy surtiladi [4,95-97]. Informatorning ma'lumot berishicha: "Otam Ro'ziboyev Husayn usta bo'lib ko'p yillar ishladi. Qishloqdagi eng mashhur usta edi. *Gubi, piskek, arava, beshik, chig'ir, oyna, stol* kabi narsalar yasadi. *Gubini* gujum yog'ochidan yasadi. *Piskek, keli* va *kelsap* ham gujum daraxtidan yasalgan. Chunki, gujum mustahkam bo'ladi"[15]. Yana bir informator bu haqda boshqacha ma'lumot aytib o'tdi: "Ilgari uyda *gubi, chelak, atlaw, keli* va *kelsap* ishlatardik. Yog'och *gubi* bor edi, lekin u sinib qoldi. Keyin o'rniga *temir gubi* olib foydalandik. Ikkala *gubining* ham *piskegi* yog'ochdan yasalgan edi. Qishlog'imizdagi usta *gubi, piskek, keli* va *kelsapni* jiyda, o'rik va tut yog'ochidan yasaydi"[16]. Ellikqal'a tumanida yashovchi informator kelin bo'lib tushganida uyida toshdan yasalgan *gubining* bo'lganligi haqida aytib o'tdi [17]. Shuningdek, To'rtko'l tumanidan bo'lgan informator bu haqida quyidagicha ma'lumot keltiradi: "Yog' olish uchun *gubi* va *piskekdan* foydalanar edik. *Gubi* plastmassadan, *piskek* yog'ochdan yasalgan. Buni hozirgi kunda ham ishlatamiz"[8]. Umumlashtirib aytganda, *gubi* har xil: yog'ochdan, temirdan, plastmassadan va toshdan yasalgan gubilardan odamlar foydalangan va hatto ayrim qishloq aholisi hamon foydalanib kelmoqda. Bizlar olib borgan etnografik ekspeditsiyada

Qoraqalpog'istonning shimoliy tumanlarida yashovchi aholi *gubi, piskek, chelak* va *atlawdan* foydalanib yog' olganligini aytdi. Biroq, janubiy tumanlarda bo'lganimizda ular faqat *gubi* va *piskekdan* foydalanganligi haqida ma'lumot berdi. Bundan ko'rinib turibdiki, har bir hududning sutdan sariyog' olishida o'ziga xosliklar bor ekan. Shuningdek, qo'shni o'zbeklar ham yog'ochdan yasalgan *kubi* va *pishkakdan* foydalanib sariyog' olgan [10,117]. Qozoqlar ham yog'ochdan yasalgan *gubidan* kundalik turmushda foydalangan[13,400-429]. Shuningdek, Qoraqalpog'iston hududida yashayotgan turkmanlar ham *gubi* va *piskekdan* foydalangan. Xulosa qiladigan bo'lsak, qoraqalpoqlar, o'zbeklar, qozoqlar va turkmanlar yog' olishda *gubi* va *piskekdan* foydalangan. Biroq, bularni hozirgi kunda faqat ayrim qishloq aholisi kundalik turmushda foydalanib kelmoqda. Qonliko'l tumanida yashovchi informator *gubining* o'rniga hozirda baklashka bilan yog' olishini aytdi[18].

Donni qayta ishlash uchun balandligi 1,25 metrgacha bo'lgan, yaxlit yog'ochdan o'yib ishlangan, og'ir oddiy "kelsap" dastasi bilan jihozlangan "keli" yog'och stupasidan foydalanilgan. *Kelsap* – yog'ochdan yasalgan, pastki qismi g'ijimlangan. *Kelsapning* yuqori uchida ba'zan tutqichlar o'rniga 4 ta ustun ishlangan. *Kelida* don va tuz maydalanar edi[2,213]. G'alla *kelining* ichiga solinadi. Ustiga *kelsap* bilan tuyuladi. *Kelsapning* o'rtasida odamning qo'li bilan ushlashga moslangan joyi bo'ladi[1,39]. Qoraqalpoqlar orasida *kelining* ikki turi bo'lgan. "Jalpaq keli" va "sopaq keli" bor edi. Ustalar ikki *kelini* ham qattiq yog'ochdan ishlaganlar. Yog'ochning o'rtasi o'yiladi, keyin qirg'ich bilan qiriladi. *Keliga kelsapni* jiyda yoki o'rik yog'ochidan yasaganlar. XIX asr oxiri - XX asr boshida qoraqalpoqlar orasida *sopaq keliga* qaraganda *jalpaq keli* ko'proq tarqalgan[4,52]. Informator bu haqida quyidagicha ma'lumot berdi: "Hozirgi kunda bizning uydagi *keli-kelsapdan* qo'shnilarimiz bilan birgalikda foydalanib kelyapmiz. Bu *keli-kelsap* jiydaning yog'ochidan yasalgan. Sumalak pishirganda *keli-kelsapdan* foydalansak unumli bo'ladi. Bug'doyni bo'rttirib bo'lib *kelida* tuyiladi. *Kelida* tuyilgan bug'doy yumshoq bo'lib qoladi va bu bug'doydan tayyorlangan sumalak o'zgacha mazali bo'ladi. Ammo, hozirgi kundagi myasorubka esa

bug‘doyni o‘rtasidan bo‘lib yuboradi. Shuning uchun men *kelidan* foydalanishni ma‘qul ko‘raman” [18]. Yana bir informator: “*Kelikelsap*dan hozirgi kunda “*iyjan taqan*” tuyishda, kunjutning yog‘ini chiqarishda va unga *zagara* qo‘shib *taqan* qilishda foydalanamiz. Shuningdek, tariqni tuyib so‘k qilishda ham foydalanib kelmoqdamiz”, - deb aytib o‘tadi[9]. To‘rtko‘l tumanida yashovchi o‘zbek millatiga mansub bo‘lgan axborotchi: “Bolaligimizdan beri uyimizda bronzadan yasalgan “*abansoqi*”dan foydalanamiz. Undan dori tayyorlashda, tuzni maydalashda foydalandik. “*Aban*” bu *keli*, “*soqi*” esa *kelsap* bo‘lib, kichik o‘lchamdagi *keli-kelsap* hisoblanadi”[7], - deb aytib o‘tdi. Umumlashtirib aytganda *keli-kelsap* qoraqalpoq xalqining turmushida katta rol o‘ynagan. Hozirgi kunda ham ayrim xo‘jaliklar undan kundalik turmushida foydalanib kelmoqda.

G‘alla *qol digirman*ning kuchi bilan unga aylanadi. Uning oldidan bir qator ishlovlardan o‘tadi. G‘alla eng avval *keliga* solib tuyiladi. Keyin *digirmanga* solinadi. *Digirman* ikki g‘ildirak, tog‘ning toshi bo‘lib, bir-biriga tegadigan joyini, kavlab tishli qilib qo‘yadi. O‘rtasida teshigi bo‘lib, ostki teshigiga xoch qilib, kichkina yog‘och qo‘yiladi. Uni “*baqalag*” deb ataydi. Uning o‘rtasida kichkina chuqurcha bo‘ladi. Ustki toshning *baqalag*‘idagi o‘tkirroq yog‘och, o‘sha chuqurga kirib turadi va odam tortqich bilan ustki toshni aylantirganda ostki toshning *baqalag*‘idagi chuqur, ustki toshning *baqalag*‘idagi yog‘ochni ilib, uni o‘z uyasidan chiqarmay aylantiradi. Shuning natijasida g‘alla unga aylanadi[1,39]. 1858-yili Qo‘ng‘irot shahrida qoraqalpoqlar orasida bo‘lgan M.N.Galkin: “bug‘doyni maydalash uchun bitta tegirmon bor va bunda ko‘pincha oddiy tegirmon toshlari qo‘llanilgan”, - degan ma‘lumotni keltirgan[19,180]. XX asrda jo‘xori unini tegirmonda maydalashgan va bu qishloqdagi har bir uyda bo‘lgan. Keyinroq qishloq va shaharlarda mini korxonalarda kichik tegirmonlar paydo bo‘ldi, u “*qaraz*” deb atalardi[20,98-111]. Informatorning ma‘lum qilishicha: “Tegirmondan bug‘doy va jo‘xorini maydalab un qilish uchun foydalandik. Bolaligimizda qo‘l tegirmonidan buvim foydalanardi. Keyin uning o‘rniga “*eshak tegirmon*”dan foydalandik. Bunda tegirmonni eshakka bog‘lab qo‘yamiz va eshak uni

aylantiradi, bu tegirmonda 1 kunda 1 qop un olardik”[15]. Yana bir informator: “Tegirmonning 2 turi bo‘ladi: kichik tegirmon va katta tegirmon. Bolaligimizda kichik tegirmonda jo‘xorini tortib jo‘xori uni olish uchun, katta tegirmonda esa bug‘doyni tortib un olish uchun foydalanar edik”, - deb ko‘rsatib o‘tadi[21]. Qonliko‘l tumanida yashovchi yana bir informator kelin bo‘lib tushgan vaqtida uyida qo‘l tegirmoni bo‘lganligini va undan jo‘xori va makkajo‘xorini maydalashda foydalanganligini, shuningdek so‘kni tegirmonda tortib “*taqan*” yasaganligi haqida aytib o‘tdi[9]. Albatta, hozirgi kunda tegirmon foydalanilmasa ham u o‘z vaqtida, ya‘ni qarazlar yo‘q paytlari xalqning asosiy foydalanadigan uy-ro‘zg‘or buyumi bo‘lgan.

Choy uchun suv mayda mis idishlarda “*tuncha*” yoki bo‘yinsiz cho‘yan ko‘zalarda, o‘choq ostidagi issiq cho‘qlarga solingan “*dumshe*”larda qaynatilgan [2,208]. Ellikqal‘a tumanida olib borilgan etnografik ekspeditsiyada ana shunday *dumshelarni* ko‘rdik. Qishloq aholisi ulardan kundalik turmushida hanuzgacha foydalanib kelmoqda ekan. Shuningdek, qoraqalpoqlar ovqatlanganda rangli matolardan yasalgan “*dasturxan*”dan foydalangan. Qo‘shni turkmanlar dasturxonni “*sachak*” yoki “*dasterxan*” deb atagan va unga ovqatlanib bo‘lgandan so‘ng non o‘rab qo‘yadigan bo‘lgan [12, 33-102]. Qozoqlar yerda “*dastarqan*” yoyib, ustiga idish-tovoq qo‘ygan [13, 400-429]. O‘zbeklar esa yerga dasturxon yozib yoki oyoqlari kalta stol “*xontaxta*”da o‘tirib ovqatlanganlar[11,240].

Barcha tumanlarda oziq-ovqat asosan har xil turdagi qoplarda saqlangan. Don, pishloq va yormalar “*qap*” deb atalgan jun xaltalarda yoki “*shanash*” deb atalgan katta teridan yasalgan xaltalarda saqlangan. Sigir yog‘i “*qarin*” deb atalgan qoramol oshqozonidan yasalgan xaltalarda saqlangan. O‘simlik yog‘ini (agar uning zahirasi uyda oz bo‘lgan holatda) “*qabaq*”, “*deble*” degan kichik idishlarda saqlagan. Qovoqlarda esa tuz va sut – “*awiz qabaq*” va suv zahirasi – “*suv qabaq*”da saqlanadigan edi[2,209]. Bunday katta suv qovoqlarni qoraqalpoqlar o‘zlari ekib olgan va mahalliy bozorlarda sotilgan. Imkoniyati bor xo‘jaliklar suvni xumga quyib qo‘ygan. Xum – mahalliy qumbizchi – kulollar tomonidan ishlangan. Bundan tashqari yog‘ qovoq – suv

tashiydigan suv qovoqning kichik turi bo'lgan. Unga faqat yog' quyib qo'yilgan[1,37-38]. O'z vaqtida o'zbeklar ham suv qovoq, sut qovoq, don qovoq, tushlik olib yurish uchun osh-qovoqdan foydalangan[10,123]. Hozirgi kunda qovoqdan yasalgan idishlar ishlatilmaydi. Odamlar turli materiallardan yasalgan xaltalar va chelaklardan foydalanadilar. Masalan, chelakdan suv tashish uchun, suv quyib qo'yish uchun va qoplarda har xil don mahsulotlarini solib qo'yish uchun foydalanadi.

XX asrda Qoraqalpog'iston Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgandan so'ng turmush tarzida katta o'zgarishlar bo'ldi. Zavod ishlab chiqarishi kengayishi bilan an'anaviy uy-ro'zg'or buyumlari o'rnini yangi zavod-fabrikalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar egallay boshladi. Asosan alyuminiydan tayyorlangan idishlar, shisha idishlar va chinni idishlar. Masalan, alyuminiy choynak, alyuminiy tovoq, alyuminiy stakan, emal tovoq, emal qozon, emal piyola, shisha banka, shisha choynak, chinni piyola, chinni tovoq, chinni choynaklar, plastmassa buyumlar, elektr plita, myasorubka, termos, samovar, muzlatkich, gaz plita, manti qozon va h.k. Masalan, yog'och qoshiqlar XX asr boshlarida keng tarqalgan edi, 1950-yillarning o'rtalarida esa o'zbeklar alyuminiy qoshiqdan va nikel bilan qoplangan qoshiqlardan foydalana boshlashgan[11,238]. Bundan ko'rinib turganidek faqat qoraqalpolarga emas, balki O'rta Osiyoda yashovchi barcha xalqlarga ham shunday oshxona buyumlari kirib keldi. Bu davrda kirib kelgan bu buyumlar yaxshi materiallardan tayyorlangan, tez-tez tozalash uchun qulay, sanitariya talablariga va umumiy standart talablariga javob berardi.

XX asr oxirlarida metall, chinni idishlar, buyumlarning turmushda keng tarqalishi bilan bog'liq holda kulolchilik buyumlariga talab pasayib ketdi. Kulollar tandir, badiya tovoq va boshqa buyumlar yasash bilan cheklandi[4,99]. Shunga qaramasdan qoraqalpoq xalqi kulolchilik kasbi bilan shug'ullanishni davom ettirdi.

Hozirgi XXI asrda globallashuv, texnologiyaning rivojlanishi, ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiy omillar va urbanizatsiya tufayli qoraqalpoq xonadonlarida va umuman zamonaviy oshxonalarda foydalaniladigan idish-tovoqlar va oshxona buyumlari xilma-xilligi bilan oldingi davrlardan ajralib turadi. Ular zamonaviy

texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan, gigiyena, qulaylik va funktsionallik tamoyillarini hisobga oladi. Masalan, teflon qozon, multivarka idishlar, keramika idishlar, bambuk idishlar, nerjaveyka idishlar, silikon idishlar, blenderlar, mikroto'lqinli pechlar, vakuum idishlar, tefallar, shopperlar, bir martalik idishlar, oziq-ovqat konteynerlari va h.k. Hozirgi davrdagi bu idishlar nafaqat ovqat pishirish yoki boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash uchun, balki energiya tejamkorlik, zamonaviy texnologiyalarga xos, ekologik tozalik va estetik talablarga ham javob beradi. Hozirgi kunda zamonaviylashuvga qaramasdan qoraqalpoq xalqining milliy merosi, ayniqsa an'anaviy uy-ro'zg'or buyumlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish saqlanib kelmoqda. Bunga misol sifatida muzeylarda an'anaviy uy-ro'zg'or buyumlarining saqlanishi, bayramlar va milliy taomlar tayyorlashda milliy idish-tovoqlarning qo'llanilishi, shuningdek, kulolchilik va hunarmandchilik rivojlanib, yog'och va mis buyumlar yasash an'anasining tiklanishini alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Bu chora-tadbirlar milliylikimiz va madaniy merosimizni asrab-avaylashda muhim ahamiyatga ega.

NATIJALAR. Shunday qilib, qoraqalpolarning ovqatlanish amaliyotiga bog'liq uy-ro'zg'or buyumlarini tahlil qilib, yuqorida keltirilgan uch guruhga kiruvchi oshxona buyumlarining ijobiy va salbiy tomonlariga to'xtalib o'tamiz:

Birinchi guruh qoraqalpolarning an'anaviy ovqatlanish amaliyotiga tegishli uy-ro'zg'or buyumlari bo'lib, ular qoraqalpolarning turmush tarzi, atrof-muhit va o'troq turmush kechirib sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanganligi bilan uzviy bog'liq. Ular juda qulay, yog'och va turli materiallardan ishlangan, o'ziga xos dizaynga ega. Masalan, yog'ochdan yasalgan qoshiqlar oddiy bo'lib, ba'zan milliy qoraqalpoq naqshlari bilan bezatilgan. Biroq, ayrim xo'jaliklarga idish-tovoqlar yetishmaganligi sababli quyuc ovqatlarni qo'lda yegan va bir piyolada navbatma-navbat choy ichgan. Albatta, bu o'sha davrdagi salbiy jarayon hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, an'anaviy oshxona buyumlari qoraqalpoq xalqining milliylikini va urf-odat an'anasini namoyon etib beruvchi bizlarning moddiy boyligimiz hisoblanadi.

Ikkinchi guruh sovet davrida kirib kelgan oshxona buyumlari bo'lib, u davrda qoraqalpoq oshxonasida sezilarli modernizatsiya bo'ldi. Idishlarning materialida o'zgarishlar bo'ldi: yog'och, temir va mis idishlar o'rnini alyuminiy, emal va shisha idishlar egalladi. Funksiya va dizaynda ham o'zgarishlar kuzatildi: an'anaviy qo'l mehnati bilan ishlangan buyumlar o'rniga zavod-fabrikalarda ishlab chiqarilgan standart shakldagi idishlar keng tarqaldi. Yana oshxona mebellarining tarqalishi ham ijobiy xarakterga ega bo'ldi. Lekin, bu idishlarning kirib kelishi an'anaviy oshxona buyumlarining iste'moldan chiqib qolishiga va mahalliy hunarmandlarning ish hajmi kamayib ketishiga olib keldi.

Uchinchi guruh zamonaviy oshxona buyumlari keng qamrovli bo'lib, asosan yangi ovqatlanish amaliyoti bilan bog'liq uy-ro'zg'or buyumlarining kirib kelishi bilan xarakterlanadi. Globallashuv, import mahsulotlari va xo'jalikda texnikaning qo'llanilishi natijasida qoraqalpoq oshxonasi buyumlari yana bir pog'onaga ko'tarildi. Plastmassa, nerjaveyka, keramika, silikon kabi materiallar kirib keldi. Funktsional integratsiyaga ega bo'lgan elektr choynak, blender, mikroto'lqinli pech kabi texnika buyumlari kundalik hayotda qo'llanilmoqda. Bular oshxonadagi mehnatni yengillashtirdi va qoraqalpoq oshxonasi zamonaviy buyumlar bilan boyidi. Qoraqalpoq an'anaviy oshxona buyumlari esa suvenir va etnografik yodgorlik bo'lib, muzeylar va milliy bayramlarda ko'rgazma sifatida qo'yiladigan bo'ldi. Lekin, quvonchli tomoni shundaki, ba'zi an'anaviy uy-ro'zg'or buyumlari hozirgi kunda ham ayrim qishloq joylarida kundalik turmushda foydalanib kelinmoqda.

XULOSA qilib aytganda, qoraqalpoq xalqining an'anaviy ovqatlanish amaliyotiga oid uy-ro'zg'or buyumlari tarixiy davrlarda tabiiy materiallardan yasalgan, milliy an'analarga xos va amaliy jihatdan qulay buyumlardan bo'lib, hozirgi davrga kelib esa funktsional, o'ziga xos dizayndagi va zamonaviy texnologiyalar asosida ishlangan idishlar ko'rinishida rivojlandi. XX asrda sanoat mahsulotlarining kirib kelishi va XXI asrda esa globallashuv natijasida ularning shakli, materiali va funksiyasida katta o'zgarishlar bo'ldi. Lekin, bu o'zgarishlar jarayonida milliy madaniyatning yo'qolib ketmasligi va uni saqlab qolish muhim

ahamiyatga ega. Shuning uchun an'anaviy va zamonaviy elementlarni uyg'unlashtirish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Shuningdek, boshqa xalqlar bilan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, qoraqalpoq, o'zbek, qozoq va turkmanlarning oshxona buyumlari tarixiy jihatdan o'xshashliklarga ega bo'lsa-da, har bir xalqning o'ziga xosligi va milliy xususiyatlari mavjud. Tadqiqot jarayonida ma'lum bo'lganidek, qoraqalpoqlarning oshxona buyumlarini tayyorlashda tabiiy materiallardan, an'anaviy usullardan foydalanib, sifatli qilib idishlar yasashgan. Dunyo mamlakatlarining rivojlanishi tufayli odamlar hayotining o'zgarishi, dizayn va texnologiyaning rivojlanishi natijasida oshxona buyumlariga bo'lgan talab ham birmuncha o'zgargani uchun zamonaviy oshxona buyumlari kirib keldi. Qoraqalpoqlarning tarixiy davrlarda ovqatlanish amaliyotiga tegishli buyumlari shakli, materiali va bajaradigan funksiyasi sezilarli darajada transformatsiya bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Қосбергенов Р. Қарақалпақ халқының колониал дәуирдеги мәденияты хәм турмысы (1873-1917). Нөкис, 1970.
2. Морозова А.С. Культура домашнего быта каракалпаков начала XX века (к вопросу этногенеза). //Тарийх илимлери кандидатлык диссертациясының қолжазбасы. Ташкент, 1954. //ӨзР ИА ҚҚБ фундаменталлык китапханасының қол жазбалар фонды. Инв. №170680.
3. Каульбарс. В.А Низовья Аму-Дарьи, описанные по собственным исследованиям в 1873 г. //ЗРГО. Т. 9. СПб., 1881. 631 с.
4. Өтемисов А. Қарақалпақлардың өнер-кәсіплери. Нөкис, 1991.
5. Бекмуратова А.В. Семейно бытовой уклад каракалпаков в прошлом и задача преодоления его вредных пережитков. //Тарийх илимлери кандидатлык диссертациясының қолжазбасы. Москва, 1967. ӨзР ИА ҚҚБ фундаменталлык китапханасының қол жазбалар фонды. Инв. №63996.
6. Шалекенов У.Х. Быт каракалпаковского крестьянства Чимбайского района в прошлом и настоящем. //ТХАЭЭ, том III. Москва, 1958. с. 269-372.

7. Muallifning dala yozuvlari, 2025, № 7. To'rtko'l tumani Sho'raxon OFY. Axborotchi: Kazakov Mo'min.
8. Muallifning dala yozuvlari, 2025, № 10. To'rtko'l tumani Ziyokor MFY. Axborotchi: Xalmuratova Xadicha.
9. Muallifning dala yozuvlari, 2025, № 17. Qonliko'l tumani Arzimbetqum OFY. Axborotchi: Xudaybergenova Perdegul.
10. Шаниязов К.Ш, Исмаилов Х.И. Этнографические очерки материальной культуры узбеков конца XIX-начала XX в. Ташкент, 1981.
11. Зунунова Г.Ш. Материальная культура узбеков Ташкента: трансформация традиций (XX- начало XXI в). Ташкент, 2013.
12. Васильева Г.П. Туркмены: Основные занятия и материальная культура. //В кн.: Народы Средней Азии и Казахстана, том II. Москва, 1963. с. 33-102.
13. Захарова И.В.Казахи: Материальная культура. //В кн.: Народы Средней Азии и Казахстана, том II. Москва, 1963. с. 400-429.
14. Muallifning dala yozuvlari, 2025, №12. Ellikqal'a tumani Amirobod OFY. Axborotchi: Janalieva Nargul.
15. Muallifning dala yozuvlari, 2025, № 6. To'rtko'l tumani Sho'raxon OFY. Axborotchi: Roziboyev Toir.
16. Muallifning dala yozuvlari, 2025, № 19. Qonliko'l tumani Arzimbetqum OFY. Axborotchi: Mamutova Shimgul.
17. Muallifning dala yozuvlari, 2025, №16. Ellikqal'a tumani Dumanqal'a MFY. Axborotchi: Tilewimbetova Mariya.
18. Muallifning dala yozuvlari, 2025, №18. Qonliko'l tumani Arzimbetqum OFY. Axborotchi: Akimova Altungul.
19. Галкин М.Н. Этнографические и исторические материалы по Средней Азии и Оренбургскому краю. СПб., 1868.
20. Сейдаметова Г.У, З.И.Курбанова, Г.А.Акимниязова Традиционное питание в повседневных практиках жителей Каракалпакстана в 1960-1970 гг. //Вопросы истории, 2022, № 5 (2). с. 98-111.
21. Muallifning dala yozuvlari, 2025, №11. To'rtko'l tumani Paxtachi OFY. Axborotchi: Ibadullayeva Xadicha.



Qabul qilindi: 01.07.2025

Chop etildi: 30.08.2025

UDK: 631.4(47+57) "194/196"

**O‘ZBEKISTON SSRDA YANGI YERLARNI
O‘ZLASHTIRISH SIYOSATINING IJTIMOY -
IQTISODIY OQIBATLARI (1946–1956 yy.)**

*Rizayev Baxtiyor Nazarboevich, Buxoro davlat universiteti Arxeologiya
va Buxoro tarixi kafedrasida dosenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa
doktori(PhD)*

**SOCIO-ECONOMIC CONSEQUENCES OF THE VIRGIN LANDS
DEVELOPMENT POLICY IN THE UZBEK SSR (1946–1956)**

*Bakhtiyor Nazarboevich Rizayev, Associate Professor, Department of
Archaeology and History of Bukhara, Bukhara State University, Doctor
of Philosophy (PhD) in History*

**СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ
ПОЛИТИКИ ОСВОЕНИЯ ЦЕЛИННЫХ ЗЕМЕЛЬ В
УЗБЕКСКОЙ ССР (1946–1956 гг.)**

*Ризаев Бахтиёр Назарбоевич, доцент кафедры археологии и
истории Бухары Бухарского государственного университета,
доктор философии(PhD) по историческим наукам*



[https://orcid.org/
0000-0002-1074-
8148](https://orcid.org/0000-0002-1074-8148)
e-mail:
84rizayev@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1946–1956-yillarda O‘zbekiston SSRda yangi yerlarni o‘zlashtirish siyosatining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari tahlil qilinadi. Urushdan keyingi davrda paxta yetishtirishni kengaytirish maqsadida qabul qilingan qarorlar, yangi yerlarning o‘zlashtirilishi jarayonida uchragan qiyinchiliklar va erishilgan natijalar arxiv hujjatlari, partiya qarorlari hamda statistik ma’lumotlar asosida yoritilgan. Tadqiqotda bu siyosatning qisqa muddatli samaralari bilan bir qatorda, texnika, kadrlar va infratuzilma taqchilligi oqibatida yuzaga kelgan muammolar ham ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, yangi yerlarni o‘zlashtirish jarayonining mahalliy aholi turmush darajasi, mehnat resurslari safarbarligi va iqtisodiy barqarorlikka ta’siri baholangan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston SSR, yangi yerlarni o‘zlashtirish, qishloq xo‘jaligi, paxtachilik, urushdan keyingi davr, iqtisodiy siyosat.

Аннотация: В данной статье анализируются экономические и социальные последствия политики освоения новых земель в Узбекской ССР в 1946–1956 гг. На основе архивных документов, партийных решений и статистических данных освещены меры по расширению посевных площадей хлопчатника, трудности, возникавшие в ходе реализации программы, а также достигнутые результаты. В исследовании показаны как краткосрочные успехи этой политики, так и проблемы, вызванные нехваткой техники, кадров и инфраструктуры. Кроме того, рассмотрено влияние освоения целинных и залежных земель на уровень жизни местного населения, мобилизацию трудовых ресурсов и экономическую устойчивость республики.

Ключевые слова: Узбекская ССР, освоение новых земель, сельское хозяйство, хлопководство, послевоенный период, экономическая политика.

Abstract: This article examines the economic and social consequences of the virgin land development policy in the Uzbek SSR during 1946–1956. Based on archival sources, party resolutions, and statistical data, the study highlights the expansion of cotton cultivation, the difficulties encountered in the implementation process, and the results achieved. The analysis reveals both the short-term benefits of this policy and the challenges caused by the lack of machinery, qualified personnel, and infrastructure. Furthermore, the research assesses the impact of land reclamation on the living standards of the local population, the mobilization of labor resources, and the overall economic sustainability of the republic.

Keywords: Uzbek SSR, virgin land development, agriculture, cotton cultivation, postwar period, economic policy.

Kirish. 1941–1945-yillardagi fashizmga qarshi urush davrida sovet xalq xo‘jaligiga katta iqtisodiy va moddiy zarar yetdi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, umumiy zarar SSSR yalpi milliy boyligining 30 foiziga teng bo‘lib, 2 trln. 569 mlrd. rublni tashkil etdi. Shu jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘q qilingan ijtimoiy va shaxsiy mulk 679 mlrd. rubl, urush xarajatlariga yo‘naltirilgan byudjet mablag‘lari 582,4 mlrd. rubl, bilvosita yo‘qotishlar esa 1 trln. 307,6 mlrd. rubl miqdorida baholangan[1, 252]. Urush tugagach, sovet hukumati uy-joy, ishsizlik, oziq-ovqat ta‘minoti va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga duch keldi. Bu muammolarni hal qilish, iqtisodiyotni tiklash va rivojlantirish maqsadida bir qator dasturlar ilgari surildi. Biroq V.I. Stalinning buyruqbozlik va safarbarlikka asoslangan usuli barcha takliflardan ustun keldi.

O‘zbekistonda urushdan keyingi yillarda paxta etishtirishni kengaytirish ustuvor vazifaga aylandi. VKP(b) (1952 yildan KPSS) va SSSR Ministrlar Soveti respublikada paxtachilikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator qarorlar qabul qildi. Bu qarorlarda yangi yerlarni o‘zlashtirish asosiy yo‘nalish sifatida belgilandi va respublikada yangi yer o‘zlashtirish jarayoni izchil davom ettirildi. Urushdan keyingi davrda bu jarayonni shartli ravishda ikki bosqichga ajratish mumkin: 1950–1953-yillar; 1954–1980-yillar.

Metodlar. Tadqiqot jarayonida:

- arxiv manbalari va partiya qarorlari tahlil qilindi;
- qishloq xo‘jaligi statistik ma‘lumotlari solishtirildi;
- siyosiy arboblarning nutqlari va xotiralaridan foydalanildi;
- iqtisodiy siyosatning ijtimoiy oqibatlarini qiyosiy tarzda o‘rganildi.

Birinchi bosqich 1920–1930-yillardagi o‘zlashtirish harakatlarining mantiqiy davomi sifatida o‘rganildi. 1946-yildan yangi yerlarda paxta yetishtirishga e‘tibor kuchaydi. Masalan, 1920–1930-yillarda 86 ming ga er, 1934–1940-yillarda esa 39 ming ga er o‘zlashtirilgan[2, 25] bo‘lsa, urushdan keyin bu tajriba asosida ishlar qayta yo‘lga qo‘yildi.

Natijalar. Urushdan keyin qishloq xo‘jaligining og‘ir ahvoliga qaramasdan, aholi fidokorligi tufayli 1946–1950-yillarda paxta maydonlari 255,9 ming gektarga oshirildi[3, 156]. 1948-yilga kelib SSSRda sanoat ishlab chiqarishi urushdan oldingi darajadan oshib, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashga sharoit yaratdi.

1950-yilda qabul qilingan “O‘zbekistonda paxtachilikni rivojlantirish istiqbollari to‘g‘risida”gi qaror asosida 165,7 ming gektar yangi yer o‘zlashtirish belgilandi[4]. Bu vazifa asosan qishloq va suv xo‘jaligi tizimi zimmasiga yuklatilgan bo‘lsa-da, amalga oshirishda qator qiyinchiliklar yuzaga keldi.

Yangi o‘zlashtirish ishlari qizg‘in pallaga kirgan bir vaqtda, 1953-yil 5 martda I.V. Stalin vafot etdi. Shu bilan mamlakatda islohotlarga umid paydo bo‘ldi. Oradan ko‘p o‘tmay, qishloq xo‘jaligidagi inqiroz hukumat tomonidan ochiq tan olindi. Agar Stalin hayotlik paytida “g‘alla muammosi hal qilindi” degan ma‘noda ma‘lumotlar tarqatilgan bo‘lsa, 1953-yil oxirida esa mahsulot yetishmasligi jiddiy muammo[5, 4] sifatida tilga olindi.

Hokimiyat uchun kurash davomida L.P. Beriya, G.M. Malenkov va N.S. Xrushchov qishloq xo‘jaligidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan dasturlarini ilgari surishdi. 1953-yil avgust oyida Malenkov Oliy Sovet sessiyasida qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish orqali g‘alla yetishtirishni keskin oshirish zarurligini ta‘kidladi[6, 52]. Sentyabr oyida esa Xrushchov partiya Plenumida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida yangi yerlarni o‘zlashtirishni taklif etdi. 1954-yil mart oyidagi Plenumda mamlakat sharqida (Sibir, Qozog‘iston) ommaviy yangi yerlarni o‘zlashtirish kompaniyasi boshlandi[7, 210].

1954–1955-yillarda 13 mln. gektar er o‘zlashtirish rejalashtirildi[8, 367].

L.I. Brejnevning xotiralarida ta‘kidlanishicha, partiya bu jarayonni qisqa vaqt ichida mamlakat cho‘l va sahrolarini obod qiladigan, aholi turmushini yaxshilaydigan “ulkan siyosiy g‘oya” sifatida baholagan[9, 26]. Biroq V.M. Molotov kabi ayrim siyosiy arboblarning bu qarorni shoshma-shosharlik deb baholab, o‘zlashtirishni bosqichma-bosqich olib borish maqsadga muvofiqligini ta‘kidlashgan. Shunga qaramay, qaror qabul qilinib, amalga oshirila boshladi.

O‘zbekistonda qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish 1954–1958-yillarga mo‘ljallangan maxsus qarorlar bilan tartibga solindi. Unga ko‘ra, paxta hosili 1954-yilda 3 mln, 1955-yilda 3,3 mln., 1958-yilda esa 4,2 mln. tonnaga yetkazilishi kerak edi. Shuningdek, Mirzacho‘l, Chirchiq-Ohangaron, Amu havzasi, Farg‘ona, Zarafshon vodiysi, Surxondaryo,

Qashqadaryo, Xorazm va Qoraqalpog'istonda 600 ming gektar [10] yangi yer o'zlashtirish belgilandi.

Bu jarayon doimiy ravishda partiya va ijro organlari tomonidan nazorat qilindi, ommaviy axborot vositalarida keng yoritildi, yoshlar va aholi safarbar etildi. Biroq texnik ta'minot yetarli emas edi. Masalan, 1954-yilda respublikaga 2390 ta traktor, 193 ta ekskavator, 295 ta skreper va boshqa texnika berilgan bo'lsa-da, ko'pgina mashinalar tezda ishdan chiqdi [11]. 1954-yil noyabrda Toshkentda o'tkazilgan yig'ilishda O'zbekiston Kompartiyasi MK birinchi kotibi A.I. Niyozov qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash darajasi pastligi sababli bir gektar erga 200 nafarga yaqin paxtakor jalb etilganini tanqid qildi. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, yangi texnikani saqlash sharoiti qoniqarsizligi va malakali kadrlar yetishmasligi tufayli ko'plab mashinalar ishdan chiqqan.

Natijada, rejalashtirilgan hajmda yerlarni o'zlashtirish imkoniyatlari cheklangan edi [12, 18]. 1956-yil 6-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston SSR va Qozog'iston SSRda paxta yetishtirishni ko'paytirish uchun Mirzacho'ldagi qo'riq yerlarni sug'orish va o'zlashtirish to'g'risida"gi qaror ham bu sohadagi muammolarni hisobga olgan holda qabul qilindi [13, 512]. 1956-1980-yillardagi qo'riq kompaniyasi umumittifoq miqyosidagi ommaviy o'zlashtirish ishlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, aholi turmush darajasini yaxshilash, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish va strategik maqsadlarga erishish yo'lida amalga oshirildi. 1956-yilda O'zbekistonda 200 ming gektar yer o'zlashtirish rejalashtirilib, 1962-yilga qadar yirik paxtachilik hududini shakllantirish ko'zda tutilgan. Biroq 1957-yildagi hisobotlarda rejaning faqat 61 foizi bajarilgani qayd etildi. Ayrim viloyatlar rahbarlari masalaga sovuqqonlik bilan yondashgani uchun tanqid qilindi.

Munozara. Yangi yerlarni o'zlashtirish dasturi mamlakat sanoat va qishloq xo'jaligini safarbar etish, aholi mehnat resurslarini jalb qilish imkonini berdi. Biroq texnika, malakali kadrlar va infrazilma yetishmasligi ko'plab qiyinchiliklarga sabab bo'ldi. Belgilangan rejalarning to'liq bajarilmasligi, mahalliy rahbarlarning mas'uliyatsizligi va iqtisodiy salohiyat cheklangani jarayon samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Siyosiy qarorlarda iqtisodiy hisob-kitobdan ko'ra mafkuraviy ustuvorlik kuchliroq bo'ldi.

Xulosa. Urushdan keyingi yillarda SSSRda, jumladan O'zbekistonda ham iqtisodiyotni tiklash va qishloq xo'jaligini rivojlantirishda yangi yerlarni o'zlashtirish muhim siyosiy-iqtisodiy dastur sifatida belgilandi. Birinchi bosqichda urushdan oldin to'plangan tajriba asosida paxta maydonlari kengaygan bo'lsa, ikkinchi bosqichda (1954–1980 yy.) ommaviy qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish kompaniyasi amalga oshirildi. Bu jarayon qisqa muddatda muayyan natijalar bergan bo'lsa-da, uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun yetarli iqtisodiy va texnik asosga ega emas edi.

Foydaniilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Вторая мировая война. Итоги и уроки. – Москва: Воениздат, 1985. –С. 212.
2. Джалилов Х.М. Хлопковые совхозы Голодной степи и их развитие. –Ташкент: Государственное издательство Узбекской ССР, 1959. –С. 25
3. Абдуллаев А.Н. Ўзбекистонда пахта якка хоқимлиги ва унинг оқибатлари: Тарих фан.докт. ...дисс. –Тошкент, 2010.–Б. 156.
4. Вухоро туман davlat arxivi 5-fond,1-ro'uyhat, 27-yig'ma jild, 110-varaq.
5. Дорошев И. Основной экономический закон социализма// Коммунист. –Москва, 1953.- №1, -С. 27., О мерах дальнейшего развития сельского хозяйства СССР. Постановления Пленума ЦК КПСС принятое 7 сентября 1953 г. тов. ХРУЩЁВ Н.С.// Коммунист. Москва, 1953. -№13, -С. 4.
6. Эргашев Ш. Эрк истар кўнгил. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017. –Б. 52.
7. Директиви КПСС и Советского правительства по хозяйственным вопросам. Т. 4. – Москва,1958. –С. 210.
8. КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференции и пленумов ЦК.Т.8. – Москва, 1985. –С.367.
9. Брежнев Л.И.Целина. –Москва: Политиздат, 1980. –С. 26.
10. Қизил Ўзбекистон, 1954 йил 12 февраль.
11. Қизил Ўзбекистон, 1954 йил 11 март.
12. Совецание по вопросам дальнейшего развития хлопководства//Социалистической сельское хозяйство Узбекистана. –Ташкент, 1954. -№7. –С. 18.
13. КПСС и советское правительство об Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1972. –С. 512.

EKVONIMIYA – TENGLIKNI IFODALOVCHI LINGVISTIK KATEGORIYA SIFATIDA

Karshibayeva Yulduz Umar qizi, Guliston davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasida doktoranti

EQONMY AS A LINGUISTIC CATEGORY EXPRESSING EQUALITY

Karshibayeva Yulduz Umar qizi, Doctoral student of the Department of Uzbek Linguistics, Gulistan state University

ЭКВОНИМИЯ КАК ЯЗЫКОВАЯ КАТЕГОРИЯ, ВЫРАЖАЮЩАЯ РАВЕНСТВО

Каршибаева Юлдуз Умар кызы, докторант кафедры узбекского языкознания Гулистанского государственного университета



<https://orcid.org/0000-0003-0759-0747>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligi muammolariga, xususan, zid ma’noli so‘zlar va ularning birliklari tizimiga xos antonim va antonimik, ekvonim va ekvonimik, giperonim va giperonimik, giponim va giponimik munosabatlar, ularning o‘zbek tili leksemalari tizimiga xos amaliga e’tibor qaratilgan. Antonimiya va ekvonimiya hodisalari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: leksika, leksema, giperonim, giponim, antonym, antonimiya, ekvonim, ekvonimiya, jins, tur.

Abstract: The article examines the problems of Uzbek linguistics, in particular, antonymic and antonymic, eqonmy and eqonmic, hypernymic and hypernymic, hyponymic and hyponymic relations inherent in the system of words and their units opposite in meaning, as well as the features of their application in the system of lexemes of the Uzbek language. The phenomena of antonymy and eonymy are analyzed.

Key words: lexicon, lexeme, hypernym, hyponym, antonym, antonymy, equonym, equonymy, gender, type.

Аннотация: В статье рассматриваются проблемы узбекского языкознания, в частности, антоним и антонимические, эконим и эконимические, гипероним и гиперонимические, гипоним и гипонимические отношения, присущие системе противоположных по значению слов и их единиц, а также особенности их применения в системе лексем узбекского языка. Анализируются явления антонимии и эконимии.

Ключевые слова: лексикон, лексема, гипероним, гипоним, антоним, антонимия, эквоним, эквонимия, род, тип.

Kirish. Jins ma’nosidagi lug’aviy birliklarning giperonimlar, shu lug’aviy birliklarga tur ma’nosi bilan semantik jihatdan tobelanuvchi lug’aviy birliklarning giponimlar maqomida qaralishi lingvistika fanida, shu jumladan, o‘zbek tilshunosligida ham, allaqachon mushtarak tan olingan.

Ekvonim va ekvonimiya atamallari bildirgan lisoniy tushuncha, garchand polisemiya, omonimiya, sinonimiya, antonimiya, giponimiya atamallari nomlagan lisoniy tushunchalar bilan “yondosh” bo‘lsa-da, u hozircha tilshunoslikda, ayniqsa, o‘zbek tilshunosligida, rasman keng ommalashmagan¹.

¹Эрматов И. Терминология тизимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар (тилшunoslik терминлари

мисолида): Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 67 б.

Ishning dolzarbligi. Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tili tilshunosligi lug‘atlarida ekvonimik munosabatlarni tahlil qilish asosida leksemalar tizimida ekvonimik munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotlar materiallari va usullari. Tadqiqotning maqsadini amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilangan: so‘z va leksema o‘rtasidagi munosabatlarni yoritishda adabiyotlarni tahlil qilish, mavjud nazariyalarga tanqidiy munosabat bildirish; so‘z va leksema o‘rtasidagi munosabatlarni yoritish; o‘zbek tili leksikologiyasida ekvonimik munosabatlarni yoritish.

Natijalar va muhokamalar. Rus tilshunosligida 1968-yilda bir xil o‘zakli fe‘l antonimlardan nomzodlik dissertatsiyasi yoqlangan². O‘zbek tilida antonimiya hodisasi haqida yaxlit ilmiy tadqiqot ishi 1977-yilda “Fan” nashriyatida R.Shukurov muallifligida chop etilgan “O‘zbek tilida antonimlar” asaridir³. 1980-yilda mualliflar Sh.Rahmatullayev, N.Mamatov, R.Shukurovlar tomonidan “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati” nashr etiladi⁴.

Ot antonimlar mavzusi ancha murakkab bo‘lib, bir qaancha masalalarni o‘z ichiga oladi. Tilshunoslikda *vaqt, zamon, tomon, jins* va *qarindoshlikka* oid so‘zlarning antonimligi aniq va ishonarli qilib isbotlangan deb bo‘lmaydi⁵.

Tilshunoslikda *jins* va *qarindoshlikka* oid: *ota-ona, o‘g‘il-qiz, er-xotin, ho‘kiz-sigir, xo‘roz-tovuq* kabi so‘zlar qariyb yuz yil avval antonimlar qatoriga kiritilgan edi⁶. Ayrim tilshunoslar bunday so‘zlarni antonimlar qatoriga kiritgan⁷. Bunday fikr o‘zbek tilshunosligida ham mavjud edi⁸. Ammo

keyingi paytda yaratilgan, shu mavzu logik va leksik jihatdan chuqur tekshirishga qaratilgan ilmiy ishlarda jinsga oid tushunchalar antonimlar qatoriga kiritilmaydi⁹.

Kuzatish shuni ko‘rsatadiki, bunday so‘zlar bir-biri bilan qarama-qarshi ma‘no munosabatini bildirmaydi, ular o‘zaro logik markazga ham ega emas, geometrik tushuncha jihatdan ham qarama-qarshi qutblar hosil etmaydi. *O‘g‘il-qiz, tog‘a-amaki* kabi so‘zlar boshqa har qanday so‘zlar qatori kontekstlardagina bir-biriga qarama-qarshi ma‘noda qo‘llanishi mumkin. Shuning uchun ham bunday so‘zlarni antonimlar qatoriga kiritmadik. Chunki, *opa-singil, amma-amaki, amma-xola (qarindosh), erkak-ayol (vrach, o‘qituvchi)* kabi so‘zlar bir-biriga parallel davom etadigan tushunchalarni bildirib, ular bir-birini inkor etmaydi¹⁰. Mantiqiy markaz qoidasi tilshunoslikda yangi bir hodisa bo‘lib, hali uni atroflicha o‘rganishga to‘g‘ri keladi¹¹.

O‘zbek tilshunosligida “mantiqiy markaz”, “oraliq tushuncha”lari haqida yagona to‘xtamga kelingan emas. H.Jamolxonov “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida “mantiqiy asos” o‘rnida “mantiqiy markaz”, “oraliq tushuncha” birikmalarini ham qo‘llagan¹². Akademik A.Hojiyev “oraliq tushuncha”, “mantiqiy markaz” birikmalari antonimiya hodisasini belgilovchi biror mohiyatni qayd eta olmaydi, deydi. Shu bois bu terminlar antonimiya hodisasini belgilashda noto‘g‘ri xulosalarga kelishi uchun xizmat qiladi¹³, deb ta‘kidlaydi.

O‘zbek tilshunosligida birinchi bo‘lib antonimlarning leksik-semantik munosabatiga

²Вараксин Л.А. Однокоренные префиксальные глаголы-антонимы в современном русском языке, АКД, Куйбышев, 1968.

³Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. – Тошкент: Фан, 1977. – 150 б.

⁴Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 9.

⁵Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 23.

⁶Шерцль В.И. О словах съ противоположными значеньями. Сборник филологическая записки. – Воронеж, 1883, вып. 1, стр. 31-33.

⁷Клюева В.Н. Проблема антонимов. Уч. Записки МГПИИЯ, Изд-во МГУ, 1956, СТР. 81; Колесников Н.П.

Словарь антонимов русского языка. Изд-во Тбилисского ун-та, Тбилиси, 1972, стр. 23.

⁸Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили, Тошкент, 1966. – Б. 31-32; Камол Ф. Ўзбек тили лексикаси. – Тошкент, 1953. – Б.36.

⁹Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 24.

¹⁰Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 24-25.

¹¹Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 31.

¹²Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. – Тошкент, 2004. – Б.38.

¹³Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясашининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. – Б.132.

diqqat qaratgan olim professor S.Usmonovdir. U antonimlarning biri ikkinchisini inkor qilish darajasi (kuchi)ga ko'ra ikki guruhga bo'ladi: *to'la antonimlar*, *yarim antonimlar* kabi.

To'la antonimlarda ham ikki tomon – inkor qilish ham, belgilar zidligi ham mavjud. Bundan tashqari, ularni birga – juft holda olinar ekan, bir umumiy tushuncha kelib chiqadi. Bunda umumiy tushuncha yo biron olmosh bilan yoki ma'no hajmi keng bo'lgan boshqa bir so'z bilan ifodalanishi mumkin. Solishtiring: *Yaxshi-yomon – hamma, do'st-dushman – hamma, erta-kech – har vaqt, oshna-begona – hamma, eski-yangi – har xil, ostin-ustin – to'polon, olish-berish – aloqa, bordi-keldi – aloqa* va b¹⁴.

Yarim antonimlarda belgilarning zidligi asosiy o'rinda turadi. Inkor qilish kuchsiz, sezilar-sezilmas bo'lib, ularni juft holda olib, biror umumiy tushunchaga to'la ravishda tenglashtirish har vaqt mumkin bo'la bermaydi. Masalan: *er-xotin – oila* (ammo oila ersiz yoki xotinsiz bo'lishi mumkin), *opa-singil – hamshiralalar* (ulardan birini "hamshira" deyish mumkin), *o'g'il-qiz – bolalar* (ulardan birining ko'pligini ham "bolalar" deyish mumkin), *yigit-qiz, chol-kampir, kuz-bahor, aka-uka* kabilar uchun ham xuddi shunday bir umumiy tushunchaga tenglik xarakterli emas¹⁵.

Professor S.Usmonov keltirgan *er va xotin; opa va singil; o'g'il va qiz; chol va kampir, aka va uka* leksemalari *oila* giperonimining, *yigit va qiz* leksemalari *shaxs* giperonimining, *kuz va bahor* leksemalari *fasl* giperonimining giponimlari hamda ekvonimlari hisoblanadi.

Umumlashtiruvchi semaga ega bo'lgan leksema *oila* giperonimi o'z atrofida tobelanuvchi guruhlar hosil qiladi: *chol-kampir, er-xotin, ota-ona, aka-uka, opa-singil, o'g'il-qiz, aka-singil, kelin-kuyov* va b. Ushbu leksemalar *oila* giperonimiga nisbatan giponimdashlik hosil qilgan va guruh hosil qilgan. *Oila* giperonimi atrofida 8 ta ekvonimik munosabatlar shakllangan va ekvonimlarni hosil qilgan.

Nutq jarayonida bir-biriga qarama-qarshi ma'noda ishlatilishi mumkin bo'lgan har qanday so'zlar ham antonim bo'lavermaydi. Masalan,

ayrim tilshunoslar antonim hisoblab kelgan *ota-ona, aka-uka* kabi qarindoshlik nomlari, *o'qidi-o'qimadi* kabi fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz formalari antonim bo'lolmaydi. Chunki *aka-uka* tipidagi otlar bir-birini inkor etmaydigan, bir vaqtda parallel mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan predmetlarni bildiradi. Shuningdek, *o'qidi-o'qimadi* tipidagi fe'llar bir-biriga qarama-qashi yo'nalmagan harakatni bildiradi¹⁶.

Ekvonimiya hodisasi, boshqa til hodisalari kabi, o'ziga yaqin hodisalar bilan, ayniqsa giperogiponimik hodisasi bilan qorishiq holda (sinkretlashgan) bo'ladi. Ekvonim hosil qiluvchi so'zlarning o'zini o'rganish bilan cheklanmasdan, bunday so'zlarning giponimlari, giperonimlari bilan qorishiq (sinkretlashgan) holda o'rganish tilda ekvonimlardan tashqari ekvonimik gruppalar ham mavjudligini ko'rsatadi.

Antonim so'zlarning ekvonim so'zlardan farqli tomonlarini quydagilarda kuzatish mumkin:

- antonim so'zlarning ma'nolari bir-biriga zid bo'ladi;

- ekvonim so'zlarning ma'nolari (esa bir semaga nisbatan farqlanadi) teng bo'ladi;

- antonim so'zlar ikki (sema) qutbli bo'ladi, ekvonim so'zlar uch (sema) qutbli bo'ladi;

- antonim so'zlarning sinonimlari mavjud, ekvonim so'zlarda odatda sinonimlar bo'lmaydi, bo'lsa ham o'ta nofaol bo'ladi;

- antonimlarda mantiqiy markaz bo'ladi (*yaxshi, o'rta, yomon* kabi), ekvonimlarda mantiqiy markaz vazifasini giperonim so'z (*ota, ona; oila*) bajaradi.

Xulosa. Ekvonimlar giponim, giperonim kabi lingvistik hodisalar bilan qorishiq holatda keladi. Ekvonimiya giponimlar bilan uzviy bog'liq. Lingvistik kategoriya sifatida ekvonimiya leksik-semantik va ekvonimik aloqalarning to'qnashuvi asosida reallashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бараксин Л.А. Однокоренные префиксальные глаголы-антонимы в

¹⁴ Усмонов С. Антонимлар. "Ўзбек тили ва адабиёти масалалари" журналі, 1958, 2-сон, 33-бет.

¹⁵ Усмонов С. Антонимлар. "Ўзбек тили ва адабиёти масалалари" журналі, 1958, 2-сон, 34-бет.

¹⁶ Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 81.

- современном русском языке, АКД, Куйбышев, 1968.
2. Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати.–Тошкент:Ўқитувчи,1980.– Б. 9.
 3. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили, Тошкент, 1966. – Б. 31-32.
 4. Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. – Тошкент, 2004. – Б.38.
 5. Усмонов С. Антонимлар. “Ўзбек тили ва адабиёти масалалари” журналы, 1958, 2-сон, 33-бет.
 6. Шукуров Р. Ўзбек тилида анто-нимлар. – Тошкент: Фан, 1977. – 150 б.
 7. Шерцль В.И. О словах съ противоположными значенъями. Сборник филологическая записки. – Воронежъ, 1883, вып. 1, стр. 31-33.
 8. Ключева В.Н. Проблема антонимов. Уч. Записки МГПИИЯ, Изд-во МГУ, 1956, СТР. 81.
 9. Колесников Н.П. Словарь анто-нимов русского языка. Изд-во Тбилис-ского ун-та, Тбилиси, 1972, стр. 23.
 10. Камол Ф. Ўзбек тили лексикаси. – Тошкент, 1953. – Б.36.
 11. Эрматов И. Терминология ти-зимида гиперо-гипонимик ва эквонимик муносабатлар (тилшунослик термин-лари мисолида): Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – 67 б.
 12. Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. – 256 б.



WINDOWS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING LINGVISTIK HAMDA MADANIY MOSLASHUV MUAMMOLARI

*Maxammadov Bobir Isan o'g'li, Andijon davlat chet tillari instituti
mustaqil izlanuvchisi, f.f.d (PhD)*

LINGUISTIC AND CULTURAL ADAPTATION ISSUES IN WINDOWS OPERATING SYSTEM TERMINOLOGY

*Bobir Makhammadov Isan o'g'li, independent researcher at Andijan
State Institute of Foreign Languages, PhD in Philology (Doctor of
Philosophy)*

ПРОБЛЕМЫ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ И КУЛЬТУРНОЙ АДАПТАЦИИ ТЕРМИНОЛОГИИ ОПЕРАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ WINDOWS

*Бобир Махаммадов Исан оглы, соискатель Андижанского
государственного института иностранных языков,
кандидат филологических наук (PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqola Windows operatsion tizimi terminlarining lingvistik hamda madaniy moslashuv muammolarini yoritadi. Maqsad — FI yorliqlari va tizim komponentlari atamalarida qo'llanadigan strategiyalarni (to'liq ekvivalent, kalkalash, transliteratsiya, tavsifiy tarjima) qiyosiy baholash hamda me'oriy takliflar ishlab chiqish. Material sifatida Windows 10/11 interfeysi bo'limlari, yordam sahifalari va rasmiy termin birliklari olinadi. Usul — lingvokulturologik va funksional-ekvivalentlik yondashuvi, ortografik-morfologik integratsiya mezonlari (katta-kichik harf, defis, qo'shimchalash) bilan uyg'un holda qo'llanadi.

Kalit so'zlar: Windows terminologiyasi; lingvokulturologiya; lokalizatsiya; kalkalash; transliteratsiya; standartlashtirish; o'zbek tili foydalanuvchi interfeysi.

Abstract: This article examines linguistic and cultural adaptation issues in Windows operating system terminology across Uzbek, Russian, and English. The study aims to compare rendering strategies used for UI labels and system components—full equivalents, calques, transliteration, and descriptive translation—and to formulate standardization guidelines. Data include Windows 10/11 interface sections, help pages, and official term lists. The methodology combines a linguo-cultural perspective with functional-equivalence criteria and orthographic-morphological integration checks (capitalization, hyphenation, affixation).

Keywords: Windows terminology; linguo-cultural approach; localization; calque; transliteration; standardization; Uzbek; Russian; English; user interface.

Аннотация: Статья посвящена лингвистическим и культурным аспектам адаптации терминологии операционной системы Windows. Цель — сопоставить стратегии передачи UI-ярлыков и системных компонентов (полный эквивалент, калькирование, транслитерация,



*e-mail:
maxammadovuz@gmail.
com*

*Toshkent amaliy fanlar
universiteti professori, f.f.d
Sh.Gulyamova taqrizi
asosida*



описательный перевод) и предложить нормативные рекомендации. В качестве материала рассматриваются разделы интерфейса Windows 10/11, справочные страницы и официальные терминологические единицы. Методологическая база сочетает лингвокультурологический и функционально-эквивалентный подходы с критериями орфографо-морфологической интеграции (регистры, дефис, аффиксация).

Ключевые слова: терминология Windows; лингвокультурология; локализация; калькирование; транслитерация; стандартизация; узбекский язык; русский язык; английский язык; пользовательский интерфейс.

Kirish. Raqamli kommunikatsiya va dasturiy mahsulotlar global bozorga tez sur'atlarda kirib borar ekan, ularning til va madaniyatga moslashuvi — lokalizatsiya — foydalanuvchi tajribasini belgilaydigan hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Windows operatsion tizimi dunyodagi eng keng tarqalgan platformalardan biri bo'lib, undagi terminlar (UI yorliqlari, menyular, tizim komponentlari, sozlamalar bo'limlari nomlari va h.k.) minglab foydalanuvchilar tomonidan kundalik muloqot vositasi sifatida iste'mol qilinadi. Shu bois Windows terminologiyasining lingvistik hamda madaniy moslashuv muammolarini o'rganish nafaqat tarjima amaliyoti, balki til me'yoriylashtirish, leksikografiya va foydalanuvchi markaziy dizayn kesishmasida ham dolzarb masaladir.

Terminologik moslashtirishda odatda to'rtta strategiya qo'llanadi: to'liq ekvivalent topish, kalkalash (ma'nodosh model orqali ko'chirish), transliteratsiya/transkripsiya va tavsifiy tarjima. Ularning har biri til tizimi va madaniy kontekstga qarab turlicha samaradorlik ko'rsatadi. Masalan, ingliz tilidagi metaforik nomlar — desktop, recycle bin, Taskbar — ma'no modeli bilan birga madaniy konseptni ham tashiydi; rus tilida bu birliklar ko'pincha tarixan shakllangan standart variantlar orqali qabul qilingan; o'zbek tilida esa agglutinatив tuzilma tufayli brend nomlariga grammatik qo'shimchalar qo'shish, yozuvdagi katta-kichik harf, defis va yozuvga ko'chirish masalalari qo'shimcha normativ savollarni tug'diradi. Shu bilan birga, sinonim va variantdorlik foydalanuvchi kognitiv yukini oshirishi, interfeysda izchillikni buzishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Windows operatsion tizimi terminlarining lingvistik va madaniy moslashuvi bo'yicha adabiyotlar bir necha yo'nalishda jamlanadi: (a) terminologiya nazariyasi va standartlari; (b)

tarjimashunoslik va lokalizatsiya metodlari; (c) UI/UX yozuv me'yorlari hamda platformaga xos resurslar; (d) lingvokulturologik omillar (metafora, madaniy shaffoflik) va (e) ko'p-tillilik infratuzilmasi (CLDR, ICU).

Termin (tushuncha-belgi-ta'rif uchligi) bilan ishlashning metodik asosi ISO liniyasida mustahkamlangan: ISO 704 terminologiya tayyorlashning tamoyillari va ta'riflar tuzish usullarini belgilaydi; uning amaliy ahamiyati—Windows kabi yirik tizimlarda termin yaratish va kanonlashtirishga konseptual asos berishidir. Ushbu standartning so'nggi nashri 2022-yilda yangilangan bo'lib, 2009-yil nashri bekor qilingan; unda belgilanishlar yaratish, ta'riflarni formulalash hamda tushunchalararo aloqalar tamoyillari yoritilgan. Termin ishlarining metatiligiga oid lug'at va atamalarni esa ISO 1087:2019 beradi; bu, masalan, variantdorlik, ekvivalentlik, termin birlik kabi tushunchalarni aniq va izchil ishlatish imkonini yaratadi. Termin ma'lumotlari bilan almashuv va lug'atlarni mashina-o'qiladigan formatda yuritish uchun ISO 30042:2019 (TBX) tavsiya etiladi—lokalizatsiya jarayonida termonazorat va izchillikni avtomatlashtirish uchun zarur infratuzilma.

Windows terminlarini til va madaniyatga moslashtirishda ekvivalentlik (Nida—*dynamic equivalence*)[1], semantik/kommunikativ muvozanat[2], funksional-pragmatik baholash[3] hamda maqsadga yo'naltirilgan skopos yondashuvi[4] o'zaro to'ldiradi. Nida foydalanuvchi qabulini (receptor effect) markazga qo'yadi, bu UI yorliqlarida qisqa, tabiiy birliklarni tanlashni rag'batlantiradi. Nyumark texnik matnlarda terminologik aniqlikni birlamchi deb ko'rsa-da, foydalanuvchiga yo'naltirilgan soddalikni ham qo'llab-quvvatlaydi. House modeli esa funksional ekvivalentlik va janr-diskurs omillarini e'tiborga olib, tarjima sifatini tizimli baholashni taklif etadi—UI/UX sohasida

bu “mos, izchil va o‘qiladigan” termin tanlash mezonlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulanadi. Skopos nazariyasi (maqsad—foydalanuvchi vazifasini yengillashtirish) va Nordning matn-tahlil modeli (ekstra/intrateksual omillar) Windows terminlarini manba metaforalarini ko‘r-ko‘rona ko‘chirmasdan, vazifa-centrik qayta nomlash bilan moslashtirishga asos beradi. Pym[5] va Baker[6]ning zamonaviy sharhlari esa turli ekvivalentlik darajalari, vizual-verbal o‘zaro ta’sir hamda avtomatlashtirish (MT, termonazorat) oqibatlarini umumlashtiradi. Venutining [7] *domestication, foreignization* oppozitsiyasi brend nomlari va metaforalarni qanchalik “uylashtirish” kerakligi bo‘yicha muhokama uchun foydalidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot metodologiyasi Windows operatsion tizimi terminlarining o‘zbek, turk va ingliz tillarida lingvistik hamda madaniy moslashuvini tizimli, takrorlanuvchi va mezonli usulda o‘rganishga qaratilgan aralash (mixed-methods) dizaynga tayanadi. Nazariy poydevor terminologiya ishlari (tushuncha–belgi–ta’rif uchligi, normativ-kanonik yondashuv), funksional-ekvivalentlik va skopos yo‘nalishlari, lingvokulturologiya (konseptual metafora va madaniy shaffoflik) hamda UI/UX yozuv me‘yorlari (izchillik, minimal kognitiv yuk, foydalanuvchi markaziy ravshanlik) uyg‘unligida quriladi.

Empirik baza Windows 10/11 interfeysining semantik jihatdan muvozanatli bo‘limlaridan tuziladi: “Settings”, “File Explorer”, bildirishnomalar, tarmoq va xavfsizlik, qurilmalar boshqaruvi va sh.k. Maqsad — har bir tilda kamida ikki-uch ming atrofida noyob UI birliklarini qamrab olish, shu bilan birga versiyalararo (Win10/Win11) farqlarni qayd etish va dublikatlarni normalizatsiya qilishdir. Terminlar 14 semantik maydon doirasida (masalan, Desktop & Shell, Window Management & Navigation, File System & File Explorer, Network & Internet va boshqalar) muvozanatli namuna sifatida ajratiladi. Real qo‘llanishni aks ettirish uchun rasmiy help sahifalari, termin ro‘yxatlari va foydalanuvchi interfeysi namunalaridan foydalaniladi. Imlo nuqtai nazaridan o‘zbek grafikasidagi maxsus belgilar (o‘, g‘ va b.q.) hamda registr turlari bir xillashtiriladi, rus va ingliz tili materiallarida esa

kapitalizatsiya va transkripsiya muammolari alohida nazorat qilinadi.

Morfologik-ortografik me‘yorlashtirish tekshiriqlari kapitalizatsiya rejimlari (sarlavha va matn rejimlari farqi), defis va komponentlarni ajratish, affiksatsiya imkoniyatlari va cheklovlarini o‘z ichiga oladi. O‘zbek tilida agglutinativ affikslash brend va terminlarga ulanganida shakl-mazmun muvozanati, o‘qiluvchanlik va estetik me‘yorlar ham nazarda tutiladi; rus tilida ko‘proq noflektiv bog‘lanish va o‘zgarishsiz shaklning afzalligi kuzatiladi, ammo istisnalar alohida qayd qilinadi. Variantdorlikni qisqartirish uchun imlo-tipografik “checklist” ishlab chiqilib, kapitalizatsiya, defis, transliteratsiya va affiksatsiya bo‘yicha aniqlik kiritiladi.

Tahlil va natijalar.

Inglizcha Windows terminlari nafaqat metaforalarni, balki ba‘zan madaniy belgilarni ham o‘z ichiga oladi. Masalan, *My computer* – shaxsiy kompyuter katalogini bildiruvchi ibora bo‘lib, unda egalik olmoshi (mening) ishlatilgan. Bu shaxsiylashtirish usuli bo‘lib, foydalanuvchi kompyuterini *o‘ziniki* sifatida ko‘rishini ta’kidlaydi. Keyinchalik Windows 10 va undan yangi versiyalarda tarjima qilinayotgan paytda, masalan, rus tilida *Moy kompyuter*, turk tilida *Bilgisayarim*, o‘zbek tilida *mening kompyuterim* shaklida berilgan edi. Demak, ingliz tilidagi terminologiya modeli boshqa tillarga tarjimada ma’lum grammatik va uslubiy qarorlarni talab qiladi, ya’ni egalik qo‘shimchasini qo‘llash yoki uni tushirib qoldirish kabi masalalarda.

Terminologiyaning izchil me‘yorlashuvi uchun Microsoft kompaniyasi o‘z mahsulotlarini rasmiy lokalizatsiya qilishda maxsus terminologik lug‘atlar ishlab chiqqan. Masalan, Microsoftning rasmiy terminologiya bazasi mavjud bo‘lib, unda Windows foydalanuvchiga ko‘rinadigan interfeysdagi minglab terminlarning turli tillardagi rasmiy ekvivalentlari belgilangan. Bu bazada tarjimon va dasturchilarga mos atamalarni tanlashda yordam beradi, shuningdek biror termin uchun ilgari taklif qilingan tarjimalarni ham ko‘rsatadi. Shunga qaramay, amaliyotda turli talqinlar yoki norasmiy tarjimalarda terminlarda farqlar kuzatilgan.

Inglizcha–Turkcha–O‘zbekcha solishtirma (variantlari bilan)

Inglizcha	Turkcha (rasmiiy)	TR variant / norasmiiy	O‘zbekcha (rasmiiy)	O‘zbekcha variant / norasmiiy	Izoh (farqlanish sababi)
Toolbar	Araç çubuğu	<i>Araçlar çubuğu</i>	Asboblardan paneli	<i>Instrumentlar paneli</i>	“Panel/çubuk” metafora farqi
Dialog box	İletişim kutusu	<i>Diyalog kutusu</i>	Muloqot oynasi	<i>Dialog oynasi</i>	“Kuti/kutu” vs “oyna” modeli
Tab	Sekme	<i>Tab</i> (ing. shakl)	Varaqcha	<i>Yorliq, tab</i>	Domenlar kesimida turli nomlash
Pane	Bölme	<i>Panel</i>	Oyna bo‘lagi	<i>Bo‘lim, panel bo‘limi</i>	“Pane” va “panel” chalkashishi
Sidebar	Kenar çubuğu	<i>Yan çubuk</i>	Yon panel	<i>Yon chiziq</i>	Ikon/UX an‘anasiga moslash
Windows Update	Windows Update / Güncelleme	<i>Güncelleştirme</i> (eski)	Windows yangilash (markazi)	<i>Yangilanishlar</i>	Termin siyosati avlodlar kesimida
Lock	Kilitle	<i>Ekrani kilitle</i>	Qulflash	<i>Ekranni qulflash</i>	UI-aksiya obyektga bog‘lanadi
Sign out / Log off	Oturumu kapat	<i>Çıkış yap</i>	Hisobdan chiqish	<i>Seansni yakunlash, chiqish</i>	Domen va uslub farqi
Hibernate	Hazırda beklet	<i>Hazırda bekletme</i>	Gibernatsiya	<i>Qishlash holati</i>	Texnik atama vs metafora
Shutdown	Kapat	<i>Bilgisayarı kapat</i>	O‘chirish	<i>Tizimni o‘chirish</i>	Buyruq matni vs tushuntirma
Restart	Yeniden başlat	<i>Yeniden başlatma</i>	Qayta ishga tushirish	<i>Qayta yuklash</i>	“Restart/yuklash” odatdagi juftlik
Username	Kullanıcı adı	<i>Kullanıcı ismi</i>	Foydalanuvchi nomi	<i>Login</i>	Ruscha “login” keng muomalada
Snipping Tool	Ekran alıntısı aracı	<i>Kırpma aracı</i>	Qirqish vositasi	<i>Snipping Tool</i> (o‘zlashma)	Brend/ilova nomi ko‘pincha saqlanadi
Command Prompt	Komut İstemi	<i>cmd</i>	Buyruq satri	<i>CMD, buyruqlar qatori</i>	Qisqartma amaliyotda ustun
Registry Editor	Kayıt Defteri Düzenleyicisi	<i>regedit</i>	Reyestr tahrirchisi	<i>Regedit</i>	Texnik nomi → vosita nomi

Til (leksika, grammatik shakl, orfografiya) va madaniyat (metafora, odat, semiotika) bir-biriga mos kelganda, mahalliyashtirish semantik jihatdan aniq, pragmatic jihatdan qulaylashadi. Jadvalda keltirilgan variantlardagi o‘zgarishlar (masalan, Görev çubuğu ↔ Vazifalar paneli, Bildirim alanı ↔ Bildirishnomalar sohasi, Ekran

tasviri ↔ skrinshot, Parola/Şifre ↔ Parol) aynan shu moslashuvning bosqichma-bosqich shakllanishini ko‘rsatadi. Asosiy tildagi model saqlanadi-yu, lekin mahalliy konsept va odatlarga mos ohang topiladi.

Shu holatda qisqa ilmiy qoida yuzaga keladi:

Standartlashtirish = aslga sodiqlik va barqarorlik + madaniy muvofiqlik + foydalanuvchi aqliy salohiyatini hisobga olish – foydalanuvchi interfeysining mustahkamlanishiga sabab bo‘ladi.

O‘zlashma shaklda hech o‘zgartirishlarsiz *API, Git, Docker* qisqartma terminlari qabul qilingan, lekin me‘yorlashtirilmagan. Qisman moslashtirilgan *ma‘lumotlar bazasi – database, so‘rov –query* yoki *norasmiy transkripsiya asosida* kirib kelgan va qo‘llanilayotgan terminlarni uchratish ham mumkin: *skript, repository/repo* ko‘rinishida. *Ma‘lumotlar bazasi (DB), so‘rov (query), yuborish (deploy)* kabi terminlarni ikki ko‘rinishida ham berilish holati uchraydi. Bu didaktik jihatdan terminning xalqaro nomi bilan o‘rgatilishi foydali, biroq uslubiy parokandalik xavfini oshiradi.

Yoshlar tilida tez tarqaluvchi jargon (*bug, patch, merge qildim, deploy qildik, pull qildim*) kommunikativ jihatdan tejamkor, lekin rasmiy va o‘quv matnlarida me‘yoriy bir xillikni susaytiradi. *AyTI* kabi grafemik variantlar esa internet qidiruvida IT bilan bir xil semantik hududga bog‘lanmay, ma‘lumotdan foydalanish ko‘rsatkichlarini pasaytirishi mumkin. Agar bu holatlar oldi olinmasa, terminlar o‘zbek tili korpusiga chalkashliklar asosida kiradi, natijada lug‘at tuzish, qo‘llanma yaratish va ilmiy izlanishlarda tartibsizliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababli bu borada tilshunoslar va AT mutaxassislar hamkorlikda ish olib borishi, atamalarni ommalashtirish uchun targ‘ibot va tushuntirish ishlari zarur.

Umuman olganda, o‘zbek tilida Windows terminologiyasini shakllantirish hanuz davom etmoqda. Ba‘zi sohalarda anchagina yaxshi natijalar bor (masalan, sozlamalar, ilovalar kabi atamalar keng singdi), ayrimlari esa hali ham ikkilamchi variantlar bilan qo‘llanmoqda (masalan, fayl/hujjat, jild/papka). Bu jarayonda foydalanuvchilarning til odatlari, rus va ingliz tilining ta‘siri, shuningdek rasmiy me‘yoriy hujjatlarning ta‘siri birgalikda rol o‘ynamoqda.

Xulosa va takliflar. Madaniy uyg‘unlik nuqtayi nazaridan har bir tarjimon va til quruvchisi atama ortidagi konseptning mahalliy madaniyatga mos yoki mos emasligini hisobga olishi kerak.

Yuqorida ko‘rilganidek, ba‘zi inglizcha obrazlar turk va o‘zbek tillarida qo‘rqmasdan ishlatilgan (masalan, sehrigar, axlat qutisi kabi), ayrim hollarda esa mahalliylik zarur bo‘lgan (masalan, sehrigar -> usta). Bu yerda aniq bir qoida yo‘q. Har bir termin alohida tahlil qilinishi, lingvokognitiv va lingvokulturologik ekspertizadan o‘tkazilishi lozim. Tarjimada har bir so‘zning mahalliy madaniyatdagi ohangi va ma‘nosini e‘tiborga olish zarur. Milliy madaniyatga yot bo‘lgan, noqulay his uyg‘otadigan obrazlar o‘rniga betarafroq yoki mahalliy madaniyatga yaqin ekvivalentlar tanlanishi lozim. Misol uchun, *Trash* atamasini tarjima qilishda “axlat” so‘zini ochiq qo‘llash ba‘zi hollarda noo‘rin ko‘rinsa, “savat” yoki “quti” so‘zlari bilan berish afzal.

Shunday jarayonlar amalga oshirilsa, vaqt o‘tishi bilan o‘zbek tilida ham Windows tizimi terminlarining uzviy va uyg‘un tizimi shakllanadi. Bu esa foydalanuvchilarga kompyuter muhitini ona tilida bemalol tushunish va boshqarish imkonini beradi. Til – doimiy rivojlanishda bo‘lgan hodisa, axborot texnologiyalari sohasida til va madaniyat o‘zaro uyg‘unlashib borgani sayin, foydalanuvchilarning lingvistik tajribasi boyiydi va kompyuter atamalari har bir milliy madaniyatning ajralmas qismiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nida E. A. *Toward a Science of Translating.* — Leiden: E. J. Brill, 1964.
2. Newmark P. *A Textbook of Translation.* — New York: Prentice Hall, 1988.
3. House J. *Translation Quality Assessment: Past and Present.* — London; New York: Routledge, 2015.
4. Reiß K.; Vermeer H. J. *Towards a General Theory of Translational Action: Skopos Theory Explained.* — London; New York: Routledge, 2014.
5. Baker M. *In Other Words: A Coursebook on Translation.* 3-rd ed. — London; New York: Routledge, 2018.
6. Pym A. *Exploring Translation Theories.* 2-nd ed. — London; New York: Routledge, 2014.
7. Venuti L. *The Translator’s Invisibility: A History of Translation.* 2-nd ed. — London; New York: Routledge, 2008.

МЕСТО УСМАНА ХОДЖИ ПОЛАТХОДЖАЕВА В БУХАРСКОМ ДЖАДИДИЗМЕ

Рахматов Мурод Гайбуллаевич, доцент Навоийского государственного университета, доктор философии (PhD) по истории

BUXORO JADIDCHILIGIDA USMON XO‘JA PO‘LATXO‘JAYEVNING TUTGAN O‘RNI

Raxmatov Murod G‘aybullayevich, Navoiy davlat universiteti dotsenti tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

THE PLACE OF USMON KHOJA POLATKHOJAEV IN THE BUKHARA JADIDISM

Rakhmatov Murod Gaybullayevich, Associate Professor of Navoi State University Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences



<https://orcid.org/0009-0002-2054-987X>

e-mail:
raxmatov.80@bk.ru

Аннотация: В статье на научной основе рассматривается роль Усман Ходжи Пулатходжаева в Бухарском джадидизме.

Ключевые слова: Туркестан, Усман Ходжа, армия, архив, общество, эмигрант, пресса, независимость, память, жюри, съезд, идея, новая Бухара, революция, Советский, правительство, пресса, эмигрант.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro jadidchiligida Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayevning tutgan o‘rni lmiy asoslar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Turkiston, Usmon Xo‘ja, armiya, arxiv, jamiyat, muhojir, matbuot, istiqlol, xotira, hay‘at, qurultoy, g‘oya, yangi Buxoro, inqilob, sovet, hukumat, matbuot, muhojir.

Abstract: This article examines the role of Usmonkhodja Pulatkhodjayev in Bukhara Jadidism based on scientific foundations.

Key words: Turkestan, Osman Khoja, army, archive, society, emigrant, press, independence, memory, jury, congress, idea, new Bukhara, revolution, Soviet, government, press, emigrant.

ВВЕДЕНИЕ. Видный представитель джадидского движения, видный государственный и общественный деятель, Усман Ходжа родился в 1878 году в Бухаре (в некоторых источниках – в Оше). Его отец – бухарский купец Пулат Ходжа кари, а мать – Фатима Айым из Оша. Первоначальное образование он получил в медресе в Бухаре, где открыл одну из первых джадидских школ. В 1908 году он отправился в Турцию вместе со своим другом Хомидом Ходжой Мехри и учился в Стамбуле. В Стамбуле он познакомился с Исмаилбеком Гаспринским (1850–1914), основателем джадидского движения в Крыму, и Анваром-пашой (1881–1922), лидером младотурецкой партии «Единство прогресса» и

другими. Его брат Отаулла Ходжаев (Ота Ходжа, Отаулла Пулатович Ходжаев, Отаходжа Пулатходжев; 1880–1937) также учился в Стамбуле. В начале 1912 года Усман Ходжа вернулся в Бухару и реорганизовал одну из джадидских школ. Он был активным членом тайной организации «Тарбия атфол» (основана в 1908 году). Он оказывал финансовую поддержку джадидским школам[1].

Как отметили профессора К.Раджабов и Ш.Хаитовы пишут в своём трактате «Усман Ходжа»: «Усман Ходжа был одним из первых передовых молодых людей, отправившихся учиться в Турцию. Вернувшись из поездки в Турцию, в 1912 году он отправил ещё 30 молодых людей из Бухары учиться в Стамбул.

Так, в 1909–1914 годах в Турции учились младший брат Усмана Ходжи: Отаулла Ходжаев, Мазхар Махсум, Бурхон Махсум, Абдурауф Фитрат, Мукимбек и другие»[2].

В секретном письме Бельмана, нового посланника Российской империи в Бухаре (Кагана), говорится (24 февраля 1912 года): «Усман Ходжа привёз из Стамбула много политических брошюр. Он занимался пропагандой идей тюркизма и исламизма, активно участвовал в жизни тайной политической организации»[3].

После возвращения из Турции Усман Ходжа стал одним из лидеров прогрессивного движения в Бухаре. Под его инициативой и руководством в Бухаре открывались новые школы. Особую известность приобрела школа, основанная Усманом Ходжой в его родовом доме[4]. В этих школах получили начальное образование брат Усмана Ходжи Отаулла Ходжаев и его двоюродный брат Файзулла Ходжаев.

Согласно архивным документам, сотрудники Бухарского политического агентства Российской империи, прибывшие из нового города Бухары (ныне Каган) для контроля за состоянием образования в этой школе, обнаружили, что в классе были парты, столы и стулья, у учителя был глобус с изображением Земли, занятия проводились с использованием различных наглядных пособий, а на стенах класса висели карты Бухарского эмирата и Российского государства. Об этом говорится в специальной справке заместителя председателя политического агентства Шульги[5]. Роскошный дом, построенный в Бухаре отцом Усмана Ходжи, Полатом Ходжой, в 1860-х годах, сохранился до наших дней. Двор был построен в историческом гузаре Говкушан в Бухаре, вокруг медресе Говкушан и Гоziён. Когда-то его называли «двор двора». В настоящее время он находится по адресу: улица Ходжа Гулрез, дом 13, в районе Хамид Алимджон в Бухаре.

Согласно записям Сулаймона Иноятова, профессора Бухарского государственного университета и видного историка (его считают внуком Отауллы Ходжаева), Усману Ходже было 42 года, когда он покинул этот двор в 1921 году, сначала в специальной командировке в

Восточную Бухару, а затем в Афганистан, а его брату Отаулле Ходжаеву было 57 лет, когда его арестовали в 1937 году. После того, как владельцы двора были репрессированы советской властью, он был конфискован государством, и в здании разместились различные учреждения. Долгие годы в нём располагался Бухарский областной суд. В подвале двора содержались осуждённые. Напротив двора находится великолепный двор казикула Бухарского эмирата Садр Зия (Шарифжон Махдум), который также сохранился до наших дней.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ. При освещении статьи были эффективно использованы труды Р.Раджаповой, Р.Абдуллаева, С.Аъзамходжаева, С.Иноятова, О.Шарафиддинова, Н.Каримова, Р.Шамсутдинова, С.Шодмоновой, А.Мингнарлова, Ш.Хаитова, Д.Джамоловой, О.Рашидова, У.Хаитова, А.Махмудова, М.Дармоновой, А.Юлдашева и других историков. При изучении проблемы были использованы принципы историчности, системности и метод обобщения.

ОБСУЖДЕНИЕ. Сын Усмана Ходжи, Темур Ходжа оглы, проживающий в Стамбуле, встречался с жителями Бухары в июне и декабре 2019 года в гостинице «Ховли Поён», расположенной в этом дворике, и предложил открыть в этом историческом здании музей бухарских джадидов. Это предложение было поддержано Президентом Республики Узбекистан Шавкатом Мирзиёевым, и в 2023–2024 годах дворик был передан в государственную собственность, и в настоящее время здесь ведутся ремонтные работы по созданию музея и библиотеки.

Усман Ходжа, его брат Отаулла Ходжаев и двоюродный брат Файзулла Ходжаев были видными представителями партии «Молодые бухарцы». В 1917 году Усман Ходжа трижды входил в состав Центрального Комитета партии и был казначеем фракции[6]. После вторжения в Бухару председателя Туркестанского областного Совета Народных Комиссаров Фёдора Колесова в марте 1918 года Усман Ходжа также был вынужден эмигрировать в Советский Туркестан. В апреле 1918 года он организовал в Ташкенте группу молодых

бухарских левых социалистов. В феврале 1920 года он был избран членом Туркестанского центрального бюро партии революционной молодёжи Бухары. После образования БССР Усман Ходжа занимал такие ответственные должности, как финансовый инспектор (1920), инспектор Государственного контроля (1921) и первый председатель Центрального исполнительного комитета БССР (август 1921 — начало 1922). Усман Ходжа и многие руководители правительства БССР хотели превратить Бухару в подлинно независимую республику со своей национальной армией и национальным правительством. Первым условием существования независимой республики была необходимость создания хорошо вооружённой национальной армии. Усман Ходжа последовательно боролся за вывод советских красноармейцев из Бухарской Народной Советской Республики и за реальную независимость Бухары. 9 декабря 1921 года, во время командировки председателя Центрального Исполнительного Комитета Бухарской Народной Советской Республики Усмана Ходжи в Восточную Бухару в качестве чрезвычайного представителя Бухарской Народной Советской Республики, он с помощью своих помощников: Али Ризобека, заместителя инспектора по военным делам Бухарской Народной Советской Республики, Хасанбека, командующего Термезским гарнизоном, и Дониелбека, разоружил красноармейцев Душанбинского гарнизона. Он арестовал начальника Душанбинского гарнизона Морозенко, военного комиссара Мухина и генерального консула РСФСР Нагорного[7]. С разрешения Ибрагимбека, помощники Анвара паши, Хаджи Сомий и Усман эфенди, прибыли с отрядом воинов на помощь Усману Ходже. Лидер осаждавших город национальных сил БСР направил Ибрагимбеку через специального представителя письмо: «Мы вступили в борьбу с захватчиками, придите, будем сражаться все как один!» и пригласил его присоединиться к своим рядам[8]. Он пытался создать независимую национальную армию Бухары под руководством Анвара паши. К сожалению, Ибрагимбек не поверил столь искреннему приглашению председателя Центрального Комитета БСР Усмана Ходжи, и в результате

разногласий между Ибрагимбеком и Анвар пашой, а также из-за того, что Усман Ходжа и Анвар паша не смогли встретиться напрямую в Восточной Бухаре[9], эти смелые и рискованные планы Усмана Ходжи не были реализованы. Советское командование в Туркестане уже планировало отправить специальную военную экспедицию для захвата Восточной Бухары в конце октября 1920 года[10]. 9 ноября приказом командующего 1-армией Г.В.Зиновьева все советские воинские части и гарнизоны в Бухарском регионе были включены в Бухарскую группу войск. Непосредственной задачей Красной Армии было захватить Саид Алимхана, находившегося в Хисарской долине, и силой оружия установить Советскую власть в Восточной Бухаре. Поскольку военные действия экспедиции предполагалось осуществить главным образом в Хисаре, командование Туркестанского фронта назвало его Хисарским военно-экспедиционным отрядом. На основании приказа командования Туркестанского фронта от 27 ноября 1920 года началось формирование Хисарского экспедиционного отряда. Она была сформирована на базе 3-бригады, 16-кавалерийского полка, 5-го и 6-го кавалерийских полков и особой горно-кавалерийской батареи из 1-й Туркестанской дивизии, а также новых воинских частей, присланных из Центральной России[11].

Утром 14 февраля 1921 года Хисарский военно-экспедиционный отряд выступил из Байсуна. Именно с этого дня военная экспедиция начала свой поход и начала завоевание Восточной Бухары. Красноармейцы столкнулись с серьёзным сопротивлением со стороны солдат эмира, спешно сформированных добровольцев из местного населения и других национальных сил. Правительство Бухарской республики объявило 15–22 февраля Ударной неделей Бухарского фронта. В эти дни бойцы 1-й Туркестанской кавалерийской бригады под командованием Я.А.Мелкумова занял Бандихонское ущелье, открыв красным солдатам путь в Сурхандарьинский оазис[12].

В ожесточённых боях с Красной Армией, имевшей количественное и качественное превосходство в вооружении, бухарские борцы за независимость (солдаты эмира и молодёжь-добровольцы) первоначально потерпели

поражение. 15 февраля 1921 года Красная Армия захватила Денау. Вскоре у борцов за независимость были также взяты Юрчи, Сарыосиё и Сарыджой. Наступающая Красная Армия встретила ожесточённое сопротивление в Регаре (ныне город Мирзо Турсунзаде), но этот город, а затем и Каратог были ими захвачены. В частности, с 20 февраля 1921 года ожесточённые бои разгорелись у подножия Хисара[13].

25 февраля 1921 года штаб Хисарского экспедиционного военного отряда прибыл и разместился в Душанбе. Военное снабжение экспедиции в основном доставлялось из Карши. 2 марта в Душанбе прибыл специальный представитель РСФСР от Бухарской Народной Советской Республики В.В. Куйбышев прибыл сюда и поставил перед Красной Армией новые задачи. По его мнению, Красная Армия должна была установить Советскую власть во всей восточной Бухарской области «огнем и мечом». Кроме того, в Душанбе прибыли присланные большевиками из Ташкента и Бухары особые политработники – чрезвычайные и самостоятельные представители БНСР и Бухарской коммунистических партий во главе с Садуллаходжой Турсунходжаевым. Эти коммунисты должны были идеологически руководить борьбой Красной Армии против борцов за независимость. В районе Тутковула Ибрагимбек, Давлатмандбек, Тогай Сары и Эгамберди с трёхтысячной конницей оказали ожесточённое сопротивление Красной Армии. Однако после ожесточённых боёв вечером 24 февраля 1800 сабель под командованием Давлатмандбека ушли через Кангурт в Бальджуван, а остальная часть армии под командованием Ибрагимбека направилась в Куляб. 25 февраля 1921 года 2-й кавалерийский полк под командованием Роганова занял Куляб[14].

Характерно, что, несмотря на то, что Хисарский экспедиционный отряд просуществовал около года, его командиры часто менялись. Эти командиры вторгшейся Красной Армии погибали или были ранены в боях. После ранения В.М.Ионова в бою с отрядом Эшон Султана в августе 1921 года экспедицией стал командовать командир бригады Я.А.Мелкумов (1885–1962).

После переезда Саид Алим-хана в Афганистан он оставил часть придворных чиновников, приехавших вместе с ним за границу, в Ханабаде и Мазари-Шарифе и отправился в столицу Кабул со своими ближайшими друзьями. В мае 1921 года, по поручению афганского эмира Амонуллы-хана, он обосновался в крепости Фату близ Кабула и пытался руководить военными действиями против Красной Армии в новообразованной БСР. Саид Алим-хан в основном общался с командирами, действовавшими в Бухарской области, и обменивался информацией через своего дядю, бывшего каршинского бека Тогайбека. Находясь в Карши, Усман Ходжа принял твёрдое решение, разорвал отношения с Советами и перешёл на сторону вооружённой оппозиции. 10 апреля 1922 года Усман Ходжа прибыл в Афганистан. 29 апреля он встретился в Кабуле с афганским эмиром Амонуллой-ханом и подписал соглашение с Афганистаном в качестве главы государства Бухарской Республики о борьбе с Россией[15]. Он пытался закупить оружие для Бухарской Независимой Национальной Армии за рубежом. Однако исследователи пишут, что переговоры с англичанами не дали никаких результатов[16]. Когда Усман Ходжа позже попытался вернуться в Бухару, Файзулла Ходжаев отправил ему письмо с предупреждением не возвращаться, иначе большевики расстреляют его[17].

РЕЗУЛЬТАТЫ. Так начался период эмиграции в жизни Усмана Ходжи. Первоначально он жил в Афганистане, устанавливая связи с Анвар-пашой и другими командирами. Там он давал молодым людям турецкой национальности специальную военную подготовку, готовя их к борьбе за независимость Туркестана. Ахмед Заки Валиди, прибывший в Кабул в июне 1923 года, несколько раз встречался там с Усманом Ходжой. 26–28 июня в Кабуле состоялось экстренное заседание организации Туркестанского национального единства (ТНЕ), на котором обсуждались планы на будущее. После назначения Усмана Ходжи представителем ТНЕ в Турции, в сентябре 1923 года он прибыл в Стамбул и обратился к турецкому правительству с просьбой о предоставлении политического убежища. Его тепло встретил Мустафа Кемаль Ататюрк (1881–

1938), первый президент Турецкой Республики [18]. В соответствии с постановлением Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева от 30 мая 2024 года «О создании государственного музея наследия джадидов в Бухаре»[19], в комплексе Ховлипоён, расположенном по адресу: улица Ходжа Гулрез, 13, в исторической резиденции города Бухары, где жил Усман Ходжа, будет создан Государственный музей наследия джадидов. Этот двор был построен в 1960-х годах отцом Усмана Ходжи, Пулатом Ходжой, в семье которого вырос Усман Ходжа и открыл свою знаменитую школу джадидов в Бухаре. В настоящее время ведутся работы по реставрации и оборудованию этого дома для открытия в нем музея.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. В заключение следует отметить, что Усман Ходжа был известным государственным и политическим деятелем, патриотом, боровшимся с русскими за независимость Бухары. Усман Ходжа сыграл особую роль в движении джадидов в Бухаре. Особого внимания заслуживает деятельность школы джадидов, основанной Усманом Ходжой в Бухаре. Вокруг него сложились близкие отношения с такими соратниками и товарищами, как его брат Отаулла Ходжаев и двоюродный брат Файзулла Ходжаев, которые находились в авангарде борьбы за единство и независимость Туркестана. К сожалению, деятельность Усмана Ходжи в Бухаре была прервана в начале 1922 года. Усман Ходжа отправился в Афганистан с государственным визитом и был вынужден остаться в Кабуле без возвращения из-за давления большевиков и политической обстановки.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. *К. Ражабов.* Туркистон минтақасида совет режимига қарши истиқлолчилик ҳаракати ва моҳияти (1918-1935). – Тошкент: Фан, 2022. – Б.219-222.
2. Ражабов К., Хайитов Ш. Усмон Хўжа. – Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2011. – Б.8.
3. Смотрите: *К. Ражабов.* Ўзбекистон ССРда совет режимининг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (1917-1991 й.). – Тошкент: Фан, 2022. – Б. 228-230; “Шарқ юлдузи” (Тошкент). - 2004. - № 1. Б. 30-31.
4. Смотрите: С.Иноятов. Усмон Хўжанинг ховлиси// “Жадидларнинг илмий-педагогик

мероси: тарих ва замонавийлик” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари (29-30 март 2024 йил). 1-тўплам. – Фарғона, 2024. – Б. 354-359.

5. Национальный архив Узбекистана, Фонд I -3, Оп. 1, Д. 105, Л. 74.

6. *Файзулла Хўжаев.* Бухоро инқилобининг тарихига оид материаллар (Қайта нашр). Масъул муҳаррир: Д.Алимова. – Тошкент: Фан, 1997. – Б. 102-106.

7. *Timur Kocaoglu.* Yenilik Hareketliri ve ihtilaller Arasinda Osman Noca (Kocaoglu) // *Türkistanda Yenilik Hareketleri ve ihtilaller: 1900 - 1924.* - Haarlem, Sota, 2001. S. 26.

8. *Türkistanli Abdullah Receb Baysun.* Türkistan Milli Hareketleri. - Istanbul, 1975. S. 62-63.

9. Смотрите: *Усмон Хўжа.* Анвар Пошо Бухорода қолса эди... // *Эрк газетаси* (Тошкент). 1992 йил 29 апрел - 5 май.

10. Бухоро ахбори, №8, 1920 йил 21 ноябр.

11. Национальный архив Узбекистана, фонд 46, список 1, дело 38, лист 4.

12. История таджикского народа. Том V. Новейшая история (1917-1941 гг.). – Душанбе, 2004. – С.259.

13. Национальный архив Узбекистана, фонд46, список 2, дело10, лист 5.

14. Национальный архив Узбекистана, фонд 48, список 1, дело 74, лист 1.

15. *Temur Kocaoglu.* Yenilik Hareketleri ve ihtilaller Arasinda Osman Noca (Kocaoglu) // *Turkistanda Yerilik Hareketleri ve ihtilaller: 1900 - 1924.* S. 26-28.

16. *Ш.Хайитов* Усмонхўжа Пулатхўжаев – миллий мустақиллик курашчиси // Инсониятнинг илмий ва маданий мероси – учинчи минг йилликка. Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум тезислари. - Тошкент: Ўзбекистон, 1997. Б. 68-69.

17. Смотрите: *Қ.Ражабов.* Ўзбекистон ССРда совет режимининг қатағон сиёсати ва унинг оқибатлари (1917-1991 й.). – Тошкент: Фан, 2022. – Б. 223-224.

18. Смотрите: *Қ.Ражабов.* Туркистон қўрбошилари. – Тошкент: Фан, 2022. – Б.297-298.

19. Постановление Президента Республики Узбекистан (30 мая 2024 г): О создании Государственного музея наследия джадидов // <https://yuz.uz/a/uz/101334>.

Qabul qilindi: 01.07.2025

Chop etildi: 30.08.2025

UDK:342.553(571.1)

**O‘ZBEKISTON XX ASR 80-YILLARI SIYOSIY-
IJTIMOIY TARIXINING SABAB VA OQIBATLARI**
Abuyev Husan Odilovich, Navoiy davlat universiteti dotsenti
**CAUSES AND CONSEQUENCES OF THE POLITICAL
AND SOCIAL HISTORY OF UZBEKISTAN
IN THE 1980S**

Abuyev Husan Odilovich, Associate Professor Navoi State University
**ПРИЧИНЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ И
СОЦИАЛЬНОЙ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА
В 1980 ГОДЫ XX ВЕКА**

*Абуев Хусан Одилевич, доцент Навоийского государственного
университета*



<https://orcid.org/0009-0001-1316-523X>
e-mail:
husan24@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada SSSR boshqaruv elitasining XX asr 80-yillaridagi krizisi va uning mamlakat hayotidagi ta'siri tasvirlangan. Shuningdek, mamlakatda yuzaga kelgan bunday holatning O'zbekistonda salbiy ta'sirining sezila boshlashi va uning oqibatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: KPSS, Brejnev, Andropov, Chernenko, Gromiko, O'zbekiston, Afg'oniston, Sharof Rashidov, paxta ishi, Usmonxo'jayev, "desantchilar", Gdlyan.

Annotation: This article describes the crisis of the USSR's ruling elite in the 1980s and its impact on the life of the country. It also provides information on how this situation began to have a negative effect on Uzbekistan and the consequences that followed.

Keywords: CPSU, Brezhnev, Andropov, Chernenko, Gromyko, Uzbekistan, Afghanistan, Sharof Rashidov, cotton affair, Usmankhodjaev, "paratroopers", Gdlyan.

Аннотация: В данной статье описан кризис управленческой элиты СССР в 80-годы XX века и его влияние на жизнь страны. Также приведена информация о том, как подобная ситуация начала оказывать негативное влияние на Узбекистан и каковы были её последствия.

Ключевые слова: КПСС, Брежнев, Андропов, Черненко, Громыко, Узбекистан, Афганистан, Шараф Рашидов, хлопковое дело, Усманходжаев, "десантники", Гдлян.

KIRISH. O'zbekiston tarixi XX asr 80-yillarida ham siyosiyosiy, ijtimoiy voqealarga boy davr bo'ldi. O'zbekiston xalqi bu davrni matonat bilan yengib o'tdi. Bu davrda O'zbekistonning SSSR tarkibidagi so'nggi o'n yilligi bo'lsa-da mamlakatda yuzaga kelgan siyosiy tanglik ijtimoiy ahvolning yanada pasayishiga olib keldi. Bu bilan birgalikda qatag'on siyosatining yangi talqini bo'lib o'tdi. Mazkur maqolada qayd etilgan shu davrda yuzaga kelgan siyosiy elitadagi o'zgarishlar va buning O'zbekistonda ta'siri haqida dalillar asosida fikr yuritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Maqolada bayon qilinayotgan davr tarixi uncha uzoq bo'lmaganligi sababli o'ziga xos boy ma'lumotlarga ega. Davr tarixini yoritishda mafkuralashishdan

yiyoq bo'lish maqsadida turli manbalardan va turli hudud hamda davr matbuotidan keng foydalanildi. Ya'ni O'zbekistondan tashqarida yozilgan R.G.Pixoyaning "Sovetskiy Soyuz: istoriya vlasti. 1945-1991" SSSR tarixini yoritishda muhim manba sifatida qarosh mumkin. F.Razzakovning "Korrupsiya v Politbyuro. Delo "krasnogo uzbeka" nomli Moskvada chop etilgan kitob korrupsiya butun mamlakatda ildiz otgani, lekin buni aynan O'zbekistonda fosh qilishga urinish haqida ma'lumot beradi. Maqolani yoritishda yaqin yillarda O'zbekiston tarixini xolis yoritishda xizmat qilayotgan tarixchi olim va tadqiqotchilarning ilmiy faoliyatidan keng foydalanildi. Shuningdek, davr mafkurasi ta'siri ostida bo'lsa-da ba'zi hollarda

haqiqatni namoyon qiluvchi shu davr matbuoti materiallaridan foydalanildi.

METODOLOGIK ASOSLAR. Maqolani yozishda qiyosiy-tahliliy va xolislik metodik asoslarga keng tayanildi. Turli tadqiqotlar va davr matbuoti, hamda davlat arxiv materiallariga tayangan holda qiyosiy tahlil yuritildi. Rus va mahalliy tarixchilarining asarlari va turli manbalarning qiyosiy tahlili orqali ma'lumotlar o'zaro taqqoslandi.

MUHOKAMA. XX asrning 80-yillari boshlarida sovet jamiyati ikki yildan sal ortiq fursat ichida (1982-yil noyabr – 1985-yil mart) uch nafar KPSS Markaziy Komiteti Bosh sekretarining vafoti siyosiy ziddiyatlarni yana ham kuchaytirdi[1].

1982-yil 10-noyabrda KPSS MK Bosh sekretari, SSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi kasalmand Leonid Ilich Brejnev 76 yoshida vafot etdi. U uzoq yillar davomida surunkali kasal bo'lishiga qaramasdan 18 yil davomida partiya va mamlakatni boshqargan edi. 1982-yil 12-noyabrda bo'lgan KPSS MKning navbatdan tashqari plenumida Yuriy Vladimirovich Andropov 68 yoshida KPSS MK Bosh sekretari lavozimiga saylandi[2]. U keyinchalik SSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi lavozimini ham egalladi. Y.V.Andropov 15 yil davomida (1967–1982-yillar) SSSR Davlat Xavfsizlik komiteti raisi lavozimida ishlab, amalda mamlakatda kommunistik partiyadan keyingi ikkinchi tashkilotni boshqardi.

Y.V.Andropov KPSS va SSSR rahbari bo'lgach, mamlakatda kommunistik fundamentalizmni qaror toptirishga urindi. Bu jihatdan olganda KPSS MKning 1982-yil 22-noyabrda bo'lgan plenumi katta rol o'ynadi. Unda partiyaning yangi yetakchisi qilgan ma'ruzada davlat va mehnat intizomini hamda ijrochilik intizomini mustahkamlash, ishda uyushqoqlik va ishchanlikni oshirish zarurligi aytiladi[3]. Mamlakatda o'n yillardan keyin yana kuch ishlatuvchi organlarning mavqeyi oshdi. Jamiyatda yangi tartib o'rnatishga kirishildi va odamlar o'rtasida qo'rquv va xavotirlik boshlandi.

Y.V.Andropov mamlakatda boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usulini qayta tiklab, Stalin zamonida amal qilgan, biroq Xrushchayov davrida, xususan Brejnev davrida ancha bo'shahgan holatga qaytarishga harakat qildi. Bu jarayonlar O'zbekistonga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi.

1984-yil 9-fevralda Y.V.Andropov ham 70 yoshida og'ir xastalikdan so'ng vafot etdi. 1984-yil

13-fevralda bo'lib o'tgan KPSS MKning navbatdan tashqari plenumida 73 yoshga kirgan kasalmand Konstantin Ustinovich Chernenko KPSS MK Bosh sekretari kilib saylandi[4]. U 1984-yil 11-aprelda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi lavozimini ham egalladi.

Bu davr mamlakat siyosiy elitasining yetakchilari bo'lgan ko'plab qariyalar, masalan, 1980-yil yanvarda A.N.Kosigin, 1982-yil yanvarda M.A.Suslov, 1983-yil mayda A.Y.Pelshe, 1984-yil dekabrda D.F.Ustinov ham vafot etishdi. Mamlakat bo'ylab noxush latifalar ko'chib yurardi: SSSRda yangi sport turi dafn marosimi poygasini o'ylab topishdi[5].

1985-yil 10-martda K.U.Chernenko ham og'ir kasallikdan so'ng vafot etdi. KPSS Markaziy Komitetining 1985-yil 11-martda bo'lgan navbatdan tashqari plenumida KPSS Markaziy Komiteti Bosh sekretari lavozimiga nisbatan yosh va serg'ayrat Mixail Sergeyevich Gorbachyov saylandi. Uning tashabbusi bilan L.I.Brejnev davri (1977-yil)dan boshlab amal kilib kelayotgan an'ana – partiya va davlatdagi oliy lavozimlar bir kishining qo'lida to'planmay, muayyan muddatga ikkiga ajraldi. 1985-yil 2-iyulda SSSR Tashqi ishlar ministri, 76 yoshni to'ldirgan Andrey Andreyevich Gromiko SSSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi qilib saylandi.

Xullas, 1982–1985-yillarda Markazda siyosiy qarama-qarshilik va hokimiyat uchun kurash kuchaydi. KPSS MK Siyosiy byurosida “qariyalar va yoshlar” o'rtasida L.I.Brejnev vafoti arafasi va undan keyin qariyb uch yil mobaynida kechgan bu kurashda A.A.Gromikoning yordamida Siyosiy byuroning eng yosh a'zosi M.S.Gorbachyov (bu paytda u 54 yoshda edi) g'olib chiqdi. Mazkur yillarda jamiyatda umid uyg'otgan “sotsializmni isloh qilish” niyatlari amalga oshmadi. Biroq Andropov davridagi qo'rquv va qatag'onlar to'lqinidan sovet jamiyati asta-sekin o'ziga kela boshladi.

Aslini olganda Sovet Ittifoqida hokimiyat tuzilmalari ayniy boshladi. Siyosiy elita boshqaruvidagi tartibsizliklar hokimiyatning o'rta va quyi bo'g'iniga o'ta boshladi. Ushbu holat yana ham murakkab sharoitda Markazning doimiy nazorati ostida bo'lgan O'zbekiston SSRdagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Bu davrda mamlakatda yuz bergan bir qator voqealar O'zbekistondagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlarga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Ana shunday noxush voqealardan biri sovet qo'shinlarining Afg'onistonga kiritilishi bo'ldi. O'zbekistonning o'sha paytdagi birinchi siyosiy rahbari bo'lgan Sharof Rashidov sovet qo'shinlarining Afg'onistonga kiritilishi va u yerdagi harbiy mojarolarga aralashishiga qattiq qarshilik ko'rsatgan.

Ko'p yillik urush SSSR va Afg'oniston iqtisodiyotiga katta zarar yetkazdi. Ma'lumotlarga qaraganda, urushdan Afg'oniston 20 mlrd dollar miqdorda moddiy talofat ko'rdi, unda 1 mln nafar afg'onistonliklar halok bo'ldi, 4 mln kishi xorijga ketishga majbur bo'ldi. Ularning orasida afg'onlardan tashqari o'zbeklar, tojiklar va turkmanlar ham ko'pchilikni tashkil qilar edi.

Bundan tashqari XX asr 80-yillarida nafaqat Afg'onistondagi janglarda qatnashib halok bo'layotgan, balki ulkan mamlakat hududida sovet armiyasi saflarida tinchlik sharoitida harbiy xizmatni o'tayotgan paytda o'ldirilgan va halok bo'lgan yuzlab va minglab o'zbek yigitlarining jasdlari solingan "temir tobutlar"ning kelishi O'zbekistondagi ijtimoiy vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatdi. O'sha paytda jurnalist Karim Bahriyevning matbuotda yozishicha, 1990-yilning 9 oyi mobaynida o'zbek xonadonlariga 167 ta, 1991-yilda esa 430 ta tobut keldi[6]. Bu holat kommunistik mafkura ta'kidlab kelgan sovet armiyasidagi "millatlararo totuvlik, xalqlar do'stligi va baynalmilal g'oyalar" aslida deklarativ xususiyatga ega bo'lganligi, bu paytda armiya ich-ichidan yemirilib, aynib ketayotganligi, askarlar o'rtasida tinchlik sharoitida ham milliy va diniy nizolar asosida turli to'qnashuvlar kelib chiqishi kuchayganligini ko'rsatadi.

Mazkur davrda o'zbek qishloqlaridagi og'ir maishiy hayot, paxta ishi munosabati bilan sovet tergovchilarining zug'umlari, xo'rlik va haqoratlariga chiday olmagan hamda oilada moddiy kelishmovchiliklar va turli janjallar bois o'z-o'zini o'ldirish kuchayganligini ham ta'kidlab o'tish joiz. Xususan, yuzlab o'zbek ayollari namoyishkorona tarzda o'zlariga o't qo'yib, fojiali tarzda halok bo'ldi yoki bir umrga nogiron bo'lib qoldi. Xullas, o'zbek ayollari maishiy turmush hamda jamiyat va tuzumga qarshi o'z noroziligini ana shunday fojiali namoyish qildi.

XX asrning 80-yillari boshlariga kelganda sovet rejimi, uning siyosiy tizimi va xo'jalik yuritish usullari o'zining rivojlanish imkoniyatlarini tugata boshladi. O'zbekiston SSR iqtisodiyoti ham, katta xomashyo va tabiiy boyliklar zahirasi ega bo'lishiga qaramasdan, SSSRning markaziy hududlaridan juda tez ortda qola boshladi.

XX asrning 80-yillari o'rtalarida O'zbekiston SSRda mahalliy aholi orasidagi ishsizlarning o'rtacha yillik soni 1 mln kishidan ortiq bo'lib, ularning yarmi yoshlar edi. Xususan, qishloq tumanlarida ishsizlik darajasi yana ham yuqori bo'lgan. Ishsizlar soni ana shunday ko'p bo'lgan bir sharoitda ish kuchini respublikaga to'xtovsiz ravishda chetdan keltirish davom etardi. Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Chirchiq, Bekobod, Angren shaharlaridagi ishchilarning aksariyati SSSRning markaziy rayonlaridan keltirilgan rusiyazabon aholi edi. Masalan, 1981-1985-yillarda Toshkentda ish bilan band bo'lmagan mehnatga qobiliyatli o'rtacha 200 000 nafardan ortiq kishi bor bo'lgani holda yangi ishga tushirilgan korxonalariga 125 000 nafar ishchi va mutaxassislar RSFSR, Ukraina va Belorussiyadan jalb qilindi[7]. Shaharlarda, xususan, respublika poytaxti Toshkent shahrida yashovchi mahalliy aholining uy-joyga ehtiyoji yuqori bo'lsa ham eng avvalo ko'chirib keltirilgan aholining maishiy sharoitlari yaxshilangan.

O'zbekistonda 1980-yili o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar tayyorlaydigan texnikumlar soni 44 taga yetgan. 1985-yilda respublika qishloq xo'jaligida 10 000 nafardan ortiq o'rta maxsus ma'lumotli va 5000 nafardan ziyod oliy ma'lumotli mutaxassis faoliyat ko'rsatgan. Biroq mutaxassislar son jihatdan o'sib borsa ham ularning malakasi yetarli darajada emas edi. Oliy o'quv yurtlari va texnikumlarning talabalari, shuningdek, qishloq maktablarining yuqori sinf o'quvchilari uzoq muddatli qishloq xo'jalik, xususan, paxta hosilini yig'ishtirib olishga jalb qilingan. O'quv dasturlari esa haddan tashqari mafkuralashtirilib, marksizm-leninizm ta'limoti kommunistik g'oya talablariga bo'ysundirilgan.

O'zbekistonda mazkur davrda har yili kuz mavsumi va hatto dekabr oyida tinchlik sharoitida ham xuddi frontda bo'lgani singari bir holat hukm surgan. O'zbekistonning deyarli barcha aholisi paxta yig'im-terimiga jalb qilingan. Bu paytda universitet va institutlar, texnikumlar, maktablar yopilib, barcha talaba va o'quvchilar hamda

o'qituvchilar paxta terish uchun dalalarga jo'natilgan. Boshqa davlat muassasalari xodimlari ham ommaviy ravishda "oq oltin"ni terishga safarbar qilingan. Biroq paxtadan olingan asosiy daromadning huzurini Markaz ko'rgan, o'zbek dehqonlari esa asosan qora mehnat bilan shug'ullangan.

Bu davrda O'zbekistonda paxta yakkahokimligi o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Yildan-yilga tobora ko'payib borayotgan paxta ekin maydonlarini sug'orish uchun yangi suv omborlari va kanallar qurilishi ham avjiga chiqdi. Qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish kuchaydi. 1982-yilda Qoradaryodan suv oladigan, sig'imi qariyb 2 mlrd m³ bo'lgan eng yirik Andijon suv ombori qurildi. Xullas, 1985-yilga kelib, O'zbekiston SSRda 20 dan ortiq suv omborlari mavjud bo'lgan. Shu bilan birga kanallar soni ham ortdi. Bu kabi irrigatsiya inshootlarining kengayib borishi xalq xo'jaligi uchun birmuncha iqtisodiy samara bergan bo'lsa ham, biroq uning salbiy oqibatlari yana ham og'irroq bo'ldi. Chunki cho'llarni o'zlashtirish, sug'orish ishlari intensiv yo'l bilan emas, balki ekstensiv yo'l bilan amalga oshirildi. Suvdan foydalanishda katta isrofgarchilikka yo'l qo'yildi.

Sovet jamiyatida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi salbiy jarayonlar siyosiy tizimda ham to'laligicha aks etdi. Sovet jamiyatining siyosiy tizimiga kommunistik partiya, sovetlar, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari (komsomol) va boshqa jamoat tashkilotlari kirar edi. Partiya o'zini jamiyatning rahbarlik qiluvchi va yo'naltiruvchi kuchi deb hisoblar va sovetlar hamda jamoat tashkilotlariga o'z xohish-irodasini amalda zo'rlik bilan o'tkazar edi.

1983-yil 31-oktabrda ertalab soat 05:00 da O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi sekretari, KPSS Markaziy Komiteti Siyosiy byurosi a'zoliciga nomzod Sharof Rashidovich Rashidov respublikadagi paxta yig'im-terimidagi ahvolni nazorat qilish maqsadida Qoraqalpog'iston ASSR va Xorazm viloyatida xizmat safarida bo'lganida Nukus shahridagi hukumat qarorgohida 66 yoshida infarkt natijasida to'satdan vafot etdi[8]. Sh.Rashidov qariyb chorak asr davomida (1959-1983 yillar) O'zbekiston partiya tashkilotiga rahbarlik qilgan, undan avval 9 yil davomida (1950-1959 yillar) O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi lavozimida ham ishlagan edi.

Sharof Rashidov o'z davrining farzandi edi. U zukko siyosatchi va atoqli davlat rahbari, mashhur yozuvchi sifatida shu zamonga, uning g'oyalari va ehtiyojlariga xizmat qildi. Ammo Sh.Rashidovning butun faoliyati shundan dalolat beradiki, u sovet tuzumi va kommunistik mafkura imkoniyat bergan darajada bir umr, eng avvalo, O'zbekiston va o'zbek xalqi manfaatlari uchun kurashdi. Sharof Rashidov davrida O'zbekiston ilm-fani, adabiyoti, san'ati, xullas, milliy madaniyati o'zining eng yuksak namunalari bilan jahon madaniyatini boyitdi. O'zbekiston shahar va qishloqlarining qiyofasi tubdan o'zgardi. Bu davrda respublika poytaxti Toshkent Sharqning eng go'zal shaharlaridan biriga aylandi. Navoiy, Guliston, Yangiyer, Zarafshon va Uchquduq kabi yangi shaharlar qad ko'tardi. O'zbekistonda zamonaviy sanoatning ko'plab sohalari ham shu davrda shakllandi, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirishda katta yutuqlarga erishildi, xalq farovonligi oshdi.

1983-yil 3-noyabrda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari qilib 53 yoshga kirgan Inomjon Buzrukovich Usmonxo'jayev (1930-2017) saylandi[9]. U 1978-1983-yillarda O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi lavozimida ishlagan edi. I.Usmonxo'jayev 1988-yil yanvar oyiga qadar O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari lavozimida faoliyat ko'rsatdi.

1984-yil 23-iyunda Toshkentda O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining XVI plenumi bo'ldi. Plenum ishida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari I.B.Usmonxo'jayev "Partiya va davlat intizomini, kadrlar bilan ishlashni hozirgi zamon vazifalari darajasiga ko'taraylik" mavzusida ma'ruza qildi[10]. Unda Markazdan yuborilgan KPSS Markaziy Komitetining sekretari YE.K.Ligachyov qatnashdi va nutq so'zladi. Aynan ushbu plenum qarorlari bilan Markaz tomonidan O'zbekistonda boshlangan paxta ishi deb atalgan siyosiy qatag'onlar kuchaydi. Keyinchalik bu jarayon respublikaning o'sha paytdagi sobiq va birinchi rahbarlarini ham chetlab o'tmadi[11].

Xullas, Moskva tashabbusi va ko'rsatmasi bilan tashkil qilingan bu plenumda qabul qilingan hujjatlar dastlab O'zbekiston SSRda, so'ngra butun Sovet Ittifoqida o'zbek xalqini asossiz badnom etish kompaniyasini boshlab berdi. Xususan, Moskvadan maxsus yuborilgan YE.K.Ligachyov o'z nutqida

Kreml ko'rsatmalari izchillik bilan bajarilishini talab qildi.

Shuningdek, O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining XVI plenumi respublikadagi iqtisodiy qiyinchiliklarni faqat partiya, sovet, kasaba uyushmalari, komsomol, ma'muriy va xo'jalik tashkilotlaridagi qat'iyatsizlik, sustkashlik, sotsialistik mulkni talon-taroj qilish, poraxo'rlik, chayqovchilik, ko'zbo'yamachilik, qo'shib yozish kabi holatlar bilan bog'ladi[12]. I.Usmonxo'jayev o'z ma'ruzasida iqtisodiy inqirozning sabab lari hamda ildizi "sotsialistik tuzum" ekanligini anglamasdan, go'yoki u yaqin o'tmishda bu qiyinchiliklardan bexabar bo'lgan hamda o'zini gipnoz qilingan holatda bo'lganini e'tirof etib, "respublikadagi iqtisodiy qiyinchiliklar faqat O'zbekistonga xos bo'lgan xususiyat, bunday vaziyatga ta'sir etishning asosiy yo'li esa kadrlar bilan ishlash, ularning faoliyatidan to'g'ri foydalanish ekanligini, bu masalaga sinfiy yondashish urush yillaridek zarurligini" ta'kidladi[12;52]. Plenumda nutq so'zlagan O'zbekiston Kompartiyasi MK ideologiya sekretari R.Abdullayeva sanoat korxonalari, kolxozlar, sovxozlar, boshqa tashkilotlarning rahbarlik lavozimida ishlayotganlarning yoshi 50 yoshgacha bo'lib, shuningdek, rayon partiya komiteti (raykom) va shahar partiya komiteti (gorkom) sekretarlaridan mavjud 583 sekretarning 488 nafari ham shu yoshda bo'lib, ularning dunyoqarashi tinchlik davrida shakllanganligi, ular bevosita "sinfiy kurashlar maktabini o'tamagan kishilar" ekanligi hamda fashizmga qarshi kurash maktabini ko'rmaganligini ta'kidlab, respublikaning ijtimoiy va iqtisodiy hayotidagi barcha o'pirilishlar mahalliy rahbarlarning aybi bilan yuzaga keldi, degan qat'iy fikrga keldi[12]. Biroq bu noto'g'ri xulosa edi.

XVI plenumdan so'ng go'yoki O'zbekistondagi vaziyatni izga solish maqsadida Markazdan, eng avvalo RSFSR va boshqa respublikalardan oddiy partiya va sovet kadrlari respublikaga yuqori rahbarlik lavozimlarini egallash uchun jo'natildi. Natijada O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti, O'zbekiston SSR Oliy Soveti, O'zbekiston SSR Prokuraturasi, O'zbekiston SSR Ichki ishlar ministrligi kabi respublikadagi muhim oliy boshqaruv organlari Markaz kadrlari qo'liga tushib qoldi. O'zbek xalqi bunday kadrlarni kinoya bilan "desantchilar" deb nomladi. Desantchilar respublikadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat yanada

keskinlashishining asosiy sababchilariga aylana bordilar. "O'zbekiston tergov usullari tajribasi o'tkaziladigan ulkan maydon"ga aylanib qoldi[13].

NATIJA. Xullas, O'zbekiston Kompartiyasining XVI plenumi va unda qabul qilingan qarorlar o'zbek xalqi tarixida mash'um rol o'ynadi.

Bu paytlarda O'zbekistonga Markazdan yuborilgan desantchilar faoliyati kuchaydi. Ular respublika partiya, sovet, hukumat idoralarida, xususan, sud va kuch ishlatish tizimida yuqori lavozimlarni egallashdi. Bundan tashqari Markazdan ataylab yuborilgan Telman Gdlyan va Nikolay Ivanov boshchiligida maxsus tergov guruhining O'zbekistonda qatag'on faoliyati boshlanishi ham aynan shu yillarga to'g'ri keladi. Gdlyan guruhi faqat paxta ishi bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqmasdan, O'zbekistonda, xususan, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand, Namangan, Surxondaryo, Xorazm oblastlarida gunohsiz kishilarni ham qamoqqa olish va qiynash, ularga tan jarohati yetkazish va o'limga hukm qilish bilan tahdid qildi[14].

O'zbekistonda aholi salomatligi muammolari, xususan, yosh bolalar o'limi bu paytda ortib bordi. Buni rasmiy ma'lumotlar ham tasdiqlaydi.

Bu davrda ham hayot bir joyda to'xtab qolmadi. Respublika ma'muriy va hududiy bo'linishida ham ayrim o'zgarishlar yuz berdi. 1982-yil 20-aprelda O'zbekiston SSR tarkibida Navoiy oblasti tashkil qilindi. O'zbekistondagi eng kenja viloyat Buxoro oblasti va qisman Samarqand oblasti hududlarining bir qismidan tuzildi[15]. (1988-1991 yillarda Navoiy oblasti ma'muriy birlik sifatida asossiz tarzda tugatilgach, u 1992-yil 5-fevralda qayta tashkil qilindi).

1982-yilda Xorazm oblasti Hazorasp tumanidagi Drujba (hozirgi Pitnak) shahri yaqinida Amudaryo atrofida Tuyamo'yin GES qurildi. 1983-yil sentabrda O'zbekiston poytaxti Toshkent shahrining 2000 yilligi keng nishonlandi va rus tilida "Tashkent" ensiklopediyasi nashr etildi.

Shu bilan birga 1982-1985-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida ma'lum jonlanishlar kuzatildi. 1984-yil yanvarda Sirdaryo GRES bilan Toshkent shahri o'rtasidagi 164 kilometrli yangi gaz magistrali ishga tushirildi. Xullas, Sho'rtan gazi (Qashqadaryo oblasti G'uzor tumani hududida topilgan yirik gaz koni) Toshkent shahriga yetib keldi. 1984-yil 19-fevralda Gazo'choq (Turkmanistonning Chorjo'y oblasti), Oqqamish (Qoraqalpo-

g'iston ASSR) yangi temir yo'l tarmog'i ishga tushdi va poyezdlar to'g'on orqali o'tishni boshladi. Keyinchalik yangi tarmoq To'rtko'l yaqinida qurilayotgan temir yo'l stansiyasiga qadar qadar uzaytirildi. 1984-yili Toshkent metropoliteni ikkinchi yo'lining 1-liniyasi (5 ta bekat) foydalanishga topshirildi. Shu yili yana Qashqadaryo oblastining Bahoriston tumanida Ko'kdumaloq neft-gaz kondensat koni ishga tushirildi.

O'zbekiston SSRning yangi rahbariyati bu yillarda respublika aholisi, xususan, ziyolilar va xo'jalik xodimlari bilan jonli muloqotga kirishishga ham harakat qilgan. 1984-yil 1-martda, o'n birinchi chaqiriq SSSR Oliy Sovetiga saylovlarga 3 kun qolganda, O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi sekretari I.B.Usmonxo'jayev O'zbekiston ijodkor ziyolilarining namoyandalari bilan uchrashdi. Bu uchrashuvda o'zbek ijodkorlari oldida turgan muhim vazifalar haqida gaplashib olindi[16].

1985-yil 2-martda Toshkentdagi V.I. Lenin nomli SSSR Xalqlari do'stligi (hozirgi Xalqlar do'stligi) saroyida O'zbekiston paxtakorlari, g'allakorlari, chorvadorlari va qishloq xo'jaligi boshqa tarmoqlari xodimlarining an'anaviy kengashi (qurultoyi) o'tkazildi. Unda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari I.B.Usmonxo'jayev ma'ruza qildi. O'sha paytda respublika birinchi rahbari bevosita jonli o'zbek tilida qurultoy qatnashchilari bilan muloqot qilishi, bu holat O'zbekiston televideniyesi orqali xalqqa namoyish qilinishi O'zbekiston aholisi, xususan, o'zbek xalqi o'rtasida katta jonlanishga sabab bo'ldi. Chunki bundan oldingi turli katta majlislarda nafaqat respublika rahbari, barcha majlis qatnashchilari rus tilida gapirardi. O'zbek tili esa O'zbekistonda ikkinchi darajali tilga aylanib, u asosan, oilada yoki bozorda ishlatilgan, xoloc.

XULOSA. 1982-1985-yillarda Markazda siyosiy qarama-qarshiliklarning kuchayishi O'zbekistonga ham o'z salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Respublikadagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat bu yillarda tobora keskinlashdi. Aholining turmush darajasi yomonlasha bordi. Inflyatsiya darajasi osha bordi. Xalqning davlat siyosati va rahbar kadrlarga nisbatan ishonchi yo'qola bordi. Yashirin iqtisod kuchaydi. Mamlakatda, shu jumladan O'zbekistonda ham milliy siyosiy g'oyalar shakllana boshladi. Bu asta-sekinlik bilan qulay siyosiy vaziyatda o'zini namoyon qilishga xalqning faol

vakillari tomonidan amalga oshirishga harakatlar yuzaga keldi. O'zbek xalqi boshiga sovet rejimi yuborgan qatag'onlarning yangi to'liqini bunday vaziyatning yanada keskinlashishiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bu haqda qarang: O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Ikkita kitob. Ikkinchi kitob. 1939-1991-yillar. Mas'ul muharrirlar: R.Abdullayev, M.Ralimov, Q.Rajabov Toshkent: O'zbekiston, 2019.-B.134-146.
2. Пихоя Р.Г. Советский Союз: история власти. 1945-1991 2-издание. Новосибирск: Сибирский хронограф, 2000. -С 375-376.
3. Sovet O'zbekistoni(Toshkent),1982-y,23-noyabr.
4. Sovet O'zbekistoni, 1984-yil 14-fevral.
5. Пихоя Р.Г. Советский Союз: история власти. 1945-1991.-с. 399.
6. Bahriyev K. Oy borib, omon qaytmagan bolam // O'zbekiston adabiyoti va san'ati (Toshkent). 1990-yil, Fitna san'ati. I kitob. To'plab, nashrga tayyorlovchilar: A.Meliboyev, S.Ahmad. Toshkent: Fal, 1992. - B.226.
7. Alimov I., Rajabov Q. O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy inqirozning kuchayishi va iqtisodiy turg'unlik (1971-1985-yillar) // O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12-jild. O'zbekiston Respublikasi. Toshkent: O'zME nashriyoti, 2006.- B.
8. Qarang: Раззаков Ф. Коррупция в Политбюро. Дело "красного узбека". Москва: Алгоритм-Ексмо, 2009. - С. 454-455.
9. Sovet O'zbekistoni, 1983-yil 4-noyabr.
10. Sovet O'zbekistoni, 1984-yil 25-iyun.
11. Rajabov Q., Qandov B., Shoymardonov I. O'zbekiston tarixining muhim sanalari (Eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha). 5-nashr. Toshkent: O'zbekiston, 2012.- B. 236.
12. Q.Rajabov., H.Abuyev. O'zbekiston SSRda sovet davlatining yemirilishi hamda qayta qurish siyosatining tanazzuli (1985-1991 y.) // - Toshkent: Fan nashriyoti davlat korxonasi, 2022.
13. Qarang: Xalq haqiqatni bilmog'i zarur // Qishloq haqiqati, 1990-yil 30-yanvar: Toshkent haqiqati, 1990-yil 3-fevral.
14. Qarang: Razzoqov F. Sharof Rashidov: hayot va mamot. Toshkent: O'zbekiston, 2020. - B.452-470.
15. Sovet O'zbekistoni, 1982-yil 22-aprel.
16. Rajabov Q., Qandov B., Rajabova S. O'zbekiston tarixining muhim sanalari. 6-nashr. B. 242-243.

ABULG'OZI BAHODIRXON TARIXIY ASARLARINING LINGVISTIK TADQIQI

Eshmurodov Madamin, Urganch innovatsion universiteti rektori, filologiya fanlari doktori, docent

LINGUISTIC STUDY OF THE HISTORICAL WORKS OF ABULGAZI BAHADUR KHAN

Eshmurodov Madamin, Rector of Urgench Innovation University, Doctor of Philology, Associate Professor

ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ТРУДОВ АБУЛГАЗИ БАХАДУР-ХАНА

Eshmurodov Madamin, ректор Ургенчского инновационного университета, доктор филологических наук, доцент



<https://orcid.org/0009-0008-6972-5217>

e-mail:

IshmuratovMadamin@urgiu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abulg'ozni Bahodirxon tarixiy asarlari lingvistik jihatdan tadqiq qilinadi. Asarlarda keltirilgan davlatchilikka oid terminlar, o'zlashma so'zlar filologik tarzda tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: tarix, Xorazm, Sankt Peterburg, xonlik, turkiy til, lingvistika, xonlik, davlat boshqaruvi, tarixnavislik, leksika.

Abstract: This article examines the historical works of Abulgazi Bahadur Khan from a linguistic perspective. Terms related to statehood, as well as borrowed vocabulary found in his works, are analysed.

Keywords: history, Khorezm, Saint Petersburg, khanate, Turkic language, linguistics, khanate, public administration, historiography, vocabulary.

Аннотация: В данной статье исторические произведения Абулгази Бахадур-хана рассматриваются с лингвистической точки зрения. Анализируются термины, связанные с государственностью, а также заимствованная лексика, встречающаяся в его трудах.

Ключевые слова: история, Хорезм, Санкт-Петербург, ханство, тюркский язык, лингвистика, ханство, государственное управление, историография, лексика.

KIRISH. Abulg'ozni Bahodirxon (1603-1664) Xorazm tarixida muhim o'rin tutuvchi xonlardan birisidir. Ayni xon zamonidan boshlab davlat hujjatlari turkiy tilga o'tkazila boshlandi. Uning Xorazm tarixiga oid "Shajarayi tarokima" va "Shajarayi turk" asarlari nafaqat o'zining tarixiy qimmatini, balki lingvistik, etnografik, badiiy, mifologik qimmatini bilan ham alohida ajralib turadi. Abulg'ozni Bahodirxonning tabobatga oid asar ham yozganligi ma'lum. Ushbu asar ham til, tibbiyot, adabiyot nuqtayi nazaridan tadqiq qilinishi ijodkor haqidagi yangi va fan uchun muhim ma'lumotlarni taqdim qilishi shubhasiz.

Abulg'ozni Bahodirxonning "Shajarayi tarokima" va "Shajarayi turk" asarlarini bugungi kungacha

Sharq mamlakatlari bir necha tillarga tarjima qilib bir necha bor nashrlarini amalga oshirdilar. Ushbu asarlar ustida bir qancha ilmiy ishlar olib borildi. Tarixiy voqealar bayoni, adabiy-badiiy qimmatini o'z bahosini topdi. Xorazm turkiy tarixnavisligida dastlabki manba sifatida e'tirof etib kelindi. Biz quyida ushbu ikki asarning eski o'zbek tili leksikasini o'rganishdagi o'rni va ahamiyati, undagi davlatchilikka oid terminlar, ayrim o'zlashma so'zlarning davr davlatchilik terminologiyasidagi funksiyalari masalalarini yoritishga harakat qildik.

ADABIYOTLAR TAHLILI. "Shajarayi turk" va "Shajarayi tarokima" asarlari turkman, tojik, o'zbek, mo'g'ul xalqlari tarixini yoritishda tayanch manbalardandir. B.Ahmedov, Q.Munirov,

K.Yusupov, Y.G‘ulomov, M.Yo‘ldoshev kabi olimlar Abulg‘ozi ma‘lumotlaridan keng foydalanishgan. A.N.Kononov, A.M.Shcherbak, S.I.Ivanov kabi tilshunos olimlar Abulg‘ozi asarlariga suyanishgan. O.Sharafiddinov, M.Yunusov, V.Abdullayevlar adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etishgan.

METODOLOGIK ASOSLAR.

“Shajarayi tarokima” (1658-1661-yillar orasida yozilgan deb taxmin qilinadi) turkiy qabilalarning, xususan, turkman qabilalarining kelib chiqishi haqida qimmatli ma‘lumot beradi. Asarda barcha turklarning afsonaviy podshosi O‘g‘uzxon va uning avlodi tarixi, shuningdek, turkman urug‘lari (solur, bayondur, taka, yovmut, tevachi, Xizr eli, sariq, Ali eli, yozir, ersori va boshqalar)ning kelib chiqishi qisqa tarzda bayon etilgan.

MUHOKAMA. “Shajarayi tarokima”, Abulg‘ozixonning o‘z so‘zlariga qaraganda, turkman mullalari, shayxlari va beklariniig iltimosi bilan yozilgan. Ushbu asarning tanqidiy matni, ruscha tarjimasi, katta ilmiy tadqiqot bilan birga, 1958-yili A.N.Kononov (1906-1986) tarafidan Sankt-Peterburgda chop etilgan”[1].

Mazkur asarning bizga dunyo xazinalarida yettita nusxasi ma‘lum. Ulardan ikkitasi Rossiyada va qolgan beshta nusxasi Toshkentdagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHIda saqlanadi. Ular turli vaqtlarda ko‘chirilgan bo‘lib, faqat ikkitasida kotiblarning nomi yozilgan. Bulardan biri Mirzo Amon ibn Ison Xuzoriy bo‘lib, nusxani rajab oyi 1341-yili / 17-fevral – 19-mart 1923-yili Buxoroda ko‘chirgan (nusxa raqami 1223). Ikkinchi kotib Muhammadsharifxo‘ja Muhammad o‘g‘li Mullo Boqijon Rahmon o‘g‘li iltimosi bilan rabi’ ul-avval 1344/19-sentyabr – 19-oktyabr 1925-yili ko‘chirgani ma‘lum bo‘ladi (№ 1807).

Abulg‘ozixonning ikkinchi asari “Shajarayi turk” nomi bilan mashhur. Mazkur asarning asosiy qismi 1663-1664-yillarda yozilgan. Unda Xorazm XVI-XVII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon etiladi.

XIX-XX asrlarda “Shajarayi turk”ning ko‘plab tanqidiy tarjimalari nashr etilgan bo‘lib, zamonaviy olimlar uchun tarixiy manba bo‘lib xizmat qilgan. Professional olimlar tomonidan amalga oshirilgan birinchi tanqidiy tarjima 1825-yilda Qozonda nashr etilgan. Qozonda nashr etilgan matnning turkcha tarjimasi filolog Ahmad Vefik

Posho tomonidan amalga oshirilgan va dastlab 1864-yilda nashr etilgan.

Nikita Bichurin birinchi bo‘lib turk xalqining epik ajdodi O‘g‘uz-kogonning tarjimai holi bilan ajoyib o‘xshashlik borligini payqadi. Xitoy manbalarida bu modundir (ota va o‘g‘il o‘rtasidagi nizo va birinchisining o‘ldirilishi, istilolarning yo‘nalishi va ketma-ketligi va boshqalar). Boshqa olimlar tomonidan tasdiqlangan bu kuzatish ilmiy adabiyotlarda Modun nomini O‘g‘uz-kogonning epik shaxsi bilan bog‘laydi. O‘xshashlik yanada hayratlanarli, chunki u yozilgan vaqtda Sharq yoki G‘arb tillariga tarjima qilingan Xitoy yilnomalari yo‘q edi, Abulg‘oziy esa Sharqiy Xunlar yoki Modunlarni bilmagan bo‘lishi mumkin edi.

“Shajarayi turk”ning yozilish sabablari haqida muallifning o‘zi bunday deydi: “Ammo bizning ota-oqalarimizning beparvolig‘i va Xorazm xalqining bevuqufliqi, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizning Abdullohxonning (shayboniy Abdullaxon II; 1583-1598-yillari Buxoro xoni) otalari (Abulxayrxon; 1528-1568-yillar) birlan bizning otalarimizning (shayboniy Yodgorxon; XV asr) ayrilgan yeridin to bizga kelguncha tarixlarini bitmay erdilar. Bu tarixni bir kishiga taklif qilali deb fikr qilduq, hech munosib kishi topmaduq, zarur bo‘ldi (va) ul sababdin o‘zimiz aytduq”[2].

Ushbu ma‘lumotlardan xulosa qilib biz har ikki asar ham XVII asrda yaratilganligini va shu davr eski o‘zbek tilining o‘ziga xosligini namoyon qiluvchi eng muhim manba ekanligini ta’kidlashimiz joiz.

Har ikki asar lingvistik tadqiqini amalga oshirish jarayonida quyidagi masalalarga alohida urg‘u bermoq lozim:

“Asar leksikasida o‘zlashmalar qatlami, uning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘zlashmalarning asar badiiyatidagi o‘rni va ahamiyati, o‘zlashmalar ko‘lami, tarkibiy tahlili, qaysi til lug‘at qatlamiga mansub ekanligi. Ushbu tahlillardan o‘zbek tili tarixiga oid quyidagi muhim ilmiy xulosalarga kelishimiz mumkin: eng avvalo, “Shajarai turk” va “Shajarai tarokima” asarlarida arabiy va forsiy qatlamga oid til birliklarining ko‘lami aniqlashadi, o‘zlashmalarning har ikki asar leksikasidagi o‘ziga xos xususiyatlariga oid muhim ilmiy faktlar to‘planadi, chunonchi, o‘zlashmaning tarixiy asar badiiyatidagi o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Bu borada, ayniqsa o‘zlashma so‘zlarning badiiy-

tasviriy vositalar – nasriy matnda she'riy san'atlar yuzaga kelishidagi o'rni va bu orqali asarning estetik ta'siridagi vazifasi ochib beriladi"[3].

O'zlashmaning asar leksikasida qo'llanish sabablari yoritiladi. Bu orqali Abulg'oz Bahodirxonning Sharq mumtoz tarixnavisligi an'analariga amal qilish prinsiplari oydinlashadi. Arabiy yoki forsiy qatlamga oid birliklarning genetik tahlili orqali ijodkorning so'z qo'llash mahorati va tilshunos sifatidagi qiyofasi, o'zlashma qatlamga munosabati aniqlashadi.

Ikkinchi navbatda, har ikki asar leksikasiga oid birliklarning asar badiiy-estetik ta'sirini oshirishdagi o'rni va ahamiyati yoritilishi zarur. Bu orqali tilshinoslik uchun quyidagi muhim ilmiy xulosalarga kelish mumkin. Abulg'ozixonning so'z qo'llash mahorati, nozik ma'no qirralari orqali muhim ilmiy ma'lumotni yetkazish qudrati, omonim, sinonim, antonim, polisemantik so'zlarning asar lingvopoetikasida bajargan funksiyalarining keng tahlil qilinishi tufayli lingvopoetika va lingvoestetikaga oid muhim faktlarni qo'lga kiritish mumkin. Biz Sharq mumtoz adabiyotiga mansub she'riy va nasriy asarlarning lingvopoetikasini tahlil qilish bilan birga, Sharq mumtoz tarixnavisligiga oid manbalarni ham lingvopoetik va lingvoestetik nuqtayi nazardan tadqiq qilishimiz zarur. Bu umumiy xulosalar chiqarishimizga sabab bo'ladi. Chunki davr tarixnavisligiga oid manbalar ko'p hollarda adabiy ijodkorlar tomonidan yaratilgan yoki tarixnavis tomonidan yaratilsa-da, asarning badiiyatiga juda kuchli urg'u berilgan hamda she'riy parchalar bilan bezatilgan. Bu jihat ushbu asarlarni bemalol lingvistik, lingvopoetik, lingvoestetik tomondan tahlil qilish mumkinligini ko'rsatadi.

Uchinchi navbatda, har ikki asar leksikasidagi turkiy qatlamga oid birliklarning o'ziga xosliklarini aniqlash, turkiy qatlam ko'lamini belgilash, ularning asar badiiy, ilmiy maqsadini belgilashdagi o'rni, g'oyasini ochib berishdagi ahamiyati, turkiy qatlam birliklarining genetik tahlili, qadimgi va eski turkiy til leksikasi bilan bog'liqligi, morfologik va sintaktik tomonlari, fonetik jihatlari, davr eski o'zbek adabiy tilidagi funksiyalari, o'rni va ahamiyati, ma'no ko'lamini, hozirgi o'zbek adabiy tiliga nisbatan tahlil va talqinlari, ma'no kengayishi va ma'no torayishi, fonetik qobig'i kabi taraqqiyot masalalari yoritilishi zarur. Mazkur tahlillar til taraqqiyotiga oid nazariyalarni aniqlashtirishga,

turkiy til birliklarining ma'no taraqqiyotiga oid xulosalarni yoritishga, qadimgi va eski turkiy til hamda eski o'zbek adabiy tili va hozirgi o'zbek adabiy tili birliklarining munosabatlari, mavjudlik va iste'moldan chiqish sababi hamda omillari, qonuniyatlarini oydinlashtirishga sabab bo'ladi.

To'rtinchidan, bevosita mavzu bilan aloqador holatda o'z va o'zlashma qatlam birliklaridan davlatchilikka oid terminlarni ajratish, ularning mavzuiy guruhlarini belgilash, genetik tahlillarini amalga oshirish, asar leksikasida tutgan o'rni va funksiyalarini belgilash, terminlarning qaysi lug'aviy qatlamga mansubligini aniqlash, ular anglatgan tushunchalarning davr ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni belgilash, qisqa izohli lug'atini tuzish. Bu tahlillar tarix, etnografiya, siyosatshunoslik, tilshunoslik, lug'atshunoslik, madaniyatshunoslik fanlarining tegishli tarmoqlari rivojida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy ma'lumotlarni taqdim etishi shubhasiz.

Beshinchidan, har ikki tarixiy asar leksikasiga oid birliklarni mavzuiy-semantik guruhlariga ajratish; bu orqali "Shajarai turk" va "Shajarai tarokima" asarlari leksikasiga oid birliklarning har bir guruhiga mansub so'zlar ko'lamini aniqlashadi, izohli yoki statistik lug'atini tuzish imkoni yaratiladi, davr tarixi, madaniyati, etnografiyasi, ijtimoiy-siyosiy hayoti va boshqa sohalarga oid muhim ma'lumotlar jamlanadi.

Oltinchidan, asarda keltirilgan toponimlar, etnonim, antroponim, gidronim va boshqa onomasiologik birliklarga berilgan muhim lingvistik izohlarni mukammal o'rganish. Bu orqali biz leksikologiyaning muhim tarmog'i hisoblanmish etimologiyaga mansub muhim ilmiy faktlarni qo'lga kiritishimiz mumkin. Shuningdek, asarda ayrim so'zlarga berilgan bugungi kunda ham ilmiy etimologiya deb qaralib kelinayotgan izohlarga ilmiy-tanqidiy yondashuv zarur. Bu orqali biz so'zning chin ma'nodagi ilmiy faktlar bilan isbotlangan etimologiyasiga yetib borishimiz mumkin. Aks holda xalqona etimologiya bilan ilmiy etimologiya qorishib ketishi ehtimoli mavjud.

Ushbu keltirilgan lingvistik tadqiqot yo'nalishlari hali biz ushbu o'rinda sanab o'tganlarimiz. Agar har ikki tarixiy asarning mukammal lingvistik tadqiqi amalga oshirilsa, aminimizki, boshqa ko'pgina yo'nalishlarda muhim yangiliklarni qo'lga kiritish mumkin. Qolaversa, sanab o'tilgan ushbu tadqiqot yo'nalishlarini

Xorazm tarixnavisligiga oid barcha asarlarga tatbiq qilish mumkin. Shuningdek, mumtoz adabiyotimizga mansub har qanday asar ushbu yoʻnalishlarda tahlil qilinsa, oʻzbek tili tarixiga doir qimmatli maʼlumotlar jamlanishi, oʻzbek tili tarixiga oid yaratiladigan izohli lugʻatlar mukammal koʻrinish olishi shubhasiz.

Quyida keltirilgan yoʻnalishlar doirasida Abulgʻozi Bahodirxonning “Shajarai turk” va “Shajarai tarokima” asarlarini tahlil qilib koʻramiz.

Har ikki asarni oʻqish jarayonida amin boʻlamizki, muarrix imkoni boricha turkiy til imkoniyatlaridan foydalanishga, uning maʼno jilolarini namoyon qilishiga intilgan: “Toʻyga kelgan ulugʻ va kichik barcha oʻgʻlonning bu soʻziga tong qoldilar. Taqi aytdilar, bu oʻgʻlonning oʻzi otini aytatur, mundin yaxshi ot boʻlurmu teb, otini Oʻgʻuz qoʻydilar. Taqi aytdilarkim, bir yashar oʻgʻlonning mundoq soʻzlaganini hech zamonda hech kim eshitgan va koʻrgan yoʻq turur teb, ani irim etib aytdilar kim bu uzoq umrli va ulugʻ davlatli va uchi uzagʻan va yoni yoyilgʻan boʻlgʻusi turur, tedilar”[4].

Parchadan maʼlum boʻladiki, asar leksikasi-da turkiy soʻzlar asosiy ahamiyat kasb etadi. Parchada faqat bir-ikki oʻrindagina arabiy va forsiy oʻzlashma uchraydi, xolos.

Ammo har ikki asar tilida arabiy va forsiy oʻzlashmalar ham salmoqli oʻrin tutishini nazardan chetda qoldirmaslik zarur. Sharq tarixnavislik anʼanalariga koʻra tarixiy asarlar hamd va naʼt bilan boshlanishi zarurligi barchamizga maʼlum. Asarning ayni shu qismida, shuningdek, xon, maʼlum amal yoki unvon egasiga maqtov, taʼrif qismlarida ham arabiy, forsiy oʻzlashmalar koʻp qoʻllanishi haqida ilmiy tadqiqotlarda alohida taʼkidlar mavjud.

Xususan, asarda oʻqiyimiz: “Bu faqirga, Xudoy taolo inoyat qilib koʻp nimarsa bergan turur. Xususan, uch hunar bergan turur. Avval, sipohigarlikniig qonuni va yoʻsunikim nechuk otlanmoq va yurumak va yovgʻa yosoq yasamoq, koʻp birlan yuruganda nechuk qilmoq, oz birlan yuruganda nechuk qilmoq, doʻstgʻa dushmangʻa nechuk soʻzlashmaq. Ikkinchi, masnaviyyot va qasoid va gʻazaliyot va muqattaʻot va ruboiyot va barcha ashʻorni fahmlamaklik, arabiy va forsiy va turkiy lugʻatlarning maʼnosini bilmaklik. Uchinchi, Odam ahdindin to bu damgʻacha Arabistonda, Eron va Turonda va Moʻgʻulistonda oʻtgan podshohlarning otlari va umrlarining va

saltanatlarining kam yoki ziyodin bilmaklik”. Parchadagi faqir, Xudoy taolo, hunar, doʻst, dushman, masnaviyyot, qasoid, gʻazaliyot, muqattaʻot, ruboiyot, ashʻor, Odam, ahd, podshoh, umr, saltanat, kam, ziyod oʻzlashmalarini sanaydigan boʻlsak, asarda ushbu ikki til orqali turkiy tilga kirib kelgan soʻzlarning ham ahamiyati va salmogʻi katta ekanligini anglashiladi. Albatta, ushbu oʻzlashmalar asar matnida maʼlum funksiyalarni bajarishga xoslantirilgan. Parchada ular, matnning estetik taʼsirini oshirish bilan birgalikda tazod: faqir – Xudoy taolo, doʻst – dushman, kam – ziyod; tanosub: masnaviyyot, qasoid, gʻazaliyot, muqattaʻot, ruboiyot, ashʻor; podshoh, saltanat kabi tasviriy vositalar yuzaga kelishiga xizmat qildirilmoqda.

Asar leksikasiga oid soʻzlarning mavzuiy-semantik guruhlarini ajratish davr etnografiyasiga oid muhim maʼlumotlarni jamlash imkonini taqdim qiladi. Chunonchi, quyidagi parchaga eʼtibor qarataylik: “(Arab Muhammad) xon boʻlgandin (1602-yili) olti oydin soʻng Qoʻsh yoyiq tegandi yurugan oʻrusning qozoqindin ming kishi saratonning avvalgi kuni gʻofil kelib, Urganchning qalʼasina kirdi. Shaharda raʼiyatdin oʻzga kishi yoʻq edi. Xonning oʻrdusi va sipoh xalqi Amu suvining labinda erdilar... (Urus qozoqi) Urganchda raʼiyatdin ming kishini oʻlturdi va ming qiz birlan juvonn oldi. Ming arabagʻa yaxshi mollardin yukladi. Boʻz va buyogʻli va palos va toʻn va toʻshak-yastuq mundagʻ nimarsalarning barchasini oʻtga yoqdi. Bularni saranjom qilguncha yetti kun boʻldi. Andin soʻng Urganchdin chiqib daryo labiga yurudu...”

Keltirilgan parchadagi soʻzlarni mavzuiy-semantik guruhlariga ajratsak: davlatchilik terminlari: xon, qalʼa, shahar, raʼiyat, oʻrdu, sipoh, xalq; maishiy leksika: mol, araba, boʻz, boʻyogʻli (rangli matolar), palos, toʻn, toʻshak, yastuq; etnonimlar: oʻrus, qozoq; toponimlar: Qoʻsh yoyiq, Urganch; gidronimlar: Amu, suv, daryo va boshqalar. Ushbu guruhlariga mansub har birlikning oʻziga xos qoʻllanish sabablari, matnda bajargan funksiyasi, soʻzning qaysi lugʻat qatlamiga mansubligi, kelib chiqish tarixi (etimologiyasi), fonetik, morfologik, semantik taraqqiyoti – mazkur masalalarga oydinlik kiritish bizning tadqiqotlarimizning asosiy maqsadidir.

NATIJALAR. Asarda keltirilgan etnografiya va tilshunoslikning tutashgan nuqtasi

bo'lmish etnonimlar, ularning kelib chiqish tarixi, nomlanish sabablari (biz bugun nominatsiya prinsipi, nomlash tamoyili deya tahlil qilyayotgan masalalarimizga Zahiriddin Muhammad Bobur, Abulg'oz Bahodirxon, Ogahiy kabi tarixiy, tarixiy-badiiy yoki memuar asar yaratgan ajdodlarimiz o'z davridayoq chuqur ilmiy xulosalar vositasida aniq faktlarni bizga qoldirganlari tahsinga sazovordir), alohida keltirib o'tadi, ya'ni turk-mo'g'ul qabilalari, xususan, ular nomlarining ma'nosi haqidagi ma'lumotlar, o'zbeklar, sartlar hamda turkman urug'lari (sariq, yovmut, qizil ayoq, ersari kabi) haqidagi ma'lumotlar ham tilshunoslik uchun o'ta muhimdir. Jumladan, u turkiy qabilalarga kiruvchi va turk nomi bilan ataluvchi qabilalar quyidagi katta 5 avlod (bo'g'in)ni tashkil qiladi degan.

“Bular: uyg'ur, qang'li/qangli, qipchoq, qalach, qarluq qabilalari. So'ngra u boshqa turkiy qabila va urug'lar haqida to'xtab o'tadi: 1. Tekrin yoki mekrin. 2. Qirg'izlar. 3. Kem-kemchutlar. 4. O'rmonkat. 5. Nukuzlar. 6. Tatarlar. 7. Oyrat/uyrat. 8. To'rg'ovut. 9. Qo'ri. 10. To'las. 11. Bulg'ochin. 12. Kermuchin. 13. Tulengut. 14. O'rasut. 15. Kusutmay. 16. Nayman. 17. Kerayit. 18. O'ngut. 19. Turg'oq. Ajoyibi shundaki, Abulg'oziy bu etnonimlarning ba'zilarini etimologiyasi bilan beradi[5].

Xususan, Abulg'oz Bahodirxon o'z kitobida mo'g'ullarni ikki katta bo'lakka bo'ladi. Biri qiyon/qiyot (nirun), ikkinchisi nuguz/nukuz (darlikin). Bulardan tashqari, mo'g'ullarning 25 ta urug' va qabilalarini tilga oladiki, ulardan barisi o'zbek xalqining etnik tarkibiga kirgan. “Asl lafzi mo'g'ul *mo'gul* turur. Avomning tili kelmaslikidin borabora *mo'gul* tedilar. Mungning ma'nosin barcha turk bilurlar: qayg'u ma'nosina turur. Ulning ma'nosi sodadil, ya'ni qayg'uli soda temak bo'lur”; “Qipchoq – Tan (Don) va Itil (Volga) va Yoyiq (Ural), bu aytilg'an suvlarning orasinda o'lturlar”; “Qiniqli turkman birlan birga o'lturur erdilar. Turkman viloyatg'a tushgandin so'ng Issiqko'l va Chu va Talosh; bu aytilg'an suvlarning yoqalarinda vatan qilib, ko'p yillar o'lturdilar, Urganch podshohlarindin Tekashxon (1172-1200-yillari hukmronlik qilgan) qiniqlining bir o'g'lining qizin oldi. Turkan otliq. Sulton Muhammad Xorazmshoh (1200-1220-yillari hukm surgan) ul qizdin tug'di”. So'nggi misol: “To'qtog'uxon (1290-1312-yillari hukmronlik qilgan Oltin O'rda xoni), o'lgandin so'ng o'n uch yoshinda O'zbekxon (1312-1342) xon bo'ldi. Taqi elni ota-bobosining dasturi birlan

zabt qildi. Har kimning martabasini loyiq hurmat qilib, in'omlar berdi. El-ulusni dini islomg'a kirguzdi... Andin so'ng Jo'ji elini o'zbek eli tedilar”.

Undan tashqari asarda keltirilgan etnonimlardan boshqa orlot/arlat, og'or, olayunotli, o'qli, aymoq, boshqird, bayot, tot, totar, temirli, turumchi, turk, turkman, taka, turbotli, tevachi, jobi, jomachi, cho'bichoq, cho'boni, chig'atoy, cho'ni, xizir eli, xurosonli, xalaj, dukar, soiq, solur, surxi/surqi, soqar, saljuq, sultonli, savroqi, sovchili, qo'rg'oli, qo'rqin, qorliq, qipchoq, qoratoshli, qalmoq, qirg'iz, chiroyli, qutlar, lola, mo'g'ul, mang'it, nayman, mo'ndi, yozir, yag'mo, yovmut, yurti kabi o'nlab etnonimlar uchraydiki, ular ustida ham tadqiqot olib borish xalqimiz tarixi, o'zbek tili tarixiga oid muhim ilmiy xulosalar chiqarishimizga sabab bo'lishi shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm tarixnavisligi maktabining asoschisi tom ma'noda Abulg'oziy Bahodirxon hisoblanadi. Uning asarlarida dasht og'zaki istoriografiyasidan keng foydalanilgan. Shu bilan birga, Abulg'oziy o'z asarlarida fors istoriografiyasi va umuman, Sharq tarixnavisligi an'alaridan unumli foydalana olgan. U Xorazm vohasida turkiy (chag'atoy) tilida islom istoriografiyasi doirasida turkiy xalqlarning paydo bo'lishi, ularning islomlashuvi jarayonlari va zamonasida dolzarb ahamiyat kasb etgan ko'p mavzu va muammolarga ahamiyat bergan. Uning har ikki tarixiy asarlari tili, lug'at tarkibi, o'z va o'zlashma qatlam, so'zlarning mavzuiy-semantik guruhlari va ularga oid birliklarni ajratish, so'zlarning qaysi lug'at qatlamiga oid ekanligini belgilash, genetik hamda komponent tahlillarini amalga oshirish o'zbek tili tarixi, xalqimiz tarixi, madaniyati va boshqa sohalar rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Кононов А.Н. Родословная туркмен (текст, перевод, комментарии и исследование). М. 1958
2. Абулғозий. Шажарайи турк. Нашрга тайёрловчилар Қ.Муниров, Т. Чўлпон., “Чўлпон” нашриёти, 1992 й.
3. М. Eshmurodov. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlatchilik terminologiyasi. Monografiya. Xorazm: Ogahiy nashriyoti. 2024. 20-bet.
4. Абулғозий. Шажарайи турк. Нашрга тайёрловчилар Қ.Муниров, Т. Чўлпон нашриёти, 1992 й. 18-б.
5. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. -Тошкент.: Фан, 1968. – Б. 32.

XORAZM SHEVALARI LEKSIKASI VA "AVESTO"

Norbayeva Shukurjon Xayitbayevna, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti professori v.b., filologiya fanlari doktori (DSc)

LEXICON OF KHOREZM DIALECTS AND "AVESTO"

Norbayeva Shukurjon Khayitbayevna, acting professor, (DSc), Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

ЛЕКСИКОН ХОРЕЗМСКИХ ДИАЛЕКТОВ И "АВЕСТА"

Норбаева Шукуржон Хаитбаевна, и.о. профессора Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни, доктор филологических наук (DSc)



<https://orcid.org/0000-0002-0629-1107>

e-mail:
norbayeva1975@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazm shevalari leksikasi tarkibida uchraydigan avestoviy soʻzlar tahlil qilingan. Xususan, qadimgi Xorazmda yaratilgan "Avesto" kitobi Oʻrta Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa Sharq xalqlari tarixi, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy hayoti, eng muhimi, tili va yozuvini oʻrganishda tengsiz obidalardan biri hisoblanishi, unda isteʼmolda boʻlgan koʻpgina soʻzlar hozirda bir qancha tillarda, jumladan, Xorazm shevalarida ham keng ishlatilishi keltirilgan misollar orqali batafsil izohlab berilgan.

Kalit soʻzlar: sheva, "Avesto", dialektal leksika, shaxs otlari, tarixiy qatlam, xorazmiy tili.

Annotation: This article analyzes Avestan words found in the lexicon of Khorezm dialects. In particular, the book "Avesto", created in ancient Khorezm, is considered one of the unrivaled monuments in the study of the history, culture, socio-political life, and most importantly, language and writing of the peoples of Central Asia, Iran, Azerbaijan and other Eastern countries. Many words used in it are now widely used in several languages, including Khorezm dialects, and are explained in detail through examples.

Key words: dialect, "Avesta", dialectal lexicon, personal names, historical layer, Khorezmian language.

Аннотация: В статье анализируются авестийские слова, встречающиеся в лексике хорезмских диалектов. В частности, книга "Авеста", созданная в Древнем Хорезме, считается одним из непревзойденных памятников в изучении истории, культуры, общественно-политической жизни и, главное, языка и письменности народов Средней Азии, Ирана, Азербайджана и других стран Востока. Многие использованные в ней слова широко используются в настоящее время во многих языках, в том числе в хорезмских диалектах, и подробно поясняются примерами.

Ключевые слова: диалект, "Авеста", диалектная лексика, личные имена, исторический пласт, хорезмийский язык.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Xorazm shevalari leksikasi shakllanishi uzoq oʻtmishga ega. Eng qadimiy yozma yodgorliklardan sanalgan "Avesto"da ham

mazkur shevaga oid koʻplab lugʻaviy birliklarni uchratamiz.

Xorazmiylarning ilk yozuv manbalaridan biri sanalgan "Avesto" haqida Abu Rayhon Beruniy oʻz fikrlarini bildirgan edi. Beruniy

Xorazmni turli podshohlarning bosib olishi natijasida bu mamlakatda yuz bergan bosqinchiliklar, ularning oqibatlarini to'g'risida so'z yuritar ekan, ularning yerli xalqlar madaniyatini ko'kka sovurganliklarini, jumladan, xorazmiy tilida yozilgan zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"ning Doro ibn Doro xazinasida 12000 mol terisiga zarhal harflar bilan yozilgan bir nusxasi bo'lganligi, Iskandar uni kuydirib yuborishi natijasida beshdan uch qismi butunlay yo'qolib ketganligini achinib yozgan edi. Bundan tashqari, arablarning O'rta Osiyoni bosib olishi natijasida madaniyatimiz durdonalarining yo'qotib yuborilganligini Beruniy achinish bilan shunday ta'riflaydi: "Qutayba ibn Muslim xorazmiy xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimini boshqalarga o'rgatadigan kishilarini halok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi"¹.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Mustaqillik davrida o'zbek olimlari "Avesto" tadqiqiga jiddiy e'tibor bera boshladilar. A.Qayumov², T.Mahmudov³, M.Is'hoqov⁴, A.Asqarov⁵, H.Hamidov⁶, A.Irisov⁷, M.Qodirov⁸ kabi olimlarning ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari shular jumlasidandir. M.Jo'rayevning⁹ ilmiy tadqiqotlari "Avesto" bilan bog'lansa, M.Eshmuradovning ilmiy ishida "Avesto"dagi tabiat kultlari keng tahlil qilinganligi bilan ahamiyatlidir¹⁰.

Shuningdek, avestoviy qatlam masalasi V.I.Abayev¹¹, F.Abdullayev¹², Z.Do'simov¹³, R.Yo'ldoshev¹⁴, A.O'razboyev¹⁵, M.Tillayeva¹⁶ lar tomonidan maxsus tadqiq qilingan. Ammo Xorazm shevalari leksikasi tarkibida mavjud avestoviy so'zlar tahlili yuzasidan monografik tadqiqotlar yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ushbu masalani yoritishda tasniflash, qiyosiy-tarixiy hamda etimologik tahlil usullardan foydalanildi.

¹ Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. –1-том. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. –Тошкент: Фан, 1968. –Б. 72.

² Қаяумов А. Қадимги ёзма ёдгорликлар. – Тошкент, 2000.

³ Махмудов Т. "Авесто" ҳақида // "Гулистон", 1994. – №4. – Б.24-32., Махмудов Т. "Авесто" ҳақида // "Гулистон", 1994. – №5. – Б.40-47.

⁴ Исҳоқов М., Сулайманов Р. Заратуштрининг ватани ва унинг яшаган даврига оид мулоҳазалар // Ўзбекистон тарихи, 1999. – № 1. – Б. 45-54., Исҳоқов М. "Авесто"нинг туркий ўзбекча ўгирмасидан // Фан ва турмуш, 1993. – №3. –Б. 22-23.; Исҳоқов М. Эзгуликка йўлловчи китоб. // Соғлом авлод учун, 1996. – № 5-6. –Б. 42-43.

⁵ Асқаров А.А. Ўрта Осиёнинг энеолит ва бронза даври оташгоҳлари // "Авесто" китоби – тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбаи" мавзусидаги илмий-амалий семинар материаллари, 2000 йил, 6 декабр–Тошкент, 2000. –Б.27-33.

⁶ Ҳамидов Ҳ. "Авесто" файзлари. – Тошкент: Мерос, 2001., Ҳамидов Ҳ. "Авесто"нинг илмий ва адабий қиммати // Ўзбек тили ва адабиёти, 2000. –№ 3. –Б. 7-15., Ҳамидов Ҳ. "Авесто"да таъбаъат. // Соғлом авлод учун, 2000. – № 9-10. –Б. 34-36.

⁷ Ирисов А. "Авесто" китоби // Санъат, 1991. – № 3. – Б.6-7.

⁸ Қодиров М. Томоша санъати ўтмишидан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 1993., Қодиров М. Зардуштийлик ва томоша санъати // Гулистон, 2000. – №4. – Б.36-37.

⁹ Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналари. – Тошкент: Фан, 1995.; Жўраев М. Ўзбек халқ таквими ва мифологик афсоналар. –Бухоро: Бухоро, 1994.

¹⁰ Эшмуродов М. "Авесто" да табиат культлари талқини. – Тошкент, 2002.

¹¹ Абаев В.И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. Том II. –Л.: Наука, 1973.

¹² Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. I қисм. Луғат. II Хоразм шеваларининг таснифи. – Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти, 1961. – 346 б.

¹³ Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985, Дўсимов З. Хоразм топонимияси ва "Авесто" // "Авесто" – буюк қомусий асар. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 13-16.

¹⁴ Йўлдошев Р. "Авесто" ёзуви ва тили // "Авесто" – буюк қомусий асар. – Тошкент, 2001. – Б. 17-19.

¹⁵ Ўрозбоев А. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. – Тошкент: Мухаррир, 2013.

¹⁶ Тиллаева М. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи. ("Авесто" ономастикасига қиёслаш асосида): Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2006.

NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Qadimgi Xorazmda yaratilgan “Avesto” kitobi O’rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa Sharq xalqlari tarixi, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy hayoti, eng muhimi, tili va yozuvini o’rganishda tengsiz obidalardan biri hisoblanadi. Unda iste’molda bo’lgan ko’pgina so’zlar hozirda bir qancha tillarda, jumladan, Xorazm shevalarida ishlatiladi. Bunga misol tariqasida *bratar* (rus tilida *brat*, tojik tilida *birodar*, nemis tilidagi *broder* ham shunday ma’noda), *nav* (rus tilidagi *новый*, ingliz tilidagi ham shu ma’nodagi *new*, shuningdek, *navro* ‘z so’zida), o’zbek tili va uning shevalarida faol ishlatiladigan *band* so’zi, Xorazm shevalarida qo’llaniladigan *yop* so’zi arxetipi sanalgan *ob* so’zi (bu so’z negizida o’zbek tilida bir qancha so’zlar va birikmalar yasalgan), farmon ma’nosini anglatadigan *framan*, oltin ma’nosida *zar* kabi qator so’zlarni keltirish mumkin¹⁷.

Shuningdek, “Avesto”da qo’llangan *garəma*¹⁸ – *issiq, qaynoq* so’zi Xorazm shevalarida ham *garmesl* so’zi tarkibida mavjud va bu so’z issiqlik harorati kuchli ma’nosini ifodalashga xizmat qilgan. O’rta fors tilidagi *garm* – *issiq, qaynoq*, monaviy matnlardagi *grm*¹⁹ – *issiq*, klassik fors tilidagi *garm*²⁰ – *issiq, qaynoq, iliq*, belujiydagi *garm*²¹ – *issiq, iliq*, kurdiy, kurmonjiy va so’rxiydagi *garm*²² – *issiq, qaynoq, qayta tirilgan*, so’g’diyidagi *ym*²³ (*yarm*) – *issiq, qaynoq*, xorazmiy tilidagi *ym* (*ymnd* – so’zi *asosi*) – *issiq, alanga*, xorazmiy tilidagi *cwb yrmncy*²⁴ – *issiq suv* so’z birikmasida, osetin tilidagi *qærm / yar(m)* – *issiq, qærmk*²⁵ – *yonmoq* so’z birikmasida biz ayni tahlil qilinaotgan *garmni* turli ma’nolarda va turli fonetik ko’rinishda uchramiz.

Çokiş// çokiç (cho’kich) - qattiq yerni, muzni kavlash uchun ishlatiladigan uchi o’tkir

po’lat asbob²⁶. Xorazm shevalarida bolg’ma ma’nosida ishlatiladigan *cho’kish* “Avesto” leksikasida ham mavjudligi bilan e’tiborlidir. Faqat unda ma’lum jang quroli ma’nosini kasb etgan. K.Bartolome talqinida *chakush* qiyofasi va qandayligi haqida ma’lumot bo’lmagan qadimiy jang qurollaridan birining nomi. M.Mu’in ma’lumotiga ko’ra, I.Purdovud asarida mazkur so’z o’rniga *tabarzin* so’zi ishlatilgan va ilovada ta’kidlanishicha, “Avesto” matnida *cakushah* (*chakush*) ishlatilgan va ma’lum bo’ladiki, qadimda jang qurollaridan biri bo’lgan. Yangi fors tilida *chakush* so’zining ishlatilishini (garchi hozir jang quroli ma’nosini anglatmasa ham) e’tiborga olib, muallif ushbu tadqiqotda, o’sha asl so’z (*chakush*) o’rniga uning nisbiy tarjimasini bo’lgan *tabarzin* (oybolta)ni ishlatishni ma’qullaydi. Pahlaviy matnlardan “Qubodlar podshohi va uning mahrami”da ham bu so’z ishlatiladi va jang qurollaridan birining nomini ifodalaydi. Doktor Mu’in bu matn tarjimasining qaydida “*Chakush* qadim jang qurollaridandir” deb yozadi.

Kadxudo tarixan ikki mustaqil so’zning birikuvidan hosil bo’lgan bo’lib, uning *kad* qismi “Avesto”da *kata* “qazilgan” degan ma’noni anglatadi²⁷. Pahlaviy tilida *katak* uy ma’nosini anglatadi. Ehtimol, bu so’zning uy ma’nosini olishi qadim ajdodlarning uysozlik usullari bilan bog’liqdir. *Kadxudoning* pahlaviycha shakli *katakxvatao*, ashkoniylar pahlaviysida *kazakxvatayan* (“z” tishora, inglizcha *th* kabi) yoki *kazakxvatayan* shaklida bo’lgan va uy sohibi ma’nosini anglatadi. Fors tilida bu so’z “boshliq”, “qabila boshlig’i”, “oila boshlig’i”, “urug’ boshlig’i”, “biror ishning boshida turuvchi kishi”

¹⁷ Ёўлдошев Р. “Авесто” ёзуви ва тили. // “Авесто” - буюк комусий асар. –Тошкент, 2001. – Б. 17-18.

¹⁸ Соколов С.Н. Язык Авесты (учебное пособие). –Л., 1964.–С. 246.

¹⁹ Boyce M.A. Word-list of Manichaeian Persian and Parthian. Téhéran-Liège, 1977 (Acta Iranica, sér. 3, vol. 2, Suppl.). –P. 42.

²⁰ Horn P. Grundriss der neupersischen Etymologie. – Strassburg, 1893. –P. 203.

²¹ Geiger W. Etymologie des Balüci. – ABAW, 1890, Bd. 19, Abt. 1. –P. 122.

²² Цаболов Р.Л. Этимологический словарь курдского языка. Т. I. (А-М). – М., 2001. –С. 370-371.

²³ Gershevitch I.A. Grammar of Manichean Sogdian. Oxf., 1954. –P.80.; Gharib B. Sogdian Dictionary. Sogdian-Persian-English. –Tehran, 1995. –P. 39.

²⁴ Humbach H. Choresmian. – CLI. Wiesbaden, 1989. –P. 198.

²⁵ Абаев В.И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. Т. II. – Л., 1973. –С. 266-267.

²⁶ Ko’rsatilgan manba. – Б.442.

²⁷ جلد ۳، ص ۱۰۶۴.

ma'nolarini ham anglatadi²⁸. Ogahiy tarixiy asarlarida *kadxudo* so'zi *oqsoqol*, *urug' boshlig'i* ma'nosida ishlatiladi va asarda uning sinonimlari *otaliq*, *umdadir*: "...Tog'ixon qal'a akobirining oliy shoni Nuri *kadxudoni* talabi omon va arzi islom, qal'adin chiqarib, ostoni zafar posbon jabhasoliqig'a irsol qildi" (RD, 259^b).

Moza kävish – (To'rtko'l, Saribiy) – eski. Eshak terisidan tikilgan kalish²⁹; eshak terisidan ishlangan kalish: q'ichq'irsam bermiysän dovush, ayag'ında *moza kävish* (Saribiy)³⁰. Ushbu kiyim nomi mazkur turdagi oyoq kiyimi umuman iste'moldan chiqib ketgani bois istorizm hisoblanadi. Lekin fors tili leksikasida *muze* موزه so'zi *etik* ma'nosini anglatgani, uning o'rnida turkiy *chäkmä* چکمه so'zi ishlatilayotgani sababli arxaizm sanaladi. Shuningdek, fors tilida *etikdo* 'z ma'nosidagi *muzeduz* موزه دوز so'zi ham eskirgan so'zlar qatoridan joy olgan³¹. Ilgari fors tilida "etik" ma'nosida ushbu so'z ishlatilgan. "Burhoni qote" da bu so'zga "ma'lum oyoq kiyimining nomi va uni turkiyda *chakma* deydilar", deb izoh berilgan. Uning tarixiy ildizi "Avesto" dagi *kavush kiymoq* ma'nosidagi *maoc*, qadimgi hind tilidagi *môc* so'zlariga borib taqaladi. Hozirgi baluj tilida oyoq kiyim *môzag*, *môzhagh* deyiladi. Bu so'z arab tiliga *muzaj* موزج shaklida o'zlashgan³².

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). "Avesto" dagi dialektal leksikaga oid birliklar diniy va ijtimoiy hayot ifodasi, unga bog'liq hukmlar munosabati bilan ishlatilgan. Masalan, shaxs otlari jamiyatning ijtimoiy tabaqalariga oid o'rinlarda ko'p qo'llanilgan. "Avesto" jamiyatni to'rt tabaqaga bo'ladi: ruhoniylar, kohinlar (atravanlar); jangovarlar – harbiylar (ratayistralar); peshovar hunarmandlar (xutlar) va *kishovarlar* – dehqon-chorvadorlar (vasterya-fshuyant). Aynan mulkdorlar va tavongarlar jamoasi bo'lgan "Avesto" olamida *peshovar* va *barzgar* (qo'shchilar) yuqori tabaqa

xizmatkorlariga aylantirilgan edi. Jamiyatning bunday tabaqalashuvi qadimgi, ya'ni zardushtiylikka bo'lgan an'analarni o'zida aks ettiradi. Bu an'analarni ayrim o'zgarishlar bilan ko'p asrlar – "Avesto" dan keyingi davrlarda ham saqlanib qoladi.

Peshovarlar (hunar ahli), asosan, shahar aholisi va hunarmandlardan iborat bo'lgan. Ular yilda uch marta soliq to'lardilar va markaziy davlat tomonidan tayinlangan maxsus mufattish (harbiy va mudofaa ishlar bo'yicha), nozir (soliq masalasi bo'yicha) va mubassir (fuqarolik ishlari bo'yicha amaldor) tomonidan nazorat qilinardi.

Kishovarlar, ya'ni ziroatchi, qo'shchilar "Avesto" jamoasining eng past tabaqasi hisoblanardilar. Ular jangovarlar va ruhoniylar yerlarida ishlab, mulk egalariga "begor" kabi majburiyatni yil davomida bajarib, davlatga esa yer va jon solig'ini to'lardilar. Urush va harbiy yurishlar paytida piyoda askarlar sifatida xizmatga jalb qilinardilar. Tinchlik paytida mulk egasi yerida yilda bir marta "begor" majburiyatini bajarardilar. Ulardan katta miqdorda soliq olinardi. Masalan, bir jarib (1 ga) ziroatli yerdan bir dirham, bir jarib tokzordan sakkiz dirham, bir jarib sholi ekilgan maydondan besh dirham soliq olinardi. Har bir ziroatchi 30 yoshdan 50 yoshga to'lgunga qadar jon solig'i ham to'lashga majbur edi³³.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, Xorazm shevalari leksikasida "Avesto" bilan bog'lanadigan ko'plab so'zlar mavjud. O'zbek adabiy tili va shevalari leksikasi tizimida avestoviy so'zlar o'zining sezilarli o'rniga ega ekan, bu mavzu hali ko'plab izlanishlarni talab qiladi. Ularning genealogik tahlilini amalga oshirish orqali tilning tarixiy qatlamiga oid noyob faktlarni aniqlash mumkin. Ular o'zbek tili tarixiy leksikasiga hamda

²⁸ ۱۳۷۹. ص. ۱۹۱.

²⁹ Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 139.

³⁰ Ўрозов Э. Жанубий Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 99.

³¹ Персидско-русский словарь. Том II. – М.: Русский язык, 1983. – С. 578.

³² شمس الدين محمد بن خلف تبریزی. برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. جلد ۴ ص ۲۰۵۱

³³ Эшмурадов М. Хоразм манбаларида давлатчилик тарихи. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2011. – Б. 29.

dialektologiyaga oid darsliklar va etimologik lug'atlarni tuzishda qo'1 kelishi shubhasiz.

ADABIYOTLAR RO'UXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
REFERENCES):

1. Абаев В.И. Историко-этимологический словарь осетинского языка. Т. II. – Л., 1973.
2. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. – 1-том. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. –Тошкент: Фан, 1968.
3. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. I қисм. Луғат. II Хоразм шеваларининг таснифи. –Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти, 1961.
4. Аскарлов А.А. Ўрта Осиёнинг энеолит ва бронза даври оташгоҳлари // “Авесто” китоби – тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбаи” мавзусидаги илмий-амалий семинар материаллари, 2000 йил, 6 декабр. –Тошкент, 2000.
5. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985.
6. Дўсимов З. Хоразм топонимияси ва “Авесто” // “Авесто” – буюк қомусий асар. – Тошкент: Фан, 2001.
7. Жўраев М. Ўзбек халқ самовий афсоналари. – Тошкент: Фан, 1995.
8. Жўраев М. Ўзбек халқ тақвими ва мифологик афсоналар. –Бухоро: “Бухоро”, 1994.
9. Ирисов А. “Авесто” китоби // Санъат, 1991. – № 3. – Б.6-7.
10. Исҳоқов М., Сулайманов Р. Заратуштрининг ватани ва унинг яшаган даврига оид мулоҳазалар.// Ўзбекистон тарихи, 1999. –№ 1. – Б. 45-54.
11. Исҳоқов М. “Авесто”нинг туркий ўзбекча ўғирмасидан // Фан ва турмуш, 1993. – №3. –Б. 22-23.
12. Исҳоқов М. Эзгуликка йўлловчи китоб. // Соғлом авлод учун, 1996. – № 5-6. –Б. 42-43.
13. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977. Ёўлдошев Р. “Авесто” ёзуви ва тили. // “Авесто” - буюк қомусий асар. –Тошкент, 2001. – Б. 17-18.
14. Ёўлдошев Р. “Авесто” ёзуви ва тили // “Авесто” – буюк қомусий асар. – Тошкент, 2001. – Б. 17-19.
15. Қаюмов А. Қадимги ёзма ёдгорликлар. – Тошкент, 2000.
16. Қодиров М. Зардуштийлик ва томоша санъати // Гулистон, 2000. – №4. – Б.36-37.
17. Махмудов Т. “Авесто” ҳақида // “Гулистон”, 1994. – №4. – Б.24-32.
18. Персидско-русский словарь. Том II. – М.: Русский язык, 1983.
19. Тиллаева М. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи. (“Авесто” ономастикасига қиёслаш асосида): Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2006.
20. Ўрозбоев А. Оғахийнинг тарихий асарлари лексикаси. – Тошкент: Мухаррир, 2013.
21. Ўрозов Э. Жанубий Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1978.
22. Ҳамидов Ҳ. “Авесто” файзлари. – Тошкент: Мерос, 2001.
23. Ҳамидов Ҳ. “Авесто”нинг илмий ва адабий қиммати // Ўзбек тили ва адабиёти, 2000. – № 3. –Б. 7-15.
24. Ҳамидов Ҳ. “Авесто”да табобат. // Соғлом авлод учун, 2000. – № 9-10. –Б. 34-36.
25. Эшмуродов М. Хоразм манбаларида давлатчилик тарихи. –Тошкент: Fan va texnologiya, 2011.
26. Эшмуродов М. “Авесто”да табиат културлари талқини. – Тошкент, 2002.
27. Boyce M.A. Word-list of Manichaean Persian and Parthian. Téhéran-Liège, 1977 (Acta Iranica, sér. 3, vol. 2, Suppl.). –P. 42.
28. Geiger W. Etymologie des Balūci. – ABAW, 1890, Bd. 19, Abt. 1. –P. 122.
29. Gershevitch I.A. Grammar of Manichean Sogdian. Oxf., 1954. –P.80.
30. Gharib B. Sogdian Dictionary. Sogdian-Persian-English. –Tehran, 1995.
31. Horn P. Grundriss der neupersischen Etymologie. –Strassburg, 1893. –P. 203.
32. Humbach H. Choresmian. – CLI. Wiesbaden, 1989.
33. Соколов С.Н. Язык Авесты (учебное пособие). –Л., 1964.
34. Цаболов Р.Л. Этимологический словарь курдского языка. – Т. I. (А-М). – М., 2001.

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ
ВЛИЯНИЯ ВОЗРАСТНОГО ФАКТОРА НА
ГРАММАТИЧЕСКИЕ И ФОНЕТИЧЕСКИЕ
НАВЫКИ В ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО
ЯЗЫКА


Ахмадалиева Наргизaxon Абдумалик кызы, исследователь
INGLIZ TILINI O'RGANISHDA YOSH OMILINING
GRAMMATIK VA FONETIK KO'NIKMALARGA
TA'SIRI BO'YICHA PSIXOLINGVISTIK
TADQIQOT

Ahmadaliyeva Nargizaxon Abdumalik qizi, tadqiqotchi
A PSYCHOLINGUISTIC STUDY OF THE
INFLUENCE OF THE AGE FACTOR ON
GRAMMATICAL AND PHONETIC SKILLS IN
LEARNING ENGLISH

Akhmadaliyeva Nargizaxon Abdumalik kizi, researcher



e-mail:
njabborkhonova@mail.ru



Аннотация: В статье рассматривается влияние возрастного фактора на развитие грамматических и фонетических навыков при изучении английского языка. На основе психолингвистического подхода анализируются механизмы усвоения второго языка у детей, подростков и взрослых, а также влияние нейропластичности, когнитивного развития и особенностей восприятия речи на успешность обучения. Представлены результаты эмпирического исследования, в котором выявлены различия в динамике освоения грамматических структур и произносительных навыков в зависимости от возраста начала обучения. Обсуждаются практические рекомендации для построения возрастно-ориентированных методик обучения.

Ключевые слова: психолингвистика, возрастной фактор, критический период, грамматика, фонетика, английский язык, иностранный язык, обучение, билингвизм.

Annotatsiya: Maqolada ingliz tilini o'rganishda yosh omilining grammatik va fonetik ko'nikmalar shakllanishiga ta'siri o'rganiladi. Psixolingvistik yondashuv asosida bolalar, o'smirlar va kattalar orasidagi grammatik tuzilmalarni va talaffuz me'yorlarini o'zlashtirishdagi farqlar tahlil qilinadi. Empirik tadqiqot natijalari taqdim etilib, o'quvchining yoshi fonetika va grammatikani o'zlashtirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlanadi. Yoshga mos o'qitish metodikalarini ishlab chiqish zarurligi haqida xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: psixolingvistika, yosh omili, grammatika, fonetika, kritik davr, ingliz tili, chet tilini o'qitish.

Abstract: This article examines the impact of the age factor on the development of grammatical and phonetic skills in learning English as a foreign language. Based on a psycholinguistic approach, the study analyzes the differences among children, adolescents, and adults in mastering grammar structures and pronunciation norms. The results of an empirical study are presented, showing that the learner's age has a significant effect on the acquisition of both phonetics and grammar. The paper concludes with recommendations for designing age-oriented teaching methodologies.

Keywords: psycholinguistics, age factor, grammar, phonetics, critical period, English language, foreign language learning.

ВВЕДЕНИЕ. Вопрос о влиянии возраста на овладение иностранным языком является одной из центральных тем в психолингвистике, педагогике и прикладной лингвистике. Начиная с работ Эрика Леннеберга (1967), учёные активно обсуждают гипотезу критического периода, согласно которой существует определённый возрастной промежуток, в течение которого человек способен наиболее эффективно усваивать языковую систему, включая фонетику, грамматику и лексику.

Актуальность данной темы обусловлена несколькими факторами:

1. Ростом глобализации и мобильности населения, что требует владения иностранными языками уже с раннего возраста.

2. Развитием билингвального образования, где понимание возрастных особенностей помогает проектировать более эффективные программы.

3. Психолингвистическими исследованиями, которые подтверждают, что грамматические и фонетические навыки могут формироваться по-разному в зависимости от возраста начала обучения.

Цель данной работы – выявить психолингвистические механизмы влияния возрастного фактора на формирование грамматических и фонетических навыков в английском языке и предложить рекомендации для образовательной практики.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ОБЗОР.

Психолингвистическая перспектива.

Психолингвистика рассматривает языковое усвоение как сложный процесс, включающий работу сенсорных систем, памяти, внимания, а также социальное взаимодействие. С точки зрения нейролингвистики, овладение языком связано с активностью определённых зон головного мозга: области Брока, отвечающей за синтаксис и грамматику, и области Вернике, ответственной за понимание речи.

В детском возрасте мозг отличается высокой нейропластичностью – способностью перестраивать нейронные связи в ответ на обучение. Это облегчает освоение произносительных норм, так как слуховой аппарат и артикуляционная система ещё гибки.

С возрастом пластичность снижается, что усложняет формирование аутентичного произношения.

Возраст и грамматические навыки.

Грамматические навыки включают в себя овладение синтаксическими структурами, морфологией и системой согласования. У взрослых способность к сознательному анализу языка развита лучше, что позволяет им быстрее понять и запомнить правила. Однако исследования (DeKeyser, 2000) показывают, что дети, начавшие изучать язык в раннем возрасте, со временем демонстрируют более автоматизированное и интуитивное владение грамматикой.

Важным фактором является тип обучения: у детей преобладает имплицитное обучение – они усваивают правила через подражание и контекст. У взрослых – эксплицитное обучение, то есть сознательное изучение правил с их последующим применением.

Возраст и фонетические навыки.

Фонетические навыки напрямую зависят от способности различать и воспроизводить звуки. После 10–12 лет снижается чувствительность к непривычным фонемам, что приводит к акценту. Так, в исследовании Flege (1999) взрослые учащиеся, даже при долгом проживании в англоязычной среде, сохраняли акцент, в то время как дети, начавшие обучение до 7 лет, достигали почти носительского уровня произношения. Также важно учитывать артикуляционные привычки родного языка: чем сильнее они закреплены, тем сложнее адаптировать артикуляционный аппарат к новому языку.

МЕТОДОЛОГИЯ

ИССЛЕДОВАНИЯ. Цель и задачи. Цель исследования – определить влияние возраста начала обучения на успешность формирования грамматических и фонетических навыков.

Задачи: 1. Сравнить результаты выполнения грамматических тестов в разных возрастных группах; 2. Оценить качество произношения по экспертной шкале; 3. Выявить корреляцию между возрастом начала обучения и уровнем сформированности навыков.

Выборка. В исследовании участвовали 90 человек, изучающих английский язык в условиях формального образования:

Группа А (7–9 лет) – 30 участников.

Группа В (13–15 лет) – 30 участников.

Группа С (20–25 лет) – 30 участников.

Методы и инструменты.

Грамматический тест (20 заданий на времена, согласование, пассивный залог).

Фонетический тест – повторение слов с труднопроизносимыми звуками ([θ], [ð], [w], [r]) и фраз с интонационными моделями.

Экспертная оценка произношения по шкале от 1 до 10 (трое специалистов-фонетистов). Статистическая обработка с помощью t-теста и дисперсионного анализа (ANOVA).

РЕЗУЛЬТАТЫ. Грамматические навыки. Взрослые (Группа С) показали на старте обучения средний результат 85% правильных ответов, подростки – 78%, дети – 68%. Через 6 месяцев разрыв между детьми и взрослыми уменьшился: дети – 82%, взрослые – 88%. У подростков прогресс был наибольшим в первые три месяца (рост на 15%), после чего темп выровнялся.

Фонетические навыки. Дети получили средний балл 9,2/10, подростки – 7,8/10, взрослые – 6,5/10. У взрослых выявлены устойчивые артикуляционные ошибки, связанные с интерференцией родного языка. У подростков ошибки носили временный характер и чаще исправлялись при целенаправленной тренировке.

ОБСУЖДЕНИЕ. Полученные результаты подтверждают гипотезу о разном влиянии возраста на грамматику и фонетику. Фонетика наиболее чувствительна к возрасту: чем раньше начинается обучение, тем выше вероятность аутентичного произношения. Грамматика в начале быстрее усваивается взрослыми, но в долгосрочной перспективе дети достигают более естественного владения структурой языка. С точки зрения методики, для детей целесообразно акцентировать внимание на произношении и устной речи, для подростков – на комбинированных стратегиях, а для взрослых – на систематическом изучении грамматики с параллельной фонетической коррекцией.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Возрастной фактор играет ключевую роль в формировании фонетических навыков и влияет на темпы освоения грамматики. Практическая значимость исследования заключается в возможности проектировать возрастно-ориентированные программы обучения, в которых учитываются когнитивные и психолингвистические особенности учащихся.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Lenneberg, E.H. (1967). *Biological Foundations of Language*. New York: Wiley.
2. Flege, J.E. (1999). Age of learning and second-language speech. In D. Birdsong (Ed.), *Second Language Acquisition and the Critical Period Hypothesis* (pp. 101–132). Mahwah, NJ: Erlbaum.
3. Scovel, T. (1988). *A Time to Speak: A Psycholinguistic Inquiry into the Critical Period for Human Speech*. New York: Newbury House.
4. Singleton, D., & Ryan, L. (2004). *Language Acquisition: The Age Factor* (2nd ed.). Clevedon: Multilingual Matters.
5. DeKeyser, R. (2000). The robustness of critical period effects in second language acquisition. *Studies in Second Language Acquisition*, 22(4), 499–533.
6. Birdsong, D. (2006). Age and second language acquisition and processing: A selective overview. *Language Learning*, 56(S1), 9–49.
7. Muñoz, C. (2006). Age and the rate of foreign language learning. *Multilingual Matters*.
8. Krashen, S. D., Long, M. A., & Scarcella, R. C. (1979). Age, rate and eventual attainment in second language acquisition. *TESOL Quarterly*, 13(4), 573–582.
9. Nakata, K., Bialystok, E., & Wiley, E. (2003). Critical evidence: A test of the critical-period hypothesis for second-language acquisition. *Psychological Science*, 14(1), 31–38.
10. Piske, T., MacKay, I. R. A., & Flege, J. E. (2001). Factors affecting degree of foreign accent in an L2: A review. *Journal of Phonetics*, 29(2), 191–215.
11. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2013). *How Languages are Learned* (4th ed.). Oxford: Oxford University Press.

G‘ARBIY YEVROPADA MUHANDISLIK TO‘G‘RISIDAGI QARASHLARNING EVOLYUTSIYASI

Sayfullayev Samarbek Dilshod o‘g‘li, Toshkent davlat transport universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi

EVOLUTION OF VIEWS ON ENGINEERING IN WESTERN EUROPE

Sayfullayev Samarbek Dilshod oğlu, Independent researcher of the Department of “Social Sciences” of Tashkent State Transport University

ЭВОЛЮЦИЯ ИНЖЕНЕРНЫХ ВЗГЛЯДОВ В ЗАПАДНОЙ ЕВРОПЕ

Сайфуллаев Самарбек Дилшод оғлы, независимый исследователь кафедры “Социальные науки” Ташкентского государственного транспортного университета



e-mail:
sayfullayevsamarbek@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается исчезновение человеческого фактора в феодальном обществе и растущий спрос на технику. Утверждается, что открытие университетов в Европе с XII века привело к развитию средневековой инженерной науки, развитию и появлению инженерных изобретений.

Ключевые слова: Инженерия, водяная печь, водяные мельницы, ветряные мельницы, судовые конструкции, порох.

Annotation: The article describes the disappearance of the human factor in feudal society and the increasing demand for technology. It is stated that the opening of universities in Europe from the 12th century led to the development, refinement, and inventions in engineering in the Middle Ages.

Keywords: Engineering, blast furnace, water mills, windmills, ship structures, gunpowder.

Annotatsiya: Maqolada feodalizm jamiyatida inson omilining yo‘qolib borishi va texnikaga bo‘lgan talab ortib bordi. Yevropada XII asrdan universitetlarning ochilishi o‘rta asrlar muhandislik ilmining rivojlanishi, taraqqiyoti, muhandislikdagi ixtirolar paydo bo‘lishiga olib kelganligi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Muhandislik, temir pech, suv tegirmonlari, shamol tegirmonlari, kema konstruksiyalari, porox.

KIRISH. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida xalqlar-ning buyuk ko‘chishi davrida ijtimoiy–iqtisodiy tuzum tubdan o‘zgardi. Parchalanib ketgan G‘arbiy Rim imperiyasi xarobalarida feodal munosabatlari rivojlanib, V asr oxiridan XVII-XVIII asrlargacha bo‘lgan davrni qamrab oldi. G‘arbiy Rim imperiyasi hududida feodalizmning shakllanish jarayoni chiri-yotgan quldorlik va ibtidoiy jamoa munosabatlari-ning sintezi shaklida amalga oshirilib, sifat jihatidan yangi tuzumning vujudga kelishiga olib keldi.

Jamiyat rivojining, xususan, muhandislik taraqqiyotini tezlashtirishning eng muhim omili savdoni rivojlantirish edi. Negaki, savdo-sotiqning rivojlanishi, kimyo fanidagi diffuziya qonuni kabi insoniyat uchun ko‘plab innovatsiyalarni yaratilishi-da, ixtirolarni kashf qilinishida muhim ahamiyat kasb etgan. Quldorlik o‘rnida feodal jamiyatining

rivojlanishi muhandislik faoliyatida shaharsozlik-ning rivojlanishiga, shu bilan birga hunarmand-chilik ishlab chiqarishining rivojlanishiga yordam bergan. Ayniqsa, X-XII asrlarda muhandislik faoliyatidagi taraqqiyot sezilarli tus olgan. Xuddi shu davrda avval suv tegirmonlari, keyin esa shamol tegirmonlari keng rivojlangan. Shu bilan birga, Yevropada mexanik soatlar paydo bo‘lgan. Tabiat qonunlari haqidagi bilimlarni to‘plash uchun harbiy texnika ishlab chiqarish, kemasozlik, gidrotexnika va gidrotexnik inshootlarni qurish muhim ahamiyatga ega bo‘lib borgan.

Rus olimi D.P.Ponomarevning ta’kidlashicha, feodal davrning asosiy muhandislik yutuqlari quyidagilardan iborat edi: qurilish sohasida - gotik uslubda binolar qurishning yangi tamoyillarini izlash, shahar va qal’alar qurish texnologiyasini takomillashtirish. Rim uslubining asosiy xususiyati

og'ir tosh inshootlari bo'lsa, gotik uslub yengil karkas konstruksiyalariga asoslangan edi; metallur-giyada - temirdan foydalanishni yanada takomil-lashtirish, cho'yan quyishni yo'lga qo'yish; dengiz transportida - kema konstruksiyalarini takomillash-tirish, kompasni ixtiro qilish; harbiy ishlarda - poroxni kashf etish va o'qotar qurollarning tarqalishi; bosma uskunasi ixtiro qilish¹.

ASOSIY QISM. Muhandislik sohasining rivojlanishiga uni-versitet ham muhim o'rin tuta boshladi. Yevropa-dagi eng qadimgi universitet X asrda Salernoda (Italiya) tashkil topgan. Keyinchalik, 1119-yilda Bolonya universiteti, 1150-yilda Parij universiteti, 1167-yilda Oksford universiteti, 1209-yilda Kembrij universiteti, 1229-yilda Tuluza universite-ti, 1289-yilda Monpele universiteti, 1348-yilda Pragadagi Karl universiteti, 1364-yilda Krakov universiteti, 1365-yilda Vena universiteti, 1441-yil-da Bordo universiteti va boshqa oliy o'quv yurtlari tashkil etildi. Oliy ta'lim muassasalarining vujudga kelishi tabiat qonunlari va ularni jamiyat manfaatlari yo'lida qo'llash haqidagi ijtimoiy-falsafiy bilimlar-ning keng yoyilishiga, shu jumladan, muhandislik ijodkorligi rivojlanishiga poydevor bo'ldi².

Temirni erituvchi va qayta ishlovchi yuqori haroratli birinchi o'choq (pech)lar G'arbiy Yevro-pada XIV asr o'rtalarida paydo bo'lgan. Hajmi bo'yicha ular yuqori o'choqlardan unchalik farq qil-masdi, lekin XV-XVI asrlardagi o'choqlarning di-zayni asta-sekin takomillashtirilgan. Uning baland-ligi 4,5 m, ichki diametri 1,8 m bo'lib, kuniga 1,6 tonna cho'yan ishlab chiqarardi. Odatda bitta o'choqda 150-200 kg cho'yan yuklangan. Qayta ish-lash jarayoni 1-2 soat davom etgan. Kuniga 1 tonna-ga yaqin metall olish mumkin bo'lgan. Foydalanish mumkin bo'lgan temirning unumi cho'yan og'irligining 90-92% ni tashkil etgan.

Bu davrning yana bir muhandislik yutuq-laridan biri, matbaa, kitob bosish ixtirosi bo'lgan. G'arbiy Yevropada kitob bosish XIV asr oxiri va XV asr boshlarida paydo bo'lgan. Lekin, Yevropada metall turidan foydalangan holda kitoblarini chop etishning boshlanishi 1443-yil deb hisoblanadi. Ixti-ro muallifi nemis muhandisi Iogan Gutenberg edi. Yevropada chop etish uchun qo'lda ishlaydigan ilk bosma mashinalar paydo bo'lgan. Xususan, birinchi matbaachi muhandis Iogan Gutenberg (1399-1468)

o'zining bosma shriftini yaratgan³. U har bir harfni metallardan quygan. So'zlarni tashkil etgan harflar yog'och ramkaga yig'ilib, matbuotga joylashtiril-gan. Keyin ular bo'yoq bilan qoplangan va ustiga bosilgan varaq qo'yilgan. Shunday qilib, bir sahifa-ning sezilarli miqdordagi nusxalarini chop etish va keyingi sahifalarni nashr etishga o'tish mumkin bo'lgan. Matbaa ixtirosi turli sohalardagi bilimlarni tizimlashtirish imkonini bergan.

Uyg'onish davrining buyuk muhandisi va ixtirochilaridan biri Leonardo da Vinchi bo'lib, uning asarlarida o'sha davrning ilmiy yutuqlarini muhandislik bilimlari bilan qattiq bog'lash zarurligi ta'kidlangan. Leonardo da Vinchi davrida suv oqim-larini tartibga solish uchun muhandislik loyihalari bo'yicha fikr yuritiltshi, gidrofizikada yangi nazariy g'oyalarning yaratilishiga olib kelgan. Mexanizmlar va mashinalarda ishqalanishni kamaytirish usullari bo'yicha berilgan taklif va tavsiyalardan bir tomon-dan rulman qurilmasini ixtiro qilinishida foydalanil-gan bo'lsa, boshqa tomondan, ishqalanish ko'effitsi-enti tushunchasini kiritishda va ishqalanish nazari-yasining ayrim qoidalarini ishlab chiqishda qo'llanilgan.

Leonardo da Vinchi matematika, mexanika, fizika, geologiya, botanika, anatomiya, fiziologiya kabi sohalarni o'rgangan⁴. U mexanika sohasida tajribalar o'tkazgan va ishqalanish ko'effitsientini aniqlashga harakat qilgan. Leonardo da Vinchi zarba hodisasini, turli materiallarning qarshiligini, jismlarning tushish holatini va boshqalarni o'rgangan. U aeronavtika va uchuvchi mashinalar-ning loyihasi-ni yaratish bo'yicha birinchi urinishlarni amalga oshirgan. Leonardo da Vinchi shaxsiy tajriba va qushlarning parvozini kuzatish asosida, inson mushaklari kuchi bilan harakatlanuvchi samolyotlar chizmalari bilan birga, parashyut, vertolyot va boshqa qiziqarli muhandislik loyihalarini chizdi. U tokarlik, to'quv va bosma mashinalar, shisha silliqlash moslamalari va shu kabi ko'plab muhandislik konstruksiyalarni ishlab chiqqan. Ammo, Leonardo da Vinchining o'sha paytdagi ixtirolarining aksariyati amaliy ahamiyatga ega emas edi, chunki ularni qo'llash uchun shart-sharoitlar hali yaratilmagan edi. Umumtaraqqiyot nuqtai nazaridan qaraganda, XVII asr muhandislik kasbida burilish davri bo'lgan. Aynan shu davrda muhandislik kasbini institutsionalizatsiya

¹ Пономарев Д.П. История инженерного дела в России. - М.2013. -С.24.

² Пономарев Д.П. История инженерного дела в России. - М.2013. -С.25.

³ Semyonov V.F. O'rta asrlar tarixi. Toshkent. O'qituvchi. - 1973. -С.366.

⁴ Ergashev Sh. Jahon tarixi (Yangi davr. 1-qism.XVI-XVIII asrlar)-Toshkent.: O'zbekiston. -B.66.

(lotincha “urf-odat”, “muassasa”, “ko`rsatma”, ya’ni ayrim institutlar (oilalar, davlat, monopoliya, kasaba uyushmasi) ijtimoiy taraqqiyotning asosi deb qabul qilgan nazariya) qilishning birinchi aktlari qabul qilindi. Shahar qal’alarining keng ko’lamli qurilishi, maxsus harbiy muhandislar korpusining shakllanishiga turtki bo’lgan. Hozirgacha bu ishlarining bir qismi harbiy bo’lmagan mutaxassislar tomonidan bajarib kelingan. 1602-yilda Fransiya qiroli Genrix IV ning mashhur vaziri Sulli yangi istehkomlar qurish va eskilarini mustahkamlash uchun maxsus harbiy muhandislar guruhini tashkil etdi. Mutaxassislarni bunday saralash muhandislik faoliyatining obro’sini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. O’sha davrning noyob iste’dod va bilimga ega bo’lgan harbiy muhandislaridir⁵.

Soatsozlik muhandisligi sohada to’liq inqilob faqat XVII asrda atoqli golland mexaniki, fizigi va matematigi C.Gyuygens (1629-1695) tomonidan amalga oshirildi⁶. To’g’ri, vaqtni o’lchashni takomillashtirishda birinchi qadamni Galiley qo’ygan. Lekin Gyuygens 1657-yilda yasagan statsionar soatga birinchi bo’lib regulyator sifatida mayatnikni o’rnatgan va ko’chma soatlarni yaratishda elastik spiraldan foydalangan edi.

Rus ixtirochi I.P.Kulibinning (1735-1818) faoliyati ham katta qiziqish uyg’otadi. Chunki I.P.Kulibin soatlardan tashqari, mashina ishlab chiqarishni yaratish uchun tamal toshini qo’ygan desak adashmagan bo’lamiz. Shuningdek, u yasagan tegirmon konstruksiyasi boshidanoq mashina organizmining barcha muhim elementlariga ega edi. Jumladan, mexanik harakatlantiruvchi har qanday kuch, qurilmani harakatga keltiradigan uzatish mexanizmini, materialni qayta ishlaydigan ishchi mashina va mexanik vositalarni vujudga keltiradi⁷.

Shunday qilib, mexanik soatlarning ixtirosi va keyinchalik keng qo’llanilishi, bir tomondan, bir xil harakatni o’rganishga imkon yaratdi, ikkinchi-dan, sanoat maqsadlarida avtomatlashtirish prinsipi qo’llash g’oyasini keltirib chiqardi. Tegirmon-larning rivojlanishi mehnat jarayonlariga yangi ta-moyillarga o’tishiga olib keldi. Natijada inson qo’l-larini juda og’ir, mashaqqatli va xavfli ishlardan ozod qilishga yordam berdi. Manufaktura davrida mashinasozlik sanoatiga o’tish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilib,

mashinalardan foydalanishga birinchi urinishlar amalga oshirildi XVII asrda yashab, faoliyat ko’rsatgan Yevropaning nomdor faylasuf-olimlaridan biri R.Dekart tabiat qonun-larini bilish bilan birga, ularni muhandislik qoidalari bilan birlashtirish muhimligini ta’kidlab o’tgan.

XULOSA. R.Dekartning fikricha, maktablarda o’qitila-digan murakkab fanlar o’rniga, hayotda juda foydali bo’lgan bilimlarni yaratish muhimdir. Hunarmand-muhandislar uchun turli xil hunar turlarini o’rganish atrofimizdagi olov, suv, havo, osmon yulduzlari va boshqa tabiiy obyektlarning kuch-qudrati hamda ta’sirini bilish kabi amaliy ahamiyatga egadir. Ushbu bilimlarni teng asosda bilish va uyg’unlashtirish insonni tabiatning ustalariga va xo’jayinlariga aylantiradi. Umuman olganda, bu davrga kelib Yevropada muhandislik ijodkorligi bilan shug’ullanuvchi mutaxassislarimizni nazariy va amaliy ji-hatdan tayyorlashning ahamiyati hamda zarurligi alloqachon tushunib yetilgandi. Bu dunyo haqidagi nazariy bilimlarning rivojlanishi to’siq bo’lib qola-yotgani va texnik muammolar yechimini izlash birinchi darajali ahamiyat kasb etayotgani bilan izohlanadi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Salimov B.L. Muhandislikning ijtimoiy – falsafiy asoslari. Monografiya. – T.: Toshkent davlat transport universiteti, 2023, 202 b.
2. Salimov B.L. Muhandislik falsafasi. Darslik. – T.: Toshkent davlat transport universiteti, 2024. 196 b.
3. Пономарев Д.П. История инженерного дела в России. - М.2013
4. Semyonov V.F. O’rta asrlar tarixi. Toshkent. O’qituvchi. –1973. –C.366.
5. Ergashev Sh. Jahon tarixi (Yangi davr. 1-qism.XVI-XVIII asrlar) -Toshkent: O’zbekiston. –B.66
6. Davronov.Z. Falsafa. O’quv qo’llanma – T.: Iqtisod moliya. - 2006. –B.178.
7. Кухар В.В. Капитал и социальное развитие (Капитал II) монография. Симферопол. - 2018. – C.15.

⁵ Salimov B.L. Muhandislik falsafasi. Darslik. – T.: Toshkent davlat transport universiteti, 2024. 196 b

⁶ Ergashev Sh. Jahon tarixi (Yangi davr. 1-qism.XVI-XVIII asrlar)-Toshkent: O’zbekiston. –B.68.

⁷ Кухар В.В. Капитал и социальное развитие (Капитал II) монография. Симферопол. - 2018. –C.15.

**ҚЎНҒИРОТЛАР СУЛОЛАСИ ИЛК ХОНИ
ЭЛТУЗАРХОНГА ОИД ВОҚЕОТЛАР ЗИКРИ
(КОМЁБНИНГ “ТАВОРИХ УЛ-ҲАВОНИН” ТАРИХИЙ
АСАРИ ВА БОШҚА ИЛМИЙ МАНБАЛАР АСОСИДА)**

*Матякубов Шоназар Собирович, Хоразм Маъмун
академияси катта илмий ходими, тарих фанлари бўйича
фалсафа доктори*

**REMINDER OF EVENTS ABOUT THE FIRST
KHAN OF THE KUNGIROT DYNASTY, ELTUZAR
KHAN (BASED ON KOMYOB’S HISTORICAL WORK
“TAVARIKH UL-HAVONIN” AND OTHER SCIENTIFIC
SOURCES)**

*Matyakubov Shonazar Sobirovich, Senior Researcher of the
Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy in Historical
Sciences*

**НАПОМИНАНИЕ О СОБЫТИЯХ,
КАСАЮЩИХСЯ ПЕРВОГО ХАНА ИЗ
ДИНАСТИИ КУНГИРОТОВ ЭЛЬТУЗАР-ХАНА
(НА ОСНОВЕ ИСТОРИЧЕСКОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ
КОМЁБА “ТАВАРИХ УЛ-ҲАВОНИН” И ДРУГИХ
НАУЧНЫХ ИСТОЧНИКОВ)**

*Матякубов Шоназар Собирович, старший научный
сотрудник Хорезмской академии Маъмуна, доктор
философии по историческим наукам*

Аннотация: Мақолада муаллиф Қўнғирот сулоласи илк хони Элтузархонга оид воқеотлар зикрини Комёбнинг “Таворих ул-ҳавонин” тарихий асари ва тарихга оид бошқа манбалар асосида беради.

Калит сўзлар: Хоразм, Хива, Қўнғиротлар сулоласи, Комёб, Муҳаммад Амин иноқ, Аваз иноқ, Элтузархон, Бухоро, Амударё, Шоҳ Аббос, кема.

Abstract: In this article, the author mentions events related to the first khan of the Kungirat dynasty, Eltuzarkhon, based on the historical work of Kamyab, “Tavoriq ul-khonin” and other historical sources.

Keywords: Khorezm, Khiva, Kungirat dynasty, Kamyab, Muhammad Amin Inak, Avaz Inak, Eltuzarkhon, Bukhara, Amudarya, Shah Abbas, ship.

Аннотация: В статье автор упоминает события, связанные с первым ханом династии Кунгират Элтузархон, основываясь на историческом произведении Камьяба «Таворих ул-ҳавонин» и других исторических источниках.

Ключевые слова: Хорезм, Хива, Династия Кунградов, Камяб, Муҳаммед Амин инақ, Аваз инақ, Элтузархан, Бухара, Амударя, Шах Аббас, корабль.



<https://orcid.org/0009-0003-0888-2941>

e-mail:
shonazarmatyoqubov@gmail.com



КИРИШ. Хива хонлиги сарой тарихнавислиги анъанасини муносиб давом қилдирган тарихчилардан биттаси Комёб эди. Тўлиқ исми Сайид Ҳомид тўра ибн Сайид Муҳаммад тўра Комёбдир. Комёбдан бизгача битта шеърий девон, «Таворих ул-ҳавонин», «Мунтахаб ул-воқеот» каби тарихий асарлари, шунингдек XIX аср охири – XX аср бошларида Хоразмда юз берган табиат ўзгаришлари тўғрисида маълумот берувчи эсдаликлари тўлиқ ҳолатда етиб келган. «Таворих ул-ҳавонин» муқаддима, беш боб булар: биринчи боб Одам Атодан Нух а.с.гача бўлган давр зикри, иккинчи бобда Ёфасдан Қўнғирот уруғи воқеотларигача, учинчи бобда Курлос авлодидан подшоҳлик мартабасига етганлар зикри, тўртинчи бобда Қўнғирот подшоҳларининг ва улар авлодларининг зикри, бешинчи бобда Муҳаммадамин иноқнинг авлодларидан Хоразм мамлакатига подшоҳлик қилганларнинг зикри ва муаллифнинг ўз ҳаёти ҳамда ижтимоий муҳит тўғрисида маълумотлар берувчи бир мақоладан иборат. Тарихий асар 1885-1894 йилларда ёзилган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ. Сайид Ҳомид тўра Комёбнинг «Таворих ул-ҳавонин» тарихий асари орқали Қўнғирот сулоласи хонларига оид воқеотлар зикри жамили ҳақида сўз юритилган ва бунда Муҳаммадамин иноқнинг авлодларидан Хоразм мамлакатига подшоҳлик қилганларининг зикри ҳақида, аввалинда эса Элтузар Муҳаммад Баҳодирхон давронининг воқеайи жамили ҳақида сўз юритиб, кейин эса Муҳаммадраҳимхони олийшоннинг зикри жамили ва Оллоқули Баҳодирхоннинг зикри жамили шундан сўнг Раҳимқулихоннинг зикри яна Муҳаммадамин-хоннинг зикри ундан кейин Абдуллахоннинг зикри улардан сўнг Қутлуғмуродхоннинг зикри шундан кейин Сайид Муҳаммад Баҳодирхоннинг зикри жамили ва охирида Муҳаммадраҳим Баҳодирхони сонийнинг зикри жамили ҳақида батафсил маълумот берилади.

Сайид Ҳомид тўра Комёбнинг қайд қилишича, ушбу асарни ёзишга киришишдан аввал Хива хонлари тарихига оид асар ёзиш

нияти борлигини катта акаси Муҳаммад Раҳимхон Ферузга билдиради. Хон Комёбнинг бу фикрини қувватлаган ва ўз давригача бўлган тарихий воқеаларни Шермуҳаммад Мунис ва Муҳаммадризо Огаҳийлар ёзганлиги ва Комёбдан мазкур муаллифларнинг асарларига кирмай қолган воқеалар баёнини қаламга олиши лозимлигини айтади. Комёб асарда зикр қилишича, буюрилган тарзда асар ёзиш ва керакли ўринлардан фойдаланиш учун Огаҳийнинг китобларини ҳар қанча қидирса ҳам топа олмайди. Чунки русларнинг 1873 йилдаги босқинидан кейин хонлик кутубхонасидан 300дан зиёд китоблар мусодара қилиниб, Россияга олиб кетилган. Шундай бўлса-да, ўзи тўплаган материаллар асосида тарихий китобини ёзишга киришган. «Таворих ул-ҳавонин»да анъанавий тарзда инсониятнинг яратилишидан бошлаб, изчил тарзда туркий халқлар, туркий хоқонлар, қўнғиротлар уруғи, улардаи чиққан ҳукмдорлар тўғрисида маълумот бериб, ундан кейин эса, Хоразмда ҳокимиятни қўлга олган қўнғирот иноқлари тарихини ёзишга киришилган. «Таворих ул-ҳавонин»нинг жуда ишончли ва қимматли бўлган қисми бешинчи боб ва муаллифнинг ўзи тўғрисида охирида ёзган мақола қисмидир. Бу қисмда Комёб томонидан қўнғирот иноқларининг қай тарзда ҳокимият тепасига келиши ва уларнинг марказлашган ҳукумат тузиш йўлида доим ажралиб чиқишга ҳаракат қилиб келган ямутлар, Оролбуйи, Қўнғирот аҳолиси ҳамда Бухоро билан олиб борган тинимсиз курашлари тўғрисида маълумотлар берилади. Шу билан бирга, рус қўшинларининг хонлик ҳудудига босқичма-босқич кириб кела бошлаши ва ниҳоят Хива хонлигининг босиб олинишига доир тарихий воқеалар қаламга олинган.

МУҲОКАМА. Комёб, шубҳасиз, ўз даврининг илмли ва маърифатли фарзанди ва хоннинг энг кичик укаси. Хива тахтида 1856 йилдан 1864 йилгача жами тўққиз йилга яқин ўтирган отаси Сайид Муҳаммадхондан етти ўғил ёдгор қолган. Булардан энг каттаси Сайид Муҳаммад Раҳимхон, Отажон тўра, Тўра мурод

тўра, Оллоёр тўра, Давлатёр тўра, Худоёр тўра ва энг кичиги Саййид Ҳомид тўра Комёб эди. Хонлар ва амалдорлар авлодидан бўлганлиги боис муаллиф сифатида Хива кўшинларининг хонлик худудини кенгайтириш, ҳокимият учун олиб борган ҳарбий юришлари хусусида ёзар экан, уларни афсонавий, енгилмас ва тенги йўқ курашчилар қилиб тасвирлайди. Бу ҳаракатларга нисбатан табиий равишда муаллифнинг хонларга нисбатан хайрихоҳлиги сезилиб туради. Айни чоғда Комёб ўз асарида туркманларнинг сариқ, ямут, така, алиэли, чандир сингари уруғларини буйсундириш учун олиб борилган урушларнинг “зўран ва қаҳран” кечганлигини ҳам қайд қилиб ўтган.

Тарихий асарнинг бешинчи боби “Муҳаммадамин иноқнинг авлодларидин Хоразм мамлакатада подшоҳлик қилгонларининг зикри” деб номланади. Ва аввалида Комёб Элтузар Муҳаммад Баҳодирхон давронининг воқеайи жамили ҳақида сўз юритади ва Элтузар бобоси Муҳаммадамин иноқ ва отаси Аваз иноқлар каби чингизийлар авлодидан хон кўтармай, 1804 йилда ўзи охириги чингизий хон Абулғози Vни тахтдан тушириб, ўзи хонлик тахтини эгаллаганини баён қилади. Бу ҳақда Комёб: “Муҳаммадамин иноқи марҳумий ва мағфурий Бухородин қайтиб келиб, Хоразм мамлакатин олғониндин сўнг, хон ва умаро ва ўзга қалъаларнинг ҳокимининг азлу мансаби онинг кўлида эрди, ўзи Хоразмшоҳлик саририда барқарор ва комкор эрди, аммо ўтган бобо ва аждодининг ралит йусинидин тажовуз қилмай, отин иноқ кўюб қозоқ, доғи тўраларидин ким Чингизия авлодларидур, олардин бирин келгируб отин хон кўяр эрди. Аваз иноқи гуфронийи раббоний ҳам отасининг сулук ва тариқатидин ташқари ва илгари қадам бардам кўймай, ондоқким қилар эрди. Алардан сўнг Элтузар Муҳаммад Баҳодирхон исми била Хоразмшоҳлик маснадида ўлтурди”[1] деб маълумот беради.

Элтузархон Хива тахтини эгаллаганидан сўнг, элни тинчитиб, хонлик кўшин ва лашкарларини тартибга келтиради. Хоразмшоҳлар мамлакатини қайта тиклаб,

бошқариш мақсади бўлганлиги учун ўзинининг тангасини ҳам зарб қилдиради. Академик Бартольд бу тангасида “Хон ўзининг Хоразмшоҳлар вориси эканлигини билдириш” истаганини ёзади”[2]. Элтузархон ўзига махсус бир туғ ясаптиради, туғга минг мисқол олтин сарф бўлиб, жавохир, ёқут ва олмос билан зийнат берилади. Яна кумушдан тўрт байроқ ясаптиб, тўрт тўпа ўзбекига тақдим этади. Хонлик тартибига бўйсунмаганларни жазолашга изн беради. Комёб ҳам бу ҳақда маълумот беради: “Ва адлу дод била элга саранжом бериб аскари лашкар тартиб қилди. Ва ўзи учун бир туғ ясаптирди, минг мисқол олтиндин куббасига зийнат бериб ва шуккайи рафтига лаъли ёқут жавохир охироти олмоси гаронмоя ўлтургузди. Нусрат талъати учун яна тўрт байдок (байроқ) узаттирди, кубба шуккасига ҳар бирин минг мисқол кўмакнати учун Хоразм диёрида ҳукуматин алоҳида юрутмак истади ва подшоликга бўюн кўймагонни бўйнин кесмак тилади”[3].

Элтузархон ўз хонадонининг обрўсини ошириш учун саййидлар авлодидан қиз олиб уйланади. Бу ҳақда Н.И.Веселовский “Бу никоҳнинг зўрлик билан бўлганини ва хон шу йўл билан ўзининг ҳукмдорлик ҳуқуқини мустаҳкамлаганини ёзади”[4]. Яна бу ҳақда аниқроқ равишда: “Хон Урганч саййидларидан Охунбобо хожанинг қизига уйланишга қарор қилади. Охунбобо буни эшитиб, қизини тезликда саййидлар удуми бўйича ўз жиянига турмушга беради. Лекин хон эса қизни эридан ажратиб, ўз ҳарамига мажбурлаб келтиради”[5] деб маълумот беради. Муҳаммад Юсуф Баёний ҳам ўзининг “Шажараи Хоразмшоҳий” асарида Элтузархоннинг ғариб ва фақирларга ғоятда саховатли ва сахий инсон бўлганлигини таъкидлаб, бу тўғрида: “Унинг саховати ғоятда эрдиким, бир соил йўқ эрдиким, онинг даргоҳи эҳсонидан маҳрум қайтғай, фақир йўқ эрдиким, онинг хаёт хонаи инъомидин хилъат давлатга мушарраф бўлмағай”[6] деб ёзади.

НАТИЖАЛАР. Бухоро билан бўлиб ўтган урушда шахсан ўзи қатнашган Комёб ўз кўзи билан кўрган воқеаларни Элтузархоннинг

дарёга чўкиб ўлишини ва ушбу ҳолатга олиб келган сабабларга од воқеаларини батафсил таърифлайди. Бу жангда хиваликлар мағлуб бўлишади, чунки уларнинг кўшинидаги уйғурлар бухороликларга сотилиб, кўшин орасида бузилиш пайдо бўлади. Шундан кейин Элтузар ўз кўшинлари билан орқага қайтади. Бухороликлар уларни таъқиб қилиб келадилар ва Амударёнинг ўнг соҳилида Шоҳ Аббос худудида яна жанг бўлади. Шундан кейин Элтузархон дарё бўйида от устида эгнида оғир жанг либоси, қўлида найзаси, бошида жиғали телпаги билан урушдан чарчаб ва ҳориб чиққан умаро ва беклар билан кенгаш тузиб маслаҳат қилади. Хон дарёдан кемада сузиб ўтиб, қолганларга кемани қайтариб юборишини айтади. Хон ўзи отдан тушиб маҳрамлари билан кемага ўтиради, ундан кейин яна кўплаб сипоҳи ва одамлар кемага минмоқчи бўлиб ҳаракат қиладилар. Хоннинг ёнидаги маҳрамлар уларни кемага минишига қаршилиқ кўрсатиб қувадилар. Аммо хон бунга йўл қўймайди ва ҳаммани кемага миндиради. Шундан сўнг дарёга тушган кема салгина сузганидан сўнг, ўтгиз-қирқ кишини оғирлик юкини кўтара олмай, дарёга чўка бошлайди. Эгнида оғир кийим ва аслаҳаси йўқлар дарёга чўкмай сузиб чиқадилар, аммо хоннинг кийим ва қурол-аслаҳаси оғирлиги боис, суза олмай дарёга ғарқ бўлади. Бу ҳақда Комёб куйидагича маълумот беради: “Ҳамул босқиндин қутулуб келганларнинг биридин манкулдурким, Хоразм лашкари хазимат бўлгон вақтида ман урушдин қочиб Элтузархоннинг ёнига келдим. Кўрсам, дарё қирғоғида от устида, эгнида аслаҳа, бошида жиғоли телфак, қўлига найзасин олиб урушдин қочиб боргон ва ҳорғон умаро ва беклар ва саркардалар била кенгаш ва маслаҳат қилиб турғон эркан. Ва оларнинг барчасининг ройи онго қарор бердиким, дарёдин ўтуб, қолгон лашкарга кема йибориб ўтқартирсак, ислоҳ онда кўринур, дедилар. Ушбу сўз борига маъкул бўлди. Ул ерда бир кема тайёр бор эрди. Ондин сўнг отдин тушуб, ёнидаги одамлар била кемада ўлтурди. Ул вақтда уруш маърақасидин рўйгардон бўлгонлар ҳам келиб кемага

минмакчи бўлдилар. Ёнидоғи маҳрамларким, оларни уруб қувладилар. Хон ҳазрат оларга дедиким, даот қилманглар, олар менинг учун бу вартаи ҳалокатга етуштилар. Келинг, кемага мунинг, сайфангиз чоғли на воқеа ва ҳодиса вукуъ топса, бирга кўроли деди. Эрса, борча одам кемага минди. Кема сувга ботар-ботмас ёнглиғ бўлди. Ондин сўнг кемани, балки ажад кештибони кўргач, ожиллиг била тонглиғ баҳри мавжи авжга тўлди. Олар шиновари гузар этиб ҳайдатди. Кема дарё ичига, ўтгуз-қирқ одам бориб эрди, оғирлик боис юкин кўтара олмай, Амуя қаърига чумуб ровон бўлди. Олар орасидин аслоҳаси йўқ кимсаларким ва одамларики умрини куёшин ажал булути ёпмамиш эрди, ул ғарибки баҳри қазодин мадохили шиновари роҳбар ёварлиги била соҳили ҳаёт-нажотга чиқтилар. Ва эмишдур, Элтузархоннинг эгнида аслоҳи зириха борлики жиҳатидин сувдин юзуб чиқа олмай, ҳаёт кештиси мамот гирдобига тушуб, фано баҳри жуйбори била бориб, бақо соҳилига етушти”[6].

ХУЛОСА. Комёб Элтузархоннинг хижрий 1221 йил, милодий ҳисобда 1806 йилда ўтгиз беш ёшида оламдан ўтганлигини, салтанати иноқлиги билан қўшиб ҳисоблаганда етти йил эканлигини ёзади: “Элтузархоннинг муддати ёши ўттуз бешда эрди ва муддати салтанати етти йил эрди. Тўрт йил бир ёрим ой иноқлики, бир ёрим ой кам уч йил хонлики эрди, санайи хижрия минг икки юз йигирма бир эрди[7]. Элтузархондан икки ўғил ёдгор қолган, бириси шаҳзода Оллоберди тўра, иккинчиси Раҳмонберди тўра. Оллоберди тўрадан Бобошонбек, ундан эса машхур тарихчи Муҳаммад Юсуф Баёний дунёга келган. Элтузархон Хиванинг Ўр маҳалласида бир мадраса бино қилдиради. Шермуҳаммад Мунисга Хоразм тарихини ёзишни буюради. Мунис ўзининг машхур “Фирдавс ул-иқбол” китобини ёзишни бошлайди ва Элтузархон ҳукмронлиги давридан Хоразм тарихини Шерғозихон давригача ёзиб улгуради. Элтузархондан кейин тахтга келган Элтузархоннинг иниси Муҳаммад Раҳимхон I Мунисга бу тарихни ёзишни давом эттиришни

буюради ва Шермухаммад Мунис умрининг охири 1829 йилга қадар Муҳаммад Раҳимхон I ҳукмронлигининг 1813 йилгача бўлган воқеаларини ёзишга улгуради. Ундан кейинги тарихни Муниснинг амакиваччаси Муҳаммад Ризо Огаҳий Оллоқулихон буйруғи билан давом эттириб, ушбу тарихни Муҳаммад Раҳимхон II давригача етказди. Огаҳийдан кейин эса хонлар тарихини давом эттириш Муҳаммад Юсуф Баёний зиммасига юкланади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Саййид Ҳомид тўра Комёб. Таворих ул-ҳавонин. Академия нашриёти. Тошкент. 2002. Б.27.

2. Бартольд.В.В. Хорезмшахи. Сочинение. Т. II. Часть.2.-Москва.Наука.1964.-С.535.
2. Ўша жойда. Б.28.
3. Веселовский.Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего.-СПб.,1877.-С.254.
4. Ўша жойда. С.284.
5. Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. 112-варақ.
6. Саййид Ҳомид тўра Комёб. Таворих ул-ҳавонин. Академия нашриёти. Тошкент. 2002. Б.33.
7. Саййид Ҳомид тўра Комёб. Таворих ул-ҳавонин. Академия нашриёти. Тошкент. 2002. Б.34.



**XX ASR BOSHLARIDA O‘ZBEKISTONNING
JANUBI-SHARQIY SHAHARLARIDA SOG‘LIQNI
SAQLASH TIZIMI: MUAMMOLAR VA
O‘ZGARISHLAR TAHLILI**

*Choriyev Jamshidjon Shokirjonovich, Termiz davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi*

**HEALTH CARE SYSTEM IN SOUTHEASTERN
CITIES OF UZBEKISTAN AT THE BEGINNING OF
THE 20TH CENTURY: ANALYSIS OF PROBLEMS
AND CHANGES**

*Choriyev Jamshidjon Shokirjonovich, independent researcher at
Termez State University*

**СИСТЕМА ЗДРАВООХРАНЕНИЯ В ГОРОДАХ
ЮГО-ВОСТОЧНОГО УЗБЕКИСТАНА В НАЧАЛЕ
XX ВЕКА: АНАЛИЗ ПРОБЛЕМ И ИЗМЕНЕНИЙ**

*Чориев Жамшидjon Шокирjonович, независимый
исследователь Термезского государственного университета*

Annotatsiya: Ushbu maqola XX asr boshlarida O‘zbekistonning janubi-sharqiy shaharlarida sog‘liqni saqlash tizimi: muammolar va o‘zgarishlar keltirilgan. Tadqiqotda mavjud manbalar, xususan, arxiv hujjatlari, statistik hisobotlar va ilmiy adabiyotlar asosida tibbiy vaziyatning og‘ir ahvoli, aholi o‘rtasida keng tarqalgan yuqumli kasalliklar, tibbiyot kadrlarining yetishmasligi hamda sovet hokimiyati davrida bu sohada amalga oshirilgan o‘zgarishlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sog‘liqni saqlash, XX asr boshlari, yuqumli kasalliklar, Buxoro amirligi, Sovet hokimiyati, Qarshi va Termiz.

Abstract: This article presents the health care system in the southeastern cities of Uzbekistan at the beginning of the 20th century: problems and changes. The study, based on available sources, in particular, archival documents, statistical reports and scientific literature, highlights the difficult state of the medical situation, the widespread infectious diseases among the population, the shortage of medical personnel, and the changes implemented in this area during the Soviet era.

Keywords: health care, beginning of the 20th century, infectious diseases, Bukhara Emirate, Soviet power, Karshi and Termez.

Аннотация: В статье рассматривается система здравоохранения в городах юго-востока Узбекистана в начале XX века: проблемы и изменения. На основе имеющихся источников, в частности, архивных документов, статистических отчётов и научной литературы, в исследовании освещаются тяжёлое состояние медицинской ситуации, широкий размах инфекционных заболеваний среди населения, дефицит медицинских кадров и изменения, проведённые в этой сфере в советское время.

Ключевые слова: здравоохранение, начало XX века, инфекционные заболевания, Бухарский эмират, советская власть, Карши и Термез.



<https://orcid.org/0009-0008-0304-6600>

e-mail:

@Jamshidjon_Choriyev



KIRISH (INTRODUCTION). XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, xususan, hozirgi O'zbekistonning janubiy hududlari bo'lmish Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli nihoyatda og'ir edi. Buxoro amirligi tarkibiga kirgan bu hududlarda tibbiyot xizmati deyarli rivojlanmagan bo'lib, aholi orasida yuqumli va epidemiologik kasalliklar keng tarqalgan edi. Vabo, o'lat, ich terlama, bezgak va traxoma kabi xavfli kasalliklar ko'plab insonlarning o'limiga sabab bo'lgan, ayniqsa, bolalar va ayollar o'limi juda yuqori bo'lgan. Shahar va qishloqlardagi yomon sanitariya-gigiyena sharoitlari, aholining kambag'alligi va tibbiy savodxonlik darajasining pastligi vaziyatni yanada murakkablashtirgan.

Ushbu tadqiqot ushbu tarixiy davrda janubiy vohalarda tibbiy xizmatni yaxshilash borasida duch kelingan muammolarni va amalga oshirilgan islohotlarni chuqur o'rganishga qaratilgan. Maqolaning asosiy maqsadi:

-XX asr boshlaridagi tibbiy vaziyatni tarixiy manbalar asosida tasvirlash;

-Sovet hokimiyati davrida tibbiy infratuzilmani yaratish va kengaytirish borasida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish;

-Tibbiyot kadrlarini tayyorlash borasida yuzaga kelgan muammolar va ularning yechimlarini o'rganish;

-Mahalliy aholi va tibbiyot muassasalari o'rtasidagi munosabatlarni, jumladan, an'anaviy tabobatning o'rnini ko'rib chiqish.

Ushbu tadqiqot janubiy vohalarda sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishiga doir chuqur bilim berish bilan birga, tarixiy tajribadan saboq olish imkonini ham yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (MATERIALS AND METHODS). Ushbu tadqiqot ko'proq tarixiy tadqiqot usuliga asoslangan bo'lib, bir qator manbalardan foydalanildi. Tadqiqot uchun materiallar asosan quyidagi arxivlar va manbalardan olingan:

O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA): R-86-fondagi hujjatlar sovet davrining dastlabki yillarida tibbiy xizmatni tashkil etish, kadrlar siyosati va sog'liqni saqlash bo'limlarining faoliyati haqida muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Qashqadaryo viloyat davlat arxivi: 474-fond va boshqa fondlardagi hujjatlar Qarshi tibbiyot bilim yur-

ting tashkil etilishi, uning moddiy-texnik bazasi va kadrlar tayyorlash borasidagi ma'lumotlarni taqdim etdi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar: D.I.Logofet, S.N.Tursunov, E.A.Qobilov, G.E.Mo'minova va boshqa mualliflarning monografiya va maqolalaridan foydalanildi. Ushbu adabiyotlar tarixiy voqealarning kontekstini chuqurroq anglashga yordam berdi. Tadqiqotda tarixiy tahlil, statistik ma'lumotlarni solishtirish va xronologik usullar qo'llanildi.

NATIJALAR (RESULTS). Tadqiqot natijalari XX asr boshlarida janubiy vohalardagi tibbiy vaziyatni quyidagicha tasvirlaydi:

1. Tibbiy xizmatning dastlabki ahvoli. XX asr boshlarida Buxoro amirligining sharqiy bekliklarida tibbiy infratuzilma yo'q edi. O'lat va vabo kasalliklari Afg'onistondan kirib kelishi natijasida minglab aholi halok bo'lgan. Hatto 1897-yilda vabo oldini olish maqsadida Amudaryo kechuvlarida maxsus nazoratchilar guruhlarini tashkil etilgan bo'lsa-da, 31ta daryo kechuvining faqat beshtasida doimiy nazorat mavjud bo'lgan.

Tibbiy yordam deyarli faqat xayriya va ehsonlar orqali amalga oshirilgan. Mahalliy aholi kasalliklarni davolashda tabiat ne'matlaridan foydalangan. Masalan, Jarqo'rg'on va Kokaydidagi neft suvlari ko'z kasalliklari va boshqa xastaliklarni davolash uchun ishlatilgan.

Dastlabki kasalxonalar Rossiya hukumatining tashabbusi bilan Buxoro, Termiz, Kerki va Kelif kabi shaharlarda ochilib, asosan rus fuqarolari va harbiylarga xizmat ko'rsatgan. Mahalliy aholi uchun bu pullik xizmat bo'lgan.

2. Sovet davrida tibbiy tizimning shakllanishi. Sovet hokimiyati o'rnatilgach, 1924-yilda Surxondaryo okrugida 10 o'rinli birinchi kasalxona tashkil etilgan. 1925-1926-yillarda tibbiy muassasalarni ochishga katta e'tibor qaratilgan. 1926-yilda Termiz kasalxonasi 40 o'ringa, Sherobod kasalxonasi esa 45 o'ringa kengaytirilgan. 1928-yilda O'zbekistonda 91 ta shifoxona faoliyat yuritgan bo'lsa, 1932-yilda davolash o'rinlari soni 5548 tadan 6180 taga yetgan. Bu shahar aholisi uchun tibbiy xizmatning sezilarli darajada yaxshilanganini ko'rsatadi. 1940-yilga kelib, respublika bo'yicha 380ta kasalxona bo'lib, shundan 20tasi Surxondaryo va 20tasi Qashqadaryo viloyatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

3. Kadrlar tayyorlash va uning muammolari. Sog'liqni saqlash muassasalarining kengayishi

tibbiyot xodimlarining yetishmasligi muammosini keltirib chiqargan. Oliy va o'rta maxsus ma'lumotli tibbiyot xodimlarini tayyorlashga e'tibor berilgan. 1946-yilda Qarshida tibbiyot bilim yurti (dastlab feldsher-akusherlik maktabi) tashkil etilgan. Ushbu bilim yurti moddiy-texnik bazasining zaifligi tufayli dastlabki yillarda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelgan. 1947-yilda unga 270ming so'm ajratilgan bo'lsa-da, qurilish ishlari kechiktirilgan. Faqat 1954-yilda bilim yurti yangi binoga ko'chirilgan. Termizda ham tibbiyot bilim yurti 1945-yilda tashkil etilgan. 1913-yilda O'zbekistonda 139 nafar vrach bo'lgan. 1940-yilga kelib bu ko'rsatkich 3158 nafarga yetgan, shundan 964 nafari terapevt, 238 nafari jarroh, 348 nafari pediatr bo'lgan. Har 1000 kishiga to'g'ri keladigan shifokorlar soni 1913-yilda 0,3 nafardan 1940-yilda 4,7 nafarga ko'paygan. O'rta tibbiyot xodimlari soni ham oshib, 1913-yildagi 0,7 nafardan 1940-yilda 18,2 nafarga yetgan.

MUHOKAMA (DISCUSSION). Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, XX asr boshlarida janubiy vohalarda sog'liqni saqlash tizimi juda og'ir ahvolda bo'lgan. Tibbiy xizmatning mavjud emasligi aholi o'rtasida turli xil yuqumli kasalliklarning tarqalishiga va ommaviy o'lim holatlariga olib kelgan. Bu holat, asosan, tibbiy infratuzilmaning yo'qligi, zamonaviy tibbiy bilim va kadrlar yetishmasligi bilan izohlanadi. Sovet davri boshlanishi bilan vaziyat o'zgarib boshladi. Dastlab faqatgina harbiy va rus aholisi uchun tashkil etilgan tibbiy muassasalar asta-sekin butun aholi uchun ochiq bo'lgan tizimga aylandi. Shifoxonalar, ambulatoriyalar va feldsherlik punktlari tarmog'ining kengayishi bilan birga, tibbiy targ'ibot ishlari ham faollashdi.

Kadrlar masalasi tibbiyot tizimining asosiy muammosi bo'lib qolgan. Qarshi va Termizda tibbiyot bilim yurtlarining ochilishi bu muammoni hal etishda muhim qadam bo'ldi. Har 1000 kishiga to'g'ri keladigan shifokor va o'rta tibbiyot xodimlari sonining sezilarli darajada ortgani bu sohadagi ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatadi. Shunga qaramay, 1940-yillarda ham tibbiy xizmat asosan shaharlarda jamlangan bo'lib, qishloq aholisi e'tibordan chetda qolgan. Ayollar va bolalar salomatligini muhofaza qilish borasidagi ishlar ham sekinlik bilan rivojlangan.

XULOSA (CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, XX asr boshlaridagi janubiy vohalarda aholi

salomatligini muhofaza qilish tizimi amalda mavjud bo'lmagan. Bu holat aholining yuqumli kasalliklardan ommaviy o'limiga sabab bo'lgan. Sovet hokimiyati o'rnatilgach, tibbiy infratuzilmani yaratishga e'tibor qaratildi. Dastlabki qiyinchiliklarga qaramay, tibbiy muassasalar tarmog'i kengaytirildi va tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimi yo'lga qo'yildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Логофет Д.И. Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние. СПб. 1912.
2. Qobilov E.A. Surxon vohasi xo'jaligi. -Toshkent. Akademya. 2012.
3. Tursunov S.N., Qobilov E. va boshq. Surxondaryo tarix ko'zgasida. – Toshkent: Sharq, 2001.
4. Фомченко А.П. Русские поселения в Бухарском эмирате. – Т., 1958.
5. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – T.: Sharq, 2000.
6. Mo'minova G.E. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimi tarixi. –Toshkent, 2015.
7. Abdivohid K. va boshqalar. Shifokorim (tarixiy lavhalar esselar). – T.: Istiqol, 2006.
8. Raupov Sh., Do'sboyev A. Surxondaryo viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazi 85 yoshda. – Termiz, 2009.
9. Очерки истории Кашкадарьинской и Сурхандарьинской области Узбекистана советского периода (1917-1932 гг). Отв.ред. К.З.Житов. – Т.: Фан, 1968.
10. Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет. –Т.: Узбекистан, 1974.
11. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 474-fond, 1-ro'yaxat, 198-ish.
12. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 1-fond, 1-ro'yaxat, 789-ish.
13. O'z MA, R-86-fond, 1-ro'yaxat, 2393-ish.
14. O'z MA, R-86 fond, 1-ro'yaxat, 2323-ish.
15. O'z MA, R-86-fond, 2 ro'yaxat, 9-ish.
16. O'z MA, R-86-fond, 1-ro'yaxat, 3803-ish.
17. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 474-fond, 1-ro'yaxat, 198-ish.
18. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 45-fond, 1-ro'yaxat, 45-ish.
19. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 45-fond, 1-ro'yaxat, 5-ish.
20. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 45-fond, 1-ro'yaxat, 12-ish.

1941-1990 – YILLARDA SURXONDARYO VILOYATI MAKTABLARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT TA'LIMI

*Umarov Djamshed Sayitmuratovich, Termiz davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi*

PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS EDUCATION IN SCHOOLS OF SURKHANDARYA REGION IN 1941-1990

*Umarov Djamshed Sayitmuratovich, independent researcher at
Termez State University*

ФИЗИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ И СПОРТ В ШКОЛАХ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В 1941–1990 ГОДАХ

*Умаров Джемшед Саитмуратович, независимый исследователь
Термезского государственного университета*



<https://orcid.org/0009-0004-2134-0503>

e-mail:

Umarovjamshid510@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1941-yildan 1990-yilgacha bo'lgan davrda Surxondaryo viloyati maktablarida jismoniy tarbiya va sport ta'limining rivojlanishi ilmiy-tarixiy tahlil qilingan. Tadqiqotda Ikkinchi jahon urushi davridagi harbiy-jismoniy tayyorgarlikdan boshlab, urushdan keyingi davrda sportning ommaviylashuvi, bolalar sport maktablarining tashkil etilishi, sport turlarining rivojlanishi va mavjud muammolar yoritilgan. Maqolada arxiv materiallari, ilmiy adabiyotlar va davriy nashrlar tahlili asosida Surxondaryo sport ta'limi tarixining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, sport ta'limi, Surxondaryo viloyati, maktablar, bolalar sport maktabi, ot sporti, infratuzilma, kadrlar muammosi.

Abstract: This article provides a scientific and historical analysis of the development of physical education and sports education in schools in the Surkhandarya region from 1941 to 1990. The study covers the period from military physical training during World War II to the popularization of sports in the post-war period, the organization of children's sports schools, the development of sports and existing problems. The article reveals the specific features of the history of Surkhandarya sports education based on the analysis of archival materials, scientific literature and periodicals.

Keywords: physical education, sports education, Surkhandarya region, schools, children's sports school, equestrian sports, infrastructure, personnel problems.

Аннотация: В статье представлен научно-исторический анализ развития физического воспитания и спортивного образования в школах Сурхандарьинской области с 1941 по 1990 год. Исследование охватывает период от военно-физической подготовки в годы Великой Отечественной войны до популяризации спорта в послевоенный период, организации детских спортивных школ, развития спорта и существующих проблем. В статье на основе анализа архивных материалов, научной литературы и периодических изданий раскрываются особенности истории спортивного образования Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: физическое воспитание, спортивное образование, Сурхандарьинская область, школы, детская спортивная школа, конный спорт, инфраструктура, кадровые проблемы.

KIRISH (INTRODUCTION). O‘zbekiston sporti tarixining XX asr o‘rtalaridagi sovet davri, jismoniy tarbiya va sport tizimining shakllanishi hamda rivojlanishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davr mobaynida markaziy hukumatning qarorlari asosida sport harakati butun mamlakat bo‘ylab, shu jumladan Surxondaryo viloyatida ham rivojlantirilgan. Maqsadimiz – 1941-yildan 1990-yilgacha bo‘lgan davrda Surxondaryo viloyati maktablarida jismoniy tarbiya va sport ta‘limining rivojlanish bosqichlarini, erishilgan yutuqlar hamda mavjud muammolarini chuqur ilmiy tahlil qilishdir. Ushbu tadqiqot sport ta‘limi tarixidagi o‘zgarishlarni yoritib, kelajak uchun muhim xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

MATERIALLAR VA USULLAR (METHODS). Ushbu tadqiqot tarixiy tahlil usuliga asoslangan bo‘lib, mavzu bo‘yicha keng ko‘lamli, birlamchi va ikkilamchi manbalar kompleks ravishda o‘rganildi. Tadqiqotning asosini O‘zbekiston va Surxondaryo viloyati davlat arxivlarida saqlanayotgan asl hujjatlar tashkil etadi. Shuningdek, o‘sha davrga oid ilmiy monografiyalar, maqolalar va mahalliy davriy nashrlar ma‘lumotlari ham tahlilga jalb etildi. Og‘zaki tarixga oid ma‘lumotlarni to‘plash maqsadida mahalliy sport faxriylari bilan o‘tkazilgan suhbatlar ham muhim manba vazifasini o‘tadi.

Manbalar quyidagicha guruhlandi:

1. Arxiv hujjatlari: Surxondaryo viloyati davlat arxividan (45-fond, 1-ro‘yxat, 116-ish; 1-fond, 1-ro‘yxat, 91-ish; 18-fond, 1-ro‘yxat, 58-ish; 92-fond, 1-ro‘yxat, 77-ish). O‘zbekiston milliy arxividan (2310-fond, 1-ro‘yxat, 212-ish, 539-ish; R-94-fond, 1-ro‘yxat, 292-ish, 289-ish).

2. Ilmiy adabiyotlar: S.Tursunov, E.Qobilov, T.Pardayev, P.Tenk, R.Ismoilov, Ya.Yarotskiy, J.Toshpo‘latov, H.M.To‘ranazarov asarlari.

3. Davriy nashrlar: “O‘zbekiston fizkulturachisi” va “Ilg‘or Surxon uchun” gazetolari.

Tadqiqot jarayonida barcha ma‘lumotlar mantiqiy ketma-ketlikda, tarixiy davrlarga ajratilgan holda o‘rganilib, viloyat maktablarida jismoniy tarbiya va sport ta‘limi rivojlanishining asosiy xususiyatlari va dinamikasi aniqlandi.

NATIJALAR (RESULTS). Ikkinchi jahon urushi yillari sportga bo‘lgan yondashuv tubdan o‘zgardi. Barcha kuch va resurslar mamlakat mudofaasi uchun safarbar etildi. SSSR Davlat Mudofaa Qo‘mitasining 1941-yil 20-avgustdagi qaroriga binoan, butun mamlakatda bo‘lgani kabi, Surxondaryo viloyatida ham yuqori sinf o‘quvchilari uchun harbiy ta‘lim kurslari joriy etildi. O‘zbekiston Kompartiyasi (b) Markaziy Qo‘mitasining 1941-yil 4-oktyabrdagi qarori asosida, 8-9-sinflarda haftasiga 4 soatdan, 10-sinfda esa 5 soatdan “harbiy-jismoniy tarbiya va harbiy sanitariya bilimi bo‘yicha dars mashg‘ulotlarini ko‘paytirish tavsiya etildi”. Maktablar harbiy ta‘lim rahbarlari bilan ta‘minlandi, ko‘rgazmali o‘quv qurollari uchun mablag‘ ajratildi, “harbiy xonalar va jismoniy tarbiya maydonchalarini jihozlash uchun imkoniyat yaratib berildi”[1]. Natijada, 1942-yilga kelib, viloyat maktablarida 110 soatlik harbiy-jismoniy tayyorgarlik dasturi yakunlandi. “2778 nafar o‘quvchi GTO, BGTO normativlarini muvaffaqiyatli topshirdi”[2].

Urushdan keyingi yillarda mamlakatda tinch hayotga qaytish bilan birga, sport tadbirlari ham ommaviy tus oldi. “1946-yilda sportning 28 turi bo‘yicha o‘tkazilgan musobaqalarida 15 mingdan ortiq sportchi qatnashdi”[3]. Viloyatda jismoniy tarbiya jamolari soni 63taga, fizkulturachilar soni esa 12164 nafarga yetgan[4]. VKP(b) Markaziy Qo‘mitasining 1948-yil 27-dekabrdagi qarori o‘quvchi yoshlar o‘rtasida sportni ommaviylashtirishni nazarda tutar edi[6]. 1954-yilga kelib, “viloyatning o‘rta va yetti yillik maktablarida 13665 nafar sportchini o‘z ichiga olgan 158 ta jismoniy tarbiya jamoasi” faoliyat yuritgan [7].

Eng muhim voqea – 1955-yilda Termiz shahar xalq ta‘limi bo‘limi qoshida birinchi bolalar sport maktabining ochilishi bo‘ldi[8]. Bu maktabning tarbiyalanuvchisi V.Puskov 400 metr ga yugurish bo‘yicha respublika maktab o‘quvchilari spartakiadasi chempioni, qizlardan L.Trebuxina esa 100 va 200 metr masofalarda musobaqa chempioni bo‘ldi[9]. “1958-yilda o‘tkazilgan O‘zbekiston maktab o‘quvchilarining XI Respublika spartakiadasida esa Surxondaryo terma jamoasi ikkinchi guruhda umumjamoahisobida 1-o‘rinni egalladi”[12].

Bu davrda sezilarli yutuqlarga qaramay, bir qator muammolar saqlanib qoldi, bu esa sport ta'limining yanada rivojlanishiga to'sqinlik qildi. "Jumladan, 1953-1954-o'quv yilida o'rta va yetti yillik maktablarda (viloyat miqyosida) jismoniy tarbiya bo'yicha o'rta ma'lumotga ega bo'lgan atigi 4 nafar muallim ishlar edi"[13]. 1955-yilda viloyatdagi 366 nafar jismoniy tarbiya xodimining faqat 40-45 foizi maxsus ma'lumotga ega edi[15,16]. Bundan tashqari, "850 ta maktabning 49 tasida umuman jismoniy tarbiya o'qituvchisi yo'q edi"[16].

Shunga qaramay, 1970-yillardan boshlab ot sporti jadal rivojlandi. "Ayniqsa 1977-yili Termiz tumanidagi otchoparning tashkil etilishi yanada katta ishlarga yo'l ochib berdi"[18]. Bu yerda tashkil etilgan ot sporti maktabi M.Bo'riyev, aka-uka X. Sodiqov va I.Sodiqovlar, M.Tursunov, M.Jabborov kabi ko'plab chempionlarni yetishtirdi. Eng muhim yutuq esa 1976-yilda Monreal Olimpiya o'yinlarida sodir bo'ldi. Termiz otchoparida tarbiyalangan "Baazafil" va "Bedakur" laqabli otlar Valeriy Dvoryaninov boshqaruvida g'oliblikka erishib, oltin medalga sazovor bo'ldi[19].

MUHOKAMA (DISCUSSION). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 1941-1990-yillarda Surxondaryo viloyati maktablarida jismoniy tarbiya va sport ta'limi davr talablariga mos ravishda rivojlangan. Urushdan keyin sportning ommaviylashuvi va maktablarda sport jamoalari hamda bolalar sport maktablarining tashkil etilishi viloyat sportining respublika miqyosida muvaffaqiyatli ishtirok etishiga zamin yaratdi. Biroq, malakali mutaxassislar va sport infratuzilmasining yetishmasligi asosiy muammolardan biri bo'lib qolgan. Bu holat, ayniqsa, viloyatning chekka hududlarida sportning rivojlanishiga to'siq bo'lgan. Shunga qaramay, ot sporti kabi sohalarda erishilgan xalqaro yutuqlar mahalliy mutaxassislarning fidokorona mehnati natijasi bo'lib, Surxondaryo sportining o'ziga xosligini namoyon etdi.

XULOSA (CONCLUSION). 1941-1990 yillar oralig'ida Surxondaryo maktablarida jismoniy tarbiya va sport ta'limi harbiy tayyorgarlikdan boshlab, ommaviy sport va sport jamoalarining rivojlanishigacha bo'lgan murakkab yo'lni bosib o'tdi. Tizimning rivojlanishiga hukumat qarorlari va

mahalliy tashabbuslar ta'sir ko'rsatdi. Malakali kadrlar yetishmasligiga qaramay, mahalliy fidoyilik tufayli ot sporti kabi sohalarda xalqaro miqyosda ulkan yutuqlarga erishildi. Ushbu tarixiy tahlil viloyat sport ta'limi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 45-fond, 1-ro'yxat, 116-ish, 25- varaq.
2. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 45-fond, 1-ro'yxat, 116-ish, 27-varaq.
3. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 1-fond, 1-ro'yxat, 91-ish, 17-varaq.
4. O'zbekiston milliy arxivi. 2310-fond, 1- ro'yxat, 212-ish, 36-varaq.
5. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 18-fond, 1-ro'yxat, 58-ish, 12-18 varaqlar.
6. Tursunov S., Qobilov E., Pardayev T. Surxondaryo tarix ko'zgusi. – Toshkent: Sharq. 2001. – B. 278.
7. Tenk P. O'zbekiston studentlarini jismoniy tarbiyalash. Monografiya. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti. 1989. – B.48.
8. Исмаилов Р., Яроцкий Я. Вопросы истории физической культуры и спорта в Узбекистане. – Ташкент: Учитель, 1968. – С. 92.
9. O'zbekiston milliy arxivi. R-94-fond, 1-ro'yxat, 292-ish, 263-varaq.
10. Tursunov S., Qobilov E., Pardayev T. Surxondaryo tarix ko'zgusi. – Toshkent: Sharq. 2001. – B. 276.
11. O'zbekiston fizkulturachisi. 1956-yil 5-iyun.
12. O'zbekiston milliy arxivi. R-94-fond, 1-ro'yxat, 289-ish, 89-varaq.
13. O'zbekiston milliy arxivi. 2310-fond, 1-ro'yxat, 539-ish, 41-varaq.
14. Og'zaki tarix materiallari, Denov tumani, 2020-yil.
15. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 92 –fond, 1-ro'yxat, 77-ish, 70-varaq.
16. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 92 –fond, 1-ro'yxat, 77-ish, 12-47-varaq.
17. Ilg'or Surxon uchun. 1968-yil 25-avgust.
18. Toshpulatov J. Chavandoz o'zbekim yigitlari. Yangi asr avlodi. T., 2009. – B. 46.
19. Toshpulatov J. Chavandoz o'zbekim yigitlari. Yangi asr avlodi. T., 2009. – B. 47.
20. To'ranazarov H.M. O'zbek elatlari. Elbegilar. – Toshkent: Ekstremum press. 2011. – B. 129.
21. Toshpulatov J. Surxondaryoda jismoniy tarbiya va sport. Termiz, 1991. – B. 65.

**MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON
SHAHARLARIDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMI
RIVOJI (SURXONDARYO VA QASHQADARYO
VILOYATLARI MISOLIDA)**

*Kadirova Yakitjan Buvabayevna, Termiz davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent*

**DEVELOPMENT OF THE HEALTH CARE
SYSTEM IN CITIES OF UZBEKISTAN IN THE
YEARS OF INDEPENDENCE (ON THE EXAMPLE
OF SURKHANDARYA AND KASHKADARYA
REGIONS)**

*Kadirova Yakitzhan Buvabayevna, Independent Researcher,
Termez State University, Doctor of Philosophy (PhD) in
Pedagogical Sciences, Associate Professor*

**РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ В
ГОРОДАХ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ
НЕЗАВИСИМОСТИ (НА ПРИМЕРЕ
СУРХАНДАРЬИНСКОЙ И
КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТЕЙ)**

*Кадирова Якитжан Бувобаевна, независимый научный
исследователь Термезского государственного
университета, доктор философии по педагогическим
наукам (PhD), доцент*

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng, xususan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari shaharlarida sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar, tibbiy infratuzilmaning rivojlanishi, davolash muassasalarining moddiy-texnik bazasining mustahkamlanishi, tibbiy kadrlar salohiyatining oshishi va aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatidagi o‘zgarishlar tahlil qilingan

Kalit so‘zlar: Sog‘liqni saqlash, tibbiyot tizimi, infratuzilma, davolash muassasalari, tibbiy kadrlar, Surxondaryo viloyati, Qashqadaryo viloyati.

Abstract: This article analyzes the large-scale reforms implemented in the healthcare system in the cities of Surkhandarya and Kashkadarya regions after the Republic of Uzbekistan gained independence, in particular, the development of medical infrastructure, strengthening of the material and technical base of medical institutions, increasing the capacity of medical personnel, and changes in the quality of services provided to the population.

Keywords: healthcare, medical system, infrastructure, medical institutions, medical personnel, Surkhandarya region, Kashkadarya region.



[https://orcid.org/0009-](https://orcid.org/0009-0005-0206-1411)

[0005-0206-1411](https://orcid.org/0009-0005-0206-1411)

e-mail: xqodirova@bk.ru



Аннотация: В данной статье анализируются масштабные реформы, реализованные в системе здравоохранения городов Сурхандарьинской и Кашкадарьинской областей после обретения Республикой Узбекистан независимости, в частности, развитие медицинской инфраструктуры, укрепление материально-технической базы медицинских учреждений, повышение потенциала медицинских кадров, а также изменение качества услуг, предоставляемых населению.

Ключевые слова: Здравоохранение, медицинская система, инфраструктура, медицинские учреждения, медицинские кадры, Сурхандарьинская область, Кашкадарьинская область.

KIRISH. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng mamlakatda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Ijtimoiy soha, xususan, sog‘liqni saqlash tizimi ushbu islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoldi. Aholi salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan bu chora-tadbirlar yangi tibbiyot muassasalarini barpo etish, mavjudlarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash, ularni zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta‘minlash hamda tibbiy xizmat sifatini oshirishni o‘z ichiga oldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Tadqiqotning asosiy manbalari quyidagi turdagi hujjatlar va adabiyotlardan iborat:

1. Arxiv hujjatlari: Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari davlat arxivlarining tegishli fondlaridan olingan ma‘lumotlar, jumladan, sog‘liqni saqlash bo‘limlarining hisobotlari, yillik rejalar va moliyaviy hisob-kitoblar. Xususan, Qashqadaryo viloyat davlat arxividagi fondlar ([4], [5], [6], [7], [8], [12], [16], [17], [18], [20]) va Surxondaryo viloyat davlat arxividagi fondlar ([23]) asosiy manba bo‘lib xizmat qildi.

2. Statistik ma‘lumotnomalar: Surxondaryo viloyati statistika bosh boshqarmasi tomonidan nashr etilgan ma‘lumotnomalar ([1], [2]).

3. Davriy nashrlar: Mustaqillik yillaridagi mahalliy gazetalar, xususan, “Nishon tongi”([9], [19], [22]), “Kesh” ([13]) va “Koson” ([21]) gazetalarida chop etilgan maqolalar va lavhalar.

4. Ilmiy va ommabop adabiyotlar: Mustaqillik yillarida viloyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bag‘ishlangan kitoblar va ocherklar ([3], [10], [14], [15]).

Tadqiqot jarayonida ma‘lumotlar to‘plash va tahlil qilish uchun bir nechta usullar kompleks ravishda qo‘llanildi:

Tarixiy-qiyyosiy usul	Tizimli yondashuv	Statistik tahlil
-----------------------	-------------------	------------------

NATIJALAR. Tadqiqot natijalari mustaqillik yillarida O‘zbekistonda, xususan Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan ulkan o‘zgarishlarni yaqqol ko‘rsatadi.

1. Tibbiy infratuzilmaning rivojlanishi: Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, shaharlar aholisi salomatligini saqlash borasida yangi kasalxonalar qurish va mavjudlarini ta‘mirlashga katta e‘tibor berildi. 1991-yilda Surxondaryo viloyatida jami 3495 ta davolash o‘rni mavjud bo‘lgan bo‘lsa ([1]), 1997-yilga kelib bu ko‘rsatkich 8784taga yetdi. Natijada, har 10 ming aholiga 59,6 kasal o‘rni to‘g‘ri keldi ([2]). 1997-yilda Boysun, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Sherobod va Sho‘rchi tumanlarida yangi davolash muassasalari qurilib, ishga tushirildi. Qashqadaryo viloyati misolida esa 2007-yilda aholiga 13 ta kasalxona, 3 ta sanatoriy, 63 ta ambulatoriya-poliklinika, jami 72 ta davolash-profilaktika muassasasi xizmat qilgan ([3], [14]). Qurilish ishlari doimiy davom ettirildi. 2011-yilda Qamashi tuman markaziy shifoxonasi binosiga 3 mlrd 450 mln so‘m ajratilib, 150 qatnovga mo‘ljallangan markaziy poliklinika binosi ishga tushirildi ([10]). 2014-yilda Chiroqchi shahrida 60 o‘rinli bolalar shifoxonasi qurib foydalanishga topshirildi.

2. Tibbiyot tizimini moliyalashtirishning oshishi: Tibbiy xizmat sifatini yaxshilash va infratuzilmani mustahkamlash uchun davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘lar hajmi yildan yilga oshib bordi. Yakkabog‘ shahri va tumanida sog‘liqni saqlash uchun 1991-yilda 10 mln 877 ming so‘m ajratilgan bo‘lsa, 1992-yilda bu ko‘rsatkich 27 mln 407 ming so‘mga yetdi ([4]).

2008-yilda sogʻliqni saqlash sohasiga 9 mlrd 311 mln soʻm mablagʻ yoʻnaltirildi, bu 2007-yilga nisbatan 1,7 barobar koʻpdir ([12]). 2009-yilda esa mahalliy budjet xarajatlarining qariyb 25,3 foizi yoki 427 mln soʻm miqdorida mablagʻ ajratilgani maʼlum boʻldi ([13]). 2008-2010-yillarda Qashqadaryo viloyatida 5 mlrd 525 ming soʻmlik tibbiy jihozlar olindi va 5 mlrd 352 mln soʻmlik qurilish-taʼmirlash ishlari amalga oshirildi ([3]).

3. Kadrlar salohiyati va malakasini oshirish: Tibbiyot muassasalarining soni ortishi bilan birga, ularda ishlovchi mutaxassislar soni va malakasiga ham katta eʼtibor qaratildi. Shahrisabz shahar va tuman muassasalarida 718 nafar oliy maʼlumotli vrach va 3179 nafar oʻrta maʼlumotli hamshiralar mehnat qildi. Ulardan 56 nafari oliy, 309 nafari birinchi toifali shifokorlar edi ([11]). 2007-yilda Chiroqchi shahrida 337 nafar vrach faoliyat yuritgan boʻlib, ulardan 36 nafari malaka oshirgan ([18]). 2003-yilda Gʻuzor shahrida 54 nafar vrach va 260 nafar oʻrta tibbiyot xodimlari malakasini oshirgan ([17]). Bu maʼlumotlar kadrlar salohiyatiga doimiy eʼtibor berilganini koʻrsatadi.

4. Zamonaviy texnologiyalar va shoshilinch tibbiy yordam: Tibbiyot sohasiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga alohida eʼtibor qaratildi. Gʻuzor shahrida 1992-yilda Yaponiyadan keltirilgan uskunalar oʻrnatilgan diagnostika boʻlimi ochildi ([7]). Shoshilinch tibbiy yordam tizimining rivojlanishi esa Gʻuzor shahrida 2001-yilda 30 oʻrinli boʻlim ochilishi ([20]) va 2016-yilda Yangi Nishon shahriga 98 mln soʻmlik “Nissan” rusumli “Tez yordam” mashinasi berilishi ([22]) misolida koʻrsatiladi.

MUHOKAMA. Tibbiy muassasalarga ajratilayotgan mablagʻlarning yildan yilga ortib borishi bu sohaning davlat siyosatida ustuvor ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Boshqa tadqiqotlar va ilmiy manbalarda ham Oʻzbekistondagi sogʻliqni saqlash sohasining umumiy rivojlanishi haqida soʻz borgan. Ushbu tadqiqot esa mintaqaviy misollar (Surxondaryo va Qashqadaryo) asosida bu jarayonlarning hududiy koʻrinishini tahlil qilishga imkon beradi.

XULOSA. Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda sogʻliqni saqlash tizimi keng

qamrovli islohotlar natijasida tubdan oʻzgardi. Ushbu tadqiqotda Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari misolida olingan natijalar ushbu taraqqiyotning yaqqol dalilidir. Davlat tomonidan bu sohaga ajratilgan moliyaviy mablagʻlarning keskin oshishi tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash imkonini berdi. Eng muhimi, tibbiy xodimlarning soni va malakasi oshirilishi hamda shoshilinch tibbiy yordam tizimining takomillashtirilishi aholiga koʻrsatilayotgan xizmatlar sifatini yangi bosqichga olib chiqdi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Surxondaryo viloyati hokimligi va statistika bosh boshqarmasi. 1991-2002 y. -Termiz: 2004. –B.285.
2. Surxondaryo viloyat hokimligi Iqtisodiyot va statistika boshqarmasi. 1998-y. 10.01.19-bet.
3. Qashqadaryo viloyati istiqloq yillarida (Prezident Islom Karimovning “Oʻzbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yoʻli” risolasidan kelib chiqqan holda, viloyatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojiga bir nazar) / Mualliflar guruhi rahbari A.Erkayev. - Toshkent: Maʼnaviyat, 2007. –B.37.
4. Qashqadaryo viloyati hokimligi joriy arxivi, 857-jamgʻarma, 1-roʻyxat, 3-ish, 37-varaq.
5. Qashqadaryo viloyati hokimligi joriy arxivi, 857-jamgʻarma, 1-roʻyxat, 3-ish, 41-varaq.
6. Qashqadaryo viloyati hokimligi joriy arxivi, 860-jamgʻarma, 1-roʻyxat, 2-ish, 81-varaq.
7. Qashqadaryo viloyati hokimligi joriy arxivi, 845-jamgʻarma, 1-roʻyxat, 1-ish, 46-varaq.
8. Qashqadaryo viloyati hokimligi joriy arxivi, 829-jamgʻarma, 1-roʻyxat, 88-ish, 24-varaq.
9. Tursunova S. Xizmat ehtirom topdi // Nishon tongi, 2006 yil 31 mart. №13 (3251).
10. Boymirov T. Boyqobilov Oʻ. Qamashi va qamashiliklar. Qamashi tumani oʻtmishi va buguni haqida ocherk, esse va lavhalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. –B. 172.
11. Shodiyev K. Shahrisabzda tibbiyot tarixidan. – 12 b.
12. Qashqadaryo viloyati davlat arxivi Shahrisabz filiali, 4-fond, 1-roʻyxat, 34-ish, 8-varaq.

13. Jo'rayev M. Ijtimoiy qo'llab – quvvatlashni kuchaytirish // Kesh, 2009-yil 30-yanvar.
14. Qashqadaryo viloyati istiqloq yillarida (Prezident Islom Karimovning "O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li" risolasidan kelib chiqqan holda, viloyatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojiga bir nazar) / Muallif lar guruhi rahbari A.Erkayev. - Toshkent: Ma'naviyat, 2007. –B.37.
15. Nuriddinov H. G'uzorliklar. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. –B. 83.
16. Qashqadaryo viloyati hokimligi joriy arxivi, 845-jamg'arma, 6-ro'yxat, 1-ish, 11-varaq.
17. Qashqadaryo viloyati hokimligi joriy arxivi, 845-jamg'arma, 12-ro'yxat, 2-ish, 11-varaq.
18. Qashqadaryo viloyati hokimligi joriy arxivi, 853-jamg'arma, 12-ro'yxat, 38-ish, 14-varaq.
19. To'raqulov T. Ahil jamoa // Nishon tongi, 2005-yil 15-aprel. №16 (3202).
20. Qashqadaryo viloyati hokimligi joriy arxivi, 845-jamg'arma, 12-ro'yxat, 46-ish, 8-varaq.
21. Koson, 2013-yil 6-noyabr. №46 (7880).
22. Bozorov I. 2016-yil – biz uchun xayrli bo'ldi // Nishon tongi, 2017-yil 13-yanvar. № 3-4 (3807).
23. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 77-fond, 1-yozuv, 151-ish, 63-varaq.



DYNASTIC CRISIS IN THE BUKHARA KHANATE AND EMIRATE: CAUSES AND CONSEQUENCES

Sharifov Ehronbek Erkin o'glu, Scientist of the Educational Methodological Department of Termez State University

BUXORO XONLIGI VA AMIRLIGIDAGI SULOLAVIY KRIZIS: SABAB VA OQIBATLARI

Sharifov Ehronbek Erkin o'g'li, Termiz davlat universiteti o'quv-uslubiy bo'limi ilmiy xodimi

ДИНАСТИЧЕСКИЙ КРИЗИС В БУХАРСКОМ ХАНСТВЕ И ЭМИРАТЕ: ПРИЧИНЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ

Шарифов Эхронбек Эркин оглы, научный сотрудник учебно-методического отдела Термезского государственного университета



<https://orcid.org/0009-0003-1409-6496>

0003-1409-6496

e-mail:

ehronbek@tersu.uz

Abstract: This article analyzes the causes and consequences of the dynastic crises in the Bukhara Khanate and Emirate, focusing on the periods of rule of the Shaybanids, Ashtarkhanids, and Mangid dynasties. The article emphasizes that the loss of independence and territorial integrity, the transformation of the Bukhara Emirate into a Russian protectorate and its eventual dissolution, culminated in the Khanate's transformation into a Russian protectorate.

Keywords: Bukhara Khanate, Bukhara Emirate, Shaybanid dynasty, Ashtarkhanid dynasty, Mangid dynasty, internal conflicts.

Annotatsiya: Bu maqolada Buxoro xonligi va amirligidagi sulolaviy inqirozlarning sabab va oqibatlari tahlil qilinib, Shayboniylar, Ashtarxoniylar, Mang'itlar sulolalari hukmronlik qilgan davrlarga e'tibor qaratilgan. Maqolada mustaqillik va hududiy yaxlitlikning yo'qolishi, Buxoro amirligining Rossiya protektoratiga aylantirilishi va oxir-oqibat tugatilishi bilan yakunlanganligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Buxoro xonligi, Buxoro amirligi, Shayboniylar sulolasi, Ashtarxoniylar sulolasi, Mang'it sulolasi, ichki mojarolar.

Аннотация: В статье анализируются причины и последствия династических кризисов в Бухарском ханстве и эмирате, уделяя особое внимание периодам правления династий Шейбанидов, Аштарханидов и Мангидов. Подчеркивается, что потеря независимости и территориальной целостности, превращение Бухарского эмирата в российский протекторат и его последующий распад привели к переходу Бухарского эмирата под российский протекторат.

Ключевые слова: Бухарское ханство, Бухарский эмират, династия Шейбанидов, династия Аштарханидов, династия Мангидов, внутренние конфликты.

INTRODUCTION. The dynastic crises within the Bukhara Khanate and Emirate were a series of events that led to the decline and fall of its ruling dynasties, from the Shaybanids to the Ashtarkhanids and finally the Mangits. These

crises were not isolated events but were part of a continuous cycle of political fragmentation, internal power struggles, and economic decline. This instability, exacerbated by fierce competition for the throne and frequent invasions, ultimately

left the state vulnerable to foreign powers, leading to its eventual loss of sovereignty and absorption into the Russian Empire.

RESULTS AND DISCUSSION. Reasons for the overthrow of the Shaybanid dynasty and the arrival of another dynasty in the Bukhara Khanate: The crisis of the Shaybani dynasty. Until 1533, the capital of the country was Samarkand. During the reign of Ubaydullah (1533-1539) the capital was moved to Bukhara and the khanate was renamed the Bukhara Khanate. In 1510, after the defeat of Shaybanikhan Shah Ismail I from the Safavid army near Merv, Movarounnahr passed into the hands of Zahiriddin Muhammad Babur from the Timurids. However, the Shaybanis soon recaptured Movarounnahr[1]. From that time on, Movarounnahr was completely under the control of the Shaybanis. At that time, the khanate included most of present-day Uzbekistan and Tajikistan, Balkh and Badakhshan. After the death of Ubaydullah, the Bukhara khanate was divided into small parts. In Bukhara, Ubaydullah's son Abdulazizkhan declared independence, and in Samarkand, Kochkunchikhan's son Abdullatifkhan declared independence. In Balkh and Badakhshan, Pirmuhammad Khan of the Shaybanids ruled independently[2]. During these years the struggle for power of the Shaybani sultans and local landowners intensified. Navruz Ahmadkhan (Barakkhan) in Tashkent and Turkestan, Iskandarkhan in Karmana and Miyankol, Pirmuhammadkhan in Balkh and other small rulers became independent. In 1551-1556, Iskandarkhan's son Abdullah Khan won the battle for Movarounnahr among the Shaybanids and established his rule in the Bukhara Khanate[3]. From 1557, Bukhara became the capital of the uninterrupted khanate. During the reign of Iskandarkhan (1563-1583) and his son Abdullah II, the political status of the Bukhara Khanate increased. Abdullah Khan II established his rule over Balkh (1573), Samarkand (1578), Tashkent (1582), Fergana (1583), Badakhshan (1584), Kulob (1585), Khorasan (1588), and Khorezm (1595-1596); strengthened the central state administration. Thus, by the end of the 16th

century, the Bukhara Khanate had become a huge centralized state[4]. It is bordered on the east by Kashgar and on the west by the Aral Sea and the Caspian Sea. The northern borders of the khanate extended to Turkestan and Sayram, and included the eastern part of Khorasan in the south. Pirmuhammad Khan II ascended the throne. However, his reign was short-lived and he was overthrown in 1601. At the same time, the Shaybani dynasty, which had ruled for almost 100 years, came to an end, and the Ashtarkhan (Jani) dynasty of the Jojikhan dynasty began to rule in Movarounnahr[5].

The overthrow of the Ashtarkhanid dynasty and the end and crisis of this dynasty: During the Ashtarkhanids, political strife and tyranny in the khanate almost did not stop. Boqi Muhammad (1601-1605), the son of Prince Janibek, originally from Ashtarkhan, who settled in Bukhara, was succeeded by his brother Vali Muhammad (1605-1611).

During the reign of Imamqulikhan (1611-1642) Kazakh looters and other nomads plundered the lands of the Bukhara Khanate. For example, Imamqulikhan captured Tashkent in 1612 and appointed his son Alexander as governor, but a revolt broke out in the city and Alexander was killed. Imamqulikhon annexed Tashkent to the khanate. During his time the khanate became much stronger. When Imam Qulikhan became blind, his brother Nadr Muhammad Khan (1642-1645), who had taken the throne, also protested with cruelty and oppression. As a result, he abdicated under pressure from opposition forces.

Power passed to his son Abdulaziz II (1645-1681). He is trying to strengthen the central government, but is unable to overcome the growing fragmentation. At this time the king of Iran occupied Abbas / Balkh, later Balkh was recaptured from Iran. A power struggle began between Abdulaziz II and his brother Subhanqulikhan. During the reign of the Ashtarkhanids, Khiva khan Abulgazi Bahodirkhan and later his son Anushahon frequently attacked Bukhara and Samarkand. Subhanqulikhan (1681-1702), who ascended the throne, fought fiercely

against his opponents. He made military expeditions to Balkh and Khorasan. During the reign of his son Ubaydullah (1702-1711) the governors of Balkh, Termez and Shakhrisabz tried to become independent. The khan was forced to launch military campaigns against them. He sent troops against the rebellious tribes in Samarkand and Gissar. After incessant wars and military campaigns, the treasury was emptied and the economic situation worsened. As a result of the monetary reform of 1708-1709, the value of money fell four times. The people affected by the uprising revolted, but the revolt was brutally suppressed. The deterioration of the political and economic situation in the khanate exacerbated internal conflicts. Ubaydullah was assassinated in 1711 as a result of a conspiracy by some influential emirs. Abulfayzkhan (1711-1747), the brother of the late khan, was enthroned. Important positions in government passed into the hands of influential amirs. After the weakening of the central government, in 1711 Balkh and in 1723 Samarkand region separated from the Bukhara khanate. In the 1720s, the Tashkent region was occupied by the Kalmyks. At the same time, Khiva khan Shergozikhan also claimed the Bukhara khanate, but his efforts were ineffective. In 1723, the Kalmyks invaded the Kazakh steppes and forced the Kazakhs to flee to Movarounnahr. The Kazakhs entered the Zarafshan valley with their livestock and destroyed gardens and crops. In the Bukhara khanate, economic and political tensions intensified and the khanate was in decline. Movarounnahr was divided into three khanates (Bukhara, Kokand and Khiva)[6].

Taking advantage of this, Nadir Shah, the ruler of Iran, captured Balkh in the spring of 1740, and in the fall of that year, with a large army, crossed the Amu Darya and conquered the Bukhara Khanate. Muhammad Hakim, a member of the Mangit tribe, succeeded to the throne. Abulfayzkhan's prestige declines. After the death of Nadirshah (1747), the khanate regained its independence from Iran. In 1747, Abulfayzkhan was assassinated by conspirators led by Muhammad Rahim, who succeeded his father.

Dissatisfied with this, the governors revolted. After the revolts were brutally suppressed, the arch of Muhammad Rahim ascended the throne of Bukhara in 1753 by a fatwa of the state and the clergy, declaring himself "Amir". After that, the Ashtarkhanid dynasty ended and the Mangit dynasty began to rule.

The end and crisis of the Mangit dynasty:

During the reign of Muhammad Rahim (1753-1758) the lands of the Bukhara Emirate were significantly reduced. It included Bukhara, Samarkand, Miyankol, Karmana, Karshi, Guzar, Karki, Charjoi, Shakhrisabz regions, and Tashkent and Fergana regions were separated from the khanate. During the reign of Daniel (1758-1785), wars continued, and local forces revolted in Karmana, Uratapa, Nurata, Sherabad, Boysun, and elsewhere, trying to break out of the capital. During the reign of Daniel's eldest son, Shah Murad, (1785-1800), some of the taxes imposed by Daniel were abolished and economic life improved somewhat. The position of the priests increased. No matter how hard the Mangit dynasty tried to strengthen the central government, the regional governors continued to strive for independence[7]. The struggle with Shakhrisabz and Kitab beks, who were opposed to Bukhara, was especially fierce. It was only in 1853 that these principalities were conquered by Bukhara. The reign of Amir Haydar (1800-1826) was not without its internal and external wars. In particular, Oratepa passed from hand to hand several times. In the first quarter of the 19th century, there were genocidal and looting wars between Bukhara and the Khiva and Kokand khanates in order to gain dominance in Central Asia. Tashkent, Turkestan, Shymkent and their environs came under the control of the Kokand Khanate. In 1825 the Khiva khanate occupied Marv, which belonged to Bukhara. Continuous wars and rising taxes led to uprisings, including the Chinese-Kipchak uprising between Bukhara and Samarkand in 1821-1825 (see Miyankol Kozyuloni).

Amir Haydar's successor, Nasrullah (1827-1860), succeeded in expanding the emirate's lands.

He wiped out all possible candidates for the throne. In 1839, 1841 and 1858, Nasrullah invaded the Kokand khanate, massacred the population and plundered its wealth. In 1842 and 1843 there were military clashes between the Bukhara and Khiva khanates. Sar Russia saw Central Asia as a market for goods and a source of raw materials. In 1866, Russian troops invaded the borders of the Bukhara Emirate and occupied the cities of Khojand (May 24), Uratapa (October 2), and Jizzakh (October 18). In 1867, the Governor-General of Turkestan was established to manage the occupied territories. On May 2, 1868, Samarkand was occupied by Russian troops led by General Kaufman. In June, the Emir of Bukhara dealt a final blow to Muzaffar's army near Zirabulak. The Emir appealed to the Governor-General to make peace. On June 23, 1868, a treaty was signed between the two. The lands occupied by Russian troops passed into the hands of tsarist Russia; The Emirate of Bukhara was deprived of an independent foreign policy; The Emir paid 500,000 soums to the Russian tsar. On September 28, 1873, the treaty was amended to increase the emirate's dependence on Russia. As a result, one-third of the emirate's lands passed into the hands of tsarist Russia; The loss of Khojand, Uratapa, Panjikent, Samarkand, and Kattakurgan to Zirabulak, and in eastern Bukhara the Shugnan, Vakhon, and Rushan regions, especially the upper reaches of the Zarafshan River, deprived Bukhara of its main source of livelihood. further increased. Although the Emir of Bukhara was considered a legally independent ruler, he was in fact dependent on the Russian tsar. Popular movements against the Emir and his officials were suppressed with the help of Tsarist Russia's troops. Amir Abdulakhad was a general of the Russian sar[8]. During his time, Russian officials enjoyed great privileges in the emirate. Russians were brought and settled along the railways that passed through the emirate.

Russian troops also guarded the Bukhara-Afghan border. The dependence of the Bukhara Emirate on tsarist Russia increased during the reign of Amir Alimkhan (1910-20). The young people of Bukhara, together with the Russian Bolsheviks, tried to overthrow the Emir's government in March 1918. But the attempt failed. On September 2, 1920, as a result of the invasion of Bukhara, the emirate was abolished[9].

CONCLUSION. The dynastic crises of the Bukhara Khanate and Emirate were caused by a consistent pattern of internal vulnerabilities, including political fragmentation, power struggles, and economic decline. These systemic weaknesses left the state unable to withstand external threats, from neighboring khanates to the powerful Russian Empire. Ultimately, a state too consumed by internal conflict lost its ability to defend its sovereignty, leading to its gradual loss of independence and, eventually, its complete abolition.

REFERENCES:

1. Shamsutdinov R., Abdullayev F., Abdullayev M. Buyuk boburiylar saltanati.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2001. I-IV jild.
3. Hofiz Tanish Buxoriy, Abdullanoma, 1-II jildlar, T., 1999, 2000.
4. Мир Мухаммад Амини Бухари, Убайдуллонаме, Т., 1957.
5. Mirmuhammad Amin Buxoriy. Ubaydullanoma. – T.: Fan, 1957, 158-bet.
6. Абдурахмон Толе. История Абулфейзхана, Т., 1959.
7. Мирза Абдал Азим Сами, Тарих салатини мангитияи Бухара, М., 1962.
8. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. 283-284-betlar.
9. Amir Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. – T.: Fan, 1991, 7-bet.



Qabul qilindi: 15.07.2025

Chop etildi: 30.08.2025

UDK:94.(575.1)

XX ASRNING 50-80-YILLARIDA O‘ZBEKISTON SSRDA
TA’LIMGA BO‘LGAN MUNOSABAT*Xomidov Abror Xushniyozovich, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti “Tarixshunoslik va manbashunoslik” kafedrasida o‘qituvchisi*ATTITUDE TOWARDS EDUCATION IN THE
UZBEKISTAN SSR IN THE 50S-80S OF THE 20TH
CENTURY*Khomidov Abror Khushniyozovich, teacher of the Department of “Historical Studies and Source Studies” of the Faculty of History of Samarkand State University named after Sharof Rashidov*ОТНОШЕНИЕ К ОБРАЗОВАНИЮ В
УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР В 50–80-Е ГОДЫ XX ВЕКА*Хомидов Аброр Хушниёзович, преподаватель кафедры “Историковеждение и источниковеведение” исторического факультета Самаркандского государственного университета имени Шарафа Рашидова*

<https://orcid.org/0009-0008-3020-101X>
e-mail:
xomidovabrol@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning 50-80-yillarida O‘zbekiston SSSRning ta’limga bo‘lgan munosabati, bu borada olib borilgan islohotlar va ularning natijalari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: “baynalmilalchilik”, “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik”, “rivojlangan sotsializm”, KPSS, ta’lim, institut, maktab, milliy mafkura.

Abstract: This article discusses the attitude of the Uzbek USSR to education in the 50s-80s of the 20th century, the reforms carried out in this regard and their results.

Keywords: “internationalism”, “socialist in form with national content”, “developed socialism”, CPSU, education, institute, school, national ideology.

Аннотация: В данной статье рассказывается об отношении Узбекистана СССР к образованию в 1950-1980-е годы, реформах, проведенных в этом направлении и их результатах.

Ключевые слова: “интернационализм”, “социалистическая форма с национальным содержанием”, “развитый социализм”, КПСС, образование, институт, школа, национальная идеология.

KIRISH. XX asrning 50-80-yillarida O‘zbekiston SSSRda ta’lim tizimi maorif, fan va madaniyatni yangi bosqichga ko‘tarish uchun bir qancha qarorlar ishlab chiqildi. Har bir fan sohalari bo‘yicha yetuk kadrlarni tayyorlash uchun ilmiy va salohiyatli fan fidoyilari oliy ta’lim va o‘rta ta’lim tizimiga jalb qilindi. Urushdan keyingi yillarda oliy o‘quv yurtlari va maktablar soni ko‘paydi. Yosh avlodni savodli qilish va bilimli kadrlarni tayyorlash ishlari bosqichma- bosqich amalga oshirib borildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Mustaqillik yillarida butun O‘zbekiston hududidagi yoshlar tarixiga bag‘ishlab yozilgan asarlar, monografiyalar

kiradi. Ushbu guruhga yoshlar bo‘yicha izlanishlar olib borgan R.X.Murtazayeva[1], M.Sodiqov larning[2] shu davrga doir bir qancha monografiya va maqolalari chop etilgan, ilmiy ishlari amalga oshirilgan.

MUHOKAMA. Urushdan keyingi yillarda O‘zbekiston sovetlar hukumati maorif, fan va madaniyatni rivojlantirishga e’tibor berdi, bu tarmoqlar buyuk davlatchilik siyosati manfaatlariga bo‘y-sundirilgan holda olib borildi. Bu siyosatni “baynalmilalchilik” va “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik” deb atalgan shovinistik g‘oyalar asosida amalga oshirildi. Chunki “baynalmilalchilikka” tashqi shakl va tashviqot-targ‘ibot nuqtayi naza-

ridan haqiqiy baynalmilalchilik g'oyasi berilgan bo'lsa-da, amalda sovetlar hukmronligi davrida bu g'oya har qanday milliylik va milliy manfaatni nazar-pisand qilmas, milliylik va milliy manfaat g'oyasi tarafdorlarini hech ikkilanmasdan iskanja ostiga olar va qatag'on qilar edi. "Shaklan milliy va mazmunan sotsialistik" madaniyat g'oyasi ham aslida mahalliy millatlar ongini zaharlash quroli bo'lgan. Chunki "shakl" shunchaki ishlatilgani holda asosiy maqsad, g'oya mazmun pardasiga o'ralgan bo'lib, u milliy qadriyatlarini "sotsialistik" niqob ostida ruslashtirish manfaatlariga xizmat qilar edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "ta'lim sohasini rivojlantirish maqsadida mamlakatimiz olimlarining yangi ilmiy ishlarini hayotga joriy etish, yoshlarni fan va texnika sohasiga jalb etish, fundamental va amaliy fan sohasining ishlab chiqarish tarmoqlari bilan aloqalarini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo'limlarini tashkil etish, moddiy hamda moliyaviy qo'llab quvvatlashni taklif qildi" [1].

1946—1985-yillar oralig'ida Markaz ideologlari tomonidan o'ylab topilgan ana shu xayoliy va noilmiy aqidalar girdobida, butun mamlakatda bo'lganidek, O'zbekistonda ham maorif, oliy ta'lim, ilm-fan, san'at o'ta siyosiydashgan holda rivojlanishga majbur qilindi. Yana eng muhimi shundaki, bu davrda barcha milliy respublikalar va millatlar madaniyatini o'zida mujassamlashtirgan yagona "sovet madaniyati" yaratilganligining e'tirof etilishi SSSRga birlashtirilgan barcha xalqlar ma'naviyatning bundan keyingi yo'nalishini belgilab berdi. Madaniyat, ayniqsa, milliy madaniyatning "rivoji" maxsus qolipga solindi. Siyosiy o'lehovlarga, kommunistik mezonga javob bermagan har qanday asar yo'qqa chiqarildi, uning muallifi esa jamiyatga yaroqsiz shaxs sifatida "chetga surib" qo'yildi[2]. Urushdan keyingi 1946-1990-yillarda O'zbekistonda xalq ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim rivojini quyidagi raqamlar ko'rsatdi: 1940-1941-o'quv yilida 5448 umumta'lim maktablari bo'lib, ularda 1 million 651,1 ming o'quvchi ta'lim- tarbiya olgan bo'lsa, 1987-1988-o'quv yilda 8111 umumta'lim maktablari o'quvchilar soni 4 million 406,3 ming kishiga etdi, ya'ni taxminan uch yarim barobarga yaqin ko'paydi. 1990-yilda umumta'lim maktablari soni 9000 taga yetdi[3].

1946—1985-yillar oralig'ida Markaz ideologlari tomonidan o'ylab topilgan ana shu xayoliy

va noilmiy aqidalar girdobida, butun mamlakatda bo'lganidek, O'zbekistonda ham maorif, oliy ta'lim, ilm-fan, san'at o'ta siyosiydashgan holda rivojlanishga majbur qilindi[4]. Respublika xalq ta'limi urushdan keyingi yillarda bir qator jiddiy qiyinchiliklarni yengib o'tishiga to'g'ri keldi. Urush yillarida ta'lim tizimiga e'tibor berilmadi. Ana shu "odat" urushdan keyingi dastlabki yillarda ham davom etdi. Urush davrida o'qishga jalb etilmagan maktab yoshidagi bolalarni urushdan keyingi dastlabki yillarda ta'lim tizimiga tortish juda muhim masala bo'lib qoldi. Bundan tashqari, urush yillarida ta'lim sifati ham juda pasayib ketgan bo'lib, 20-yillardagi qoloq uslublarda olib borilardi. Bu esa o'quvchilarni o'qishdan bezdirar, o'qishni tashlash va sinfda qolish hollari ko'paymoqda edi. Masalan, 1945/46-o'quv yilida O'zbekiston maktablaridagi o'quvchilar soni rejadagi 1 mln 10 ming kishi o'rniga 823 ming kishidan iborat bo'ldi. Sinfda qolgan o'quvchilar soni ham ko'p bo'lib, 1946-yilda u barcha o'quvchilarning 37%ini tashkil etardi. Ayniqsa qiz bolalarni maktabga jalb qilish, ularni o'qishni tugatguncha ushlab turish alohida muammo sifatida ko'ndalang bo'lib turardi.

O'qituvchi xodimlar masalasi urushdan keyingi yillardagi eng jiddiy muammolardan biri edi. Chunki malakali o'qituvchilar asosan urushga yuborilgan, ularning ko'pchiligi halok bo'lgandi 1959-yil martda O'zbekiston Oliy Soveti "Maktabning hayot bilan aloqasini mustahkamlash va respublikada xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida" yangi qonun qabul qildi. Ammo, sovet mustabid tuzumiga xos bo'lgan boshlangan ishni oxiriga yetkazmaslik odati bu gal ham muammoni hal qilish yo'lida to'g'anoq bo'lib xizmat qildi, oqibatda xalq ta'limida ahvol o'zgarmadi [5]. 60-yillar O'zbekistonda "rivojlangan sotsializm" bosqichi deb e'lon qilindi. Jamiyat mamlakat rahbariyatidan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalarda jiddiy sifat o'zgarishlarni amalga oshirishni kutmoqda edi. 70—80-yillarda O'zbekiston maktablarida ahvol sifat jihatidan o'zgarib qolaverdi. Maktablar jahon tajribalaridan, zamonaviy texnika va o'qitish vositalaridan foydalanmadi. Ularning moddiy-texnika bazasi yaxshilanmadi [6]. 1969-yilda Rossiyada aholining 10 ming nafariga 14 klub muassasasi to'g'ri kelsa, Belorussiyada 11 ta, O'zbekistonda esa atigi 4ta edi. Madaniy-ma'rifiy muassasalarga davlat tomonidan ajratilgan mablag'

aholini jon boshiga Estoniyada soʻmni, Armanistonda 17,9 RSFSRda 9,7 soʻmni tashkil qilsa, Oʻzbekistonda 4,5 soʻmni tashkil qilardi. Madaniy-maʼrifiy muassasalar moliyaviy jihatdan davlat nazoratidan chetda qolganligi uchun bunday muassasalar koʻpincha jamoatchilik asosida qurildi. Maorifni rivojlantirishda mahalliy millatlarga past nazar bilan qarash sovet tuzumi siyosatining pinhona faoliyatiga yashiringan edi. Keyingi yillarda ochilgan arxiv maʼlumotlarida sobiq ittifoqdagi respublikalarda ongli, madaniyatli, hurfikrli kishilarning boʻlishiga yoʻl qoʻymaslik haqidagi maxfiy koʻrsatmalar bejiz emas edi. 1985-yilda oliy oʻquv yurtlari soni 42 taga etdi[7].

Yillar mobaynida respublikada hunar-texnika bilim yurti tarmoqlari kengaydi. Umumtaʼlim, oʻrta maxsus va oliy oʻquv yurtlarida taʼlim-tarbiya beruvchi oʻqituvchi-pedagog kadrlar soni ham bir qadar oʻsdi. Taʼlim-tarbiya jarayonining asosiy oʻzagini tashkil etuvchi mazmun esa mustamlakachilar manfaatiga xizmat qilardi. Milliy manfaat ikkinchi rejaga surildi. Bu borada andak boʻlsa-da oʻz fikr-xulosalariga ega boʻlgan maorif xodimlari qatagʻon qilindilar. Bu sovetlar hukumatining Milliy mustamlaka va qaram oʻlkalarda yurgizgan siyosati mohiyatining tarkibiy qismidir. Sovetlar maxfiy xizmati milliy mustamlaka va qaram mamlakatlardagi oʻz qoʻgʻirchoq hukumat boshliqlariga yuborgan “mutlaqo maxfiy” (Moskva, 06,1947, K AAGʻSS 113, IK (003)47) buyrugʻida xalq taʼlimi va oliy taʼlim masalasida quyidagicha koʻrsatma bergan edi: “Boshlangʻich va oʻrta maktablarda, bundan ham avval, oʻrta va oliy oʻquv yurtlarida oʻta eʼtibor qozongan oʻqituvchilar ishdan chetlashtirilishi lozim boʻladi. Ularning oʻrniga biz tomonimizdan belgilanadigan kishilarni qoʻyish kerak..”

Oliy oʻquv yurtlariga shunday kishilarni qabul qilishga erishish kerakki, ular xalqning omi qatlamidan boʻlishsin va ularni mutaxassislik boʻyicha chuqur bilim olish emas, balki faqat diplom qiziqtirsin”[8]. Sovetlar hukmronligi yillarida Oʻzbekistonda ham ana shu koʻrsatmadan kelib chiqqan holda xalq maorifiga, oliy va oʻrta maxsus taʼlimga rahbarlik qilindi. Bu hol albatta oʻzining salbiy natijalarini bermay qolmadi. Oʻzbekiston xalq taʼlimi, oʻrta maxsus va oliy taʼlim tarmoqlari qoldiq prinsipiga asosan mablagʻ bilan taʼminlanganlar. Shu boisdan ular juda nochor moddiy bazaga ega edi. Respublikada taʼlim uchun

ajratilgan kapital mablagʻning oʻsish dinamikasi bu fikrni yaqqol isbotlaydi. Holbuki Amerika Qoʻshma Shtatlaridek yuz yillar davomida yuksak taraqqiyot darajasida kelayotgan mamlakatda 1989-yilda taʼlim uchun qilingan umumiy xarajatlar 260 milliard dollarga teng boʻldi, bu AQSH davlat budjetining 6,4 foizini tashkil etdi, demakdir. Juda koʻpchilik Yevropa mamlakatlari ham taʼlim uchun davlat budjetining 5,5 foizini sarflaydilar. Hatto Afrika qitʼasida joylashgan mamlakatlar ham taʼlim uchun davlat budjetining 5,4 foizini sarflamoqdalar. Bu Oʻzbekistondagi shu maqsad yoʻlida 80-yillarda sarflangan xarajatlardan ikki barobar koʻp demakdir[9]. Shu boisdan ham 80-yillarga kelib Oʻzbekiston umumtaʼlim, oʻrta maxsus va oliy taʼlim tarmoqlarining moddiy bazasi juda ogʻir va nochor ahvolda edi. Maktablar va oliy oʻquv yurtlarida oʻqitiladigan fanlarning oʻquv dasturlari Moskvada tayyorlanar va Oʻzbekiston sharoitiga moslashtirilar va u batamom mustamlakachi sovetlar manfaatiga xizmat qilar edi. Maktablar, oʻrta maxsus va oliy oʻquv yurti oʻqituvchilarining ustoz, tarbiyachi va pedagog sifatidagi obroʻ-eʼtibori tushib ketdi. Bu jarayon ayniqsa 50-yillarning ikkinchi yarmi va 60-yillardan eʼtiboran kuchaydi. Yosh yigit-qizlar oʻrtasida pedagoglik kasbga qiziqish havasi soʻnib ketdi. Buni shu fakt isbotlaydiki, oʻzlari pedagoglik kasbi boʻyicha oʻqishga kirgan boʻlsalar-da Qarshi, Sirdaryo, Termiz, Xorazm va boshqa joylardagi pedagogika institutlarning 20 foiz birinchi kurs studentlari oʻtkazilgan savol-javoblarda tasodifan mazkur kasbni tanlaganliklarini bildirganlar. Beshinchi kursda esa studentlarning 30 foizdan koʻprogʻi pedagog boʻlib ishlashni xohlamaymiz deb javob qaytarganlar. Bunday boʻlishiga qanday omillar sabab boʻldi?

Birinchidan, moddiy omildir. 50-yillardan eʼtiboran oʻqituvchilik va pedagoglik kasbga nisbatan sovetlar hukumatining munosabati salbiy tomonga keskin oʻzgardi, ularning mehnatiga toʻlanadigan haq jiddiy kamaytirildi[10]. Ikkinchidan, oʻqituvchi-pedagoglar mehnatiga munosib haq toʻlanmaslik va moddiy yetishmovchilik maktablar va oliy oʻquv yurtlarida taʼmagirlik illatini keltirib chiqardi. Bu hol oʻz navbatida ildiz otib har qanday jamiyatni ham ichidan gʻorat qiluvchi, poraxoʻrlik deb atalmish vaboning gazak otishiga sabab boʻldi. Natijada “ustoz otangdek ulugʻ” degan muqaddas soʻz oʻz

mantig'ini yo'qotdi, yosh yigit-qizlar ko'zi oldida tarbiyachi murabbiy-ustoz eng pastkash, ta'magir va poraxo'r kimsaga aylandi. Yoshlar bunday "ustozlar" tarbiyasi va ta'limiga qiziqish u yoqda tursin, undan nafrat va hazar qiladigan bo'lib qoldilar. Sovetlar hukumati maktab va oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonida buyuk millatchilik siyosatini avjiga mindirdi, ruslashtirish siyosatini yuritdi. Rus tilini o'rganish uchun ajratilgan soatlar bir necha barobar oshirilib, ta'limning barcha tizimlarida bu tilni "ikkinchi ona tili", "dohiy Lenin so'zlagan til" sifatida o'rganish majburiy qilib qo'yildi.

Maktabdan tortib oliy o'quv yurtlariga qadar mahalliy millat vakillariga rus tilini o'rganish majburiyati yuklandi. Rus tilida so'zlashuvchi millatlar o'g'il-qizlariga maktab oliy o'quv yurtlarida o'z istak-xohishlariga ko'ra chet tillardan birini tanlab egallashlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan bo'lsa, mahalliy millat vakillari uchun bunday imkoniyat yo'q edi. Ular oliy maktabda ham faqat rus tilini o'rganishlari kerak edi. Umumta'lim va oliy o'quv yurtlarida majlislar, yig'ilishlar rus tilida olib boriladigan bo'lib ketdi. Bu ishlarning hammasi birga qo'shib milliy manfaat va qadriyatlarimizning toptalishi va oyoq osti bo'lishiga sabab bo'ldi. Kompartiya va Sovetlar esa munofiqona siyosat yurgizib respublika rahbariyatiga qarshi har xil tuhmat va bo'htonlar uyushtirib, o'zlarini O'zbekiston xalqlarining Manfaat va maqsadlari uchun kurashuvchi qilib afkor ommani gangitib, fitnachilik o'yinlarini amalga oshirib turdilar. Bu "o'yinlar" maorif va ta'lim sohasida ham qo'llanildi[11]. Shu bilan birga, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'quv-tarbiyaviy ishlarni mafkuraviy andozalarga solish kuchaydi; mutaxassislik bo'yicha asosiy fanlarni o'qitishni takomillashtirish o'rniga barcha oliy o'quv yurtlarida kommunistik mafkurani shakllantiruvchi KPSS tarixi, marksizm-leninizm falsafasi, siyosiy iqtisod, ilmiy kommunizm, jamiyatshunoslik fanlarini o'qitishni yanada yaxshilash to'g'risida tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi.

Urushdan keyin majburiy 7 yillik, 1959-yildan 8 yillik, 1970-yildan boshlab 10 yillik ta'lim amalga oshirila boshlanadi. 1980-yillarda o'rta va oliy ta'lim tarmoqlari kengayib bordi. 1990-yil O'zbekistonda maktablar soni 9000ga yetdi, lekin

ulardan 1700tasi ayanchli ahvolda bo'lib, mukammal ta'mirlashni talab qilar edi. 1978-1979-o'quv yilida respublikada 43ta oliy o'quv yurti bo'lib, bularning kunduzgi, sirtqi, kechki bo'limlarida 26000 talabalar o'qidi. Respublika Fanlar akademiyasida ilmiy-tadqiqot institutlarining safi kengayib bordi, ularda yirik olimlar ilmiy izlanish ishlarini olib bordilar. Talabalar, oliy ma'lumotli mutaxassislar, ilmiy xodimlarning soni jihatdan 10000 kishiga hisoblaganda, O'zbekiston ilg'or mamlakatlar qatorida tursa ham kadrlar tayyorlash tizimida kamchiliklar bor edi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda O'zbekiston SSSRda fashizmga qarshi urush yillari izdan chiqqan ta'lim-tarbiya ishlari, madaniy muassasalar urushdan keyingi yillarda qayta tiklandi va kengaytirildi. Respublikada hunar-texnika bilim yurti tarmoqlari kengaydi. Umumta'lim, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya beruvchi o'qituvchi-pedagog kadrlar soni ham bir qadar o'sdi. Ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy o'zagini tashkil etuvchi maktablar soni ortib bordi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: 2017.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T.2. -T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. Asarlar, 1-jild. -T.: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T: O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - T.: O'zbekiston, 1998.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. - T Ma'naviyat, 2008.
7. Azizxujayev A. Chin o'zbek ishi. Toshkent: Akademiya, 2003-y.
8. Usmonov K., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar).-T.Sharq, 2001.
9. O'zbekiston tarixi. T.: Universitet, 1997.
10. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida.-T.Sharq, 2000.
11. O'zbekiston tarixi (oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis fakultetlari talabalari uchun darslik). R.X.Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. -T. Yangi asr avlodi, 2003.

KICHIK ASARLARDA QO‘LLANGAN SIFATLASHLARNING FUNKSIONAL - USLUBIY IMKONIYATLARI

Matqurbonova Muxabbat Shokirovna, Urganch innovatsion universiteti “O‘zbek va xorijiy filologiya” kafedrası v.b.dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ФУНКЦИОНАЛЬНО-СТИЛЕВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭПИТЕТОВ В МАЛЫХ ЖАНРАХ

Matqurbonova Muxabbat Shokirovna, i.o.доцента кафедры “Узбекская и зарубежная филология” Ургенчского инновационного университета

FUNCTIONAL AND STYLISTIC POTENTIAL OF USING EPITHETS IN SHORT LITERARY FORMS

*Matqurbonova Mukhabbat Shokirovna,
Acting Associate Professor of the “Uzbek and Foreign Philology”
Department at Urgench Innovation University*



<https://orcid.org/0009-0001-3851-3202>

e-mail:
muxabbatmatqurbonova
1968@gmail.com



Аннотация: Мақолада buyuk adib Abdulla Qodiriyning hajviya, hikoya va feletonlarida qo‘llangan sifatlashlarining uslubiy imkoniyatlari o‘rganilgan. Umumtil va individual nutq sifatlashlari vositasida denotativ va konnotativ ma‘nolarning ifodalanishi, ularning semantik-stilistik xususiyatlari, kichik asarlar tilida ekspressivlikni hosil qilishdagi ahamiyati yoritilgan.

Калит so‘zlar: umumtil va individual nutq sifatlashlari, obrazli metaforik sifatlashlari, uslubiy neytral va uslubiy neytral bo‘lmagan so‘zlarning sifatlash vazifasida kelishi, sifatlavchi - sifatlanmishning shakliy ko‘rsatkichi, emotsional-ekspressiv ma‘no, stilistik bo‘yoq.

Аннотация: В статье анализируются стилистические возможности эпитетов, применённых в сатирических произведениях, рассказах и фельетонах выдающегося писателя Абдуллы Кадыри. Рассматриваются особенности репрезентации денотативных и коннотативных значений посредством общезыковых и индивидуально-речевых эпитетов, их семантико-стилистическая специфика, а также роль в формировании экспрессивности художественной речи малых жанров.

Ключевые слова: общезыковые и индивидуально-речевые эпитеты, образные метафорические эпитеты, стилистически нейтральные и стилистически маркированные слова в функции эпитета, формальные показатели структуры “определение – определяемое”, эмоционально-экспрессивное значение, стилистическая окрашенность.

Abstract: The article examines the stylistic potential of epithets employed in the satirical works, short stories, and feuillets of the prominent writer Abdulla Qodiriy. It explores the expression of denotative and connotative meanings through both general language and individual speech epithets, their semantic-stylistic features, as well as their role in generating expressiveness in the language of minor literary genres.

Keywords: *general language and individual speech epithets, figurative metaphorical epithets, stylistically neutral and stylistically marked words functioning as epithets, formal indicators of the “modifier–modified” structure, emotional-expressive meaning, stylistic coloring.*

KIRISH. Lisoniy birliklar qo‘llanishidagi xalqchilik, soddalik, ixchamlik kabi o‘ziga xos jihatlar ijodkor adibning individual badiiy uslubini shakllantirishga xizmat qiladi. Abdulla Qodiriy yaratgan kichik asarlarda ta’sirchanlik va bo‘yoqdorlikni oshirish uchun qo‘llangan sifatlashlarning ham semantik-stilistik vosita sifatidagi vazifaviy, uslubiy va shakliy o‘ziga xos belgi-xususiyatlarini o‘rganish “adibning individual badiiy uslubi”ga baho berishga imkon beradi. Ulug‘ adib Abdulla Qodiriy yaratgan barcha asarlarning tili o‘ziga xos hisoblanadi. Xususan, she’riy, hajviy asarlari, hikoyalari, hatto, tanqidlarga javob tarzida yozilgan maqolalari kabi kichik asarlarining tili ham lingvistik o‘rganishga arziydigan manbalardir. Shuning uchun ham kichik asarlar tilini ma’noviy-uslubiy jihatdan lingvistik tadqiq etish muhim sanaladi.

TAHLIL. Abdulla Qodiriy badiiy til mahoratini belgilovchi asosiy tasviriy vositalaridan biri sifatlashdir. Kichik asarlarda tilning barcha vazifaviy uslublarida keng qo‘llanadigan “umumtil sifatlashlari” bilan bir qatorda, badiiy nutq jarayonida tasviriylikni ta’minlagan, tasvirlash jarayonida badiiy ifodani kuchaytirgan, ijodiy individuallikning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida narsa-hodisalarning kutilmagan jihatlarini tavsiflagan *ishonchli muttahaamlar; chikkabel alvastilar; mukammal bir kambag‘alchilik; bo‘yni xurmachaning bo‘g‘ziga tenglahsgan akalar; boylar dumi, kapital xurjuni bo‘lg‘an teskari matbuot* kabi sifatlashlar ham uchraydiki, bunday leksik-stilistik vositalar adibning so‘z tanlash va fikrni ohorli ifodalarda berish mahoratini o‘zida namoyon qilgan. Tashqi moddiy olam, milliy tafakkurning bog‘liqligi asosida shakllantirilgan individual sifatlashlar adibning badiiy niyati bilan uyg‘unlashib, badiiyatni ta’minlashda aktuallik kasb etgan.

Sifatlash – kichik asarlar matnida keng qo‘llangan leksik-stilistik tasvir vositalaridan biridir. Sifatlash keng ma’noda predmet belgilaridan birini kuchaytirish va shu oqali kitobxon diqqatini jalb etish hamda ifodaviylikni

oshirish maqsadida qo‘llanadigan poetik usul sanaladi[2;26]. Bunda obyektning qaysidir bir jihati oddiy aniqlovchi bilan emas, balki muallif olamning lisoniy manzarasini individual his qilishi natijasida, badiiy fikrlash jarayoni mahsuli sifatida yuzaga keladi. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, predmetning sifatini tasvirli, obrazli ifodalash uchun ishlatiladigan so‘z, tropning bir turiga sifatlash deyiladi[3;91].

Sifatlashlar odatda badiiy tilda nutqning rang-barangligi va aniqligini ta’minlaydi. Bu hodisaning lisoniy asosida narsa va hodisaning biror belgisini, xususiyatini ajratib ko‘rsatish maqsad qilinadi, bunday so‘zlar hodisa va narsa nomini bildiruvchi so‘zdan oldin qo‘llanadi. Bu vosita yordamida predmet, narsa yoki hodisaning belgisi aniqlashtiriladi, hissiy bo‘yoqdorlik yanada kuchaytiriladi. Shuningdek, matnda bunday lisoniy vositaga tasvir etilayotgan voqea-hodisaning ahamiyatli tomonlarini, boshqa voqea-hodisadan ajralib turuvchi belgilarini ta’kidlab, aniqlashtirib ko‘rsatish vazifasi yuklanadi. Bu usul turli leksik vositalar, chunonchi, neytral bo‘lmagan va neytral bo‘lgan so‘zlar, nutqning biror turi uchun uslubiy xoslangan leksemalar yordamida ham yuzaga keltiriladi. Uslubiy betaraf bo‘lgan so‘zlar sifatlash vazifasida kelganda aniqlovchilarga o‘xshab ketadi. Bunday sifatlash aksariyat hollarda leksemaning hosila ma’nosi negizida voqelangan bo‘ladi va shu xususiyatga ko‘ra u aniqlovchi emas, sifatlash hisoblanadi.

Tilning barcha vazifaviy uslublarida keng qo‘llanadigan, ma’no xususiyatiga ko‘ra aniqlovchilarga yaqin turadigan, o‘zida hissiy-ta’siriy ma’no xususiyatlarini ifoda etmaydigan, predmetning o‘zgarmas belgisini aniqlaydigan sifatlashlarga “umumtil sifatlashlari” deb qarashimiz mumkin. Masalan, *cheksiz fazo, sukunatli tun, so‘lim tabiat, shisha osmon, tiniq suv* kabi sifatlashlar narsa-hodisaning ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan belgi-xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi. Lekin ularning ayrimlari nutqiy ta’sirchanlikni, jozibadorlikni kuchaytirish uchun ham qo‘llanishi mumkin.

Tilimizda shunday sifatlashlar ham borki, ular biror yozuvchining uslubi bilan aloqador bo‘lib, salbiy yoki ijobiy bo‘yoqni aniq aks ettiradi. Ular asosan badiiy uslubda, publitsistik nutqda qo‘llanib, bir turdagi predmet, voqea-hodisalarning o‘zigagina xos belgilarini gavdalantiradi. Ya‘ni ular ijodiy individuallikning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida narsa-hodisalarning kutilmagan jihatlarini tavsiflaydi, tasvirning jonli bo‘lishiga, asarning estetik ta‘sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Ularni “individual nutq sifatlashlari” deb atash mumkin.

Abdulla Qodiriyning she‘riyati, feleton, hajviya, hikoya va publitsistik maqolalarida o‘quvchining har bir narsa va holat haqidagi tasavvurini boyitishda, tasvir predmetining muhim xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishda sifatlashning uslubiy imkoniyatlaridan keng foydalanilgan. Umumtil sifatlashlari kichik hajmli asarlarda keng qo‘llangani holda, adibning individual uslubiga xos obrazli metaforik sifatlashlar ham ko‘p uchraydi: “*Shaharda mashhur ishonchli muttahlardan iborat komissioniy magazin ochildi. Dunyoda bor hamma narsalarni, masalan: odam, qumg‘on, jovli, toshbaqa, qurbaqalarni sotib bermakka qabul qiladur*”(TA, III, 119). “Qizil bayroq” gazetasining 1922-yil 17-maydagi sonida chop etilgan “Komissioniy magazin ochildi” nomli hajviyadan olingan mazkur parchadagi *ishonchli muttahlarni* sifatlovchi-sifatlanmish qurilmasi original qo‘llanishdir. Birikmadagi sifatlanmish komponenti salbiy ma‘noga ega, ya‘ni “*MUTTAHAM – oldi-berdi masalalarida nopok, firibgar, qallob odam*”(O‘TIL, II, 655). Sifatlovchi komponent – ISHONCHLI leksemasi esa o‘zida ijobiy semani aks ettiradi: “*ishonsa bo‘ladigan, pand bermaydigan odam*”(O‘TIL, II, 258). Demak, bu birikmalar tarkibida ijobiy va salbiy ottenkaga ega bo‘lgan leksemalar sifatlovchi-sifatlanmish modelida zidlash orqali o‘ziga xos tarzda, nihoyatda mohirlik bilan voqelantirilganki, bu sifatlash fikrning emotsional ta‘sirchanligini yanada kuchaytirgan, kitobxon ko‘z o‘ngida voqea qahramonini ortiqcha izohlarsiz gavdalantira olgan.

Bunday ijobiy va salbiy ma‘no ottenkasiga ega leksemalarni zidlantirish, qarshilantirish sifatlovchi komponentning birdan ortiq, uyushgan tarzda keltirilishi bilan ham voqelantirilgan: “*Moskov ko‘chalarida sayyodona kezgan zebobo‘y, sarviqad, siymintan(kumushtan), shahlo ko‘z, bodom qovoq, yupqa tomoq, chikkabel alvastilar ham gala-gala, – deydilar*” (TA, III, 183). “*ALVASTI – Sharq mifologiyasida har xil qiyofada ko‘rinadigan afsonaviy maxluq*”(O‘TIL, I, 68). Tahlil qilsak, sifatlovchili birikmadagi sifatlanmish komponenti salbiy ma‘no ottenkasiga ega va matnda yakka holda qo‘llangan. Matndagi *zebobo‘y, sarviqad, siymintan (kumushtan), shahlo ko‘z, bodom qovoq, yupqa tomoq, chikkabel* kabi so‘z birikmalari esa o‘zida ijobiy semani ifoda etib, ketma-ket kelib, sifatlanmishning har tomondan turli xususiyat, belgilarini tavsiflagan. Bu sifatlashda obrazlilik, emotsional-ekspressivlik kuchli bo‘lib, bu xususiyat sifatlashni kinoyaviy, hajviy mazmundagi nutqda qo‘llanishi uchun asos bo‘lgan va muallifning ifoda maqsadini yoritishga xizmat qilgan.

Ba‘zi o‘rinlarda uyushgan sifatlovchilarning barchasi birikmali holda qo‘llanib, murakkab tarkibli epitet hosil qilingan: “*Siz ham har kun kechasi ko‘rarsiz: militsaning lab chiqaturg‘an tuppa-tuzuk odamshavanda sochi taralg‘an, dumi yuluq, qip-qizil barkashdakkina yuzlik, sun‘iy afandixon hazratlari bilan o‘zini fir‘avn qizi bilgan dilbarxon...larni!..*” (TA, III, 122).

Adibning feleton va hajviyalarida individual qo‘llanishdagi epitetlar, ayniqsa, ko‘p uchraydiki, yozuvchi uslubi bilan bog‘liq bunday o‘ziga xos birikmalarining lisoniy imkoniyati nutq jarayonida namoyon bo‘ladi. Individual epitetlarda yozuvchining ham subyektiv, ham emotsional munosabatlari yaqqol ko‘zga tashlanib, nutq kechimida turli pragmatik axborot tashishi, aynan achchiq kinoya ifodalashi kuzatiladi: “*Butun huquqlari bilan mukammal bir kambag‘alchilik sotiladur. Buning bilan tez kunda boyisa bo‘ladur*” (TA, III, 120); “*O‘ttiz kun ro‘zada bo‘yni xurmachaning bo‘g‘ziga tenglahsgan akalar “ufff”, deydilar, “mohi sharifdan qutular kun ham bor ekan”, deydilar*”(TA, III, 175); “*Goho Turkiston*

va Buxoradan bu yerga savdo uchun kelgan *sudratma chopon, yopma salla akalarga uchrab qolishlar ham bor*”(TA, III, 208); *“Nafsilamrga qarag‘anda, Toshkandda o‘zining oliy binolar solishi bilan mashhur bo‘lgan To‘xtajonboy va Orifxo‘ja eshonlarni bir cho‘qishda qochiradurg‘on bino bo‘lubdir*” (TA,III,229); *“Mehnatkashlar bosmasining boylar dumi, kapital xurjuni bo‘lg‘an teskari matbuotning chiqa boshlag‘anig‘a endigina o‘n yil to‘ldi*” (TA, III, 259).

Abdulla Qodiriyning kichik asarlari matnidan ajratib ko‘rsatilgan yuqoridagi sifatlashlar badiiy nutq jarayonida tasviriylikni ta‘minlagan, predmet, voqea-hodisaning biror tashqi belgisini ajratib ko‘rsatish, tasvirlash jarayonida badiiy ifodani kuchaytirgan. Ularning aksariyati metaforik sifatlashlar hisoblanadi. Bu kabi sifatlashlar anglatgan predmet yoki voqea-hodisaning belgi-xususiyatlari haqiqatga to‘g‘ri kelishi yoki kelmasligi, mavjud bo‘lishi yo bo‘lmasligi nuqtayi nazaridan obrazli va o‘ta obrazli metaforik sifatlashlarni yuzaga keltirgan. Adib kichik asarlarda har bir narsa va holat haqidagi tasavvurni boyitishda, o‘z tasvir predmetinining muhim xususiyatlarini ko‘rsatishda sifatlash badiiy san‘atining eng go‘zal namunalaridan foydalangan.

NATIJA. Abdulla Qodiriyning o‘zbek adabiy tili, xalq tili boyliklarini yaxshi bilganligi kichik asarlari matnida umumxalq tilining boy va rang-barang tomonlari o‘z ifodasini topganligida ko‘rinadi. Muallif o‘z asarlarining soddaligi, boyligi, keng ommaga tushunarli bo‘lishi, ravonligi, mazmundorligini ta‘minlash uchun xalq tiliga xos bo‘lgan lisoniy unsurlardan unumli va maqsadli foydalangan. Kichik asarlar matnida qo‘llangan

sifatlashlar o‘ziga xos ekspressivlik va badiiy-estetik vazifani bajargan. Tashqi moddiy olam, milliy tafakkurning bog‘liqligi o‘xshatish asosi va etaloni o‘rtasidagi assotsiativ aloqadorlik asosida shakllantirilgan turg‘un hamda individual o‘xshatish va sifatlashlar adibning badiiy niyati bilan uyg‘unlashib, badiiyatni ta‘minlashda aktuallik kasb etgan. Bu esa Abdulla Qodiriyga xos lingvistik mahoratdir.

XULOSA. Umuman, kichik asarlar matnida qo‘llangan sifatlashlarning lisoniy va badiiy-estetik xususiyatlari yuzasidan tahlillarimizni umumlashtirar ekanmiz, Abdulla Qodiriy bunday leksik-stilistik vositalardan nutqni pardoziy, jilolantiruvchi badiiy vositalardan biri sifatida o‘rinli va unumli foydalangan. Kichik asarlar tilida qo‘llangan sifatlashlar adibning so‘z tanlash va fikrni ohorli ifodalarda berish mahoratini o‘zida namoyon qilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарканд: СамДУ, 1994. – 210 б.
2. Воронова А. Эпитеты и определение в языке Камюэнса. Автреф. дисс. канд. филол. наук. – Москва, 1999. – 26 с.
3. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2002. – Б.91.
4. Усмонова Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док...дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 57б.



ONA TILI DARSLARIDA FRAZEOLOGIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Xasanova Aziza Nurullayevna, Urganch davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasida o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING PHRASEOLOGICAL COMPETENCES IN NATIVE LANGUAGE LESSONS


Khasanova Aziza Nurullayevna, Urgench State University Teacher of the Department of “Uzbek Linguistics”, Independent researcher

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

Хасанова Азиза Нуруллаевна, преподаватель кафедры “Узбекское языкознание” Ургенчского государственного университета, независимый исследователь



*e-mail:
aziza.xasannur120793
@gmail.com*



Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarda frazeologik kompetensiyalarni shakllantirish bosqichlari haqida fikr bildiriladi. O‘quvchilarda frazeologik birliklarni tushunishida, aniqlashda yordam beruvchi metod va yondashuvlarga alohida to‘xtalib o‘tiladi. Tilning frazeologik darajasi milliy madaniyatning eng muhim va asosiy tarkibiy qismi ekanligi ta’kidlanadi. Ona tili darslarida frazeologiya o‘quvchilarga o‘zlashtirishdan tashqari imkoniyat yaratishini, o‘z xalqining tili va shakli, madaniyati, o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish va qadrlashni o‘rgatishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, frazeologik birlik, frazeologik kompetensiya, lug‘at, lingvistik asos, ijtimoiy asos, metod, o‘rganilish bosqichi.

Abstract: This article discusses the stages of the formation of phraseological competencies in students. Special attention is paid to methods and approaches that help students understand and identify phraseological units. It is emphasized that the phraseological level of the language is the most important and fundamental component of national culture. It is argued that phraseology in native language lessons creates opportunities for students, in addition to mastering, to understand and appreciate the language and form, culture, and unique features of their people.

Keywords: phraseology, phraseological unit, phraseological competence, dictionary, linguistic basis, social basis, method, learning stage.

Аннотация: В данной статье рассматриваются этапы формирования фразеологических компетенций учащихся. Особое внимание уделяется методам и подходам, помогающим учащимся понимать и распознавать фразеологические единицы. Подчеркивается, что фразеологический уровень языка является важнейшим и фундаментальным компонентом национальной культуры. Утверждается, что фразеология на уроках родного языка создает для учащихся возможности не только овладения языком, но и понимания и оценки языка и формы, культуры и самобытности своего народа.

Ключевые слова: фразеология, фразеологическая единица, фразеологическая компетенция, словарь, лингвистическая основа, социальная основа, метод, этап обучения.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Ona tilini o'qitish metodikasida maqsadlar va butun paradigmaning o'zgarishi mavjud ta'limning rivojlanish vektori, tilni o'rgatishdan boshqasini o'zlashtirishga qaratilgan til orqali madaniyat-frazeologik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlaridir. Shu munosabat bilan ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirish bilan bog'liq masalalar ayniqsa dolzarb bo'lib qoladi. O'quvchilar tomonidan ona tili darslari sifatida o'zlashtirilgan turli xil lingvistik vositalar orasida eng muhim madaniy ahamiyatga ega bo'lgan komponent frazeologik birliklardir. Frazeologizmlar ixcham va majoziy shaklda xalqning tarixiy xotirasini, uning qadriyatlar tizimini, dunyoni bilish va egallash tajribasini saqlaydi. O'rganilayotgan tilning frazeologiyasini o'zlashtirish nutq madaniyatining yuksakligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ/ MATERIALS AND METHODS). Frazeologik kompetensiya – bu o'quvchining frazeologik birliklarni to'g'ri tushunish, zeologik birliklarni lug'aviy jihatdan tushunish;

2. Ishlatish va tafakkurda qo'llay olish qobiliyati hisoblanadi.

Frazeologik kompetensiyaga quyidagilar kiradi:

1. Frazeologizmlarni mantiqan va kontekstdan kelib chiqqan holda to'g'ri qo'llay olish;

3. Badiiy matnlarni tushunishda bu birliklarning rolini anglash;

4. O'z fikrini ifodalashda frazeologizmlardan samarali foydalanish.

Frazeologik birliklarning didaktik ahamiyati o'quvchilarning til boyligini oshiradi, kontekst asosida fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, madaniy kontekstni anglashga yordam beradi (xalq donishmandligi, tarix, urf-odatlar), ijodiy yozish va og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantiradi.

Frazeologik kompetensiyani shakllantirish bosqichlari.

1. Tanishish bosqichi – frazeologizmlarning lug'aviy ma'nosi, tuzilishi, kelib chiqishi bilan tanishtirish. Bunda tayyor va

o'rganilishi oson iboralar o'quvchilarga beriladi va ma'nosi misollar bilan tushuntiriladi.

Dordan qochgan (kim?) – Firibgar, qallob, yaramas, muttaham.

Ha, rost-da! Buxgaltering muttaham!.. Zavxozlaring o'g'ri!.. Ekspeditorlaring dordan qochgan!! Uyg'un. Navbahor.

2. Mashq qilish bosqichi – frazeologizmlarni turli kontekstlarda ishlatish (jumla tuzish, matnlar yozish, tarjima qilish). Bunda o'quvchilarga kichik-kichik matnlar beriladi.

DUNYOGA KELMOQ 1. Kim? ba'zan nima? (jonli) tug'ilmoq. Varianti: dunyoga keltirmoq **kim? kimni?** (oz ishlatiladi); olamga kelmoq. Antonimi: dunyodan ketmoq **kim?** dunyodan o'tmoq 2. **Kim?** ko'z(i)ni yummoq **kim? [o'zining];** oyog'(i)- ni uzatmoq **kim? [o'zining];** nafas(i) tindi **kimning?** engak tashlamoq **kim?**

Qo'y, men olamga tom tuzatgani kelganim yo'q, undan tezroq ketgani kelganman. A.Qahhor. Sarob.

Qurigan g'o'za nima ekan, eksang, o'rniga chiqaveradi. Uning o'rniga esa... boshqa Komil dunyoga kelmaydi endi... T.Malik. Charxpalak.

Yozuvchi Hoshimjon, Akrom, Zafarning dunyoga kelishida vosita bo'lgan ota-ona, o'zbekning saxiy, orzu-havasli, g'ururli, to'ysevar, ishonuvchan, qonunni bilmaydigan, olomonsifat, bolajon bo'lgani bilan uni qanday tarbiya qilish yo'riqlarini anglab yetmaganligi ekanligini ko'rsatadi. X.To'xtaboyev. Mungli ko'zlar.

2. Nima? (jonsiz) paydo bo'lmoq, yaratilmoq (oz ishlatiladi).

3. Qo'llash bosqichi – o'quvchilarning mustaqil tarzda frazeologizmlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay olishi. Bunda o'quvchilarga iboralar beriladi. Va uning shevadagi muqobillari so'raladi.

Misol uchun: aravarani quruq olib qochmoq (adabiy til) / suvsiz opparib suvsiz akkaladi (o'guz lahjalariga oid shevalarda).

4. Baholash bosqichi – test, diktant, og'zaki nutq orqali o'zlashtirish darajasini aniqlash. Bunda o'quvchilardan turli xil nazoratlar olinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR (ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ / DISCUSSION AND RESULTS). Frazeologik

kompetensiyani shakllantirishda pedagogik imkoniyatlardan samarali foydalanishda interaktiv metodlar, rol o'ynash (frazeologizmlar ishtirokida sahnalar); klaster, akvarium, "Aqliy hujum" usullari; multimedia vositalaridan foydalanish, videolavhalar, multfilmlar, audio podkastlar; interaktiv o'yinlar, testlar, viktorinalar, tarjimonlik mashqlari; matn asosida ishlash, badiiy asarlardan frazeologizmlarni ajratish va ularni tahlil qilish; maqollar, iboralarni kontekstda ishlatish, mavzuga oid ijodiy topshiriqlar, hikoya yoki voqeani frazeologizmlardan foydalanib yozish "Bitta ibora – bir hikoya" metodi muhim rol o'ynaydi.

O'quvchilarda frazeologizmlardan foydalanishda yuzaga keladigan muammolarni o'qituvchi birgalikda ishlab bartaraf etishi lozim.

Misol uchun: "Frazeologizmlarning ma'nosi kontekstdan tushunilmasligi"ni muammo sifatida qarash, "Kontekstda ishlatishni o'rgatish, o'xshash va zid ma'noli frazeologizmlarni taqqoslash"ni yechim sifatida qarash lozim. Frazeologik kompetensiyani shakllantirish – ona tili darslarining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu tilni chuqurroq o'rganish, madaniy va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Yaxshi rejalashtirilgan pedagogik yondashuv orqali bu kompetensiyani samarali rivojlantirish mumkin. Frazeologik kompetensiyalarni o'qitishda o'qituvchi quyidagi samarali metod va usullardan foydalanadi. Bu metodlar o'quvchilarda frazeologizmlarni anglash, tushunish, qo'llash va tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

1. Izohli ta'lim (Eksplikativ metod) Frazeologik birliklarning ma'nosi va tarkibini tushuntirish.

Qo'llanilishi: O'qituvchi frazeologizmlarni izohlab beradi; Tarixiy yoki madaniy asosini tushuntiradi; So'zma-so'z tarjimasi bilan obrazli ma'nosini solishtiradi.

Misol: "Oltin vaqt" – bu yerda "oltin" so'zi haqiqiy emas, vaqtning qimmatligini bildiradi.

2. Aqliy hujum (Brainstorming) O'quvchilarni faol fikrlashga undash va mavjud bilimlarini safarbar qilish.

Qo'llanilishi: Berilgan frazeologizmning ma'nosini topish; O'xshash yoki zid ma'noli iboralarni aniqlash; Shu ibora bilan bog'liq vaziyatni tasvirlash.

3. Dialog va dramatisatsiya. Frazeologik birliklarni og'zaki nutqda faol ishlatishni o'rgatish.

Qo'llanilishi: O'quvchilar o'zaro frazeologizmlar ishtirokida suhbat quradi; Hayotiy vaziyat asosida rolli o'yinlar tashkil qilinadi.

4. Yozma mashqlar va ijodiy topshiriqlar. Frazeologizmlarni yozma nutqda mustahkamlash.

Qo'llanilishi: Berilgan iborani ishtirok ettirib gap tuzish; Frazeologizmlar bilan hikoya yozish; "Bitta frazeologizm – bir voqea" topshirig'i.

5. Moslashtirish va juftlashtirish (Matching). Frazeologizmlarning ma'nosi bilan tanishish va mustahkamlash.

Qo'llanilishi: Frazeologizm va uning ma'nosini juftlashtirish; Rasm va iboralarni moslashtirish; So'zlar va iboralar bilan o'yinlar (kartochkali o'yinlar).

6. Matn asosida tahlil metodi. Frazeologik birliklarning kontekstda qanday ishlatilishini tushunish.

Qo'llanilishi: Badiiy matndan frazeologizmlarni topish; Ularni izohlash va tahlil qilish; Matnning mazmunini frazeologik ifoda bilan o'zgartirish.

7. Taqqoslash va kontrast metodi. Frazeologizmlarni o'zaro solishtirish orqali chuqurroq anglash.

Qo'llanilishi: Sinonim va antonim frazeologizmlarni taqqoslash; O'zbek va boshqa tillardagi frazeologizmlarni solishtirish; Ma'no nozikliklarini tahlil qilish.

8. Interaktiv o'yinlar va viktorinalar. Frazeologizmlarni qiziqarli tarzda o'rganish.

Qo'llanilishi: "Kim topadi?", "Nimani anglatadi?", "Qaysi frazeologizm ortiqcha?" o'yinlari; Guruhli musobaqalar orqali faollikni oshirish.

9. Klaster va diagrammalar. Frazeologik birliklarni vizual tarzda tasniflash.

Qo'llanilishi: Tematik frazeologik guruhlar tuzish (masalan: tana a'zolari, hayvonlar bilan bog'liq iboralar); Sabab–natija diagrammasi orqali iboralarning vazifasini aniqlash.

10. Refleksiya va baholash. O'quvchi o'z-o'zini baholaydi va o'zlashtirish darajasini ko'radi.

Qo'llanilishi: "Bugun men qanday frazeologizmlarni o'rgandim?" "Qaysi iborani hayotda qo'llay olaman?"

Test va mini-so'rovnomalar orqali bilimni aniqlash.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Frazeologik birliklarni nutqda to'g'ri qo'llash bu ularning ma'nolarini, sintaktik xususiyatlarini, qo'llanish sohalarini va stilistik xususiyatlarini bilish va ularni vaziyatga mos keladigan tarzda ishlatish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Dunyoda maktab ta'limni rivojlantirish va raqamli texnologiyalardan foydalanib innovatsion usullarni joriy qilish orqali o'quvchilarning lingvistik, kommunikativ va frazeologik kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari bo'yicha tadqiqotlar miqyosi kengaymoqda. Binobarin, o'quvchilarni hayotga tayyorlash, ijtimoiylashuvga yo'naltiruvchi lingvistik bilimlarni egallash va madaniy-ma'rifiy komillikka yo'naltirish, jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlarga undash kompetensiyalarni shakllantirishga uzviy bog'lanmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-noyabrdagi "Zamonaviy maktab"larni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4537-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-4613683>
3. Добрыднева Е.А. Коммуникативно-прагматическая парадигма русской фразеологии: автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Волгоград, 2000. 42 с.
4. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). –М.: ИКАР, 2009. –448 с.
5. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. Изд. 5-е, испр. и доп. –М.: Книжн.дом Либроком, 2010. –272 с.
6. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
7. SH.Rahmatullayev. va b. O'zbek tili frazeologik lug'ati. –Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashiriyot, 2022.
8. <https://cyberleninka.ru/article>.
9. <https://kh-davron.uz/>
10. [https:// ziyouz.com/](https://ziyouz.com/)



**YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA
QASHQADARYO VILOYAT TIBBIY-IJTIMOY
XIZMATLAR SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN
CHORA-TADBIRLAR**

*Ochilov Farxod Eshonovich, Qarshi davlat texnika universiteti
tadqiqotchisi, tarix fanlari nomzodi*

**MEASURES IMPLEMENTED IN THE FIELD OF
MEDICAL AND SOCIAL SERVICES IN
KASHKADARYA REGION UNDER THE
CONDITIONS OF NEW UZBEKISTAN**

*Ochilov Farxod Eshonovich, Researcher at Karshi State Technical
University, Candidate of Historical Sciences*

**МЕРОПРИЯТИЯ, РЕАЛИЗОВАННЫЕ В СФЕРЕ
МЕДИКО-СОЦИАЛЬНЫХ УСЛУГ
КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ
НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**


*Очилов Фарход Эшонович, исследователь Каршинского
государственного технического университета, кандидат
исторических наук*



<https://orcid.org/0009-0002-1553-3505>

e-mail:

f_ochilov2022@gmail.com



Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo viloyatida 2021-yilda amalga oshirilgan tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish ishlari yoritilgan. Nogironligi bo‘lgan shaxslar va keksalarni reabilitatsiya texnik vositalari, protez-ortopediya mahsulotlari hamda sanatoriy yo‘llanmalari bilan ta‘minlash bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar tahlil qilingan. Shuningdek, aholining murojaatlarini o‘rganish, ijtimoiy xodimlarni rag‘batlantirish va tizimni yanada rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo, tibbiy-ijtimoiy xizmatlar, nogironlik, reabilitatsiya, sanatoriy yo‘llanmasi, ijtimoiy himoya, davlat siyosati.

Abstract: The article highlights the activities carried out in the Kashkadarya region in 2021 to develop the system of medical and social services. It analyzes measures taken to provide people with disabilities and the elderly with rehabilitation technical aids, prosthetic-orthopedic products, and free sanatorium vouchers. It also describes initiatives aimed at addressing public appeals and encouraging social workers.

Keywords: Kashkadarya, medical-social services, disability, rehabilitation, sanatorium voucher, social protection, state policy.

Аннотация: В статье рассматриваются мероприятия, проведенные в Кашкадарьинской области в 2021 году по развитию системы медико-социальных услуг. Освещены вопросы обеспечения лиц с инвалидностью и пожилых граждан реабилитационными техническими средствами, протезно-ортопедическими изделиями и бесплатными санаторно-курортными путёвками. Также описаны мероприятия по рассмотрению обращений населения и поощрению работников системы.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, медико-социальные услуги, инвалидность, реабилитация, санаторные путёвки, социальная защита, государственная политика.

KIRISH. 2021-yilda O‘zbekistonda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarning hayot sifatini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Prezidentimizning farmon va qarorlari asosida tibbiy-ijtimoiy xizmatlar tizimi takomillashtirilib, yangi bo‘lim va boshqarmalar tashkil etildi. Ushbu jarayonlar Qashqadaryo viloyatida ham izchil olib borilib, aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati oshirildi, yangi imkoniyatlar yaratildi hamda muhtoj shaxslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha samarali choralar ko‘rildi.

METODOLOGIK ASOSLAR. Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida tarixiy-tahliliy, qiyosiy, statistik va tizimli yondashuv metodlaridan keng foydalanildi. Asosiy metodologik yondashuv sifatida tarixiylik va izchillik tamoyillari asos qilib olindi, bu esa o‘rganilayotgan jarayonlarni ularning kelib chiqishi, rivojlanishi va zamonaviy bosqichlarini izchil ravishda tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida huquqiy-yuridik hujjatlar tahlili usulidan foydalanilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining nizom va yo‘riqnomalari asosiy manba sifatida o‘rganildi. Bu hujjatlar orqali keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga ko‘rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar tizimida amalga oshirilgan islohotlarning mazmun-mohiyati yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. 2021-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylari tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi PF-6195-sonli Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-5038-sonli qarorlari qabul qilindi. Shu orqali tizimda bir qator yangiliklar va o‘zgarishlar bo‘ldi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5038-sonli qaroriga ko‘ra viloyatlarda tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish boshqarmalari hamda tuman(shahar)larda ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish bo‘limlari tashkil qilindi.

Qashqadaryo viloyat tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish boshqarmasi tomonidan 2021-yil davomida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Qashqadaryo viloyat tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish boshqarmasi hamda uning tuman(shahar) bo‘limlari tomonidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifati oshirilib, ko‘lami kengaytirildi. Viloyat bo‘yicha 2021-yilning 12 oyi davomida jami 1459 nafar muhtoj nogironligi bo‘lgan shaxslar va pensionerlar 854087,1 million so‘mlik reabilitatsiya texnik vositalari bilan ta‘minlandi, shundan 468 nafari nogironlar aravachalari, 168 nafari eshitish moslamalari, 228 nafari hassa, 140 nafari qo‘ltiqtaq, 11 nafari tirsakli qo‘ltiqtaq, 12 nafari ko‘zi ojizlar hassasi, 10 nafari yurish moslamasi, 8 nafari najas qabul qilgich bilan hamda 187948,8 million so‘mlik protez-ortopediya mahsulotlari bilan bepul ta‘minlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Muhtoj shaxslarni protez-ortopediya mahsulotlari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta‘minlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2021-yil 1-iyuldagi 411-son qaroriga asosan, nogironligi bo‘lgan shaxslar va yoshga doir pensionerlarga qulayliklar yaratilib, yangi Nizomga ko‘ra, 2021-yil 1-iyuldan boshlab fuqarolar protez-ortopediya mahsulotlari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalarini o‘z xohishlariga ko‘ra tanlov asosida olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Endi muhtoj shaxs tuman (shahar) tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish bo‘limiga murojaat qilganda unga buklet va broshyura taqdim etiladi, muhtoj shaxs esa undan o‘zi istagan mahsulotini tanlab, bo‘lim tomonidan berilgan sertifikat asosida istalgan korxonasiga borib, mahsulotni bepul olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida mahsulotning sifat darajasini muhtoj shaxsning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zi baholashiga imkoniyat yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 25-martda 2356-1-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan “Nogironlar va keksalarni bepul sanatoriya-kurort yo‘llanmalari bilan ta‘minlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma”ga asosan, 2021-yilning yanvar-dekabr oylari davomida tuman(shahar) Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish bo‘limlari orqali nogironligi bo‘lgan shaxslar va pensionerlardan 26319 nafar muhtojlar jami 3234 dona bepul sihatgoh yo‘llanmalari bilan ta‘minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 24-dekabrda 361-son qarori bilan tasdiqlangan "1941-1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashiga hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga qarashli sanatoriy-sog'lomlashtirish muassasalarida sog'lomlashtirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan, 1941-1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylaridan 6 nafari sanatoriylarda sog'lomlashtirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligining tibbiy-ijtimoiy muassasalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 575-sonli qaroriga asosan, 2021-yil davomida jami 65 nafar nogironligi bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda respublikaning turli hududlaridagi "Muruvvat" internat uylariga joylashtirildi.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10-avgustda 237-sonli qaroriga asosan, 2021-yilning 12 oyi davomida jami 1210 nafar o'zgar parvarishiga muhtoj yakka-yolg'iz, pensioner va nogironligi bo'lgan shaxslar yolg'iz hamda yolg'iz yashaydigan keksa va nogironligi bo'lgan shaxslar ro'yxatiga olingan bo'lib, ularga 183 nafar ijtimoiy xodimlar tomonidan ijtimoiy xizmat ko'rsatilib kelinmoqda. Yanvar-dekabr oylari davomida hisobga olingan yolg'izlarning 1-toifasiga asosan ro'yxatga olingan 469 nafar yolg'izlar 1145,2 mln so'mlik 19 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari va gigiyena vositalari bilan davlat budjeti hisobidan ta'minlandi. Bundan tashqari tizimda uzoq yillar davomida samarali xizmat ko'rsatib kelayotgan hamda nafaqa yoshiga yetgan tizim xodimlari va nafaqadagi faxriy xodimlar sohadagi samarali mehnatlari va yakka-yolg'izlarga ko'rsatgan sifatli xizmatlari uchun boshqarma tomonidan faxriy yorliqlar, esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar. 2021-yilning 12-apreldan 24-apreligacha barcha tuman(shahar) tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish bo'limlari tomonidan "Yilning eng yaxshi ijtimoiy xodimi-2021" ko'rik-tanlovining tuman(shahar) bosqichlari tantanali ravishda o'tkazilib, ko'rik-tanlovining har bir ishtirokchisi va g'oliblari Qashqadaryo viloyat

tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish boshqarmasining diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

"Yilning eng yaxshi ijtimoiy xodimi-2021" ko'rik-tanlovining viloyat bosqichi 2021-yil 2-iyul kuni boshqarma tomonidan yuqori saviyada tashkil qilinib, ushbu tanlovda Qamashi tuman Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish bo'limi ijtimoiy xodimi Yusupova Ozoda Abdusattorovna 1-o'rinni egalladi va ko'rik-tanlovning 2021-yilning noyabr oyida bo'lib o'tadigan respublika bosqichida ishtirok etish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Shuningdek, boshqa masalalar bo'yicha murojaat qilgan 85 nafar fuqarolarga murojaatlari yuzasidan mutaxassislar tomonidan tushuntirishlar va tavsiyalar berildi.

XULOSA. 2021-yilda Qashqadaryo viloyatida keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamlil ishlar amalga oshirildi. Prezident farmoni va qarorlariga asosan tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish bo'limlari tashkil etilib, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati oshirildi. Yil davomida minglab fuqarolar reabilitatsiya vositalari, protez-ortopediya mahsulotlari va bepul sanatoriy yo'llanmalari bilan ta'minlandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6195-son Farmoni, 2021-yil 25-mart. "Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, "Saxovat" va "Muruvvat" internat uylari tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrda 575-son Qarori. "O'zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligining tibbiy-ijtimoiy muassasalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida".
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 237-son Qarori, 2015-yil 10-avgust. "Yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida".
4. Qashqadaryo viloyati tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish boshqarmasining 2021-yilgi yillik hisobot materiallari.

MUHAMMAD SALIM OXUNNING XIVA XONLIGIDAGI LAVOZIMLARI

*Salimov Matyusuf Kodirberganovich, Urganch davlat pedagogika
instituti mustaqil tadqiqotchisi.*

MUHAMMAD SALIM OXUN'S POSITIONS IN THE KHIVA KHANATE

*Salimov Matyusuf Kodirberganovich, independent researcher at
Urgench State Pedagogical Institute*

ДОЛЖНОСТИ МУХАММАДА САЛИМА ОХУНА В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ

*Салимов Матюсуф Кодирберганович, независимый
исследователь Ургенчского государственного педагогического
института*



<https://orcid.org/0000-0008-1453-0033>

e-mail:

salimovmatyusuf123@
gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva xonligi qozikaloni Muhammad Salim oxunning mutavalli, mudarris, mufti, qozi askar va qozikalonlik lavozimlariga tayinlanganligi va vafotidan keyingi jarayonlar haqida soʻz yuritimiz.

Kalit soʻzlar: Xiva, qalʼa, masjid, qavm, mutavalli, mufti, qozi askar, qozikalon, vaqfnoma, oxun, mudarris, madrasa, eshon, muhr.

Abstract: This article discusses the appointments of Muhammad Salim Okhun, kazykalon of the Khive Khanate, to the positions of muttawalli, mudarris, mufti, kazy asker, kazykalon, as well as the events that took place after his death.

Keywords: Khiva, fortress, mosque, clan, mutawalli, mufti, kazy asker, qazykalon, vaqfnom, okhun, mudarris, madrasah, eshan, seal.

Аннотация: В данной статье рассматриваются назначения Мухаммада Салима Ахуна, казыкалана Хивинского ханства, на должности мутавалли, мударриса, муфтия, кази аскера и казыкалана, а также события, происходившие после его смерти.

Ключевые слова: Хива, крепость, мечеть, род, мутавалли, муфтий, казы аскер, казыкалон, вақфнома, ахун, мударрис, медресе, эшан, печать.

KIRISH. Muhammad Salim oxun 12 yil Buxoro shahridagi Koʻkaldosh madrasasida tahsil olib, Sayyid Muhammad Rahimxon-Feruzning xonlik davrida Xorazmga kelib, dastlab xattotlik va oxunlik faoliyati bilan shugʻullangan boʻlsa, keyinchalik mutavalli vazifasiga tayinlangan. Oʻzining xusnixati, mehnatsevarligi, rostgoʻyligi va ilmi bilan xonlikda hurmat-izzatga sazovor boʻlib, mudarris, mufti, qozi askar va qozikalon lavozimlariga tayinlangan va umrining oxirigacha qozikalonlik lavozimida faoliyat olib borgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Mavzuni yoritishda tarixchi olimlarimiz Komiljon Xudoyberganov va Umid Bekmuhammadlarning monografiya va

maqolalaridan, shuningdek qozikalon Muhammad Salim oxun avlodlariga tegishli shaxsiy arxivida saqlanayotgan tarixiy qoʻlyozma va hujjatlardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Xiva xonligida yuqori davlat lavozimlariga tayinlashda ham oʻzbek davlatchiligiga xos asriy anʼanlarga amal qilingan. Shu jumladan mufti, aʼlam, shayxulislom, qozi, qozi-xos, qozi askar, qozikalon va boshqa lavozimlarga xonning maxsus farmoni bilan tayinlangan. Bu diniy lavozimlarga tayinlanganlarning koʻpchiligi chet davlatlarning mashhur shaharlari madrasalarida tahsil olgan boʻlib, Xiva xonligidagi oʻz davrining nomdor madrasalariga mudarris, ulugʻ avliyo maqbaralari,

qadamjolar, masjid va madrasalarning mutavallisi ham bo'lishgan. Shuning uchun ham bu lavozimdagilarning ism-shariflarini qayd qilishda, shaxsiy va lavozimlariga tegishli muhrlarida domullo, oxun, qori, eshon so'zlari qo'shib qayd qilingan.

Muhammad Salim oxun ham hijriy 1274-yil (1858-yil)dan 1286-yil (1869-yil)gacha Buxoro shahridagi Ko'kaldosh madrasasida tahsil olib, o'z yurtiga qaytgach, dastlab maktab va madrasa toliblariga dars bergan va xattotlik bilan shug'ullangan. Hijriy 1293-yilning shabon oyida (1876-yil) masjid mutavallisi qilib tayinlangan. Bu tayinlov qozikalon Abdurahim qozi Muhammad Sharif eshon o'g'li va qozi askar Muhammad Latif oxun Eshniyoz oxun o'g'li muhrlari bilan rasmiylashtirilgan. Mutavallilik vazifasida o'zining rostgo'yligi, ilm zakovati, mehnatsevarligi bilan xonga va xalq hurmatiga sazovor bo'lib, keyinchalik Xiva shahridagi Arabxon, Olloqulixon, Muhammad Aminxon, Muhammad Rahimxon Feruz madrasalariga mudarris bo'lib tayinlangan va xonlikda davlat lavozimlariga tayinlangan bo'lsa-da, umrining so'ngigacha mudarrislik faoliyati bilan shug'ullangan.

Muhammad Salim oxun o'zining xotira kundaligida 1303-yil robbiul soniy oyining 15-kuni (1886-yil 21-yanvar) Xiva xonligida muftiylikka tayinlanganligini, bu vaqtda Arabxon madrasasida mudarrislik qilayotganligini, 1313-yil (1896-yil)da "Madrasai kalon"ga mudarris bo'lganligini qayd qilgan. Shuningdek muftiylik bilan birga Gurlan bekligidagi Polvon (Niyoz) mushruf¹ masjidi va Xivada Nurullobek qavmidagi madrasasiga mutavallisi bo'lganligi ham qayd qilingan. Gurlan bekligidagi Muhammad Nazar qozi va yana to'rtta qozi nikohxonalarining nazoratini olib borgan. 1304-yil (1887-yil) Gurlan bekligida jami 182 nikoh, shundan 54tasi sayyiba² va qolgani bokira³ nikohligi, 1308-yil (1891-yil) nikohlarning 135ta bokira va 60ta sayyiba nikoh bo'lganligi, shuningdek 1887-1891-yillarda har oydagi nikohlar soni va pul tushumlarini qayd qilib borgan. Yana Xiva shahridagi Nurullobek qavmidagi madrasa vaqf yeri 1150 tanob, g'allasi 1725 botmon ekanligi keltirilgan. Bu muftiy-raislik lavozimida nikohxonalarni nazorat qilish qozi askarlikka tayinlanganga qadar davom qilgan.

Hijriy 1315-yilning 17-shavvol (1898-yil 11-mart) kuni Muhammad Aminxon madrasasiga mudarris bo'lib tayinlanganligi bilan bir vaqtda Xiva xonligining qozi askar lavozimiga ham tayinlangan. Qozi askarlik muhrida ham 1315-yil qayd qilingan bo'lib, "Qozi askar domullo Muhammad Salim oxund ibn Muhammad Sa'id marhumi" deb qayd qilingan. Qozi askar mansabida ham 3 yil faoliyat olib borgan.

1900-yil Xiva qozikaloni Domla Muhammad Amin vafotidan keyin, xon farmoni bilan qozikalonlikka tayinlangan bo'lib, o'zining kundaligida hijriy 1318-yil Ramazon oyining 5-kuni (1900-yil 27-dekabr) deb, yana Sayyid Muhammad Rahimxon Feruz madrasasiga ham mudarrislik qilganligi keltirilgan. Shuningdek Qozikalonlik asosiy muhrida "qozi ul-quzot domullo Muhammad Salim oxund ibn Muhammad Sa'id maxdum marhumi, 1318" deb qayd qilingan. Qozikalonlik lavozimining yana ikkita muhri bo'lib, sakkiz burchak va avol shakllarida bo'lib, ularga ham qozi ul-quzzot deb yozilgan.

Qozikalonlik lavozimiga xonning farmoni bilan tayinlangan bo'lsa-da, shu davrning an'analariga amal qilingan. Yangi lavozimga tayinlanganligini Xiva aholisiga bildirish maqsadida non-osh berilgan, talaba va g'ariblarga xayr-ehson qilgan. Shu bilan birga suyunchi va sovg'a-salomlar tarqatilgan bo'lib, suyunchiga 60 tillo, yorlig' kotibiga 30 tillo, yorlig' muhriga 100 tillo, sarupo hazratga 130 tillo, sarupo arkoni davlat va shahri arkonlarga 114 tillo, yana ikkita sarupoga 20 tilledan, muhrkonga 60 tillo, jami harajtlar 574 tillo ekanligi keltirilgan.

Muhammad Salim oxun qozikalonlik faoliyati davrida 1903-1905-yillarda Xiva shahrining "Ichan qal'a"sida madrasa va Shohi Mardonda qorixonona qurdirgan. Bu haqda Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" asarida Muhammad Rahimxon Feruz targ'ibi bilan madrasa bino qilganlar orasida qozikalon Muhammad Salim oxun ham qayd qilingan bo'lib, madrasa "Qozikalon" nomi bilan atalgan. Tarixchi olim K.Xudoyberganovning "Xiva dunyodagi eng ko'hna qal'a" nomli 2012-yilda nashr qilingan kitobida, qozikalon qorixonasi 1904-yil, madrasasi bilan bir vaqtda qurilganligi

¹ Soliq yig'uvchi.

² Qayta turmushga chiqishi.

³ Ayollarning birinchi marotaba turmushga chiqishi.

keltirilgan. Muhammad Salim oxunning esdalik kundaligida qorixona sarf-xarajatlari va quruvchisi usto Xudoybergan bo'lganligi qayd qilingan.

Qozikalon madrasasi 1924-yilgacha faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1924-yil 13- avgust kuni Xorazm Respublikasining Maorif madaniyat nazorat nozirliги huzuridagi O'quv sho'bası yig'ilishidagi qaroriga asosan, 25 nafar o'quvchiga mo'ljallangan "Dorul-xattot" nomli o'quv yurti tashkil qilingan. Keyinchalik 1938-1939-yillar yog' zavodi omborxonasi, 1972-1982-yillar "Amaliy san'at" muzeyi, 1982-1992-yillar Oltin qo'llar ansambli idorasi va 1992-yildan hozirgi kunga qadar "Xorazm musiqa tarixi" muzeyi bo'lib faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Muhammad Salim oxun 16 yil xonlikning qozikaloni lavozimida adolatli faoliyat olib boridi. 60 yil madrasalarda mudarrislik qilib, 1000 nafarga yaqin shogirdlariga saboq berdi. Qoraqum hazrati Sirojiddin rahmatullohi alayhiga murid bo'lib, eshonlik rutbasini oldi. Muhammad Salim oxunning vafoti, o'g'li Nizomiddin oxun xotira kundaligida hijriy 1334-yil rabbiul soniyning 12-kuni (1916-yil 17-fevral) Xiva shahrida 92 yoshida deb qayd qilingan. Shohimardon qabristonidagi o'zi qurdirgan qorixonasiga dafn qilinganligi. Bu xonga qarshi 1916-yilgi qo'zg'olon davrida bo'lib, xon Junayid qozikalon Muhammad Salim oxunga bo'lgan hurmati yuzasidan Xiva qamalini bekor qilib, Janoza namozi va ta'ziyaga xonlikdagi beklıklaridan kelgan fuqarolariga Xiva shahriga kelib ketishi uchun ruxsat bergan.

Qozikalon Muhammad Salim oxun vafotidan keyin qozikalon lavozimiga domla Xudoybergan oxun tayinlangan. Qozikalonlik lavozimiga tegishli barcha ish hujjatlarini yangi tayinlangan qozikalonga Muhammad Salim oxunning ishonchli vakillari domla Muhammad Rizo oxun va mullo Jumaniyoz badrxonlilar tomonidan topshirilgan. Bu hujjatlar ro'yxat qilinib, yangi tayinlangan qozikalon muhri bilan rasmiylashtirilib xat berilgan. Bu xatda quyidagilar zikr qilingan: "Sana 1334-yili robbiul soniyning 16-

kuni Muhammad Salim oxun marhumidog'i qozikalong' o taalluqli ushbu ma'badda⁴ mazkur ashyoni domullo Muhammad Rizo oxund devon bila domullo Jumaniyoz maxdumlar topshirdilar. Ollohqulixon marhumi madrasasining qozikalon asr mutavalli⁵ mavqufatidin⁶ yer olinmoqchi bo'lib, mua'ttal⁷ turg'on mablag' 1709 tillo bila 2 tanga va yana hazratimiz domati davlatu⁸ ning hazrat Pahlavon ota alayhi rahmaning juvorida bino etgan qorixonalarining vaqfnomasi bila xatmona va iftor uchun turg'on 135 tillo bila 7,5 tangasi va yana Muso to'ra marhumi madrasasining xatmonasi va suvchisi va qorisi uchun 550 tillo bila vaqfnomasi va yana to'rt Shahboz bobo alayhi rahmaning ahli vazoifidin ortg'on har yilg'i 100 botmon g'alla nisfi bug'doy va nisfi jugari⁹ning qiymatidin yer olinib, shikasti rixt etulub va bisoti¹⁰ olunub boqiy qolg'on mablag' 2597 tillo bila 1,5 tangasi va yana Sayyid Niyozboy masjidı voizi¹¹ning vaqfnoma va 500 tillosi va yana Xonaqohdagi Sayyid ota alayhi rahmaning¹² voizining vaqfnomasi bila 500 tillosi va yana Gurlan masjid kalonining voizining vaqfnomasi bila 500 tillosi va yana Toshhovuz masjidı kalonining vaqfnomasi bila 500 tillosi va yana Xivaq dorulsaltanasi¹³ masjidı kaloni voizining vaqfnomasi va yana To'rt Shohboz bobo alayhi rahma masjidı voizining vaqfnomasi va yana Urganch masjidı voizining vaqfnomasi va yana hazrat Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon marhumining hazrat Pahlavon ota alayhi rahmada sokin bo'lg'on a'mo¹⁴ qorilar uchun olgan vaqfnomasi va yana masjidı kalonining imom va muazzini vaqfnomasi va yana hazrat Pahlavon alayhi rahmaning qozikalon asr nozir bo'lg'on vaqfnomasi va yana Muhammad Nazar inoq qorixonasining vaqfnomasi va yana Asqar to'ra marhumi qorixonasining vaqfnomasi bila 24 tillo bila 3 tanga, a'ydi oshi¹⁵ uchun va yana Muhammad Vafoboy karvonboshi oqo¹⁶ning xon hazratimizning qorixonamizga vaqf etgan 500 tillosi bila vaqfnomasi va yana olti qorixonaning vaqfnomasi va yana uch quduqning vaqfnomasi va yana Sayyid Asqar to'raning vaqfnomasi va yana Oq masjidning

⁴ Quyidagi zikr qilinganlar.

⁵ Qozikalonlik davrida mutavalli bo'lgan.

⁶ Vaqf qilingan mulk va mablag'lar.

⁷ Bekor turgan mablag'.

⁸ Asfandiyorxon davri.

⁹ Jo'xori.

¹⁰ Hisob-kitob qilingan mablag'.

¹¹ Voiz, xatib – faqat juma kuni masjidida ma'ruza qiladigan imom.

¹² Maqbarasi masjidı voizi.

¹³ Bu yerda Nurulloboydagi saroy masjidining voizi.

¹⁴ Ko'zi ojiz qorilar.

¹⁵ Hayit bayramlarida beriladigan osh.

¹⁶ Xon qabulidagi soqchi.

vaqfnomasi va yana minoraning vaqfnomasi bila 100 tillosi, yana 10 tillosi va yana Roziya bikaning iftor vaqfnomasi va yana Shirvon¹⁷ qorixonasining vaqfnomasi va yana qozikalon asr mutavalli bo'lmay, mahzi muhafazatig' o ma'mur¹⁸ bo'lg'on 50 adad vaqfnomasi va yana Ollohqulixon marhumining vaqf kitoblarining muhri va yana Pahlavon ota alayhi rahmaning shayxlarining uch adad yorlig'i va uch adad hukmi xati va ikki adad rivoyati va yana Muhammad Rahimxon marhumig'a fuqarolarning yer sotgan xatlarining davtari¹⁹ va yana Ollohqulixon marhumi madrasasi uchun va voizlari uchun va masjid kalonining imom va muazzini vaqfi uchun olingan yerlar va To'rt Shohboz bobo alayhi rahma uchun oling'on yerlarning o'kcha xatlari²⁰ va yana G'aybu mavzesidagi hazrat Pahlavon ota alayhi rahma vaqfining yeridin yof yorib o'tgan kishilarning tilidin bergan xatlari va yana Sayyid Muhammad Rahimxon marhumining ulug' madrasalarig'a vaqf etgan kitoblar ro'yxati va yana bir mujallad yozma Kalomi Sharif Erondin kelgan va ikki mujallad qalami²¹ tafsiri kabir va yana olti mujallad qolibi tafsiri kabir va bir mujallad qolibiy tafsir qozi Bayzoviy va ikki mujallad qolibi tafsir Shayxzoda bar qozi Bayzoviy va yana bir mujallad qalami sharhi risolayi mullo Jalol va yana bir mujallad qalami daftar soniy Hidoya va yana bir mujallad qolibi kitob Birjandi sharhi Muxtasar Viqoya va yana Sayyid Muhammad Rahimxon marhumining mavqufatidin bir mujallad qalami fatovoi Shayboniy, yana bir vaqf "Xo'ja bog'i" masjidining vaqfnomasi va 100 tillo va yana Sayyid Aloviddin ota alayhi rahmaning 10 tillo vaqfnomasi".

Yana bir tarixiy hujjatda: "Tarix hijriy 1334-da mohi jamadul soniy avvalinda (1916-yil 5-aprel), seshanba kuni erdikim, jannat makon qozi ul-quzot domullo Muhammad Salim oxund eshon marhumining odamlari domullo Jumaniyoz vaqfnomalarning muazzin²² bo'lg'on majmuyi kitobi va madrasa Cho'binning vaqfnomasining muazzin bo'lg'on kitobi va hazrati Ismi Maxmud ota²³ alayhi rahmaning vaqfnomasining muzayyani va bir ijozai shajarani kelturub bizga topshurdi, oni

¹⁷ Harflari ko'chganligi sababli Shirvon deb olindi.

¹⁸ Mutavallilarni nazorat qilish yuklatilgan bo'lib, mutavallilik uchun maosh olinmaydi.

¹⁹ Bu yerda so'z harflari ko'chganligi sababli daftar so'zi taxmin qilib olindi.

olduq, deb xat bitildi", - deb sakkiz qirrali qozikalon muhr bosilgan. Muhrda "Qozi ul-quzot domullo Xudoybergan oxund ibn Nizomiddin xatib²⁴ marhumi 1334" deb qayd qilingan. Muhammad Salim oxun shular qatorida o'zining qurdirgan Qozikalon madrasasi va qorixonalarining faoliyatlarini ham nazorat qilgan.

XULOSA. Xiva xonligida muftiy, rais, a'lam va qozilik lavozimlariga tayinlanganlar madrasalarga mudarris qilib ham tayinlanganlar va madrasa, qadamjolar, qorixonalar va boshqa bino inshootlarning mutavallisi va nazoratchisi bo'lib ham faoliyat olib borgan. Muhammad Salim oxun ham o'zining mudarris, muftiy va qozilik lavozimlari faoliyatida ko'plab vaqfmulkarga mutavalli va nazoratchi bo'lib tayinlangan. Xonlikdagi bu lavozimlarda faoliyat yuritishda, o'zining ishonchli vakillari, kotiblari, yordamchilari va farzandlari yordamida amalga oshirgan. Madrasa va qorixona qurdirib ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratib, yoshlarning maktab, madrasa va yangi usul-jadid maktablarida ta'lim olishiga ko'maklashib, homiylik qilgan. Xiva xonligining taraqqiyoti uchun xizmat qilgan davlat arbobi va o'z davrining ulamosi bo'lgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Salimov M. Qozikalon domla Muhammad Salim oxun hayoti va faoliyati. Innovatsiya va taraqqiyot jurnali, Urganch, 2024-yil 4-son.
2. Muhammad Salim oxunning esdalik kundaligi. Qo'lyozma. Shaxsiy arxiv.
3. Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajaraiy Xorazm-shohiy. Nasratullo Jumaxo'ja, I.Adizovalar tadbili. Toshkent G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994-yil.
4. Nizomiddin oxunning esdalik kundaligi. Qo'lyozma. Shaxsiy arxiv.
5. Xudoyberganov K. Xiva dunyodagi eng ko'hna qal'a. Toshkent, 2012-yil.
6. Umid Bekmuhammad. Xorazm jadidchilik harakati ensiklopediyasi. Milleniumus print nashriyoti. Urganch, 2024-yil.
7. XVDA. F-123-fond, 1-ro'yxat, 19-ish, 124-varaq.

²⁰ Vaqf uchun sotib olingan yerlar xati.

²¹ Nay qalam bilan yozilgan.

²² Ziyatlangan, bezatilgan.

²³ Turkiston shahridagi

²⁴ Voiz singari faqat juma kuni masjidida ma'ruza o'qiydigan imom.

Qabul qilindi: 15.07.2025

Chop etildi: 30.08.2025

UDK: 101.9

LYUDVIG VIGTEYNSHTEYN FALSAFIY
MEROSIDA AXLOQIY VA MANTIQIY
TAFAKKUR UYG‘UNLIGI

*Narzukulova Ferangiz Rustamjonovna, SamDCHTI
tadqiqotchisi, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM
Samarqand kampusi o‘qituvchisi*

HARMONY OF MORAL AND LOGICAL
THINKING IN THE PHILOSOPHICAL
HERITAGE OF LUDWIG WITTGENSTEIN

*Narzukulova Ferangiz, Researcher of Samarkand State Institute
of Foreign Languages, Lecturer at the Samarkand branch of the
Economic and Pedagogical University*

ГАРМОНИЯ МОРАЛЬНОГО И ЛОГИЧЕСКОГО
МЫШЛЕНИЯ В ФИЛОСОФСКОМ НАСЛЕДИИ
ЛЮДВИГА ВИТГЕНШТЕЙНА


*Нарзукулова Ферангиз Рустамжоновна, исследователь
Самаркандского государственного института
иностранных языков, преподаватель Самаркандского
филиала Экономико-педагогического университета*



<https://orcid.org/0009-0004-1495-2458>

e-mail:

narzikulo@gmail.com



Annotatsiya: Mazkur maqolada Lyudvig Vitgenshteynning falsafiy merosida axloqiy va mantiqiy tafakkur uyg‘unligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Muallif Vitgenshteynning dastlabki (“Logik-falsafiy traktat”) va keyingi davrdagi (“Falsafiy tadqiqotlar”) qarashlarini qiyosiy o‘rganib, uning mantiqiy tafakkur tizimi va axloqiy g‘oyalar o‘rtasidagi ichki aloqadorlikni ochib bergan. Shuningdek, maqolada axloqiy qadriyatlar inson nutqi va mantiqiy fikrlash chegaralarida qanday namoyon bo‘lishi hamda bu qarashlarning XX asr falsafiy tafakkuriga ko‘rsatgan ta’siri yoritilgan. Vitgenshteynning fikricha, axloqiy mazmun mantiqiy struktura orqali bilvosita ifodalanadi va inson hayotining ma’naviy mazmunini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ushbu yondashuvning falsafa tarixidagi dolzarbligi, zamonaviy axloqshunoslik va mantiqiy metodologiyada tutgan o‘rni ham keng tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Vitgenshteyn, axloq, mantiq, tafakkur, falsafa, “Logik-falsafiy traktat”, “Falsafiy tadqiqotlar”, qadriyatlar, axloqiy-mantiqiy uyg‘unlik, zamonaviy falsafa.

Abstract: The article analyzes the scientific and theoretical integration of moral and logical thinking in the philosophical legacy of Ludwig Wittgenstein. The author, having compared the early (“Tractatus Logico-Philosophicus”) and late (“Philosophical Investigations”) views of Wittgenstein, reveals the internal connection between his system of logical thinking and moral ideas. The article also considers how moral values are manifested within the boundaries of human speech and logical thinking, and how these views influence the philosophical thought of the 20th century. According to Wittgenstein, moral content is indirectly expressed through logical structure and is of great importance for understanding the spiritual content of human life. The article also analyzes in detail the relevance of this approach in the history of philosophy, its place in modern ethics and logical methodology.

Keywords: Wittgenstein, ethics, logic, thought, philosophy, Tractatus Logico-Philosophicus, Philosophical Investigations, values, moral and logical harmony, modern philosophy.

Аннотация: В статье анализируется научно-теоретическая интеграция морального и логического мышления в философском наследии Людвига Витгенштейна. Автор, сопоставив

ranние (“Логико-философский трактат”) и поздние (“Философские исследования”) взгляды Витгенштейна, выявляет внутреннюю связь между его системой логического мышления и моральными идеями. В статье также рассматривается, как моральные ценности проявляются в границах человеческой речи и логического мышления, и как эти взгляды влияют на философскую мысль XX века. По мнению Витгенштейна, моральное содержание опосредованно выражается через логическую структуру и имеет большое значение для понимания духовного содержания человеческой жизни. В статье также подробно анализируется актуальность данного подхода в истории философии, его место в современной этике и логической методологии.

Ключевые слова: Витгенштейн, этика, логика, мысль, философия, “Логико-философский трактат”, “Философские исследования”, ценности, морально-логическая гармония, современная философия.

KIRISH. XX asr falsafasining eng yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Lyudvig Vitgenshteyn o‘zining chuqur mantiqiy tahlillari va axloqiy qarashlari bilan butun dunyo falsafiy tafakkurida o‘ziga xos iz qoldirgan mutafakkirdir. Uning falsafiy merosi nafaqat til va mantiq masalalari, balki axloqiy qadriyatlarining inson hayoti va tafakkuridagi o‘rni bilan ham uzviy bog‘liqdir. Vitgenshteynning dastlabki davr asari “Logik-falsafiy traktat”da mantiqiy struktura va til chegaralari asosida inson fikrlash imkoniyatlari belgilansa, keyingi davr “Falsafiy tadqiqotlar” asarida tilning kundalik hayotdagi qo‘llanilishi va uning axloqiy ma‘nolari tahlil etiladi.

Zamonaviy falsafa tadqiqotlari shuni ko‘rsatmoqdaki, Vitgenshteyn mantiqiy tafakkur bilan axloqiy qadriyatlarni bir-biridan ajratmagan, balki ularning uyg‘unligiga urg‘u bergan. Chunki u uchun mantiqiy tafakkur inson ongining tashqi ifodasi bo‘lsa, axloqiy mazmun uning hayotiy maqsad va qadriyatlarini anglatadi. Shuning uchun ham Vitgenshteynning falsafiy qarashlari nafaqat analitik falsafaning rivojlanishida, balki axloq falsafasining metodologik asoslarini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida insoniy qadriyatlar, axloqiy me‘yorlar va mantiqiy tafakkur uyg‘unligini tadqiq etish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham zarurdir. Chunki insoniyat oldida turgan ko‘plab ijtimoiy, madaniy va ma‘naviy muammolarni hal etishda axloq va mantiq uyg‘unligi muhim metodologik vosita bo‘lib xizmat qiladi[1]. Shu ma‘noda, Vitgenshteyn falsafiy merosini chuqur o‘rganish hozirgi davr falsafiy va axloqiy izlanishlari uchun ilmiy-nazariy asos yaratadi.

Lyudvig Vitgenshteynning dastlabki davr falsafasi “Logiko-falsafiy traktat” (1921) asari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda u til, tafakkur va voqelik o‘rtasidagi munosabatlarni mantiqiy struktura asosida tahlil qiladi. Vitgenshteynning ta‘kidlashicha, tilning chegaralari inson tafakkurining chegaralarini ham belgilaydi. Shundan kelib chiqib, u falsafaning vazifasi — ilmiy va mantiqiy fikrlashni chegaralash, ya‘ni “ifoda etilishi mumkin bo‘lgan narsalarni aniq aytish, ifoda etib bo‘lmaydigan narsalar haqida esa sukut saqlash” ekanini ta‘kidlaydi[2].

Bu yondashuvda mantiqiy tafakkur universallashtirish va axloqiy qadriyatlar ham tilning “ma‘nosiz” (tasvirlab bo‘lmaydigan) sohasi sifatida ko‘riladi. Ammo Vitgenshteyn axloqni inkor etmaydi, balki uni mantiqiy struktura orqali bilvosita namoyon bo‘ladigan, inson hayotiga chuqur ma‘naviy mazmun bag‘ishlovchi hodisa sifatida talqin etadi. Shu bois “Traktat” asaridagi mashhur fikrlaridan biri: “Etika — ifodalab bo‘lmaydigan, lekin ko‘rsatib bo‘ladigan narsa” deb yozadi[3], bu esa uning axloqiy qarashlarini mantiqiy tafakkur bilan uyg‘unlashtirishga intilganini ko‘rsatadi.

Vitgenshteynning keyingi falsafiy qarashlari “Falsafiy tadqiqotlar” (1953) asarida o‘z ifodasini topdi. Unda olim tilning mantiqiy strukturasidan ko‘ra, uning ijtimoiy va amaliy qo‘llanishiga e‘tibor qaratadi. “Til o‘yinlari” konsepsiyasi orqali u insonlar o‘rtasidagi muloqot va tafakkur jarayonining amaliy mazmunini ochib beradi[4].

Bu yondashuv axloqiy qadriyatlarni ham yangicha talqin qilish imkonini berdi. Axloqiy mazmun, Vitgenshteyn nazarida, abstrakt mantiqiy hukmlar bilan emas, balki kundalik

hayotiy muloqotda, insonlar o'rtasidagi til o'yinlarida o'z ifodasini topadi. Shu tariqa axloqiy tafakkur va mantiqiy struktura o'zaro aloqador bo'lib, insoniyat hayotining turli kontekstlarida uyg'unlik kasb etadi.

Vitgenshteyn falsafiy qarashlarida axloqiy va mantiqiy tafakkur garmoniyasi metodologiyada yangi yo'nalishlarni yuzaga keltirdi. Unga ko'ra, mantiqiy tafakkur inson fikrlashini tartibga soladi, axloq esa bu fikrlash jarayonining mazmunini va insoniy maqsadlarini belgilab beradi[5]. Demak, biri shakl, ikkinchisi esa mazmun vazifasini bajaradi.

Shuningdek, Vitgenshteynning tafakkurda axloqiy-mantiqiy uyg'unlik haqidagi qarashlari hozirgi davrda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Bugungi globallashuv jarayonida tilning manipulyativ imkoniyatlari, ijtimoiy axborot oqimlari va qadriyatlar inqirozi sharoitida Vitgenshteynning fikrlari axloqiy barqarorlikni ta'minlash uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Vitgenshteyn falsafiy merosi bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, uning qarashlari XX asr falsafiy tafakkurining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan analitik falsafaning shakllanishida beqiyos o'rin tutadi. Tadqiqotchilar, asosan, Vitgenshteynning ikki davrdagi qarashlarini alohida ko'rib chiqadilar: dastlabki davr ("Logik-falsafiy traktat") va keyingi davr ("Falsafiy tadqiqotlar")[6].

Yevropa va Amerika falsafa maktablari olimlari Vitgenshteynning dastlabki qarashlarini mantiqiy pozitivizm va ilmiy tafakkur metodologiyasi bilan bog'lashga intilganlar. Masalan, R.Karnap, M.Shlik kabi faylasuflar "Traktat"ni ilmiy tilni aniqlash va falsafaning vazifalarini chegaralash nuqtayi nazaridan baholaganlar. Shu bilan birga, ko'plab tadqiqotchilar Vitgenshteynning axloqiy qarashlariga ham e'tibor qaratib, uning mantiqiy tizimi axloqiy mazmunni inkor etmasligini, balki uni "ifoda qilib bo'lmaydigan, ammo hayotiy tajribada seziladigan" hodisa sifatida talqin qilishini ta'kidlab o'tganlar[7].

Keyingi davr Vitgenshteyn talqinlari esa, asosan, til falsafasi va muloqot nazariyasi doirasida tahlil qilinadi. P.Strouson, S.Kripke,

D.Pirs kabi tadqiqotchilar uning "til o'yinlari" konsepsiyasini rivojlantirib, tilning ijtimoiy mohiyatini, insonlararo muloqotdagi axloqiy va ma'naviy jihatlarni ochib berganlar[8]. Bu qarashlar nafaqat mantiqiy tafakkur, balki axloqiy qadriyatlarining ham zamonaviy ijtimoiy muhitda qay darajada ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek va rus tilidagi falsafiy adabiyotlarda ham Vitgenshteyn merosiga bag'ishlangan izlanishlar mavjud. Jumladan, zamonaviy axloqshunoslik va mantiqiy tafakkurga oid tadqiqotlarda uning qarashlari falsafaning metodologik muammolarini hal etishda muhim manba sifatida talqin qilinadi. Ayrim mualliflar Vitgenshteynning axloqiy qarashlarini Sharq falsafasi, xususan, tasavvufiy tafakkurdagi "so'z va ma'no uyg'unligi" bilan qiyoslab o'rganishga ham urinmoqdalar.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Vitgenshteynning falsafiy merosini chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, uning qarashlari ikki asosiy bosqichda shakllanib, har ikki bosqichda ham axloq va mantiqiy tafakkur o'zaro uzviy aloqadorlikda namoyon bo'lgan.

Birinchidan, "Logik-falsafiy traktat"da til va mantiqning chegaralari aniqlanib, axloqiy qadriyatlar "ifoda qilib bo'lmaydigan" soha sifatida talqin qilinadi[9]. Bu yondashuvda axloqiy mazmun mantiqiy tafakkur orqali bilvosita anglanadi va inson hayotining ma'naviy mazmunini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Vitgenshteyn axloqiy qadriyatlarni mantiqiy struktura bilan qarama-qarshi qo'ymaydi, balki ularni tafakkurning ikki qirrasini tashkil etuvchi hodisa sifatida ko'radi.

Ikkinchidan, "Falsafiy tadqiqotlar"da til o'yinlari nazariyasi asosida axloqiy mazmunning ijtimoiy kontekstdagi ifodasi ko'rib chiqiladi. Bu yondashuv mantiqiy tafakkurni hayotiy muloqot jarayonlari bilan bog'lab, axloqiy qadriyatlarni kundalik hayot amaliyotida ko'rsatib beradi[10]. Natijada, axloq va mantiq uyg'unligi faqat nazariy konsepsiya emas, balki amaliy falsafiy metod sifatida ham o'z ahamiyatini namoyon etadi.

Uchinchidan, Vitgenshteyn qarashlarining zamonaviy tahlillari shuni tasdiqlaydiki, uning falsafasi bugungi axloqshunoslik, tilshunoslik va mantiqiy metodologiyada ham o'z o'rnini saqlab qolmoqda. Axloqiy qadriyatlarining til orqali ifodalanishi, mantiqiy tafakkurning ijtimoiy muhit

bilan uzviy bog‘liqligi global axborotlashuv sharoitida alohida dolzarbdir.

XULOSA. Lyudvig Vitgenshteynning falsafiy merosi mantiqiy tafakkur va axloqiy qadriyatlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yoritishda muhim nazariy asos yaratadi. Uning “Logik-falsafiy traktat”dagi qarashlari mantiqiy struktura va til chegaralarini aniqlash orqali axloqiy mazmunning ifodalanish imkoniyatlarini belgilab bersa, “Falsafiy tadqiqotlar”dagi yondashuv til o‘yinlari nazariyasi orqali axloqiy qadriyatlarning kundalik hayotiy amaliyotda namoyon bo‘lishini asoslab berdi.

Vitgenshteynning qarashlari shuni anglatadiki, axloqiy mazmun mantiqiy tafakkurdan tashqarida emas, balki uning ichida, bilvosita tarzda mavjuddir. Shu bois, axloq va mantiq uyg‘unligi inson tafakkurining shakl va mazmunini tashkil etuvchi ikki muhim qirrani ifodalaydi. Bu uyg‘unlik insoniyatning ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy falsafa nuqtayi nazaridan qaralganda, Vitgenshteyn merosi bugungi globallashuv jarayonida axloqiy qadriyatlarning zaiflashishi, mantiqiy tafakkurning manipulyativ shakllarda qo‘llanishi kabi muammolarni yengib o‘tishda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda, uning axloqiy va mantiqiy tafakkur uyg‘unligi haqidagi qarashlari nafaqat falsafiy-nazariy tadqiqotlarda, balki amaliy ijtimoiy hayotda ham bevosita qo‘llanish imkoniyatiga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Wittgenstein L. Tractatus Logico-Philosophicus.–London: Routledge & Kegan Paul, 1921.
2. Wittgenstein L. Philosophical Investigations. – Oxford: Blackwell Publishing, 1953.
3. Carnap R. Logical Syntax of Language. – London: Routledge, 1937.
4. Kripke S. Wittgenstein on Rules and Private Language. – Cambridge: Harvard University Press, 1982.
5. Стросон П.Ф. Введение в логическую теорию. – Москва: Прогресс, 1983.
6. Фафуров Б., Рахмонов Ш. XX аср фалсафаси: асосий йўналишлар ва муаммолар. – Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти, 2015.
7. Kubayeva S. T. Ulugbek as the innovator of the science //Europaische Fachhochschule. – 2014. – №. 5. – С. 114-116.
8. Kubayeva Sh. Til va tafakkur o‘yinlari: innovatsion fikrlash stimuli. O‘zMU xabarnomasi. , [1/12] ISSN 2181-7324 2023 й. 153-156 b.
9. Abdizoitovich G. Educational Problems In The Information Society //Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). – 2025. – Т.6. – №. 4. – С. 5-5.
10. Ризаев И. И. Механизмы самоорганизации социальных систем //Экономика и социум. – 2019. – №. 3 (58). – С. 368-371.
11. Усмонов Ф.Н., Усмонова Л.Р. Рациональный анализ восточной миниатюры //Молодой ученый. – 2016. – №. 2. – С. 987-991.
12. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 17-20.



GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

*G'ulomova Ruxsora Bo'riyevna, Shahrizabz davlat
pedagogika instituti o'qituvchisi*

SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF GLOBAL ENVIRONMENTAL PROBLEMS

*G'ulomova Ruxsora Bo'riyevna, Lecturer, Shahrizabz State
Pedagogical Institute*

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ГЛОБАЛЬНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ

*Гуломова Рухсора Буриевна, преподаватель Шахрисабзского
государственного педагогического института*



ruxsoragulamova@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada global ekologik muammolarning ijtimoiy-falsafiy aspektlari tahlil qilingan. Ekologik inqirozning falsafiy ildizlari, inson va tabiat munosabatlarining dialektikasi, texnogen sivilizatsiyaning oqibatlari va barqaror rivojlanish paradigmasi ko'rib chiqilgan. Maqolada ekologik ongning shakllanishi, ijtimoiy mas'uliyat va tabiatga axloqiy munosabat masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ekologik inqiroz, ijtimoiy falsafa, barqaror rivojlanish, ekologik ong, antropotsentrizm.

Abstract: This article analyzes the socio-philosophical aspects of global environmental problems. The philosophical roots of the ecological crisis, the dialectics of human-nature relations, the consequences of technogenic civilization and the paradigm of sustainable development are examined. The article covers issues of ecological consciousness formation, social responsibility and ethical attitude towards nature.

Keywords: ecological crisis, social philosophy, sustainable development, ecological consciousness, anthropocentrism.

Аннотация: В данной статье анализируются социально-философские аспекты глобальных экологических проблем. Рассмотрены философские корни экологического кризиса, диалектика отношений человека и природы, последствия техногенной цивилизации и парадигма устойчивого развития. В статье освещены вопросы формирования экологического сознания, социальной ответственности и этического отношения к природе.

Ключевые слова: экологический кризис, социальная философия, устойчивое развитие, экологическое сознание, антропоцентризм.

Zamonaviy sivilizatsiya oldida turgan eng muhim muammolardan biri global ekologik inqirozdir. Bu muammo nafaqat texnik-iqtisodiy, balki chuqur falsafiy va ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, insoniyatning kelajagi va mavjudligiga bevosita tahdid solmoqda. Ekologik muammolarning kelib chiqishi, mohiyati va yechim yo'llarini tushunish uchun ularni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish zarur. Inson va tabiat munosabatlarining buzilishi, texnokratik

tafakkurning ustunligi, iste'mol jamiyatining shakllanishi ekologik inqirozning tubsiz sabablari hisoblanadi. Bu muammolarni hal qilish esa insoniyatning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va hayot tarzini tubdan o'zgartirishni talab qiladi.

Ekologik muammolarning falsafiy ildizlari Yangi davr falsafasida shakllangan antropotsentrik dunyoqarashga borib taqaladi. Dekart, Bekon kabi mutafakkirlar tabiatni insonning hukmronligi ostidagi obyekt sifatida talqin qilishgan. "Tabiat

ustidan hukmronlik" g'oyasi G'arb sivilizatsiyasi-ning asosiy paradigmasiga aylandi va bu yondashuv tabiatni cheksiz resurs manbai sifatida qarashga olib keldi. Sharq falsafasida esa inson va tabiat munosabatlari boshqacha talqin qilingan. Konfutsiylik, daoizm, buddizm ta'limotlarida inson tabiatning ajralmas qismi sifatida qaralgan va ular o'rtasidagi uyg'unlik ta'kidlangan. O'zbek mutafakkirlari ham tabiat bilan ma'naviy-axloqiy munosabatlar zarurligini uqtirganlar.

Sanoat inqilobi va ilmiy-texnik taraqqiyot ekologik muammolarning keskinlashishiga olib keldi. Texnogen sivilizatsiya tabiatni o'zgartirish qudratini oshirdi, lekin bu o'zgarishlarning oqibatlarini oldindan ko'ra bilmadi. Kapitalistik ishlab chiqarish usuli foydaga asoslangan mantiqqa ega bo'lib, ekologik muvozanatni hisobga olmaydi. Cheksiz o'sish modeli cheklangan sayyora resurslari bilan ziddiyatga kirishadi. Bu ziddiyat zamonaviy ekologik inqirozning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayoni ekologik muammolarni yanada kuchaytirdi, chunki ifloslanish va resurslarni isrof qilish global miqyos kasb etdi.

Iqlim o'zgarishi zamonaviy davrning eng katta ekologik tahdidi hisoblanadi. Parnik gazlari emissiyasining ortishi, global isish, muzliklar erishi, dengiz sathining ko'tarilishi insoniyat oldida jiddiy muammolar qo'yimoqda. Bu jarayonlar nafaqat atrof-muhitga, balki ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Iqlim migratsiyasi, oziq-ovqat xavfsizligi, suv tanqisligi kabi muammolar ijtimoiy ziddiyatlarni kuchaytirmoqda. Iqlim o'zgarishi muammosi global hamkorlik va ijtimoiy adolat masalalarini kun tartibiga qo'yimoqda, chunki bu muammoga eng kam hissa qo'shgan mamlakatlar eng ko'p zarar ko'rmoqda.

Biologik xilma-xillikning yo'qolishi yana bir global ekologik muammo hisoblanadi. Ekotizimlarning buzilishi, o'rmonlarning kesilishi, turlarning yo'q bo'lib ketishi biosferaning barqarorligiga tahdid solmoqda. Har bir turning yo'qolishi ekologik muvozanatning buzilishiga olib keladi. Inson faoliyati tufayli turlarning yo'q bo'lish sur'ati tabiiy jarayonlardan ming marta tezroq kechmoqda. Bu jarayon nafaqat biologik, balki madaniy xilma-xillikka ham tahdid solmoqda, chunki ko'plab xalqlarning an'anaviy hayot tarzi biologik xilma-xillik bilan chambarchas bog'liq.

Resurslarning tugashi va chiqindilar muammosi iste'mol jamiyatining mantiqiy natijasi hisoblanadi. Tabiiy resurslarning cheksiz iste'moli ularning tugashiga olib kelmoqda. Energiya, suv, oziq-ovqat resurslari tanqisligi kuchaymoqda. Shu bilan birga, chiqindilar miqdori tobora ortib bormoqda. Plastik ifloslanish, elektron chiqindilar, radioaktiv chiqindilar atrof-muhit va inson salomatligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Chiziqli iqtisodiyot modelidan aylanma iqtisodiyotga o'tish zaruriyati tobora oydinlashmoqda.

Ekologik muammolarning ijtimoiy oqibatlari chuqur va ko'p qirrali. Ekologik tengsizlik ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirmoqda. Kambag'al aholi qatlamlari ekologik muammolardan ko'proq aziyat chekmoqda, chunki ular iflos hududlarda yashashga majbur. Ekologik adolat harakati ijtimoiy adolat bilan ekologik barqarorlikni bog'lashga harakat qilmoqda. Ekologik muammolar siyosiy beqarorlik, mojarolar va urushlarning sababiga aylanmoqda. Suv va resurslar uchun kurash xalqaro ziddiyatlarni kuchaytirmoqda.

Ekologik ongning shakllanishi muammolarni hal qilishning muhim sharti hisoblanadi. An'anaviy antropotsentrik dunyoqarashdan ekotsentrik yondashuvga o'tish zarur. Bu yondashuv insonni tabiatning bir qismi sifatida tan oladi va barcha tirik mavjudotlarning qiymatini e'tirof etadi. Chuqur ekologiya falsafasi tabiatning o'z qiymatga egaligini ta'kidlaydi. Ekologik ta'lim va tarbiya orqali yangi avlodda ekologik mas'uliyat hissini shakllantirish mumkin. O'zbekistonda ham ekologik ta'limga alohida e'tibor berilmoqda va bu sohada milliy an'analardan foydalanish muhim.

Global ekologik muammolarning ijtimoiy-falsafiy aspektlari zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu sohada o'zbek va xorijiy olimlar tomonidan ko'plab fundamental ishlar amalga oshirilgan. Mazkur adabiyotlar tahlili ekologik falsafa, ijtimoiy ekologiya, barqaror rivojlanish nazariyasi va ekologik ong shakllanishi masalalarini qamrab olgan asosiy ilmiy manbalarga bag'ishlangan.

Xorijiy adabiyotlar orasida **Ulrich Beck** ning "Risk jamiyati" asari alohida o'rin tutadi. Bek zamonaviy sivilizatsiyaning o'zi ishlab chiqarayotgan xavf-xatarlar bilan kurashishga majbur ekanligini ko'rsatadi. Uning "refleksiv

modernizatsiya" konsepsiyasi ekologik muammolarni tushunishda yangi metodologik yondashuv taklif qiladi.

Arne Naessning chuqur ekologiya falsafasi antropotsentrik dunyoqarashga alternativa sifatida katta ta'sir ko'rsatgan. Naess barcha tirik mavjudotlarning teng qiymatga egaligini ta'kidlab, ekologik inqirozdan chiqishning ma'naviy-falsafiy yo'llarini ko'rsatgan.

James Lovelockning Gaia gipotezasi Yerni yagona tirik organizm sifatida qarashni taklif qiladi. Bu yondashuv ekologik muammolarga tizimli qarashni rivojlantirgan va ko'plab tadqiqotlarga asos bo'lgan.

O'zbek va xorijiy tadqiqotlarni qiyoslash shuni ko'rsatadiki, o'zbek olimlari ekologik muammolarni ko'proq ijtimoiy-madaniy kontekstda ko'rib chiqishadi. Milliy an'analar, islom qadriyatlari va mahalliy ekologik bilimlarning roli alohida ta'kidlanadi. Xorijiy tadqiqotlarda esa global yondashuvlar, universal nazariyalar va texnologik yechimlar ustunlik qiladi.

O'zbek tadqiqotlarining o'ziga xos jihati shundaki, ular Orol dengizi fojiasi tajribasiga asoslanib, ekologik muammolarning real oqibatlarini chuqur his qilgan holda yozilgan. Bu tajriba global ekologik muammolarni mahalliy darajada qanday hal qilish mumkinligini ko'rsatadi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi ekologik muammolarni hal qilishning asosiy paradigmasi sifatida tan olingan. Bu konsepsiya iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Barqaror rivojlanish maqsadlari global hamjamiyatning ekologik muammolarga kompleks yondashuvini aks ettiradi. Yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya, barqaror qishloq xo'jaligi kabi yo'nalishlar amaliy yechimlar taklif qilmoqda. Biroq barqaror rivojlanishni amalga oshirish siyosiy irodani, iqtisodiy transformatsiyani va madaniy o'zgarishlarni talab qiladi.

Texnologiya va innovatsiyalarning roli ekologik muammolarni hal qilishda ziddiyatli. Bir tomondan, yangi texnologiyalar toza energiya, samarali resurslardan foydalanish, ifloslanishni kamaytirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Ikkinchi

tomondan, texnokratik yondashuv muammolarning ildiziy sabablarini hal qilmasdan, faqat oqibatlarini yumshatishga harakat qiladi. Texnologik yechimlar ijtimoiy va axloqiy o'zgarishlar bilan birgalikda qo'llanilishi kerak. Sun'iy intellekt, biotexnologiya, nanotexnologiya kabi yangi texnologiyalar ham yangi ekologik xavflar tug'dirishi mumkin.

Diniy va ma'naviy yondashuvlar ekologik muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Ko'plab dinlar tabiatga hurmat va g'amxo'rlik qilishni ta'kidlaydi. Islom dinida inson tabiatning aminiy (ishonchli qo'riqchisi) sifatida qaraladi. Fransisk papaning "Laudato Si" entsiklikasi katolik cherkovining ekologik muammolarga e'tiborini ko'rsatadi. Ma'naviy uyg'onish moddiy iste'moldan ma'naviy boylikka e'tiborni qaratadi va bu ekologik muammolarni hal qilishga yordam beradi. O'zbek xalqining tabiatga bo'lgan an'anaviy munosabati ham ma'naviy-axloqiy asosga ega.

Xulosa qilib aytganda, global ekologik muammolar zamonaviy sivilizatsiyaning eng jiddiy sinovlaridan biri hisoblanadi. Bu muammolarning yechimi nafaqat texnik-iqtisodiy, balki falsafiy va ijtimoiy transformatsiyani talab qiladi. Inson va tabiat munosabatlarini qayta ko'rib chiqish, yangi ekologik axloq shakllantirish, barqaror hayot tarziga o'tish zarur. O'zbekiston ham global ekologik muammolarni hal qilishda o'z hissasini qo'shmoqda va milliy ekologik siyosatni xalqaro sa'y-harakatlar bilan uyg'unlashtirmoqda. Ekologik muammolarning ijtimoiy-falsafiy tahlili ularning mohiyatini chuqurroq tushunishga va samarali yechimlar topishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Normatov A.I. Ekologik falsafa: inson va tabiat munosabatlari. – Toshkent: Falsafa va huquq, 2020. – 368 b.
2. Qodirov M.Q. Global ekologik muammolar va O'zbekiston. – Toshkent: Fan, 2021. – 425 b.
3. Xoliqov B.M. Barqaror rivojlanish falsafasi. – Samarqand: Zarafshon, 2019. – 312 b.
4. Ergasheva N.S. Ekologik madaniyat va jamiyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2022. – 286 b.
5. Tursunov Q.T. Ijtimoiy ekologiya asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.

O‘SMIR SHAXSIDA KASB TANLASH MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISH PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Xasanov Bobur Raximberganovich, Urganch davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi*

FORMATION OF PROFESSIONAL CHOICE MOTIVATION IN ADOLESCENTS AS A PSYCHOLOGICAL PROBLEM

*Xasanov Bobur Raximberganovich, independent researcher at
Urgench State University*

ФОРМИРОВАНИЕ МОТИВАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ВЫБОРА У ПОДРОСТКОВ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

*Xasanov Bobur Raximberganovich, независимый
исследователь Ургенчского государственного
университета*



<https://orcid.org/0000-0002-7706-0023>

e-mail:

bxasanov824@gmail.com



Annotatsiya: Maqolada kasbiy motivlarning shakllanishi psixologik tadqiqot predmeti sifatida ko‘rib chiqilib, turli yondashuvlar, nazariy qarashlar va metodologik asoslar tahlil qilinadi. Maqolada kasbiy motivlarning shakllanishi shaxsning qiziqishlari, ustanovkalari, kasbiy tasavvurlari va psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq ravishda tahlil qilinib, milliy-madaniy muhitda kasbiy muammolarni o‘rganish zaruriyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy motivatsiya, kasbiy rivojlanish, psixologik tadqiqot, motivatsiya nazariyalari, psixoanaliz, bixeviorizm, qaror qabul qilish, taraqqiyot nazariyasi, tipologik yondashuv, kasb tanlash, shaxsiy kamolot, kasbning yashovchanligi, mental xarita, milliy-madaniy muhit.

Abstract: The article examines the formation of professional motives as a subject of psychological research, analyzes various approaches, theoretical views and methodological foundations. The formation of professional motives is analyzed in relation to interests, attitudes, professional ideas and psychological characteristics of the individual, the need to study professional issues in the national-cultural environment is substantiated.

Keywords: professional motivation, professional development, psychological research, motivation theories, psychoanalysis, behaviorism, decision making, development theory, typological approach, career choice, personal development, career viability, mental map, national-cultural environment.

Аннотация: В статье рассматривается формирование профессиональных мотивов как предмет психологического исследования, анализируются различные подходы, теоретические воззрения и методологические основы. Анализируется формирование профессиональных мотивов во взаимосвязи с интересами, установками, профессиональными представлениями и психологическими особенностями личности, обосновывается необходимость изучения профессиональной проблематики в национально-культурной среде

Ключевые слова: профессиональная мотивация, профессиональное развитие, психологические исследования, теории мотивации, психоанализ, бихевиоризм, принятие решений, теория развития, типологический подход, выбор карьеры, личностное развитие, жизнеспособность карьеры, ментальная карта, национально-культурная среда.

KIRISH. Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichida inson omilining, xususan, yosh avlodning kasbiy o'zini anglash jarayoni tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'smirlik davri shaxs shakllanishining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, aynan shu davrda kasbga bo'lgan qiziqishlar, hayotiy maqsadlar va kelajak rejalari belgilana boshlaydi. Shuning uchun o'smir shaxsida kasb tanlash motivatsiyasini shakllantirish – nafaqat pedagogik, balki chuqur psixologik yondashuvni talab qiluvchi dolzarb masalalardan biridir.

Kasbiy motivlar shakllanishining psixologik tadqiqot predmeti sifatida tadqiq etishda turli xil yondashuvlar, ilmiy xulosalar va maxsus metodologiya mavjud bo'lib, ular kasb tanlash, kasbiy ta'lim, kasbiy motivlar, kasbiy faoliyat, proforiyentatsiya, kasbiy motivlar shakllanishi haqida qarashlarni o'zida mujassamlashtirgan. Bu doiradagi ilmiy tadqiqotlarning ko'pchiligida kasbiy rivojlanish uzoq muddatli va bir nasha bosqichli jarayon ekanligi qayd qilinadi. Shuningdek, bu tadqiqotlarda har bir bosqich mehnat faoliyatini samarali boshqarishga xizmat qiluvchi psixik yangilanishga ega, degan mulohaza mujassamlashtirgan.

TAHLIL. Xorij psixologiyasida kasbiy motivlarni o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy izlanishlar mavjuddir. Avstriyalik olim Z.Freydning fikricha, motivlar manbai tur va individning saqlash instinkti hisoblanadi. Insonning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiylashuvi nuqtayi nazaridan yondashishni talab etsa, u holda ongsizlik va onglilik munosabati o'zaro bir-birini taqozo qiladi. Psixoanalitik konsepsiya motivatsiyaning negizida insonga xos bo'lgan mayllar yotishini tan oladi. Buning manbai sifatida maylni tortuvchi tana a'zosining qaysi bir qismidagi somatik jarayon tushuniladi. Freyd nazariyasida mayl bilan instinkt alohidaligi ko'rsatib o'tilmagan, bu esa o'ziga xos yondashuvdir.

Bixeviorizm nazariyasiga binoan motivlar tashqi ta'sirga tana a'zolarining javob reaksiyasi sifatida vujudga keladi. Ular instinktiv xulq motivini insonning fe'l-atvoriga mexanik ravishda ko'chirishni anglatib keladi. Ularning talqiniga qaraganda, inson xulqi ongsizlikdan iborat bo'lib, tashqi qo'zg'atuvchi "stimul" tufayli tana

a'zolarining javob reaksiyasi tariqasida yuzaga keladi[1.264].

Bixeviorizmning asoschisi Dj.Uotson psixologiyaning asosiy vazifasi xulq motivlarini tadqiq qilishdan iborat deb tushuntirishga harakat qiladi. U psixik holatlarni tekshirishdan voz keshib, xulqni ichki va tashqi shakllarga ajratdi va ular stimul bilan javob sifatida bevosita o'zaro bog'langandir. Dj.Uotson uchun "xulq motivatsiyasi" asosiy tushunchaga aylanadi, buning oqibatida uning psixika bilan aloqasi odatiy narsa deb baholanadi.

V.Mag-Daugall motivlarni tug'ma xususiyatini asoslashga, tug'ma instinkt bilan uni qiyoslashga intiladi. Buning uchun muallif oldin 14ta, keyinshalik esa 18ta inson instinktlari hukm surishini ajratib ko'rsatadi va ularni sharhlab beradi. Uning qarashlari o'zgarishga yuz tutgan bo'lishiga qaramay, bu sohaga oid talqinlar qolaveradi.

X.Xekxaussening motivlarning kengaytirilgan modelini yaratdi, bunda muhokama qilingan motivatsiya mezonlarining aksariyati hisobga olingandir. Xekxaussen modelida harakatni izohlash maqsadida to'rtta o'zaro farq qiluvchi tushuncha kiritiladi: natija (mahsuli), oqibat. Ushbu tushunchalar kutilma tiplari bilan muvofiqlashuvi orqali o'zaro aloqaga kirishadilar. Xuddi shu bois vaziyat kutilmasi – natija shaxs e'tiqodi darajasini keltirib chiqaradi, vaholanki ba'zi vaziyatda muayyan natija qatnashmasa-da kutilishi mumkin. Muallif kutilmaning bu tipini muvaffaqiyat ehtimolidan farqlaydi, lekin motivlar modellarida ularning birligini hisobga oladi. X.Xekxaussen oxirgi holatni, ya'ni "harakat-natija" ko'rinishini kutilma sifatida belgilaydi. Muallif tomonidan "harakat-vaziyat-natija" kutilmasi qo'shimcha tariqasida kiritiladi va kutilma darajasini ifodalovchi tarzida tavsiflanadi, qaysini tashqi va variativ hodisalar (holatlar) harakat-natija kutilmasini kichraytirishi yoki kattalashtirishi mumkin (masalan, charchoqlik, begonalar yordami). Natija bilan oqibat natija-oqibat kutilmasi orqali bog'lanadi va xohishiy yoki tasodifiy harakat oqibatini amalga oshirish uchun harakat natijasining kechinmasi vositasi darajasi sifatida ishtirok etadi[2].

Motivlar modelida kutilma va qo'zg'ovchining mezonlari o'zaro aloqaga kirishadi. Harakatning har qaysi oqibati muayyan qo'zg'atuvchi bilan aloqaga kirishishi mumkin. G.J.Rozenberg harakat oqibatini

to'rt sinfga ajratadi: o'zini o'zi baholash, yuksak maqsadga yaqinlashish, boshqalarni baholash va bilvosita ta'sirlar [3.53].

Psixologlar orasida "biologik ehtiyojlar asosida inson motivlari yotadi", degan qarashlar majmuasi keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda. Chunonchi, amerikalik olim V.A.Yadovning fikricha, to'qimada vujudga kelgan ehtiyojlar qo'zg'atuvchining asosiy manbasi hisoblanadi. Mazkur g'oya yuzasidan mulohaza yuritgan Danlen esa "qo'zg'alish biologik to'qimalardan chetga chiqmaydi", degan fikrga qat'iy ishonadi[4.264].

Dj. Atkinson motivatsiyaga erishish nazariyasiga asosan, bir davrning o'zida validlik natijasini oshiruvchi nazariyani ham soddalashtirdi, ham kengaytirdi. Muvaffaqiyatga (ham muvaffaqiyatsizlikka) undovchi bilan topshiriqlar murakkabligi o'rtasidagi aloqa soddaroq ko'rinishga ega bo'ldi. Ushbu modelda qo'zg'ovchi muvaffaqiyatning subyektiv ehtimoligiga bog'liqdir (ma'lumki, Festinger modelida valentlik topshiriqning subyektiv murakkabligiga tobedir). Atkinson modelida muvaffaqiyat kutilmasi bilan qo'zg'ovchining chiziqli o'zaro aloqasi ehtimoli mujassamlashgandir. Muvaffaqiyat ehtimoli bilan qo'zg'ovchining soddalashgan modeli tasavvuri negizida o'zaro aloqadorlik tushunchasi yotadi. Muvaffaqiyat kutilmasini o'lchash go'yoki yetarli, qo'zg'ovchi esa qo'shimcha kattalik sifatida tasavvur qilinadi[5.64].

Xorijiy manbalarda ham insonning kasbdagi faoliyati va xulq-atvori mezoni o'ziga xos holda belgilanib, "kasb to'qimasi" yoki "mental xarita" deb atalgan. "Mental xarita" – kasbiy faoliyat maydonining mutaxassis joylashishi mumkin bo'lgan ichki olami hisoblanadi. Kasbiy faoliyat maydoni tarkibidan kasbiy sohadagi anchagina barqaror ta'lim, kasbning tavsiyanomasi, uning qo'llanish sohasi, aniq ishchi o'rniga nisbatan yashovchanligi o'rin olgan.

A.G.Asmolovning qarashlariga tayanib aytish mumkinki, shaxs mutaxassis sifatida shakllanishi davridayoq yashovchanlik ko'rsatkichlaridan boxabar bo'lishlari muhimdir[6.204].

XX asrning boshlarida Amerika va Yevropa mamlakatlarida mehnat mahsuldorligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash jarayonida yuzaga kelgan bo'lib, buning natijasida psixologiyaning insonparvarlik g'oyalarini singdirish yuz berdi va natijada shaxs to'g'risida

zamonaviy nazariyalari vujudga keldi. Bunday bog'liqlik shaxs nazariyasi bilan kasbiy rivojlanish psixologiyasi o'rtasida aloqa o'rnatishga olib keldi. Oqibatda kasbiy rivojlanish muammolarini o'rganishga turlicha yondashadigan beshta asosiy yo'nalishi shakllandi. Bular: 1) differensial diagnostik; 2) psixoanalitik; 3) qaror qabul qilish nazariyasi; 4) taraqqiyot nazariyasi va 5) tipologik yo'nalishlardir.

Differensial – diagnostik yo'nalish bo'yicha izlanishlarda shaxsning kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlash omillariga, kasbga ta'sir ko'rsatuvchi individual-psixologik xususiyatlarga va kasbga qo'yilgan talablarga asosiy e'tibor qaratiladi. Shuningdek, unda kasb tanlashning asosini ratsional va ongli faoliyatni tashkil etish to'g'risidagi qarashlar o'z aksini topgan (F.Parkinson). Bu yo'nalishda kasbiy rivojlanishga psixotexnik yondashuvni tatbiq etilganligi diqqatga sazovordir. Zero, I.S.Konning fikricha, individual sifatlar oddiy ijrochilik operatsiyalarining yig'indisi hisoblanadi[7.336].

Taraqqiyot nazariyasi yo'nalishi vakillari rivojlanish nazariyasiga asoslanib ish tutishgan. Bu yo'nalishning izlanishlari akademik-psixologik xarakterga ega bo'lib, ilk izlanishlar o'spirinlarni kasb izlashi bilan bog'liq xususiyatlarini asoslashga qaratilgan edi. Ushbu yo'nalish vakillaridan D.Syuper, Sh.Byuler va E.Ginsbergning ilk ishlariga tayanib, kasbiy rivojlanish bir nechta bosqichlarga ajratiladi:

1) vujudga kelish bosqichi (tug'ilgandan to 18 yoshgacha), kasbiy fantaziyalarga tayanib kasb tanlanadi;

2) tadqiq etish bosqichi (15-24 yosh), shaxs o'zining imkoniyatlariga mos kasbni tanlashni niyat qiladi;

3) konsolidatsiya bosqichi (25-44 yosh), barqaror shaxsiy pozitsiyaga mos kasbiy faoliyat maydoni o'rnatiladi;

4) saqlash bosqichi (45-64 yosh). Bu davrda shaxsning kasbiy faoliyati hech qayoqqa og'masdan aniqlangan kasbiy faoliyat maydoni bo'yicha kechadi;

5) pasayish bosqichi (65 yosh). Bu bosqichda yangi kasbiy faoliyat roli paydo bo'lib, boshqalarning kasbiy faoliyatini kuzatish yetakchi o'ringa chiqadi.

Tipologik yoʻnalish vakillari kasbiy faoliyatni tipologiyalashtirishga eʼtibor qaratadilar (I.A.Vasilyev).

I.A.Vasilyev oʻz tipologiyasida shaxsning kompleks moʻljal olishga yoʻnaltirilgan bir qator tiplarini ajratishga erishdi:

1. Realistik oriyentatsiya;
2. Intellektual oriyentatsiya;
3. Ijtimoiy oriyentatsiya;
4. Konvensional oriyentatsiya;
5. Tadbirkorlik oriyentatsiyasi[8.144].

Shaxsning kasbiy jihatdan oʻsishini taʼminlashda, kasbiy motivatsiyani toʻgʻri shakllantirish, shaxs ustanovkalarini oʻzgartirish chora-tadbirlari uchun optimal yoʻl-yoʻriqlarni izlash lozim boʻladi.

NATIJA. Taʼlim jarayonida shaxs kasbiy bilim, koʻnikma va malakalarni egallashi bilan bir qatorda kasbiy ahamiyatdagi shaxslilik sifatlarini kamol toptiradi, hayotiy rejalarini tuzadi va shu asosda oʻz faoliyatini boshlaydi. Shu oʻrinda B.I.Dodonovning “Men” konsepsiya va kasb noturgʻunligi nazariyasiga eʼtibor qaratish joiz deb hisoblaymiz. Bu nazariya boʻyicha insonning oʻzi haqidagi tasavvurlarini hosil qilishi kasbiy kamolot uchun eng muhim determinant hisoblanadi. D.Syuperning fikriga koʻra, inson oʻzi haqidagi tasavvurlarga munosib boʻlgan kasbni tanlaydi va shunga munosib holda oʻzligini shakllantirishga urinadi [9.74].

XULOSA. Demak, kasbiy va shaxsiy kamolot orasida uygʻunlikni taʼminlash uchun taʼlim

jarayonidan qoniqish hosil qilishi kerak. Shaxsning umumiy psixologik konsepsiyalarida ham bunga alohida urgʻu berilgan.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Фрейд А. Психология “Я” и защитные механизмы / Пер. с англ. –М.: Педагогика-Пресс. 1993. -264 с.
2. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. Пер. с нем. - М., 1986.
3. Rosenberg G.J. Cognitive structure and affective experience. Journal of Abnormal and Social Psychology, 1956. p. 53.
4. Ядов В.А. Саморегуляция и прогнозирование социального поведения личности.- Л.: Наука, 1979. –264 с.
5. Аткинсон Дж.В. Теория о развитии мотивации. - Новгород, 2003.- 64 с.
6. Асмолов А.Г. Личность как предмет психологического исследования. - М., 1984-204 с.
7. Кон И.С. В поисках себя. -М., 1984. -336 с.
8. Васильев И.А., Магомед-Эминов М.Ш. Мотивация и контроль за действием. - М., 1991. - 144 с.
9. Додонов Б.И. Структура и динамика мотивов деятельности. // Вопросы психологии. 1984, №4-74 с.



ВИКТИМОЛОГИЧЕСКАЯ
ПРОФИЛАКТИКА КАК ОДНО ИЗ
НАПРАВЛЕНИЙ ВОЗДЕЙСТВИЯ НА
ПРЕСТУПНОСТЬ

Даулетова Динара Даулетовна, докторант Каракалпакского
государственного университета

VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKA
JINOYATCHILIKKA TA'SIR KO'RSATISHNING
YO'NALISHLARIDAN BIRI SIFATIDA

Dauletova Dinara Dauletovna, Qoraqalpoq davlat universiteti
doktoranti

VICTIMOLOGICAL PREVENTION AS ONE
OF THE APPROACHES TO COMBAT CRIME

Dauletova Dinara Dauletovna, doctoral student of Karakalpak
State University



<https://orcid.org/0009-0005-6330-8808>

e-mail:
virtuoz_0777@mail.ru



Аннотация: В настоящее время принято считать, что виктимологическая профилактика образует самостоятельное направление в единой системе предупреждения. Поэтому оно должно базироваться на единых принципах предупреждения преступности, дополняя и расширяя традиционные формы и методы профилактики в тесном сочетании и во взаимосвязи с последними. В данной статье рассматривается понятие виктимологической профилактики, перечисляются их виды, рассматривается эффективность виктимологической профилактики в деятельности правоохранительных органов.

Ключевые слова: виктимность, виктимологическая профилактика, общесоциальная профилактика, специально-виктимологическая профилактика.

Annotatsiya: Hozirgi kunda shunday qabul qilinadiki, viktimologik profilaktika yagona oldini olish tizimida mustaqil yo'nalishni tashkil etadi. Shu sababli, u jinoyatning oldini olishning yagona tamoyillari asosida qurilishi, an'anaviy profilaktika shakllari va usullarini yaqin bog'lanishda to'ldirib, kengaytirib borishi lozim. Ushbu maqolada viktimologik profilaktika tushunchasi ko'rib chiqiladi, uning turlari sanab o'tiladi va huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatida viktimologik profilaktikaning samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: viktimlik, viktimologik profilaktika, umumijtimoiy profilaktika, maxsus viktimologik profilaktika.

Annotation: Victimological prevention is a special form of social regulation of social processes, which consists in the development and implementation of non-traditional crime prevention measures aimed at preventing reckless, frivolous, risky, provocative, licentious behavior of a person, which may turn out to be dangerous for himself. Victimological forms of prevention can be focused both on preventing "relapse" on the part of those who have been victims, and on identifying potential victims whose behavior and lifestyle create criminogenic and victim genic situations.

Keywords: victimization, victimological prevention, general social prevention, special victimological prevention.

ВВЕДЕНИЕ. Виктимологическая профилактика – это особая форма социального регулирования общественными процессами, заключающаяся в разработке и реализации нетрадиционных мер по предупреждению преступности, направленных на

предотвращение неосмотрительного, легкомысленного, рискованного, провокационного, распущенного поведения человека, которое может оказаться опасным для него самого. Виктимологические формы профилактики могут быть ориентированы как на предотвращение «рецидива» со стороны лиц, побывавших потерпевшими, так и на выявление потенциальных жертв, поведение и образ жизни которых создают криминогенные и виктимогенные ситуации. Виктимологическая профилактика в широком смысле включает мероприятия, направленные, во-первых, на устранение, уменьшение и нейтрализацию обстоятельств, способствующих виктимизации, во-вторых, на снижение личностной и ролевой виктимности, в-третьих, на повышение сопротивляемости и противодействия преступным посягательствам, в четвертых, на девиктимизацию лиц, пострадавших от преступления. Виктимологическая профилактика в узком смысле представляет собой включенную в социальную систему предупреждения преступлений подсистему общесоциальных и специально-криминологических мер, направленных на снижение индивидуальной и массовой (групповой) виктимности путем устранения или снижения их определенной (виктимной) предрасположенности, а также путем активизации защитных возможностей¹. По мнению В.П.Коновалова и Л.В.Франка, специфической чертой виктимологической профилактики является направленность на снижение потенциальной виктимности граждан путем проведения специальных мероприятий общепрофилактического характера, дифференцированных по категориям и группам населения, на снижение потенциальной виктимности конкретных граждан. Виктимологическая профилактика, согласно Д.В.Ривману и В.С.Устинову, представляет собой целенаправленное воздействие на факторы, провоцирующие или усиливающие виктимность – предрасположенность стать жертвой преступления².

Эта предрасположенность может быть связана с различными аспектами поведения человека: от позитивного, но неосторожного, до прямо противоправного или аморального. Ключевое отличие виктимологической профилактики от традиционных мер профилактики преступности заключается в фокусе внимания: она направлена не только на потенциального преступника, но и на потенциальную жертву, анализируя ее поведение и окружающую среду. Это комплексный подход, учитывающий как общественные, так и индивидуальные факторы риска. Аналогично криминологии, виктимологическая профилактика подразделяется на общесоциальную и специально-виктимологическую.

Общесоциальная профилактика охватывает широкие меры, не имеющие прямой цели борьбы с преступностью, но косвенно снижающие риск виктимизации. Сюда входят экономические реформы, направленные на снижение уровня бедности и неравенства (а ведь именно эти факторы часто являются питательной средой для преступности и, следовательно, виктимизации), политические меры, укрепляющие правопорядок и доверие к правоохранительным органам (эффективная работа полиции и судов – мощный инструмент профилактики), идеологические кампании, пропагандирующие законопослушность и ответственное поведение (формирование правовой культуры в обществе), организационные мероприятия, улучшающие инфраструктуру и общественную безопасность (например, эффективное уличное освещение, видеонаблюдение, организация добровольной народной дружины), и, конечно же, совершенствование правовой базы, усиливающее ответственность за правонарушения и защиту прав граждан (четкие и понятные законы, оперативное реагирование на заявления граждан, доступная юридическая помощь). Все эти меры, хоть и не напрямую направлены на предотвращение конкретных

¹ Коновалов В.П. Изучение потерпевших с целью совершенствования профилактики правонарушений. – М., 1982. – С.38.

² Об организации виктимологического направления профилактики в Таджикской ССР /научно – методическая информация/ – Душанбе, 1976. – С.15.

преступлений, создают благоприятную среду, снижающую вероятность виктимизации.

Специально-виктимологическая профилактика, в свою очередь, включает меры, непосредственно ориентированные на снижение риска стать жертвой. Это могут быть программы обучения безопасной жизни (самооборона, обучение действиям в экстремальных ситуациях, профилактика мошенничества), пропаганда осторожности и самоконтроля (включая информационные кампании о типичных схемах преступлений и способах защиты от них), создание специальных служб поддержки жертв преступлений (психологическая помощь, юридическая консультация), а также разработка и внедрение технологических решений, повышающих безопасность (системы видеонаблюдения, охранные сигнализации, улучшение освещения в местах повышенного риска). Данный вид профилактики требует анализа типичных ситуаций, приводящих к виктимизации, и разработки индивидуальных рекомендаций по снижению риска для отдельных категорий граждан. Наконец, **индивидуальная виктимологическая** профилактика фокусируется на конкретном человеке – потенциальной жертве или уже пострадавшем. Здесь акцент делается на коррекции поведения, повышении самооценки и уверенности в себе, развитии навыков самозащиты, а также на оказании психологической поддержки и помощи в адаптации к пережитому стрессу. Это может включать в себя индивидуальные консультации с психологами, социальными работниками или другими специалистами.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ.

Однако реализация виктимологической профилактики на всех уровнях сталкивается с серьезными проблемами. К ним относятся недостаток финансирования, отсутствие достаточного количества специалистов, необходимых для проведения эффективных программ, недостаточная информированность населения о видах виктимизации и способах их предотвращения, а также сложности в координации работы различных учреждений и

организаций, занимающихся профилактической деятельностью.

Эффективная виктимологическая профилактика требует комплексного подхода, координированной работы государства, общественных организаций и самих граждан, а также постоянного мониторинга и оценки эффективности проводимых мероприятий. Без этого, даже самые масштабные программы могут оказаться малоэффективными. Виктимологическая профилактика – это не просто дополнение к традиционной профилактике, а неотъемлемая ее часть, позволяющая создавать действительно безопасное общество. Более того, успешная виктимологическая профилактика может значительно снизить нагрузку на правоохранительные органы и судебную систему, поскольку уменьшает количество преступлений и потерпевших. Виктимологическая профилактика преступлений – это комплексная стратегия, направленная на снижение числа жертв преступлений путем выявления лиц с повышенным риском виктимизации и обеспечения их защиты. Д.В.Ривман и В.С.Устинов справедливо подчеркивают многогранность этой задачи, акцентируя внимание на необходимости решения целого ряда организационных вопросов. Речь идет не только о подготовке высококвалифицированных специалистов-виктимологов, способных анализировать сложные ситуации и разрабатывать индивидуальные программы защиты, но и о создании эффективной системы взаимодействия с населением. Эта система должна быть построена на принципах активного вовлечения граждан в процесс профилактики, повышения их осведомленности о способах самозащиты и развития чувства ответственности за собственную безопасность и безопасность окружающих³. Важно отметить, что эффективная работа с населением требует не только проведения массовых информационных кампаний, но и индивидуального подхода к представителям различных социальных групп, учитывая специфику их виктимности.

³ Криминальная виктимология: Учебник для вузов. / Ривман Д.В. - СПб, 2002. - С.262.

Например, пожилые люди, часто являющиеся объектами мошенничества, нуждаются в специальных обучающих программах, направленных на распознавание мошеннических схем. Молодежь, подверженная риску стать жертвой насилия или преступлений, связанных с употреблением наркотиков, требует совершенно иного подхода, включающего просветительские мероприятия, работу с родителями и сотрудничество с образовательными учреждениями.

ОБСУЖДЕНИЕ. Людям с ограниченными возможностями здоровья необходимо обеспечить доступ к специальным средствам защиты и адаптированным программам профилактики. Изыскание новых форм взаимодействия с населением предполагает использование современных технологий. Это может включать в себя создание специализированных веб-порталов и мобильных приложений, распространение информационных материалов в социальных сетях, использование геоинформационных систем для выявления зон повышенного риска. Нельзя забывать и о необходимости обеспечения отдельных категорий лиц с повышенной виктимностью средствами защиты, включая системы видеонаблюдения, охранные сигнализации, специальные устройства для самообороны, прошедшие соответствующую сертификацию и отвечающие требованиям безопасности. Кроме организационных аспектов, Д.В.Ривман и В.С.Устинов правильно выделяют информационную проблему. Для эффективной виктимологической профилактики правоохранительные органы должны обладать полным и достоверным знанием о типичных характеристиках различных видов виктимности. Это подразумевает тщательный анализ статистических данных, изучение результатов криминологических исследований, а также постоянный мониторинг преступности. Полученные данные должны быть систематизированы и представлены в доступной форме для сотрудников правоохранительных органов, чтобы позволить им оперативно выявлять потенциальных жертв и принимать

превентивные меры⁴. Реализация мероприятий виктимологического плана сопряжена с рядом тактико-методических сложностей, требующих постоянного совершенствования существующих и разработки новых методов работы. В настоящее время правоохранительные органы используют различные схемы выявления потенциальных потерпевших, однако эффективность этих схем значительно варьируется в зависимости от конкретных условий и применяемых технологий. Необходимо разрабатывать индивидуальные программы виктимологической профилактики, учитывающие специфику конкретных ситуаций и особенностей потенциальных жертв. Например, для профилактики домашнего насилия необходимо разработать специальные программы, направленные на работу с жертвами и преступниками, с учетом психологических аспектов данного явления. Для профилактики киберпреступлений необходимо повышать цифровую грамотность населения и разрабатывать специальные программы защиты от онлайн-мошенничества. В юридической литературе предлагается множество общих направлений виктимологической профилактики, однако совокупность конкретных мероприятий определяется в каждом случае индивидуально с учетом множества объективных и субъективных факторов. Например, уровень преступности в конкретном районе, социально-экономическое положение населения, наличие эффективной системы социальной защиты – все это влияет на выбор конкретных мер профилактики. Поэтому необходимо разрабатывать гибкие и адаптивные программы, которые могут быть модифицированы в зависимости от меняющихся условий. Ключевым фактором успеха является междисциплинарный подход, объединяющий усилия правоохранительных органов, социальных служб, образовательных учреждений и общественных организаций. Только совместными усилиями можно создать действительно эффективную систему

⁴ Криминальная виктимология: Учебник для вузов. / Ривман Д.В. – СПб, 2002. – С.268.

виктимологической профилактики преступлений.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. В заключении следует отметить, что виктимологическая профилактика представляет собой важное направление в системе противодействия преступности. Данный подход акцентирует внимание не только на мерах, направленных на предупреждение правонарушений, но и на защите потенциальных жертв, снижении их уязвимости и минимизации негативных социальных последствий. Особое значение имеет межведомственное взаимодействие и сотрудничество правоохранительных органов, социальных служб и общественных организаций, что обеспечивает комплексный характер профилактических мероприятий.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Варчук Т.В. Виктимология [Электронный ресурс] : учебное пособие для студентов вузов, обучающихся по специальности Юриспруденция / Т.В.Варчук, К.В.Вишневецкий. — Электрон. текстовые данные. — М. : Юнитида, 2017. — 191 с. — 978-5-238-01502-6. — Режим доступа: <http://www.iprbookshop.ru/71183.html>
2. Чурляева И.В. Криминальная виктимология [Электронный ресурс, учебное пособие / И.В.Чурляева. — Электрон. текстовые данные. — Ростовна-Дону: Южный федеральный университет, 2009. — 80 с. — 978-5-9275-0631-6. — Режим доступа: <http://www.iprbookshop.ru/46986.html>
3. Коновалов В.П. Изучение потерпевших с целью совершенствования профилактики правонарушений. — М., 1982. — С.38.
4. Об организации виктимологического направления профилактики в Таджикской ССР /научно – методическая информация/ – Душанбе, 1976. – С.15.
5. Криминальная виктимология: Учебник для вузов. / Ривман Д.В. - СПб, 2002. - С.262.
6. Попова Е.Э. Криминологическое и уголовно-правовое учение о потерпевшем от преступления [Электронный ресурс]: учебное пособие / Е.Э.Попова. — Электрон. текстовые данные. — М.: Российский государственный университет правосудия, 2017. — 68 с. — 978-5-93916-613-3. — Режим доступа: <http://www.iprbookshop.ru/74161.html>
7. Гарманов В.М. Значение предупреждения вторичной виктимизации потерпевших в деятельности сотрудников полиции // Виктимология: научно-практический журнал. – 2015. - № 3 (5). – С. 18 - 23.
8. Калашников О.Д. Виктимологическая профилактика – перспективное направление в борьбе с преступностью на современном этапе // Виктимология: научно-практический журнал. – 2017. - № 1 (11). – С. 49 - 53.



АМУДАРЁНИНГ ТАБИЙ-ГЕОГРАФИК ТАСНИФИ

*Эшмирзаев Зиёдулла Олимжон ўгли, Ахборот
технологиялари ва менежмент университети мустақил
тадқиқотчиси*

NATURAL-GEOGRAPHICAL CLASSIFICATION OF THE AMU DARYA

*Eshmirzayev Ziyodulla Olimjon oglu, independent
researcher at the University of Information Technologies and
Management*

ЕСТЕСТВЕННО-ГЕОГРАФИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ АМУДАРЬИ

*Эшмирзаев Зиёдулла Олимжон оглы, независимый
исследователь Университета информационных
технологий и управления*

<https://orcid.org/0009-0002-9755-0326>

e-mail:
ziyodullaeshmirzayev@
gmail.com



Аннотация: Ушбу мақолада Амударёнинг табиий географияси, унинг ўлка ижтимоий-иқтисодий ҳаётида тутган ўрни, совет иттифоқи даврида Амударё ҳавзасида олиб борилган ишлар ва уларнинг оқибатлари ҳақида фикр юритилди.

Калим сўзлар: Амударё, Амур ҳавзаси, Панж, Вахи, Ҳиндиқуш, Помир.

Annotation: This article presents a list of famous geographers whose works are devoted to the history and geography of the Amu Darya, its population, geographical location and geographical position in the Amu Darya basin.

Keywords: Amu Darya, Amur Basin, Panj, Vakhsh, Hindigush, Pamir.

Аннотация: В этой статье представлен список известных географов, чьи труды посвящены истории и географии Амударьи, ее населению, географическому положению в бассейне Амударьи.

Ключевые слова: Амударья, Бассейн Амура, Пяндж, Вахи, Хиндигуш, Памир.

КИРИШ. Амударё — Ўрта Осиёдаги энг катта шу билан бирга энг муҳим дарёлардан биридир. У Тожикистон, Ўзбекистон, Афғонистон, Туркменистон давлатлари чегараларидан ўтади. Узунлиги тахминан 2,540¹⁴⁵ км бўлиб, бу дарёнинг табиий-географик таснифи ҳақида қуйидагиларни айтиб ўтиш мумкин: Амударё асосан икки қисмга бўлинади: Юқори Амударё (ҳосил қилиш манбаи): бу қисми Тожикистонда,

Помир тоғлари ва Таласёқим тоғларининг ўртасида пайдо бўлади. Бу ерда Амударёнинг манбаи бўлган кичик дарёлар йиғилади. Қуйи Амударё (сув устидаги босқич): бу қисм Қозоғистон ва Каспий денгизига чўзилади. Қуйи қисмида дарё турли каналлар ва шаҳарлардан оқиб ўтиб қанчадан-қанча ерларни обод қилади.

АСОСИЙ ҚИСМ. Амударё Ҳиндиқушнинг шимолий ёнбағирларида

¹⁴⁵ Ўзбекистон миллий энциклопедияси.- Тошкент: 2005. –Б. 446.

деярли 4000 метр баландликда жойлашган музликлардан бошланиб, унга Помир, ёки Помирдарё келиб қўшилган жойигача Вохондарё деб аталади. Помирдарё Амударёнинг иккинчи ирмоғи ҳисобланиб, у Зўркўл деган тоғ этақларидан оқиб чиқади. Помирдарё келиб қўшилган жойдан то Вахш ирмоғи қўшилган жойгача Амударё Панж номи билан машҳурдир. Панж бешта асосий ирмоқнинг Вохондарё, Помирдарё, Гунт, Бартонгдарё ва Ванч дарёларининг қўшилишидан ҳосил бўлади ¹⁴⁶. Булардан ташқари, Вохондарё қуйилган жойдан 718 километр масофада Панжга Язғулом дарёси келиб қўшилади. Панжнинг барча ирмоқлари Вохон, Шуғнон, Аличур Дарвоз ва бошқа баланд тоғ тизмаларидаги музликлар ва қўллардан оқиб чиқади. Амударё баланд қояли тоғлар орасидан оқиб ўтади ва ҳар километр масофада беш метр пастга тушади, шу сабабли у жуда тез ва хайқириб оқади ҳамда ўзи билан жуда кўп миқдорда минерал жинсларни лойқа ҳолда оқизиб олиб келади. Сўнгра Панж бўйи 5 км ва эни 15 км лик текисликка чиқади. Бу ерда у жуда кенг ёйилиб оқади ва Ўртаўқай номли орол ҳосил қилади. Текисликдан ўтгандан кейин дарё тораяди ва унга чап томондан Кўкча дарёси келиб қўшилади. Кўкча дарёси Афғонистондаги Ҳиндикушнинг марказий қисмидаги музликлардан бошланади. Панж дарёси 70 километрлик масофани босиб ўтиб, яна бояги сингари текисликка чиқади. Бу ерда Панжга ўнг томондан тоғдан оқиб чиқадиган катта ирмоқ Вахш келиб қўшилади ва шундан кейин у Амударё номини олиб, текислик бўйлаб оқади ва унга ўнг томондан Кофирнихон ва Сурхон, чап томондан эса Кундуздарё ирмоқлари келиб қўшилади. Амударёга Сурхон келиб қўшилган жойдан бошлаб, у ҳеч қандай ирмоқсиз жазирама саҳролар ичидан оқа бошлайди ва шу ердан унинг ҳаётбахш фаолияти бошланади. Амударёнинг текислик қисмида у ўз водисини

ҳосил қилади. Бу води дастлаб тахминан 6 км кенгликка эга бўлиб, аста-секин кенгая боради ва Чоржўй яқинида даярли 25 км гача етади. Шу ердан бошлаб (Вахш қуйилган жойдан то Илжиқ дарёсигача) Амударё қирғоқлари суғориш каналлари билан кесилиб кетган. Бу ерда Амударёдан кенглиги (тагидан ҳисоблаганда) 0,5 дан то 12 саржин ¹⁴⁷ га борадиган 300 дан ортиқ канал қазилган. Каналлар дарёнинг чап томонида Чоржўй воҳаси ҳудудида энг кўп қазилган. Ўнг қирғоқда ҳам жуда кўп каналлар мавжуддир ¹⁴⁸.

Юқорида Амударё баланд музликлардан бошланади деб айтилган эди. Бу эса унинг юқоридан пастга тушишини, оқим тезлигини ва сувининг оқизинди жинсларга бойлигини аниқлаб беради. Амударё суви ўзининг қуйи оқимига қараб миллион-миллион тонна лойқа ва қум олиб боради. Бу лойқалар дельтада ётқизилиб, воҳанинг асосини ташкил этади, ишланадиган ерларнинг химиявий таркибини яхшилади. Сунъий каналлар билан суғориш, тупроққа ўсимликлар учун зарур бўлган сувнигина келтирмай, шу билан бирга ўзи билан бирга тоғлардан химиявий ўғитланган лойқани ҳам келтиради. Ҳаммага маълумки, сувнинг механик ва химик таркиби ва шу билан бирга, унинг ичидаги лойқа деб аталадиган қаттиқ заррачалар суғорма деҳқончилик қилишда тупроқнинг унумдорлигини белгилашдаги ҳал қилувчи омилдир. Аммо Ҳиндистон, АҚШ, шунингдек, Ўрта Осиёнинг кўпдан-кўп суғориш тажрибалари мисолдан шу нарса кўринадики, ҳар доим ҳам сувда лойқанинг кўп миқдорда бўлиши деҳқончиликка фойда келтира бермайди. Бу борада лойқа заррачаларининг катта-кичиклиги ҳал қилувчи аҳамиятга эгадир. Чунки йирик (диаметри 0,05 мм ортиқ) заррачалар суғориш каналларида чўкиб қолиб, каналларни лойқа босади, ҳамда уларни тозалаш учун анча маблағ сарфланишига тўғри келади. Деҳқончилик учун энг фойдали бўлган

¹⁴⁶ Корженевский Н. А. Физико-географический очерк Средней Азии, –Ташкент, 1925. –Б.65.

¹⁴⁷ 2,134 метрга тенг узунлик ўлчови.

¹⁴⁸ Ирригация Узбекистана. Том III. – Ташкент: Фан. 1979. – С.19 (648).

муаллақ окизиндилар заррачалари ўртача катталиқдаги (диаметри 0,05 дан то 0,005 мм гача) окизиндилар бўлиб, бундай заррачалар лойқанинг ёпишқоқлигини камайтиради, шу вақтнинг ўзида майда (диаметри 0,001 мм кичик) заррачалар эса жуда тез зичланиб, бу ёпишқоқликни ошириб юборади. Ўтказилган тадқиқот натижаларига кўра Амударё сувларидаги минерал запаслар ичида тупроқнинг унумдорлигини белгиловчи оҳак ва калий каби муҳим элементлар катта фоизни ташкил этади¹⁴⁹. Амударё сувларида оҳакнинг кўп миқдорда бўлиши яна шу томондан муҳим аҳамиятга эгаки, тупроқда оҳак мавжуд бўлар экан, у зарарли ёки қора шўрхоқларнинг ҳосил бўлишига йўл қўймайди. Амударёнинг худди мана шу лойқаси, кенг маънода айтганда, ҳозир биз кўриб турган катта Хоразм дельтасининг ҳосил бўлишига асос бўлган. Бу дельта пасттекисликдан иборат бўлиб, уни шарқ ва жануби-ғарб томондан Қорақум ҳамда Қизилқум саҳролари ўраб туради. Ғарбда ва шимоли-ғарбда уни Устюрт қирлари, шимолда эса Орол денгизи ўраб туради. Бу тектоник процесслари натижасида ҳосил бўлган пастлик бўлиб, жуда қадим замонларда ташкил топганини палеонтологик маълумотлар ҳам тасдиқлайди.

Амударё ҳавзасининг дарё оқими ҳосил бўлган тоғли минтақаси иқлимнинг ўзига хос хусусиятлари:

1. Қиш-баҳор ёғингарчиликларининг устунлиги; пастки баландлик зоналари ўткир февраль-март максимал билан тавсифланади. Ёзги ёғингарчилик ҳукмронлик қиладиган тоғли минтақанинг ички қисми бундан мустасно;

2. Жанубий йўналишга эга бўлган Помир-Олой тоғ тизимининг периферик тизмаларининг ёғингарчилик миқдори юқори, чунки улар Жанубий ва жануби-ғарбий томондан Марказий Осиёга келадиган циклонлар йўлида биринчи тоғ кўтарилиши ва

Ҳиндикуш ва Шарқий Помирнинг Шимолий ёнбағрида намлик кам;

3. Юқори ҳаво ҳарорати. Бу борада Амур ҳавзасининг тоғли ҳудуди юқорида муҳокама қилинган ҳавзалардан кейин иккинчи ўринда туради¹⁵⁰.

Шунинг учун Амударё ҳавзасининг тоғли ҳудуди Жанубий мавқеи ва баланд қор чизигига (3800-5250 м) қарамай, мингдан ортиқ музликларни ўз ичига олган абадий қор ва музликларнинг жуда катта тарқалиши билан ажралиб туриши бежиз эмас. Бу ҳолат ҳавзадаги энг йирик дарёларнинг овқатланиш хусусиятини белгилайди, уларнинг аксарияти музлик-қор билан озиқланган дарёлардир. Буларга: Панж, Вахш, Зарафшон, уларнинг аксарият ирмоқлари, шунингдек Амударёнинг ўзи қиради. Ҳавзанинг тоғли минтақасининг ғарбий қисмидан тоғ ёнбағирларидан келиб чиққан, паст баландликлар ва асосан Жанубий таъсир билан ажралиб турадиган Яхсув, Қизилсув, Кофарнихон, Сурхондарё, Қашқадарё ва Қундуздарё дарёларигина қор-музлик билан озиқланадиган ва қисман қор билан озиқланадиган дарёларга тегишли. Ўрта Осиёнинг бошқа дарё ҳавзаларида бўлгани каби, Амур ҳавзасида ҳам деярли бутун гидрографик тармоқ тоғли қисмида тўпланган. Дарё асосан кимсасиз худудлар бўйлаб 1440 км йўл босиб, Орол денгизига қуйилади. Амударёнинг ирмоғи фақат биринчи 180 км учун олади, дарёнинг қолган қисми нафақат ирмоқларни қабул қилмайди, балки аксинча, суғориш учун демонтаж қилинади, айниқса қуйи оқимларда интенсив равишда буғланиш ва филтрлаш учун сув йўқотади ва аста-секин унинг оқими камаяди. Панж ва Вахш дарёларининг қуйилиш жойидан 12-км узоқликда Қундуздарё чап томонда Амударёга, Кофарнихон эса ўнг томонда 38-км га қуйилади. Бундан ташқари, ўнгдан 137-км узоқликда, унинг охириги ирмоғи Сурхондарё дарёси Амударёга қуйилади, чунки 180-км да ўнг томондан унга қуйиладиган Шеробод

¹⁴⁹ Ғуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. ЎзССР ФА. – Т.: 1959 – Б.24(326).

¹⁵⁰ В.Л.Шулц. Реки Средней Азии. – Ленинград: 1965 С.355 (691).

дарёси унга оз миқдорда сув қуяди¹⁵¹. Шеробод дарёсининг ғарбий қисмида жойлашган кичик Кўхитанг дарёси сувларини Амударёга олиб бормади. Амударё ҳавзаси билан гидрографик жиҳатдан боғлиқ бўлган Зарафшон ва Қашқадарё дарёлари унга етиб бормади ва шунинг учун уларни мустақил гидрографик объектлар деб ҳисоблаш мумкин. Бу янада тўғри, чунки Зарафшон дарёси ҳавзасидан Амур дарёсигача ер ости оқими деярли йўқ. Амударё ҳавзаси Марказий Осиё республикалари миллий иқтисодиётида катта роль ўйнайди. Амударёнинг ўзи ҳам, унинг кўплаб ирмоқлари сувлари ҳам суғориш мақсадида ишлатиш учун жуда қулай режимга эга. Энг қимматли кишлок хўжалик экинлари (биринчи навбатда пахта) сувга энг катта эҳтиёж сезадиган ёз ойларида ҳавзанинг энг йирик дарёлари орқали узоқ муддатли қор ва музлик тошқинлари ўтиб, кўплаб суғориш тизимларини сув билан таъминлашга қодир. Амударё ҳавзаси энергия жиҳатидан ҳам катта аҳамиятга эга. Унинг тоғ дарёларининг кескин пасайиши ва сезиларли сув миқдори катта энергия захираларини яратади. Ва ниҳоят, Марказий Осиёдаги барча дарёлардан бири бўлган Амударё энг катта транспорт аҳамиятига эга.

ХУЛОСА ўрнида шуни айтиш мумкинки, Амударё Марказий Осиё минтақасининг ижтимоий-иқтисодий ҳамда сиёсий ҳаётида катта ўринга эга булган дарёлардандир. Амударё Қирғизистон

Республикасининг тоғли худудларида вужудга келиб, бир қанча мамлакат худудларидан оқиб ўтади ҳамда у ердаги минг-минглаб гектар ерларни обод қилади. Шу билан биргаликда ўз йўналиши бўйлаб, бир қатор минерал озукаларни ҳам оқизиб боради. Ўтган асрнинг 50-60 йилларидан бошлаб, Амударёдан машина ёрдамида сув чиқариш масаласи кўрила бошланди. Бундан кўзланган асосий мақсад атрофдаги фойдаланилмаётган кўриқ ва бўз ерларда деҳқончиликни (пахта етиштириш) ривожлантириш эди. Шунинг учун Амударёнинг ўнг ва чап соҳиллари бўйлаб бир қатор каналлар ва сув омборлари қурилди. Минг афсуслар бўлсинки, Амударё сувларидан бундай фойдаланиш охири-оқибатда қандай фожеаларга олиб келганлигини бугунги кунда барча ҳис этмоқда.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. - Тошкент: 2005. –Б. 879.
2. Н.А.Корженевский, Физико-географический очерк Средней Азии, Ташкент, 1925, . –Б. 125.
3. Ирригация Узбекистана. Том III. – Ташкент: Фан. 1979. – С.648.
4. Я.Ф.Ғуломов, Хоразмнинг суғорилиш тарихи. ЎзССР ФА. – Т: 1959 – Б.326.
5. В.Л.Шулц, Реки Средней Азии. –Ленинград: 1965 С.691.

¹⁵¹ В.Л.Шулц. Реки Средней Азии. –Ленинград: 1965 С.355 (691).

Qabul qilindi: 15.07.2025

Chop etildi: 30.08.2025

UDK:378.2

TARQALIWSHÍ QATARLARDÍ JÍYNAWDÍN BAZÍ USÍLLARÍ

¹*Prenov Barlikbay Barakbaevich, Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik instituti “Matematika oqıtıw metodikası” kafedra baslıǵı, fizika-matematika ilimleri doktori (DSc), professor*

²*Matimova Xurliman Aleuatdinovna, Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik instituti “Matematika oqıtıw metodikası” kafedrası assistenti*



<https://orcid.org/0009-0007-7972-5635>

e-mail: prenov@mail.ru

SOME METHODS OF ADDING DIVERGENT SERIES

¹*Prenov Barlikbay, Head of the Department of “Methods of Teaching Mathematics” of the Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Professor*

²*Matimova Khurliman, Assistant of the Department of “Methods of Teaching Mathematics” of the Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute*



hurliman7574@mail.ru

НЕКОТОРЫЕ СПОСОБЫ СЛОЖЕНИЯ РАСХОДЯЩИХСЯ РЯДОВ

¹*Пренов Барлыкбай Баракбаевич, заведующий кафедрой “Методика преподавания математики” Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза, доктор физико-математических наук (DSc), профессор*

²*Матимова Хурлиман Алеуатдиновна, ассистент кафедры “Методика преподавания математики” Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза*



Annotaciya: Bul “Tarqalıwshı qatarlardı jıynawdın bazı usılları” maqala oqıw orınları bakalavriat matematika, ámeliy matematika tálim baǵdarları talabaları ushın jazılǵan. Bul maqalada tiykarǵı maǵlıwmatlar keltirilgen bolıp, olarǵa baylanıslı mısallar sheship kórsetilgen.

Gilt sózler: qatar, tarqalıwshı, jıynaqlı, limit.

Abstract: This “Some methods of adding divergent series” article is designed for bachelor students in the educational programs Mathematics, Applied Mathematics. This article provides essential foundational information accompanied by solved examples.

Keywords: series, divergent, convergent, limit.

Аннотация: Научная статья “Некоторые способы сложения расходящихся рядов” предназначен для студентов бакалавриата по направлениям математика, прикладная математика. В данном в этой статье представлены основные сведения, сопровождающиеся решением примеров.

Ключевые слова: ряд, расходящийся, сходящийся, предел.

KIRISIW. Qatarlar qosindısın tabıw tek ğana jıynaqlı qatarlardıń qosindısın tabıw menen sheklenip qalmaq tarqalıwshı qatarlardı jıynap bilıw úlken áhmiyetke iye. Sebebi matematikalıq analizde bazı-bir qatarlardıń qosındıların ápiwayı usıllarda esaplawda anaǵurlım qıyınshılıqlar júzege keliwi múmkin. Biraq, bul qatarlardı bazı bir usıllardan paydalanǵan halda qatar qosindısın ańsat esaplaw úyreniw aktualıǵı sonda, tarqalıwshı qatarlardı jıynaw usılları bazı bir jıynap bolmaytuǵın qatarlardı da jıynap bere aladı hám sheshimi boladı.

IZERTLEWDIŃ MAQSETI. Tarqalıwshı qatar qosındıların esaplawda olardıń qollanıwları járdeminde bazı-bir tarqalıwshı qatarlar qosindısın esaplaw.

IZERTLEW OBYEKTI. Matematikalıq analiz páni elementlerin oqıtıw processinde talabalardıń óz betinshe islew kónlikpelerin qalıplestirıw.

IZERTLEWDIŃ ILIMIY JAŃALIǴI. Bul maqalada tarqalıwshı qatarlardı jıynaw usılları haqqında túsinikleri bayan etildi [5].

Izertlew nátiyjeleriniń teoriyalıq áhmiyeti: Tarqalıwshı sanlı hám funkcional qatarlar teoriyasın analizlew múmkinshiligin keńeytedi.

Mashqalanıń teoriyalıq tiykarları: Bazı bir mániste qosındı mǵaykes qoyıw múmkin bolǵan qatarlar kópligin keńeytiriw maqsetinde bir qatar matematikler tárepinen sanlı qatar qosındısı túsinigi ulıwmalastırıp barılǵan, kóp ushraytuǵın ulıwmalastırılardı E.Chezaro hám N.Abel atları menen baslanadı.

Qatar qosindısın esaplaw degende bizge $a_1, a_2, a_3, \dots, a_n, \dots$ haqıyqıy sanlar izbe-izligin baslanǵısh túsinik sıpatında alamız. Bunda $a_1 + a_2 + a_3 + \dots + a_n + \dots$

ańlatpa qatar (sanlı qatar). Bul qatar qısqasha

$\sum_{n=1}^{\infty} a_n$ kórinisinde belgilenedi:

$$\sum_{n=1}^{\infty} a_n = a_1 + a_2 + a_3 + \dots + a_n + \dots$$

Sanlı qataradıń aǵzalarınan tómendegi

$$A_1 = a_1, A_2 = a_1 + a_2, A_3 = a_1 + a_2 + a_3, \dots,$$

$$A_n = a_1 + a_2 + a_3 + \dots + a_n, \dots$$

qosındıların dúzemiz. Bul qosındılar qataradıń dara qosındıların delinedi.

Demek, $\sum_{n=1}^{\infty} a_n$ qatar berilgen halda hár dayım bul qataradıń dara qosındılarınan ibarat $\{A_n\}: A_1, A_2, A_3, \dots, A_n, \dots$ sanlar izbe-izligin payda etiledi.

Анıqlama 1. Eger $n \in \Gamma$ da $\sum_{n=1}^{\infty} a_n$

qataradıń dara qosındılarınan ibarat $\{A_n\}$ izbe-izlek shekli limitke iye, yaǵnıy

$$\lim_{n \in \Gamma} A_n = A$$

bolsa, onda qatar jıynaqlı delinedi.

Bul limitin mánisi A sanı $\sum_{n=1}^{\infty} a_n$ qataradıń qosındısı delinedi hám $A = a_1 + a_2 + a_3 + \dots + a_n + \dots = \sum_{n=1}^{\infty} a_n$

kóriniste jazıladı. Eger $\{A_n\}$ izbe-izlikin limiti sheksiz bolsa yáki bul limit bar bolmasa, onda

$\sum_{n=1}^{\infty} a_n$ qatar tarqalıwshı.

Ayırım qatarlar bul anıqlamaǵa boysınbaytuǵın qatarlar da ushırasadı, bunday

máselerdi auditoriyadan tıs jumislarda (olimpiada, dógerék) paydalanǵan maqul. Bul maqala tómengi kurs talabaları ushın paydalırmaq boladı.

Tómendegi bir neshe usıllardı qarap ótemiz:

1. Qatar ápiwayı mániste jıynaqlı hám Chezaro mánisinde jıynaqlı bolsa, Chezaro mánisindegi qosındıǵa iye bolıp, bul qatardıń ápiwayı qosındısı menen ústpe-úst túsiwin kórsetedi [1].

Teorema 1 (E.Chezaro). Jıynaqlı qatar úles qosındılarınıń orta arifmetikleri qatar qosındısına jıynaqlasadı [2].

$$\frac{1}{n} \sum_{k=1}^n S_k = S.$$

Tarqalıwshı

$$1 - 1 + 1 - 1 + \dots = \sum_{k=1}^{\infty} (-1)^{k-1} \quad (1)$$

sanlı qatardı qarayıq.

Onıń úles qosındıları izbe-izligi

1, 0, 1, 0, ... kóriniske iye. E. Chezaro bul úles qosındılarınń orta arifmetiklerin,

$$\sigma_n = \frac{S_1 + S_2 + S_3 + \dots + S_n}{n} \quad (2)$$

izbe-izligin qarawdı usınıs etti.

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \sigma_n = \frac{1}{2},$$

(1) qatar úles qosındılarınıń orta arifmetikleri $\frac{1}{2}$ sanına jaqınlasadı eken. Endi qálegen sanlı qatardı qarayıq:

$$\sum_{k=1}^{\infty} a_k \quad (3)$$

Ádettegidey S_n simvoli arqalı onıń úles qosındıların belgileyemiz:

$$S_n = \sum_{k=1}^n a_k \quad (4)$$

$\lim_{n \rightarrow \infty} \sigma_n = S$ limit (3) qatardıń Chezaro ulıwmalasqan qosındısı delinedi [4]

$$(C, 1) \sum_{k=1}^{\infty} a_k = S.$$

2. Qatardıń ulıwmalasqan qosındın N.Abel atı menen baylanıslı bolǵan jáne bir usıl úyrenilip atırǵan aǵzasına qosımsha x parametr kiritilip, payda bolǵan funkciyanıń $x \rightarrow 1 - 0$ daǵı limitin esaplawdan ibarat. (1) qatardı qarayıq. Eger qatar n-aǵzasın x^{n-1} ge kóbeytirsek payda bolǵan tómendegi

$$S(x) = 1 - x + x^2 - x^3 + \dots \quad (5)$$

qatar $0 < x < 1$ intervalda alıńǵan iqtıyariy x ushın jaqınlasadı hám

$$S(x) = \frac{1}{1+x} \quad (6)$$

$$\lim_{x \rightarrow 1-0} S(x) = \lim_{x \rightarrow 1-0} \frac{1}{1+x} = \frac{1}{2}$$

teńlikke kelez, yaǵnıy (1) qatardıń bunday anıqlanǵan ulıwmalasqan qosındısı bul qatardıń Chezaro mánisindegi qosındı menen ústpe-úst túsedı eken [3].

Endi jáne ulıwmalıq kórinistegi (3) sanlı qatardı qarayıq.

Anıqlama 2. Eger $0 < x < 1$ intervaldan alıńǵan iqtıyariy haqıyqıy x ushın

$$\sum_{k=1}^{\infty} a_k x^{k-1} \quad (7)$$

qatar jaqınlassa hám

$$\lim_{x \rightarrow 1-0} \sum_{k=1}^{\infty} a_k x^{k-1} = S \quad (8)$$

teńlik orınlansa, (3) qatar Abel mánisinde S sanǵa jaqınlasadı [4].

Bunda S sanı (3) qatardıń Abel mánisindegi qosındı dep ataladı hám tómendegishe belgilenedi

$$(A) \sum_{k=1}^{\infty} a_k = S \quad (9)$$

(7) qatardın jıyındısı (3) qatardın Abel ortashası delinedi. Návbettegi teorema Abel usılınıń turaqlılıǵın kórsetedi.

Teorema 2 (N.Abel). Abel (3) qatar jaqınlasıp, onıń qosındısı S ke teń bolsa, bul jaǵdayda bul qatar Abel usılı menen jıynaqlı bolıp, onıń Abel mánisindegi qosındısı da S ke teń boladı.

$$S(x) = \sum_{k=1}^{\infty} a_k x^{k-1}, 0 < x < 1, \quad (10)$$

belgilewdi kiriteyik. Eger (3) qatardın ules qosındısı S_n bolsa, $a_n = S_n - S_{n-1}$ teńlik orınlı (bunda biz $S_0 = 0$ dep aldıq). Sol sebepli

$$S(x) = (1-x) \sum_{n=1}^{\infty} x^{n-1} S_n \quad (11)$$

Sonday eken, návbettegi qatnastı alamız

$$S(x) - S = (1-x) \sum_{n=1}^{\infty} x^{n-1} (S_n - S) \quad (12)$$

Shártke kóre $\{S_n - S\}$ izbe-izlik sheksiz kishi hám demek, ol shegaralanǵan

$$|S_n - S| \leq M, n = 1, 2, 3, \dots$$

Bunnan tısqarı, qálegen $\varepsilon > 0$ ushın sonday N sanı tabıladı $n \geq N = N(\varepsilon)$ bolǵanda tómenдеgi teńlik orınlanadı

$$|S_n - S| < \frac{\varepsilon}{2}, n \geq N.$$

Ol jaǵdayda $0 < 1-x < \delta$ bolǵanda tómenдеgi teńsizlik orınlanadı [5].

$$|S(x) - S| < \varepsilon, 1 - \delta < x < 1,$$

Mısal 1. Bul

$$|S(x) - S| < \varepsilon, 1 - \delta < x < 1, \quad (13)$$

qatardın hár bir $\varphi \in R$ ushın tarqalıwshı (16) formuladan kelip shıǵadı. Haqıyqattan, bul formulaǵa kóre n pütün bolǵanda úles qosındılar $\varphi \neq 2n\pi$ lar ushın limitke iye emes.

Eger $\varphi = 2n\pi$ bolsa (13) qatardın hár bir aǵzası 1 ge teń bolıp, jáne nátiyjede bul qatar tarqalıwshı. Endi, eger (15) formuladan paydalansaq $S(x)$ Abel ortashalarınıń $\varphi \neq 2n\pi$ bolǵanda tómenдеgi

$$S(x) = \frac{1-x^2}{1-2x \cos \varphi + x^2}$$

kóriniske iye ekeninligin kóremiz. Demek,

$$\lim_{x \rightarrow 1-0} S(x) = 0$$

yaǵnıy qatar Abel usılı menen jıynaqlı bolıp, onıń Abel mánisindegi qosındısı 0 ge teń eken. Návbettegi misal Chezaro mánisinde tarqalıwshı, biraq bul menen bir qatarda, Abel usılı menen jıynaqlı qatarlar bar ekenligi kórsetiledi.

Mısal 2.

$$1 - 2 + 3 - 4 + 5 - 6 + \dots$$

$$(14)$$

qatar Chezaro usılı menen jıynaqlı emes.

Haqıyqattan $\{S_n\}$ ules qosındılar izbe-izligi anıq tómenдеgi

$$1, -1, 2, -2, 3, -3, \dots$$

kórinisine iye, usi sebepli $\{\sigma_n\}$ orta arifmetiklar izbe-izligi

$$1, 0, \frac{2}{3}, 0, \frac{3}{5}, 0, \dots, \frac{n+1}{2n}, 0, \dots$$

den ibarat, yaǵnıy

$$\sigma_n = \begin{cases} \frac{n+1}{2n}, & \text{eger } n \text{ taq bolsa} \\ 0, & \text{eger } n \text{ jup bolsa} \end{cases}$$

σ_n izbe-izlik eki 0 hám $\frac{1}{2}$ limit noqatlarǵa iye

hám usı sebepli ol tarqalıwshı. Demek (13) qatar Chezaro usılı menen jıynaqlı emes eken.

Endi bul qatardıń Abel usılı menen jıynaqlı bolıp, onıń Abel mánisindegi qosındısı $\frac{1}{4}$ ekenin

kórsetemiz. Bunıń ushın $0 < x < 1$ intervaldaǵı barlıq x larda orınlı bolǵan

$$\frac{1}{1+x} = 1 - x + x^2 - x^3 + x^4 - x^5 + \dots,$$

teńlikten paydalanamız. Bul teńlikte aǵzama-aǵza differenciallaw múmkin,

$$-\frac{1}{(1+x)^2} = -1 + 2x - 3x^2 + 4x^3 - 5x^4 + \dots,$$

Bul teńlikten (13) qatarǵa sáykes keliwshi Abel ortashalarınıń

$$S(x) = 1 - 2x + 3x^2 - 4x^3 + 5x^4 - \dots = \frac{1}{(1+x)^2} \quad (15)$$

Kóriniske iye ekenligi kelip shıǵadı. Demek

$$\lim_{x \rightarrow 1-0} S(x) = \frac{1}{4}$$

Mısal 3. Álbette, Chezaro hám Abel usılı óz-ara qanday qatnasta degen soraw payda boladı. Bul sorawǵa juwap sonnan ibarat, Chezaro usılı menen qandayda S sanına jıynaqlı hár bir sanlı qatar Abel usılı boyınsha da tap sol S sanǵa jaqınlasadı. Haqıyqattanda (11) teńlikteń oń tárepindegi qatarǵa Abel almastırıwın qollasaq

$$S(x) - S = (1-x)^2 \sum_{n=1}^{\infty} nx^{n-1} (\sigma_n - S). \quad (16)$$

teńlikte alamız. Bunda biz (15) teńlikte x tı $-x$ almastırıw menen payda bolatuǵın tómendegi nátiyege iye bolamız

$$(1-x)^2 \sum_{n=1}^{\infty} nx^{n-1} = 1 \quad (17)$$

JUWMAQLAW. Esaplaw kóz qarasınan Chezaro usılı Abel usılınan üstinrek, sebebi Chezaro ortashaların esaplaw ushın shekli sandaǵı arifmetikalıq ámeller orınlanıwı talap etiledi. Bul sanlı qatar kórinisinde súwretlengen túrli shamalardı kompyuter járdeminde esaplawda júdá áhmiyetli esaplanadı.

ÁDEBIYATLAR DIZIMI:

1. G.M.Fixtengolc. Matematik analiz asoslari, 2-qism, T.O'qituvchi, 1972.
2. Зорич В.А. Математический анализ. Часть II. М. МЦНМО, 2002 г.
3. Демидович Б.П., Сборник задач и упражнений по математическому анализу. Учеб. пособие для вузов. М.: ООО Издательство Астрель. ООО Издательство АСТ, 2003 г. - 558 (2) ст.
4. Z.B.Saparov, B.B.Prenov, B.M.Narekeev, D.E.Mirzanova, A.G.Xodjaniyazov. Matematika oqıtıw metodikası. Bakalavr tálim baǵdarı talabaları ushın oqıwlıq/IB/ Tashkent – 2017.
5. Матимова, Х.А. (2019). Интерактивные методы обучения на примере темы «Метод координат на плоскости» в основной школе. Инновационные технологии в современном образовании (pp. 409-414).



Qabul qilindi: 15.07.2025

Chop etildi: 30.08.2025

UDK: 81-119

**PARONIM VA OMONIM SO‘ZLAR O‘RTASIDAGI
CHALKASHLIK LARNING SABABLARI VA ULARNI
BARTARAF ETISHNING LINGVISTIK ASOSLARI**

*Xudjayeva Ra'noxon Mutalibjonovna, Alfraganus universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori*

**REASONS FOR MIXING PARONYMS AND
HOMONYMS AND LINGUISTIC BASES FOR THEIR
ELIMINATION**

*Khudjaeva Ranokhon Mutalibjonovna, Associate Professor of
Alfraganus University, Doctor of Philological Sciences*

**ПРИЧИНЫ СМЕШЕНИЯ ПАРОНИМОВ И
ОМОНИМОВ И ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ
ЕГО УСТРАНЕНИЯ**

*Худжаева Раънохон Муталибжоновна, доцент университета
Альфраганус, доктор филологических наук*

Annotatsiya: Ushbu maqola tilshunoslikdagi muhim hodisalardan

biri paronimlar va omonimlar o'rtasidagi farqlarni tizimli o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu ikki turdagi hodisalar shakl, semantika, genezisi, funksional qo'llanish doirasi, tarjimada yuzaga keladigan muammolar nuqtayi nazaridan chog'ishtiriladi. Ingliz va o'zbek tillaridan tanlangan misollar orqali farqlash mezonlari ishlab chiqilgan. Maqola tarjima nazariyasi, til o'rganish, semantik tahlil va stilistikaga oid tadqiqotlar uchun amaliy hamda nazariy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: paronim, omonim, semantika, fonetika, kontekst, sinonimiya, tarjima, stilistika.

Abstract: The article is devoted to the systematic study of the differences between paronyms and homonyms – one of the important phenomena in linguistics. These two types of phenomena are compared in terms of form, semantics, genesis, functional application and problems arising during translation. Differentiation criteria are developed on the basis of individual examples from the English and Uzbek languages. The article has practical and theoretical significance for research in the field of translation theory, language studies, semantic analysis and stylistics.

Keywords: paronym, homonym, semantics, phonetics, context, synonymy, translation, stylistics.

Аннотация: Статья посвящена системному изучению различий между паронимами и омонимами – одним из важных явлений в лингвистике. Эти два типа явлений сравниваются с точки зрения формы, семантики, генезиса, функционального применения и проблем, возникающих при переводе. Критерии дифференциации разрабатываются на основе отдельных примеров из английского и узбекского языков. Статья имеет практическое и теоретическое значение для исследований в области теории перевода, изучения языков, семантического анализа и стилистики.

Ключевые слова: пароним, омоним, семантика, фонетика, контекст, синонимия, перевод, стилистика.



<https://orcid.org/0000-0001-6790-4344>
e-mail:
xudjayevaranoxon@n
avoiy-uni.uz

KIRISH. Til – bu fikr ifodalanadigan va uzatiladigan murakkab hamda ko‘p qatlamli tizimdir. Har bir tabiiy til o‘z ichida ko‘plab o‘xshash shakldagi, ammo ma’nodosh bo‘lmagan birliklarni mujassam etadi. Paronimlar va omonimlar ana shunday birliklar sirasiga kiradi. Ular nutqiy va yozma matnlarda chalkashlikka olib kelishi, ba’zan esa stilistik xatoliklar keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, tarjimada bu hodisalar alohida e’tibor talab qiladi. Ushbu maqolada paronimlar va omonimlarning farqlari nazariy jihatdan asoslanadi, amaliy misollar bilan mustahkamlanadi hamda ulardan to‘g‘ri foydalanishda ishlab chiqilgan mezonlar ochiq ommaga taqdim etiladi.

Paronimlar¹⁵² – fonetik jihatdan qisman o‘zaro o‘xshash, ammo semantik jihatdan **MUHOKAMA.** Inglizcha misollar: **Affect / Effect:** 1. The news *affected* him deeply. Yangilik uning ruhiyatiga salbiy *ta’sir* ko‘rsatdi. 2. The new law had a positive *effect*. Yangi qonun ijobiy *natija* berdi.

Precede / Proceed: 1. The speech *preceded* the dinner. Nutq kechki ovqatdan *oldin* bo‘ldi. 2. Please *proceed* with your question. Savolingizni berishda *davom eting*.

Compliment / Complement: 1. He gave her a nice *compliment*. U unga chiroyli *maqto*v aytdi. 2. That scarf *complements* your dress. Boshmoq bu ko‘ylakka *mos* bo‘ldi.

O‘zbekcha misollar: **Yondosh / Yondash:** 1. Ular *yondosh* uyda yashaydi. 2. Har qanday muammoga mantiqan *yondashish* lozim.

Asl / Asil: 1. Bu roman *asl* nusxasidan tarjima qilingan. 2. *Asil* zotli otlar serjahl bo‘ladi.

Xiyla / Hiyla: 1. Bu muammo *xiyla* murakkab. 2. U *hiyla* ishlatib pulni oldi.

Yuqoridagi misollar paronim va omonim birliklarning shaklan qisman o‘xshash bo‘lsa-da,

farqlanuvchi leksik birliklar bo‘lib, tashqi shakldagi yaqinlikka qaramay, turlicha ma’nolarni ifodalaydi. Ular odatda bir ildizdan kelib chiqqan bo‘ladi, biroq ularning ma’nodoshligi, qo‘llanish doirasi va stilistik funksiyasi sezilarli darajada farq qiladi. Tilshunoslikda paronimlar ayniqsa stilistik aniqlik, konnotativ ma’no qatlamlarini to‘g‘ri anglash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga egadir. Ularning noaniq yoki noto‘g‘ri qo‘llanishi matnda stilistik, semantik chalkashlik va kommunikativ buzilishga olib keladi. Shu sababli, paronimlar tahlilida nafaqat ularning morfologik tuzilishi, balki kontekstda qanday konnotativ ma’no hosil qilishi ham alohida e’tiborni talab etadi. Misol tariqasida o‘zbek va ingliz tillaridan ayrim misollarni tahlilga tortsak:

ma’no va funksional vazifasi jihatdan qanday farq qilishini yaqqol ko‘rsatib beradi. Ingliz tilidagi “affect/effect”, “precede/proceed”, “compliment/complement” kabi paronimlar grammatik toifasi va semantik maydoniga ko‘ra ajraladi, bu esa ularni noto‘g‘ri ishlatish xavfini kuchaytiradi.

O‘zbek tilidagi “yondosh/yondash”, “asil/asl”, “hiyla/xiyla” kabi misollar esa o‘zbek tiliga xos fonetik yaqinliklar va ko‘p ma’nolilik orqali semantik chalkashliklarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bunday holatlarda so‘zning to‘g‘ri qo‘llanilishi faqat kontekst asosida aniqlanadi. Shuning uchun bunday birliklarni o‘rganishda ularning grammatik funksiyasi, stilistik vazifasi va nutqdagi asl holatdagi qo‘llanishiga e’tibor qaratish zarur. Bu esa, ayniqsa, tarjima, til o‘qitish va matn tahlilida til birliklarining mazmunan aniqligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Omonimlar¹⁵³ – tuzilishi, yozilishi va talaffuzi jihatdan bir xil, biroq semantik mazmuni

¹⁵² Xudjayeva R.M. O‘zbek va ingliz tillaridagi omonimlarning chog‘ishtirma tadqiqi. Monografiya. – Toshkent, 2024. 207 b.

¹⁵³ Xudjayeva R.M. O‘zbek va ingliz tillaridagi omonimlarning chog‘ishtirma tadqiqi. Monografiya. – Toshkent, 2024. 207 b.

butunlay farqlanuvchi leksik birliklardir. Bunday soʻzlar fonetik va grafik jihatdan aynan bir xil koʻrinishga ega boʻlsa-da, ularning maʼnolari orasida etimologik yoki semantik aloqadorlik mavjud emas. Omonimik birliklarning xususiyati shundaki, ular kontekstga kuchli darajada bogʻliq boʻladi, yaʼni ularning toʻgʻri talqini muloqotda aniqlanadi. Shu bois, omonimlarning notoʻgʻri yoki kontekstdan ajratilgan holda qoʻllanishi maʼno noaniqligi, muloqotda anglashilmovchilik va semantik buzilishga olib keladi. Omonimlar til tizimidagi murakkab hodisalardan biri sifatida semantik differensialashuv, pragmatik talqin, va stilistik moslashuv nuqtayi nazaridan atroflicha oʻrganishni talab qiladi. Misol tariqasida oʻzbek va ingliz tillaridagi ayrim omonim qatorlarini tahlil etsak:

Inglizcha misollar:

Bat¹: *A bat flew out of the cave.* Gʻordan bir *koʻrshapalak* uchib chiqdi.

Bat²: *He hit the ball with a bat.* U toʻpni *beysbol tayoqchasi* bilan urdi.

Spring¹: *Spring is my favorite season.* *Bahor* – mening sevimli faslim.

Spring²: *The child jumped on the spring.* Bola *prujinali* sakragichda sakradi.

Bank¹: *I deposited money in the bank.* Men *bankka* pul qoʻydim.

Bank²: *He sat by the river bank.* U *daryo boʻyida* oʻtirdi.

Oʻzbekcha misollar:

Chang¹: Qoʻshiqda *chang* chalinmoqda (Milliy cholgʻu asbobi).

Chang²: Mashina yoʻldan *chang* chiqarib ketdi (Mayda tuproq zarrachalari, *chang-toʻzon*¹⁵⁴).

Saraton¹ – *Saraton* kelib, havolar isib ketdi (Quyosh nuri kuchli tushadigan yoz oylarining biri).

Saraton² – Unga *saraton* tashxisi qoʻyildi (Onkologik kasallik.)

Shama¹ – U gap orasida menga *shama* qilib qoʻydi (Imo, kinoya, bilvosita ishora (arabcha kelib chiqishli ot)¹⁵⁵).

Shama² – Bu choyning *shamasi* koʻp chiqyapti, yaxshilab suz (Choy damlanganda pastda qoladigan xom qoldiq (xalq ogʻzaki tilida).

NATIJALAR. Yuqorida keltirilgan misollar paronim va omonim birliklarning qanday shakllanishini, ular qanday kontekstlarda qoʻllanilishini hamda ular oʻrtasidagi semantik va stilistik tafovutlarni amaliy nuqtayi nazardan koʻrsatib beradi. Har bir juftlik til birliklarining notoʻgʻri talqini qanday semantik buzilishlarga olib kelishini yaqqol namoyon etadi. Ayniqsa, paronim va omonimlarning kontekstga bogʻliqligi, ularning grammatik vazifasi va stilistik xususiyatlari bilan bevosita bogʻliq ekani bu misollar orqali aniq koʻzga tashlanadi. Shunday qilib, ushbu tahlil asosida paronimlar va omonimlar oʻrtasidagi farqlarni aniqlashda qanday mezonlarga tayanish lozimligi haqida xulosa chiqarish mumkin. Quyidagi beshta asosiy mezon orqali paronimlar va omonimlar oʻrtasidagi farqlar aniq ajratiladi:

Mezon	Paronimlar	Omonimlar
Fonetik oʻxshashlik	Qisman oʻxshash	Toʻliq mos
Semantik aloqadorlik	Odatda maʼnoda qisman yaqinlik mavjud	Maʼnolari butunlay har xil, hech qanday aloqadorlik yoʻq

¹⁵⁴ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 1-jild. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2006. – B. 413.

¹⁵⁵ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 2-jild. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2007. – 215 b.

Etimologik jihat	Ko'pincha bir tildan kelib chiqadi	Har xil tillardan paydo bo'ladi
Qo'llanish doirasi	O'xshash kontekstlarda stilistik farq uchun	Har xil kontekstlarda keskin semantik farq bilan
Tarjimada xatolik xavfi	Yuqori (stilistik yoki konnotativ xatolar)	Juda yuqori (ma'no noto'g'ri uzatilishi mumkin)

XULOSA. Yuqoridagi misollar asosida paronimlar va omonimlar til tizimidagi o'ziga xosliklari, ularning kontekstdagi roli va semantik xatoliklar xavfi ochib berildi. Ammo bu holatlarni faqat amaliy misollar asosida emas, balki aniq lingvistik mezonlar orqali ham chuqurroq tahlil qilish zarur. Zero, paronim va omonim birliklarni bir-biridan ilmiy asosda farqlash, ularning til birliklari tizimidagi o'rnini aniqlash va amaliy nutqda to'g'ri qo'llash uchun ma'lum nazariy mezonlarga tayanish muhimdir. Quyida ana shunday beshta asosiy lingvistik mezon yoritilib, ular orqali bu ikki leksik birlik turining farqlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 464 b.
2. Xudjayeva R.M. O'zbek va ingliz tillaridagi omonimlarning chog'ishtirma tadqiqi. Monografiya. – Toshkent, 2024.
3. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-5 jildlar. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.
5. Cruse D.A. Lexical Semantics. Cambridge University Press, 1986.
6. Lyons J. Semantics. Cambridge University Press, 1977.



BERUNIYNING “YODGORLIKLAR” ASARIDA KETIRILGAN SHE’RIY PARACHALAR XUSUSIDA

Allambergenov Anvar Erkabayevich, O‘zR FA O‘zbek tili,
adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

ON THE POETIC FRAGMENTS QUOTED IN BERUNI’S WORK “MONUMENTS”

Allambergenov Anvar Erkaboyevich, Senior Research Fellow at
the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore,
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, (PhD) in
Philology, Associate Professor

О ПОЭТИЧЕСКИХ ОТРЫВКАХ, ПРИВЕДЁННЫХ В ТРУДЕ БЕРУНИ “ПАМЯТНИКИ”

Алламбергенов Анвар Эркабаевич, старший научный
сотрудник Института языка, литературы и фольклора
АНРУз, (PhD) по филологическим наукам, доцент



<https://orcid.org/0009-0009-1497-0343>

e-mail:
anvarallambergenov11@
gmail.com



Annotatsiya: Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida keltirilgan ayrim she’riy parchalar xususida so‘z boradi. Beruniyning she’riy parchalardan foydalanish mahorati haqida to‘xtalib o‘tiladi. “Yodgorliklar” asaridagi she’rlardan namunalar tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: “Yodgorliklar” asari, adabiyotshunos, she’rshunos shoir, she’riy parcha, talqin, tahlil, mahorat.

Annotation: This article discusses certain poetic fragments quoted by Abu Rayhan Beruni in his work “Monuments from Ancient Peoples”. It highlights Beruni’s mastery in the use of poetic passages. Examples of the poems included in “Monuments” are analyzed.

Keywords: “Monuments”, literary scholar, poetry researcher, poet, poetic fragment, interpretation, analysis, mastery.

Аннотация: В данной статье рассматриваются отдельные поэтические отрывки, приведённые Абу Райханом Бируни в труде “Памятники минувших поколений”. Освещается мастерство Бируни в использовании поэтических фрагментов. Анализируются примеры стихов, встречающихся в “Памятниках”.

Ключевые слова: труд “Памятники”, литературовед, исследователь поэзии, поэт, поэтический отрывок, интерпретация, анализ, мастерство.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosiga nazar solar ekanmiz, uning naqadar teran va xilma-

xilligiga guvoh bo‘lamiz. Alloma adabiyot yoki umumiy olganda filologiyaga oid alohida asar bitmagan. Shunga qaramasdan turli fan va fan

sohalariga bag'ishlangan asarlarida uning mohir filolog, folklorshunos, adabiyot nazariyotchisi, she'rshunos, jahon adabiyoti tarixi va tarjima borasida mohir mutaxassis ekanligi ayon bo'ladi. Olim haqida yuqorida aytib o'tgan so'zlarimizning isbotini uning barcha asarlarida u yoki bu shaklda ko'rish mumkin. Ayniqsa "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Mineralogiya", "Saydana" kabi asarlarida qomusiy olimning filologik qarashlari yaqqol namoyon bo'ladi. Beruniy asarlarining nomlanishini ko'rib, o'sha asarlarning mundarijasi bilan tanishib, bu kitoblarning adabiyotga, yoki adabiyotshunoslikka aloqasi yo'q deya yuzaki xulosa chiqarish noto'g'ri hisoblanadi. Negaki Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida shunday yozadi: "Garchi biz (bu kitobning) ba'zi joylarida turli fanlarga o'tib, bayonimizga aloqasi uzoq (masalalarga) kirishib ketsak ham, bu gapni cho'zish va ko'paytirish maqsadida emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik uchundir. Chunki doimo bir xil narsaga qarayverish malollik va sabrsizlikka olib keladi. (O'quvchi) fandan-fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi, birini ko'rib ulgurmay, boshqasi boshlanadi va u kishi "har bir yangi narsada lazzat bor" deyilganidek, ularni (ko'rishga) qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi"¹. Beruniy barcha asarlarida o'zi yozgan shu narsaga amal qilgan holda o'z o'quvchisini zeriktirmadi. Shuning bilan birgalikda foydali, asoslangan va o'zi guvoh bo'lgan ma'lumotlar, masalalar va voqealardan xabar beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida ma'lumotlar va xabarlar zich tarzda bayon qilingan. She'riyatning inson ruhiga yaqinligini, nasriy matnga qaraganda ta'sir kuchi ortiqroq ekanligini hisobga olgan Beruniy o'z asarlarida oz miqdorda bo'lsa ham she'rlardan, she'riy parchalardan mohirona foydalangan. Bu haqda maxsus tadqiqot olib borgan beruniyshunos olim Aziz Qayumov o'zining "Beruniy va adabiyot" deb nomlangan kitobida Beruniyning

adabiyot bilan bog'liq ishlarini tadqiq qilgan holda "Yodgorliklar" asaridagi she'rlar xususida ham to'xtlaib o'tadi. Kitobning "Beruniy va arab tilidagi adabiyot" deb nomlangan qismida u shunday yozadi: "O'tmish yodgorliklari" kitobida Beruniy odatdagi kabi ko'p ilmiy va nazariy xulosalarni ayrim she'rlar orqali ifodalaydi. Ularni uch turkumga bo'lib ko'rib chiqaylik. Bir turkum she'rlar koinot hodisalarini izohlasa, ikkinchi turkum she'rlar tabiat ko'rinishlarini sharhlaydi. Yana bir turkum she'rlar esa jamiyat hayotidagi turli-tuman voqealarni, kishilarning holati, kechinmalarini tasvir etadi"². Aziz Qayumov "Yodgorliklar"da keltirilgan she'rlarni umumiy ma'noda yuqoridagi tarzda uch turkumga bo'lgan. Mazmun va mavzulariga qarab yana alohida guruhlariga ajratish va ularni yanada sinchiklab o'rganish hali oldinda turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/ DISCUSSION). Beruniyning biz so'z yuritayotgan "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida "Yil hisoblarida belgilangan oylarning fazilatlarini haqida" deb nomlangan bobida bir nechta she'riy parchalar keltirilgan. She'rlar bahs yuritilayotgan masalalarga aynan aloqador bo'lib, ular masalani dalillash, so'z ketayotgan voqeani asoslash, uni boyitish uchun xizmat qilgan. Masalan, arab oylarining nomlari haqida yozar ekan, o'zi keltirgan ma'lumotlarni o'zidan oldin o'tgan olimlarning kitoblaridagi ma'lumotlar bilan solishtiradi, qiyoslaydi, o'z zamonasidagi oylarning nomlanishi, ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirib o'tgach, oylarning nomlarini ketma-ketlikda sanab o'tadi. Ro'yxatning iziga izoh sifatida eslatma ham yozib qo'yishni unitmagan holda shunday yozadi: "Goho bu nomlarning biz ko'rsatganlardan farqli va boshqa tartibi uchratiladi. Chunonchi, shoirlardan biri ularni o'z she'rida shunday nazm qilgan:

*Mutamir-u Nojirandan boshladik,
So'ngra Xavvon hamda Suvon ergashur.
Keynidan Zabbo kelar, so'ng Boida,
Kelgach Asamm, dushmanlik ham kar
bo'lur.*

¹ Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Toshkent – "O'zbekiston" – 2020-yil, 105-bet.

² Qayumov A. Beruniy va adabiyot. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1974-yil. 65-bet.

*So'ngra Vog'il, Notila-yu Adila –
Jami go'zal shon-u shuhrat nuridir.
Kelsa Ranna ham Burak,
so'ng vassalom, –
Panja bilan oy sanash bo'ldi tamom³”.*

She'rda o'n ikki oy birma-bir tartib bilan sanalgan. Uni o'qish jarayonida sezish mumkinki, she'r yuksak badiiyat namunasi emas, undagi bo'g'inlar soni va qofiyalarning unchalik ham bir-biriga mutanosib bo'lmaganligi bu she'rning tarjimai bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin, albatta. Lekin bu yerda asosiy e'tibor qaratish kerak bo'lgan jihat she'rning aynan so'z yuritilayotgan mavzuga mosligidadir. Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida she'riy parchalarni berishining asosiy sabablaridan, she'rlar o'quvchining mavzuga qiziqishini orttirishi, sof ilmiy ma'lumotlarni esda tez va oson saqlab qolinishiga bir vosita o'laroq xizmat qildirgan. Aynan “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida “Yil hisoblarida belgilangan oylarning fazilatlarini haqida” deb nomlangan bobida oylarning ixtilofli bo'lishi bilan bog'liq masalalar haqida so'z yurtib, boshqacha shaklda berilgan oylarning tartibiga ham bag'ishlab yozilgan she'rlarni ham keltirish bilan bu asardagi boshqa boblarga qaraganda alohida ajralib turganligini ham ta'kidlab o'tish joiz. Shu she'rlardan yana birini quyida keltirib o'tamiz. “Abu Sahl Iso ibn Yahyo al-Masihiy bu oylarni o'z she'rida nazm qilib, bunday degan:

*Samud oylari: Mujib, keyin Munjir.
Mulzumga Mundir yondashadi,
keyin Musdir (keladi);
So'ngra haybar kelib, keyin Havbal kiradi,*

*U ikkisidan keyin Mavhar turadi, so'ng Daymur.
Dabir o'tkandan keyin Hayfal va Musbil kelib,
Nihoyat shular bilan oylar tamom bo'ladi”⁴.*

Ko'rinib turibdiki, birinchi keltirilgan she'r ichidagi oy nomlari bilan kkinchi she'riy parchadagi oy nomlari bir xil emas. Bu esa oylarning bir xil nomlanmaganligidan dalolat.

Beruniy she'rlarni keltirishda ularning mualliflariga alohida e'tibor qaratmaydi. Eng muhimi mavzuga monand bo'lishi birlamchilik kasb etadi. Shu sababli ba'zi o'rinlarda she'r mualliflari ketirib o'tilgan bo'lsa, ba'zi o'rinlarda “bir shoir she'rida”, “shoirlardan biri yozgan” shaklida she'rlarni berib o'tgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Umuman olganda qomusiy olimning turli fan va uning sohalari haqidagi tadqiqotlarida she'rlardan foydalanishi alohida bir hodisa hisoblanadi. U ilmiy matnga badiiy ruh berish orqali adabiyot va boshqa fanlarning bir-biriga uyg'un ekanligini ko'rsatgan. Shuning bilan birgalikda o'zining adabiyotni, xususan, she'riyatni sevgan shaxs ekanligini ham bildirib o'tgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2020-yil.
2. Aziz Qayumov. Beruniy va adabiyot. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1974-yil.
3. Ro'zimboyev S. Eshjonova G. Beruniy va folklor. Urganch, 2003-yil.



³ Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Toshkent. – O'zbekiston – 2020-yil. 94-bet.

⁴ Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Toshkent – “O'zbekiston”, – 2020-yil. 97-bet.

ETIMOLOGIK IZLANISHLAR: L.BUDAGOV LUG‘ATIDAGI ESKI O‘ZBEKCHA HID NOMLARI

*Tuxtasinova Mahliyoxon Shavkatjon qizi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

<https://orcid.org/0000-0002-6849-0603>

e-mail:


mahliyo.shavkatjonovna@gmail.com

ETYMOLOGICAL STUDIES: OLD UZBEK ODOR TERMS IN L. BUDAGOV’S DICTIONARY

Tukhtasinova Mahliyokhon Shavkatjon kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

ЭТИМОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: СТАРОУЗБЕКСКИЕ НАЗВАНИЯ ЗАПАХОВ В СЛОВАРЕ Л.БУДАГОВА

Тухтасинова Махлиёхон Шавкатжон кызы, доктор философии (PhD) по филологии, Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои



Annotatsiya: Ushbu maqolada L.Budagovning “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” lug‘atida qayd etilgan eski o‘zbekcha hid nomlarining etimologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Hid nomlari turkiy tillarda qadimdan mavjud bo‘lib, ularning shakl va ma‘no taraqqiyoti qadimgi turkiy manbalar, o‘rta asr lug‘atlari hamda zamonaviy adabiy til materiallari asosida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida eski o‘zbekcha is, iyd, id kabi hid nomlarining semantik doirasi, fonetik o‘zgarishlari va ularning boshqa turkiy tillardagi muqobillari aniqlangan. Maqolada ushbu leksemalarning turli davrlardagi ma‘no kengayishi hamda tarixiy-etimologik talqini yoritiladi.

Kalit so‘zlar: etimologiya, eski o‘zbek tili, hid nomlari, L.Budagov, qiyosiy lug‘at, turkiy tillar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются этимологические особенности названий запахов, зафиксированных в “Сравнительном словаре турецко-татарских наречий” Л.Будагова. Названия запахов издавна существовали в тюркских языках, их формальное и семантическое развитие анализируется на основе древнетюркских источников, средневековых словарей и материалов современного литературного языка. В результате исследования выявлены семантическое содержание, фонетические изменения и соответствия таких староузбекских лексем, как ис, ийд, ид, в других тюркских языках. В статье освещается процесс расширения значений этих лексем и их историко-этимологическая интерпретация.

Ключевые слова: этимология, староузбекский язык, названия запахов, Л.Будагов, сравнительный словарь, тюркские языки.

Abstract: This article examines the etymological features of odor-related lexemes recorded in L. Budagov’s “Comparative Dictionary of the Turkic-Tatar Dialects”. Odor names have existed in Turkic

languages since ancient times, and their phonetic and semantic development is analyzed based on Old Turkic sources, medieval dictionaries, and modern literary Uzbek. The study identifies the semantic scope, phonetic shifts, and cross-Turkic parallels of Old Uzbek odor terms such as *is*, *iyd*, *id*. The article also highlights the semantic expansion of these lexemes across different historical periods and provides their historical-etymological interpretation.

Keywords: etymology, Old Uzbek language, odor terms, L.Budagov, comparative dictionary, Turkic languages.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Tilning lugʻat tarkibi kishilarning turli faoliyati bilan bevosita aloqador boʻlganligi uchun uzluksiz oʻzgarib turadi, jamiyat, fan-texnika taraqqiyoti bilan boyib boradi. Zotan, til yangi soʻzlar, terminlar bilan boyib turmasa, jamiyatda sodir boʻluvchi oʻzgarishlar va yangilanishlarni aks ettirmay qoladi. Shunday ekan, “har bir tilning leksik tarkibi shunday xazinadirki, unda shu xalq tarixiga oid qimmatbaho maʼlumotlar saqlanadi. Xalqning kelib chiqishi, hayoti va madaniyati, moddiy-maʼnaviy boyliklari, umuminsoniy madaniyatni takomillashtirishdagi roli leksikada oʻz ifodasini topadi”¹. “Tildagi soʻzlarni mavzuiy guruhlariga ajratib oʻrganish xalq tarixini mukammalroq yoritish, etimologiyadagi soʻzlar etimologiyasini aniqlashga, tildagi soʻzlarning diaxron va sinxron holatdagi mavqeini baholash, oʻrganilayotgan tilga qardosh va qardosh boʻlmagan tillarning leksik jihatdan taʼsirini baholashga imkoniyat beradi”².

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). L.Z.Budagovning asosiy ilmiy asarlari roʻyxatida II jildidan iborat “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий, со включением употребительнейших слов арабских и персидских и с переводом на русский язык” alohida oʻrin tutadi. Ushbu lugʻat XIX asrning eng ulkan turkiy lugʻatlardan biridir. Lugʻatning 810 sahifadan iborat birinchi jildi ilk marta 1869-yilda Sankt-Peterburgda nashr etilgan. Lugʻatning 415 sahifani oʻz ichiga olgan ikkinchi

jildi 1871-yilda oʻsha yerda nashr etilgan. “Lugʻatda jami 25200 soʻz mavjud. Lugʻat tarkibidagi leksik material arab yozuvidagi alifbo tartibida tuzilgan. Birinchi jildda soʻzlar faqat arab yozuvida, ruscha harflar bilan transliteratsiyasiz berilgan, ikkinchi jildda har bir leksik birlikning transkripsiyasi ruscha harflar bilan koʻrsatilgan”³.

L.Budagov lugʻat maqolalarini shakllantirishda “V.Dalning “Толковый словарь живого великорусского языка”ni tuzishda qoʻllagan metodikasidan foydalangan: soʻzlarning joylashuvi, ham soʻz maqolalarining koʻrgazmali materiallar, asosan maqollar, matallar, turli frazeologik birliklar, etnografik materiallar bilan boyitilishidir. L.Budagov tomonidan qabul qilingan soʻz shakllantiruvchi-uyali soʻzlarning joylashtirilishi juda murakkab, ammo muvaffaqiyatli chiqqan” (I. 415).

Soʻzlarni maʼnolari asosida guruhlariga boʻlishning uya usulidan foydalangan holda soʻzlarning kelib chiqishi zaminida tuzilgan bu lugʻatni V.Dalning lugʻatnavislik sohasidagi izlanishlarining davomi sifatida qayd etish mumkin. XIX asrning ikkinchi yarmida ikki tilli lugʻatlar orasida L.Budagov tomonidan yaratilgan lugʻat leksik qatlamining boyligi bilan ajralib turadi⁴.

Oʻrta Osiyo xalqlari uchun muhim manba sanalgan “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” lugʻati yuzasidan hozirga qadar maxsus tadqiqot olib borilmagan. Oʻrta Osiyo tillarida Dashti Qipchoqda yashovchi qardosh turkiy xalqlar uchun umumiy manba sanaluvchi lugʻat yuzasidan A.Yusupova “Сравнительный словарь

¹Турсунова Т. Ўзбек тили амалий санъат лексикаси. – Т.: Фан, 1978. – Б. 3; Мусаев К. Лексика тюркских языков в сравнительном освещении (Западно-кыпчакская группа). – М.: Наука, 1975; шу муаллиф. Лексикология тюркских языков. – М.: Наука, 1984.

²Бафоев Б. Навий асарлари лексикаси. – Т.: Фан, 1983. – Б. 146.

³Меметов А. Вклад Л. Будагова в крымское востоковедение // Развитие востоковедения в Крыму (XI -

начало XX века) // – Симферополь : ИТ Ариал, 2019. – С. 56.

⁴Юсупова А.Ш. “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” Л. Будагова //Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2012. № 5. – С. 223-226. ИСИН 1997-2911.

турецко-татарских наречий” Л.Будагова” maqolasida tatar tiliga oid materiallar yuzasidan olib borgan tadqiq natijasini e’lon qilgan.

МУНОКАМА. L.Budagovning tahlilga tortilayotgan lug’ati bugunga qadar o’zining ilmiy ahamiyatini yo’qotmagan. Sobiq SSSR Fanlar akademiyasi 1960-yilda bu lug’atni ikki marta nashrdan chiqargan. A.N.Kononov bu nashrlarga yozgan Kirish so’zida L.Budagovning asari “Turkiy lug’atlar tuzilish tarixida chuqur iz qoldirganligini alohida ta’kidlagan hamda “Библиографический словарь отечественных туркологов. Дооктябрьский период” (Москва, 1974, yangi nashr 1989) nomli asarida ham L.Z.Budagovning asari bugunga qadar o’zining chuqur ilmiy ahamiyatini yo’qotmagan”ligini tilga olib o’tgan⁵ (Eren, 1998. – S. 123).

L.Budagovning “Сравнительный словарь турецко-татарских наречий” lug’atida mavjud eski o’zbekcha leksemalar tarkibida hid nomlari ham o’rin olgan bo’lib, quyida ulardan ayrimlarini ko’rib o’tamiz.

Hid nomlari: *iyd, id* – “xushbo’y, yoqimli hid” (I, 183), *is* “hid, tutun, sassiq hid; hissiyot, hotira, ong” (I, 192).

“Narsaning sezgi a’zosi (burun)ga ta’sir etish xususiyati va shu ta’sir natijasida yuzaga keluvchi sezgi; hid” (O’TIL, II, 227) ma’nolarini o’zida jamlovchi “*is*” leksemasi hozirgi o’zbek tilida “darak beruvchi belgi, ishora”, “u qadar quyug bo’lmagan, ko’rinar-ko’rinmas tarzdagi tutun, dud”, “yonishdan hosil bo’lgan zararli (zaharli) gaz, ko’mir oksidi, is gazi” (O’TIL, II, 228) ma’nolarini ifodalaydi.

“Tutun”, “dud” ma’nosini ifoda etayotgan “*is*” so’zi qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan va bu ot “*is*” tarzida talaffuz qilingan (MK,I,73); o’sha davrlardayoq *š* undoshi *s* undoshiga almashgan (ESTYA, I, 380), o’zbek tilida *ī* unlisining qattqlik belgisi yo’qolgan: *iš > is > is*. *Is* II “tutun yoki chang sababli hosil bo’ladigan ipir-ipir yopishqoq narsa”. *Yozgi oshxonaning shipidan islar osilib turibdi*. Bu ot “*is*” I otidan ma’no taraqqiyoti natijasida ajralib chiqqan: “tutun” “odatda tutun bilan bog’liq holda yuzaga keladigan narsa” (O’TEL, 122) ga muallif tahlil etilayotgan *is* leksema lug’at-maqolasida “dud, qurum” deya izoh keltiradi. *Is* III “yoqimli hid, bo’y”. Bu ot asli

qadimgi turkiy tilda *yi:s* shakliga ega bo’lib (ESTYA, I, 381), eski o’zbek tilida *y* undoshi talaffuz qilinmay qo’ygan, hozirgi o’zbek adabiy tilida *i:* unlisining cho’ziqlik belgisi yo’qolib bormoqda: *yi:s > i:s > is* (O’TEL, 122). Tahlilga tortilgan *is* leksemasi asarida “1) hid, tutun, sassiq hid; 2) dud, qurum; 3) hissiyot, xotira, ong” kabi semalarni ifodalashi qayd etilgan. “Abushqa”da bu leksemaga quyidagicha izoh berilgan:

ايِس قوقويه درلر بوى معناسنه و عقله دخى درلر وقوقمق معناسنه دخى استعمال اولنور وژنك و پاس معناسنه دخى كلور اما قوقو معناسنه سبعة سياره ده دلارام يىنجى راويه خواجه كندويى صحرا ده بخلو بولدوغى محلى حكايِت ايدوب ايندى بيت يوزلارين سورتوبان اياغيمغه * يخشى ايش لار توتوب دماغيم غه * وينه نسايِم المخبّة ده كه مناقب اوليادر وترجمة نفحات الانسدر مولانا جالال الدين رومى منقبتنده كلور كه ، خادمغه سورديلر كيم اوى دا بيكولوگ نيمه بارمو خادم دييدور كه مطبخ اسبابى مهيايدور آلاَر منفعل بولوب دير ايردى كه بو كون بو اوى (SJT ۵۵) دين فرعون اويى ايسى كيلا دور ،

Is qoquya derlär boy mänäsinä vä äqla дәxi derlär va qoqmäq mänäsinä дәxi istimäl olünür vä jenk u päš mänäsinä дәxi kelür ämmo qoqu mänäsinä Säb’ai säyyorädä dilorom yedinji hojä kendüyi sährodä bäylü büldüyü mähalli hikäyat edüb äytdi

Bäyt: Yuzlärin sürtubon ayoyimya

Yaxši i:slär tütüb dimoyimya

Va yanä Näsoyim ul-mühabbätdä ki Mänoqibi ävliyodir vä Tärjimäti näfohat ül-ünsdir Mävlonö Jäläliddin Rumi mänqibätindä kelür ki, xodimya sordilär kim üyda yegulük nimä bor mü. Xodim debdür ki mütbäx esbäbi mühayyadür älä_r mänfä’il bolüb dir erdi ki bü kün bü öydin fir’avin öyi isi kelädür (SJT. 55).

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Qadimgi turkiy tilda hamda V.V.Radlov, Zenker va Pave de Kurte lug’atlarida *ud* shaklida keltirilgan leksema ushbu uch manbadan tashqari barcha manbalarda *hid* shaklida qayd etilgan. Leksemaning “muattar”, “tutun” ma’nolari ham mavjud bo’lib, “muattar” V.Radlov (RSL, I, 1506), Pave de Kurte (Pav. C. 101) va L.Budagov lug’atlarida “xushbo’y” ma’nosi qayd etilgan, ayni sema Zenker (I,143) da ham uchraydi. “Tutun” semasi tatar hamda boshqird tillarda ko’proq faol bo’lganligini V.Radlov lug’atida ko’rish mumkin (RSL,I, 1523).

⁵ Eren H. Türklük bilimi sözlüğü. – Ankara, 1998. – S. 123.

Har ikki omonimlarning ma'nolari tarkibini bir hil deb hisoblab bo'lmaydi. 3-guruhning ma'nolari *i:s ~ is* "hid"ning *is* "tutun", "*is*" bilan fono-semantik qo'shilishi natijasida (bu hodisa ehtimol ancha keyin amalga oshgan, chunki 3-guruh ma'nolari qadimgi yodgorliklarda uchramaydi) hosil bo'lgan *is* shaklidagi asosga ko'ra kiritilgan. Ko'rilayotgan omonimlar ichidan asosiy qadimgi va eng ko'p tarqalgani sifatida "hid" va o'z navbatida, "hid taratmoq"ni aytish mumkin.

XULOSA. Yuqorida qayd etilgan fe'l-ot shakllardan yasalgan so'zlar quyidagilar: 1) *is-i* - Abushqa(55), *is-le-* DTS (214), *is-ke-/is-ke-/is-ki-* turkiy, o'zbek, uyg'ur va b. "hidni tuymoq", "hidlamoq"; 2) *is-i* Borovkov, *iy-i-* Satibalov, otlari – barchasi "hid" ma'nosida. Ular *i:s ~ is-* ning semantik xususiyatiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi (ESTYA, I, 380-381).

Ma'lumotlarga ko'ra, *is* leksemasi turli ma'no qirralariga ega bo'lgan leksemalardan biri bo'lib, qadimgi turkiy tildan tortib hozirgi o'zbek adabiy tili davrida ham o'z faolligini yo'qotmagan, balki turli davrlarda ma'no doirasi kengayib borgan leksemalardan biridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Т.: Фан, 1983.
2. Budagov, L. Z. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. – СПб., 1869–1871.
3. DTS – Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969.

4. Eren H. Türklük bilimi sözlüğü. – Ankara, 1998. – S. 123.
5. ESTYA – Севортыян Э. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. – М.: Наука, 1974.
6. Меметов А. Вклад Л.Будагова в крымское востоковедение // Развитие востоковедения в Крыму (XI - начало XX века) // – Симферополь : ИТ Ариал, 2019. – С. 56.
7. Мусаев К. Лексика тюркских языков в сравнительном освещении (Западно-кыпчакская группа). – М.: Наука, 1975.
8. Мусаев К. Лексикология тюркских языков. – М.: Наука, 1984.
9. RSL – Радлов. В. В. Опыт Словаря тюркских наречий. – СПб., 1893.
10. SJT – Вельяминовъ-Зерновъ В.В. издатель. Словарь джагатайско-турецкйй. – Санктпетербургъ. Типографія императорской академіи наукъ, 1868.
11. Турсунова Т. Ўзбек тили амалий санъат лексикаси. – Т.: Фан, 1978. – Б. 3.
12. O'TEL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I–V. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006–2008.
13. Юсупова А.Ш. "Сравнительный словарь турецко-татарских наречий" Л. Будагова //Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2012. № 5. – С. 223-226. ИССН 1997-2911.



FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARKIBIDAGI LEKSIK ANTONIMLARNING TURLARI

Mamatkulova Xurshida, CAMU Xalqaro tibbiyot universiteti
"Tillar" kafedrası

TYPES OF LEXICAL ANTONYMS IN PHRASEOLOGICAL UNITS

Mamatkulova Xurshida, CAMU International Medical University,
Department of Languages

ТИПЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ АНТОНИМОВ В СОСТАВЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Маматкулова Хуршида, Международный медицинский
университет CAMU, кафедра "Языки"

<https://orcid.org/0009-0001-9861-7396>

e-mail:

mamatkulovakhurshida@
gmail.ru



Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar tarkibida uchraydigan leksik antonimlarning turlari, ularning semantik, strukturaviy va lingvokulturologik xususiyatlari keng tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida antonimlarning komplementar, kontrar, konversiv va vektor qarama-qarshiliklari asosida tasnifi beriladi. Har bir tur uchun ingliz va o'zbek tillaridan ko'plab misollar keltirilib, ularning badiiy nutqdagi obrazlilikni kuchaytirishdagi o'rni ko'rsatib o'tiladi. Qiyosiy tahlil natijasida har ikki tilda uchraydigan umumiyliklar va farqlar aniqlanadi hamda tarjima jarayonida ekvivalentlik masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: frazeologik birlik, leksik antonim, antonimiya, komplementar, kontrar, konversiv, vektor qarama-qarshilik, lingvokulturologiya.

Abstract: This article provides a detailed analysis of the types of lexical antonyms found in the structure of English and Uzbek phraseological units, as well as their semantic, structural, and linguocultural features. Antonyms are classified based on complementary, contrary, conversive, and vector oppositions. Numerous examples from both English and Uzbek are provided for each type, highlighting their role in enhancing the imagery of literary language. The comparative analysis reveals similarities and differences in the two languages and discusses issues of equivalence in translation.

Keywords: phraseological unit, lexical antonym, antonymy, complementary, contrary, conversive, vector opposition, linguoculture.

Аннотация: В данной статье проводится анализ видов лексических антонимов, встречающихся в составе фразеологических единиц английского и узбекского языков, а также их семантических, структурных и лингвокультурологических особенностей. Антонимы классифицируются на основе комплементарной, контрарной, конверсивной и векторной противоположности. Для каждого вида приводятся многочисленные примеры из английского и узбекского языков, раскрывается их роль в усилении образности художественной речи. В результате сопоставительного анализа выявлены сходства и различия в обоих языках, а также рассмотрены вопросы эквивалентности в переводе.

Ключевые слова: фразеологическая единица, лексический антоним, антонимия, комплементарная, контрарная, конверсивная, векторная противоположность, лингвокультурология.

KIRISH. Frazeologik birliklar tilning eng rang-barang, obrazli va ifodali qatlamini tashkil etadi. Ular nafaqat kommunikativ vosita, balki xalqning madaniy merosi, tarixiy tajribasi va dunyoqarashini ifodalovchi lingvokulturologik birlik sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Frazeologik birliklar tarkibidagi leksik antonimlar esa til tizimida semantik kontrast yaratish, matnning ta'sirchanligini oshirish, ma'noni kuchaytirish va aniqroq yetkazishga xizmat qiladigan muhim vositalardandir. Sh.Rahmatullayevning ta'kidlashicha, antonim tarkibli frazeologik birliklar milliy mentalitet, xalq tafakkuri va ijtimoiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan holda, matnning emotsional-ekspressiv qiymatini sezilarli darajada oshiradi [1].

Tilshunoslikdagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklar tarkibida antonimik qarama-qarshiliklarning mavjudligi nafaqat semantik jihatdan, balki stilistik va pragmatik nuqtayi nazardan ham muhim ahamiyat kasb etadi. L.A.Novikov antonimlarni semantik ziddiyatning turli darajalariga ko'ra komplementar, kontrar, konversiv va vektor antonimlarga ajratadi[2]. D.A.Cruse esa antonimiyaning har bir turini nutqiy kontekstda namoyon bo'lish xususiyatiga ko'ra tasniflab, ularning muloqot jarayonidagi pragmatik yukini alohida qayd etadi [3].

ASOSIY QISM. Frazeologik birliklardagi leksik antonimlar o'zbek va ingliz tilshunosligida doimiy tadqiq etilib, ularning semantik kontrast yaratishdagi hamda milliy dunyoqarashni ifodalashdagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Sh. Rahmatullayev "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"da antonim birliklarni xalq tafakkuri va og'zaki ijod bilan bog'liq barqaror ifodalar sifatida izohlaydi[1]. Masalan, *tog'ni tolqon qiladigan – yuragi po'k* juftligi jasorat va qo'rqqoqlikni keskin qarama-qarshi qo'yadi.

Rus tilshunosligida V.V.Vinogradov antonimik frazeologizmlarni nutqning obrazlilik

va estetik kuchini oshiruvchi vosita sifatida talqin qiladi (1972). A.V.Kunin ingliz tilidagi frazeologizmlarni milliy-madaniy tafakkur bilan bog'liq holda o'rganib, ularning ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarni ifodalashdagi ahamiyatini ko'rsatadi[8]. O'zbek tilshunosligida B. Yo'ldoshev bunday birliklarning uslubiy vazifalarini ta'kidlab, ularning nutqqa ta'sirchanlik bag'ishini qayd etadi[5]. Shuningdek, V.N.Telia frazeologizmlarni lingvomadaniy kod sifatida baholab, ular xalq tafakkuridagi ziddiyatlarni estetik shaklda ifodalashini ko'rsatadi.

Metodologik yondashuvlar orasida qiyosiy-tahliliy metod (ingliz va o'zbek tillaridagi struktura va semantika qiyosi), semantik maydon metodikasi (frazeologizmlarni ma'no maydonlariga ajratish), korpus tahlili (qo'llanish chastotasini aniqlash) va kognitiv yondashuv (tafakkur va konseptual kategoriyalar bilan bog'lash) muhim o'rin tutadi. L.A.Novikov[2] antonimiyani semantik asosda tasniflab, komplementar, kontrar, konversiv va vektor antonimlarni ajratadi. Frazeologik antonimlar asosan kontrar turga mansub bo'lib, voqelikdagi ikki keskin qarama-qarshilikni ifodalaydi. Masalan, ingliz tilidagi *sooner or later* va o'zbek tilidagi *erta-kech* iboralari vaqtning chegaralanganligini bildiradi.

Demak, frazeologik birliklardagi antonimlarni o'rganish nafaqat leksik-semantik tahlil, balki til va madaniyat munosabatlarini yoritishda ham dolzarb bo'lib, ingliz va o'zbek tillarini qiyoslash orqali ularning umumiylik va milliy xususiyatlarini ochishga xizmat qiladi. **XULOSA.** Yuqoridagi izlanishlar ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklar tarkibidagi leksik antonimlar tilning obrazlilik va emotsional-ekspressivligini kuchaytiradi hamda xalq tafakkuri, tarixiy tajribasi va qadriyatlarini aks ettiradi. Ular asosan kontrar antonimlarga asoslanib, keskin qarama-qarshi tushunchalarni ifodalaydi. Shu bilan birga, komplementar, konversiv va vektor antonimlarga asoslangan birliklar ham uchraydi.

Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, ingliz tilida bunday birliklar ko'proq ijtimoiy hayot va shaxsiy fazilatlarini, o'zbek tilida esa axloqiy qadriyatlar va insoniy munosabatlarni tasvirlaydi. Ba'zi juftliklarning boshqa tilda to'liq ekvivalenti bo'lmasligi esa milliy mentalitet va lingvomadaniy xususiyatlar bilan izohlanadi. Masalan, ingliz tilidagi *from rags to riches* iborasi o'zbek tilidagi *cho'ntagi teshikdan tilloga to'lish* bilan ma'nodosh bo'lsa-da, madaniy assotsiatsiyalari farqlidir.

Frazeologik antonimlar ikki asosiy vazifani bajaradi:

Semantik-funksional – ma'noni kuchaytirish va ifodaning ekspressivligini oshirish. **Lingvomadaniy** – xalqning tarixiy tajribasi va qadriyatlarini til orqali aks ettirish.

Demak, bunday birliklarni o'rganish nafaqat lingvistik, balki madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik uchun ham muhim ilmiy manba hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rahmatullayev Sh. *O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati*. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 304 b.
2. Novikov L.A. *Антонимия в русском языке*. – Москва: Высшая школа, 1973. – 256 с.
3. Cruse D.A. *Lexical Semantics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – 312 p.
4. Murphy M.L. *Semantic Relations and the Lexicon: Antonymy, Synonymy and Other Paradigms*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 244 p.
5. Yo'ldoshev B. *O'zbek tilida frazeologizmlarning milliy koloritini ifodalash vositalari*. – Toshkent: Fan, 2010. – 176 b.
6. Mamatov A. *O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari*. – Toshkent: Fan, 2000. – 210 b.
7. Amosova N.N. *Основы английской фразеологии*. – Ленинград: ЛГУ, 1963. – 208 с.
8. Кунин А.В. *Англо-русский фразеологический словарь*. – Москва: Русский язык, 1984. – 944 с.
9. Виноградов В.В. *Очерки по фразеологии русского языка*. – Москва: Наука, 1977. – 312 с.
10. Dobrovolskij D.O., Piirainen E. *Figurative Language: Cross-cultural and Cross-linguistic Perspectives*. – Amsterdam: Elsevier, 2005. – 378 p.
11. Gak V.G. *Сравнительная типология французского и русского языков*. – Москва: Высшая школа, 1989. – 328 с.
12. Cowie A.P., Mackin R., McCaig I.R. *Oxford Dictionary of English Idioms*. – Oxford: Oxford University Press, 1993. – 592 p.



O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA STILISTIKANING TADQIQ ETILISHI VA UNING DOLZARB MUAMMOLARI

Mirjonov Nosir Numonovich, Buxoro davlat pedagogika instituti
"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida o'qituvchisi

RESEARCH ON STYLISTICS IN UZBEK LINGUISTICS AND ITS CURRENT ISSUES

Mirjonov Nosir Numonovich, teacher of the "Uzbek language
and literature" department of the Bukhara State Pedagogical
Institute


ИССЛЕДОВАНИЕ СТИЛИСТИКИ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ И ЕЕ АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ

Миржонов Носир Нумонович, преподаватель кафедры
"Узбекский язык и литература" Бухарского
государственного педагогического института



<https://orcid.org/0009-0007-6966-1922>

e-mail:
nosirmirjonov8@gmail.com



Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek tilshunosligida stilistika fanining shakllanishi, uning asosiy yo'nalishlari va zamonaviy tadqiqotlardagi dolzarb muammolarini tahlil qiladi. Maqolada funksional stilistika, lingvopoetika, matn stilistikasi kabi yo'nalishlarning nazariy asoslari yoritiladi. Shuningdek, adabiy me'yor va stilistik me'yor tushunchalari o'rtasidagi munosabatlar ko'rib chiqiladi hamda stilistik vositalarning nutqdagi o'rni va funksiyalari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: stilistika, funksional stilistika, lingvopoetika, stilistik me'yor, funksional uslublar, til madaniyati, matn stilistikasi, nutq ifodaliligi, uslubiy xoslik.

Abstract: This article analyzes the formation of stylistics as a discipline in Uzbek linguistics, its main directions, and current issues in modern research. The article covers the theoretical foundations of such areas as functional stylistics, linguopoetics, and text stylistics. It also examines the relationships between the concepts of literary norm and stylistic norm, and reveals the role and functions of stylistic devices in speech.

Keywords: stylistics, functional stylistics, linguopoetics, stylistic norm, functional styles, speech culture, text stylistics, expressive speech, stylistic peculiarity.

Аннотация: Данная статья анализирует становление стилистики как науки в узбекском языкознании, ее основные направления и актуальные проблемы в современных исследованиях. В статье освещаются теоретические основы таких направлений, как функциональная стилистика, лингвопоэтика и стилистика текста. Также рассматриваются взаимосвязи между понятиями литературной нормы и стилистической нормы, а также раскрываются роль и функции стилистических средств в речи.

Ключевые слова: стилистика, функциональная стилистика, лингвопоэтика, стилистическая норма, функциональные стили, культура речи, стилистика текста, выразительность речи, стилистическая особенность.

KIRISH. Tilshunoslikning eng muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlgan stilistika nutqning ifodalilik, taʼsirchanlik va oʻrinlilik kabi xususiyatlarini oʻrganadi. Stilistika qadimdan ritorika va poetika kabi sohalar bilan oʻzaro bogʻliq holda rivojlanib kelgan. U tilshunoslikning boshqa boʻlimlari – fonetika, leksikologiya, grammatika bilan ham chambarchas aloqada boʻlib, ulardagi vositalarning uslubiy imkoniyatlarini tahlil qiladi. Stilistika fanining asosiy vazifasi nafaqat til vositalarini stilistik jihatdan farqlash, balki ularning muayyan kommunikativ sharoitda qanday uslubiy maʼno kasb etishini aniqlashdir.

Oʻzbek tilshunosligida stilistik tadqiqotlar XX asrning oʻrtalaridan boshlab faol rivojlana boshladi. M.Abdurahmonov, M.Mukarramov, A.Shomaqsudov, I.Rasulov kabi olimlarning ilmiy ishlari oʻzbek tilining funksional uslublari, stilistik meʼyorlari va nutq madaniyati masalalarini oʻrganishga bagʻishlangan[5]. Shunga qaramay, zamonaviy tilshunoslikdagi yangi ilmiy paradigmalarda stilistika oldiga yangi tadqiqot vazifalarini qoʻymoqda. Bularga, xususan, matn tilining uslubiy-kompozitsion xususiyatlarini oʻrganish, nutqiy vaziyatlarga qarab til vositalarining oʻzgarishini aniqlash va kompyuter texnologiyalari yordamida stilistik tahlil oʻtkazish kiradi.

Maqolaning dolzarbligi stilistika fanining nazariy asoslarini qayta koʻrib chiqish, uning zamonaviy muammolarini aniqlash va ularni hal etish yoʻllarini taklif qilish zaruriyati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi oʻzbek tilshunosligida stilistika fanining bugungi kundagi holatini tahlil qilish, dolzarb muammolarini aniqlash va ularni hal etish boʻyicha ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanilgan:

Nazariy tahlil: Stilistika faniga oid nazariy manbalar, monografiya va maqolalar tahlil qilindi. Jumladan, Sh.Balli, V.V.Vinogradov[1], I.R.Galperin[2], Yu.N.Karaulov[3],

A.Mamazhonov va M.Mukarramov[4] kabi olimlarning qarashlari oʻrganildi.

Tizimli yondashuv: Stilistika fanining boshqa tilshunoslik boʻlimlari bilan oʻzaro bogʻliqligi tizimli tahlil qilindi, bunda tilning barcha sathlari (fonetik, leksik, grammatik) stilistik maqsadlarda qay tarzda qoʻllanishi koʻrib chiqildi.

Qiyosiy-tahliliy metod: Oʻzbek tilshunosligidagi turli olimlarning funksional uslublar boʻyicha qarashlari, jumladan, funksional stillar soni va tasnifi borasidagi tafovutlar qiyoslandi.

Tasniflash metodi: Til birliklarining stilistik funksiyalari va uslubiy tabaqalanishi tasnif qilindi.

Matn tahlili: Badiiy, ilmiy va publitsistik uslubdagi matnlardan olingan misollar tahlil qilinib, ularning uslubiy belgilari asoslab berildi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, stilistika oʻzbek tilshunosligida quyidagi asosiy yoʻnalishlarda rivojlanib kelmoqda:

Funksional stilistika: Bu yoʻnalish adabiy tilning asosiy funksional uslublari (ilmiy, publitsistik, rasmiy-idoraviy, badiiy va soʻzlashuv uslubi) oʻrganadi. Olimlar funksional stillar soni va ularning tasnifi boʻyicha yakdil fikrga kelmaganlar, chunki uslublarni ajratishda turli ekstralingvistik va lingvistik omillar hisobga oʻlingan[1]. Shunga qaramay, har bir uslub oʻzining lugʻaviy tarkibi, grammatik shakllari va sintaktik qurilmalari bilan boshqasidan ajralib turishi aniqlandi.

Lisoniy birliklar stilistikasi: Bu yoʻnalish tildagi fonetik, leksik, morfologik va sintaktik vositalarning uslubiy imkoniyatlarini tahlil qiladi. Jumladan, sinonimlar, antonimlar, omonimlar, soʻz yasash modellari va gap qurilmalari nutqda qanday uslubiy vazifalarni bajarishi oʻrganilgan. Masalan, morfologik uslubiyatda affikslarning uslubiy yuklamasi, sintaktik uslubiyatda esa inversiya, ellipsis kabi vositalarning badiiy nutq ifodaliligini oshirishdagi oʻrni yoritilgan.

Lingvopoetika (badiiy nutq stilistikasi): Bu yoʻnalish badiiy asar tilini tahlil qilishga qaratilgan boʻlib, muallif uslubining oʻziga xosliklarini, badiiy ifoda vositalarining matnda tutgan oʻrnini oʻrganadi[3]. Badiiy uslubning oʻziga xosligi

uning tildagi barcha vositalarni stilistik maqsadlarda erkin qoʻllay olishida namoyon boʻladi.

Stilistika fanining hozirgi bosqichdagi dolzarb muammolari quyidagilardir:

-Funksional uslublar tasnifi muammosi va uslublarning oʻzaro munosabati: Hozirgi kunda ham badiiy uslubning funksional uslublar qatoriga kiritilishi yoki kiritilmasligi masalasi bahsli boʻlib qolmoqda. Baʼzi olimlar badiiy uslubni alohida uslub sifatida emas, balki boshqa uslublarning sintetik koʻrinishi sifatida qaraydilar. Bunday qarashlar asosan badiiy matnning kommunikativ funksiyadan koʻra estetik funksiyani bajarishi bilan izohlanadi. Ushbu munozarani hal etish uchun har bir uslubning oʻziga xos lingvistik va ekstralin-gvistik belgilarini chuqur tahlil qilish zarur. Shu bilan birga, funksional uslublar oʻrtasidagi oʻtish, aralash uslublar (masalan, ilmiy-publitsistik uslub) masalasi ham muhimdir. Yangi media va ijtimoiy tarmoqlar tilida soʻzlashuv, publitsistik va baʼzan badiiy uslub elementlarining aralashib ketishi uslublar orasidagi aniq chegaralarni yoʻqotmoqda, bu esa tilshunoslik uchun yangi tadqiqot obyektini yaratadi.

-Til madaniyati va nutq meʼyori: Globallashuv jarayonida oʻzbek tiliga chet tillardan, ayniqsa, rus va ingliz tillaridan soʻzlar kirib kelmoqda, bu esa til meʼyorlari barqarorligiga taʼsir koʻrsatmoqda. Stilistik tadqiqotlar adabiy meʼyor bilan stilistik meʼyor orasidagi munosabatlarni aniqlab, professional va soʻzlashuv nutqidagi meʼyoriy chekinishlarni oʻrganishi lozim. Bu ayniqsa, publitsistik uslubda juda muhim, chunki ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, internet saytlari) til meʼyoriga eng katta taʼsir koʻrsatadigan manba hisoblanadi. Shuningdek, yoshlar slengi va ijtimoiy guruhlar tilining stilistik xususiyatlarini oʻrganish, nutq madaniyatini oshirishga qaratilgan amaliy takliflarni ishlab chiqish ham zamonaviy stilistikaning dolzarb vazifalaridandir.

-Kompyuter lingvistikasi va matn stilistikasi: Zamonaviy texnologiyalar, xususan, katta hajmdagi matn korpuslari va sunʼiy intellektga asoslangan til modellarining rivojlanishi stilistik tahlil uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Hozircha oʻzbek tilida bu borada tadqiqotlar kam. Elektron korpuslar yordamida turli uslublarning leksik, sintaktik va morfologik xususiyatlarini statistik tahlil qilish, masalan, har bir uslubda qaysi soʻzlar,

feʼl-atvor shakllari yoki gap qurilmalari koʻproq ishlatilishini aniqlash muhim ilmiy vazifalardan hisoblanadi. Bu yangi fan yoʻnalishi — kompyuter stilistikasini rivojlantirishga olib keladi. Bu soha stilistikaning obyektiv va miqdoriy jihatdan oʻrganishga imkon yaratadi va anʼanaviy stilistik tahlilga yangi usullar kiritadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Ushbu tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

-Stilistika oʻzbek tilshunosligining mustaqil va muhim yoʻnalishi boʻlib, uning tadqiqotlari doimiy rivojlanib bormoqda;

-Funksional uslublarni ajratishda olimlar oʻrtasidagi tafovutlar mavjud boʻlib, bu stilistik nazariyani birlashtirishni talab qiladi;

-Til meʼyorlarini saqlash va rivojlantirishda stilistikaning roli beqiyos. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari tilidagi uslubiy meʼyorlarni oʻrganish muhimdir;

-Funksional uslublarning nazariy asoslarini qayta koʻrib chiqish va ularni ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilingan yagona tizimga keltirish;

-Stilistik tahlil uchun kompyuter dasturlarini yaratish va ulardan foydalangan holda katta hajmdagi matn korpuslarini tahlil qilishga eʼtibor qaratish.

-Oʻquv adabiyotlarida stilistika boʻlimini amaliy misollar, jumladan, nutqiy vaziyatlar tahlili orqali yanada boyitish.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Гальперин, И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. - М.: Наука, 1981.
2. Караулов, Ю.Н. Русский язык и языковая личность. - М.: Наука, 1987.
3. Мамажонов, А., Нурмонов, А., Мўминов, С. Ўзбек тили стилистикаси асослари. - Фарғона: Фарғона нашриёти, 2009.
4. Мукаррамов, М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. - Тошкент: Фан, 1984.
5. Sultonsaidova S., Sharipova Oʻ. Oʻzbek tili stilistikasi. Toshkent: Yurist-Media markazi, 2009.
6. Виноградов, В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. - М.: Наука, 1963.
7. Щерба, Л.В. Избранные работы по русскому языку. - М.: Учпедгиз, 1957.
8. Якобсон, Р.О. В поисках сущности языка. - М.: Прогресс, 1983.

O‘ZBEK XALQ MAROSIMLARI

Rahmonova Mahbuba Ravshanovna, Toshkent amaliy fanlar universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasini professori

UZBEK FOLK RITUALS

Rahmonova Mahbuba Ravshanovna, Tashkent University of Applied Sciences Department of Uzbek Language and Literature Professor

УЗБЕКСКИЕ НАРОДНЫЕ ОБРЯДЫ

Рахмонова Махбуба Равшановна, профессор кафедры “Узбекский язык и литература” Ташкентского университета прикладных наук



<https://orcid.org/0009-0006-2422-799X>

e-mail:
rahmonova@gmail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq marosim folklorining shakllanishi, ijtimoiy-madaniy ildizlari va tipologik guruhlariga ajratilish asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, mavsumiy, oilaviy-maishiy va so‘z magiyasiga asoslangan marosimlar folklori alohida ko‘rib chiqilib, ularning har biri xalq og‘zaki ijodi – aytimlar, qo‘shiqalar, duo va tilaklar bilan boyitilganligi yoritiladi. Maqola o‘zbek xalqining ma‘naviy merosini chuqurroq o‘rganish va marosim folklorini tizimli tahlil qilishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: marosim folklori, mavsumiy marosimlar, oilaviy-maishiy marosimlar, so‘z magiyasi, xalq og‘zaki ijodi, animizm, totemizm, qadimiy e‘tiqodlar, zardushtiylilik, islom, marosim qo‘shiqalari.

Annotation: This article analyzes the formation features of Uzbek folk ritual folklore, its socio-cultural roots, and typological classification. Special attention is given to three groups of ritual folklore: seasonal, family-domestic, and word-magic based, enriched with folk oral poetry – songs, spells, prayers, and wishes. The article contributes to a deeper study of the spiritual heritage of the Uzbek people and a systematic analysis of ritual folklore.

Keywords: ritual folklore, seasonal rituals, family-domestic rituals, word magic, folk oral creativity, animism, totemism, ancient beliefs, Zoroastrianism, Islam, ritual songs.

Аннотация: В статье анализируются особенности формирования узбекского народного обрядового фольклора, его социально-культурные корни и типологическое деление. Особое внимание уделяется трём группам обрядового фольклора: сезонным, семейно-бытовым и основанным на словесной магии, обогащённым народной устной поэзией – песнями, заклинаниями, молитвами и пожеланиями. Статья способствует более глубокому изучению духовного наследия узбекского народа и системному анализу обрядового фольклора.

Ключевые слова: обрядовый фольклор, сезонные обряды, семейно-бытовые обряды, словесная магия, народное устное творчество, анимизм, тотемизм, древние верования, зороастризм, ислам, обрядовые песни.

KIRISH. Marosim insoniyat madaniyatining eng muhim shakllaridan biri bo‘lishi bilan bir qatorda, uni rivojlantirish va avloddan avlodga yetkazishdagi samarali vosita ham hisoblanadi. Har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan marosimlari — bu nafaqat diniy yoki ijtimoiy jarayonlarning

yodgorligi, balki xalqning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, urf-odat va qadriyatlarini mujassamlashtirgan muhim ijtimoiy-madaniy hodisadir.

Marosim xalq san‘ati va madaniyati shakllari orasida eng keng auditoriyani qamrab oluvchi, ko‘p hollarda butun jamoatchilik

ishtirokida o'tadigan ommaviy tadbir sifatida e'tirof etiladi. To'y, sunnat, beshik to'yi, o'lan va motam marosimlari kabi turli shakllar orqali xalq o'zining tarixiy xotirasi, diniy e'tiqodi va axloqiy qarashlarini ifodalaydi. Bu marosimlar doirasida o'tkaziladigan odatlar, rasm-rusumlar, aytiladigan qo'shiqlar, laparlar, allalar yoki aytimlar esa og'zaki ijodning eng yorqin namunalaridandir.

Marosimlar xalqning eng yaxshi an'analari, odatlari, axloqiy qoidalarini o'zida mujassamlashtirishi, ularni saqlashi va rivojlantirishi jihatidan alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, bu jihatlar yosh avlodni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Marosimlar orqali yoshlar o'z milliy madaniyati, urf-odatlari bilan tanishadi, ularning mazmun-mohiyatini anglaydi, jamiyatdagi o'rni va mas'uliyatini his qiladi. Masalan, to'y marosimlari orqali oila qadriyati, hurmat, mehmondo'stlik kabi tushunchalar yosh ongiga singdiriladi. Beshik to'yida ishtirok etish esa yangi tug'ilgan bola hayotining muqaddas bosqichlari bilan bog'liq marosimiy qadriyatlarni yoshlar ongida mustahkamlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Marosim – bu ko'pincha an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, asosan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadigan, o'ziga xos tartib-qoidalar va ramziy harakatlarga ega bo'lgan ijtimoiy-madaniy hodisadir. Marosimlar inson hayotining turli bosqichlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular orqali jamiyatda muhim ijtimoiy, diniy, ma'naviy qadriyatlar ifoda topadi hamda avloddan avlodga uzviy ravishda yetkaziladi.

Har bir marosim o'ziga xos ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega bo'lib, u xalq dunyoqarashi, diniy e'tiqodlari, axloqiy qarashlari va estetik didini mujassamlashtiradi. Masalan, aqqa (ism qo'yish) marosimi bolaning jamiyat hayotiga ilk qadamidir. Bu marosimda bola uchun ism tanlash orqali unga ezgu fazilatlar tilanadi, jamiyat oldida uning mavjudligi tan olinadi. Ism tanlashdagi ehtiyotkorlik, diniy yoki tarixiy shaxslar nomini qo'yish an'anasi xalqning e'tiqod va qadriyatlariga sodiqligini ko'rsatadi.

Nikohdan o'tish marosimi esa jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo'lgan oila tuzish jarayonining ramziy ifodasidir. Bu marosim faqat ikki yosh o'rtasidagi munosabatni emas, balki ikki urug', ikki avlod, ikki oilaning

yaqinlashuvi sifatida ham qaraladi. Unda aytiladigan qo'shiqlar, bajariladigan marosimiy harakatlar sevgi, sadoqat, burch, mehr-oqibat kabi tushunchalarni targ'ib qiladi.

Dafn qilish va xotirlash marosimlari esa inson hayotining yakuniy bosqichiga nisbatan jamiyatning hurmat va ehtiromini ifodalaydi. Bu marosimlar o'limdan keyingi hayot, ruhiy poklanish, ajdodlar xotirasiga hurmat kabi diniy-falsafiy g'oyalarni o'zida mujassam etgan. Xususan, xotirlash marosimlarida o'tkaziladigan o'qish, duolar, sadaqalar nafaqat marhumga, balki jamiyat a'zolariga ham ruhiy tasalli beradi.

Ekish (urug' qadash) va o'rimga kirishish marosimlari esa agrar jamiyatlarda tabiiy sikl va inson mehnati uyg'unligini ifodalovchi marosimlardir. Bu kabi marosimlarda yerga, suvga, hosilga nisbatan e'tiqod, shukronalik va hurmat ifoda etiladi. Ular ko'pincha xalq og'zaki ijodi bilan uyg'unlashgan bo'lib, o'lanlar, duotilaklar, marosimiy qo'shiqlar orqali boyitilgan. Hosildorlikni tilash, yomon kuchlardan himoyalash, mo'l-ko'lchilikka ishonch kabi ramziy g'oyalar marosimga baraka va muqaddaslik tusini beradi.

Shu bilan birga, barcha marosimlar jamiyatdagi ijtimoiy birlashuv, guruhiy birdamlik va milliy identitetni mustahkamlovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali kishilar o'zini muayyan jamoaga tegishli deb biladi, urf-odatlarini anglaydi va ularni saqlashga intiladi.

Marosimlar hech qachon bevosita, biror sabab yoki asos bo'lmasdan yuzaga kelmaydi. Ular ijtimoiy hayot, diniy qarashlar, ishlab chiqarish faoliyati va madaniy ehtiyojlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, maqsadli tarzda, ya'ni muayyan vaqt, o'rin va sharoitda maxsus uyushtiriladi. Marosimlar asosan xalqning tarixiy tajribasi, qadimiy urf-odatlari, diniy-falsafiy tushunchalari hamda estetik qarashlari asosida shakllanadi va etnografik mohiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek marosimlari o'z tarkibida xalqning qadimiy animistik, totemistik, fetishistik qarashlarini hamda zardushtiylik va islom e'tiqodlarining izlarini saqlab qolgan. Bunday sivilizatsiyaviy qatlamlar marosimlarning nafaqat tashqi ko'rinishida, balki mazmunida, harakatlar tizimida, ramziy belgilarida va ular bilan bog'liq

aytim, qo‘shiq, duo va tilaklarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Marosimlar o‘tkazilish vaqti, o‘rni, tartibi, ishtirokchilari va ijodkorlarining funksiyasiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. Shu jihatdan ularni quyidagi uch asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. Mavsumiy marosimlar folklori. Bu turdagi marosimlar yil fasllari, tabiat sikllari va dehqonchilik ishlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, asosan bahor (Navro‘z), yoz (hosil yig‘im-terimi), kuz (hosil bayramlari) yoki qish (qishloq hayoti) bilan bog‘liq tadbirlarda namoyon bo‘ladi. Ularda tabiat kuchlariga murojaat, baraka tilash, mo‘l-ko‘lchilikni so‘rash singari qadimiy e‘tiqodlar aks etadi. Masalan: Navro‘z, Sumalak sayli, urug‘ qadash, o‘rim boshlash marosimlari va hokazo.

2. Oilaviy–maishiy marosimlar folklori. Bu guruhga inson hayoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan marosimlar – tug‘ilish, sunnat, to‘y, nikoh, dafn va xotirlash kabi tadbirlar kiradi. Ular oila institutining mustahkamligi, ijtimoiy birdamlik va ajdodlarga hurmat kabi qadriyatlarni targ‘ib qiladi. Marosimlarda aytiladigan alla, to‘y qo‘shiq, laparlar, marosimiy duo va tilaklar bu tur folklorning asosi hisoblanadi.

3. So‘z magiyasiga asoslangan marosimlar folklori. Bu guruhga sehrli kuchga ega, deb e‘tiqod qilingan so‘zlar va iboralar orqali amalga

oshiriladigan marosimlar kiradi. Ular ko‘pincha qadimiy diniy qarashlar – animizm, totemizm, shamanizm bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘z tegishdan saqlanish, darddan forig‘ bo‘lish, tabiat kuchlarini nazorat qilish kabi maqsadlarda bajarilgan. Bu turdagi marosimlarda duolar, afsunlar, niyatlar, la‘natlar yoki duo-quvvatlar muhim o‘rin tutadi. Misol uchun, chaqaloqni “ko‘z tegish”dan saqlash uchun aytiladigan aytimlar yoki duo marosimlari bunga misoldir.

XULOSA. O‘zbek marosim folklori xalq ruhiyatining eng qadimiy, eng boy qatlamlarini o‘zida mujassam etgan. U nafaqat xalq hayotining og‘zaki tarixini, balki diniy-falsafiy dunyoqarashlarini, estetik qarashlarini ham ifodalaydi. Shu bois, marosim folklori xalq madaniyatini anglashda, uni saqlash va o‘rganishda beqiyos ilmiy ahamiyat kasb etadi. Marosimlarning uch asosiy tipologik guruhga ajratilishi bu murakkab hodisani tizimli tahlil qilish, o‘zbek xalqining boy ma‘naviy dunyosini chuqurroq anglash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. X. Nurmatov. O‘zbek xalq musiqasi. Toshkent: Oqituvchi nashr. 1998-y.
2. Sh.Raximov. Co‘olgu ijroco‘iligi va ansambli. Dutor. Fan nasos‘riyoti. 2007-y.



NUTQIY AKT STRATEGIYALARI

*Saparova Surayyo Baxtiyor qizi, Urganch davlat universiteti
o'qituvchisi*

STRATEGIES OF SPEECH ACTS

*Saparova Surayyo Bakhtiyor kizi, teacher at Urgench State
University*

СТРАТЕГИИ РЕЧЕВЫХ АКТОВ

*Сапарова Сурайё Бахтиёр кызы, преподаватель
Ургенчского государственного университета*



<https://orcid.org/0000-0002-6863-905X>

e-mail:

saparovasurayyo25@gmail.com



Annotatsiya: Ushbu maqolada tadqiqotchilar S.Levinson va P.Braun nazariy qarashlari asosida nutqiy etiket strategiyalari batafsil yoritib berilgan. Xorazm hududi aholisi nutqida ifodalanuvchi nutqiy etiket birliklari strategik guruhlariga ajratib izohlangan. Xususan, maqolada muloqot jarayonida anglashilmovchilik, xafagarchilik kabi noxush vaziyatlarning oldini olish uchun kommunikantlar strategiyasini baholash, yondashuv usullarini o'rganish muhim hisoblanishi muallif nuqtayi nazarlari asosida izohlangan.

Kalit so'zlar: lingvopragmatik yondashuv, nutqiy etiket strategiyalari, pozitiv strategiya, negativ strategiya, direktiv strategiya, nodirektiv strategiya, tagma 'no.

Abstract: This article the speech etiquette strategies are thoroughly analyzed on the basis of the theoretical views of S. Levinson and P.Brown. The speech etiquette units expressed in the speech of the Khorezm region population are classified into strategic groups and explained. In particular, the article interprets, from the authors' perspective, the importance of evaluating communicants' strategies and approaches in order to prevent unpleasant situations such as misunderstandings and grievances during communication.

Keywords: linguopragmatic approach, speech etiquette strategies, positive strategy, negative strategy, directive strategy, non-directive strategy, implicit meaning.

Аннотация: В данной статье подробно освещаются стратегии речевого этикета на основе теоретических взглядов С.Левинсона и П.Брауна. Единицы речевого этикета, выраженные в речи населения Хорезмского региона, классифицированы по стратегическим группам и проанализированы. В частности, в статье с позиции авторов подчеркивается важность оценки стратегий и подходов коммуникантов для предотвращения неблагоприятных ситуаций, таких как недоразумения и обиды, возникающие в процессе общения.

Ключевые слова: лингвопрагматический подход, стратегии речевого этикета, позитивная стратегия, негативная стратегия, директивная стратегия, недирективная стратегия, подтекст.

KIRISH**(ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).**

Nutqiy etiket birliklarini tadqiq qilishda bir amalga oshirilgan tadqiqot ishi o'zidan keyin amalga oshirilmoqchi bo'lgan tadqiqotlarga nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. E.Goffman ilmiy qarashlari S.Levinson va P.Braun va boshqa

ko'plab tadqiqotchilar uchun asoslovchi manba bo'lib xizmat qilgan. XXI asr tadqiqotlari S.Levinson va P.Braun nazariy qarashlari asosida shakllanib, birmuncha yangiliklar ham joriy qilingan. Nutqiy etiket birliklarini etiket qoidalariga monand ekanligini aniqlashda

muomala madaniyatining asosiy xususiyat va tamoyillari asosida lisoniy birliklar sharhlanadi.

Nutqiy akt jarayonlarida ko'ngilsiz holatlar ko'pchilikni tashkil etib, odatda fikr egasi tomonidan keyinchalik o'z nuqtayi nazariga qo'shimcha izoh berilishini yoki izoh talab etilishini kuzatish mumkin. Muloqot jarayonidagi bu kabi noxush vaziyatlarning oldini olish uchun kommunikantlar strategiyasini baholash, yondashuv usullarini o'rganish muhim hisoblanadi. S.Levinson va P.Braunlar nazariy qarashlari asosida tadqiqotchi H.Turdiyeva nutqiy etiket strategiyasini 4 turga ajratib talqin qiladi [2.:21-23]. Tadqiqotchi ifodalagan *pozitiv strategiya, negativ strategiya, direktiv strategiya va nodirektiv strategiya* mohiyati misollar vositasida yoritib berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/MATERIALS AND METHODS).

Nutqiy etiket strategiyalari haqida gap borar ekan, ingliz tadqiqotchilari S.Levinson va P.Braun nazariy qarashlari asosida E.V.Sviridova ham nutqiy etiketga aloqador 4ta strategiyani belgilaydi: oshkora (bevosita) xushmuomalalik, salbiy xushmuomalalik, ijobiy xushmuomalalik va sukut (bilvosita) xushmuomalalik [1.:171]. Ushbu strategiyalar adresat va adresant propozitsiyasidagi birliklarni nutqiy etiket birligini yoki etiket talablariga zid ekanligini aniqlashda muhim o'rin tutadi. Chunki bir qarashda etiket belgisiga ega emasday ko'ringan lisoniy birliklar vaziyat taqozosi bilan bilvosita yoki salbiy xushmuomalalik kabi strategiyalar mohiyatidan anglashilgan talablar asosida nutqiy etiket birligi sifatida qaralishi mumkin. Ular nutq paytidagi so'zlovchi munosabatini baholaydi.

MUHOKAMA

(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). P.Braun va S.Levinsonlarning "face" (ijtimoiy yuz) tushunchasi asosida tizimlashtirgan turli nutq strategiyalari [4.: 101-285] G'arb va Sharq tadqiqotlarida asosiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Ularning nazariyasiga mansub kommunikant maqsadini ifodalashdagi so'zlovchi nutqi strategiyalarining mohiyatini to'plangan sheva materiallari asosida quyidagicha izohlash mumkin.

1. Pozitiv strategiya suhbatdoshning ijtimoiy yaqinligini e'tirof etish, do'stona munosabat

yaratish, uni suhbatga jalb qilish, hurmat va samimiyat bildirish orqali yuzaga chiqadi. Bu strategiyaning maqsadi suhbatdoshga "men sizni tushunaman", "men sizga yaqinman" degan insoniy yaqinlikni his qildirish, ijobiy yuzini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Misollar: "Go'tarishinmi, yordam garakmasmi", "So'rivarib joniza deydik hang, shapkasi topilmadimi?", "Shu go'ynakni giysam bo'lamikan". Ushbu strategiya, asosan, do'stlar, yaqinlar, ish muhitidagi samimiy munosabatlar doirasida qo'llanadi.

2. Negativ strategiya suhbatdoshning mustaqilligini hurmat qilish, ehtiyotkorlik bilan murojaat qilish, boshqalarning ishiga aralashmaslik, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noqulayliklardan qochish usulidir. Bu strategiyaning asosiy maqsadi suhbatdoshga bosim o'tkazmaslik, majburiylik tug'dirmaslik, uning salbiy yuzini saqlashdan iborat. Misollar: "Siza malol galmasa, bir savolim bor", "Iloji bo'lsa, shuni chiqarib barolmisizmi, iltimos", "Uzr gech bo'lganda bezovta attim, hisobot nusxasini so'rijak adim", "Uzr, sizdan bir narsa iltimos atjak adim, vaqtiz bomi hozir", "Eshikni baklab giradila, uylarizda eshik bormi". Odatda, rasmiy vaziyatlar, notanishlar bilan suhbat, shunchaki tanishlarga, katta yoshdagilarga (yoki lavozim, ilmiy unvon) murojaatda qo'llaniladi.

3. Direktiv strategiya suhbatdoshga biror ishni bajarishni so'rash, buyurish, maslahat berish orqali yo'naltirish usulidir. Bu strategiyada so'zlovchi to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatishga intiladi. Uning maqsadi suhbatdoshga harakat qilishni buyurish yoki tavsiya qilish orqali yetkazishdir. Ba'zan bu strategiya aniq, qat'iy, ba'zan esa yumshoq shaklda bo'ladi. "Eshikni baklabaring", "Tortmadaki qoshiqni olibaring". Ko'pincha, yaqin insonlar orasida ustoz-talaba, do'stlar, ota-ona va farzand, aka-ukalar munosabatlarida qo'llaniladi. Notanishlarga yoki kam tanishlarga bunday to'g'ridan to'g'ri murojaat qilinishi salbiylik sifatida baholanadi.

4. Nodirektiv strategiya ochiqcha buyruq bermasdan, bilvosita tarzda yo'naltirish, taklif, istak, maslahat kabi yumshoq shakllar orqali ifodalanadi. Bu usul suhbatdoshning ixtiyoriga qoldiriladi. Uning maqsadi harakatni bajartirishga intilish, lekin bosimsiz, diplomatik tarzda amalga oshirish, suhbatdoshga tanlov imkonini

qoldirishdan iborat. “Agar bu fikr hammaga ma’qul bo’lsa, qo’l kutarib ovoz barib qo’ysaq yaxshi bo’lar adi”, “Shuni topshirmasdan aldin atsak bo’lmasmi!”, “Aldin kutubxonaga borib keyin bozora o’tsak bo’lami, na disiz?” Tengdoshlar (kasb, ilmiy unvon, yosh jihatdan), o’zidan kattalar yoki kichiklar o’rtasida hurmat yuzasidan, munosabatda ehtiyotkorlik zarur bo’lgan holatlarda qo’llaniladi. H.Turdiyeva bu strategiyani “ilmoqli birliklar” deya e’tirof etadi[2.:22]. P.Braun va S.Levinsonlar “tagma’noli” ekanligini ta’kidlab, ko’p qirrali ifoda shakli ekanligiga urg’u berishadi[4.: 211].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS).

Keltirilgan misollarda kuzatiladiki, P.Braun va S.Levinson ifodalagan strategiyalarning barchasi hudud aholisi nutqida kuzatiladi.

Strategiya turi	“Face”ga ta’siri	Suhbatdoshga munosabat	Harakatga chaqiruv	Nutq ohangi
Pozitiv	Yaqinlashtiruvchi	Samimiy, iliq	Bilvosita	Do’stona
Negativ	Masofani saqlovchi	Hurmatli, ehtiyotkor	Bilvosita	Rasmiy, muloyim
Direktiv	Majburiy, yo’naltiruvchi	Qat’iy	To’g’ridan to’g’ri	Qat’iy
Nodirektiv	Tanlov beruvchi	Diplomatik, ehtiyotkor	Bilvosita	Yumshoq

Ushbu strategiyalar shaxslarning xarakterida tarbiya, yillar davomida kuzatuv va boshqa ijtimoiy omillar asosida shakllangan bo’ladi.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА (REFERENCES/ ADABIYOTLAR RO’YXATI):

1. Е.Б.Свиридова. О принципе вежливости в аргументативном дискурсе. 2010.

Nutqiy etiket birliklaridan o’rinli foydalanish adresat va adresantning kognitiv muhiti orasidagi moslashuvni yuzaga chiqaradi. Bu kognitiv moslashuvchanlikka lingvopragmatik tadqiqotlarni o’qish-o’qitish jarayonlariga keng tatbiq qilish orqali erishish mumkin. Xususan, noto’g’ri nutqiy etiket birliklarini qo’llash orqali fikrlar qarama-qarshiligi yuzaga kelishi, anglashilmovchilikka sabab bo’lishi mumkin. Shu nuqtayi nazaridan ham nutqiy etiket birliklari strategiyalarini o’rganish vaziyatni to’g’ri baholashda va bu orqali munosabatlarning to’g’ri shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

(ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Umumiy xulosalovchi jadval:

2. X.K.Turdiyeva. Нуткий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи. Диссертация. – Тошкент, 2020.
3. О.Анчимиук Речевой этикет в произведениях русской литературы XIX века. – Б.: 2020.
4. P.Braun, S.Levinson. Politeness: Some universals in language usage. Cambridge university press. 1987.



HAKIM TERMIZIY SINONIMIYA NAZARIYASINING ARAB TILSHUNOSLIGIDAGI MAVJUD NAZARIYALARDAN FARQI

Muhammadjonov Fathiddin Muhiddin o'g'li, O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi Arab tili va adabiyoti "al-Azhar" kafedrasida magistri

THE DIFFERENCE BETWEEN HAKIM TERMIZI'S THEORY OF SYNONYMY AND THE EXISTING THEORIES IN ARABIC LINGUISTICS

Muhammadjonov Fathiddin Muhiddin o'g'li, Master's student at the Department of Arabic Language and Literature "Al-Azhar", International Islamic Academy of Uzbekistan

ОТЛИЧИЕ ТЕОРИИ СИНОНИМИИ ХАКИМА ТЕРМИЗИ ОТ СУЩЕСТВУЮЩИХ ТЕОРИЙ В АРАБСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Мухаммаджонов Фатхиддин Мухиддин оглы, магистр кафедры арабского языка и литературы "Аль-Азхар" Международной исламской академии Узбекистана



<https://orcid.org/0009-0009-9139-6349>

e-mail:

fathiddinmuhammad@gmail.com



Annotatsiya: X asrda yashab ijod etgan, o'zining tasavvuf ta'limotlari asosida shakllangan lingvistik qarashlari bilan arab tilshunosligi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk vatandoshimiz Hakim Termiziyning sinonimiya nazariyasi borasida arab tilshunosligidagi mavjud nazariyalardan farqli qarashlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Hakim Termiziy, sinonimiya, arab tilshunosligi, tasavvuf, semantik farqlar, Qur'on tafsiri, nahv, lug'atshunoslik, arab tili grammatikasi, leksikologiya, til nazariyasi, Ibn Qutayba, Abu Hilal Askariy, Ibn Jinniy, Rog'ib Isfahoniy.

Abstract: Information is provided about the views of our great compatriot Hakim Termizi, who lived and worked in the 10th century, and who made an invaluable contribution to the development of Arabic linguistics with his linguistic views formed on the basis of Sufi teachings, regarding his theory of synonymy and its differences from the existing theories in Arabic linguistics.

Key words: Hakim Termizi, synonymy, Arabic linguistics, Sufism, semantic differences, Qur'an interpretation, grammar, lexicology, Arabic language grammar, linguistic theory, Ibn Qutayba, Abu Hilal al-Askari, Ibn Jinni, Raghīb al-Isfahani.

Аннотация: Приводится информация о взглядах нашего великого соотечественника Хакима Тирмизи, который жил и творил в X веке и внес неоценимый вклад в развитие арабского языкознания своими лингвистическими воззрениями, сформированными на основе суфийского учения, в частности о его теории синонимии и её отличиях от существующих теорий в арабском языкознании.

Ключевые слова: Хаким Тирмизи, синонимия, арабское языкознание, суфизм, семантические различия, толкование Корана, грамматика, лексикология, грамматика арабского языка, теория языка, Ибн Кутайба, Абу Хилал Аскарри, Ибн Джинни, Рагиб Исфাহани.

КИРИШ (INTRODUCTION).

Ajdodlarimiz ilmiy merosini tadqiq qilish, shu jumladan, alloma Hakim Termiziy ilmiy faoliyatini o'rganishga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi "Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2774 sonli¹ hamda 2017-yil 24-mayda "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2995 sonli qarori muhim o'rin tutadi². Ushbu qarorlar yurtimizda filologiya yo'nalishida alloma Hakim Termiziyning tilshunoslikka oid ilmiy merosini chuqur o'rganish zarurati mavjudligini asoslaydi.

Alloma Hakim Termiziyning "al-Furuq va man'u-t-taroduf" (الفروق ومنع الترادف – "Farqlar va sinonimiyaning yo'qligi") asarida "taroduf" (الترادف – sinonimiya)ga doir muhim qarashlar jamlangan. Allomaning sinonimiyaga oid qarashlari arab leksikologiyasi taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Biroq olimning ayni asardagi sinonimiyaga oid qarashlari hanuzgacha batafsil o'rganilmagan. Mazkur maqola tanlangan mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW). Dunyo tilshunosligi, xususan, arab tilshunosligida Hakim Termiziyning arab tili leksikologiyasiga oid asarlari maxsus tadqiq etilgan. Jumladan, bugungi kunda tadqiqotchilar allomaning tilshunoslikka oid asarlarini ilmiy tadqiq qilish, ularni nashrga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori // <https://lex.uz/docs/-3211987>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi" // <https://lex.uz/docs/-3211987>.

³ Avayza K. Al-Hakim At-Termiziy al-faqih an-noqid. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1993.; Baraka A. Al-Hakim At-Termiziy va nazariyatuhi fil-valoya. Qohira: Majmaa al-buhus al-islomiya, 1971.; Soyih A. Al-Hakim At-Termiziy // Xatm al-avliyo lil-Imom al-hofiz al-Hakim At-Termiziy. Nashrga tayyorlovchi A.Soyih. –Qohira: Maktaba as-saqofa ad-diniya, 2008.; Yahyo U. Muqaddima omma // Kitob xatm al-avliyo. Bayrut: al-Maktaba al-kosulikiya, 1965.; Juyushiy, M.I. Al-Hakim At-Termiziy –dirosatun li-osorihi va afkorihi. Qohira: Dor an-nahza al-arabiya, 1980.; Huzayyan R. Al-Hakim At-Termiziy va manhajuhu al-hadisiy fi Navodir al-usul. –Qohira: Dor al-oyoq, 1998.;

tayyorlash ishlarini olib borib uning asarlari kodikologiyasini tuzish, olimning hayoti va ilmiy faoliyatini yoritish ustida ish olib bormoqdalar. Unga ko'ra arab olimlaridan X.Zahriy, K.Avayza, A.Baraka, R.Huzayyan, A.Soyih, U.Yahyo, H.Abdulqodir, S.Avo va N.Munajjid kabi olimlarning tadqiqotlarida Hakim Termiziy hayoti, uning yozib qoldirgan qur'onshunoslik va arab tilshunosligiga doir asarlari haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan³.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH ETHODOLOGY). Ushbu tadqiqotda tavsifiy, leksik-semantik, qiyosiy, zidlash metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Hakim Termiziy sinonimiya nazariyasi arab tilshunosligidagi mavjud nazariyalaridan farqlanishida uning tasavvufiy va arab tilining grammatikasiga oid qarashlari muhim o'rin egallaydi. Alloma arab tiliga mukammal til sifatida qaragani bois, arab tilidagi so'zlarning asl mohiyatini anglabgina diniy ta'limotlarni to'liq anglash mumkinligi haqidagi fikrni ilgari suradi. Arab tilining grammatik qoidalari orqali oyatlarning botiniy ma'nolarini ochib berishni maqsad qiladi. So'zlar yasalishi masalasiga tasavvufiy tus berib, harf-so'z-ma'no o'rtasida uzviy bog'liqlik borligini muqaddas matnlar asosida isbotlaydi. Arab lug'atshunosligida sinonimiya hodisasini rad etib,

Zahriy X. Hakim Xuroson va anis az-zamon. –Rabot: ar-Riyoza al-muhammadiya lil-ulamo, 2013; Zaydon H. Muqaddima // Tahsil nazoir al-Qur'on lil-Hakim At-Termiziy. Nashrga tayyorlovchi H.Zaydon. Qohira: Matbaatu-s-saoda, 1969–70.; Al-Avo S.M. Al-Vujuh van-nazoir fil-Qur'on al-karim. Bayrut: Dor ash-shuruq, 1998; Munajjid N.M. Al-Ishtirok al-lafziy fil Qur'on al-karim: bayna an-nazariya vAt-tatbiq. Damashq: Dor al-fikr, 1999.; Çift S. Hakim Tirmizi ve tasavvuf anlayışı. Istanbul: İnsan yayinlari, 2008.; Kaya S. Hakim etTirmizi'de vücüh ve nezâir. –Istanbul: Ragbet, 2016; Uyar M. Hakim Et-Tirmizi'nin 'Risâletü keyfiyyeti's–sülûk ila rabbi'l-âlemîn' adli eserinde bireysel bir çaba olarak uzlet, halvet ve keşf süreci. –Samsun: Ondokuz Mayıs Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi, Aralık/December 2018. –S. 209–242.; Abdurrezâk A. Hakîm Tirmîzî'nin psikoloji anlayışında öğrenme ve algılama. Bursa: T.C.Uludağ Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Cilt: 11, Sayı:2, 2002. –S. 237–250.; İşitan.

ma'nodosh so'zlar qalb-nafs ziddiyati asosida farqli mazmun kasb etishini qayd etadi⁴.

Sinonimiya hodisasi tilshunos va usulshunos olimlar o'rtasida atroflicha muhokama qilingan fundamental masalalardan bo'lib, arab tilshunoslik ilmi (اللغة فقه) kitoblarida yoritilgani bilan e'tiborga molik. Shu jumladan, sinonimiyani inkorini yoqlovchi bir qancha tilshunos olimlar so'zlar orasidagi semantik farqlar tahliliga to'liq va qisman bag'ishlangan kitoblar ta'lif etganlar:

Abul Hilal Askariy (920-1005). "al-Furuq al-lug'oviyya" (الفروق اللغوية) "Lug'aviy farqlar") asarida olim so'zlar orasidagi nozik semantik farqlarni tahlil qilib, sinonimiyaning mavjudligini inkor etadi. Ibn Qutayba (828-889) "Adab al-Katib" (أدب الكاتب) "Yozuvchining odobi). Ushbu asarda Ibn Qutayba ayrim so'zlar orasidagi semantik farqlarni ko'rsatib, sinonimiyaning mavjudligini shubha ostiga oladi. Abu Muhammad al-Qosim ibn Muhammad At-Tag'olibiy ham o'zining "Fiqh al-Lug'o va asror al-Arobiyya" (فقه اللغة وأسرار العربية) "Til ilmi va arab tili sirlari") arab tilidagi so'zlar orasidagi nozik farqlarni tahlil qiladi. Tilshunos olim ibn Faris (940-1004) "al-Sohibi fi fiqh al-lug'o" sinonimiyani to'liq inkor etib, har bir so'z o'ziga xos ma'noga ega ekanligini ta'kidlaydi. Aynan ibn Farisning qarashlari Hakim Termiziyning sinonimiya masalasidagi qarashlariga o'xshash.

Termiziy yashagan yoki shunga yaqin davrlarda tilda sinonimiya hodisasini inkor etgan va yoqlagan bir qancha arab tilshunos olimlari bo'lsa-da, alloma o'zining bu boradagi qarashlarida farqli jihatlarga ega. Jumladan, yuqorida zikr qilingan tilshunos olimlardan ibn Qutaybaning (828-889) sinonimiyani shubha ostiga olgani ma'lum. Lekin olim o'zining "Adab al-Katib" va "Ta'vilu mushkil al-Qur'on" (التأويل في مشكل القرآن o'rinlari ta'vili) asarida sinonimik ifodalar borasida fikr yurita turib, sinonimik yaqinlikni

qisman tan oladi. U sinonimiya haqida quyidagicha fikr bildiradi:

وقد نجد في القرآن الكلمة والكلمتين والمعاني متقاربة، ولكن لكل واحدة وجه وموقع ليس للآخر⁵.

"Biz Qur'onda bir yoki ikki so'zning o'zaro yaqin ma'nolarda kelishini topamiz, biroq har birining o'ziga xos qiyofasi va kelish joyi bor, bu boshqa so'zga tegishli emas".

Ibn Qutaybaning ushbu fikri orqali uning Qur'onda sinonim so'zlar mavjudligini e'tirof etganini, ammo ularning nozik ma'no farqlari bor degan fikrni nazarda tutganligini anglashimiz mumkin. Uning qarashicha, sinonimiya kontekstga bog'liq bo'ladi. Alloma Abu Bakr Anbariyning (884-940) ham sinonimiya inkori borasidagi qarashlarida Termiziyga muxolif bo'lgan bir qancha o'ziga xos farqlarni uchratishimiz mumkin. Anbariy so'zlarning qo'llanishidagi farqlariga e'tibor bergan. U muqaddas matnlar va arab she'riyatidan misollar keltirgan holda, har bir sinonim so'z o'z kontekstiga qarab tanlanadi degan fikrni ilgari suradi.

كل لفظتين اتفقتا في المعنى، واختلفتا في اللفظ، فكل واحدة منهما موضع لا يصلح فيه غيرها، لافتراق الاستعمال⁶.

"Har ikki so'z ma'noda bir xil bo'lsa-da, lafzda farq qilsa, har biri o'z o'rnida ishlatiladi. Biri qo'llanadigan joyda boshqasi ishlatilmaydi, chunki iste'molda tafovut bor".

So'zlarning semantik farqlarini tahlil qilgan olim Abu Hilal Askariyning ham sinonimiya masalasida o'ziga xos qarashi mavjud bo'lib, aytadiki:

كثير من الناس يظن أن معاني الألفاظ المترادفة واحدة، وليس كذلك، لأن لكل لفظاً منها معنى يخصها، لا تؤدي غيرها مؤداها⁷.

"Ko'p odamlar sinonim so'zlarning ma'nolari bir deb o'ylaydi, aslida unday emas. Chunki har bir so'zning o'ziga xos ma'nosi bor, uni boshqasi to'liq ifoda eta olmaydi".

Abu Hilal Askariy ta'lif etgan kitob "al-Furuq al-lug'oviyya" asari nomidan Askariy

⁴ Usmonov Ibrohim. Ishoriy nahvga tasavvufiy yondashuvlar: Hakim Termiziy qarashlari // Chet (arab) tili zamonaviy ta'limida vosita til muammosi va innovatsion yondashuv mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2024. –B. 215.

⁵ ابن قتيبة، تأويل مشكل القرآن، تحقيق: السيد أحمد صقر، دار إحياء التراث العربي، بيروت، 1973، ص. 25.

⁶ أبو بكر أنباري محمد بن القاسم. الزاهر في معاني كلمات الناس. تحقيق: محمد بشير. القاهرة: مكتبة الخانجي، 1992، ص. 17.

⁷ أبو هلال العسكري الحسن بن عبد الله. الفروق في اللغة. تحقيق: محمد إبراهيم سليم. بيروت: دار العلم للملايين، 1998، ص. 5.

Hakim Termiziy kabi sinonimiyani mutloq inkor etgan degan fikr paydo bo'lishi tabiiy. Biroq Askariy yuqorida keltirilganidek, الألفاظ المترادفة "sinonim lafzlar" iborasini qo'lladi va bir so'z boshqa so'zning ma'nosini ifoda eta olmasligini bayon qildi.

XULOSA (CONCLUSION). Hakim Termiziy tasavvuf ta'limotiga aloqador so'zlarning ma'nolarini sharhlagani bois asarlarida tahlil qilingan so'zlarning barchasi lingvistik nuqtayi nazardan sinonim emas. Hakim Termiziy yuqorida keltirilgan arab tilshunos olimlaridan farqli o'laroq konseptual shaklda sinonimiya paradigmasini semada leksemalarni bemalol almashtirib qo'llash deya talqin qilgan. Allomaning ushbu qarashi ko'proq bugungi kunda absolyut sinonimiya tushunchasiga ko'proq mos keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Qo'chqorov O. O'zbek tilining sinonimlar lug'ati. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. – 912 b.
2. Madrahimov A. Sinonimlar va ularning uslubiy xususiyatlari. –Toshkent: Fan, 1982. – 180 b.
3. Rasulov T. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksikologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1984. – 224 b.
4. Normurodov Yo. Sinonimlar semantikasi va uslubiyati. – Toshkent: Fan, 1993. – 200 b.
5. At-Termiziy, al-Hakim Muhammad ibn Ali. Al-Furuq va man'-u-taroduf. M.Juyushiy nashrga tayyorlagan. Qohira: Iymon nashriyoti, 2005. – 328 b.
6. At-Termiziy, al-Hakim Muhammad ibn Ali, Tahsil nazoir al-Qur'on. –Qohira: Dor al-kutub va al-vasoiq al-Misriya. ⊖ Inv. № 19516/1. – 176 b.
7. At-Termiziy, al-Hakim Muhammad ibn Ali. Tahsil nazoir al-Qur'on.–Iskandariya. Maktaba baladiya al-Iskandariya. Qo'lyozma. Inv. № 3585/11. – 159 b.



**QARSHI MAGISTRAL KANALINING
QASHQADARYO IRRIGATSIYA TIZIMINI
RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI**

*Eshmirzayev Ziyodulla Olimjon o‘g‘li, Axborot texnologiyalari va
menejment universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

**THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE KARSHI
MAIN CANAL IN THE DEVELOPMENT OF THE
IRRIGATION SYSTEM OF KASHKADARYA**

*Eshmirzayev Ziyodulla Olimjon oglu, independent researcher at the
University of Information Technologies and Management*

**РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КАНАЛА КАРШИ В
РАЗВИТИИ ИРРИГАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ
КАШКАДАРЬИ**

*Эшмирзаев Зийёдулла Олимджон оглы, независимый
исследователь Университета информационных технологий и
управления*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qarshi magistral kanali, uning o‘lka ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati, uning tarixi to‘g‘risida fikr yuritilgan. Shu bilan birgalikda o‘lkada paxtachilikni rivojlantirish bahonasida Sovet Ittifoqining aholini majburiy tarzda ko‘chirish siyosati va uning oqibatlariga ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: QMK, Sredazgiprovodxlopok, Qarshi cho‘li, Qarshistroy.

Annotation: This article examines the Karshi main canal, its role and importance in the socio-economic life of the region, and its history. At the same time, he also touched upon the policy of the Soviet Union on forced resettlement of the population and its consequences under the pretext of developing cotton farming.

Keywords: QMK, Sredazgiprovodkhlopok, Qarshi desert, Qarshistroy.

Аннотация: В данной статье рассматривается каршинский магистральный канал, его роль и значение в социально-экономической жизни края, его история. В то же время он также затронул политику Советского Союза по принудительному переселению населения и ее последствия под предлогом развития хлопководства.

Ключевые слова: КМК, Средазгипроводхлопок, пустыня Карши, Каршистрой.

KIRISH. Qarshi Magistral Kanali (QMK) – O‘zbekistonning janubi-sharqidagi Qarshi vodiysida joylashgan, yirik sug‘orish tizimi bo‘lib, o‘zining tarixiy va iqtisodiy ahamiyati bilan ajralib turadi. Kanaldan foydalanish, asosan, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, paxta ishlab chiqarishni oshirish va mintaqaning iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash maqsadida boshlangan. Ushbu kanal

tarixiy rivojlanish jarayonida qishloq xo‘jaligi va hududni suv bilan ta‘minlashda katta rol o‘ynagan. QMKning ahamiyati shundan iboratki, Qashqadaryo viloyatining 335 ming gektar, ya‘ni viloyati hududining 34 foizini, O‘zbekiston umumiy yer maydonining 28,6 foizini sug‘ormoqda¹.

ASOSIY QISM. 1954-yili Qarshi cho‘lini sug‘orish uchun Amudaryodan mashina yordamida

<https://orcid.org/0009-0002-9755-0326>

e-mail:

ziyodullaeshmirzayev@gmail.com



¹ Raximov A.E. Qarshi cho‘lining o‘zlashtirish tarixi: dissertatsiya... tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD): 07.00.01. – T. 2024. – B.22.

suv chiqarish masalasini birinchi marotaba “Sredazgiprovodxlopok” instituti ko‘rib chiqqan² bo‘lib, shu bilan birgalikda u Qarshi cho‘lini sug‘orish va o‘zlashtirish ishlarida eng muhim tadqiqotlarni ham olib borgan.

Qarshi magistral kanalini doimiy suv bilan ta‘minlash uchun Amudaryoning o‘rta oqimida to‘g‘on qurilishi va bu to‘g‘on Qarshi magistral kanali va Qoraqum kanalini (Turkmaniston hududida) muntazam ravishda suv olishini ta‘minlash uchun qurilishi rejalashtirilgan³. Amudaryoda Qiziloyoq⁴ to‘g‘on qurilishi Turkmaniston SSR Ministrlar Sovetining 1962-yil 18-iyuldagi 136-sonli qarorida ma‘qullangan⁵. Obyektni loyihalash ishlari uchun loyiha institutiga mazkur gidrotexnik inshootning loyihasini tuzish muddati 1964-yil 1-iyun kuni belgilangan. S.Y.Juk nomidagi “Gidropoyekt” institutining Kuybishev filiali tomonidan 1965–1966-yillar davomida Qarshi magistral kanali va Qoraqum kanalining Amudaryodan doimiy va uzluksiz suv olish imkoniyatlarini yaxshilash maqsadida, Qiziloyoq gidrouzelinining 20ta texnik namunaviy variantlari tayyorlangan. Qiziloyoq gidrouzelinining qurilishi murakkab texnik vazifa bo‘lib, 1976-yilda Qiziloyoq gidrouzelinini ishga tushirish rejalashtirilgan bo‘lsa-da, mazkur masala o‘z yechimini topmagan.

Ma‘lumki, sovet davlati o‘z hukmronligi yillarida respublikaning tabiiy boyliklarini o‘zlashtirish va markazga tashib ketishga qaratilgan tadbirlarni olib bordi. Xususan, “Qarshi cho‘li yerlarini jadal ravishda sug‘orish va o‘zlashtirish, tabiiy boyliklarni qidirib topish, hududda ishchi kuchini shakllantirish zarurati bu yerga ko‘p sonli mehnat resurslarini jalb qilishni taqozo etdi. Shu sababli, qo‘riq xo‘jaliklariga mehnat resurslarini yetkazib beruvchi asosiy manbalar sifatida Kitob, Shahrisabz, Qarshi, Ulyanov, Koson, Yakkabog‘, Chiroqchi, Qamashi, G‘uzor va Dehqonobod tumanlari singari aholi ko‘p yashaydigan vohalar hamda yer kam bo‘lgan tog‘ yonbag‘ri va tog‘li tumanlar tanlandi”.

1962-yilning martida Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish bo‘yicha dastlabki harakat boshlandi. O‘zlashtirishni izchil amalga oshirish maqsadida respublikaning turli hududlaridan ko‘plab oilalar “majburiy-ixtiyoriy” tarzda ko‘chirib keltirildi. Xususan, “Aholini Qarshi cho‘llariga tashkiliy ravishda ko‘chirishning butun davri mobaynida u yerga 600 ta oila ko‘chib borgan, xolos. Bugungi kunga qadar ulardan 40 ta oila yashab qolgan. 1969-yilda SSSR Ministrlar Soveti Qarshi cho‘lining yuqori zonasidagi yerlarni sug‘orish va o‘zlashtirish loyihasi birinchi navbatini tasdiqladi. Unga ko‘ra 200 ming ga yerni sug‘orish va o‘zlashtirish, bu yerlarda 43 ta xo‘jalik tashkil etish belgilandi. Ulardan 36tasi paxtachilik, 3tasi bog‘dorchilik-uzumchilik, 2tasi chorvachilik va 2tasi yem-xashak yetishtiruvchi davlat xo‘jaliklari edi.

1963-yil 26-avgust kuni Qarshi magistral kanali qurilishiga ilk tamal toshi qo‘yilgan bo‘lsa, kanalning qazish ishlari 1964-yilning 18-avgustida boshlangan. Qarshi magistral kanali eng ko‘p mehnat va texnik imkoniyatlarni talab qilgan irrigatsiya inshootidir. Ushbu kanalni o‘zining funksional xususiyatlariga ko‘ra ikki asosiy qismga bo‘lib ko‘rsatish mumkin: bosh (mashina) va ishchi (o‘zi oqar) qism.

Kanalning bosh qismi Amudaryoning Pulizindon burnidan boshlanib, shimol tomonga⁶ birinchi nasos stansiyasigacha, qariyb 20 kilometrni, Qarshi magistral kanali mashina qismidagi birinchi nasos stansiyasidan oltinchi nasos stansiyagacha bo‘lgan kanal bo‘ylab oraliq masofa 55,6 kilometrni, kanalning nasos stansiyalari va Tallimarjon suv omboriga suv tashlaydigan 7-nasos stansiyalari oralig‘idagi umumiy masofa 58,6 kilometrni tashkil etadi. Qarshi magistral kanalining Tallimarjon suv omboridan Qashqadaryogacha bo‘lgan 73,5 km ishchi qismidagi 22 km o‘zani beton qoplamasi bilan qoplangan. Uning umumiy uzunligi 290 metr, eni 70-100 metr, chuqurligi 5,5 metrni tashkil etadi. Kanalning asosiy vazifasi Amudaryo suvini Qarshi

² Ирригация Узбекистана. Том III.— Ташкент: Фан, 1979. — С. 86.

³ Джаманкараев С.Д., Бузунов И.А. Руслыые деформации при эксплуатации оросительных систем в низовьях Амударьи. Нукус: Каракалпакстан, 1979. С. 13.

⁴ Qiziloyoq – Turkmanistonda 1959-yil 4-martga qadar mavjud bo‘lgan tuman nomi.

⁵ O‘zMA, R.2743-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 699-yig‘majild, 1-varaq.

⁶ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: 2005. – Б. 75.

choʻlidagi qurgʻoqchil, asosan ekin maydonlariga yetkazib berishdan iborat edi.

Tallimarjon suv ombori Qarshi choʻlidagi xoʻjaliklarni suv bilan taʼminlovchi majmuanining bir qismi boʻlibgina qolmay, undan Qarshi magistral kanali orqali 380,5 ming gektar yerlarni sugʻorish moʻljallangan.

Qashqadaryo viloyatining Kitob, Shahrisabz, Yakkabogʻ tumanlari daryo suvlaridan, Nishon, Koson, Gʻuzor, Kasbi va Qarshi tumanlari Qarshi magistral kanali hisobidan yaxshi taʼminlangan. Viloyatning qolgan tumanlari suv resurslari bilan yaxshi taʼminlanmagan⁷. Baʼzi xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda suv resurslarining bevosita aholi bandligiga taʼsiri oʻrganilgan. Biroq bilvosita taʼsiri ham alohida oʻrganilishi lozimdir. Bunda turizm, xizmat koʻrsatish, transport va boshqa tarmoqlarda band boʻlgan aholining barqaror ish joylariga ega boʻlishi suv resurslari bilan bogʻliqligi alohida koʻrib chiqilishi lozim, deb hisoblaymiz. Xizmat koʻrsatish obyektlarining suv manbalariga yaqin joylashishi ayni zaruriy shartlardan biridir. Ana shu manbalarning keskin kamayishi mos holda xizmat koʻrsatishga taʼsir koʻrsatadi. Oxir-oqibat aholining doimiy ish bilan bandlik imkoniyatlarini kamaytiradi. 2017-yildagi statistik maʼlumotlarga qaraganda, Oʻzbekiston Respublikasi qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligida ish bilan band aholi soni hududlar kesimida tahlil etilganda, eng yuqori koʻrsatkichlar Sirdaryo viloyati boʻyicha (jami bandlar soniga nisbatan ulushi 48%), Jizzaxda – 41,8%, Surxondaryoda – 36,9%, Xorazmda – 35,6 foiz, Buxoroda – 30,2 foiz, Qoraqalpogʻiston Respublikasida – 29,9%, Qashqadaryoda – 28,2% ni tashkil etadi. Ish bilan band aholi sonining asosiy qismi (27,3 foizi) qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi sohalaridaligini hisobga olsak, bu bevosita mintaqa qishloq xoʻjaligining qay darajada suv resurslari bilan taʼminlanganligiga bogʻliqligini belgilab beradi.

1972-yil 20-martda Oʻzbekiston KP MQ va OʻzSSR Ministrlar Soveti tomonidan “Qarshi magistral kanaliga suv ochishni jadallashtirish toʻgʻrisida”gi qaror qabul qilindi⁸. Oʻzbekiston KP MQ va respublika hukumati mazkur qarorga asosan Zarafshon vodiysi va Amudaryo oraligʻidagi yangi

yerlarni sugʻorish va oʻzlashtirishni kuchaytirish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Natijada kanal qurilishi hududida Tallimarjon, Doʻstlik, Nishon kabi shahar tipidagi posyolkalar barpo etildi. Qarshi magistral kanali ishga tushirilgandan keyin 1974-yildayoq “Qarshistroy” davlat xoʻjaliklarida 87,5 ming tonna paxta yetishtirildi. Keyingi yilda qoʻriqda yetishtirilgan yalpi paxta xomashyosi 170 ming tonnaga yetdi.

XULOSA. QMK mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy hayotida katta oʻringa ega boʻlgan daryolardandir. QMKning umumiy uzunligi 290 metrni tashkil etib, u Qarshi choʻlidagi qurgʻoqchil, asosan ekin yetishtiriladigan maydonlarga suvni yetkazib beradi.

Oʻtgan asrning 50-60-yillaridan boshlab, mashina yordamida suv chiqarish masalasi koʻrila boshlandi. Bundan koʻzlangan asosiy maqsad atrofdagi foydalanilmayotgan qoʻriq va boʻz yerlarda dehqonchilikni (paxta yetishtirish) rivojlantirish edi. Shuning uchun Amudaryoning oʻng va chap sohillari boʻylab bir qator kanallar va suv omborlari qurildi. Ming afsuslar boʻlsinkin, suvdan bunday foydalanishning natijasi qanday oqibatlarga olib kelganligini bugungi kunda barcha his etmoqda.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Raximov A.E. Qarshi choʻlining oʻzlashtirish tarixi: dissertatsiya... tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD): 07.00.01. – T. 2024. – B.22.
2. Ирригация Узбекистана. Том III.– Ташкент: Фан, 1979. – С. 86.
3. Джаманкараев С.Д., Бузунов И.А. Русловые деформации при эксплуатации оросительных систем в низовьях Амударьи. Нукус: Каракалпакстан, 1979. С. 13.
4. Qiziloyoq – Turkmanistonda 1959-yil 4-martga qadar mavjud boʻlgan tuman nomi.
5. OʻzMA, R.2743-jamgʻarma, 1-roʻyxat, 699-yigʻmajild, 1-varaq.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: 2005. – Б. 75.
7. Ibragimov L, Muminjonova S. Hududlarni iqtisodiy rivojlanishida yer va suv resurslarining ahamiyati //Eurasian Journal of Academic Research, 24. 2023.
8. Об ускорении пуска воды в Каршинский магистральный канал // Правда Востока, 22 марта 1972 г.

⁷ Ibragimov L, Muminjonova S. Hududlarning iqtisodiy rivojlanishida yer va suv resurslarining ahamiyati //Eurasian Journal of Academic Research, 24 January 2023.

⁸ Об ускорении пуска воды в Каршинский магистральный канал // Правда Востока, 22 марта 1972 г.

PARONIMLAR VA OMONIMLARNING LINGVISTIK

FARQLARI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL

*Xudjayeva Ra'noxon Mutalibjonovna,**Alfraganus universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori*

LINGUISTIC DIFFERENCES BETWEEN

PARONYMS AND HOMONYMS: THEORETICAL

AND APPLIED ANALYSIS

*Khudjaeva Ranokhon Mutalibjonovna, Associate Professor of**Alfraganus University, Doctor of Philological Sciences*

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ РАЗЛИЧИЯ ПАРОНИМОВ

И ОМОНИМОВ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И

ПРИКЛАДНОЙ АНАЛИЗ

*Худжаева Ранокхон Муталибжоновна, доцент университета**Альфраганус, доктор филологических наук*

Annotatsiya: Ushbu maqolada paronimlar va omonimlarning lingvistik farqlari beshta asosiy mezon – fonetik-grafik shakl, semantik bog‘liqlik, grammatik xususiyat, stilistik qo‘llanish va kontekstga bog‘liqlik asosida tahlil qilindi. Paronim va omonim birliklarning to‘g‘ri farqlanishi tilshunoslikning nazariy hamda amaliy sohalarida, xususan tarjima, stilistika, lingvodidaktika va matnshunoslikda muhim ahamiyat kasb etishi ko‘rsatildi. Maqolada, shuningdek, bu birliklarni o‘qitish metodlari va amaliy tahlil yondashuvlari ham yoritildi.

Kalit so‘zlar: paronim, omonim, fonetik o‘xshashlik, semantik bog‘liqlik, grammatik xususiyat, stilistika, kontekst, tarjima.

Abstract: This article analyzes the linguistic differences between paronyms and homonyms based on five key criteria: phonetic-graphic form, semantic relation, grammatical features, stylistic usage, and contextual dependence. It is shown that the accurate distinction of these units is of great significance both in theoretical and applied linguistics, particularly in translation studies, stylistics, language teaching, and text linguistics. The paper also highlights methodological approaches to teaching and practical analysis of these lexical phenomena.

Keywords: paronym, homonym, phonetic similarity, semantic relation, grammatical category, stylistics, context, translation.

Аннотация: В данной статье рассмотрены лингвистические различия между паронимами и омонимами на основе пяти ключевых критериев: фонетико-графическая форма, семантическая связь, грамматическая характеристика, стилистическое употребление и зависимость от контекста. Показано, что правильное разграничение данных единиц имеет важное значение как в теоретическом, так и в прикладном языкознании, в частности в переводоведении, стиллистике, лингводидактике и текстоведении. В статье также освещены методические подходы к их обучению и анализу.

Ключевые слова: пароним, омоним, фонетическое сходство, семантическая связь, грамматическая категория, стиллистика, контекст, перевод.

KIRISH. Tilshunoslikning leksikologiya alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bu hodisalar til bo‘limida paronimlar va omonimlar masalasi tizimida shakl va ma‘no munosabatlarini



<https://orcid.org/0000-0001-6790-4344>

e-mail:

xudjayevaranoxon@na-voiy-uni.uz



o'rganishda markaziy o'rin tutadi. Paronim va omonimlarning tashqi shakldagi o'xshashligi sababli ular ko'pincha bir-biriga yaqin deb talqin qilinadi, biroq ichki semantik va funksional xususiyatlari keskin farqlanadi. Shu bois mazkur birliklarni to'g'ri farqlash tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Paronimlar va omonimlar masalasi ko'plab tilshunos olimlarning ilmiy izlanishlarida alohida o'rin egallagan. Masalan, A.V.Superanskaya, O.S.Ahmanova, V.V.Vinogradov¹ kabi rus tilshunoslari paronim va omonimlarni leksik birliklarning shakl-semantik munosabatlari doirasida o'rgangan. Ingliz tilshunosligida J.Lyons, R.Carter, D.Crystal² kabi olimlar ushbu hodisalarni semantik maydon, polisemantik tuzilish va leksik tizimning paradigmatic aloqalari asosida tahlil qilganlar. O'zbek tilshunosligida esa M.Sattorov, A.Madvaliyev, R.M.Xudjayeva³ va boshqa olimlarning tadqiqotlarida paronimlar va omonimlarning o'ziga xos xususiyatlari hamda ularning amaliy qo'llanishdagi muammolari keng yoritilgan.

Mazkur hodisalarni o'rganishning nazariy ahamiyati bilan bir qatorda, ular lingvodidaktika, matnshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida ham muhim o'rin tutadi. Chunonchi, paronimlarning uslubiy sezgirligi tufayli ularni noto'g'ri qo'llash matnning mazmuniy yaxlitligini buzishi mumkinligi ta'kidlangan (V.Vinogradov). Omonimlarning esa kontekstual tahlil orqali farqlanishi til tizimining ko'p ma'nolilik, polisemantik imkoniyatlarini ochib beradi (J.Lyons). Shu jihatdan, paronim va omonimlarni to'g'ri farqlash, ularning qo'llanish imkoniyatlarini aniqlash nazariy tilshunoslikda ham, amaliy tahlil jarayonlarida ham muhim ilmiy vazifa sifatida qaraladi.

Ushbu maqolada paronimlar va omonimlarning lingvistik tabiatini aniqlash,

ularning asosiy mezonlari va tasnifiy belgilari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, mavjud ilmiy qarashlar tahlili asosida mazkur birliklarning tilshunoslik, tarjima amaliyoti va stilistik qo'llanishdagi ahamiyati yoritiladi.

ASOSIY QISM. TAHLILLAR.

Paronimlar va omonimlar o'rtasidagi farqlarni aniq belgilash uchun beshta muhim mezon mavjud:

1. Fonetik-grafik shaklga oid o'xshashlik.

Paronimlarning asosiy xususiyati – ularning talaffuz va yozilishda yaqinligi, ammo to'liq bir xil emasligi. Masalan, “sharaf” (obro', yuksak izzat) va “sharob” (spirtli ichimlik) so'zlari bir-ikki tovush farqi bilan aytiladi va yoziladi. Shu jihatdan ularni omonimdan farqlash mumkin, chunki omonimlarda yozilish ham, talaffuz ham bir xil bo'ladi.

2. Semantik bog'liqlik. Paronimlar ma'noda yaqinlikka ega bo'lishi mumkin, chunki ko'p hollarda ular bir ildizga tayanadi. Masalan, “afzal” (ustun, yaxshiroq) va “abzal” (kerakli, ma'qul) so'zlari semantik jihatdan bir-biriga yaqin, har ikkalasi ham ijobiy ma'noga ega. Lekin ularning qo'llanish sohasi turlicha: biri ko'proq solishtirishda, ikkinchisi maslahat va tavsiyada qo'llanadi.

3. Grammatik xususiyat. Paronimlar ko'pincha bir xil yoki yaqin turkumga mansub bo'ladi. Masalan, “tarif” (narx-navoni belgilash ma'nosida ot) va “ta'rif” (vasf, tavsif ma'nosida ot) har ikkisi ham ot turkumiga mansub. Biroq ularning grammatik funksiyasida farq bor: biri iqtisodiy munosabatlarda, ikkinchisi esa til va nutq sohasida qo'llanadi.

4. Stilistik va pragmatik qo'llanish. Paronimlar juda “injiq” bo'lib, noto'g'ri ishlatilsa, ma'no buzilishiga olib keladi. Masalan, “enlik” (mato yoki kiyimning kengligi) bilan “ellik” (son – 50) so'zlari o'xshashligi sabab ba'zan adabiy nutqda chalkashib ketishi mumkin. Birinchi so'z ko'proq

¹ Суперанская А.В. Общая терминология: Вопросы теории. – М.: Наука, 1989. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. – М.: Высшая школа, 1972.

² Lyons J. Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. Carter R. Vocabulary: Applied Linguistic Perspectives. – London: Routledge, 1987. Crystal D. A

Dictionary of Linguistics and Phonetics. – Oxford: Blackwell, 2008.

³ Сатторов М. Matnning lingvistik tahlili. – Toshkent: Fan, 2009. Madvaliyev A. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. ³ Xudjayeva R.M. O'zbek va ingliz tillaridagi omonimlarning chog'ishtirma tadqiqi. Monografiya. – Toshkent, 2024. 207 b.

maishiy va turmush sohasida, ikkinchisi esa hisob-kitobda ishlatiladi.

5. Kontekstga bog‘liqlik. Paronim va omonimlarni farqlashda kontekst asosiy vosita hisoblanadi. Masalan, “sog‘liq” (inson salomatligi) va “sovliq” (urg‘ochi qo‘y yoki echki) so‘zlari faqat kontekst orqali to‘g‘ri anglanadi. Agar “sog‘liqni saqlash” iborasida ishlatilsa, u inson salomatligi haqida; agar “sovliq qo‘y” desak, u chorvachilikka oid tushuncha bo‘ladi.

Ilmiy asos. Paronim va omonim birliklarni farqlash nafaqat leksik-semantik tahlil uchun, balki amaliy tilshunoslikda ham dolzarbdir. Ushbu jarayonda quyidagi yondashuvlar muhim hisoblanadi:

-Kontekstual tahlil – omonimlarning haqiqiy ma‘nosini aniqlashda yagona metod sifatida xizmat qiladi;

-Stilistik bo‘yoqdorlik – paronimlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi matnning uslubiy yaxlitligini buzishi mumkin;

-Tarjima amaliyoti – har bir tilning semantik tizimi turlicha bo‘lgani uchun paronim va omonimlarni ekvivalent tanlash jarayoni murakkablik tug‘diradi;

-Grammatik tahlil – so‘zlarning gapdagi vazifasini aniqlash orqali ular o‘rtasidagi farqni ochib beradi;

-Etimologik tahlil – kelib chiqish manbalarini o‘rganish orqali chalkashliklarning oldi olinadi.

Shuningdek, metodik nuqtayi nazardan, bu birliklarning o‘qitilishi kontekstual mashqlar, izohli lug‘atlar va vizual taqqoslash asosida olib borilishi samarali natija beradi.

XULOSA. Paronimlar va omonimlar o‘rtasidagi farqlarni fonetik, semantik, grammatik, stilistik va kontekstual mezonlar asosida izchil aniqlash lingvistik tahlilni chuqurlashtirish va aniqroq natijaga erishish imkonini beradi. Ushbu mezonlarning birgalikda qo‘llanilishi leksik birliklarning shakl va ma‘no jihatidan farqlanishini aniqlabgina qolmay, balki ularning nutqdagi kommunikativ vazifasini ham ochib beradi. Mazkur hodisalarni to‘g‘ri farqlash bir necha muhim jihatlarga xizmat qiladi:

-matnni semantik jihatdan chuqur va tizimli anglash imkonini yaratadi;

-nutqda stilistik aniqlik va ifoda ravonligini ta‘minlaydi;

-tarjima jarayonida denotativ va konnotativ xatolarning oldini olishga yordam beradi;

-o‘quvchilarda leksik sezgirlikni rivojlantirib, kontekst asosida so‘zlarni to‘g‘ri talqin qilish malakasini shakllantiradi;

-matnshunoslik va stilistik tahlilda leksik birliklar o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurroq o‘rganish imkonini beradi.

Paronimiya va omonimiya hodisalarini izchil o‘rganish lingvistik nazariya bilan amaliyot o‘rtasida muhim ilmiy ko‘prik vazifasini bajaradi. Chunonchi, paronimlarning stilistik sezgirliги va omonimlarning kontekstual farqlanish xususiyatlari lingvodidaktik jarayonlarda, tarjima amaliyotida hamda nutq madaniyatida muhim qo‘llanma sifatida xizmat qiladi.

Xususan, o‘zbek va ingliz tillaridagi birliklarni kontrastiv tahlil qilish orqali ularning universallik va milliy xususiyatlarini aniqlash mumkin. Bu esa, bir tomondan, umumiy tilshunoslik doirasida nazariy yondashuvlarni boyitadi, ikkinchi tomondan esa ta‘lim, tarjima, matnshunoslik va stilistik amaliyotda samarali qo‘llaniladigan uslubiy vositaga aylanadi.

Shunday qilib, paronimlar va omonimlarni tizimli o‘rganish nafaqat leksikologik nazariya rivoji, balki ularning qo‘llanilishidagi amaliy samaradorlikni ham ta‘minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 464 b.
2. Xudjayeva R.M. O‘zbek va ingliz tillaridagi omonimlarning chog‘ishtirma tadqiqi. Monografiya. – Toshkent, 2024.
3. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-5 jildlar. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.
5. Cruse D.A. Lexical Semantics. Cambridge University Press, 1986.
6. Lyons J. Semantics. Cambridge University Press, 1977.

O'QUVCHILARNI QO'RQUV VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYALASHDA RAQAMLI TA'LIMNING O'RNI

Saydimova Mushtari Kurbondurdiyevna, Yangi asr universiteti o'qituvchisi

THE ROLE OF DIGITAL EDUCATION IN PROTECTING STUDENTS FROM FEAR AND VIOLENCE

Saydimova Mushtari Kurbondurdiyevna, Lecturer at the University
"Yangi asr"

РОЛЬ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ЗАЩИТЕ УЧАЩИХСЯ ОТ СТРАХА И НАСИЛИЯ

Сайдимова Муштари Курбондурдыевна, преподаватель университета
"Янги аср"



<https://orcid.org/0009-0009-5634-0358>

e-mail:

mushtariy88@mail.ru



Annotatsiya: Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning qo'rquv va zo'rvonlikdan himoyalash muammosi hamda bu jarayonda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Qo'rquv va zo'rvonlikning turli ko'rinishlari, jumladan, kiberbullingning bolalar psixologiyasi va ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilingan. Maqolada ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarning bilish qobiliyati, qiziqishlari va salohiyatini hisobga olish zarurligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: qo'rquv, zo'rvonlik, kiberbulling, raqamli ta'lim, mustaqil fikrlash, psixologiya, individuallashtirish, ta'lim samaradorligi.

Annotation: The article highlights the issues of protecting students in general secondary education institutions from fear and violence, as well as the effective use of digital learning opportunities in this process. Various forms of fear and violence, including cyberbullying, and their impact on children's psychology and the learning process are analyzed. The article emphasizes the necessity of individualizing the learning process by taking into account students' cognitive abilities, interests, and potential.

Keywords: fear, violence, cyberbullying, digital education, independent thinking, psychology, individualization, learning effectiveness.

Аннотация: В статье освещаются проблемы защиты учащихся общеобразовательных школ от страха и насилия, а также вопросы эффективного использования возможностей цифрового обучения в данном процессе. Анализируются различные формы страха и насилия, включая кибербуллинг, и их влияние на психологию детей и учебный процесс. В статье подчеркивается необходимость индивидуализации учебного процесса с учетом познавательных способностей, интересов и потенциала учащихся.

Ключевые слова: страх, насилие, кибербуллинг, цифровое обучение, самостоятельное мышление, психология, индивидуализация, эффективность обучения.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Pedagogik va psixologik adabiyotlarda o'quvchilarni qo'rquv va zo'rvonlikdan himoyalashga qaratilgan psixologik jarayonning ayrim jihatlari


(jumladan, raqamli vositalar va mobil qurilmalar orqali) o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarga duch kelish mumkin. Biroq mavjud tadqiqotlarda ko'p hollarda asosiy muammoga e'tibor qaratilgan bo'lib, raqamli ta'lim muhitini hisobga olgan

holda muhim ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy psixologik xususiyatlar to'g'risida yetarli ma'lumotlar keltirilmagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ \ LITERATURE ANALYSIS). Qo'rquv inson psixologiyasida tabiiy himoya mexanizmi hisoblanadi. Bu holat turli yoshda har xil shaklda namoyon bo'ladi. Bolalarda qo'rquv ko'pincha irsiy (genetik), muhit (ijtimoiy muhit), ta'lim jarayonidagi munosabatlar va shaxsiy taassurotlar ta'sirida shakllanadi.

Psixologlar fikricha, qo'rquv bolaning ruhiy barqarorligi va faolligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi[1].

Amerikalik psixolog J.B.Uotson o'zining bixevioristik yondashuvida qo'rquvni tashqi tajribalar ta'sirida yuzaga keluvchi shartli refleks sifatida ta'riflangan. Masalan, "ko'pincha bolalar tabiiy holatda qo'rquv hissini namoyon qilmaydi, balki bu holat atrofdagilarning reaksiyasi yoki boshidan o'tkazgan salbiy tajriba bilan bog'liq" deb ta'kidlaydi[2].



Psixologiyada qo'rquv tushunchasi "xavf" tushunchasi bilan chambarchas bog'langan bo'lib, xavfga reaksiya sifatida namoyon bo'ladigan fiziologik, bixevioral va kognitiv jarayonlarni qamrab oladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Zo'ravonlik – bu bir shaxs yoki guruhning boshqalarga nisbatan jismoniy, so'z bilan, psixologik yoki iqtisodiy shaklda bosim o'tkazishi, tahdid solishi, tahqirlashi va nazorat qilishga asoslangan salbiy ijtimoiy fenomenidir. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida esa bu holat o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi va hatto o'quvchi-ota-ona munosabatlarida kuzatilishi mumkin[3].

Pedagogik psixologiyada ta'kidlanishicha, zo'ravonlik holatlari ko'pincha maktabdagi ijtimoiy munosabatlar tizimining muvozanatsizligi bilan bog'liq. Bu muammolarni bartaraf etish uchun jamoaviy ishlash, muloqot madaniyatini shakllantirish va profilaktik choralar talab etiladi.

Qo'rquv va zo'ravonlikning ta'limdagi ta'siri ko'p qirrali bo'lib, bolaning ta'limga bo'lgan

munosabati, ijtimoiy faolligi, shaxsiy rivojlanishi va hatto sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bir qator tadqiqotlarda aniqlanganidek, qo'rquvga moyil bolalar:


- o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotadi;
- sinfda faol qatnashmaydi;
- boshqalar bilan muloqotdan qochadi;
- ta'lim sifatidan ortda qoladi.

O'quvchilarni qo'rquv va zo'ravonlikdan himoya qilish qobiliyati, aslida ularning aqliy rivojlanish darajasi bilan bog'liq holda baholanadi. Bu jarayonda mustaqil fikrlash qobiliyatini aniqlash uchun qator mezonlar – jumladan, ma'lumotlarni o'zlashtirish tezligi, tafakkur jarayonining egiluvchanligi hamda fikrlashning aniq kognitiv komponentlari hisobga olinadi. Mastaqil fikrlash tushunchasi mohiyati jihatidan umumiy aqliy qobiliyatlar tushunchasiga yaqin bo'lib, raqamli ta'lim jarayonida o'quvchilarni qo'rquv va zo'ravonlikdan himoyalashda muhim omil hisoblanadi. Bu umumiy aqliy qobiliyalar

majmuasi o'quv faoliyatida talab etiladigan bir qator qobiliyatlarni

o'z ichiga oladi. Jumladan, ta'limiy ma'lumotlarni xotirada saqlab qolish, ijodiy fikrlash, mantiqiy amallarni bajarish qobiliyati va boshqalar shular

jumlasidandir. Psixologiyada mazkur qobiliyatlar turli toifalarga bo'linadi va ular turli nazariy yondashuvlarga asosan turlicha talqin qilinadi.



NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Pedagogikada qo'rquv va zo'ravonlikdan himoyalashda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini tashhisining asosiy usuli tarzida ko'p yillar davomida rivojlantiruvchi eksperimentdan (tadqiqot) foydalanilgan. Bu usul nafaqat umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari, balki oliy ta'lim muassasalari talabalari, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining yangi o'quv ma'lumotlarini o'zlashtirish qobiliyatlarini namoyon qilish jarayonida qo'llanilgan. Masalan, Z.I.Kalmikova mustaqil fikrlash qobiliyati uchun o'rgatuvchi eksperiment tarzida o'quvchilarning muammoli xarakterdagi topshiriqlarni bajarish jarayonini tavsiya etadi[4].

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini qo'rquv va zo'ravonlikdan himoya qilishda ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini aniqlashda test sinovi samarali tashhis usullaridan biri hisoblanadi. Bu usul qo'llanilganda, odatda, o'quvchilarga bilim mazmuniga to'g'ridan-to'g'ri

bog'liq bo'lmagan, balki turli fikrlash jarayonlarini talab qiladigan topshiriqlar taqdim etiladi. Mazkur topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar o'zining mantiqiy, tahliliy va ijodiy fikrlash qobiliyatini namoyon etadi. Topshiriq natijalari esa ularning mustaqil fikrlash qobiliyati darajasini aniqlash imkonini beradi.

O'quv jarayonida ishtirok etayotgan o'quvchilar orasida umumiy mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lganlar bilan bir qatorda, muayyan sohalarida yuqori salohiyatga ega bo'lgan maxsus qobiliyatli hamda tug'ma qobiliyati o'quvchilar ham uchraydi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Shunday qilib, psixologiya sohasida umumiy va maxsus qobiliyatlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchilarni qo'rquv va zo'ravonlikdan himoya qilish jarayonida ularning mustaqil fikrlash qobiliyati va uning rivojlanish darajasi salohiyat imkoniyatlariga qarab farqlanishi zarur. Boshqacha aytganda, barcha o'quvchilarga bir xil

tipdagi topshiriqlarni berish orqali ularning qobiliyatini aniqlash mumkin emas. Shuning uchun har bir o'quvchiga uning shaxsiy salohiyati va individual imkoniyatlariga mos ravishda topshiriqlar berilishi maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarning raqamli intellektual malakasiga mos keladigan bilimlarni mustaqil fikrlay olish qobiliyati bilan ularning aqliy qobiliyati o'zaro uzviy bog'liqdir. Aslida, mustaqil fikrlash qobiliyatini ayrim hollarda aqliy

mehnat malakalari yoki o'quv malakalari sifatida ham ta'riflash mumkin. Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida, ayniqsa "Informatika" fanini o'qitishda o'quvchilarda mazkur malakalarni shakllantirishga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapti. Bu esa raqamli ta'lim sharoitida mustaqil fikrlay olish qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Nosirova G.H. Psixologiya darsligi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti 2020.–115 b.
2. Watson J. B., & Rayner, R. Conditioned Emotional Reactions. Journal of Experimental Psychology, 3(1), 1920. – P. 1–14.
3. Sharipova D.M. Ta'lim muassasalarida zo'ravonlik va unga qarshi profilaktik ishlar. // Pedagogika va psixologiya, 2021, №2. – B. 22.
4. Калмыкова З.И. Психологические принципы развивающего обучения. - Москва: Знание, 1979. – 48 с.
5. Рабунский Е.С. Теория и практика реализации индивидуального подхода к школьникам в обучении: Дис. ... док. пед. наук.: -Москва, 1989. – 464 с.
6. Кемпинский А. Психология шизофрении. – Санкт-Петербург: Ювента, 1998.



MAHATMA GANDI QARASHLARIDA KUCH ISHLATMASLIK VA INSONPARVARLIK TAMOYILLARI

Pulatov Sherdor Nematjonovich, Alfraganus university "Ijtimoiy fanlar" kafedrası mudiri, Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

THE TEACHING OF AHIMSA IN THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF MAHATMA GANDHI

Pulatov Sherdor Nematjonovich, Alfraganus University Head of the Department of Social Sciences Doctor of Philosophy in Philosophical Sciences., (PhD), Associate Professor

УЧЕНИЕ АХИМСЫ В ФИЛОСОФСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ МАХАТМЫ ГАНДИ

Пулатов Шердор Нематжонович, заведующий кафедрой социальных наук университета Альфраганус, доктор философии по философским наукам (PhD), доцент

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyatda kuzatilayotgan axloqiy inqiroz, zo 'ravonlikning ijtimoiy odatga aylanishi, insonparvarlikning yo 'qolishi va ma 'naviy parokandalik falsafiy tahlilni taqozo etmoqda. Ayniqsa, axloqiy qarorlar sof utilitar manfaatlarga asoslanganda, jamiyatda insoniylik va hamdardlik tuyg 'ularining zaiflashishi sezilmoqda. Ushbu maqola Mahatma Gandining "The Mind of Mahatma Gandhi" nomli ensiklopedik asarida jamlangan fikr-mulohazalari asosida, u ilgari surgan ahimsa (zo 'ravonlikka qarshi turish), satyagraha (haqiqatga sadoqat) va insoniy axloqiy yondashuv g 'oyalarini falsafiy tahlil etadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – Gandining etik qarashlarini tahlil qilish orqali yangi, universal va ma 'naviy asosga ega bo 'lgan axloqiy modelni ishlab chiqishdir.

Kalit so'zlar: Ahimsa, Haqiqat falsafasi, Insonparvarlik etikasi, ruhiy psixologiya, ichki axloqiy ong, axloqiy mas'uliyat, zo 'ravonliksizlik nazariyasi, axloqiy inqiroz, umuminsoniy qadriyatlar, Satyagraha.

Abstract: The moral crisis observed in modern society, the transformation of violence into a social norm, the loss of humanity, and spiritual disarray require philosophical analysis. Especially when moral decisions are based on purely utilitarian interests, there is a weakening of humanity and empathy in society. This article, based on the thoughts of Mahatma Gandhi, summarized in his encyclopedic work "The Mind of Mahatma Gandhi", provides a philosophical analysis of the ideas of ahimsa (non-violence), satyagraha (loyalty to truth), and a humane ethical approach that he put forward.

Keywords Ahimsa, philosophy of truth, ethics of humanism, spiritual psychology, ethical interiority, moral responsibility, theory of non-violence, moral crisis, universal values, Satyagraha.

Аннотация: моральный кризис, наблюдаемый в современном обществе, превращение насилия в социальную норму, утрата человечности и духовный разлад требуют философского анализа. Особенно когда моральные решения основаны на чисто утилитарных интересах, в обществе заметно ослабление гуманности и эмпатии. В данной статье, основанной на идеях Махатмы Ганди, изложенных в его энциклопедическом труде «Ум Махатмы Ганди», дан философский анализ идей ахимсы



<https://orcid.org/0009-0002-1665-0545>

e-mail:
psherdor88@gmail.com



(противостояния насилию), сатьяграхи (верности истине) и предложенного им гуманного этического подхода.

Ключевые слова: ахимса, философия истины, гуманистическая этика, духовная психология, внутреннее моральное сознание, моральная ответственность, теория ненасилия, моральный кризис, общечеловеческие ценности, сатьяграха.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Zamonaviy jamiyat tobora chuqurlashib borayotgan axloqiy inqiroz, zo‘ravonlikning normallashuvi, shaxsning ma’naviy bo‘shashuvi va utilitarizmga asoslangan qarorlar qabul qilish muhitida yashamoqda. Global texnologik taraqqiyotga qaramay, insoniyat o‘zining eng muhim mohiyati — ruhiy, axloqiy va insoniylik fazilatlarini bilan jiddiy yuzlashmoqda. Haqiqat va ma’naviyat endilikda falsafiy nazariya emas, balki insoniyat hayotiy zaruratiga aylangan. Aynan shunday ijtimoiy-ma’naviy kontekstda, Mahatma Gandining axloqiy-falsafiy qarashlari yana bir bor jahon intellektual sahnasida dolzarb mavzuga aylangan.

Mahatma Gandhi (1869–1948) — XX asrda zo‘ravonliksiz qarshilik (ahimsa), haqiqatga sadoqat (satyagraha) va vijdon asosida siyosiy harakat olib borgan inson sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan shaxsdir. Uning hayoti va faoliyati nafaqat Hindiston mustaqillik harakatining yo‘lboshchisi, balki umuminsoniy axloqiy pozitsiyaning tirik timsoli sifatida qadrlanadi. Uning fikricha, insoniyat haqiqiy ozodlikka va barqarorlikka faqat axloqiy poklik, vijdon bilan yashash va zo‘ravonlikdan voz kechish orqali erisha oladi.

Ushbu maqola Mahatma Gandining eng muhim fikrlari jamlangan va tizimlashtirilgan “The Mind of Mahatma Gandhi: Encyclopedia of Gandhi’s Thoughts” (R.K.Prabhu va U.R.Rao tomonidan tuzilgan) manbasi asosida uning asosiy axloqiy-falsafiy g‘oyalarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Ushbu asar Gandining turli davrlardagi nutqlari, maqolalari va yozishmalari asosida tuzilgan bo‘lib, u orqali Gandining ichki olami, etik prinsiplar va ruhiy yuksalish haqidagi talqinlari muayyan tartibda ko‘rsatilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Mahatma Gandining axloqiy-falsafiy qarashlari yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar ko‘pligi bilan ajralib turadi. Ammo bu

adabiyotlarning aksariyati tarixiy yoki siyosiy kontekstda yondashilgan, uning etikasi esa chuqur ontologik va spiritual psixologik asosda kamroq o‘rganilgan. Ayniqsa, The Mind of Mahatma Gandhi (Prabhu & Rao, 1967)[1] ensiklopedik asari Gandining fikrlarini tizimli va kategoriyalashgan tarzda bayon qilgan ilk manbalardan biridir.

Gandining ahimsa haqidagi qarashlari deontologik yoki utilitar yondashuvlardan farq qiladi. U ahimsani faqat tashqi zo‘ravonlikka qarshilik emas, balki ichki shafqatsizlikdan voz kechish, ong va ruh orqali boshqariladigan axloqiy pozitsiya deb tushuntiradi. Bu yondashuv etik interyeritet — ya’ni ichki axloqiy javobgarlikka asoslangan konsepsiyani ilgari suradi[2].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Gandining etikasi mavjudlikni axloqiy mezon orqali idrok etishga chaqiradi. U haqiqatni metafizik kategoriya emas, balki amaliy-ontologik prinsip sifatida ko‘radi[3]. Masalan, Gandining “God is Truth” g‘oyasi keyinchalik “Truth is God” shaklida yangilanadi — bu esa axloqiy-metafizik inqilob bo‘lib, haqiqatni ontologik mezonga aylantiradi.

MUHOQAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ushbu tadqiqot metodologik yondashuvlar majmuasi asosida tuzilgan bo‘lib, u Mahatma Gandining axloqiy-falsafiy qarashlarini chuqur talqin qilish, ularni zamonaviy etik krizislar kontekstida qayta o‘rganish va fanlararo integratsiyalashgan modelda anglashni ko‘zlaydi. Tadqiqotda quyidagi asosiy metodologik usullarga tayanilgan:

1. Germenevtik tahlil (hermeneutical analysis). Tadqiqotning birlamchi manbasi bo‘lgan The Mind of Mahatma Gandhi (Prabhu & Rao, 1967)[1] asari **kontekstual va semantik jihatdan** tahlil qilinadi. Har bir konseptual bo‘lim (masalan, Ahimsa, Truth, Fearlessness, Self-restraint, Universal Religion) Gandining turli ijtimoiy sharoitda bergan javoblari asosida o‘rganiladi. Bu yondashuv G.Gadamerning “doira metodologiyasi” (hermeneutic circle) prinsipiga asoslanib, matnning

qisman va umumiy mazmuni o'rtasidagi doimiy o'zaro ta'sirga asoslanadi[4].

2. Qiyosiy-falsafiy tahlil (comparative philosophical analysis). Ikkinchi metodologik yo'nalish – Gandining etikasi bilan boshqa etik maktablar (Aristotel, Kant, G'azzoliy, Tolstoy, Thoreau) o'rtasida nazariy muloqotni amalga oshirishdan iborat. Ayniqsa, Aristotelning “aretetik” etikasi (Nicomachean Ethics), Kantning deontologiyasi, G'azzoliyning “tazkiyah an-nafs” modeli bilan Gandining “Truth is God” va “inner reform first” prinsiplari o'rtasida ontologik asoslar darajasidagi yaqinlik va tafovutlar tahlil qilinadi.

3. Spiritual-psixologik dekonstruksiya. Uchinchi metod sifatida spiritual psixologiya va transpersonal yondashuvlar qo'llanilgan. Gandining “ruhiy mustaqillik”, “vijdon nazorati” va “qo'rquvdan xalos bo'lish” kabi konsepsiyalari inson ongi va ichki psixik tuzilmalari bilan bog'liq. Bu borada C.G.Jungning “arxetiplar” nazariyasi, V.Franklning “logos-terapiya” yondashuvi, va Ken Wilberning transpersonal integratsiya modeli asos qilib olingan.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Ushbu maqola natijalari shuni ko'rsatadiki, Mahatma Gandining etik g'oyalari, xususan, *ahimsa* (zo'ravonlikdan tiyilish), *truth is God* (haqiqat xudoning o'zidir) va ichki axloqiy uyg'onish kabi konsepsiyalar zamonaviy axloqiy va psixologik tafakkurda universal nazariy asos sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, *ahimsa* konsepsiyasining ichki ongiy motivatsiya bilan bog'liqligi, psixologik chidamlilik (moral resilience) bilan uyg'unlashgani va zamonaviy ta'limda vijdon asosidagi axloqiy tanlovni shakllantirishi bu g'oyalarning chuqur zamonaviy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi[5].

Gandining etik modeli, ayniqsa, uning “*haqiqat – bu xudo*” degan g'oyasi, haqiqatni faqat tashqi voqelik emas, balki ichki tajriba orqali anglash zarurligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv metakognitsiya va reflektiv ongni asosiy etik rivojlanish mezonini deb biluvchi zamonaviy nazariyalar bilan tutashadi. Jumladan, Immanuel Kantning “praktik aql” nazariyasida ham axloqiy qarorlar ichki aql-ong asosida shakllanishi ta'kidlanadi, bu esa Gandining pozitsiyasi bilan sezilarli darajada uyg'unlashadi.

Shu bilan birga, Fariduddin Attor yoki Sa'diy Sheroziy kabi Sharq mutafakkirlarining “tazkiya”,

“nafsnı zabt etish” va “ichki tanqid”ga asoslangan axloqiy falsafasi bilan Gandining qarashlari o'rtasida ham kontseptual tafovutlar emas, balki chuqur o'xshashliklar mavjud. Bu esa Sharq falsafasi doirasida universal etik tamoyillar mavjudligini isbotlaydi[7].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Ushbu tadqiqot Mahatma Gandining axloqiy-falsafiy qarashlarini zamonaviy global kontekstda qayta tahlil qilib, ularning hozirgi ijtimoiy-etnik, ma'naviy-psixologik muammolarni hal etishdagi nazariy va amaliy salohiyatini ochib berdi. Xususan, Gandining “ahimsa”, “truth is God”, “conscience” (vijdon), “self-discipline” (o'zini boshqarish), “non-possession” (tamasizlik) kabi tushunchalari umumiy insoniy qadriyatlar tizimi doirasida yangicha metodologik o'qishga tayanildi.

Tadqiqot Gandining “Truth is God” konsepsiyasining faqat diniy yoki metafizik ibora emasligini, balki u zamonaviy ta'limda metakognitiv o'zlikni rivojlantirish, haqiqatni subyektiv tajriba orqali anglash va o'z vijdoni orqali ijtimoiy faoliyatni tartibga solish modelini nazarda tutishini ko'rsatdi. Bunday yondashuv yoshlar tarbiyasida axloqiy murosasizlikka, sun'iy qadriyatlarga qarshi barqaror etika asosini yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Prabhu R. K., & Rao, U. R. (Eds). The Mind of Mahatma Gandhi: Encyclopedia of Gandhi's Thoughts. Navajivan Publishing House. 1967.
2. Bilgrami A. Gandhi the philosopher. Economic and Political Weekly, 46(36), 2011.–P. 76–81.
3. Hardiman D. Gandhi in His Time and Ours: The Global Legacy of His Ideas. Columbia University Press. 2003.
4. Parel A. J. Gandhi: 'Hind Swaraj' and Other Writings. Cambridge University Press. 2000.
5. Chatterjee P. Nationalist Thought and the Colonial World: A Derivative Discourse? Zed Books. 1983.
6. Iyer R.N. The Moral and Political Thought of Mahatma Gandhi. Oxford University Press. 1973.
7. Nasr S.H. The Garden of Truth: The Vision and Promise of Sufism, Islam's Mystical Tradition. HarperOne. 2006.

MEYDZI FALSAFASIDA KOMILLIK VA MA'NAVIYAT: ANTROPOLOGIK TAHLILI

*Qurbonov Farhodjon Xabibloyevich, Alfraganus universiteti
"Ijtimoiy fanlarlar" kafedrasida o'qituvchisi*

PERFECTION AND SPIRITUALITY IN MEIJI PHILOSOPHY: AN ANTHROPOLOGICAL ANALYSIS

*Qurbonov Farhodjon Xabibloyevich, Alfraganus University,
lecturer at the Department of Social Sciences*

СОВЕРШЕНСТВО И ДУХОВНОСТЬ В ФИЛОСОФИИ МЭЙДЗИ: АНТРОПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

*Курбанов Фарходжон Хабибловевич, преподаватель
кафедры социальных наук университета Альфраганус*

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda Meydzi davrida shakllangan komil inson tushunchasining falsafiy-antropologik mohiyati yoritilgan bo'lib, unda shaxsning ma'naviy-axloqiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy-madaniy qiyofasi tahlil qilinadi. Insonni komillikka yetaklovchi omillar sifatida ma'rifat, intizom, mehnatsevarlik, milliy g'urur va G'arb tajribasini uyg'unlashtirish jarayonlari ko'rsatib beriladi. Shuningdek, insonning jamiyatdagi o'rni va mas'uliyati, kollektivizm ruhida faoliyati hamda milliy manfaatlarni ilgari suruvchi xususiyatlari falsafiy va antropologik asosda izohlanadi. Tadqiqot natijasida Meydzi davridagi inson ideali Yaponiyaning modernizatsiaviy taraqqiyotida markaziy tushuncha sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: Meydzi davri, sivilizatsiya, komil inson, modernizatsiya, antropologik yondashuv, milliy o'zlik, ma'naviyat, jamiyat va shaxs, madaniy uyg'unlik. **Annotation:** This study explores the philosophical and anthropological essence of the ideal of a perfect human being formed during the Meiji era. It analyzes the moral and ethical, intellectual and educational, as well as socio-cultural characteristics of the individual. Enlightenment, discipline, diligence, national pride, and the integration of Western experience are identified as key factors that lead a person toward perfection. As a result, the human ideal of the Meiji era is interpreted as a central concept in Japan's modernization process.

Keywords: Meiji era, civilization, perfect human, modernization, anthropological approach, national identity, spirituality, society and individual, cultural synthesis.

Аннотация: В данном исследовании раскрыта философско-антропологическая сущность идеала совершенного человека, сформировавшегося в эпоху Мэйдзи. Анализируется духовно-нравственный, научно-просветительский и социально-культурный облик личности. В качестве факторов, ведущих человека к совершенству, рассматриваются просвещение, дисциплина, трудолюбие, национальная гордость, а также процессы синтеза с западным опытом. В результате исследования идеал человека эпохи Мэйдзи рассматривается как центральное понятие в процессе модернизационного развития Японии.

Ключевые слова: эпоха Мэйдзи, цивилизация, совершенный человек, модернизация, антропологический подход, национальная самобытность, духовность, общество и личность, культурный синтез.



<https://orcid.org/0009-0005-8169-9937>

e-mail:

ganbarefarhod@gmail.com



KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Meydzi davri Yaponiyaning tarixiy taraqqiyotida tub burilish davri bo‘lib, unda an’anaviy jamiyatdan zamonaviy sivilizatsiyaga o‘tish jarayoni kechgan. Bu davrda shakllangan komil inson tushunchasi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya, balki milliy o‘zlikni qayta anglash va G‘arb tamaddunidan samarali foydalanish orqali jamiyatni yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qilgan. Shuning uchun ham Meydzi davridagi komil inson tushunchasi masalasini falsafiy-antropologik nuqtayi nazardan tadqiq etish dolzarbdir, chunki u nafaqat Yaponiyaning rivojlanish modelini, balki shaxs va jamiyat munosabatlarining yangi qirralarini ochib beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Carol Gluck “Japan’s Modern Myths: Ideology in the Late Meiji Period” asarida kechki Meiji davridagi mafkuraviy diskursni “miflar” sifatida tahlil qilib, davlat nutqi, matbuot, ta’lim va rasmiy marosimlar orqali “zamonaviy, intizomli, fidoyi fuqaro”ning normativ qiyofasi qanday kodlanganini ko‘rsatadi[3]. Oleg Benesch esa “Inventing the Way of the Samurai: Nationalism, Internationalism, and Bushido in Modern Japan” asarida bushidoni “ixtiro qilingan an’ana” sifatida talqin qilib, Meiji modernizatsiyasi sharoitida elita tomonidan “axloqiy kapital” sifatida qayta konstruksiya qilinganini ko‘rsatadi[1]. James E. Ketelaar “Of Heretics and Martyrs in Meiji Japan: Buddhism and Its Persecution” nomli kitobida diniy siyosatni markazga qo‘yib, Meiji davrida buddhizmga nisbatan ta’qib va qayta talqinlar qanday qilib fuqarolik identiteti hamda “toza” milliy axloq me’yorlarini shakllantirishga xizmat qilganini ko‘rsatadi[1].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Meydzi davri (1868–1912) Yaponiyada tub burilish davri bo‘lib, bu davrda G‘arb sivilizatsiyasi qadriyatlarini, ilm-fani va siyosiy institutlari milliy taraqqiyot jarayoniga keng ko‘lamda kirib keldi. Shu sharoitda “komil inson” tushunchasi falsafiy-antropologik jihatdan inson tabiatini, uning jamiyatdagi o‘rnini hamda ma’naviy-madaniy kamolotini qaytadan talqin qilishga asos bo‘ldi. Mazkur ideal jamiyatning modernizatsiya ehtiyojlariga mos ravishda

shakllandi va insonni yangi sivilizatsiya barpo etishning bosh subyektini sifatida ko‘rdi[1].

Meydzi davrida Fukudzava Yukiti kabi ma’rifatparvarlar ushbu idealni keng yoyishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning ta’kidlashicha, “komil inson” jamiyatning yangilanishi, texnologik taraqqiyoti va milliy kuch-qudratining kafolatidir. Bu ideal shaxsni ijtimoiy islohotlarning markaziga qo‘yib, uni jamiyat taraqqiyotining faol subyektini sifatida belgiladi. Shu tariqa, Meydzi davridagi falsafiy-antropologik yondashuv insonni nafaqat jamiyatga moslashuvchi mavjudot, balki uni o‘zgartiruvchi va yangilovchi kuch sifatida talqin etib, Yaponiyada modernizatsiya jarayonining g‘oyaviy tayanchi bo‘ldi. Meydzi davridagi “komil inson” tushunchasi Yaponiyaning modernizatsiya jarayonida shakllanib, shaxsni milliy taraqqiyotning asosiy subyektini sifatida talqin etdi. Bu ideal Kant qarashlari bilan qiyoslanganda, ularning umumiy jihati insonning mustaqilligi va axloqiy mas’uliyatga urg‘u berishidir. Kant insonni universal axloqiy qonunga bo‘ysunuvchi erkin mavjudot sifatida ko‘rgan bo‘lsa, Meydzi davri tafakkurida inson millat va davlat manfaatlariga xizmat qiluvchi, ma’rifatli va mas’uliyatli shaxs sifatida talqin etildi. Gegel nazariyasida inson tarixiy taraqqiyot va “Ruh”ning obyektivlashuvi orqali o‘z mohiyatini namoyon etsa, Yaponiyada komil inson g‘oyasi milliy modernizatsiya va davlatning qudratli bo‘lishi bilan uzviy bog‘liq tarzda shakllandi. Demak, Gegendagi umuminsoniy tarixiy zarurat Yaponiyada milliy kontekstga moslashtirilgan edi[3].

Konfutsiy ta’limoti bilan qiyos qilinganda, o‘xshashlik shaxsning axloqiy barkamollik va ijtimoiy mas’uliyatga yo‘naltirilganligida ko‘rinadi. Biroq Konfutsiy “junzi” – komil insonni an’ana, marosim va ijtimoiy uyg‘unlik asosida tasavvur etgan bo‘lsa, Meydzi davridagi ideal insonni zamonaviy ilm-fan va texnologiyani o‘zlashtirish, milliy kuchni oshirish bilan bog‘ladi. Shunday qilib, Kant, Gegel va Konfutsiy konsepsiyalaridan ayrim jihatlar uyg‘unlashtirilgan bo‘lsa-da, Meydzi davridagi “komil inson” ideali ulardan farqli ravishda avvalo milliy modernizatsiya va davlat manfaatlariga xizmat qiluvchi falsafiy-antropologik model sifatida shakllandi[4].

NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Meydzi davridagi “komil inson”

tushunchasi falsafiy-antropologik konsepsiyasining maqsadi avvalo Yaponiya jamiyatini modernizatsiya jarayoniga tayyorlash, milliy o'zlikni asrab qolgan holda G'arb sivilizatsiyasi yutuqlaridan unumli foydalanishdan iborat edi. Ushbu ideal shaxsni faqatgina biologik mavjudot yoki ijtimoiy rol bajaruvchi emas, balki ma'naviy, intellektual va fuqarolik mas'uliyatiga ega komil inson sifatida shakllantirishni ko'zlagan. Inson konsepsiyasi ma'naviyat, intizom, mehnatsevarlik va davlat manfaatlariga sodiqlik tamoyillari bilan uyg'unlashib, shaxsning milliy birlik va taraqqiyotga xizmat qiluvchi faol subyekt sifatida qaralishini ta'minladi.

Bunday konsepsiyaning afzalligi shundaki, u Yaponiyaning qisqa muddatda modern davlatga aylanishida kuchli mafkuraviy poydevor yaratdi. Inson kapitaliga e'tibor, ta'lim tizimining yangilanishi, milliy g'oya atrofida jamiyatni safarbar etish mamlakat iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qildi. Shuningdek, falsafiy jihatdan insonning ijtimoiy burchi va shaxsiy intilishlari uyg'unlashib, kollektivism va milliy g'ururni shakllantirishga yordam berdi. Antropologik nuqtayi nazardan esa insonning ijtimoiy-madaniy tabiatiga urg'u berilib, uni milliy uyg'onish jarayonining asosiy manbai sifatida ko'rsatdi[5].

Ammo bu konsepsiyaning kamchiliklari ham mavjud edi. Birinchidan, shaxsiy erkinlik va individual manfaatlar jamiyat va davlat manfaatlari soyasida qolib ketdi, bu esa insonning mustaqil ijodiy rivojlanishini chekladi. Ikkinchidan, milliy birlikni haddan tashqari ustuvor qo'yish turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida tengsizlikni kuchaytirishi mumkin edi. Uchinchidan, G'arb sivilizatsiyasidan o'zlashtirilgan ba'zi g'oyalar milliy qadriyatlar bilan qarama-qarshi kelib, inson idealining uyg'unlik tamoyilida ma'lum ziddiyatlarni yuzaga chiqardi. Shu sababli, Meydzi davridagi komil inson tushunchasi bir tomondan Yaponiyaning modernizatsion muvaffaqiyatiga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan shaxs erkinligi va madaniy xilma-xillikni to'liq ta'minlay olmagan[6].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Meydzi davridagi komil inson tushunchasi Yaponiyaning modernizatsion

taraqqiyoti jarayonida shakllangan bo'lib, unda milliy qadriyatlar va g'arb sivilizatsiyasi tamoyillari sintezlangan. Ushbu ideal shaxsiy intizom, ma'naviy yetuklik, mehnatsevarlik va jamoaga sodiqlik kabi fazilatlar asosida talqin qilingan. Falsafiy jihatdan u insonni komillikka erishish yo'lida ma'rifat, axloqiylik va madaniy uyg'unlikka da'vat etgan bo'lsa, antropologik nuqtayi nazardan esa inson jamiyat taraqqiyotining faol subyekt sifatida ko'rilgan. Bunday yondashuv davlatning modernizatsiya siyosati va jamiyatning ma'naviy-mafkuraviy ehtiyojlarini uyg'unlashtirib, "komil inson" konsepsiyasini milliy taraqqiyotning markaziga olib chiqqan.

Umuman olganda, Meydzi davridagi komil inson tushunchasi Yaponiyaning o'ziga xos modernlik modelini yaratishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilgan. U nafaqat milliy o'zlikni saqlash, balki zamonaviy davlat barpo etishda g'arb tajribasini o'zlashtirishga imkon bergan. Shu orqali inson konsepsiyasi jamiyatda barqarorlik, birlik va taraqqiyotning bosh mezoniga aylangan. Mazkur ideal bugungi kunda ham milliy taraqqiyotda "komil inson" konsepsiyasi naqadar dolzarb va universal ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Benesch O. Inventing the way of the samurai: nationalism, internationalism, and bushidō in modern Japan. OUP Oxford, 2014.
2. Edward J. Of heretics and martyrs in Meiji Japan: Buddhism and its persecution. Princeton University Press, 1990.
3. Gluck C. Japan's modern myths: ideology in the late Meiji period. – Princeton University Press, 1985. – T. 1.
4. Katsuhito I. Meiji-Era Academic Philosophy and Its Lineage – Monism of the true form and organismic philosophy, 2014. – P.271-289.
5. Katsuhito I. The Philosophical World of Meiji Japan: The Philosophy of Organism and Its Genealogy. 2016.
6. Sheldon G. Molding Japanese minds: The state in everyday life. Princeton University Press, 1998.
7. Walker A. The Japanese novel of the Meiji period and the ideal of individualism. 2019. – P. 1-336.

IJTIMOY-SIYOSIY G‘OYALARNING JAMIYAT MA’NAVIY SOHASI BILAN UYG‘UNLIGI

Zoirova Sojida Umbarovna, Termiz davlat pedagogika instituti
“Falsafa, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrası
o‘qituvchisi

THE HARMONY OF SOCIO-POLITICAL IDEAS WITH THE SPIRITUAL SPHERE OF SOCIETY

Zoirova Sojida Umbarovna, Lecturer at the Department of
Philosophy, Fundamentals of spirituality and legal education,
Termez State Pedagogical Institute


СОГЛАСОВАННОСТЬ ОБЩЕСТВЕННО- ПОЛИТИЧЕСКИХ ИДЕЙ С ДУХОВНОЙ СФЕРОЙ ОБЩЕСТВА

Зоирова Сожида Умбаровна, преподаватель кафедры
философии, основ духовности и правового образования
Термезского государственного педагогического института



<https://orcid.org/0009-0000-0551-2716>

e-mail: zoirova11@bk.ru



Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy-siyosiy g‘oyalarning jamiyat ma’naviy hayoti bilan uyg‘unligi tahlil qilinadi. G‘oyalar tizimi nafaqat davlatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotini, balki milliy qadriyatlar, ma’naviy meros va axloqiy tamoyillarning shakllanishiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan, ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar va ma’naviy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash jamiyat barqarorligi, ma’naviy yangilanishi va milliy taraqqiyotning muhim omili sifatida qaraladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy g‘oyalar, siyosiy g‘oyalar, ma’naviyat, milliy qadriyatlar, uyg‘unlik, taraqqiyot, barqarorlik.

Abstract: This article analyzes the harmony of socio-political ideas with the spiritual life of society. The system of ideas has a strong impact not only on the socio-political development of the state but also on the formation of national values, spiritual heritage, and moral principles.

Keywords: social ideas, political ideas, spirituality, national values, harmony, development, stability.

Аннотация: В данной статье анализируется гармония общественно-политических идей с духовной жизнью общества. Система идей оказывает сильное влияние не только на социально-политическое развитие государства, но и на формирование национальных ценностей, духовного наследия и нравственных принципов.

Ключевые слова: общественные идеи, политические идеи, духовность, национальные ценности, гармония, развитие, стабильность.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ) / INTRODUCTION. Har bir jamiyat taraqqiyoti g‘oya va qadriyatlarga asoslanadi. Ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar jamiyatning rivojlanish yo‘lini belgilab beruvchi strategik omil bo‘lsa, ma’naviy qadriyatlar uning ichki kuchi va mustahkam poydevoridir. Bu ikki sohaning uyg‘unligi davlat va jamiyat barqarorligini

ta’minlaydi, fuqarolarning ongini yuksaltiradi, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini uyg‘otadi. Bugungi globallashuv jarayonida ma’naviy sohani siyosiy manfaatlarga bo‘ysundirmasdan, balki ular o‘rtasida uyg‘unlik yaratish dolzarb masalalardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Mavzu yuzasidan mahalliy va xorijiy olimlarning asarlarida ijtimoiy-siyosiy g'oyalar va ma'naviyatning o'zaro bog'liqligi turli nuqtayi nazardan yoritilgan. Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy) asarlarida siyosat va axloqiy qadriyatlar uyg'unligi jamiyat boshqaruvida asosiy omil sifatida ko'rsatib o'tilgan. Mustaqillik yillarida O'zbekiston olimlari tomonidan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarda siyosiy g'oyalarning ahamiyati alohida ta'kidlangan (Q.Nazarov, A.Saidov, I.Jo'rayev). G'arb falsafasida J.Lokk, Sh.Monteskye va A.Toynbi kabi olimlar ijtimoiy-siyosiy g'oyalar inson erkinligi, huquqlari va jamiyat qadriyatlari asosiga ta'sirini tahlil qilgan.

Tadqiqotda tarixiy-tahliliy, qiyosiy yondashuv hamda falsafiy-ijtimoiy tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini asoslash uchun g'oyaviy-nazariy manbalar hamda zamonaviy siyosiy jarayonlar qiyosiy tahlil qilindi.

MUHOAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar tushunchasi juda ham keng qamrovli tushuncha bo'lib, bu jamiyatning turli sohalarda sodir bo'ladigan o'zgarishlar, ijtimoiy munosabatlar, jamiyat hayotida davlatning roli va ahamiyati, boshqaruv tizimiga oid tushunchalar va g'oyalar to'plamidir. Ushbu tushuncha "Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati"da quyidagicha ta'riflangan: "Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar – har bir xalq, butun bashariyatning orzu-umidlari, maqsad-muddaolarini ifodalovchi, erkin hayot va adolatli tuzumni tarannum etuvchi, davlat va jamiyat qurilishi, millat va elatlar kelajagi haqidagi umuminsoniy g'oyalardir"[1]. Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar o'zining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etuvchi demokratiya, adolat, tenglik, erkinlik, ijtimoiy faollik, ijtimoiy xavfsizlik, siyosiy institutlar va partiyalar, ijtimoiy qatlam kabi ko'plab tushunchalarni o'z ichiga oladi. Ular ijtimoiy tuzum, siyosiy tizim, iqtisodiyot, madaniyat va boshqa sohalarda jamiyatni rivojlantirish yoki o'zgartirish maqsadida ishlab chiqilgan fikrlar, qarashlar va konsepsiyalardir. Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar mazmunini yanada kengroq va aniqroq tushunish uchun atama tarkibidagi har bir

tushunchaga alohida izoh berib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Eng avvalo, ijtimoiy so'zining mazmun-mohiyatiga to'xtalamiz. "Ijtimoiy" so'zining etimologiyasi arab tiliga borib taqaladi. Bu so'z arab tilidagi "ijtima" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "yig'ilish", "jamlanish" yoki "jamo" degan ma'nolarni anglatadi. Arab tilidagi "ijtima" so'zi insonlar yoki narsa va hodisalarning bir joyda to'planishi, birlashishi tushunchalariga ishora qiladi[7].

Kishining ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishi va ijtimoiylashishi, uning shaxs bo'lib shakllanishida katta ahamiyatga ega ekanligini Ibn Sino, Beruniy, Farobiy kabi bir qancha Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida yoritib berganlar. Ijtimoiy munosabatlar ikki yoki undan ortiq inson orasida shakllanadi. Bu do'stlik, oila, hamkasblik kabi aloqalarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy munosabatlarning maqsad, qiziqish yoki ehtiyojlarga qarab shakllanishi haqida Sharqning buyuk allomalaridan biri bo'lgan Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy (973-1048) o'z qarashlarini bayon etib, "Ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog'liqlikda"[2], deya uqtiradi. Ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etish insonga o'zini jamiyatning bir qismi sifatida his qilish imkoniyatini beradi va shu orqali inson o'z ehtiyojlarini qondiradi. Kishi tabiatida eng asosiy xislatlaridan biri ijtimoiylashishdir. Ijtimoiylashish insonning shaxs bo'lib shakllanishidagi muhim omil hisoblanib, agar kishi ijtimoiylashishdan chetda qolsa, uning shaxs sifatida rivojlanishi to'xtab qolishi mumkin. "Ijtimoiylashuv – inson tomonidan jamiyatda hayot kechirish imkonini beruvchi bilimlar, me'yorlar va qadriyatlar tizimining o'zlashtirilish jarayoni"[1]. Ijtimoiylashuvni ijtimoiy guruhlar tasavvur etib bo'lmaydi. Ijtimoiy guruhlar o'xshash manfaatlar yoki umumiy maqsadga ega insonlardan tashkil topadi. Ular jamiyatning kichik qismi hisoblanadi. Oila, maktabgacha ta'lim muassasasi guruhlari, maktab sinflari, ishchi guruhlar, diniy va madaniy guruhlar kabilar bunga misol bo'ladi. Ijtimoiy muhit – bu jamiyatning qadriyatlari, urf-odatlar, an'analari, qonunlari va odob-axloq qoidalaridan iborat. Bu omillar shaxsning dunyoqarashini va xatti-harakatini shakllantiradi. Masalan, o'zbek jamiyatida mehmondo'stlik, kattalarni hurmat qilish, oila qadriyatlari yuqori o'ringa ega. Bunda har bir shaxs o'zining ijtimoiy rolini bajarish orqali mazkur munosabat ishtirokchisiga aylanadi. Jamiyatda har bir

inson o'ziga xos rol va mas'uliyatlarga ega. Masalan, ota-onaning bolalarini tarbiyalash, o'qituvchining o'quvchilarga bilim berish mas'uliyati bor. Ushbu rol va mas'uliyatlar jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlaydi va har bir kishining o'z burchlarini bilishini talab qiladi.

Turli tillarda "ijtimoiy" tushunchasi jamiyatdagi o'zaro aloqalar, munosabatlar, umumiy manfaatlar va ko'pchilikka tegishli bo'lgan hodisalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu so'z hozirgi kunda jamiyat bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarni ifodalash uchun keng qo'llanadi. Misol uchun, ijtimoiy fanlar, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy mas'uliyat kabi atamalarda ishlatiladi. Umuman olganda, ijtimoiy tushunchalar orqali insonlar jamiyat bilan uyg'unlashadi, o'z ehtiyoj va intilishlarini amalga oshiradi hamda birlari bilan turli vaziyatlarda o'zaro yordam va hamkorlikni yo'lga qo'yadilar [4].

NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Kishilik jamiyatini siyosatsiz tasavvur etish qiyin. Siyosat orqali ijtimoiy hayot boshqariladi, tartibga solinadi, o'zgartiriladi va rivojlantiriladi. "Siyosat – yunoncha "polis" – davlat so'zidan olingan bo'lib, davlat va jamiyat ishlari bilan bevosita shug'ullanish jarayonini anglatadi"[3]. Siyosat – bu jamiyat hayotining xilma-xil sohalarida ro'y beradigan oddiy va murakkab vazifalarni hal qilishga, aniq maqsadlarga erishishga qaratilgan faoliyat yoki vositadir. "Siyosat (a. – boshqarish; rahbarlik qilish; boshlab borish). Davlat miqyosida va davlatlararo munosabatlarda hokimiyat shakllarini amalga oshirish va boshqarish; davlat hokimiyatining mamlakat boshqaruvida va xalqaro munosabatlarda tutgan yo'li; davlatni boshqarish san'ati"[2]. U yoki bu siyosat yuritilishini sinflar, ijtimoiy guruhlar, millatlar va elatlar o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirish faoliyatiga bog'liq bo'lib, uning markazida davlat turadi. Ana shu davlat hokimiyatini qo'lga kiritish, saqlab qolish, undan samarali foydalanish bosh masalalardir [5].

Siyosat yuritishdagi eng muhim va mohiyatli yo'nalish davlat hokimiyatini egallash hamda davlat yo'nalishini belgilashdir. Jamiyat o'zgarishi bilan "siyosat" tushunchasining mazmuni ham o'zgarib boradi. Demak siyosatning mazmuni ijtimoiy hayot mazmuni bilan chambarchas bog'liq ekan. Davlatlarda hokimiyatlarning almashishi, hokimiyat vakolatlarining quyi organlarga berilishi, partiya tizimlarining, maxsus manfaatlar asosida birlashgan

ko'p va xilma-xil guruhlarining rivojlanishi sababli siyosatning mazmuni davlat faoliyati bilan cheklanib qolmaydi. U nodavlat tashkilotlarning faoliyatini ham o'z ichiga oladi. Siyosat – iqtisodiyotning jamlashgan ifodasidir, uning umumlashuvi va oxiriga yetishidir. Turli ijtimoiy guruhlar, tabaqalarning iqtisodiy manfaatlarini xuddi shu siyosatda to'la va har tomonlama ifodalanadi. Siyosat iqtisodiyotga, iqtisodiy bazisga faol ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega. Shuning uchun kishilarning siyosiy ongini shakllantirish va rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi [6].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar jamiyat ma'naviy sohasini mustahkamlaydi, unga yo'nalish beradi va uni zamon talablari bilan uyg'unlashtiradi. Ma'naviy qadriyatlar esa siyosiy g'oyalarni xalq ongiga singdirish, ularni milliy manfaatlar bilan uyg'unlashtirishda asosiy tayanch vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham ijtimoiy-siyosiy g'oyalar va ma'naviy qadriyatlar uyg'unligi jamiyatning barqaror taraqqiyoti, yosh avlodni sog'lom ruhda tarbiyalash va milliy davlatchilikni mustahkamlashning muhim kafolatidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: "IJOD-PRESS" nashriyoti, 2019. – B.151.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.–Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti,2016.– 165 b.
3. Madvaliyev A. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: "SAHHOF" nashriyoti, 2021. – 175 b.
4. Nosirxo'jayev S.H., Lafasov M.F., A'zamxo'jayeva S.B. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: "Noshir" nashriyoti, 2014. – B.254.
5. Patiye'v X. Jadidchilik g'oyalari targ'ibotining iqtisodiy muammolarga nisbatan ijtimoiy-falsafiy tahlili. Elita.uz. Elektron ilmiy jurnal, 2(1), 2024. – B. 281-285.
6. Sagdullayeva.M. Sharq mutafakkirlarining asarlarida, shaxs ijtimoiylashuv masalalarining yoritilish. Science and Education. Scientific Journal. 2023. – B. 410-412.
7. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: Cho'lpon. NNMIU, 2007. – B.185.

YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY TARBIYANING IJTIMOY ROLI

*Ahmedov Husniddin Ixtiyorovich, Termiz davlat pedagogika instituti
“Falsafa, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrası
o‘qituvchisi*

THE SOCIAL ROLE OF SPIRITUAL EDUCATION IN NEW UZBEKISTAN

*Ahmedov Husniddin Ikhtiyorovich,
Lecturer at the Department of Philosophy, Fundamentals of
Spirituality and Legal Education, Termez State Pedagogical
Institute*

СОЦИАЛЬНАЯ РОЛЬ ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

*Ахмедов Хусниддин Ихтиёрвич, преподаватель
кафедры философии, основ духовности и правового
образования Термезского государственного
педагогического института*



<https://orcid.org/0009-0006-2581-1979>
e-mail:
husniddin.ahmedov@
mail.com



Annotatsiya: Ushbu maqolada ma’naviy tarbiya muammosining yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida ahamiyati, tarbiyaviy va axloqiy tamoyillar bilan aloqadorligi falsafiy tafakkur va ijtimoiy tahlil yordamida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviy tarbiya, ijtimoiy trend, tarbiyaviy-axloqiy jarayon, global tahdidlar.

Abstract: This article reveals the significance of the issue of spiritual education in the context of Renewing Uzbekistan, as well as its connection with educational and moral principles through philosophical reflection and social analysis.

Keywords: spiritual education, social trend, educational and moral process, global threats.

Аннотация: В данной статье раскрывается значение проблемы духовного воспитания в условиях обновляющегося Узбекистана, её связь с воспитательными и нравственными принципами посредством философского мышления и социального анализа.

Ключевые слова: духовное воспитание, социальный тренд, воспитательно-нравственный процесс, глобальные угрозы.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Zamonaviy dunyo tajribasidan guvoh bo‘layapmizki, jahondagi barcha xalqlar taraqqiyotga o‘zining milliy xususiyati orqali erishadi. Ya’ni bizning fikrimizcha “mutloq yagona yo‘l” mavjud emas. Davlat taraqqiyoti uchun har bir hukumatning milliy dasturlari bor. Misol uchun, Yaponiya tajribasi, Xitoy tajribasi, Singapur tajribasi, AQSH pragmatizmga asoslangan yo‘li, Arab davlatlari neftga asoslangan taraqqiyot yo‘li. Demak mamlakatlar ma’lum bir taraqqiyot yo‘lini tanlaganda

o‘zining individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holatda, o‘zining intellektual hamda moddiy boyliklarini hisobga olib harakat qilishadi. Yuqoridagi misollar mamlakatning ko‘pincha iqtisodiy jihatini hisobga olib keltiriladi, ammo biz sharq xalqlari hayotida iqtisodiy taraqqiyotini ma’naviy taraqqiyot bilan bog‘lab birgalikda sinergetik birlik asosida shakllanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Mavzu yuzasidan

mahalliy va xorijiy olimlarning asarlarida ijtimoiy-siyosiy g'oyalar va ma'naviyatning o'zaro bog'liqligi turli nuqtai nazardan yoritilgan. Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy) asarlarida siyosat va axloqiy qadriyatlar uyg'unligi jamiyat boshqaruvida asosiy omil sifatida ko'rsatib o'tilgan. Mustaqillik yillarida O'zbekiston olimlari tomonidan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarda siyosiy g'oyalarning ahamiyati alohida ta'kidlangan (Q.Nazarov, A.Saidov, I.Jo'rayev). G'arb falsafasida J.Lokk, Sh.Monteskye va A.Toynbi kabi olimlar ijtimoiy-siyosiy g'oyalar inson erkinligi, huquqlari va jamiyat qadriyatlari asosiga ta'sirini tahlil qilgan.

Yangilanayotgan O'zbekiston o'zining yo'lini anashu tamoyil asosida qurishga harakat qilayotganini amalga oshirilayotgan islohatlar zamirida ko'rmoqdamiz. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son qarori asosida "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" tasdiqlandi. Ushbu qaror mamlakatimizdagi ma'naviy tarbiya borasidagi ishlarni tizimlashtirishga yordam bermoqda.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining markazida inson omili turadi. Aynan insonni har tomonlama yetuk, yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash esa mamlakatimiz kelajagining poydevoridir. Shu bois "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" ishlab chiqilishi va hayotga joriy qilinishi bugungi kunning eng muhim ijtimoiy-ma'naviy vazifalaridan biri bo'lib qoldi[4]. Konsepsiya, avvalo, inson kamolotini izchil ta'minlash va ta'lim-tarbiyadagi uzviylikni yo'lga qo'yishni maqsad qilgan. Bu borada Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yuksak ma'naviyatli, tafakkur qiladigan, o'z vataniga mehr qo'ygan avlodni tarbiyalamasak, har qanday islohot samarasiz bo'ladi"[2]. Darhaqiqat yurboshimiz fikriga qo'shilgan holatda shuni aytish kerakki, bugungi yoshlar yod olishdan ko'ra ko'proq tafakkur qiladigan, fikrlashga undaydigan ta'lim tizimi orqali o'qitishimiz zamon talabi. Ushbu masala haqida o'z davrida taniqli jadid bobomiz Munavvarqori Abdurashidxonov ta'lim-tarbiyadagi islohot zarurligini uqtirib, shunday degan edi: "Qadimiy maktablarimizda faqat yod olishga zo'r berilar edi. Endi esa tafakkur va ongni rivojlantirish davridir"[5].

Uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi bolalar bog'chasidan tortib, maktab, kollej, oliy ta'lim va undan keyingi kasbiy hayotgacha izchil davom etuvchi ma'naviy rivojlanish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Bunda ma'naviyat faqat axloqiy me'yorlar yig'indisi emas, balki milliy g'urur, tarixiy xotira, madaniy ong va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiruvchi kuch sifatida qaralmoqda.

Xalqaro maydondagi vaziyatning xavotirli tusga aylanayotgani, mamalakatlar o'rtasidagi ishonch, bir-birini hurmat qilish, gumanizmga aoslangan demokratiya yoki bo'lmasam liberalizmning man'faatlar to'qnashgan vaqtda deyarli ishlamayotgani kabi salbiy holatlar insonlar uchun turli mintaqalarda o'zining ertangi kuniga bo'lgan ishonchini susaytirmoqda. Bunga bir qancha sabablar bor, chunonchi, bizga yetkazilayotgan axborot global tahdidlar sharoitida ko'pincha dezinformatsiya yoki "ishlov berilgan" axborot shaklida kelib xalqlar o'rtasida turli tushunmovchiliklarni paydo qiladi, davlatlar o'rtasiga esa sovuqchilik tushuradi. Masalning mohiyati shundaki, nafaqat O'zbekistonda, balkim butun jahonda axloqiy tamoyillarning mustahkam bo'lishi, turli provakatsiyalarga qarshi ma'naviy "emlanganlik" bizga tinch-totuv hayotni kafolatlaydi. Aynan ma'naviy tarbiya yoshlardagi axborot madaniyaini shakllantirishga asos bo'ladi[7].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasini o'z hayotimizda bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar misolida ko'rishimiz mumkin. Yangicha nomlar va tushunchalarni doimiy ishlatish yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida odatiy holga aylanmoqda. Tarbiya masalasi esa har doimgidek aktual masala sifatida o'z o'rniga ega va hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar qatorida. Ma'naviy tarbiya esa, qilinishi kerak bo'lgan ishlarning eng asosiyalaridan, bu zamon va makon tanlamaydigan mavzu sifatida yoshlar tarbiyasidagi muhim vazifa hisoblanishi ham barchaga birdek ayon. Shundan kelib chiqqan holatda ma'mlakatimizda uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish uchun bir qancha ustuvor yo'nalishlarni belgilab olamiz: fuqarolarda ma'naviy tarbiya shakllanishi uchun kitobxonlikni ijtimoiy "trend"ga aylantirish; yoshlarni global tahdidlardan himoyalash maqsadida asosiy xavf mavjud bo'lgan internet tarmoqlaridan foydalanish va himoyalash madaniyatini shakllantirish; televideniye, radio va ijtimoiy tarmoqlarda ma'naviy tarbiyaga oid,

ko'rsatuv, radioeshittirish, kontent va ijtimoiy rolklarni namoyish etish; xususiy sektorga ma'naviy tarbiya bilan bog'liq kichik va o'rta biznes bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan yoshlarga imkoniyatni kengaytirish; maktab, texnikum va OTMlarda pedagoglar tayyorlashda o'zaro hamkorlikga asoslangan tizim orqali pedagoglarni tayyorlash va jamiyatda o'qituvchining ijtimoiy obro'sini ko'tarish;

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Biz global tahdidlarga qarshi tura oladigan yoshlar tarbiyalashimiz uchun yuqoridagi ustuvor yo'nalishlar asosida ishlarni tashkil qilishimiz zarur, prezidentimiz ta'biri bilan aytganda "Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan qilib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, unga berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar... Mustaqil fikrlash ham eng katta boylikdir" [3]. Fuqalalarda mustaqil fikrni paydo qiladigan asosiy manba ustuvor yo'nalish sifatida sanaganimiz kitobxonlikdir.

Yangi O'zbekiston taraqqiyoti inson omiliga, ayniqsa, uning tafakkur va ma'naviy qiyofasiga tayanmoqda. Shu sababli fuqarolarda ma'naviy tarbiyani shakllantirish, ularda yuksak axloqiy mezonlarni barpo etish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Bu jarayonda kitobxonlikni ommaviy ijtimoiy hodisaga, zamonaviy tilda aytganda – "trend"ga aylantirish eng samarali yo'ldir.

Bugungi kunda axborot oqimi tezligi, ijtimoiy tarmoqlar, vizual kontent ustuvorligi fonida kitob o'qishga bo'lgan ehtiyoj tobora pasaymoqda. Ammo ma'naviy yetuklik va insoniy kamolot aynan chuqur mutolaadan boshlanishi muqarrar. Shavkat Mirziyoyev bu borada shunday deydi: "Kitob – bilim manbai, ma'naviyat quvvati, qalb va tafakkur tarbiyachisidir. Kitob mutolaasi – eng zaruriy ehtiyojga aylanishi kerak" [2].

Kitob inson tafakkurini shakllantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi va unda mustaqil fikrlash madaniyatini rivojlantiradi. Bu esa fuqarolarning ijtimoiy hayotda faol bo'lishini, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va axloqiy mezonlarga hurmat bilan qarashini ta'minlaydi. Jadid bobolarimiz buni juda yaxshi tushunganlar. Ular uchun ham asosiy qurol – kitob, bilim va ma'rifat bo'lgan. Jadid bobomiz Is'hoqxon Ibrat shunday yozgan edi: "Kitob

o'qimagan xalq nodon qolur. Bilim ahli dunyo boshqarur, jaholat ahli esa quldek hayot kechirur"[8]. Abdulla Avloniy esa ta'limning asosi sifatida kitobni ko'rsatib, "Kitob – insonni tiriltiruvchi, millatni uyg'otuvchi mo'jizadir", – deb ta'kidlagan edi[6]. Bundan tashqari Munavvarqori Abdurashidxonov "Kitob o'qimagan odam hayotdan uzilgan daraxtdir"[5] degan edi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Ma'naviy tarbiya samaradorligi – ustoz shaxsiga, salohiyatiga va obro'siga bevosita bog'liq. Shu bois ta'lim muassasalarida pedagoglar tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari, maktab va texnikumlar va ilmiy markazlar o'rtasida uzviy hamkorlik tizimi bo'lishi zarur. Tadqiqotchi Y.Ergashev fikriga ko'ra "Tarbiyaning asosi – ustoz shaxsidir. Ustozda bilim bo'lishi shart, ammo undan muhimrog'i – vijdon va namunadir". Shu sababli: pedagog tayyorlovchi oliygohlar maktablar bilan real hamkorlikda dars olib borishi; pedagoglarga zamonaviy media savodxonlik, psixologiya, g'oyaviy tahlil ko'nikmalari o'rgatilishi; ularning ijtimoiy maqomi va moliyaviy ta'minoti oshirilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sano-standart, 2019. – 624 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 486 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi – bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2018. – B.87.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2019-yildagi 1059-sonli "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
5. Abdurashidxonov M. Maorif masalalari. – Toshkent. 1914. – B.11.
6. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Fan, 1992. – B.27
7. Bahriyev K. Zamonaviy axborot maydoni va mafkura xavfsizligi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005. – 67 b.
8. Ibrat I. Sayohatnomalar. – Toshkent: Sharq, 2004. – B.54.

KARL POPPER DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIGA TA'SIR QILGAN OMILLAR

*Sherboboyev Muxriddin Azimmurod o'g'li, Alfraganus universiteti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti, (PhD)*

ФАКТОРЫ, ПОВЛИЯВШИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ МИРОВОЗЗРЕНИЯ КАРЛА ПОППЕРА

*Шербобоев Мухриддин Азиммурод оглы, доцент кафедры
социальных наук университета Альфраганус (PhD)*

FACTORS THAT INFLUENCED THE FORMATION OF KARL POPPER'S WORLDVIEW

*Sherboboyev Mukhriddin Azimmurod oglu, Associate Professor of
the Department of Social Sciences, Alfraganus University, (PhD)*



<https://orcid.org/0000-0002-9299-1475>

e-mail:

msherboboyev@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Karl Popper dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir qilgan u yashagan davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat ta'sir qilgan. Bundan tashqari uning qarashlari o'zidan oldingi faylasuf olimlarning g'oyalari ijobiy ta'sir qilgan. Faylasuf o'zidan oldingi g'oyalarni o'rganarkan ularni tanqidiy va tahliliy ruhda ko'rib chiqadi hamda o'z g'oyalari bilan to'ldiradi.

Kalit so'zlar: blich, ilmiy tadqiqot mantig'i, dunyoqarash, tarixiylik, tanqidiy ratsionalizm, ochiq jamiyat.

Abstract: In this article, the socio-economic and political situation of the time in which Karl Popper lived influenced the formation of his worldview. In addition, his views were positively influenced by the ideas of his predecessors, philosophers and scientists. The philosopher, studying the ideas of his predecessors, examines them in a critical and analytical spirit and complements them with his own ideas.

Keywords: blich, logic of scientific research, worldview, historicism, critical rationalism, open society.

Аннотация: В данной статье рассматривается социально-экономическая и политическая ситуация эпохи Карла Поппера, повлиявшая на формирование его мировоззрения. Кроме того, на его взгляды положительное влияние оказали идеи его предшественников, философов и учёных. Философ, изучая идеи своих предшественников, анализирует их в критически-аналитическом ключе и дополняет собственными идеями.

Ключевые слова: блич, логика научного исследования, мировоззрение, историзм, критический рационализм, открытое общество.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ) / INTRODUCTION. Karl Raymund Popper 1902-yil 28-iyulda Venada tug'ilgan. O'sha paytda uning tug'ilgan shahri G'arb olamida madaniyatning yetakchi markazlaridan biri hisoblangan. Venadagi madaniy muhit hamda Poppening ota-onasi tomonidan berilgan etibor uning shakllanishiga ta'sir qildi. Bundan tashqari ular farzandini

o'zgarishlarga befarq bo'lmasligi uchun unga olamdagi ijtimoiy-siyosiy g'oyalarga qiziqish uyg'otishga o'zlarini mas'ul deb bilishgan. Bu esa uni falsafa sohasiga kirib kelishiga zamin hozirladi. K.Popperga berilgan tarbiyaning yana bir muhim jihati – uning musiqaga bo'lgan qiziqishi hisoblanadi. Uning onasi musiqa sohasiga qiziqishini uyg'otdi va musiqiy ijod uning

falsafasida ko'plab yangi g'oyalarning yaratilishiga sabab bo'ldi. Aslida, Popper tanqidiy va dogmatik fikrning turli tarmoqlari o'rtasida taqqoslashni o'zining musiqaga bo'lgan qiziqishi natijasi deb biladi[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). XX asr boshlarida Vena shahri sobiq Avstriya imperiyasining poytaxti sifatida eng yirik madaniy, ma'naviy va falsafiy markazlardan biri edi. Bu yerdagi ijodiy muhit ilmiy dunyoqarashga intilish bilan yo'g'rilgan edi. Vena universitetining Induktiv falsafiy fanlar kafedrasini muvaffaqiyatli boshqargan E.Max, L.Bolsman, A.Shterlar tufayli uzoq vaqt davomida Vena shahrida asosan tabiiy fanlar bilan bog'liq yaxshi bir an'ana shakllangan edi. Vena universiteti o'sha davrning eng mashhur ziyolilarini birlashtira oldi va ular bu yerda progressiv qarashlarga ega bo'lgan mutlaqo mustaqil fikrlovchilar sifatida samarali faoliyat yuritdi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Yosh Popperring bu universitetda A.Eynshteyn ma'ruzalarini tinglashi unda mavjud ilmlarni tanqidiy-tahliliy baholash xususiyatlarini shakllantirdi. Bu esa unga har qanday muammoga tegishli o'zining ilmiy yondashuvini boshqa yondashuvlardan teranroq tushunish va tushuntirish imkoniyatini berdi. Unda bilim olish jarayonini tushunish va o'rganish, bilimlarning shakllanish usullarini topish istagi bor edi. Shu sababli ham Popperring turli tushuncha, ifoda yoki fikrlarga nisbatan tanqidiy munosabati shakllanadi.

Faylasufning o'zi shunday eslaydi: "Avstro-Vengriya parchalanganidan keyin Avstriyada inqilob ruhi hukm surdi: havo inqilobiy g'oyalar va shiorlar, yangi va ko'pincha fantastik nazariyalar bilan to'ldirildi. O'sha paytda meni qiziqtirgan nazariyalar orasida eng muhimi, shubhasiz, A.Eynshteynning nisbiylik nazariyasi edi. Bundan tashqari K.Marksning tarix nazariyasi, Z.Freydning psixoanalizi va Alfred Adlerning "individual psixologiya" nazariyalari ham shular jumlasidandir"[2].

Vena universitetida faoliyat yuritgan tabiiy falsafa kafedrasini professori M. Shlik: "Deyarli barcha falsafa – bu naturfalsafadir" [3], deb atadi. Uning tashabbusi bilan E.Max boshchiligida G.Gann, V.Kraft, F.Frank, O.Neyrat, G.Gomperts, R.Karnap va boshqa mashhur olimlarni birlashtirgan Vena klubi tashkil etildi.

K.Popper klub va uning a'zolari muhokama qilayotgan masalalar bilan tanishib chiqqan edi. Bundan tashqari u har bir alohida ishtirokchilar bilan ham muloqot qildi. Muhokama materiallari kitob va maqolalar shaklida chop etildi. Yosh mutafakkirning gnoseologik va uslubiy qarashlari o'sha davrga qadar aniq belgilab olingan va Vena klubi falsafasiga keskin qarshi edi. K.Popperring ilk g'oyalari o'sha davrda hukmron bo'lgan B.Rassel, L.Vitgenshteyn, M.Shlik, R.Karnap, G.Rayxenbaxlar ta'sirida shakllangan mantiqiy-uslubiy qarashlardan tubdan farq qiladi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Popper olamdagi eng nufuzli ijtimoiy va falsafiy mutafakkirlardan biri sifatida shuhrat qozona boshladi. Uning Angliyada yozgan asarlari bugungi kunda zamonaviy falsafa sohasidagi eng mashhur asarlar sifatida qaralmoqda. Biroq, professional darajadagi tan olinishidan tashqari, u shaxsiy darajadagi tanho odamga aylandi. Uning shaxsiyati uning g'oyalari bilan rozi bo'lmagan odamlarga nisbatan juda tajovuzkor edi. Avvaliga faylasufning dunyoqarashi Ikkinchi Jahon urushi dahshatlaridan yaqindagina chiqqan Angliya xalqiga yoqmadi. Keyinchalik uning asarlari Angliya va butun Yevropada ilhom manbai sifatida tan olindi va yanada ommalashdi.

Hayotining so'nggi yillarida Popper o'z faoliyatini ilmga qaratganligi va keskin g'oyalari uchun ochiq tanqid qilindi. Bular ichida "falsifikatsiya mantig'iga" e'tibor qaratgani va boshqa ko'plab asarlarida ham shu g'oyaning singdirilganligi jiddiy tanqid qilindi. U 1969-yilda nafaqaga chiqqunga qadar London Universitetida ishlagan. 1965-yilda u ingliz qirolligi tomonidan ritsarlik unvoni bilan taqdirlandi va shu tariqa Ser Karl Popperga aylandi. Nafaqaga chiqqanidan keyin u 1994-yilda vafotigacha yozuvchi va notiq sifatida faoliyat yuritgan.

“K.Popperning intellektual va falsafiy rivojlanishini tadqiq qilarkanmiz uni ayni bir yo‘nalish yoki maktabga bog‘lab bo‘lmaydi. Aksincha, u alohida, mustaqil fikrlovchi”[4] bo‘lib, uning rivojlanishi maktablar va tizimlar ta‘siridan tashqarida sodir bo‘lgan, deb yozadi N.F.Ovchinnikov. Albatta shaxsning kamoloti davr bilan, ijtimoiy muhit bilan bog‘liq va uning ta‘siridan to‘liq chiqib bo‘lmaydi.

Inson bilimining taxminiy tabiatga ega ekanligi hamda har qanday kuchli nazariyaning ham noto‘g‘ri bo‘lishi mumkinligi, hech bir bilim mutlaq xarakterga ega emasligiga ishonch A.Eynshteynning fizikaga oid uslub g‘oyalari bilan tanishishi natijasida paydo bo‘ldi va Popper barcha bilimlarni xato deb ta‘riflashiga olib keldi. U shunday yozadi: “Mening xatolar haqidagi qarashlarim... Eynshteyn inqilobining bevosita natijasidir”[5]. Darhaqiqat, faylasuf o‘z qarashlarining asoslarini Eynshteyn inqilobi bilan bog‘lamoqda bu esa o‘z navbatida vorisiylik prinsipini aks ettiradi. Kantning ratsional falsafasini Popper fanga tanqidiy yondashuv bilangina to‘ldirdi. Chunki, A.Eynshteyn hatto ilmiy nazariya ham (bu I.Nyuton nazariyasi edi) eng qattiq sinovlarga dosh bera olsa-da, noto‘g‘ri bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Kantning tanqidiy metafizikasi I.Fixte, F.I.Shelling va G.Hegel nemis klassik idealizmida, o‘z aks-sadosini topa olmadi. Binobarin, K.Popper I.Kantni ko‘pchilik ishonganidek nemis idealistik faylasufi sifatida emas, balki ma‘rifatparvarlik davrining tanqidchi faylasufi sifatida ko‘radi. U shunday yozadi: “U ma‘rifatga ishongan, bu uning so‘nggi buyuk g‘alabasi edi”. Shu fikri orqali Popper Kantning falsafiy mushohadasiga anchayin ijobiy baho berganligini sezish mumkin.

I.Kantning falsafasi barcha tanqidiy ratsionalistlarning haqiqatni izlashga yondashuvini oldindan belgilab bergan. Haqiqatning mutlaqligini kafolatlaydigan mutlaq bilim bo‘lishini tasdiqlaydigan Kant g‘oyasi aqlning tubdan noto‘g‘riligi va tanqidning izchilligi g‘oyasi bilan almashtiriladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Shuni aytish kerakki, K.Popper dunyoqarashining shakllanishi Aflotun, I.Kant,

G.Gegel g‘oyalariga tayangan, ulardan foydalangan, ulardan ko‘p narsani o‘rgangan. Falsafaning butun tarixi ilmiy nazariyalar o‘rtasidagi aloqalardan iborat. Falsafadagi vorisiylikni Popper tan olgan hamda, unga zamondoshlari g‘oyalari va ijtimoiy siyosiy muhit sezilarli darajada ta‘sir qilgan.

Jumladan, XX asrdagi urush davri Popper ijodini keskin jadallashtirdi. Bu ta‘sir bilan u o‘z falsafasini rivojlantirdi va yuksaltirdi. Buning eng katta isboti shundaki, totalitar jamiyat shakllanmasligi uchun “ilm-fandagi taraqqiyot” Popperning asosiy falsafasiga aylangan. Bu taraqqiyot sodir bo‘lishi uchun u muammoli deb topgan tasdiqlovchi usul o‘rniga falsifikatsiya usulini taqdim etdi. K.Popper o‘z davrining ilm-fan tushunchasiga qarshi qo‘ygan falsifikatsiya usuli bilan cheklash muammosiga yechim topishni maqsad qilgan. Bu esa ozmi-ko‘pmi uning ijodining samarasida o‘z aksini topdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Карл Раймунд Поппер. Неоконченный поиск. Интеллектуальная автобиография: Праксис; Москва; 2014. – С 9-11.
2. Поппер К.Р. Предположения и опровержения: Рост научного знания. –М., 2004. – С 64.
3. Пазарова О.А. От второго позитивизма к третьему // Крафт В. Венский кружок. Возникновение неопозитивизма. – М. 2003. – С 12.
4. Овчинников Н.Ф. Об интеллектуальной биографии Поппера // Вопросы философии. № 12. 1995. – С. 35.
5. Шишков И.З. В поисках новой рациональности: философия критического разума. - М.: эдиториал УРСС, 2003. – С. 280.
6. Поппер К.Р. Все люди-философы: как я понимаю философию; Иммануил Кант-философ. Просвещения. // Пер. с нем., вступит. статьи и примеч. И.З.Шишкова. Изд. 2-е, стереотипное. – М.: Эдиториал УРСС, 2003. – С 4.
7. Современная британская философия / Hrsg. Ф. Вайсмманн, Х.Д.да. Льюис. 2 Ауфл. Л.: Джордж Аллен и Анвин Лтд., 1961. Серия 3. – С. 447-490.

**BUZG'UNCHI G'OYALARGA QARSHI
KURASHISHDA IJTIMOYIY ONG XAVFSIZLIGI
MEXANIZMLARINING O'RNI: IJTIMOYIY-
FALSAFIY TAHLIL**

Baymatov Alisher Kaxramonovich, Termiz davlat pedagogika instituti "Falsafa, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasida o'qituvchisi

**THE ROLE OF SOCIAL CONSCIOUSNESS
SECURITY MECHANISMS IN THE FIGHT
AGAINST DESTRUCTIVE IDEAS: A SOCIAL-
PHILOSOPHICAL ANALYSIS**

Baymatov Alisher Kaxramonovich, Termez State Pedagogical Institute Teacher of the Department of Philosophy, Fundamentals of Spirituality and Legal Education

**РОЛЬ МЕХАНИЗМОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ
БЕЗОПАСНОСТИ ОБЩЕСТВЕННОГО
СОЗНАНИЯ В БОРЬБЕ С ДЕСТРУКТИВНЫМИ
ИДЕЯМИ: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ
АНАЛИЗ**

Байматов Алишер Кахрамонович, преподаватель кафедры философии, основ духовности и правового образования Термезского государственного педагогического института



<https://orcid.org/0009-0001-2443-6410>

e-mail:
alisherbaymatov69@gamil.com



Annotatsiya: Maqolada buzg'unchi g'oyalarning ijtimoiy ong xavfsizligiga tahdidlari va ularga qarshi kurashish mexanizmlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili yoritilgan. Unda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan mafkuraviy siyosat, davlat dasturlari va Prezident asarlarida ilgari surilgan qarashlar asosida buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashning samarali yo'llari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning izlanishlari tahlil qilinib, ijtimoiy ong xavfsizligini ta'minlashda ma'naviy-ma'rifiy omillarning ahamiyati ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: buzg'unchi g'oyalar, ijtimoiy ong xavfsizligi, mafkuraviy immunitet, axborot xavfsizligi, radikalizm, ma'naviyat.

Abstract: The article examines the threats of destructive ideas to social consciousness security and provides a socio-philosophical analysis of the mechanisms to counter them. It highlights the measures implemented in the Republic of Uzbekistan, state programs, and ideas reflected in the works of the President. The studies of both local and foreign scholars are analyzed, and the role of spiritual and educational factors in ensuring social consciousness security is emphasized.

Keywords: destructive ideas, social consciousness security, ideological immunity, information security, radicalism, spirituality.

Аннотация: В статье рассматриваются угрозы разрушительных идей социальной безопасности сознания и социально-философский анализ механизмов противодействия им. Освещены

меры, принимаемые в Республике Узбекистан, государственные программы и идеи, отражённые в трудах Президента. Также анализируются исследования отечественных и зарубежных учёных, подчёркивается роль духовно-просветительских факторов в обеспечении безопасности общественного сознания.

Ключевые слова: разрушительные идеи, безопасность общественного сознания, идейный иммунитет, информационная безопасность, радикализм, духовность.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Bugungi globallashuv sharoitida buzg'unchi g'oyalarning jamiyat barqarorligiga jiddiy xavf solmoqda. Radikalizm, ekstremizm va diniy-siyosiy manipulyatsiyalar ijtimoiy ongning izdan chiqarishga qaratilgan asosiy vositalardan hisoblanadi. Shunday sharoitda ijtimoiy ongning xavfsizligini ta'minlash, ya'ni odamlarning dunyoqarashi, qadriyatlarini va ijtimoiy identitetini yot g'oyalardan himoya qilish masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Shu bois "ijtimoiy ongning xavfsizligi" tushunchasi nafaqat falsafiy-nazariy, balki amaliy-siyosiy tomonlama muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda insonlar qalbi va ongini egallash uchun kurash davom etmoqda. Kim g'oyada yutsa, kim mafkurada yutsa, aynan o'sha g'alaba qozonadi"[1]. Bu fikr ijtimoiy ongning xavfsizligi konsepsiyasining nazariy poydevori sifatida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham mafkuraviy иммунитет va ijtimoiy ongning xavfsizligi masalasi bevosita davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ijtimoiy ongning xavfsizligi va radikal g'oyalarga qarshi kurash masalasi zamonaviy falsafada keng o'rganilmoqda. O'zbekiston olimlari bu masalaga milliy g'oya, ma'naviyat va mafkuraviy иммунитет nuqtayi nazaridan yondashganlar.

Masalan, M.Qodirov "Mafkuraviy иммунитет va ta'lim tizimi" asarida yoshlarni radikal g'oyalardan himoya qilishning samarali usullari, xususan, ta'lim muassasalarida mafkuraviy иммунитетni shakllantirish zarurligini asoslab beradi [4]. A.Jo'rayev esa ijtimoiy ongning xavfsizligini milliy g'oyaning konseptual asoslari bilan bog'laydi va "milliy g'oya – bu ijtimoiy ongning yot mafkuraviy tahdidlardan himoya qiluvchi g'oyaviy qalqondir", deb ta'kidlaydi [3].

Shuningdek, O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asarlarida ham bu masala markaziy o'rinda turadi. U o'zining "Yangi

O'zbekiston strategiyasi" asarida: "Ma'naviy иммунитетni kuchli xalqni hech qanday yot g'oya yo'ldan ozdira olmaydi" deya alohida urg'u beradi [1]. Bu yondashuv ijtimoiy ongning xavfsizligining davlat siyosatidagi ustuvor o'rni borligini ko'rsatadi.

Xorijiy olimlar ham radikalizmni o'rganishda ijtimoiy ongning zaiflashgan nuqtalariga e'tibor qaratishadi. Masalan, O.Royning "Globalized Islam" asarida radikal g'oyalarning global migratsiya va identitet inqirozi bilan bog'liq ekani ta'kidlanadi[6]. G.Kepel esa "Jihad" kitobida siyosiy islom va radikalizmning jamiyat ongiga ta'sirini o'rganib, uni "Ijtimoiy bo'shliqdan foydalanadigan mafkura" deb baholaydi[5].

Shuningdek, M.Sageman o'z tadqiqotlarida radikallashuv jarayonining psixologik va sotsiologik jihatlari urg'u beradi. Unga ko'ra, yoshlarning radikal oqimlarga qo'shilishi ko'proq axborot makonida bo'shliq paydo bo'lganda sodir bo'ladi.

Xalqaro tashkilotlarning ma'lumotlari ham bu masalaning dolzarbligini ko'rsatadi. BMTning "Global Counter-Terrorism Strategy" hisobotida radikalizmga qarshi kurashning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida "ijtimoiy ongning mustahkamlash" ko'rsatiladi[7].

Demak, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki:

O'zbek olimlari radikal g'oyalarga qarshi kurashda mafkuraviy иммунитет va milliy g'oyani asosiy vosita sifatida ko'rishadi;

Xorijiy tadqiqotlarda esa ko'proq ijtimoiy-iqtisodiy sabablar va axborot makonining xavfsizligi muhim omil sifatida yoritiladi;

Har ikki yondashuvni uyg'unlashtirish orqali ijtimoiy ongning xavfsizligini mustahkamlash mumkin.

Biz maqolamizda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan radikal g'oyalarning jamiyatdagi ta'sirini dialektik va ilmiy tahlil qilish metodlari yordamida ochib berishga harakat qildik.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). "Ijtimoiy ongning xavfsizligi" tushunchasi hali to'liq ilmiy adabiyotlarda keng qo'llanmagan bo'lsa-da, ijtimoiy-falsafiy tahlilda juda

muhim kategoriya sifatida qaralishi mumkin. Ijtimoiy ong xavfsizligi – bu jamiyat a'zolarining dunyoqarashi, qadriyatlari, ma'naviy-mafkuraviy qarashlari turli yot va destruktiv g'oyalardan, radikalizm va ekstremizm ta'siridan himoyalangan bo'lishi, ularning sog'lom mafkuraviy muhitda shakllanishini ta'minlash jarayonidir. Falsafiy nuqtayi nazardan "Ijtimoiy ong xavfsizligi" – bu jamiyatning axloqiy-falsafiy immunitetidir. Agar jamiyat ongida bo'shliq paydo bo'lsa, u yot g'oyalar bilan to'ldiriladi. Shu sababli ijtimoiy ong xavfsizligini mustahkamlash – millatning ma'naviy mustaqilligi va barqaror taraqqiyoti uchun kafolat bo'ladi. Shu boisdan, "ijtimoiy ong xavfsizligi"ni falsafiy kategoriya sifatida tadqiq qilish muhimdir. O'zbek olimlaridan A.Erkayev milliy mafkurani jamiyatning "ma'naviy immuniteti" deb ta'riflaydi[2].

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy ong xavfsizligining tarkibiy mexanizmlari quyidagilardir:

Ma'naviy qadriyatlarni himoya qilish – milliy va umuminsoniy qadriyatlarni radikal va buzg'unchi g'oyalardan asrash; Axborot xavfsizligi – yoshlar ongini noto'g'ri ma'lumotlardan, soxta g'oya va targ'ibotlardan himoyalash; Mafkuraviy immunitet – shaxsda mustaqil fikrlash va yot g'oyalarga qarshi turish qobiliyatini shakllantirish; Ma'rifiy savodxonlik – aholining diniy, siyosiy va huquqiy bilimlarini oshirish orqali ongni mustahkamlash; Jamiyat birdamligi – ijtimoiy adolat, bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash.

Bugungi kunda ijtimoiy ong xavfsizligi va buzg'unchi g'oyalar o'rtasida dialektik kurash mavjud. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi radikal oqimlarga keng imkoniyat yaratmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda yiliga o'rtacha 30 mingdan ortiq inson terrorchilik faoliyatlari oqibatida halok bo'lmoqda[6]. O'zbekiston Respublikasining "Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni rivojlantirish to'g'risida"gi qarorlari, "Ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonuni ijtimoiy ong xavfsizligini ta'minlashda huquqiy asos sifatida xizmat qilmoqda. Gapimizning isboti o'laroq, O'zbekistonda Milliy xavfsizlik strategiyasi asosida 2022-yilda 300 dan ortiq ekstremistik kontent internetdan olib tashlangan[8].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

O'tkazilgan falsafiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, buzg'unchi g'oyalar ijtimoiy ong xavfsizligiga

bevosita tahdid soluvchi omil hisoblanadi. Jamiyatda mafkuraviy bo'shliq mavjud bo'lsa, ekstremistik oqimlar undan foydalanib, yoshlarning dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatadi. Tahlillar asosida quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:

Ijtimoiy ong xavfsizligi jamiyatning ma'naviy-axloqiy barqarorligining bosh mezonidir. Agar jamiyatda bu xavfsizlik ta'minlansa, radikal g'oyalarning ildiz otishi mushkul bo'ladi.

Buzg'unchi g'oyalarning manbalari ikki turga bo'linadi: tashqi mafkuraviy bosim (global ekstremistik tarmoqlar) va ichki ijtimoiy-iqtisodiy omillar (ishsizlik, adolatsizlik, tengsizlik).

Axborot makoni ijtimoiy ong xavfsizligining asosiy frontidir. Bugungi kunda ekstremistik g'oyalar asosan internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilmoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Shunday qilib, buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashda ijtimoiy ong xavfsizligi mexanizmlarining o'rni beqiyosdir. Bu mexanizmlar mafkuraviy immunitet, axborot xavfsizligi, ijtimoiy adolat va yoshlar tarbiyasi orqali jamiyat barqarorligini mustahkamlaydi. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, milliy g'oya va ma'naviy-ma'rifiy siyosat uyg'un yondashuvda olib borilsa, jamiyatning ijtimoiy ong xavfsizligi ta'minlanadi va buzg'unchi g'oyalarning ildiz otishiga yo'l qo'yilmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.–Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. Erkayev A. Milliy mafkura asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2019.
3. Jo'rayev A. Milliy g'oya va mafkuraviy xavfsizlik. – Toshkent. 2020.
4. Qodirov M. Mafkuraviy immunitet va ta'lim tizimi. – Toshkent. 2021.
5. Kepel G. Jihad: The Trail of Political Islam. – Harvard University Press, 2017.
6. Roy O. Globalized Islam: The Search for a New Ummah. – London. 2004.
7. United Nations. Global Counter-Terrorism Strategy Report. 2023.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik strategiyasi hisobotlari. – Toshkent. 2022

YOSHLARNING G‘OYAVIY BIRDAMLIK FAZILATLARINI YUKSALTIRISHDA VA MUSTAHKAMLASHDA MUSIQIY MEROSNING O‘RNI


*Orziboyev Rustamjon, Farg‘ona davlat universiteti Pedagogika,
psixologiya, san‘atshunoslik fakulteti o‘qituvchisi*

THE ROLE OF MUSICAL HERITAGE IN ENHANCING AND STRENGTHENING THE VIRTUES OF THE IDEAL UNITY OF YOUTH

*Orziboyev Rustamjon, teacher of the Faculty of Pedagogy, Psychology,
and Art History, Fergana State University*

РОЛЬ МУЗЫКАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ В УКРЕПЛЕНИИ ИДЕАЛЬНОГО ЕДИНСТВА МОЛОДЕЖИ

*Орзибоев Рустамжон, преподаватель факультета педагогики,
психологии и искусствования Ферганского государственного
университета*



<https://orcid.org/0009-0001-9823-9313>

e-mail:

orziboyevrustamjon@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarda g‘oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirishda musiqiy merosning o‘rni falsafiy jihatdan atroflicha tahlil qilinadi. Shu bilan birga yoshlarda g‘oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirishda musiqiy merosdan oqilona foydalanish yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: g‘oyaviy birdamlik, musiqiy meros, musiqa, ijro, qalb, fazilat, dunyoqarash, ma‘naviy-axloqiy tarbiya.

Annotation: The article analyzes in detail from a philosophical point of view the role of musical heritage in enhancing the qualities of ideological unity among young people. At the same time, ways of rational use of musical heritage to improve the qualities of ideological unity of youth will be shown.

Key words: ideological unity, musical heritage, music, performance, heart, virtue, worldview, spiritual and moral education.

Аннотация: В статье подробно с философской точки зрения анализируется роль музыкального наследия в повышении качеств идейного единства молодежи. При этом будут показаны пути рационального использования музыкального наследия для повышения качеств идейного единства молодежи.

Ключевые слова: идейное единство, музыкальное наследие, музыка, исполнение, сердце, добродетель, мировоззрение, духовно-нравственное воспитание.

KIRISH. Yoshlarning g‘oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish va mustahkamlashda musiqiy merosning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ijtimoiy hayotda yoshlarning g‘oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirishda musiqiy merosdan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Insonlar asrlar davomida shakllangan ma‘naviy tajriba va dunyoqarashga tayanib, g‘oyaviy birdamlik asosida hayot kechirgan. Meros — bu o‘tmishdan qolgan qadriyat va bilimlar bo‘lib, ularni o‘zlashtirish jarayoni madaniyat taraqqiyotining asosiy qonuniyatlaridan biridir. Musiqiy meros esa xalq og‘zaki ijodi, an‘anaviy qo‘shiqlar va kuylarning asrlar davomida

avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan san‘at namunalarini yig‘indisidir. U yoshlarning tafakkuri va ma‘naviy kamolotida muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. Milliy musiqiy meros turli yo‘nalish va janrlarda namoyon bo‘lib, o‘zining betakror xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, musiqa madaniyatining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan, madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazish nazarda tutiladi[1,4].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA
METODLARI.** Ulug‘ Abu Ali Ibn Sino (980-1037) o‘zining “Tib qonunlari” asarining birinchi kitobida

shunday yozadi: “Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo‘llamoq kerak. Biri bolani sekin-asta tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo‘lib qolgan musiqa va qo‘shiqdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan tarbiyaga va ruhi bilan musiqada bo‘lgan iste’dodi hosil qilinadi”[2,84].

Kaykovus o‘zining “Qobusnoma” asarida insonlarning g‘oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish masalalarini hal qilishda musiqiy musiqa va hofizlik muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Jumladan, “Hofizlik qilsang, she’r yozmoqni ham bilsang, o‘z she’ringga haris (berilib ketma O.R.) bo‘lmag‘il, nedinkim, sening she’ring o‘zingga xush kelsa ham, boshqaga xush kelmasligi mumkin, chunki hofizlar xalq she’rining roviysidur”[3], deydi.

XI asrning buyuk olimi Mahmud Qoshg‘ariy turkiy qavmlar diyorini kezib, maqol, matal, qo‘shiq, rivoyat va afsonalarni yozib olib, o‘zining “Devonu lug‘oti-t-turk” asariga kiritadi. Muallif o‘zining mazkur asarida *qoshug‘ning* izohini she’r, qasida deb ko‘rsatadi[4]. IX–XII asrlarga oid musiqiy meros haqida Yusuf Xos Hojibning *Qutadg‘u bilig* asari hamda Abu Nasr Forobiyning musiqaga bag‘ishlangan ilmiy ishlari muhim manba sanaladi. Shuningdek, Sa’diy va Husayn Voiz Koshifiy asarlarida ham musiqaning g‘oyaviy birdamlikni mustahkamlovchi tarbiyaviy ahamiyati ta’kidlangan. Demak, milliy qo‘shiqlar ta’sirchanligi ko‘p jihatdan ijrochi mahorati va iste’dodiga bog‘liqdir.

MUHOKAMA. “Ustoz-shogird” asosida bizgacha yetib kelgan, musiqiy merosimizning oltin xazinasidan joy olgan “maqom”, “dostonchilik”, “folklor” san’atining yoshlar g‘oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirishda o‘ziga xos o‘rni bor. Shuning uchun avloddan avlodga o‘tib kelgan bebaho musiqiy merosimiz bo‘lgan Buxoro, Xorazm va Farg‘ona-Toshkent maqomlari, betakror ashula va katta ashulalar hofizlar, shuningdek, Surxondaryo, Qashqadaryoda rivojlangan dostonchilik san’ati baxshilar tomonidan sevib ijro etilib kelinayotganligi bejiz emas. Sobiq ittifoq davrida milliy musiqiy merosimizga sinfiylik nuqtayi nazaridan baho berilishi oqibatida ko‘plab qadriyatlarimiz “o‘tmish sarqiti” sifatida rad etildi. Natijada maqom, baxshichilik va folklor san’ati yo‘qolish xavfiga duch keldi. Bugungi kunda esa bu boyliklarni qayta tiklashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Har bir millat va elatlarni birlashtiradigan, ularda g‘oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltiradigan va mustahkamlaydigan jarayon musiqiy meros

hisoblanadi. Har qanday ko‘ngilni o‘ziga rom eta oladigan, insonlarning qalbiga ezgulik urug‘ini ekib, boshqa yomon illatlarga qarshi kurashadigan ham musiqa desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu o‘rinda o‘z-o‘zidan sezilib turibdiki, milliy musiqiy meros inson uchun qanchalik beqiyosligi hamda tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega ekanligini bilsa bo‘ladi. Zero, “Musiqas san’ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir”[5].

A.F.Losev musiqani mustaqil estetik hodisa sifatida talqin qilib, uning insonda go‘zallik tuyg‘usi, axloqiy qadriyat va estetik tafakkurni yuksaltirishdagi rolini ta’kidlagan. Musiqas ezgulikka chorlab, yoshlarni Vatanga sadoqat va birlik ruhida tarbiyalaydi. Bugungi O‘zbekistonda ham “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasi asosida milliy musiqa yoshlar ongida g‘urur va vatanparvarlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. “Dunyoda qarama-qarshilik va ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi o‘ta murakkab zamonda millati, tili va dini turlicha bo‘lgan millionlab odamlarni hech qanday tarjimonsiz do‘st qiladigan, ular o‘rtasida hamkorlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlaydigan musiqa san’atining o‘rni va ta’siri tobora ortib bormoqda”[6].

“Agar biz asl, haqiqiy san’atni bilmoqchi, o‘rganmoqchi bo‘lsak, avvalo, mumtoz maqom san’atini bilishimiz, o‘rganishimiz kerak. Agar biz san’atni, madaniyatni ko‘tarmoqchi bo‘lsak, avvalo mumtoz musiqa san’atini ko‘tarishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatimizni safarbar etishimiz zarur”[7].

Xalqimiz musiqiy merosida folklor, mumtoz va maqom asarlari xalq donishmandligi va milliy o‘zlikni ifodalaydi. Xalq qo‘shiqlari yoshlarni ma’naviy tarbiyalashda muhim manbadir. Tarix davomida folklor, bastakorlik va ijrochilik shakllari uyg‘unlashib, milliy madaniyatimizning ajralmas qismiga aylangan. O‘rta Osiyo qo‘shiqchilik an’analari esa og‘ir sharoitlarda ham o‘z asoslarini saqlab qolgan. Masalan, XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi musiqa to‘g‘risidagi risolalar va bayozlarda ikki jihatni, bir tomondan, ularning qadimiy meros bilan chambarchas bog‘liqligi va ikkinchi tomondan, o‘zbek musiqiy amaliyotida o‘sha zamon ruhi, mazmunining uyg‘unligini ko‘rish mumkin edi[8].

NATIJALAR. Platon va Aristotel o‘z davrida musiqaning tarbiyaviy, o‘zgartiruvchi va tartibga soluvchi rolini tasdiqlash uchun juda ko‘plab ilmiy

tadqiqot ishlarini olib borgan va u o'zining natijasini bergan. Ular o'z asarlarida musiqa san'ati umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi haqida ma'lumotlar berganlar. Zero, bu o'ziga xoslik nafaqat shaxsning estetik-axloqiy ehtiyojlarini rivojlantirishda, balki yuksak axloqiy mazmunga ega bo'lgan fazilatlarini musiqiy meros doirasida amalga oshirish mumkinligini ta'kidlab o'tishadi. Platon o'zining "Qonunlar" asarida "Xudolar inson zotiga ular mehnatga yaratilganliklari uchun, og'ir mehnatdan oz fursat bo'lsa-da, dam olishlariga, bayramlar o'tkazishlariga Appolon xudosi musiqa hadya etadi... unga boshchilik qiluvchi Dionis kishilar yo'l qo'ygan xatolarni ilohiy kuch yordamida tuzatish, tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish imkonini yaratadi"[9,69] – deydi.

Aristotel musiqani ijtimoiy hodisalar qatoriga qo'shadi. Uning fikricha, musiqa insonlarga hordiq chiqarish uchun xizmat qilib, bilim doirasi keng insonlar uchun intellektual mashg'ulot ham bo'la olishini ta'kidladi. Ayniqsa, "Aristotel tarbiyaning vositasi sifatida musiqaga katta ahamiyat beradi"[9]. Aristotel asarlarida san'atning tarbiyaviy roli katta o'rin egallaydi. U o'zining "Poetika" asarida san'at asarlari inson qalbini salbiy ehtirolardan tozalab, uni ma'naviy jihatdan boyitadi, deb yozadi. Aristotel tarbiyaning vositasi sifatida musiqaga katta ahamiyat qaratadi. Biroq uning fikricha, san'atning boshqa turlari ham insonning ma'naviy qiyofasini shakllantirishga katta yordam beradi.

A.Shopengauer esa musiqa odamni o'ziga mahliyo qilib tinchlantiradi yoki ko'ngilni ochadi, lekin boshqa san'atlarda bo'lgani kabi unda g'oya yo'q, deb hisoblaydi[10]. M.Veberning aytishicha, muhabbat insonlarga qanchalik kerak bo'lsa, musiqa ham shunchalik kerak. Bugun musiqa san'at bo'lish bilan birga tarbiya va jamiyat barqarorligini mustahkamlovchi omil sifatida qadrlanmoqda. Milliy qo'shiqlar va maqomlar xalqimiz ruhiy dunyosini ifodalaydi hamda ma'naviy boylik sifatida kelajak uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ular odamlarni birlik, mehr va ezgulikka chorlab, yoshlarning dunyoqarashi va ma'naviy barkamolligini shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

XULOSA. Xalq musiqasi namunalarida Vatan, tabiat, halollik, mehnatsevarlik, insonlarga mehr-muhabbat, tinchlik va adolat kabi g'oyalar kuylanadi. Milliy musiqiy meros yoshlarni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Folklor, dostonchilik va maqom janrlari yoshlar ongida g'oyaviy birdamlikni mustahkamlaydi. Xalq qo'shiqlari va mumtoz ashulalar asrlar davomida

qadriyat sifatida avloddan avlodga o'tib kelayotgan ma'naviy boylik bo'lib, tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega. Shu bois ashula, alla, doston va maqom kabi janrlardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Demak, yoshlarning g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirishda milliy musiqiy merosdan oqilona foydalanish ularda vatanparvarlik, milliy g'urur, insonparvarlik va tolerantlik kabi ijobiy fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga musiqiy merosni o'rganish va uning g'oyaviy-badiiy mazmunini tahlil qilish natijasida insonning ruhiy dunyosi, tarixi, madaniyati va hayot tarzini chuqurroq anglashimiz mumkin bo'ladi. Bu bizga o'z milliy musiqiy merosimizni qadrlash, uni saqlash va rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абролова М., Галиева Д. Музыка. 2-синфлар учун. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. –Б. 4.
2. Маннопов С. Ўзбек халқ музыка маданияти. – Тошкент: Янги аср авлоди нашриёти. 2004. –Б. 84.
3. Кайковус. Қобуснома. –Тошкент: Ўқитувчи нашриёти. НМИУ. 2006. –Б. 149.
4. Махмуд Қошғарий. Девони луғати-т-турк. – Тошкент: Фафур Ғулом нашриёт-матбаа уйи. 2017. –Б. 151.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. –Тошкент: Ўзбекистон. НМИУ. 4-том. –Б.344.
6. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. –Тошкент: Ўзбекистон. НМИУ. 2-том. –Б. 441.
8. Шодиев Ж.Ж. Мамлакатимизда инсон қадрини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари //ҚарДУ хабарлари. Илмий-назарий, услубий журнал. Махсус сон (Ижтимоий фанлар).
9. Ҳомидов Ҳ. Ўзбек анъанавий кўшиқчилик маданияти тарихи. –Тошкент: Ўқитувчи нашриёти. 1996. –Б. 149.
10. Йўлдошев С., Усмонов М., Каримов Р. Қадимги ва ўрта аср Ғарбий Европа фалсафаси. – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти. 2003. –С. 69, 112.
11. Шопенгауэр А. Свобода воли и нравственность. – Москва: Республика. 1992. –С. 10.

**MA'RIFATPARVARLIK AN'ANALARI VA
ULARNING ZAMONAVIY MA'NAVIY-MA'RIFIY
ISLOHOTLARDAGI AHAMIYATI**

Hamrayev Bobomurod Shodavlatovich,

Termiz davlat pedagogika instituti

Falsafa va ma'naviyat asoslari kafedrası o'qituvchisi

**ENLIGHTENMENT TRADITIONS AND THEIR
SIGNIFICANCE IN MODERN SPIRITUAL AND
EDUCATIONAL REFORMS**

Hamraev Bobomurod Shodavlatovich,

*Lecturer, Department of Philosophy and Fundamentals of
Spirituality, Termez State Pedagogical Institute*

**ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ТРАДИЦИИ И ИХ
ЗНАЧЕНИЕ В СОВРЕМЕННЫХ ДУХОВНО-
ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ РЕФОРМАХ**

Хамраев Бобомурод Шодавлатович,

преподаватель кафедры философии и основ духовности

Термезского государственного педагогического института

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek falsafiy tafakkurida shakllangan ma'rifatparvarlik an'analari va ularning zamonaviy ma'naviy-ma'rifiy islohotlardagi o'rni tahlil qilingan. Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar qarashlari, jadidlarning ma'rifiy merosi hamda Yangi O'zbekiston davridagi islohotlarning falsafiy asoslari yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ma'rifatparvarlik faqat tarixiy hodisa emas, balki bugungi taraqqiyot konsepsiyasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: ma'rifatparvarlik, jadidchilik, falsafa, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar, Yangi O'zbekiston, milliy uyg'onish.

Abstract: This article analyzes the enlightenment traditions formed in Uzbek philosophical thought and their role in modern spiritual and educational reforms. The ideas of thinkers such as al-Farabi, Ibn Sina, Alisher Navoi, the legacy of the Jadid movement, and the philosophical foundations of reforms in New Uzbekistan are examined. The study concludes that enlightenment traditions are not only a historical phenomenon but also a philosophical concept of contemporary development.

Keywords: enlightenment, Jadidism, philosophy, spiritual and educational reforms, New Uzbekistan, national renaissance.

Аннотация: В данной статье анализируются просветительские традиции, сформировавшиеся в узбекской философской мысли, и их роль в современных духовно-просветительских реформах. Освещены идеи таких мыслителей, как аль-Фараби, Ибн Сина, Алишер Навои, наследие джадидов, а также философские основы реформ в период Нового Узбекистана. По результатам исследования, просветительские традиции рассматриваются не только как историческое явление, но и как философская концепция современного развития.

Ключевые слова: просветительство, джадидизм, философия, духовно-просветительские реформы, Новый Узбекистан, национальное возрождение.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Mustaqillik yillarida O'zbekiston jamiyati o'zining tarixiy ildizlari, milliy qadriyatlari va ma'naviy merosiga tayangan holda taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu jarayonda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar alohida ahamiyat kasb etdi. Chunki har qanday jamiyatning yuksalishi, uning taraqqiyot darajasi



tel: +998994252502

e-mail: asdp95@umail.uz

https://orcid.org/0009-

0004-3844-5627



avvalo inson kapitalining sifatiga, fuqarolarning bilim darajasi va ma'naviy saviyasiga bog'liqdir. Yangi O'zbekiston sharoitida ma'rifatli jamiyat qurish strategik vazifalardan biriga aylangan bo'lib, bu jarayonni chuqur falsafiy, tarixiy va sotsiologik tahlil etish dolzarb masalalardan biridir.

Ma'rifatli jamiyat tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, u faqatgina ta'limning rivoji yoki ilmiy yutuqlar bilan cheklanmaydi. Bu tushuncha avvalo insonning ongida, tafakkurida, hayot falsafasida ifodalanadi. Ma'rifatli jamiyat – bu erkin fikrlaydigan, tanqidiy qarashlarga ega, o'z qadriyatlarini asrab, zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallagan, buning natijasida o'z mamlakati va xalqining ravnaqiga hissa qo'shadigan insonlar jamiyatidir. Shuning uchun ham Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan barcha islohotlar markazida inson omili, uning bilimi va ma'naviy qiyofasini yuksaltirish masalasi turadi.

ADABIYOT TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkurida ma'rifatparvarlik an'analari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularning ildizlari qadimiy davrlardan boshlab shakllangan. Insoniyat taraqqiyotida ma'rifat, ilm va tafakkur orqali jamiyatni yuksaltirish g'oyasi doimo dolzarb bo'lib kelgan. Sharqning buyuk mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, keyinchalik jadidlar – Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi ziyolilar o'z asarlarida ilm va ma'rifatni inson kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida talqin qilganlar [1][2][3]. Shu sababli ham ma'rifatparvarlik nafaqat tarixiy hodisa, balki zamonaviy ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning falsafiy tayanchi sifatida qaralishi lozim.

XIX–XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda jadidchilik harakati vujudga keldi. Behbudiy, Avloniy, Fitrat va Cho'lpon kabi jadid ziyolilari yangi maktablar ochish, milliy matbuotni rivojlantirish, teatr va madaniy muassasalarni tashkil etish orqali xalqni ma'rifatli qilishga intildilar. Ularning qarashlari va amaliy faoliyati o'zbek ma'rifatparvarlik an'alarini yangi bosqichga olib chiqdi. Jadidlarning “millatni qutqarishning yo'li – ilm va ma'rifatda” degan shiori bugungi islohotlar bilan hamohangdir [4].

Zamonaviy tadqiqotlarda ham bu masala keng yoritilgan. Mustaqillik yillarida o'zbek olimlari tomonidan jadidchilik va ma'rifatparvarlik falsafasiga bag'ishlangan ko'plab monografiyalar yaratildi.

Jumladan, A.Jo'rayevning “Ma'rifatparvarlik va jadidchilik falsafasi” asarida jadidchilikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati, milliy uyg'onish jarayonidagi o'rni chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy olimlardan E.Alvort, A.Bennigsen, S.Vimbush, P.Kazemi kabi tadqiqotchilar ham Markaziy Osiyodagi ma'rifiy uyg'onish jarayonlarini keng o'rganib, jadidchilikni milliy uyg'onishning asosiy bosqichi sifatida talqin qilganlar [6].

Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” hamda boshqa asarlarida ma'naviy-ma'rifiy siyosatga alohida e'tibor qaratilgan. Ularda milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tish g'oyasi ilgari surilib, bu jarayonda ma'rifatparvarlik an'alariga tayangan holda ta'lim va tarbiyani yangi bosqichga olib chiqish zarurligi ta'kidlanadi. Shu ma'noda, adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, ma'rifatparvarlikning tarixiy ildizlari, jadidlar faoliyati va zamonaviy davlat siyosati bir-biri bilan uzviy bog'liqdir [5].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Yangi O'zbekiston taraqqiyotida ma'rifatli jamiyat barpo etish masalasi davlat siyosati, jamiyat ongidagi ustuvor qadriyat va millatning kelajagini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylandi. Bu jarayonni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tarixiy tajriba, milliy ma'naviy meros va zamonaviy islohotlar uyg'unlashgan holda jamiyatni yangilash va uni intellektual salohiyatga tayangan taraqqiyot sari olib bormoqda. Ma'rifatli jamiyat barpo etishning natijalarini tahlil qilishda tarixiy-ma'naviy merosning qayta tiklanishi, ta'lim va fan sohasidagi islohotlar, yoshlarning intellektual va ma'naviy immunitetini mustahkamlash, global jarayonlarga uyg'unlashuv hamda milliy g'oyaning mazmunan boyib borishi kabi bir nechta yo'nalishlar o'zaro kesishadi.

Sharq mutafakkirlarining qarashlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ma'rifatni jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi sifatida baholash g'oyasi tarixiy ildizlarga ega. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi allomalar jamiyatning yuksalishini aql va bilimga bog'laganlar. Ularning qarashlari hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, aksincha,

davlat siyosatining falsafiy asosiga aylangan. Navoiy ilm va odobni uyg'un holda talqin etgan, ma'rifatsizlikni jamiyat uchun eng katta falokat deb bilgan. Jadidlar esa bu g'oyalarni amaliyotga tatbiq etib, xalqni ilmi qilish orqali millatni qutqarish mumkinligini ilgari surgan [3]. Bugungi islohotlar ana shu merosning mantiqiy davomi sifatida amalga oshirilmoqda.

Sotsiologik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning ma'naviy-axloqiy qarashlarida ham ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Kitobxonlikni targ'ib qilish, teatr va san'at muassasalariga yoshlarning qiziqishini oshirish, sport va madaniyatni rivojlantirish ma'naviy yuksalishning amaliy natijalaridan hisoblanadi. "Besh muhim tashabbus" doirasida amalga oshirilgan ishlar natijasida minglab yoshlar turli ijodiy to'garaklar, sport musobaqalari, san'at loyihalarida ishtirok etmoqda. Natijada yoshlarning bo'sh vaqti mazmunli o'tayapti, ular turli zararli oqimlardan, ommaviy madaniyatning salbiy ta'siridan asrab qolinmoqda.

Tahlillar ko'rsatadiki, ma'rifatli jamiyat barpo etish jarayonida oila va mahallaning o'rni beqiyosdir. Oila muhitida farzandga beriladigan tarbiya, mahalladagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yoshlarning dunyoqarashiga sezilarli ta'sir qiladi. Shu bois ham oxirgi yillarda mahalla institutining ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini kuchaytirish, oilalarda kitobxonlikni rivojlantirish, ota-onalar uchun maxsus ma'rifiy dasturlarni yo'lga qo'yish amaliy natija bermoqda. Bu jarayon yoshlarni o'z ildizlariga sodiq, zamonaviy bilimlarni egallagan, mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qilmoqda [2].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Natijalar shuni ko'rsatadiki, ma'naviy yuksalish va ma'rifatli jamiyat barpo etish nafaqat ichki, balki tashqi siyosatda ham o'z samarasini bermoqda. O'zbekistonning xalqaro nufuzining oshishi, yoshlarning chet eldagi nufuzli oliygohlarda tahsil olishi, xalqaro grant va loyihalarda ishtiroki buning yorqin dalilidir. BMT, YUNESKO, YUNISEF kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan dasturlar natijasida ta'lim va madaniyat sohalarida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon O'zbekistonning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'minlayapti [7].

Ma'rifatli jamiyat barpo etishning eng muhim natijalaridan yana biri – xalqning o'zligini anglash darajasining ortishi, milliy g'urur va iftixorning yuksalishidir. Mustaqillik yillarida tarixiy merosga, buyuk allomalarimizning asarlariga e'tibor kuchaydi, ularning asarlari qayta nashr qilinmoqda, xalqaro miqyosda targ'ib qilinmoqda. Natijada xalqimizning milliy ongida o'z tarixiga, qadriyatlariga, ma'naviy ildizlariga chuqur hurmat tuyg'usi shakllanmoqda. Bu esa jamiyatda ijtimoiy birlikni mustahkamlab, taraqqiyotga bo'lgan ishonchni kuchaytirmoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o'rnida aytish lozimki, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi, avvalo, inson kapitalini yuksaltirishga, yoshlarning ma'naviy va intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu an'analarga tayanish, ularni zamonaviy talablarga moslashtirish orqali jamiyatimizda barqaror taraqqiyot, ma'naviy yuksalish va milliy uyg'onishni ta'minlash mumkin. Shu bois, bugungi kunda har bir sohada – ta'limda, fan va innovatsiyada, madaniyat va san'atda, huquqiy davlat qurilishida, ijtimoiy hayotda ma'rifatparvarlik tamoyillarining qo'llanilishi hayotiy zaruratdir. Zero, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning falsafiy asoslarini ma'rifatparvarlik belgilab beradi, bu esa Yangi O'zbekistonni kelajakda yanada qudratli va taraqqiy etgan davlat sifatida namoyon etishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Ma'naviyat, 1997.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma'naviyat, 1992.
5. Bentley J. The Renaissance. – Cambridge: CUP, 2003.
6. Ibn Sino. Donishnoma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot uyi, 2001.
7. Toynbee A. A Study of History. – Oxford: OUP, 1992.

VIRTUAL TAHDIDLARNING YOSHLAR MA'NAVIIY- AXLOQIY DUNYOQARASHIGA TA'SIRI

*Mahammadiyev Jamol Rustam o'g'li,
Surxondaryo viloyati Muzrabot tumani 10-sonli maktab
ma'naviy -ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari*

THE IMPACT OF VIRTUAL THREATS ON THE SPIRITUAL AND MORAL WORLDVIEW OF YOUTH

*Mahammadiyev Jamol Rustam ogli,
Deputy Director for Spiritual and Educational Affairs
School No. 10, Muzrabot District, Surxondaryo Region*

ВЛИЯНИЕ ВИРТУАЛЬНЫХ УГРОЗ НА ДУХОВНО- ПРАВСТВЕННОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ МОЛОДЕЖИ

*Махаммадиев Джамол Рустам оглы,
заместитель директора по духовно-просветительской работе
школы №10 Музрабадского района Сурхандарьинской области*



<https://orcid.org/0009-0009-2879-8951>
e-mail:
jamol.mahammadiyev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar taraqqiyoti sharoitida kibermakonda yuzaga kelayotgan virtual tahdidlarning yoshlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashiga ta'siri tahlil qilingan. Internetda keng tarqalgan soxta axborotlar, kiberxavfsizlik muammolari, kiberbulling, ijtimoiy izolyatsiya va zararli kontent yoshlar ongiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, yoshlarni raqamli muhitdagi xavf va tahdidlardan himoya qilish, ularning ma'naviy barkamolligini mustahkamlash yo'llari haqida taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: virtual tahdidlar, raqamli muhit, yoshlar, ma'naviy-axloqiy dunyoqarash, kiberxavfsizlik, dezinformatsiya, media savodxonlik.

Abstract: This article examines the impact of virtual threats emerging in the context of digital technology development on the spiritual and moral worldview of youth. It highlights issues such as the spread of false information on the internet, cybersecurity challenges, cyberbullying, social isolation, and harmful content that affect young people's consciousness. The article also provides recommendations for protecting youth from digital environment threats and for strengthening their spiritual and moral values.

Keywords: virtual threats, digital environment, youth, spiritual and moral worldview, cybersecurity, disinformation, media literacy.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние виртуальных угроз, возникающих в условиях развития цифровых технологий, на духовно-нравственное мировоззрение молодежи. Рассмотрены такие явления, как распространение ложной информации в интернете, проблемы кибербезопасности, кибербуллинг, социальная изоляция и деструктивный контент, оказывающие влияние на сознание молодежи. Кроме того, предложены меры по защите молодежи от угроз цифровой среды и укреплению их духовно-нравственных ценностей.

Ключевые слова: виртуальные угрозы, цифровая среда, молодежь, духовно-нравственное мировоззрение, кибербезопасность, дезинформация, медиаграмотность.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Zamonaviy raqamli texnologiyalar jamiyatimizni tubdan o'zgartirib, uzluksiz axborot oqimi va tezkor aloqa imkoniyatlari orqali madaniy va ijtimoiy tuzilmalarni yangiladi. Raqamli texnologiyalar ta'sirining eng muhim yo'nalishlaridan biri bu

yoshlarning qadriyat yo'nalishlarini shakllantirishdir. Yosh avlodning raqamli platformalar va media-makonda faol ishtirok etishi sharoitida ushbu texnologiyalar ularning ma'naviy-axloqiy qarashlariga qanday ta'sir qilishini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Raqamli texnologiyalarning yosh avlod ruhiyati va dunyoqarashiga ta'siri ularning ma'naviy-axloqiy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun yangi ta'lim-tarbiya yondashuvlarini ishlab chiqish, har tomonlama tahlil qilishni taqozo etmoqda. Raqamli makon jadal rivojlanayotgan hozirgi sharoitda nafaqat zamonaviy texnologiyalarning yoshlarga ta'sirini tahlil qilish, balki ularning ijtimoiy-axloqiy tarbiyasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda raqamlashtirish madaniy va ma'naviy qadriyatlarni yemirmasdan, ularni mustahkamlash vositasiga aylanishini ta'minlash asosiy vazifadir.

ADABIYOT TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Raqamlashtirish zamonaviy yoshlarning qadriyat yo'nalishlarini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Texnologik rivojlanish va turli xil ma'lumotlardan doimiy foydalanish sharoitida an'anaviy me'yorlar va g'oyalarning o'zgarishi kuzatilmoqda. A.P.Andrunik va B.V.Muzrayevalar o'z ilmiy izlanishlarida zamonaviy raqamli texnologiyalar va media muhit yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Yoshlar raqamli voqelikni kundalik hayotlarining ajralmas qismi sifatida qabul qilishmoqda, bu esa mavjud ta'lim yondashuvlarini moslashtirish va ijtimoiy mas'uliyatning yangi modelini yaratish zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, raqamli platformalar soni ortib borayotgani yoshlarning o'zini namoyon etishi, dunyoqarashini kengaytirishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, bunday o'zgarishlar an'anaviy qadriyatlarni yo'qotish bilan bog'liq xavflarni ham oshiradi. Ko'pincha qarama-qarshi bo'lgan mazmunning ta'siri axloqiy va ma'naviy tarbiyaga yondashuvlarni zamon talablariga muvofiq qayta ko'rib chiqishni talab qiladi [3]. Bugungi kunga kelib madaniy va axloqiy Qadriyatlarni saqlab qolish uchun yoshlarga raqamli dunyoda axborotdan ongli ravishda foydalanish imkonini beradigan strategiyalarni ishlab chiqish zarur.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ideal borliqning xususiyatlari qatorida virtual reallikda moddiy mavjudlikning ayrim xususiyatlari ham qayta namoyon bo'ladi:

virtual mavjudlikning inson sezgi a'zolariga ta'siri ba'zi hollarda haqiqiy moddiy obyektlarning ta'siriga deyarli to'liq o'xshash bo'ladi [4].

Virtual makonning o'ziga xosligi shaxsning ma'naviy va psixologik holatiga, uning jismoniy salomatligiga, faoliyatiga, o'zaro munosabatlariga va boshqalar bilan muloqotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Virtual dunyoning ta'siri shu qadar kuchliki, u insonda unga qaramlikni shakllantirishi mumkin.

O'sib kelayotgan avlod, alohida ijtimoiy guruh sifatida, juda sezgir va yangiliklarni tezda qabul qiladi. Inson rivojlanishining ayni shu davrida o'z-o'zini anglash hamda qadriyatlar tizimi shakllanadi. Bolalar hayotiy tajribasining cheklanganligi raqamli makonning ta'sirini obyektiv baholash imkonini bermaydi. Shu boisdan, jamiyatning raqamli yangilanish davrida yoshlar doimiy ravishda diqqat markazida bo'lishi kerak.

Murakkab va ko'p jihatdan qarama-qarshi bo'lgan virtual borliq sharoitida yosh avlodni tarbiyalash jarayoni insonning jamiyatdagi haqiqiy hayoti mohiyatini ochib berishi, o'zini rivojlantirish imkoniyatlarini anglash va zarur tajribani, jumladan, boshqa insonlar bilan muloqot tajribasini orttirish yo'llarini ko'rsatib berishi lozim [5].

Axborot texnologiyalarining o'sib kelayotgan avlod ma'naviy dunyosiga ta'sirining muhim oqibatlaridan biri — dunyoqarash tasavvurlarida internetning qadriyatlar tizimidagi yuqori ahamiyatini shakllantirishdir. Internet turli ehtiyojlarni qondirish nuqtayi nazaridan jozibali bo'lib ko'rinadi. Bunda ularni ko'pincha ijtimoiy me'yorlar va ma'naviy qadriyatlarga e'tibor bermasdan ham qondirish mumkin, bu esa hayotiy chaqiriqlarga javob berish zaruriyatidan qochish, real dunyodagi mas'uliyatni kamaytirish imkonini beradi.

Kompyuter texnologiyalari orqali olingan virtual reallikdagi kechinmalar yoshlar uchun hayotiy muammolar va tashvishlarga to'la real hayotdan ko'ra yoqimliroq bo'lib qoladi. Hayotni anglashda yengillik va soddalik paydo bo'ladi. Shu prizma orqali ba'zi holatlarda shaxsdagi e'tiqod tizimida ham ma'lum o'zgarishlar sodir bo'lishi kuzatilmoqda: endi gunoh qilish xavfi haqidagi fikr dahshatli tuyulmaydi, sodir etilgan gunoh esa qalbni avvalgidek og'ritmay qo'yadi.

Ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan hikmatlarda inson ongini voqelikdan uzoqlashtiradigan bo'sh xayol va illyuziyalarning

ma'naviy hayotga zararli ta'siridan ogohlantiriladi. Bularning barchasi virtual borliqda haqiqiy gunohlar sodir etilishiga olib keladi, takabburlik, mag'rurlik, adovat kabi illatlarning kuchayishiga sabab bo'ladi [3].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Takomillashib borayotgan va jadal rivojlanayotgan kompyuter texnologiyalari real voqelik va virtual olam o'rtasidagi chegarani yo'q qilib, soxta mavjudlik tuyg'usini real darajaga olib chiqadi. Raqamli illyuziyalar asta-sekin haqiqiy hayotning o'rnini egallab, tobora yoqimli bo'lib bormoqda. O'yin-kulgi va hissiy tajribaga muhtoj bo'lgan yoshlar har kuni virtual o'yinlar dunyosida "yashaydilar". Natijada ular haqiqiy hayotga qaytishni xohlamaydilar.

Yosh avlodni tobora kengayib borayotgan virtual voqelik sharoitida tarbiyalash insonning jamiyatdagi real hayotining mazmun-mohiyatini ochib berishi, ularga o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatlarini anglash yo'llarini ko'rsatishi va zarur tajriba, jumladan, haqiqiy insoniy muloqot va hamkorlik tajribasini shakllantirishi lozim. Jiddiy tashvish uyg'otadigan yana bir jihat shundaki, virtual olamga to'liq sho'ng'ish yoshlarda diniy an'analar, milliy-ma'naviy madaniyatga bo'lgan ehtiyojni yo'qotadi. Ijtimoiy tarmoqlarda o'smirlarni zabt etgan betartib ma'lumotlar oqimi asosan soxta bo'lib, faqat ijobiy his-tuyg'ularni berishga qaratilgan, uning ortiqcha va uzluksizligi yoshlarga o'z harakatlari yoki hayot mazmuni haqida o'ylashga imkon bermaydi. Buning oqibatda bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasidagi jiddiy muammolar (bolalikdan chekish, ichkilikbozlik, giyohvandlik, terrorism, jinoyatchilik, nigilizm va boshqalar) yanada kuchayib boorish holatlari kuzatilmoqda [4].

Shuningdek, global virtual makonda o'zlarining zararli g'oyalarini yoshlar ongiga singdirishga intilish holatlari ham tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Buning uchun ba'zi radikal oqimlar o'z qarashlarini yoshlar orasida targ'ib qilish uchun ijtimoiy tarmoqlar orqali manipulyativ axborotlar oqimini tarqatmoqdalar. Bu, bir tomondan, ularning daromadlarini oshirishga imkon beradi, lekin boshqa tomondan, odamlarni boshqa odamlarning fikriga qaram qiladi [5].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Bugungi kunda jamiyat

hayotining barcha jabhalariga kirib kelgan raqamli texnologiyalar yoshlar dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, virtual makonning xususiyatlari o'smirlar va yosh avlodning ruhiyatida, ma'naviy dunyosida, ijtimoiy xulq-atvorida jiddiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Virtual olamning asosiy xususiyati shundaki, u real hayot va tasavvur o'rtasidagi chegaralarni o'chirib tashlaydi, insonning his-tuyg'ulariga real, moddiy olam bilan deyarli bir xil ta'sir qiladi. Natijada, yoshlar ongida virtual muhit qadriyatlarini haqiqiy hayot qadriyatlaridan ustun bo'lishi mumkin.

Raqamli makonning haddan tashqari jozibadorligi yoshlarni vaqtdan unumli foydalanish, bilim va tajriba to'plash, ijtimoiy mas'uliyatni anglashdan chalg'itadi. Bu ma'naviy va axloqiy tanlovni osonlashtiradi va uni yuzaki qabul qilishga olib keladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yoshlarni tarbiyalash jarayonida virtual tahdidlarning oldini olish, ularning real hayotiy imkoniyatlarini anglashga e'tibor qaratish, umuminsoniy qadriyatlarni chuqur o'zlashtirish va ma'naviy mas'uliyatni shakllantirish dolzarb vazifadir. Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoni yosh avlodning jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan faol, mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qilishi kerak.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
REFERENCES):**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 486 b.
2. O'zbekiston Respublikasining 14.09.2016-yildagi O'RQ-406-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni.
3. Bekpo'latov H., Mamadaliyev R. Globallashuv sharoitida axborot xurujlariga qarshi kurashning ayrim masalalari. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar jurnali. – Toshkent. 2016, №1. – B.14.
4. Qodirov B. Axborot oqimi va yoshlar ma'naviyati // Tafakkur. 2015. №2. – 82 b.
5. Караяни А.Г. Информационно-психологическое протевоборство в современной войне. Словарь иностранных слов (Около 10. 000 слов).–СПб.:2010. – 228 с.

ANTROPONIM VA LAQABLARNING O'RGANILISH TARIXI

*Karimboyeva Manzura, O'zbek tili, adabiyoti
va folklori instituti tayanch doktoranti*

HISTORY OF THE STUDY OF ANTHROPNOMS AND NICKNAMES

*Karimbayeva Manzura, Uzbek language, literature
basic doctoral student of the Institute of Folklore and*

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ АНТРОПОНИМОВ И ПРОЗВИЩ

*Каримбоева Манзура, базовый докторант института
Узбекского языка, литературы и фольклора*



e-mail:

777manzura777@gmail.
com

<https://orcid.org/0009-0002-2931-1788>

Annotatsiya: Maqolada o'zbek antroponimlarining o'rganilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Jahon va o'zbek tilshunoslarining ism va laqablar bo'yicha olib brogan tadqiqotlari keltirib o'tilgan. Alohida mintaqaga tegishli tadqiqotlar bo'yicha ham manbalar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, antroponim, laqab, taxallus, ism, tarixiy ismlar, mintaqaviy nomlar, sheva.

Abstract: The article provides information on the study of Uzbek anthroponyms. Research conducted by world and Uzbek linguists on names and nicknames is presented. Sources on research related to a specific region are also indicated.

Keywords: linguistics, anthroponym, nickname, pseudonym, name, historical names, regional names, dialect.

Аннотация: В статье представлена информация об изучении узбекских антропонимов. Приведены исследования мировых и узбекских лингвистов по именам и прозвищам. Также указаны источники по исследованиям, относящимся к отдельному региону.

Ключевые слова: лингвистика, антропоним, прозвище, псевдоним, имя, исторические имена, региональные названия, диалект.

KIRISH. Dunyo tilshunosligida onomastika, xususan, antroponimika rivojlangan va ilmiy takomilga erishgan soha hisoblanadi. Antroponimik birliklarni tadqiq etish borasida muayyan tajribalar to'plangan, ilmiy maktablar va yo'nalishlar shakllangan. Bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy, adabiy, madaniy omillar ta'sirida boyib, vazifaviy, tuzilish jihatidan o'zgarib, takomillashib borayotgan antroponimik birliklar, xususan, shaxs nomlari va laqablarni tarixiy hamda zamonaviy aspektlarda tadqiq etish sohaning kun tartibidagi zarur vazifalaridan biriga aylandi. Tilimizdagi nomlarning adabiy va sheva shakllarini to'plash, ularni lisoniy jihatdan turli tahlillarga tortish, o'zaro

qiyoslash, motivlariga asoslangan holda guruhlariga ajratish muhim hisoblanadi. Ismlar xalq o'tmishining o'ziga xos darakchilaridir. Atoqli otlar, o'zida lisoniy xususiyatlardan tashqari qimmatli tarixiy, etnografik, etikaviy va estetik, diniy-mifologik, geografik, geologik, geofizik, lingvokulturologik, sotsiolingvistik va hattoki arxeologik ma'lumotlarni ham mujassam qiladi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, — "xalq ijodining nodir namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish jahondagi ilg'or fikrli olimlar va san'atkorlarning, davlat va jamoat arboblari, barcha

madaniyat ahlining ezgu burchidir”[1]. Shu boisdan, keyingi yillarda o‘tmish davrlarga oid tarixiy nomlarni tiklash va asrashga doir harakatlarning kuchayganligi seziladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Shaxs nomlarini o‘rganish barcha davrlarda qiziqarli va muammoli jarayon bo‘lgan. Ismlarni o‘rganish qay darajada ahamiyatli? Ismlar faqat farqlashga xizmat qiluvchi nommi? Tilshunosligimizda shu kabi munozarali nuqtalar mavjud. Olimlar bunday savollarga o‘z ishlarida qisman xulosalab o‘tishgan. Bu kabi muammoli savollarga yechim sifatida U.Nosirovning mulohazalarini keltirib o‘tishimiz mumkin: “O‘zbek onomastikasini to‘plash, tarixiy nuqtayi nazardan tekshirish, xarakterli grammatik belgilari va semantik xususiyatlariga ko‘ra umumlashtirish, ularni ilmiy asosda har tomonlama o‘rganish o‘zbek tilshunosligi uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir”[2.194-197]. Shaxs nomlari faqat belgi va farqlashga xizmat qilmasligini Mahmud Qoshg‘ariy ham isbotlagan. U o‘zining “Devon-u lug‘oti-t-turk” asarida shu davrda faol bo‘lgan shaxs nomlarini ikki guruhga ajratgan holda keltirib o‘tgan. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad esa, ismlar orqali turkiy xalqlarning qadimiy madaniyati va nomlar tizimini ko‘rsatib o‘tishdir.

Barcha nomshunos olimlarni qiziqtirgan asosiy masala ismlarning qanday ma‘no anglatishi edi. Chunki, ismlar insonlarni nafaqat nomlaydi, balki shaxsning fikrlashini va mulohazalarini ham ifodalaydi. Shu bois, shaxs nomlari faqat tilshunos olimlarning emas, balki boshqa soha vakillarining ham diqqatini tortgan. Qadimgi yunon olimlari Demokrit, Geraklit va Aristotelning asarlarida atoqli otlar haqida fikr va mulohazalar uchraydi. Miloddan avvalgi 1-asrda yashagan Yuliy Polluks “Onomastika” nomli lug‘at yozgan. Lug‘atda bir qancha atoqli otlarga izoh berilgan. Yana bir qator olimlar atoqli otlar haqidagi ilmiy qarashlarini keltirib o‘tishgan. Atoqli otlar anglatgan ma‘noni aniqlash masalasi ancha bahsli nuqtalardan bo‘lib, bu muammo XVIII-XIX asrlarda faqat tilshunoslar tomonidan emas, faylasuflar va mantiqshunoslar tomonidan ham o‘rganilgan. Ayniqsa ingliz olimi D.S.Mill ancha kuch sarflagan. Uning fikricha atoqli otlar ma‘no ifodalamaydi, ular faqat ma‘lum belgilar orqali boshqalardan farqlaydi. Bu kabi nazariyalar keyinchalik katta e‘tirozlariga sabab bo‘lgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqotda antroponimlarning, xususan, shaxs nomlari, laqab va taxalluslarning tarixiy va zamonaviy shakllarini ilmiy tahlil qilish asosiy maqsad qilib olindi. Ishda quyidagi metodologik asoslar va usullardan foydalanildi: Tarixiy-qiyosiy metod, Struktur-semantik tahlil, Qiyosiy-tipologik metod, Lingvokulturologik va sotsiolingvistik yondashuv, Manbashunoslik asoslari, Statistik metod.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Antroponimlar va ular bilan bog‘liq masalalar jahon tilshunosligi, rus tilshunosligi, turkologiya va o‘zbek tilshunosligida atroflicha tadqiq qilingan. Nomshunoslik bo‘yicha A.V.Superanskayaning ishlariga alohida e‘tibor qaratish lozim. Shuningdek, bir qator turkologlar: ozarbayjon tilshunosi A.M.Gurbanov, qozoq tilshunosi T.Januzakov, boshqird, tatar, qirg‘iz tilshunoslarining ishlarini ham eslab o‘tishimiz lozim. O‘zbek tilshunosligida antroponimlarni o‘rganish jarayoni o‘tgan asrning 60-70-yillarida jadal rivojlangan. O‘zbek ismlarining ma‘nolarini izohlagan dastlabki risolani Y.Menajiyev va X.Azamatovlar yozishgan. Bu sohaning rivojlanishiga E.Begmatov, G‘.Sattarov, S.Rahimov, R.Xudayberganovlar katta hissa qo‘shdi. Y.Menajiyev va X.Azamatovlarning risolasida ism ma‘nolarini tushunish va ularning motivlari yuzasidan bir qancha kamchiliklar bor edi. Bu kamchiliklar E.Begmatov va A.Irisov yozgan taqrizlarda ko‘rsatib o‘tilgan. Onomastika sohasidan antroponimlarni alohida o‘rganish yanada aniqlikni talab qiladi. E.Begmatov kishi nomlarining tadqiqiga bag‘ishlangan bir qancha kitoblarini nashr qildirdi. O‘zbek onomastikasida antroponimlar va toponimlar ancha tadqiq qilinishiga qaramasdan, antroponimlarning ba‘zi shakllari yetarlicha o‘rganilmagan edi. Masalan, shaxslarning ikkinchi nomi sifatida qo‘llaniluvchi laqablar yoki taxalluslar.

Keyingi yillarda shaxs nomlari, laqablar va taxalluslar bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borildi. Jahon tilshunosligida antroponimlar, xususan, laqablarning tadqiq tamoyillari, ularning lingvistik tahliliga oid tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, rus tilshunosligida bu yo‘nalishda bir necha tadqiqotlar mavjud. Laqablar bo‘yicha ozarbayjon tilshunoslari A.Qurbonov, A.M.Pashayev va qoraqalpoq tilshunosi Y.N.Xodjalepesovalarning izlanishlari

ahamiyatga molik. Tilshunoslar laqablarni guruhlarga ajratgan holda o'rganishgan. Pashayev laqablar shaxs nomlariga tirkaladigan va uning belgi-xususiyatini, kasb-korini ifodalovchi nom ekanligini ifodalab o'tgan. Qoraqalpog'iston hududidagi, asosan, Mang'it shevasidagi laqablarni to'plab, ularning tahlilini boshlab bergan Ahmad Ishayev shaxslarning ikkinchi nomi hisoblangan laqablar tadqiqining yanada rivojlanishiga hissa qo'shgan. Ahmad Ishayev tilshunoslarni tilimizdagi laqab va taxalluslarni yig'ishga undaydi. Olim avvalo xalq shevasidagi ma'lumotlarni yig'ish va qayt qilish lozimligini: "afsuski, o'zbek shevashunoslari bu borada deyarli hech bir ish qilmaganlar"[3.41] deya ta'kidlaydi. Laqablar leksik birlik bo'libgina qolmasdan, o'zida xalq qadriyatlari, madaniyati va urf-odatlarini ifodalaydi. Yumoristik kayfiyat yuqoriligi sababli xalq og'zaki ijodida va badiiy asarlarda faol qo'llaniladi. Bu kabi ishlar o'zbek tilshunosligidagi ism va laqablar bo'yicha qilinadigan keyingi ishlarga poydevor vazifasini bajargan.

Laqablarning lingvistik xususiyatlari va ularning izchil ilmiy o'rganilishi E.Begmatov tomonidan atroflicha yoritib berilgan. O'zbek ismlari bo'yicha ilmiy izlanishlar yetarlicha olib borilgan. Taxallus va laqablar haqidagi ishlar keyingi yillarda faollashdi. O'zbek yozuvchilarining taxalluslari bo'yicha Sh.Nizamova nomzodlik ishini himoya qildi. Tadqiqot obyekti sifatida o'zbek adabiyotidagi tazkiralar, adabiyot darsliklari, matbuot nashrlari va majmualar tanlangan. Taxallus va laqabning farqlari ochib berilgan. Oldingi davrlarda ijod qilgan bir qancha ijodkorlar o'zlariga taxallus emas laqab tanlashgan, bu kabi laqablarni esa olimlar "laqab-taxalluslar" nomi bilan nomlagan. Chunki laqablar taxalluslarga juda yaqin birlik. Y.Avlakulov ham "Laqablar va taxalluslar haqida mulohazalar" nomli ishida ularning farqli va o'xshash tomonlariga to'xtalib o'tgan.

Ma'lum bir mintaqaga tegishli antroponimlarni o'rganish qiyin jarayon hisoblanib, tadqiqotchidan o'ta aniqlik talab qiladi. Alohida hudud antroponimlarini o'rgangan olimlar sirasiga A.Ishayev, S.Rahimov, R.Sapayev, R.Xudayberganov, X.Qodirova, N.Xalilova kabi tadqiqotchilarning ishlari kiradi. S.Rahimov Xorazm mintaqasidagi antroponimlarni tadqiq qilgan holda, shevada uchraydigan laqablarni 5

guruhga ajratib tahlilga tortadi. Bilamizki, Xorazm hududidagi ismlar mintaqahajasi o'zida to'liq namoyon qiladi, shu jihati bilan boshqa lahjadagi ism va laqablardan ajralib turadi. R.Xudayberganovning ishida ham Xorazm mintaqasiga tegishli ba'zi antroponimlar keltirilgan. R.Xudayberganov monografiyasida ismlardagi variantdorlikka e'tibor qaratgan va o'zbek antroponimikasi uchun yangilik hisoblangan bir qancha terminlardan foydalangan.

Yosh olimlar Xurshida Qodirovaning tadqiqot ishida Xorazm mintaqasida uchraydigan laqablar struktur-semantik va funksional jihatdan o'rganilgan bo'lib, yig'ilgan materiallarning ko'pligi va qamrab olingan hududning kengligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotda laqablarning qisqargan shakllariga alohida to'xtalib o'tilgan. Chunki xorazmliklar shevasida qisqartma leksemalar keng foydalaniladi. Hatto, antroponimlarning qisqargan shakllari to'liq shakliga nisbatan faol. Ilmiy ish faqatgina o'zbek tili onomastikasi uchun emas, balki o'zbek shevashunosligi sohasi uchun ham qimmatli manba hisoblanadi.

N.Xalilova Qo'qon xonligi davridagi asarlarda uchraydigan tarixiy ism va laqablarni tadqiq qilgan. Bu ish tarixiy antroponimika rivojiga hissa qo'shadi. Tarixiy antroponimlarning sotsiolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlashga harakat qilingan. Tadqiqot o'zbek ism va laqablari o'rganilishining yangi bosqichi hisoblanadi. Bugungi kunda antroponimlarni lingvistikaning yangi yo'nalishlariga tayangan holda tadqiq qilish ancha jadallashgan.

XULOSA. Tilimizdagi har bir birlik lug'atimizning boyligidir. Yuqorida sanab o'tilgan ilmiy tadqiqotlardagi materiallarni jamlagan holda shevamizdagi va adabiy tilimizdagi antroponimlarning shakllarini yig'ishimiz hamda lug'at shakllantirishimiz lozim. Chunki, shevashunoslik sohasi bu kabi lug'atlarga ehtiyoj sezmoqda. O'zbek tilshunosligini har tamonlama rivojlantirish zarur. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: "Har qaysi xalqning ona tili va adabiyoti uning milliy ruhi va o'zligining madaniy-ma'rifiy olami, milliy g'oyasining asosi hisoblanadi" [4], – deya ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Халқаро бахшичилик санъати фестивали очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2019, 7 апрель. № 68 (7298).
2. Nosirov U. O'zbek tilidagi kishi nomlari haqida ba'zi mulohazalar // Ilmiy asarlar. Qarshi - Toshkent, 1965-194 197 betlar.
3. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. - М.: Наука, 1973.
4. Жанузаков Т. Лично-собственные имена в казахском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Алма-Ата, 1960; Гурбанов А.М. Азербайжан ономастикавы масэлэлери. - Баку, 1986; Кусимова Т.Х. Древнебашкирские антропимы: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. -Уфа, 1975; Садыков З. Личные имена в азербайджанском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Баку, 1975; Чобанов М.Н. Азербайжан антропонимикасынин асаслари. - Тбилиси: Генарлеба, 1983; Идрисов А. Кыргыз тилидеп ысымдер. - Фрунзе: Мектеп, 1971; Жапаров Ш. Словарь киргизских личных имен. - Фрунзе: Мектеп, 1979; Саттаров Г.Ф. Татар антропонимикасы. - Казан: КазДУ нашриёти, 1990.
5. Менажиев Я., Азаматов Х. Исмингизнинг маъноси нима? Тошкент: Фан, 1964.
6. Бегматов Э. Исмингизнинг маъноси нима? // Ўқитувчилар гаэтаси. 1965 йил 1 апрель.
7. Ирисов А. “Исмингизнинг маъноси нима?” ҳақида // Ўзбек тил ва адабиёти. 1965 йил 5-сон.
8. Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1965; Бегматов Э. Номлар ва одамлар. - Т.: 1966. -Б.53.; Бегматов Э. Ўзбек исмлари. - Т.: 1991.; Бегматов Э. Исм чиройи. Toshkent, 1994, -Б.90. Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. - Т.:1998, -Б.116. Бегматов Э., Кенжаева С. Ўзбек исмлари маъноси // Ўқув изоҳли луғат. -Тошкент: Фан, 2007.; Бегматов Э. Антропонимияни тадқиқ қилишнинг социолингвистик аспекти // Ўзбек тили ва адабиёти. 2011. – № 4; Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентриқ тадқиқ объекти // Ўзбек тили ва адабиёти. 2013. – №3;
8. Балов А., Шутиков А. Прозвище крестьян деревни Хмеловской области // Живая старина. Вып. IV. 1899. – С.526-528; Ярков П. Народные слова и прозвища // Живая старина. Вып. IV. 1899. – С.529-530; Виноградов Н. Шишкенская волость Костромского уезда. VII. Прозвища // Живая старина. Вып. III-IV. 1901.– С.130.
9. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 41.
10. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.49-70.
11. Ўзбек тахаллусларининг тарихий-лисоний тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Наманган – 2021.
12. Раҳимов С.М. Хоразм минтақавий антропонимияси: Филол. фан. ном.... дис. – Тошкент, 1998. – Б. 118-119.
13. Сапаев Р. XIX аср Хива давлат хужжатларидаги баъзи лақаблар ҳақида // Республика ёш филологларининг аънавий илмий конференцияси материаллари. Тошкент, 1990. – Б.78-80.;
14. Худойберганов Р.Ю. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 2008. – Б.26.
15. Xorazm shevalaridagi laqablarning struktur-semantik va funksional xususiyatlari. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati, Urganch – 2023.
16. Qo'qon xonligi tarixiga doir manbalardagi antroponimlarning sotsiolingvistik va lingvokulturologik tadqiqi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati, Qo'qon – 2025.
17. <https://nrm.uz/>

TOG‘AY MURODNING “OT KISHNAGAN OQSHOM QISSASI” ASARIDA INSONIY FAZILATLAR TALQINI

Abdusamatova Ozoda Xolmamat qizi, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 2-kurs magistranti

THE INTERPRETATION OF HUMAN QUALITIES IN TOGAY MUROD'S WORK "THE STORY OF THE EVENING WHEN THE HORSE KNEW"

Abdusamatova Ozoda Kholmamat kizi, Samarkand named after Sharaf Rashidov 2nd year master's student of a state university



<https://orcid.org/0009-0004-4332-8951>

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ КАЧЕСТВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ТОГАЯ МУРОДА “ПОСКАЗ О ВЕЧЕРЕ, КОГДА РЖАЛА КОНЬ”

Абдусаматова Озода Холмамат кызы, магистрант 2-го курса Самаркандского государственного университета имени Шарафа Рашидова

Annotatsiya: *Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” qissasida shaxs va muhit, inson va ramziylik talqinlari, uning badiiy ifodasida inson konsepsiyasi va fazilatlarini haqida so‘z yuritiladi. Asar qahramonlarining badiiy xarakterida mujassamlashgan fazilatlar, muhitning inson xarakteriga ta’siri tahlil qilindi. Muhitning ta’sirida shakllangan insonning ruhiy-ma’naviy olami, uning fazilatlarida o‘z ifodasini topganligi ochib berildi.*

Kalit so‘zlar: *ijodkor, mahorat, badiiylik, obrazlilik, talqin, shaxs, jamiyat, muhit, xarakter, ramz.*

Annotation: *In Togay Murad's story "The Evening When the Horse Neighed," the interpretation of the individual and the environment, the human being and symbolism, and the concept and qualities of the human being in its artistic expression are discussed. The qualities embodied in the artistic character of the characters of the work, the influence of the environment on human character were analyzed. It was revealed that the spiritual and moral world of a person, formed under the influence of the environment, finds its expression in his qualities.*

Keywords: *creator, skill, artistry, imagery, interpretation, personality, society, environment, character, symbol.*

Аннотация: *В повести Тогай Мурода "Вечер, когда заржал конь" обсуждаются интерпретации личности и среды, человека и символики, концепция и качества человека в ее художественном выражении. Проанализированы качества, воплощенные в художественном характере героев произведения, влияние среды на характер человека. Выявлено, что духовно-нравственный мир человека, сформированный под влиянием среды, находит свое выражение в его качествах.*

Ключевые слова: *творец, мастерство, художественность, образность, интерпретация, личность, общество, среда, характер, символ.*

KIRISH. O‘zbek adabiyotining talqinlarida ijodkorning o‘zigagina xos tamoyillar taraqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan adiblardan biri mujassamlashgan edi. Yozuvchining asarlarida Tog‘ay Muroddir. Adibning har bir asari o‘z oddiy qishloq odamlari, ularning turfa xil xarakter davridayoq yuksak baholangan bo‘lib, uning xususiyatlari, ulardagi insoniy va noinsoniy

fazilatlarining yaxlitlashgani, tabiat, jamiyat, muhitning insonni shakllanishidagi o'zni nuqtai nazardan ifodalanishi, undagi ramzlarning bevosita inson xarakteri bilan uzviy birligidan dolalat beradi.

O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad qayd qilganidek: "Kechagina yosh yozuvchi, boshlovchi yozuvchi, deb yurgan qalamkashlarimiz endilikda nasrimizning yetakchi ijodkorlari bo'lib qoldilar. Tog'ay Murod ana shu ijodkorlar avlodining talantli vakilidir. Tog'ay Murod adabiyotga tutab emas, yonib kirdi. Tog'ay Murod qissalari sof milliy o'zbek qissalari. Tog'ay Murod qissalarida tasvirlangan odamlarga boshqa xalq libosini kiydirdsangiz ham o'zbekligi bilinib turadi. Ularning xulq-atvori ham boshqa xalqqa aslo o'xshamaydi" [1, 240].

Darhaqiqat, adabiyot insonni, uning turfa xil xususiyatlarini badiiy talqin etar ekan, obraz orqali hayotni, voqelikni, qolaversa, insonni kashf etadi. Ana shu jarayonda milliy xarakterlar, insoniy fazilatlar barchasi yaxlitlashadi. Bu esa ijodkordan juda katta mahoratni, iste'dodni talab etadi, ana shu jarayonda ise'dodli adib Tog'ay Murodning yuksak didli asarlari, hayon va insonni kashfa etishgani badiiy mahorati namoyon bo'ladi. Adabiyot insonshunoslik ekan, uning zamirida insonning ruhiy-ma'naviy qiyofasi etakchilik qiladi. Har bir talqin, ifodalarning badiiy funksiyasi obrazning yaxlitligini ta'minlashga xizmat qilib boradi.

Shu jihatdan olib qaralsa, Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" qissasida insonning ezgulik, yaxshilik, to'g'rilik, haqiqatgo'ylik kabi fazilatlarini ulug'lanadi, befarqlik, yovuzlik, yolg'onchilik, tuhmat, zo'ravonlik kabi xislatlardan saboq chiqarishga, kitobxonning hayot va insonni anglashga imkon beruvchi talqinlari yetakchilik qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov qayd qilib o'tganidek: "Insonning tabiati shundaki, u o'zining har bir muvaffaqiyatsizligidan, "yegan kaltaklari"dan o'zi uchun mustahkam bir istehkom qurib olib, uning ichida tashqi hujumlardan, hamlalardan saqlanishi mumkin. Biroq inson tabiatiga mos keladigan bu jarayon oxir oqibat shunga olib kelishi mumkinki, inson xuddi pilla qurti kabi o'zi yashagan istehkomga yoki yanada to'g'riroq aytsak, qafasga qamalib qolishi mumkin" [2, 168].

Qayd qilinganidek, inson o'z qalbi, psixologiyasi, xarakter xususiyati bilan

boshqalardan ajralib turar ekan, uning shakllanishi ham hayotning turli zarbalari, istiroblari iskanjasida yashay boshlaydi, ammo o'zligini anglashga tinimsiz harakat qilishi ham uning insoniyligidan dalolatdir. Voqelik va muhit uni asata-sekin bo'lsa-da tarbiyalaydi, xulosa va hukmlar chiqarishga imkon beradi.

Yozuvchining "Ot kishnagan oqshom" qissasidagi voqealar rivoji ham insonni anglashga, muhitni teronroq his etishga undaydiki, bu esa uning qalb kechinmalarini, ruhiy olamidagi qarashlarni yuzaga chiqarishga asos bo'ladi: "Odamlar meni kal deyidigan bo'ldi! Ziyodulla kale mish! E, tovba-e, e, tovba-e! Avval-avval uyatdan quloqlarimgacha lovullab yondim. Ko'nglim o'ksidi. Keyin-keyin botmaydigan bo'ldi. Kal so'zi ko'nglimga singdi. Quloqlarim kalga o'rganib qoldi" [3, 102-bet]. Ziyodulla kalda insoniylik ham, odamlarga, nabobat olamiga ham mehri juda baland edi. Inson hayotning barcha murakkabliklariga ko'nikkani kabi, u ham kallikka ko'nikdi. Hatto ba'zida kal deb chaqirmasa, ko'ngli o'ksiydigan darajaga borib qoldi. U otga mehr berdi, u bilan yashadi, u bilan hayotning mazmunli ekanligini his etdi: "Birodarlar, mashina deganlari temir! Joni yo'q! Joni yo'q temir odamga el bo'lmaydi! Temirning yuragi yo'q-da! Ot odamga el bo'ladi. Boisi otning joni bor, yuragi bor-da!" [3, 106-bet].

TADVIQOT METODOLOGIYASI.

Maqola tahlilida adabiyotshunoslik va psixologik yondashuvlardan foydalanildi. Qissadagi syujet va obrazlar tizimi badiiy-estetik nuqtai nazardan o'rganildi, Ziyodulla obrazining ruhiy kechinmalari psixologik tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Ziyodulla ana shu tarzda otga bog'lanib qoldi, ba'zida u bilan tonggacha suhbatlashdi, ba'zida esa qir-u adirlarda u bilan hamkor bo'lib poda boqdi. Bularning barchasi uning fikrlari asosli ekanligini isbotladi. Chunki ot bilan uzoq suhbatlashar, ba'zida esa ot ham uning dostonlarini, o'lanlarini jon-joni bilan tinglar edi. Odamlar shunda ham gap qildi, Kalga eshak ham bo'lardi, deyishdi, ammo Ziyodulla kal elning og'ziga qaramadi, ularning gaplariga e'tibor bermadi, bularning barchasi uchun o'zida jasorat topa oldi: "El og'ziga elak tutib bo'lmaydi! Odamzod shunday! Bor bo'lsa, ko'rolmaydi, yo'q bo'lsa berolmaydi. Shunday ekan, odam bo'laman desangiz, el gapiga parvo qilmang! Ammo beporvo-da bo'lmang!" [3, 107-bet].

Ziyodulla kalning odamiyligi, insoniy fazilati shu o'rinlarda yanada teranroq anglashiladi. Uning kechinmalari, voqealar rivojida shakllanishi xarakter xususiyatining teranlashishiga imkon beradi. Shuning uchun adabiyot xarakterlar yaratish san'atidir deyilishida ham asoslar mavjud edi: "Xarakter o'z qimmatini va mohiyatini, albatta, faoliyatida ochadi. Lekin xarakter bo'lmog'ini uchun uning barcha harakatlari izchil ko'rinishga ega bo'lishi zarur. Boshqacha qilib aytganda, xarakter inson xulqining izchil ko'rinishlaridir" [4, 407-bet]. Ziyodulla chavandoz o'ziga xos xarakterga ega bo'lgan shaxs timsolidir. Uning mulohazalarida, qarashlarida ham bu tushunchalar yaxlit shaklda namoyon bo'ladi. Har bir voqelik zamiridagi qarashlar, tushunchalar ham uning o'ziga xos fazilatlarini namoyon etishga xizmat qilganligini kuzatish mumkin.

Asar bosh qahramon Ziyodulla chavandozning bozordagi holatini, uning muhitga, odamlarga munosabatini teranroq shakllanishiga xizmat qilganligini kuzatish umkin: "Bo'zbolalar ko'zlariga qaramay tepdi. Beqasam choponlik yuzlari burishdi. Bir ichini, bir biqinini ushladi. Men atrofimga alangladim. Burchakda o'tirgan militsionerlarga qaradim. Militsionerlar parvoyi falak bo'ldi, beg'am-beg'am choy ichdi. Bizga aloqasi yo'q, bu yer boshqa bironing uchastkasi - dedi" [3, 201-bet]. Ziyodulla chavandoz xarakterida mujassamlashgan adolatsizlikka, haqsizlikka, nohaqlikka qarama-qarashi bo'lgan tuyg'uning mavjudligi uchun ham, bu yigitni tarafini oladi. Ammo atrofdagilarning beg'amligi, layoqatsizligi, shafqatsizligi, uning qalbini larzaga soladi. Ziyodulla chavandoz bozorda, uch nafar yosh yigitlardan iborat o'g'irlar to'dasining, bezori bolalarning beqasam choponli bir kishini ham pulini o'g'irlab, ham o'zini o'lar holatda urishi, ammo bunga befarq bo'lmasdan, aralashishi kitobxon qalbini larzaga soladi. "Beqasam choponlik bargday uchib tushdi. Qo'llarini yonlariga yoyib, qimirlamay qoldi. Bo'zbolalar beqasam choponlikni o'rtaga olib tepdi. Oyoqlari ostiga olib tepdi. Ko'zlariga qaramay tepdi" [3, 202-bet]. Kaltaklar zarbidan qimirlamay yotib qolgan bo'lsa-da, ayamasdan savalashlari, uning qalbini larzaga soladi.

Voqeani ko'rib turgan Ziyodulla chavandoz qalbidan shunday o'ylar, kechinmalar o'tadi: "Birodarlar, ezilib ketdim, ich-ichimdan ezilib

ketdim! Jonim halqumimga keldi! Alam ham armon bilan burchakka qaradim. Militsionerlar choyxona yonalab pisib-pisib ketyapti. Qahr bilan, nafrat bilan so'ridan tappa tashladim. Olomonni qulochlarim bilan yorib o'rtaga kirib bordim. Iymoning kuygurlar! Bir mo'min bandani o'ldirasanni - dedim" [3, 203-bet].

Nihoyat, yuzlab olomon ichidan faqat Ziyodulla kal qonga belanib, o'lar holatda yotgan beqasam choponli odamni qutqarishga harakat qiladi. O'zi cho'pon bo'lsa-da, Ziyodulla kalda insoniylik, odamiylik, ularga nisbatan mehr-muhabbat qalbida mujassamlashgan edi. U beshinchi sinfdan keyin kalligi uchun bolalar tomonidan mazax qilingani sabab maktabda ham o'qimagan bo'lsa-da, kimgadir yordam qo'lini cho'zishga aqli ham, insoniyligi ham etardi.

Bozor yo'ldan tasodifan o'tib qolgan tez yordam mashinasiga ham beqasam choponli qutqarish uchun, Ziyodulla chavandozgina yalinadi, ugina iltijo qiladi, beqasam choponli odam Ziyodulla kalga hech kimi bo'lmas-da, unga ham inson sifatida qaraydi. Olomon ularni birodari yoki qarindoshi deb o'ylaydi, lekin undagi insoniy fazilat bunga yo'l bermas edi, shuning uchun ham tinimsiz kurashdi, uni qutqarishga intildi. O'zi ham, uch yigitdan tazirini yesa-da, ammo undagi insoniylik, mehr tuyg'usi uning ruhiy-ma'naviy olamini yuksak darajada ekanligidan dalolat beradi. Qayd qilingan tushunchalar bir qarashda, juda oddiy holatdek tuyulishi mumkin, ammo odamlar o'rtasidagi mehrni, muhaabbatini, undagi insoniy fazilatning belgisi ekanligini unitmasligimiz kerak. Ziyodulla chavandoz hayoti juda og'ir va murakkab bo'lsa-da, undagi fazilatlarining xarakterida mujassamlashganligi, uning qalbida isyon uyg'otadi, ana shu isyon esa, shafqatsizlikka, noinsoniylikka qarshi bir kuchni yuzaga chiqaradi.

Asardagi voqealar tizimiga nazar tashlar ekanmiz, tez yordam ham beqasam choponli kishining og'ir ahvolda yotgan bo'lishiga qaramasdan, hech kim yordam qo'lini cho'zmadi. Shifoxonaga Ziyodulla chavandozning yordami bilan zo'rg'a yetib bordi. Hatto bu harakati uchun bir muddat uni ovora qilishdi, ichki ishlarga so'roq uchun bir necha marta chaqirishdi, ammo u bundan hecham og'rinmadi, birodarining eson-omonligi uchun ko'ngli taskin topadi.

Yozuvchi bu qissada insonning fojialari bilan bir qatorda, undagi insoniy fazilatlarini ilgari

suradi, bu bejiz emas edi. Haqiqiy inson shunday bo‘ladi va shunday bo‘lishi kerak degan fikrni ilgari singdiradi. Ijodkor o‘zi anglagan hayotiy voqelikni shu darajada mukammal tarzda asar sujetiga singdiradiki, bu esa uning badiiy mahoratidan, inson qalb kechinmalarini teran anglaganidan dalolat beradi. Asar voqealarining shiddatli rivojlanishiga nazar tashlar ekanmiz, Ziyodulla chavondozi ruhii istiroblari, uning qalb kechinmalari asosida ochib berilganligini ham teranroq anglay boshlaymiz. Bezori bolalar Ziyodulla Chavandoz yordamida qo‘lga olinadi, ammo ichi ishlar xodimlari yana bu holatga befarq qaraydi, ularning ham bu jarayonda ma’naviy qiyofasi ochib tashlanadi. Yaxshilik qilishi unga juda qimmatga tushadi, ammo bundan afsuslanmaydi. Lekin bir insonni o‘limdan saqlab qolishga sababchi bo‘lgan, Ziyodulla kal asar so‘ngida qilgan yaxshiligi evaziga o‘lar holatda do‘pposlanganida ham, kimgadir yordam bergani uchun biror o‘rinda afsuslanmadi: “Shunda birovi ketimdan keldi, belimga tepdi. Men yuztuban yiqildim. O‘pkam to‘lib ketdi. Qo‘ynimdagi nogiron qo‘limni tashqari chiqardim. Birodarlar Jo‘ra boboning otidan yiqilib, qo‘lim chiqib edi. Mana...mana - dedim. Ular xoxolab-xoxolab kuldi. O‘zaro gapirishdi:

– Bu o‘zi unga kim bo‘ladi? – Hech kim! – Hech kim? Yo‘g‘-e?.. Men shundagina ularning kimligini bildim. Qo‘limning nogironligini aytib, yig‘lamsiraganimga ming-ming pushaymon bo‘ldim. Bir balo qilib joyimdan turdim. Oyoqlarimda tik turdim, shunda birovi jag‘imga urdi. Men ketimga tisarilib-tisarilib, bunisiga borib urildim, unisidan iyagimga yedim. Tag‘in turdim. Dalbanglab – dalbanglab borib, birovining bo‘yniga osildim. Birodarlar, men sizlarga nima qildim – dedim. Uni jonimning boricha quchoqlab turdim. U ichimga ko‘p musht urdi. Birodarlar, aybimni ayting, aybimni deya ingrandim. Belimga uchli bir nima zarb bilan tegdi. Keyin biqinimga tegdi. Zarb har tekkanida, jonim halqumimga kelib ketdi. Birodarlar, men ham odamman-ku, deya ingrandim” [3, 204].

Asarda Ziyodulla chavondozi ruhii kechinmalari, uning ruhii istiroblari haqqoniy ochib berilgan. Undagi insoniy fazilatlariga nazar tashlar ekanmiz, odamlardagi sadoqat va mehrning astasekin yo‘qolib borishini, ammo Ziyodulla chavandoznidagi insoniy fazilatlarining birlamchi

daraja chiqishi bejiz emasligini anglaymiz. Odamlardan ko‘ra nabobot olamining insonga yaxshiligi, unga nisbatan mehr berilishi ham bejiz emas edi. Qissasida otning insonga do‘stligi haqida so‘z borgan talqinlari ham juda ishonchli, asosli tasvirlarda namoyon bo‘ladi. Zero, inson tabiat bilan uzviy birlikda hayot kechirgani kabi nabobot olami bilan uzviylikda namoyon bo‘ladi.

“Bo‘ldi, men ularni akam demayman. Mening akam sensan, Tarlon. Uka desa degulik, mendayin ukang bor, aka desa degulik, sendayin akam bor, nima g‘amim bor tarlon. Ayo Tarlon, sen mening birodarimsan, birodarim. Bo‘ldi, men endi ularni birodarim demayman. Mening birodarim sensan, Tarlon. Ayo Tarlon, sen mening qiyomatlik birodarimsan, qiyomatlik birodarim” [3, 217-bet]. Bu tushunchalar zamirida achchiq o‘ta achchiq haqiqat mujassamlashgan. Asar voqealarida ot vafo qilib turgan paytda, odamlarning bir biriga bo‘lgan munosabatning keskinlashishi, ammo ular o‘rtasidagi mehrning ko‘tarilishi bejiz emasligini asoslay olgan. Davr va muhit insonlarni shu darajaga olib kelganligini ham go‘zal talqinlarda ifodalab berganligini kuzatish mumkin. Ziyodulla chavandoz qalbidan otilib chiqqan nido insonni anglashga, uning turfa xil xususiyatlari mavjudligini his qilishga imkon beradi.

XULOSA. Xullas, iste’dodli adib Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” qissasidagi talqinlarda insonning fazilatlarini, uning o‘zigagina xos xislatlarini, xarakter xususiyatlarini mahorat bilan yoritilgan. Asar qahramoni Ziyodulla kalning xarakterida mujassamlashgan insoniylik yoki uning qalb qaridan otilib chiqqan nidolari barcha-barchasi asar sujetidagi voqealar rivojini yuksalib borishiga xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Саид Ахмад. Тоғай Мурод кўшиқлари. Йўқотганларим ва топганларим. Хотиралар. Адабий ўйлар. – Тошкент, Шарқ, 1999. – 304 бет.
2. Шарафиддинов О. Истиқлол ўйлари. Ижодни англаш бахти. – Т.: Шарқ, 2004. – 640 б.
3. Тоғай Мурод. От кишнаган оқшом. Қиссалар. – Тошкент, Шарқ, 1994. – 464 бет.
4. Ғафуров И. Асарлар. Адабиёт дунёси: саккиз жилдлик. Иккинчи жилд. Юрак – аланга: бадиалар. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2022. – 592 бет.

Falsafa fanlari doktori, professor G.K.Masharipova taqrizi asosida

AXBOROT URUSHI FAN VA FALSAFIY TAHLILNING OBYEKTI SIFATIDA

*Xo'janova Tamara Jo'rayevna, Denov tadbirkorlik va
pedagogika instituti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi*

INFORMATION WAR AS AN OBJECT OF SCIENTIFIC AND PHILOSOPHICAL ANALYSIS

*Khojanova Tamara Zhurayevna, Associate Professor, Denov
Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Candidate of Philosophy*

ИНФОРМАЦИОННАЯ ВОЙНА КАК ОБЪЕКТ НАУЧНО- ФИЛОСОФСКОГО АНАЛИЗА

*Ходжанова Тамара Жураевна, доцент Деновского
института предпринимательства и педагогики, кандидат
философских наук*



<https://orcid.org/000>

0-0002-2220-9724

e-mail:

tamaraxujanova7@g
mail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada axborot urushi fan va falsafiy tahlil obyekti sifatida o'rganiladi. Axborot urushlarining mohiyati, ularning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hayotdagi o'rni hamda ta'siri yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy global jarayonlarda axborot kurashlarining falsafiy mazmuni, paradigmatlari va ularning inson tafakkuriga ta'sir mexanizmlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: axborot urushi, axborot xavfsizligi, falsafiy tahlil, mafkuraviy kurash, axborot paradigmatlari, ong, jamiyat.

Abstract: This article examines information warfare as an object of scientific and philosophical analysis. It highlights the essence of information wars, their role and impact on social, political, and spiritual life. The study also analyzes the philosophical content, paradigms, and mechanisms through which information confrontations influence human consciousness within the context of global processes.

Keywords: information warfare, information security, philosophical analysis, ideological struggle, information paradigms, consciousness, society.

Аннотация: В статье рассматривается информационная война как объект науки и философского анализа. Раскрывается сущность информационных войн, их роль и влияние на социальную, политическую и духовную жизнь. Также анализируются философское содержание, парадигмы и механизмы воздействия информационных противостояний на сознание человека в условиях глобальных процессов.

Ключевые слова: информационная война, информационная безопасность, философский анализ, идеологическая борьба, информационные парадигмы, сознание, общество.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Mamlakatimizda keyingi yillarda Yangi O'zbekiston taraqqiyotini rivojlantirishda ma'naviy sog'lom va jismonan baquvvat avlodni voyaga etkazish hamda ularda milliy urf-odatlarimizni shakllantirishga va uni takomillashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Shuning uchun ham bu masalani chuqur va har tomonlama o'rganish bugungi kunni asosiy talablaridan. "...Hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda" [1,125-b]. Respublikada bu sohadagi amalga oshirilayotgan islohotlar asnosida butun xalqimizni, xususan, yoshlarni ma'naviy-mafkuraviy profilaktika faoliyatini rivojlantirish zarur. Natijada, mafkuraviy profilaktika doirasida ma'naviy targ'ibot tizimini uzluksiz rivojlantirish zarurati doimo dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu vazifani bajarish uchun milliy ma'naviy targ'ibot jarayonini modernizatsiya qilish

masalasi tadqiqotning maxsus obyektiga aylanmog' i zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Axborot urushlarining yaxlit konsepsiyasini yaratgan olimlardan biri S.P.Rastorguyevdir. S.P.Rastorguyev "axborot urushi" atamasini "axborot tizimlarining ochiq va yashirin maqsadli axborot ta'siri" orqali ochib beradi, shuningdek, moddiy sohada ma'lum foyda olish uchun bir-biriga qarshi" [2, 36-b].

G.G.Pochepov axborot urushlarini dushmanga tashviqot va psixologik ta'sir qilish orqali ifodalashda ko'rib chiqadi. Axborot urushi, uning fikricha, "Uzoq muddatli va qisqa muddatli maqsadlar bilan ommaviy ongga ta'sir ko'rsatadigan aloqa texnologiyasidir"[3,10-b]. Shuning uchun u davlatlarning tashviqot faoliyati doirasidan tashqariga chiqadi, garchi u, albatta, kontaktsiz zo'ravonlik harakatlarini o'z ichiga oladi va qonun doirasida, mag'lubiyatning ta'sirini kuchaytirish uchun haqiqatni buzish bilan bog'liq. Axborot urushi (axborot tajovuzkorligi) tashabbuskorining siyosiy va madaniy qadriyatlarining ustun mavqeini o'rnatish uchun muxolifat mazmunidagi yoki izohli ma'lumotlarni rad etish va sukut saqlashdan iborat.

Axborot urushi, har bir shaxsning zarur ijtimoiy fikr va qadriyatlar tizimini shakllantirish maqsadida, ma'lum turidagi xabarlar va aloqa vositalari orqali dushmanga maqsadli ta'sir o'tkazish orqali olib boriladi. Jamiyatda ma'lum axborot shakllari, ijtimoiy munosabatlar va ularni tartibga soluvchi imperativlar paydo bo'ladi, biroq ular huquqiy, chegaraviy yoki axloqiy me'yorlar bilan tartibga solinmaydi.

Kibernetik gnoseologiya doirasida O.M.Manjuyeva kibernetikaning ta'rifini beradi. Unga ko'ra, kibernetika "Internet etikasi" deb ham ataladi va bu raqamli texnologiyalar va global virtual muhitning rivojlanishi bilan bog'liq axloqiy muammolar va dilemmalarni o'rganadigan amaliy etika sohasi hisoblanadi. Xususan, bu sohaga maxfiylik, axborotning aniqligi va mavjudligi, intellektual mulkni himoya qilish, ma'lumotlar xavfsizligi va raqamli tafovut kabi masalalar kiradi, deya ta'rif berdi[4,179-b]. Bundan tashqari, u axborot makonidagi axloqiy me'yorlarni kompyuter etikasiga, mutaxassislarning ma'naviy javobgarligiga va kibernetikaning o'ziga ajratadi.

Tadqiqotning usullari. Maqolada falsafaning tizimli yondashuv, vorislik va yakkalik, tarixiylik hamda mantiqiylik kabi ilmiy usullari qo'llanilgan.

MUHOQAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Axborot urushi deganda keng miqiyosida axborot va kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda ma'lum bir maqsadlarni amalga oshirish uchun raqibning axborot makonini nazorat qilish va unga ta'sir o'tkazish jarayonini tushunamiz. Bu jarayon ma'lumotlarni tarqatish, dezinformatsiya, psixologik bosim o'tkazish va jamoatchilik fikrini shakllantirish kabi usullarni o'z ichiga oladi.

Turli mamlakatlardagi olimlar axborot urushi mavzusiga turlicha yondashadilar. Masalan, O'zbekistonlik olimlar asosan ma'lumotlarni to'g'ri tarqatish va fuqarolarni dezinformatsiyadan himoya qilishning usullarini ishlab chiqishga urg'u berishadi. Turk mutaxassislari esa axborot urushlarida media vositalarining roli va ularning milliy xavfsizlikka ta'sirini ko'proq tadqiq qilishgan. Qozog'istonda olimlar asosan axborot urushlarining iqtisodiyotga ta'sirini o'rganishadi, Qirg'izistonda esa bu jarayonlarning demokratik jarayonlarga ta'siri mavzusi ustuvor hisoblanadi. Tojikistonlik tadqiqotchilar, axborot urushlarini milliy birlik va mustahkamlikka tahdid sifatida ko'rib chiqishadi.

G'arb olimlari, jumladan, ingliz va nemis mutaxassislari axborot urushlarining globallasuv va kiber xavfsizlik bilan bog'liq jihatlariga e'tibor qaratishadi. Ular kiber hujumlar, feyk yangiliklar va ommaviy axborot vositalari orqali yuritiladigan manipulyatsiyalarni o'rganishga katta ahamiyat berishadi. Ingliz tadqiqotlari asosan axborot xavfsizligi va uning demokratik institutlarga ta'siriga qaratilgan bo'lsa, nemis olimlari bu jarayonlarni yuridik va etik normalar doirasida tahlil etishga urg'u berishadi. Axborot urushi bilan bog'liq fikr va qarashlar rus tadqiqotchilari tomonidan ham qayd etilgan. Axborot urushi murakkab va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uning tahlili va tushunilishi har bir mamlakatning madaniy, siyosiy va iqtisodiy kontekstiga bog'liqdir. Bu jarayonlarning oqibatlarini global miqyosda sezilarli bo'lib, ularni to'g'ri baholash va tegishli choralar ko'rish har bir davlatning asosiy vazifalaridan biridir.

Axborot urushi har xil shakllarda namoyon bo'ladi va bu jarayon turli mamlakatlarning olimlari

tomonidan keng tadqiq etilgan. Axborot urushi asosan psixologik hujumlar, dezinformatsiya kampaniyalari, kiber hujumlar va media manipulyatsiyalari orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonlarning maqsadi raqibning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini izdan chiqarish va jamoat fikrini o'z foydasiga burgan holda ta'sir o'tkazishdan iboratdir.

Faylasuf O.M.Manjuyevaning ta'kidlashicha, "Axborot etikasi – bu zamonaviy jamiyat muammolarini hal qilish yo'llarini izlash, bunda madaniyatlararo muloqot ochiq maydonda bo'lishi kerak"[1,166-b]. Axborot urushini o'rganishdagi falsafiy yondashuvlarni keng tahlil qilish uchun ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqotlarini o'rgandik va shunday xulosaga keldik:

1. Har qanday axborot tizimi betartib va tartibsizlikdan boshqa hech narsa yo'q. Har qanday axborot tizimi xaos dunyosining elementidir.

2. Birorta ham axborot tizimida atrofdagi dunyoni idrok etish organlarining to'liq to'plami mavjud emas, bu esa atrofdagi tartibsizlikni to'liq "his qilish" imkonini beradi. Xaosni to'liq anglash undagi har qanday axborot tizimining parchalanishiga (o'limiga) olib keladi.

3. Axborot tizimi o'zining tuzilishini yangilash (elementlarning paydo bo'lishi va yoqolishi) orqali o'z atrofida mavjud bo'lgan cheklangan fazo-vaqt doirasida tartibni yaratadi.

4. Har bir tizim o'ziga xos tartibga ega bo'lib, bu tartib faqatgina uni tashkil etgan axborot tizimi orqali mavjud bo'ladi, chunki har qanday kognitiv axborot tizimining tarkibida tartib o'z aksini topadi.

5. Yaratilgan tartibni saqlash usullaridan biri tashqi muhitga tartib uchun xavfli savollar berishni ta'qiqlash maqsadida atrof-muhitni moslashtirishdir.

"Globallashuvning hozirgi bosqichi yer shari mintaqalarining o'zaro bog'liqligining kuchayishi va siyosiy hokimiyatning o'zgarishi bilan bog'liq. Bu jarayonlar ko'plab omillarga, xususan, axborot texnologiyalarining rivojlanishiga, umuminsoniy va mintaqaviy qadriyatlarning keng tarqalishiga, shuningdek, demokratik g'oyalarni ommalashtirishga bog'liq va ayrim jamiyatlarning, ayniqsa, Sovuq Urush tugaguniga qadar sotsialistik rejimlar hukmronlik qilgan jamiyatlarning ochiqlik darajasini oshirish"[5,82-b]. "Asosan, zamonaviy urushlarda aloqa vositalari va ommaviy axborot vositalarining mavjudligi va ta'siri eng muhim texnologiyalardan biriga aylangan", deb

ta'kidladi[5,84-b]. Muallif yana bir muhim muammoni qo'yadi: "Xususan, to'rtinchi avlod urushi konsepsiyasi mualliflari axborotning ahamiyati haqida yozganlar. Ularning fikricha, G'arb endi dunyoda eksklyuziv, hukmron mavqega ega bo'lmagani uchun urushning mohiyatini G'arb emas, balki, masalan, Islom yoki Osiyo harbiy standartlari belgilaydi va bu hududlarning texnologik jihatdan qoloqligini hisobga olsak, asosiy e'tibor mafkuraviy kurash, targ'ibot va kadrlar tayyorlashga qaratiladi" [5,100-b]. "Yangi avlod" urushlari tushunchalari nazariyotchilari axborot manbalarining tashqi ta'sirining ichki manbalardan ustun ekanligiga rozi emaslar, bu esa ma'lum bir ziddiyatni yuzaga keltiradi. Shunga qaramay, media sohasida islom yoki osiyo standartlarining hukmronligini xolisona kuzatish qiyin. Biroq, bir necha o'n yil davomida, tegishli mintaqalarning axborot madaniyatida mahalliy ma'lumot manbalarining ahamiyati global miqyosdagidan yuqori bo'ldi. Shu bilan birga, hozirgi davrda qarama-qarshi yo'nalishdagi jarayonlar ham rivojlanmoqda. Xususan, Osiyo va Sharq mamlakatlarida G'arb ommaviy axborot vositalariga nisbatan tanqidiy va salbiy munosabat kuchayib borayotgani kuzatilmoqda. Yevropa OAVlari tomonidan olib borilayotgan tajovuzkor axborot siyosati Sharq davlatlarining axborot makonini himoyalashga va tashqi ta'sirlardan o'zini izolyatsiya qilishga olib kelmoqda. Bu esa mahalliy axborot agentliklari va manbalariga nisbatan ishonchning oshishiga sabab bo'lmoqda.

Iqtisodiy qoloqlik haqidagi klassik qarash XX asr boshlarida asosli bo'lishi mumkin edi, ammo XXI asrda vaziyat tubdan o'zgardi. Jumladan, 2021-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, jahon iqtisodiyotining yetakchi beshta mamlakati orasida uchta davlat aynan Osiyo mintaqasiga tegishli ekanligi qayd etilmoqda. Bu esa iqtisodiy yetakchilikning G'arbdan Sharq tomon siljishi jarayonining aniq ifodasidir[6,75-b].

Shuningdek, A.D.Kumankovning fikricha, "Texnologiya va ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi yangiliklarni tarqatish jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi. Bundan tashqari, zo'ravonlik harakatlari haqidagi xabarlar ko'pchilik ommaviy axborot vositalari uchun juda talab qilinadigan material bo'lib qolmoqda. Bu holatlar terrorchilik harakatlarining jamoatchilikka batafsil yoritilmasa, mavjud bo'lishi mumkin bo'lmagan

terrorizmning shu qadar samarali va keng tarqalishiga imkon berdi”[5,129-b]. Muallifning bu faraziga qo‘shilmaslik mumkin emas, u terrorizmning to‘rtinchi to‘lqini haqidagi kitobida har qirq yilda bir terrorizm to‘lqini o‘rnini ikkinchisiga bo‘shatib, boshqa narsaga aylanib borishini ta’kidlaydi[7,419-424-bb]. Shuningdek, A.D.Kumankov urushlarni o‘rganishda “adolatli urush nazariyasiga” ham katta e’tibor beradi.

NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). G‘arbda so‘nggi yillarda bu borada eng samarali ish olib borayotgan Oksford universitetining faylasuflarining asarlarida ham qisman o‘rganilgan. M.Taddeoning “Axborot urushi: falsafiy qarash” maqolasida muallifning axborot urushi muammosiga qarashi, uning tabiati va muhiti tahlili keltirilgan. Faylasuf tinch aholi va harbiy xizmatchilarning ijtimoiy mavqei haqida qiziqarli konsepsiyani shakllantiradi:

“Yechilishi kerak bo‘lgan asosiy muammo – fuqarolik jamiyatiga qurolli kuchlar ustidan fuqarolik nazoratini qo‘llab-quvvatlash zarurligini tushuntirish. Bunday tuzilmani axborot urushi doirasida rivojlanayotgan dinamika yemirmoqda... Endi bu axloqiy va siyosiy nuqtayi nazardan maqbulmi, degan savol tug‘iladi”[8,12-b]. Shu o‘rinda aniqlik kiritish zarur: faylasufning aytishicha, har qanday urush davrida fuqarolik jamiyati va harbiylar o‘rtasida bo‘linish bo‘ladi, axborot urushi paytida esa axborot jabhasida tinch aholi va harbiylar o‘rtasidagi chegara xiralashadi. Bunday “eroziya” haqida muallif quyidagilarni yozadi: “Axborot urushi, jinoyatchilik va terrorizmning axborot faoliyati o‘rtasidagi farqqa e’tibor bering, chunki axborot urushi davlat qurolli kuchlari va terrorizm va jinoyatchilar ko‘rinishidagi axborot faolligi nodavlat institutlari bilan bog‘liqdir”[8,13-b].

G‘arbda, xususan, qadimgi yunon va qadimgi rim falsafasida esa ijtimoiy muammolar doirasi kengroq. Ularni o‘rganish usullari ham Sharq falsafasidagi usullardan ancha farq qiladi. Birinchidan, Demokritdan boshlab, qadimgi dunyoning deyarli barcha faylasuflari davlat, qonun, mehnat, boshqaruv, urush va tinchlik, mayllar, manfaatlar, hokimiyat, jamiyatning mulkiy tabaqalanishi muammolariga murojaat etganlar. Ikkinchidan, bu ijtimoiy-falsafiy muammolarni tadqiq etish jarayonida insonni jamiyatga bog‘lab o‘rganish ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, Demokrit shunday deb yozadi: “Umumiy muhtojlik ayrim insonning xususiy muhtojligidan og‘irroqdir. Zero umumiy muhtojlikda yordamga hech qanday umid qolmaydi”; “qonun odamlarning hayotini tartibga solishni xohlaydi, bunga u faqat odamlar o‘zlariga yaxshi bo‘lishini istagan taqdirda erishishi mumkin. Zero qonun o‘ziga bo‘ysunadigan kishilargagina ijobiy ta’sir ko‘rsatadi”; “Oqil odamga butun dunyo ochiq. Zero yaxshi qalb uchun butun dunyo vatandir”[9,105-b].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Axborot urushining yangi raqamli muhitda hodisa sifatida muhim xususiyatlari falsafiy tahlil qilinib, uning ontologik jihatdan rekursiv va avtopoetik (o‘z-o‘zini ko‘paytirish) xususiyatlarga ega bo‘lgan murakkab ijtimoiy tizim ekanligi ta’kidlandi. Axborot urushi vositalari va texnologiyalarining takomillashuvi mavjud manipulyativ ta’sirlarga qarshi samarali kurash vositalarini yaratishni, shuningdek, har bir jamiyatning madaniy va tarixiy an‘analariga mos axborot muhitini boshqarish va himoyalash strategiyalarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent.: O‘zbekiston NMIU, 2017. – B.125.
2. Расторгуев С.П. Информационная война. – Москва: Радио и связь, 1999. - С. 36.
3. Почепцов Г.Г. Информационные войны. Основы военно-коммуникативных исследований. – М.: Рефл-бук. 2000. - С. 10
4. Манжуева О.М. Феномен информационной безопасности: сущность и особенности. – // Дис. ... доктора филос. наук ФГБОУ ВПО Буряцкий государственный университет. 2015. - С. 179.
5. Куманков А.Д. Война в XXI веке. – М.: Изд. дом Высшей школы экономики. 2020. - С. 82.
6. Ткачев И. Из шестёрки в семерку МВФ обновил среднесрочные прогнозы по крупнейшим экономикам мира. – // РБК.
7. Rapoport D. The Fourth Wave: September 11 and the History of Terrorism // Current History. 2001. Vol. 100. No. 650. P. 419-424.
8. Taddeo M. Information warfare: a philosophical perspective // University of Hertfordshire, University of Oxford. 2012. -P. 12.
9. Демокрит // Всемирная энциклопедия. –М.: Современный литератор, 2001. – С.105.

DIDAKTIK TUSHUNCHALAR INTEGRATSIYASI VA ULARNING SINERGETIK SAMARASI BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH MISOLIDA

*Xujanova Lobar Raimkulovna, Guliston davlat universiteti tayanch
doktoranti*

INTEGRATION OF DIDACTIC CONCEPTS AND THEIR SYNERGISTIC EFFECT: THE CASE OF TRAINING FUTURE HISTORY TEACHERS

*Khuzhanova Lobar Raimkulovna, PhD student at Gulistan State
University*

ИНТЕГРАЦИЯ ДИДАКТИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ И ИХ СИНЕРГЕТИЧЕСКИЙ ЭФФЕКТ: НА ПРИМЕРЕ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ

*Хужанова Лобар Раимкуловна, соискатель ученой степени
доктора, Гулистанский государственный университет*



<https://orcid.org/0009-0002-7151-9283>

e-mail:

xujanovalobar9@gmail.com



Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida didaktik tushunchalar: didaktik tayyorgarlik, tizim, kompetensiya va madaniyat o‘rtasidagi integratsiya hamda ularning sinergetik samarasi tahlil qilingan. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, integrativ va sinergetik yondashuvlarga asoslanadi. Maqolada integratsion-didaktik modullarni ta‘lim jarayoniga keng joriy etish, raqamli resurslardan foydalanish va o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: didaktik tayyorgarlik, tizim, kompetensiya, integratsiya, sinergetik samarasi, tarix o‘qituvchilarini tayyorlash, ta‘lim jarayoni, raqamli resurslar, integrativ yondashuv, sinergetik yondashuv.

Annotation: This article analyzes the integration and synergistic effect among didactic concepts: didactic training, system, competence, and culture in the process of training future history teachers. The research methodology is based on systematic, integrative, and synergistic approaches. The article proposes implementing integration-didactic modules into the educational process, using digital resources, and improving teacher qualifications.

Keywords: didactic training, system, competence, integration, synergistic effect, training of history teachers, educational process, digital resources, integrative approach, synergistic approach.

Аннотация: В данной статье анализируется интеграция и синергетический эффект между дидактическими понятиями: дидактическая подготовка, система, компетенция и культура в процессе подготовки будущих учителей истории. Методология исследования основывается на системном, интегративном и синергетическом подходах. В статье разработаны предложения по широкому внедрению интеграционно-дидактических модулей в образовательный процесс, использованию цифровых ресурсов и повышению квалификации учителей.

Ключевые слова: дидактическая подготовка, система, компетенция, интеграция, синергетический эффект, подготовка учителей истории, образовательный процесс, цифровые ресурсы, интегративный подход, синергетический подход.

KIRISH. Zamonaviy ta‘lim tizimida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayoni nafaqat bilimlar majmuasini o‘zlashtirish, balki murakkab pedagogik-psixologik, metodik va didaktik kompetensiyalarni shakllantirishni talab qiladi. Bu jarayonning muvaffaqiyati didaktik

tushunchalar: didaktik tayyorgarlik, didaktik tizim, didaktik kompetensiya, didaktik madaniyat hamda ular o'rtasidagi o'zaro uzviy bog'liqlik va to'ldiruvchanlikdadir. Har bir tushuncha o'zining mazmun-mohiyati bilan boshqa komponentlarni taqozo etadi, ularning birgalikdagi faoliyati esa yagona kasbiy-pedagogik tizim sifatida samaradorlikka erishishga xizmat qiladi.

Integratsiya tushunchasi bu jarayonda markaziy metodologik yo'nalish bo'lib, u turli didaktik elementlarni yagona tizimga birlashtirishni anglatadi. Natijada yuzaga keladigan sinergetik samara, ya'ni elementlar alohida holda bera oladigan natijadan ko'ra yuqoriroq umumiy samaradorlik – bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayonining sifat ko'rsatkichlarini sezilarli oshiradi. Bu holat ta'limning uzluksizlik, tizimlilik va komplekslik tamoyillari bilan bevosita uyg'unlashadi. Mavzuning dolzarbligi, bir tomondan, "Uzluksiz ta'lim" konsepsiyasida belgilangan talablar, ikkinchi tomondan, Yangi O'zbekiston ta'lim islohotlarida ilgari surilgan innovatsion pedagogik yondashuvlar bilan izohlanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 28-apreldagi PF-73 son "Pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida pedagogik kadrlar tizimini yagona konseptual yondashuv asosida tubdan isloh qilish, oliy ta'lim dasturlarini xalqaro tajriba asosida transformatsiya qilish, ta'lim va ilm-fan va amaliyotning uzviyligini ta'minlash dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Shu bilan birga, uzluksiz ta'lim integratsiyasi asosida tarix fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish, ilmiy-pedagogik izlanishlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarda yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida raqamli pedagogika, metodik yangiliklar va xalqaro standartlarga mos kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligi ta'kidlangan. Bu esa didaktik tushunchalarning uzviy tizimini shakllantirish masalasi yanada dolzarbligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, didaktik tushunchalarning uzviy

tizim sifatida o'rganilishi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Masalan, ta'lim tizimini zamonaviylashtirish jarayonlarini hisobga olgan holda uning asosiy tamoyillari, g'oyalari, uslubiy yondashuvlari va ko'rsatmalari bo'yicha bir qator o'zbek olimlar, jumladan, U.Begimqulov, M.Mustafayeva, M.Mahmudov, R.Ishmuhammedov, L.Golish va S.A.Toshtemirova [4;6;5;6;10;12], uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash, fanlararo integratsiya masalalarida N.Abdullayeva, A.Jumanov[3;9], integratsion yondashuv asosida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish borasida D.Yakibova, R.Mavlonova, N.Raxmonqulova, O.Abduraxmonov [15;10;11;20;2] integratsiyalashning umumiy xususiyatlarini va dars loyihasiga oid mashg'ulotlar strukturasi hamda texnologiyalari bo'yicha I.R.Abduraimov, F.SH.Ilmurodova [1;8] kabi tadqiqotchilar ish olib borgan. Sinergetik nazariya nuqtayi nazaridan qaralganda, tizim elementlari o'zaro ta'sirida paydo bo'ladigan qo'shimcha samaralar ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar yaratish imkonini beradi G.Xaken[7].Ushbu nazariya asosida olib borilgan tadqiqotlar ta'limiy jarayonlarning o'z-o'zidan tashkil topish xususiyatlarini ochib beradi.

MUHOKAMA. Tadqiqot jarayonida bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlashda didaktik tushunchalarning integratsiyasi va ularning sinergetik samarasi uch asosiy yo'nalishda tahlil qilindi:

1. Analiz shuni ko'rsatdiki, tarix ta'limida qo'llaniladigan asosiy didaktik tushunchalar: maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl va natija o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisiz to'liq ishlamaydi.

2. Integratsiya nafaqat didaktik elementlarni yagona tizimga keltirish, balki tarix fanini boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarda kompleks dunyoqarash shakllanishiga xizmat qiladi[14].

3. Sinergetik samarani aniqlash. Sinergetik nazariyaga ko'ra [7], tizim elementlari o'zaro ta'sir qilganda yakka holda erishib bo'lmaydigan yangi sifat paydo bo'ladi.

NATIJARLAR. Tadqiqot jarayonida kuzatilishicha, didaktik tushunchalarning birgalikda ishlashi natijasida bo'lajak tarix o'qituvchilarda: tarixiy tafakkur chuqurlashuviga,

tanqidiy va tizimli fikrlash rivojlanishiga, metodik moslashuvchanlik ortishiga erishish mumkin. Bu esa yakuniy pedagogik samaradorlikni oshirganini ko'rsatadi[16]. Natijalar shuni ko'rsatdiki, didaktik tushunchalarni izolyatsiyada emas, balki integratsiyalashgan va sinergetik asosda qo'llash bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida yuqori natijalarga olib keladi. Bunda tizimli yondashuv o'zaro bog'liqlikni aniqlasa, integrativ yondashuv bir butun didaktik modelni yaratadi, sinergetik yondashuv esa kutilmagan ijobiy pedagogik samarani ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Sinergetik yondashuv asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni: bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini rivojlantiradi; mustaqil izlanish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantiradi; kasbiy kompetensiyalarni kompleks rivojlantirishga yordam beradi; o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalar va metodlarni qo'llash samaradorligini oshiradi. Mazkur natijalar integratsiya va sinergetik tamoyillar tarix o'qituvchilarini tayyorlashda shaxsning intellektual, metodik va axloqiy jihatdan rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduraimov I.R. Integrativ yondashuv asosida tarix fani o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2025. 53 b.
2. Abduraxmanov O.K. Fan. Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi. -T.: Fan va texnologiya. 2014. -23 b.
3. Абдуллаева Б.С. Фанлараро алоқадорликнинг методологик-дидактик асослари / пед. фанлари докт. дисс. –Т.: 2006. - 265 б.
4. Бегимқулов У.Ш. Олий педагогик таълим тизимига замонавий ахборот ва коммуникация технологияларини жорий этишнинг илмий-педагогик асослари // пед.фанлари доктори дисс. – Т.: ТДПУ, 2007. – 250 б.
5. Джураев Р.Х., Турғунов С.Т. Таълим менежменти. –Т.: “Voris Nashriyot”,2006-263 б.

6. Голиш Л.В. Проектирование и планирование педагогических технологий // серия “Современные технологии обучения”. Изд. 2-е. –Т.: ТГЭУ. 2010,- 51 с.
7. Haken, H. (1978) Synergetics: An Introduction. Springer, Berlin, New York. <http://dx.doi.org/10.1007/978-3-642-96469-5>.
8. Ilmurodova F.Sh. Klaster tizimida bo'lajak tarix o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi. Avtoref. ped.fan.bo'yicha fal.dok. – Chirchiq, 2025. – 50 b.
9. Жуманов А.А. Олий таълим муассасалари ўқув-тарбия жараёнида фанлар ичра ва фанлараро интеграциясини таъминлашнинг педагогик-психологик масалалари / Наманган давлат университети илмий ахборотномаси. 2019, № 12. –Б. 237-241.
10. Мавлонова Р.А. Бошланғич таълимнинг интеграциялашган педагогикаси. Methodik қўлланма.–Т.:Низомий номидаги Тошкент давлат университети, 2005.
11. Мавлонова Р. А., Рахмонкулова Н. Х. Бошланғич таълимни интеграциялашнинг педагогик технологияси. Тошкент, Илм зиё, 2009.
12. Тоштемирова С.А.Кластерли ёндашув асосида таълим сифатини ошириш // педагогика фанлари бўйича фалс.докт.дисс. Тошкент, 2021. – 198.
13. Тошпулатова М.И., Аъзамова Б.М. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг ўқувчилар математик тафаккурини ривожлантиришда интегрativ ёндошуви // НамДУ илмий ахб-маси. Наманган. 2019, № 12.- Б. 173.
14. А.В.Хуторской. Педагогическая инноватика: учеб.пособие.-Москва,2008.-256 с.
15. Якибова Д.Ш. Бошланғич таълимда интеграция – интеллектуал тараккиёт омили сифатида // Замонавий таълим. 2016, № 11. –Б. 73-78.
16. Шмелёва С.А. Модель профессиональной подготовки выпускника педагогического вуза//Вестник ТГПУ(TSPU Bulletin) 2012.5 (120), 16-22б.
17. Koshanova N.M., Aliyeva G.I.Q. Milliy tarbiyani rivojlantirish-globallashuv sharoitidagi zaruriyat sifatida //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 58-65.